

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
URGENCH INNOVATION UNIVERSITY**



**CONFERENCE PAPERS
OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND
HUMAN SCIENCES IN THE DEVELOPMENT
OF MODERN SCIENCE”**

Urgench — May 22-23, 2024

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
УРГЕНЧСКИЙ ИННОВАЦИОННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ



СБОРНИК СТАТЕЙ
МЕЖДУНАРОДНОГО НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ

“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК
В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ”

Ургенч – 22-23 мая, 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI**



**“ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIDA
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MASALALARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO‘PLAMI**

Urganch – 2024-yil 22-23-may

УДК – 001.1

ББК – 72.4

“Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. - 2024. ___bet

ISBN 978-5-7904-2848-7

[EN] Social and human sciences occupy an important place in society and human civilization. Social and human sciences, unlike other sciences, study the interaction of society and people, a systematic analysis of events occurring in their lives. In the modern age of information technology, the social and human sciences face important priority tasks and problems.

Scientific theses and articles in the collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic “Current problems of social and human sciences in the development of modern science” serve to convey the latest research and news in the field of social and human sciences to the broad scientific community.

[RU] Социальные и гуманитарные науки занимают важное место в обществе и человеческой цивилизации. Социальные и гуманитарные науки, в отличие от других наук, изучают взаимодействие общества и людей, системный анализ событий, происходящих в их жизни. В современный век информационных технологий перед социальными и гуманитарными науками стоят важные приоритетные задачи и проблемы.

Научные тезисы и статьи в сборнике материалов международной научно-практической конференции на тему «Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук в развитии современной науки» служат донесению новейших исследований и новостей в области социальных и гуманитарных наук широкому научному сообществу.

[UZ] Jamiyat va insoniyat sivilizatsiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim o‘rin egallaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar boshqa fanlardan farqli o‘laroq, jamiyat va insonlarning o‘zaro munosabati, ular hayotida yuz beradigan voqealarni tizimli tahlil qilishni o‘rganadi. Bugungi axborot-texnologiya asrida ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida ham muhim ustuvor vazifa va muammolar turmoqda.

“Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plamidagi ilmiy tezis va maqolalar ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida amalga oshirilgan so‘nggi tadqiqot va yangiliklarni keng ilmiy jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladi.

Tahrir hay’ati: dots.

Ch.Sabirova

U.Maxmudov

t.f.d., prof., Yu.M.Goncharov

Mas’ul muharir:

dots. A.Matnazarov

Taqrizchilar:

f.f.d., prof. S.Normamatov

t.f.n., dots. R.Abdirimov

p.f.d., prof. Q.Yo‘ldoshev

ISBN 978-5-7904-2848-7

©Оформление. Издательство Алтайского государственного университета, 2024

MUNDARIJA

KIRISH	13
TABRIK SO‘ZI.....	13
1ST SECTION. PROBLEMS OF LINGUISTICS AND LANGUAGE CULTURE ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И ЯЗЫКОВОЙ КУЛЬТУРЫ TILSHUNOSLIK VA TIL MADANIYATI MUAMMOLARI	15
MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA SEMANTIK OKKAZIONALIZMLARNING NUTQIY VOQELANISHI <i>M. Masharipov</i>	16
SIRDARYO GIDRONIMINING VARIANTLARI VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI XUSUSIDA <i>Uluqov Nosirjon, Hamidova Kamola</i>	19
ФОРМИРОВАНИЯ РАЗГОВОРНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ Абдикаримова Лобархон Султанбековна, Курбанов Ал-Бухорий Султанбекович	22
TIL MADANIYATI VA YOSHLAR MA‘NAVIYATI <i>Dildora Atajonova, Farangiz Muhammadamin</i>	26
LANGUAGE CULTURE AS A LINGUISTIC PHENOMENON <i>Dilorom Sabirova</i>	28
MADANIYATLARARO INTEGRASIYA: MILLIY QADRIYATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI <i>Ozodaxon Musayeva</i>	31
ЗАИМСТВОВАННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ В РЕЧИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ <i>Бабаджанов Х. , Рузметов С. А.</i>	35
INGLIZ VA O‘ZBEK MILLIY MEDIA DISKURSINING LINGVOMADANIY TAHLILI <i>Rajabboyeva Feruza Rajabboyevna, Bobojonova Munira G‘ayrat qizi</i>	38
MUROJAAT BIRLIGI SIFATIDA QO‘LLANA OLUVCHI TEONIMLAR <i>Raximova Norjongul Mahsud qizi</i>	40
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕКЛАМЫ КОНДИТЕРСКИХ ИЗДЕЛИЙ И ДЕТСКОГО ПИТАНИЯ <i>Лола Сапарбоева</i>	43
CATEGORY OF NUMBERS AND CONCEPT OF QUANTITY IN COMPUTER LINGUISTICS <i>Akhunova Mokhidil Abdurahim qizi</i>	46
USING PROJECT-BASED LEARNING APPROACH IN TEACHING ENGLISH METHODOLOGY <i>Axmedova Ugiljon Kuronboyevna, Soatboyeva Sevinchoy Madamin qizi</i>	49
URBANONIMLARNING SHAKLLANISHIGA SABAB BO‘LGAN ANTROPOSENTRIK OMILLAR <i>Murodbek Matnazarov</i>	51
О СБОРНИКЕ «ПОСЛОВИЦЫ РУССКОГО НАРОДА» В. И. ДАЛЯ <i>Исмаилова Феруза Исмаиловна</i>	55
СВОУ USULI VOSITASIDA O‘ZBEK TILI KORPUSI MATNLARINI RAQAMLASHTIRISH <i>Abdullayev Abdulla Quranbayevich</i>	58
2ND SECTION. INNOVATIVE APPROACHES TO LANGUAGE TEACHING ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ЯЗЫКА TIL O‘RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	67
ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДИАЛЕКТНОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА <i>Краева В.Ю.</i>	68
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИСТЕМЫ DISCORT ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЯХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ <i>Дробот Е.С.</i> ...	72
ОСОБЕННОСТИ СТАНОВЛЕНИЯ УНИВЕРСАЛЬНЫХ СУГГЕСТИВНЫХ ТЕКСТОВ <i>Коваленко Д.Д.</i>	75

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТ-КАРТ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ СТУДЕНТОВ ВУЗА <i>Прокопчук Е. А.</i>	80
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИДЕОКОНТЕНТА ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ АУДИРОВАНИЮ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ <i>Салтыкова М. В., Ельцова О. В.</i>	84
ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ САЙТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ <i>Смирнова М. Н., Новикова К. Н.</i>	87
ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК СПОСОБ АКТИВИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ <i>Скрябина Мария</i>	91
ENANTIOSEMIYA HODISASINI O'RGANISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH <i>Ro'zimboyev Sarvar Saparboyevich</i>	93
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'ZBEK TILI O'QITISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY TAMOIYILLARI <i>Shaxlo Naraliyeva</i>	97
INDIVIDUAL NEOLOGIZMLAR BADIY ASARDA TASVIRIY VOSITA SIFATIDA <i>Gulhida Ikromova</i>	100
BO'LAJAK CHET TIL O'QITUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH <i>Ruzmetova D. A</i>	103
INGLIZ TILINI SAMARALI O'RGANISHDA LOYIHA TEXNOLOGIYASINING O'RNI <i>Axmedova Ugiljon Kuronboyevna</i>	108
MEDIA MAKONDA AXBORAT KOMUNIKATSIYALARNING FAOLIYATI <i>Rajabbayeva Feruza Rajabbayevna</i>	109
SKIP-GRAM MODELINI O'ZBEK TILI MATNLARIGA QO'LLASH <i>Elov Botir Boltayevich, Abdullayev Abdulla Quranbayevich</i>	112
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТ-ПОДКАСТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ <i>Рацевев А. А. Возмищева Н. В.</i>	119
DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES AND SOCIAL STUDIES <i>Axmedova Ugiljon Kuronboyevna</i>	123
CHET TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI <i>Jumaniyozova Sohiba Shuhratovna</i>	125
CLASSROOM ACTIVITIES AIMED AT DEVELOPING SPEAKING SKILLS <i>Khallieva Qizilgul, Yusupova Dilnoza</i>	128
INNOVATIVE METHODS OF DEVELOPING WRITING SKILLS IN EFL CLASSES <i>Khodjaeva Shoira Bekbergenovna</i>	130
3RD SECTION. STUDYING THE HISTORY OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA: TRADITIONS AND NEWS. ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ТРАДИЦИИ И НОВОСТИ. MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXINI O'RGANISH: AN'ANALARI VA YANGILIKLARI	134
ПЕРЕСЕЛЕНЧЕСКОЕ ДЕЛО В ТУРКЕСТАНЕ В НАЧАЛЕ XX В. В РЕЦЕПЦИИ ИМПЕРСКОГО ЧИНОВНИЧЕСТВА (ПО МАТЕРИАЛАМ ВОСПОМИНАНИЙ А.А. ТАТИЩЕВА) <i>Чуркин М.К. Чуркина Н.И.</i>	135
КИНЕМАТОГРАФ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСТОРИКА В XXI ВЕКЕ: МЕТОД, ИНСТРУМЕНТ, ИНТЕРАКТИВ <i>Ермак Ю.Г.</i>	141
ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВЕДЕНИЯ О СРЕДНЕЙ АЗИИ ПО МАТЕРИАЛАМ РУССКИХ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ-ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ XIX ВЕКА. <i>Кулаков В.О.</i>	145

УЗБЕККО-КИТАЙСКИЙ ВЕКТОР В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ <i>Устюгова А.Г.</i>	148
ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В АФГАНИСТАНЕ В XX – НАЧАЛЕ XXI В. <i>Цыряпкина Ю.Н.</i>	155
XII ASR OXIRI – XIII ASR BOSHLARIDA XORAZMDA KECHGAN ETNOSIYOSIY JARAYONLAR MUAMMOSI <i>Masharipov Quadrat</i>	160
O‘ZBEKISTON QISHLOQLARINING JOYLASHISH GEOGRAFIK OMILLARI. <i>Sabirov Kurbanbay, Nurmetov Sardor Baxtiyorovich</i>	164
XORAZM VOHASI KARVON YO‘LLARI MARKAZIY OSIYO KOMMUNIKATSIYA TIZIMINING BIR BO‘LAGI SIFATIDA <i>Anyozov Ruslan Botirovich</i>	168
ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONA QISHLOQ QURILISHI ME‘MORCHILIGINING ASOSIY XUSUSIYATLARI HAQIDA <i>G‘ofurov Jasur Isaqovich</i>	171
QADIMGI XORAZMDA QULCHILIK MASALALARI. <i>Ishmuratov Madamin Jumabayevich</i>	174
XUSUSIY UY-JOYLAR VA XUSUSIY FIRMALARNING UY-JOY QURILISHDAGI O‘RNI VA ROLI <i>Nurbek Matyakubov</i>	178
O‘ZBEKISTONDA SAYLOV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TARIXI <i>Jumaniyazov Bekzod</i>	181
BRONZA DAVRIDA OROLBO‘YIDA HARBIIY ISHNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. <i>Satimov Bahodir</i>	184
МЕЖЭТНИЧЕСКОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ В ПОЛИЭТНИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ ВЯТСКОЙ ГУБЕРНИИ В ПОРЕФОРМЕННЫЙ ПЕРИОД <i>Барышников А. В.</i>	188
XORAZM VILOYATIGA KOREYSLARNING KO‘CHIRIB KELTIRILISHI VA VILOYATDA KOREYS DIASPORASINING SHAKLLANISHI (XX ASRNING 30-70-YILLARI). <i>Abdullaeva Nazokat Baxtiyorovna</i>	190
QAL‘AJIQ QAL‘ASINING O‘RGANILISH TARIXIGA DOIR TADQIQOTLAR XUSUSIDA <i>Abdirimov Razzorberdi, Maxmudov Umrbek</i>	194
ICHAN QAL‘A MUZEY-QO‘RIQXONASIDA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI NA‘MUNALARINING O‘ZIGA XOSLIGI <i>Atadjanova Dilnoza</i>	197
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTIQLOLINING DASTLABKI YILLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI QURILISHINING FALSAFIY ASOSLARI. <i>Iskandarova Zulfiya</i>	199
SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI VA XALIFA AN-NOSIR. <i>Akobirov Mirjalol Himmatovich</i>	202
O‘ZBEKISTON HUDUDIDA AHOLI TURAR JOYLARIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXIGA DOIR BA‘ZI MULOHAZALAR <i>Karimov Sarvarbek Otabayevich</i>	206
XORAZM SAVDO MARKAZLARINING MARKAZIY OSIYO SAVDO ALOQALARIDA TUTGAN O‘RNI <i>Anyozov Ruslan Botirovich</i>	209
MAMLAKATIMIZDA UY-JOY KOMMUNAL SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR <i>N. R. Matyakubov</i>	212
XALQIMIZ MADANIYATIDA DEHQONCHILIKDAGI URF-ODATLARGA DOIR BA‘ZI QARASHLAR <i>Matyakubova Sohiba</i>	215
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHIGA DOIR BA‘ZI MASALALAR <i>Nurullayeva Kuvonch</i>	217
“TEMUR TUZUKLARI”: ODILLIK VA ADOLAT, HUQUQ VA MA‘NAVIYAT NEGIZIDIR <i>Ollaberganova Sharofat, Boltaboyeva Zilola</i>	219

AMIR TEMUR FAOLIYATINING JAHON HAMJAMIYATI TOMONIDAN E'TIROF ETILISHI <i>Otabekova Mardonabonu</i>	220
MUSTAQILLIK YILLARIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI TARIXIY XOTIRASINING TIKLANISHI <i>Rahimboyeva Nodira Urazmatovna</i>	223
AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK: RAQSLARDA VATAN TARIXI Risolat Sapayeva.....	225
SOVET DAVRIDA QATAG'ON QURBONIGA AYLANGAN ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI FAOLIYATINING O'RGANILISHI <i>Xamdamova Yulduz Ravshanbek qizi</i>	228
JALOLIDDIN MANGUBERDI FAOLIYATI IBN AL-ASIR TALQINIDA <i>Bozorov Sodiqjon Normo'minovich</i>	230
QO'NG'IROT SO'FIYLARINING TAXTGA KELISHI MUAMMOSI <i>Ibragimova Gulzoda</i>	234
"AVESTO"DA BESHIK VA SUNNAT TO'YLARI BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR <i>Matkarimova Nilufar</i>	237
XIVA XONLARI OILASIDAN CHIQQAN SHOIRLARNING ILMIY MEROSI (XIX ASRNING BIRINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA) <i>Nazokat Ahmedova</i>	240
XORAZMSHOH – MA'MUNIYLAR SULOLASINING TAXTGA KELISHI MUAMMOLARI <i>Abdrimov Zarifboy</i>	244
XORAZM VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA AYOLLARINING FAN VA TA'LIM SOHALARGA JALB QILINISHI <i>Firuz Jumanazarovna Jumaniyazova</i>	248
IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDAGI YOSHLARNI FABRIKA ZAVOD TA'LIMIGA TORTILISHI <i>Allaberganov Sherali Yo'ldashevich</i>	250
XX ASRNING 40-80 –YILLARI OXIRLARIDA XORAZM VILOYATI XO'JALIGI TARAQQIYOTIDA KOREYSLAR DIASPORASINING O'RNI. <i>Abdullayeva Nazokat</i>	254
4TH SECTION. THE ROLE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF EASTERN THINKERS IN WORLD CIVILIZATION. РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ. SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSINING JAHON SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI.....	258
JADID BOBOLARIMIZNING ILMIY-MA'RIFIY QARASHLARI <i>Sayyora To'ychiyeva</i>	259
"AVLODLAR BERUNIYNI ILOHIY QOBILYATLI SIYMO" DEB BILGANLAR <i>Mirkomilov Baxtiyor</i>	262
ANTIK DAVR MANBALARIDA XORAZM DAVLATCHILIGI TARIXINING YORITILISHI <i>Ishmuratov Madamin</i>	264
JADID MA'RIFATPARVARI BOBOOXUN SALIMOV IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSINING MA'RIFIY AHAMIYATI <i>Sayyora Samandarova</i>	268
ULAR TANLANGAN INSONLAR YOXUD BIZ UCHUN ANDOZALAR <i>Panayeva O'g'iljon</i>	270
JAMIYATNI REPRODUKTIV SOG'LOMLASHTIRISHDA SHARQ ALLOMALARI G'OYALARINING FALSAFIY JIHATLARI. <i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i>	273
SHARQ MUTAFAKKIRLARI ADABIYOT HAQIDA <i>Raximova Altin</i>	275
MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARINING TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI <i>Nyutonova Xilola</i>	277
MUSTAQILLIK YILLARIDA YARATILGAN ESSELARDA MUTAFAKKIRLAR SIYMOSI <i>Kazakova Gulasal</i>	279
NAVOIY IJODIGA BADIY CHIZGILAR <i>Bekchanova Nazokat</i>	282
XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVRI ALLOMALARINING JAHON ILM-FAN RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI <i>Shomuratov Otojon</i>	284
5TH SECTION. MATERIAL AND SPIRITUAL CULTURE OF THE TURKIC-SPEAKING PEOPLES OF THE GREAT ALTAI AND CENTRAL ASIA. МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ НАРОДОВ	

ВЕЛИКОГО АЛТАЯ И СРЕДНЕЙ АЗИИ. BUYUK OLTUOY VA O'RTA OSIYO TURKIY TILLI XALQLARINING MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYATI.	287
СЮЖЕТ ОБ УКРОЩЕНИИ ДИКОГО КОНЯ КАК ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ МЕТАФОРА <i>А. И. Куляпин</i>	288
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КОРЕННЫХ МАЛОЧИСЛЕННЫХ НАРОДОВ МУЗЕЯМИ ЮЖНОЙ СИБИРИ И ИХ ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ КОЛЛЕКЦИИ <i>Огурцова О.С.</i>	292
ХОЛОДНОЕ ОРУЖИЕ ВОИНОВ ГОРНОГО АЛТАЯ ТЮРКСКОЙ ЭПОХИ В КОЛЛЕКЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЕЯ РЕСПУБЛИКИ АЛТАЙ ИМЕНИ А.В. АНОХИНА <i>Шаламов И.К.</i>	296
«QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR» ASARIDA MADANIY AN'ANA VA QADRIYATLAR TALQINI <i>Hulkar Hamroyeva</i>	300
TARIX VA TARAQQIYOT: “XORAZM LAZGI RAQSI” - MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MADANIY MEROSI <i>Gavhar Matyoqubova</i>	303
МЁД И МЁДОСОДЕРЖАЩИЕ ДЕСЕРТЫ В КУХНЕ СОВРЕМЕННЫХ ТУРКМЕН <i>Касимова Д. Г.</i>	306
MADANIY MEROS – MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO TOTUVLIK OMILI <i>Nozim Qosimov</i>	309
XORAZM VOHASI TURKMANLARI TO'Y MAROSIMLARI: AN'ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR <i>Egamberganova Matluba</i>	312
MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MA'NAVIY – MA'RIFIY MADANIYATI: O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARI <i>To'maris A'zam Butunbayeva</i>	315
MAMLAKATIMIZDA MILLIY SAN'AT, MODDIY VA NOMODDIY MEROSNI ASRAB AVAYLASH <i>Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich, Azimov Ulug'bek Abduxalilovich</i>	319
MARKAZIY OSIYO XALQLARI MADANIYATI: UMUMINSONIY QADRIYATLAR INTEGRASIYASI <i>Ikromjon Hoshimjonov</i>	321
ANTIK DAVR XORAZM MADANIY HAYOTIDAN TARIXIY LAVHALAR (QADIMGI XORAZM YOZUVI MISOLIDA) <i>Umrbek Maxmudov</i>	324
“DARYOSINI YO'QOTGAN QIRG'OQ” ROMANIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING BADIY TALQINI <i>Kishin Hajiboyev</i>	326
XORAZM “LAZGI” TURKUMINING BADIY – ESTETIK TAMOYILLARI <i>Dilnoza Artiqova</i>	328
XIV–XV ASRLARDA XALQARO SAVDO TIZIMIDA XORAZM <i>Jumaniyozov Doniyor</i>	331
TURK-O'ZBEK ADABIY ALOQALARI <i>Zaripova Shukurjon</i>	334
O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING TARIXIY - FALSAFIY, MA'NAVIY – MA'RIFIY TAMOYILLARI <i>Surayyo Ismatova, Durdona Ubaydullaeva</i>	338
XIVA KULOLCHILIK MAKTABI: AN'ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR <i>Allayarov Nuraddin</i> .	340
“LAZGI” TURKUMI: MADANIY – MA'NAVIY HODISA SIFATIDA <i>Dilnoza Mavlonova</i>	342
MARKAZIY OSIYO XALQLARINING OLTIN KO'PRIGI <i>Jamshidbek Mirsoliev, Sherzod Qodirov</i>	346
MAROSIMLARNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI (BESHIK TO'YI MAROSIMLARI MISOLIDA) <i>Otaboyeva Ro'za Qahramon qizi</i>	348
ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕМЕНТОВ ТРАДИЦИОННОГО КОСТЮМА АЛТАЙЦЕВ <i>Труевцева О.Н. Слесарева И.Н.</i>	350
ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ ПО ДАННЫМ ПЕРЕПИСИ 1897 Г. <i>В.П. Зиновьев</i>	357

РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИСКУРСА НАЦИОНАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX –НАЧАЛА XX ВВ. <i>Картбаева С. М.</i>	362
АДАПТАЦИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ РУССКИХ ПЕРЕСЕЛЕНЦЕВ ТАШКЕНТСКОГО УЕЗДА ТУРКЕСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX в. <i>Кушнарёва Е. М.</i>	367
ТАТАРЫ В СОВРЕМЕННОМ ЭТНОКУЛЬТУРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ ГРОДНЕНСКОГО РЕГИОНА БЕЛАРУСИ <i>Улейчик Н.Л.</i>	371
ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ СВЯЗИ РУССКИХ ПЕРЕСЕЛЕНЦЕВ И КОРЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX В. <i>Цыряпкина Ю.Н.</i>	377
6TH SECTION. THE ROLE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE APPROACHES IN THE PROCESS OF EDUCATION AND TRAINING РОЛЬ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В КАЧЕСТВЕ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING SIFATI VA SAMARADORLIGIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O'RNI.	382
GLOBALASHGAN DUNYO VA ADABIY TA'LIM <i>Qozoqboy Yo'ldosh</i>	383
ИНТЕГРАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ЭФФЕКТИВНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРАТЕГИЯ <i>Маркина П.В.</i>	387
GOOGLE CLASSROOM – СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО И СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ <i>Бэкман Елена Викторовна</i>	392
ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ЮРИДИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ <i>Габец Н.С. Корнева Е.С.</i>	395
МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ПРОЕКТЫ В ОБРАЗОВАНИИ: ПРАКТИКО-ОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ ДИЗАЙН <i>Павленко Н.В.</i>	399
BOSHLANG'ICH SINFLARDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH <i>Nishonova Kamola</i>	405
TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI <i>Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li</i>	407
BOSHLANG'ICH SINFLARDA HARF BIRIKMASI BILAN IFODALANADIGAN UNDOSHLAR <i>Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</i>	410
BO'LAJAK PEDAGOGOLARDA HUSNI XULQNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI <i>Ismoilova Shahzoda Nurali qizi</i>	412
O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING TARIXIY – FALSAFIY, MA'NAVIY – MA'RIFIY TAMOIYILLARI <i>Surayyo Ismatova, Durdona Ubaydullaeva</i>	415
OLIV TA'LIMDA TARIX FANI O'QITILISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK YONDOSHUV AHAMIYATI <i>Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li</i>	417
TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI <i>Ilxatova Bibinur Po'latjon qizi</i>	421
TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI <i>G'aniyeva Adiba Tursinboy qizi</i>	423
ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВОЙ ВИЗУАЛИЗАЦИИ <i>Данилов О.Е.</i>	425

О ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ, ФИЗИКИ И ИНФОРМАТИКИ В ГЛАЗОВСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ <i>Чиговская-Назарова Я.А.</i>	429
KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI OSHIRISH <i>Azizaxon Akromova Olimjon qizi</i>	434
TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI VA INNOVATSION MEKANIZMLARI <i>Axmedova Maysara Baxromovna</i>	437
TALABA YOSHLAR ONGIDA "AKADEMIK HALOLLIK" TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING O'RNI <i>AbdusharipovaFazilat Farxodbek qizi</i>	439
PEDAGOGIK JARAYONDA METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Adamboyeva Durdona Ibodulla qizi</i>	443
ZAMONAVIY YOSHLARNING INNOVATSION G'OYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK FANLARNING AMALIY AHAMIYATI <i>Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna</i>	445
MA'NAVIY-AXLOQIY TAMOYILLAR INTEGRASIYASI: MUTAFAKKIR A.NAVOIYNING KOMIL INSON TA'LIMOTI <i>Azizjon Kozimov</i>	447
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI <i>Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	450
TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARINI YARATISH <i>Razakova.R.S.</i>	454
HAMKORLIKDAGI PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASH <i>Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna</i>	456
ORFOGRAFIK O'YINLAR VA ULARDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IMLOVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA FOYDALANISH <i>Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna</i>	463
TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA "ELEKTRON O'QUV DARSLIKLARINI" YARATISH TEXNOLOGIYASI VA UNDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI <i>Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li</i>	466
OLIY TA'LIM SHAROITIDA MADANIY TURIZMNING TA'LIMIIY-TARBIYAVIY IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH <i>Sariyeva Etibor Matchanboyevna</i>	470
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHALASH USULIDAN FOYDALANISH SHARTLARI <i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi, Marupova Sarvinozxon Musojon qizi</i>	472
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Ch.A.Sabirova, M. G'.Qutlimuratova</i>	475
TARBIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEXNOLOGIYARDAN FOYDALANISH <i>Ch.A.Sabirova, M. G'.Qutlimuratova</i>	477
7TH SECTION. THEORY AND PRACTICE OF SANOGENIC EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL THINKING OF STUDENTS. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА САНОГЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ. TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURINI SANOGEN TARBIYALASH NAZARIYASI VA AMALIYOTI.	479
TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI SANOGEN TARBIYALASH MASALASI RIVOJLANGAN DAVATLAR MISOLIDA <i>Ch.A.Sabirova</i>	493
TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY VA AXLOQIY TAFAKKURNING ROLI VA O'RNI <i>N. Salaeva</i>	495
ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR <i>Sharipov Rustam Xusnitdinovich</i>	498

INDIVIDUAL NEOLOGIZMLAR BADIY ASARDA TASVIRIY VOSITA SIFATIDA <i>Gulhida Ikromova</i>	502
PSIXOLOGIK XIZMATDA MAQSADLI BOSHQARUV TUSHUNCHASI <i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	504
PSIXOLOGIYA FANIDA USTANOVKA MUAMMOSINI O'RGANILISHI <i>Ismoilova Asilpashsha Rojabovna</i>	507
5-6 SINFLARDA "TARBIYA" FANINI DASTURIY TA'LIM VOSTALARI ASOSIDA O'QITISH TAMOYILLARI <i>Ibrat Atakav Rajabboyevich</i>	510
TOHIR MALIKNING "SHAYTANAT" ROMANIDA QABOHAT VA EZGULIKNING BADIY TALQINI <i>Tillayev Bahodir Botirovich</i>	513
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH USULLARI <i>Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna</i>	516
TALABA SHAXSIDA KOGNITIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGOK XUSUSIYATLARI <i>Togonova Shoxida Alisher qizi</i>	519
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOYILASHUVINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI <i>Xoldarova Irodaxo Valijonovna</i>	522
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI <i>Gulhida Ikromova</i>	525
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHALASH USULIDAN FOYDALANISH SHARTLARI <i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi, Marupova Sarvinozxon Musojon qizi</i>	527
BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH. <i>Axmedova Umidaxon Yodgorjon qizi</i>	530
KASBIY ZO'RIQISH MUAMMOSINING TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI <i>Eshchanova Nasiba Matnazarovna</i>	532
TALABALARDA LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLAR TIZIMINI YARATISH ASOSLARI VA METODIKASI <i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	534
O'QUVCHILARNI ERTAKLAR YORDAMIDA KOMMUNIKATIV NUTQINI MEDIATEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>Bekberganova Nazokat Oybek qizi</i>	538
SHAXSIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISHINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI <i>Avezova Baxtigul Xolmurotovna</i>	539

KIRISH

XXI asr — axborot-texnologiya asri sifatida shiddat bilan sayyoramizga kirib keldi. Ushbu asrda insoniyat ko‘p yillar davomida qo‘lga kiritgan yutuqlarni endi qisqa fursatlarda egallash imkoni paydo bo‘ldi. Bu imkoniyatlarni tag zamiri bevosita ilm-fan yutuqlariga asoslanadi.

Bilamizki, ilm-fan — har qanday davlat va jamiyatni taraqqiy etishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Bugungi kunda davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o‘rinli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu boisdan ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Respublikamizning yangi Konstitutsiyasida davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishi bejiz qayd etilmagan. Tarixdan o‘zbek jamiyatida ilmga hurmat va ehtirom an‘ana sifatida saqlab kelingan. Buyuk bobokalonimiz Imom al-Buxoriy aytganlaridek, “dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”.

Mustaqilligimizni qo‘lga kiritganimizdan so‘ng xalqimiz ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Ayniqsa, xalqimizning sobiq sho‘rolar davrida yo‘q qilib yuborilgan ko‘p ming yillik tarixi, e‘tiqodi, qadriyati, milliy urf-odati va bayramlari qayta tiklandi. Barcha erkin fikrlash va ilmiy-texnikaviy ijod bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan ilm-fanni rivojlantirish masalasi siyosat darajasiga ko‘tarildi desak adashmagan bo‘lamiz. Buning natijasi o‘laroq mamlakatimizning ta‘lim va ilm-fan sohasida tub burilishlar kuzatildi. Xususan, davlatimizda ko‘plagan yangi ta‘lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar tashkil etildi, borlarining ham faoliyati kuchaytirilishiga qaratilgan islohotlar o‘tkazildi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti jamiyatida xususiy mulkchilikni rivojlantirish muhimligi sababli bugungi kunda ta‘lim sohasida mamlakatimizda xususiy mulkchilikni vujudga kelishi jamiyatda sog‘lom raqobatni kuchayishiga, bu esa o‘z navbatida taraqqiyot omili bo‘lib xizmat qilishiga olib keladi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz jahon maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor hisoblanadi. Ayniqsa, bu bugungi axborot-texnologiya asrida ta‘lim sohasidagi hamkorlik muhim sanaladi. Bugungi kunda Respublikamizning ta‘lim sohasidagi jahon miqyosidagi hamkorlik aloqalari kuchaytirildi. Har yili respublika va xalqaro miqyosida ilmiy jamoatchilik bilan birgalikda turli xil uchrashuv va anjumanlar o‘tkazib kelinmoqda. Unda ilm-fan rivoji va uning oldida turgan muammolarni yechish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

Mazkur anjuman materiallari to‘plamida ham yuqoridagi masalalarga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, unda mahalliy va xorijiy professor-o‘qituvchi va tadqiqotchilarning maqola va tezislari to‘plangan. Ushbu ilmiy maqolalarda tarix, tilshunoslik, pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim sohalariga doir qimmatli ilmiy mulohazalari keltirilgan. Unda anjuman mavzusiga doir so‘nggi ilmiy yangilik va tadqiqotlar xususida so‘z boradi.

TAHRIR HAY‘ATIDAN

TABRIK SO‘ZI

*Ishmuratov Madamin Jumabayevich
Urganch innovatsion universiteti rektori
f.f.n., dotsent*

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi ilm-fan yo‘nalishidagi xalqaro anjumanda barchangizni ahil va faol bo‘lib qatnashib turganingizni ko‘rganimdan benihoya xursandman. Mazkur anjumanda nafaqat yurtimizning ko‘zga ko‘ringan olimlari va professor-o‘qituvchilari, balki qator xorijiy mamlakatlarning taniqli olim-u professorlari ishtirok etishmoqda. O‘ylaymanki, mazkur anjumanda ilm-fan sohasida amalga oshirilgan so‘nggi yangiliklar va tadqiqotlar haqida ilmiy tajriba va fikrlar alamashiladi. Shuningdek, anjuman yosh tadqiqotchi olimlarning kelgusi ilmiy faoliyati uchun ham samarali bo‘ladi.

Barchamizga ma'lumki, Markaziy Osiyo inson sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududda qadimdan ilm-fan va madaniyat rivoj topgan. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to'qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Hozirda Vatanimiz olimlari uzoq o'tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o'rganib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Darhaqiqat bugungi axborot-texnologiya asrida barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va ta'lim sohasida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda dunyo hamjamiyatining turli xil sohalardagi aloqalari yaqin o'tmishga nisbatan tezkor va faol kechmoqda.

Xususan ilm-fan va ta'lim sohasidagi aloqalar ham bu jarayonlardan chetda qolmayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Hozirgi texnologiya asri uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil va xorijiy mamlakat vakillari bilan turli xil sohalarda aloqa o'rnatishimizni bir necha karra oshishiga imkoniyat yaratmoqda. Albatta, texnologiyaning bunday foydali tomonlaridan bugun unumli tarzda foydalanib ilm-fan va ta'lim sohasiga benazir hissa qo'shish har bir tadqiqotchi olimning vijdon ishi bo'lmog'i kerak.

Aziz anjuman ishtirokchilari!

So'zim so'nggida Sizlarga shunday sharaflari yo'lda sog'lik-omonlik, tinchlik-hotirjamlik, kelgusi ilmiy va pedagogik faoliyatlaringizda ulkan zafarlar tilab qolgan holda bugungi anjumanni ochiq deb e'lon qilaman va anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

1ST SECTION.
PROBLEMS OF LINGUISTICS AND LANGUAGE CULTURE
ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И ЯЗЫКОВОЙ КУЛЬТУРЫ
TILSHUNOSLIK VA TIL MADANIYATI MUAMMOLARI

M. Masharipov
Urganch innovatsion universiteti prorektori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xorazm viloyati Urganch shahri
mansurbekmasharipov5002@mail.ru

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA SEMANTIK OKKAZIONALIZMLARNING NUTQIY VOQELANISHI

Annotatsiya. Maqolada ma'rifatparvar jadid adibi Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik asarlari matnidagi semantik okkazional yasalmalarning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, uslubiy qo'llanishi hamda vazifalari haqida nazariy fikrlar bildirilgan. Bunday leksik birliklarning aniq misollar asosidagi lingvistik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar. leksik-semantik voqelanish, uzual ma'no, okkazional ma'no, kontekstual ma'no, individual ma'no, leksik qo'llash, barqarorlashganlik, ijtimoiy shartlanganlik, semantik tarkib, semantik qurshov.

Аннотация. В статье высказаны теоретические мысли о сущности, причинах создания, типах, стилистическом использовании и функциях семантических окказиональных созданий в тексте публицистических работ просветительского деятеля-джадида Махмудхожи Бехбуди. Проведен лингвистический анализ на основе конкретных примеров таких лексических единиц.

Ключевые слова. Лексико-семантическое изменение, обычное значение, окказиональное значение, контекстуальное значение, индивидуальное значение, лексическое использование, устойчивость, социально обусловленность, семантический состав, семантическая оболочка.

Abstract. The article enlightens theoretical ideas about the essence of semantic occasional constructions, the reasons for creation, types and methodological application and functions in the journalistic works of the enlightened jadid Mahmudhoja Behbudi. Linguistic analysis of such lexical units based on concrete examples is analyzed.

Key words. Lexical- semantic realization, common meaning, occasional meaning, contextual meaning, individual meaning, lexical application, stabilization, social conditioning, semantic content, semantic environment

Lisoniy sathda til birliklarining nutqiy qo'llanish tizimi ularning umumiy, barqaror tizimiga aynan mos kelmasligi ham mumkin. Bu, o'z-o'zidan, til birliklarining leksik-semantik voqelanishi, morfologik tuzilishining nutqda qo'llanishidagi o'zgachalikni keltirib chiqaradi. Nutqiy so'z yasalishida umumiy qoida va andozalardan chekinish holatlari ham kuzatiladi va buning natijasida g'ayriodatiy yasalmalar yuzaga keladi.

Uzual ma'no (lot. usus – odat, qoida). So'zning lug'aviy sifatida bor, umum tomonidan qabul qilingan, umum qo'llanishdagi ma'no. Mas., *bosh* so'zining "tananing bo'yindan yuqori qismi", "boshliq", "rahbar" ma'nolari; *katta* so'zining "hajm, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan", "yosh jihatdan ortiq" ma'nolari uzual ma'nolardir. Qiyos. Okkazional ma'no [2].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da okkazionalizm termini "umumiste'molga muvofiq kelmaydigan, individual tarzda ma'noga ega bo'lgan til birligi" deb izohlangan (O'TIL, III, 103-bet). Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, so'zning uzual ma'nosi tilda barqarorlashgan, ijtimoiy shartlanganlik xususiyatlariga ega bo'ladi va shu asosda lisoniy ma'no sifatida qaralishi lozim. Shu o'rinda har qanday badiiy asar mazmuniy maydonini shakllantirishda ishtirok etishi, biroq uzual ma'nodan alohida tarzda mavjudlik kasb etuvchi okkazional ma'no tushunchasi bilan bog'liq atamalar semantik tabiati va tarkibini yoritish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular ham publitsistik asarlar tilining lug'aviy xususiyatini hosil qiluvchi muhim nutqiy

unsurlar hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar va lug'atlarda bu haqda quyidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan: **Okkazionalizm**. Mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm [2].

Okkazional ma'no (lotincha tasodifiy) – Q. Muvaqqat ma'no [2].

Muvaqqat ma'no. So'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan ma'no: *Fan, san'atning gullari butun, to'plangandi suhbat uchun* (Oybek). *Kun haliyam issiq bo'lsa-da, har holda shabada yo'rg'alardi* (M. Musayev) [2].

M. Mirtojiev ushbu tushunchani shunday ta'riflaydi: “Okkazional ma'noli so'z doimo nutq tarkibida namoyon etuvchi so'z yoki so'zlar qurshovida bo'ladi. Chunki busiz okkazional ma'no hayot emas” [1]. Olim okkazional va uzual ma'no deb atalgan ushbu ikki tushunchaning farqini aniq ko'rsatadi: “Uzual ma'no okkazional ma'nodan farqli holda, faqat bir so'zning semantik tarkibiga kiradi. Masalan, “suyukli bola” okkazional ma'nosining ijobiy emotsional komponenti bilan qo'zichoq, bo'taloq, toychoq, shunqor, do'mboq kabi so'zlarda ifodalash mumkin. Ruslarda *parasenok* so'zida ham ifodalanadi. Uzual ma'noni bir so'z ifodalaydi, ya'ni uni yana ikkinchi bir so'zda ifodalab bo'lmaydi. Okkazional ma'no mohiyati bilan nutq hodisasi bo'lib, o'ziga xos lug'aviy grammatik qurshovda namoyon bo'ladi, umumlisoniy mohiyat kasb etmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda bunday ma'no “okkazional ma'no”, “nutqiy ma'no”, “kontekstual ma'no”, “individual ma'no” kabi atamalar bilan nomlanib kelinadi. So'zning bunday ma'no bilan qo'llanishi esa “leksik qo'llash” deb yuritiladi [3].

O'zbek tilshunosligida okkazional leksikaning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, lug'aviy va morfologik okkazional so'zlar, ularning uslubiy vazifalari qoniqarli yoritilgan [4].

Biroq badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar matnidagi okkazional yasalishlarni o'rganish, til va nutq hodisalarini farqlash asosida ularning badiiy-estetik vazifalarini ko'rsatish hamda muallifning so'z yasalishidagi shaxsiy ijodiy yondashuvlarini tekshirish doimo ahamiyatli sanaladi. Mana shunday manbalar qatoriga Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik asarlarini ham qo'shish mumkin. Adibning publitsistik asarlari matni yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli okkazional yasalmalar mavjudligini ko'rsatdi. *Bulardan biri – semantik okkazionalizmlar*. Bunday okkazional qo'llanish bir so'zning ma'no o'zgarishi sifatida yuzaga keladi. Bunda nutq jarayonida okkazional ma'no biror so'zga yuklanadi va shu so'z okkazional ma'noni namoyon etuvchi so'zlar qurshovida beriladi. Uni qurshab turgan, ya'ni u bilan bir birikma tarkibida joylashgan so'zlar shu okkazional ma'noga asoslangan so'zning namoyon etuvchilari hisoblanadi. Okkazional ma'no bilan voqelangan so'z boshqa so'z bilan birikmaga kirishmaydi, faqat o'z o'rnida va o'z nutqiy mavqeyidagina okkazional sifatida voqelangani.

Adib o'zbek tilida avvaldan mavjud ba'zi so'zlarni favqulodda, yangi ma'nolarda qo'llaydi va natijada, ma'noviy okkazional qo'llash yuzaga keladi:

Tesha. Ma'lumki, “tesha” so'zi oddiy uy-ro'zg'or buyumi, mehnat qurolini anglatadi. Bu so'zni Mahmudxo'ja Behbudiy maktab, maorif sohasida yozilgan “Ilmning foydasi” nomli maqolasida ilmning, ilm egallash quroli sifatida so'zning semantikasiga qo'shimcha ma'no yuklaydi: “Har bir birodarimiz ilm taomul etsun, ilm har bir zamon kasbu maishat *teshasidur*” [5]. Demak, bu o'rinda “ilm” “teshaga” qiyos qilinmoqda va “ilm ma'rifatning qurolidir (teshasi)” degan fikr yuzaga kelmoqda.

Unvon. Odatda “biror ish faoliyat sohasida vazifa darajasini ko'rsatuvchi faxriy nom” ma'nosida ishlatiluvchi bu so'zni Mahmudxo'ja Behbudiy “noyob asar” ma'nosida qo'llaydi: “Qo'lumni tokchaya uzottim, tizilmish kitoblardan biri keldi. Ko'rdimki, “Tuhfat ul-ahror” dir. Ochdim. Surxi (qizil siyohi) ila forscha shu mazmunli bir *unvon* yozilubdur” [6].

Hosil. Bu ot leksema o'z ma'nosida “natija, oqibat; yakun, samara; mazmun, mohiyat” (O'TIL, V, 552-bet.) ma'nosida qo'llanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy bir o'rinda bu so'zni “pul”, “mablag'” ma'nosida qo'llagan va unga favqulodda ma'no yuklagan: “Muhtaram samarqandiy ko'ngulli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana “Padarkush”ni Samarqandda yettinchi mayda sahnag'a qo'yub, *hosilini* maktablarga sarf uchun berdilar” [6].

Maosh. Ushbu so'z “turmush, tirikchilik uchun zarur narsalar va ish haqi” ma'nosini anglatadi. (O'TIL, II, 541-bet). Mahmudxo'ja Behbudiy “Ochlik balosi” nomli maqolasida *maosh*

soʻzini “neʻmat”, “nasiba” maʼnosida qoʻllagan hamda “maosh oshasun” birikmasida u favqulodda ishlatish holatini yuzaga keltirgan: “Ey musulmon birodarlar, lozimki, har kim oʻz kasbidan **maosh oshasun**, oʻzgin foydalanmogʻni tashasun” [5].

Yuqoridagi misollarda semantik okkazonalizmlar u yoki bu nutq vaziyatining asosini ifodalamoqda va matnda shu asosga urgʻu berilmoqda. Matn tarkibidagi okkazonal maʼno lugʻatdagi mavjud soʻzlar orqali ifodalansa, publitsistning koʻzda tutgan maqsadi aniq ifodalanmay qolishi ham mumkin. Shuning uchun tasvir obyekti asosini aniq koʻrsatish uchun muallif favqulodda boshqa soʻz tanlash yoʻlidan borgan va qoʻllangan soʻzlarning denotativ maʼnosiga muallif fikrini ifodalashga xizmat qiladigan yangi maʼno yuklangan. Bu leksemalarning okkazonal maʼnoda qoʻllanishining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning muayyan matn bilan mustahkam bogʻliqligi hisoblanadi.

Publitsistning mahorati til imkoniyatlardan shakl va mazmun mutanosibligini taʼminlagan holda oʻz lisoniy intensiyalarini matnda namoyon qilishda foydalanishi bilan belgilanadi. Mahmudxoʻja Behbudiy publitsist sifatida soʻzlarning bu kabi leksik-semantik voqelanishidan ustalik bilan foydalana olgan adib sanaladi. U maqolalari matnida XX asr boshlari davr adabiy tili soʻz boyligidagi rang-barang shakl va maʼno munosabatdagi leksemalarni oʻz oʻrnida qoʻllab, publitsistik uslubda ularni yangi estetik tushunchalarni ochishga xizmat qildirgan.

Mahmudxoʻja Behbudiy publitsistikasining asosiy mavzu va motivini yurtni mustamlakachilardan ozod koʻrish, ilm va maʼrifat orqali jamiyatni tanazzuldan olib chiqish, ozod yurtda fozil fuqaroni kamol toptirishga daʼvat etish gʻoyalari tashkil etar ekan, publitsistik asarlarining lugʻaviy tarkibi, badiiy-funksional xususiyatlari ham mana shu maqsad sari yoʻnaltirilganligi koʻzga tashlanadi. Muallif omma bilan muloqotda publitsistik uslubga xos boʻlgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, oʻquvchini bunga ishontirish, his-tuygʻulariga taʼsir etish, tashviqot-targʻibot usullaridan hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning hissiy-taʼsiriy vositalaridan oʻrinli foydalangan. Publitsistika adibning maqsad va intilishlarini amalga oshirishda asosiy vosita boʻlib xizmat qilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida oʻzbek publitsistik uslubiga xos lisoniy meʼyorlarning qaror topishida Mahmudxoʻja Behbudiy publitsistikasining oʻz oʻrni bor. *Okkazonalizmlar soʻz yasalihi qonuniyatiga asoslanmagan, uzual qonun-qoidalarga nomuvofiq gʻayriodatiy yasalmalardir. Behbudiy publitsistikasida qoʻllangan okkazonal yasalmalar shunday nomuvofiqlik zahirida yuzaga kelgan. Ularni muallifning soʻz ijodkorligi, publitsistik matnda funksional-stilistik vositalar sifatida qoʻllanishidagi oʻziga xoslik tamoyili nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiqdir.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 269 б.
2. А. Ҳожиев. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – 164 б.
3. Ўзбек тили практикуми. 1-қисм. // Масъул муҳаррир: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005. – 96 б.
4. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди. . . дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б; Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди. . . дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 512 б.
6. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 312 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. I-V жилдлар. – Тошкент: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmий нашриёти, 2020.

Uluqov Nosirjon,
NamDU o'zbek tilshunosligi kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori
Hamidova Kamola,
QDPI boshlang'ich ta'lim kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SIRDARYO GIDRONIMINING VARIANTLARI VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada Sirdaryo gidronimining tarixiy, fonetik, leksik, grafik, uslubiy, qisqarma variantlari va ularning uslubiy-badiiy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *gidronim, variantdorlik, variant, tarixiy variant, fonetik variant, leksik variant, grafik variant, qisqartma variant.*

Аннотация. В статье раскрыты исторические, фонетические, лексические, графические, стилистические, сокращенные варианты и их стилистико-художественные особенности гидронима Сырдарья.

Ключевые слова: *гидроним, вариантность, вариант, исторический вариант, фонетический вариант, лексический вариант, графический вариант, сокращенный вариант.*

Annotation. The article discusses the historical, phonetic, lexical, graphic, stylistic, abbreviated variants of the Sirdarya hydronym and their stylistic and artistic features.

Key words: *hydronym, variability, variant, historical variant, phonetic variant, lexical variant, graphic variant, abbreviated variant.*

Tilning apellyativ sathidagi kabi onomastik sathida ham variantdorlik kuzatiladi. Aynan bir suv obyektini va inshootlarining turli shakllarga ega bo'lishi variantdorlikdir. Gidronimlarning variantlari sheva va lahjalar, adabiy til va lahjalar doirasida uchraydi.

Gidronimlarda variantlar hosil bo'lish usuli va lisoniy materialiga ko'ra: tarixiy-etimologik variantlar, fonetik variantlar, morfologik variantlar, grafik-orfografik variantlarga bo'linadi. Biz Sirdaryo gidronimining variantlari va ularning badiiy nutqdagi uslubiy xususiyatlari xususida fikr yuritmoqchimiz.

Sirdaryo – qadimiy va tarixiy daryo nomi, ya'ni gidronim. Tarixiy, ilmiy va badiiy manbalarda *Sirdaryo* gidronimining turli fonetik, leksik va uslubiy variantlari kuzatiladi. Gidronim dastlab Rim tarixchisi Pliniy asarida (milodiy I asr) “Silis” shaklida uchraydi [1]. E. Safoeva va I. Shoymardonovlarning ko'rsatishicha, *Silis* “sarmat”, “sar”, “sir” so'zlari bilan asosdosh bo'lib, hammasi shu daryo bo'ylarida istiqomat qilgan “sart” nomli qabilaga aloqador. *Sir* va *Silis* nomlari bir-biriga monandir. *Sir* – Sirdaryoning qadimiy sak tilidagi nomi. Bunday fikr P. Baratov ishlarida ham kuzatiladi. U: “Silis” yoki “Sir” so'zlari daryo qirg'oqlarida yashagan qabila nomidan olingan bo'lsa kerak degan taxminlar bor”, – deb yozadi. [2] Demak, *Silis*, *Sir* gidronimning fonetik variantlaridir.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda *sir* etnonimi uchraydi: “*Qapgan xoqon Turk sir xalqi yerida urug' ham, xalq ham, kishi ham [yerga] ega ham bo'lmas edi*”. [3] Bu dalillar *Sir* etnonim ekanligini, asrlar davomida daryo nomiga aylanganligini va hozirga qadar yetib kelganligini ko'rsatadi.

Sirdaryo gidronimi qadimgi yunon tarixshunoslari asarlarida, G'arbiy Yevropa manbalarida *Yaxartes* (*Yaksart*) variantida kuzatiladi. Pliniyning ma'lumotiga ko'ra, daryoni baqtriyaliklar *Laksat*, skiflar *Silyas* deb atashgan. *Laksat* aynan *Yaksartning* fonetik variantidir.

Klavdiy Ptolemeyning “Geografiyadan qo‘llanma” asarida yozishicha, *Yaksart* daryosi sohillari yaqinida *yaksart* degan katta qabila yashagan [4]. Shuningdek, Bihistun kitoblarida Sirdaryo ortidagi qabilalar saklar deb atalgan. Gerodot “Tarix” asarida “Forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar”, – deb yozadi [5]. Bizningcha, yaksartlar ana shu saklarning bir urug‘i.

Demak, *Yaksart* etnonimning tranonimizatsiya asosida gidronimga (daryo nomiga) o‘tishi asosida shakllangan: *yaksart* > *Yaksart*.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda *Sirdaryo* gidronimining *Yinchuo‘guz*, ya‘ni *Injuo‘guz* variantlari kuzatiladi: “*Injuo‘guzni kechib, Tinsi o‘gli yotadigan Bangligak tog‘ini. . .*”. [3] S. G. Klyashtorniy *Yinchuo‘guz* Sirdaryoning o‘rta oqimi, lug‘aviy ma‘nosi “inju (marvarid) daryo” deb ko‘rsatadi. [6]

Yinchu hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi inju so‘zining tarixiy fonetik varianti bo‘lib, “marvarid, gavhar” ma‘nolarida qo‘llanadi. *O‘guz* so‘zi turkiycha bo‘lib, “daryo” ma‘nosini anglatadi.

S. G. Klyashtorniyning ko‘rsatishicha, daryoning xitoycha nomi “Chjen chu je” ham aynan ana shu *Yinchuo‘guz*ning tarjimasi. Sug‘dchasi *Yaxshart, Yaksart Yaxsha arta* (asl marvarid)dir. [6]

Islomiyat davridagi arab va fors manbalarida, Beruniyning “Mas‘ud qonuni”, muallifi noma‘lum “Hudud ul-olam” asarlarida gidronim *Xashart* shaklida uchraydi. Bizningcha, *Yaksart* – daryoning “asl marvarid” ma‘nosidagi *yaksart* etnonimi asosida shakllangan qadimiy nomi, *Yaxshart, Xashart* esa mazkur nomning fonetik variantlari. *Yinchu* (fonetik varianti *Inju*) gidronimning turkiy, *Chjenchuje* esa xitoycha muqobilidir. *Yaxshart, Chjenchuje, Yinchu* nomlari daryoni mohiyatan gavharga qiyoslash motivatsiyasi asosida yuzaga kelgan gidronimning fonetik variantlaridir.

Arablar esa daryoni *Sayhun* deb ataganlar. Xususan, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur *Sayhun suyi, Sayhun* gidronimlarini qo‘llaganlar:

Oqib haddi sharqiyda Sayhun suyi,

Borib haddi garbiyda Jayhun suyi [9]

Yoki: “*Yetti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimol jonibida*”. [10] Shuningdek, XVI asr oxirlarida, aniqrog‘i, 1596 yillarda yaratilgan Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida ham *Sayhun* varianti kuzatiladi [11].

Ayrim manbalarda *Jayhun* (Amudaryo) nomi bilan Sirdaryoning *Sayhun* nomi “G‘arbiy Osiyodagi Jayxon va Sayxon (asli Jayhon, Sayhon – ta‘kid bizniki)ga nisbat qilib ko‘yilgan” – degan izoh ham kuzatiladi [12]. *Siyhon* yoki *Sayhon* – Kichik Osiyoning janubi-sharqiy qismidagi daryo [13].

Sirdaryoning arablar kelganidan keyin *Sayhun* deb atala boshlaganligi e‘tiborga olinsa, bu fikrda ancha asos bor. Toponimiyada bir joy nomining ikkinchi joy nomiga ko‘chishi qadimiy an‘ana.

Manbalarda *Sayhun* gidronimining *Sayxun* imloviy varianti aralash uchraydi. Bizningcha, *Sayhun* arabcha bo‘lib, arab yozuvida *Sayhun* variantida yozilgan ekan, o‘zbek imlosining shakliy tamoyili (grafik-etimologik printsipli)ga asosan *Sayhun* tarzida yozilishi lozim.

Sirdaryo qaysi yerdan oqib o‘tishiga qarab, *Obi Fargona* (yoki Farg‘ona daryosi), *O‘zgan daryosi, Obi Xo‘jand* (Xo‘jand suvi), *Nahr ash-Shosh* (Shosh daryosi), *Banokat daryosi* deb ham atalgan [1]. Bu nomlar gidronimning leksik variantlaridir.

Tahlillardan anglashiladiki, daryo tarixda o‘nlab nomlar bilan atalgan. Jumladan, yuqori va o‘rta oqimlarida *Yaksart*, quyi oqimida *Sir* (*Silis*), arablar tomonidan *Sayhun* kabi. Hozirda bu nomlardan *Sirdaryo* varianti faol qo‘llanadi. *Sirdaryo* gidronimi morfemik jihatdan *sir* va *daryo* ma‘noli qismlaridan tarkib topgan bo‘lib, *sir* etnonimi asosida shakllangan. *Sir* so‘zini etnonim deb qaraydigan bo‘lsak, gidronimning etimoni “*sirlar daryosi*” otlilik birikmasi. Birikma davrlar davomida sayqallanib, qo‘shma so‘zga, undan qo‘shma tarkibli nomga, ya‘ni gidronimga aylangan: *Sirlarning daryosi* > *Sirlar daryosi* > *Sir daryo* > *Sirdaryo*.

Hozirgi o‘zbek she‘riy nutqida ham gidronimning *Sir* yoki *Sayhun* variantlari kuzatiladi. Ko‘rinadiki, toponim, jumladan gidronimlarning tarixiy va zamonaviy fonetik, leksik, uslubiy

variantlari tahlili ularning etimologiyasi, etimoni, nomlanish motivlari, xususan, lisoniy takomili haqida yorqin xulosalar beradi.

Hozirgi o'zbek she'riy nutqida *Sirdaryo* gidronimining *Sir* yoki *Sayhun*, *Amudaryo* gidronimining *Amu* yoki *Jayhun* fonetik, leksik variantlarida qo'llanishi kuzatiladi:

Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.

(H. Olimjon. "O'zbekiston")

Viqoring Tangritog', Pomir, qo'shig'ing Sir, Amudandir,
Sharofbaxshlikda yuz dashting tuman parvona tuproqsan.

(Yoqub Darmon, "O'zbek tuprog'i", 97-b.)

Farg'ona vodiysi Sirning bo'yida,
Yashillik haqida kuyladi doston.
Kaftingda ko'klamni keltirding, kulib,
Bag'rini ko'klamga ochdi Qayroqqum.

(Hamroqul Rizo. Sirdaryo)

Tobora madori qurir yordamga
Cho'zilgan tog' qo'li – Amu va Sirning,
Yukin ko'tarolmay million tonnalab
Oq oltin berguvchi bu xoksor yerning.

(Dilshod Rajab. 80-yillar. Kuz)

Amu katta daryo, Sir katta daryo,
Erkin daryo edi, hur katta daryo,
Ming irmoqqa ko'chgan bir katta Daryo –
O'zbekni quritar mahalliychilik!

(Muhammad Yusuf. Mahalliychilik)

Chanqoq qalblarga yetib, orom baxsh etsa agar.
Ko'zlarga Sir-u Amudek, azim daryo ko'rinsin.

(Baxtiyorhoji Bahriddinov. Ko'zga ziyo ko'rinsin)

Shuningdek, Muhammad Yusuf mazkur gidronimlarni boshqa manbalarda uchramaydigan, Sirdaryoga monand tuzilish modelida, ya'ni quyidagi leksik variantlarda qo'llaydi:

Zuhro yutdi zahri qon,
Sayxundayo,
Jayxundayo
Oqdi bo'lub nahri qon.

(M. Yusuf. "Ey, dil. . .", 2-, 8-b.)

D. Xudoyberganova, D. Andaniyazovalar qayd etganlaridek, "O'zbek she'riyatida tinimsiz yosh to'kayotgan oshiqning ikki ko'zini, shuningdek, yorning ikki o'rim sochini Sayhun va Jayhunga o'xshatish an'anaga aylangan. Bunda mazkur poetonimlar ham yashirin o'xshatish, ham mubolag'a san'ati yuzaga klishida lingvopoetik vosita bo'lgan" [14]. Masalan,

Nigorim chashmi ikkidur:
biri yag'mo, biri jodu,
Increased engagement in the classroom, improved critical thinking, better knowledge and more opportunities to explore the educational technology are one of the key benefits of project based learning.

Student plays an active role in learning process to take action to complete the real-world context activities. According to a meta analysis of several studies, this creates better classroom environment in which students feel engaged.

According to 2011 studies, it shows that students who complete project based learning exercises, usually show better performances in range of subjects from math to second-language learning compared to those with traditional instruction.

From the research in 2010, it is obvious that completing project-generated product increases students' problem tackling abilities, as they exercise this ability during learning, applying them in real-life cases. [5]

While PBL offers wide range of advantages, it is important to acknowledge some of the potential disadvantages project based learning has. One of the main disadvantages would be complexity in assessment, as teachers should consider several facts while assessing, like collaboration, process skills, communication, content knowledge, and problem-solving, unlike traditional assessment which focuses mostly on knowledge and standardized tests.

Preparedness of teachers might be another downside, as it can be a huge transition for educators, who shift from just imparting knowledge to guides. Some teachers may require additional training and support to design, implement and assess PBL effectively.

Some critics argue that project-based learning does not cover all the necessary topics and content within the given curriculum, because PBL emphasizes depth understanding and real-life applications. So, content coverage is considered as one of the disadvantages as well. [2]

In the future, project-based learning is likely to integrate emerging technologies like virtual reality and online platforms to engage student globally, regardless their geographical location. Students will get the chance to choose their own projects based on their interests and learning styles, which promotes personalized learning experiences. The assessment methods of project-based learning may evolve towards highlighting authentic, performance-based evaluations that reflect real-life skills and competences. Instead of relying just on traditional exams and test, more insights into students' learning and development should be gained through portfolios, exhibitions, presentations and videos. Efforts to promote equity in education will influence the future of project-based learning, guaranteeing that every student, no matter their age, race, nationality, income, can access the high-quality and culturally responsive learning opportunities. Culturally relevant projects, design strategies and universal learning principles can provide fairer opportunities for learners from diverse backgrounds. Project-based learning has the potential to foster a lifelong enthusiasm for learning by cultivating skills like critical thinking, collaboration, creativity and communication. Apart from academic achievements, PBL provides learners with the mindset and skills required to adapt an ever-changing world and pursue continuous growth both personally and professionally.

References

1. Ахмедова Л. Т. Рол и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Тошкент, 2009. – 202с.
2. Beckett, G. H. Teacher and student evaluations of project-based instruction. *TESL Canada Journal*, 19(2), 2002-p 52-56.
3. Barron. B. , Schwartz, D. , Vye, N. , Moore, A. , Petrosino, A. , Zech, L. , & Bransford, J. (1998). Doing with understanding: Lessons from research on problem- and project-based learning. *The Journal of the Learning Sciences*, 7(3&4), 271-311.
4. Markham, T. , Larmer, J. , & Ravitz, J. (2003). Project-based learning handbook: A guide to standards-focused project based learning for middle and high school teachers. Novato, CA: Buck Institute for Education.
5. Claxton, G. (2006). Thinking at the edge: developing soft creativity. *Cambridge Journal of Education*, 36(3), pp. 351 –362.
6. The assessment of Creative Learning. In: J. Sefton-Green, ed. , *Creative Learning*. [pdf] UK: Arts Council England. Available at: <https://www.sussex.ac.uk/webteam/gateway/file.php?name=creative-learningsept-2008&site=45> [Accessed November 2016].

Murodbek Matnazarov

Urganch innovatsion universiteti

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

E-mail: matnazarov.murodbek@bk.ru

URBANONIMLARNING SHAKLLANISHIGA SABAB BO'LGAN ANTROPOSENTRIK OMILLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida urbanonimlarning shakllanishi, urbanonimlarning nomlanish xususiyatlari, hududda tarqalgan urbanonimlarning tiplari va alohida semantik guruhlariga mansub nomlarning shakllanish motivlari kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: onomastika, urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim, nekronim, lingvistik omil, semantik tahlil.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы развития топонимии в узбекском языкознании, особенности номинации urbanonimov, виды urbanonimov в регионе и мотивы образования названий, принадлежащих к конкретным семантическим группам, взаимосвязь и трансонимизация региональных urbanonimov.

Ключевые слова: ономастика, urbanonim, oronim, фитоним, гидроним, антропоним, ойконим, микротопоним, некроним, языковой фактор, семантический анализ.

Annotation: This article discusses the development of toponymy in Uzbek linguistics, the naming features of urbanonyms, types of urbanonyms in the region and the motives for the formation of names belonging to specific semantic groups, the relationship and transonimization of regional urbanonyms.

Keywords: onomastics, urbanonym, oronym, phytonym, hydronym, anthroponym, oykonim, microtoponym, necronym, linguistic factor, semantic analysis.

Nomlanish jarayonida tajriba, inson psixologiyasi, shaxs va jamiyatning roli, tashqi sharoit, til tizimi, tillarning oʻzaro taʼsiri, bizni oʻrab turgan tevarak-atrof asosida fikrlash u yoki bu darajada namoyon boʻlib turadi. Urbanonimlar, asosan, ijodkorlarning dunyoqarashi, tili, ruhiyati, turmush tarzi, maʼnaviy dunyosi, ijtimoiy qarashlari va jamiyatdagi mavqeyi kabi qator ijtimoiy omillar bilan bogʻliq tarzda maydonga keladi.

Onimizatsiya nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlarda joy nomlarining yuzaga kelishiga sabab boʻluvchi omillar va ularning shakllanishiga koʻmaklashuvchi maxsus lingvistik vositalar mavjud. Statistik maʼlumotlar geografik obyektlarning har toʻrttadan bittasi antroponim, antrooykonim va teotonimlar ekanligini koʻrsatishi, Urganch shahri urbanonimlarining yuzaga kelishida antroponim, etnonim kabi lingvistik elementlar muhim onomastik birliklar sifatida qatnashganligi asoslangan.

Tadqiqot mobaynida Urganch shahri urbanonimlarining lingvistik birlik sifatida yuzaga kelishida asosiy vosita **ot leksemalar**, jumladan **antroponimlar** ekanligi maʼlum boʻldi. Son jihatdan 500 ga yaqin boʻlgan bu elementlar hudud urbanonimlari miqdorining toʻrttadan bir qismidir. Bu esa geografik obyektlarni ayrim kishilar nomi bilan atash Markaziy Osiyo xalqlari oʻrtasida qadimdan anʼana ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ular asosan masjidlar, bogʻlar, dalalar, ziyoratgohlar, qabristonlar nomining shakllanishiga asos boʻlganligi qayd etilgan.

Masalan, urbanonimlar sirasida dala nomi negizida antroponimlar yotadi: *Allamotiz*, *Suvonotiz* kabi nomlar tarkibida ismlar uchraydi.

Antroponimlarning joy nomlariga koʻchishida maʼlum bir qonuniyat bor, yaʼni nomlanish koʻpchilikning ixtiyorida boʻlganda va koʻpchilikning muhokamasidan oʻtib, ularning xohish-irodasi bilan hal etilganda kishilarning ismi bilan joy nomlarini atashda koʻproq mulohazaga borilishi hamda tabiiylikka harakat qilinishi mavjud ekanligi aytilgan.

Shuningdek, toponimlar tarkibida **son maʼnosini ifodalovchi soʻzlar** va numerativlarning kelishi ulardagi har ikki xususiyat – ham aniq son, ham umuman koʻplikni anglatishiga sabab boʻluvchi (*Uchogʻoch*, , *Qoʻshut* va h. k); **rang-tus**, **hajm-oʻlchov**, **oʻrin-joy**, **koʻlam-masofa** maʼnolarini ifodalovchi elementlar (*Kattakoʻl*, *Oʻrtamozor*, *Pastsolmo* va h. k), **etnonimlar** (*Qozoqovul*), **fitonimlar** (*Oqtut*, *Iydazor* va h. k) kabi urbanonimlarni hosil qiluvchi lingvistik omillar mavjud.

Atoqli otlar oʻzining alohida mustaqil lisoniy materialiga ega boʻlmagani tufayli, tildagi mavjud lugʻaviy boylik zaminida yasaladi. Urganch shahri urbanonimiyasi boʻyicha biz olib borgan kuzatishlar ushbu urbanonimlar zaminida ham oʻzbek tilining va boshqa bir qator tillarning lugʻaviy materiallari yotishini koʻrsatdi. Bu urbanonimlarni avvalo ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Turdosh soʻz toponegizlar.
2. Atoqli ot toponegizlar.

Toponegizlarni tahlil qilishdan oldin Urganch shahri urbanonimiyasining xarakteri, to'plangan materialning hajmi, funksional belgilarini aniqlash, namoyish qilish maqsadida ularni ular qanday obyektning atoqli oti bo'lib kelayotganiga ko'ra qisqacha tasniflash va ta'riflashni lozim topamiz. Toponimlarni ular qanday obyektning atoqli oti bo'lib kelayotganiga ko'ra tasnif qilish onomastik materialni tasniflashning usullaridan biridir va ushbu usul o'rganilayotgan hududda urbanonimlarning qanday tiplari uchrashi, ularning nominativ funksiyasi va miqdoriy xususiyatlarini belgilashga imkon beradi.

1. *Mahallalar nomi.* Mahallalar nomi oykonimlarning tarkibiy qismi bo'lib, aholi yashaydigan joyning ma'lum qismlarga bo'lingan bo'linmalarining atoqli otidir. Odatda bunday bo'linmalar shaharda, qishloqlarda mavjud bo'ladi. Mahallalar nomi haqida ba'zi ishlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, urbanonimlarning ushbu tipi hali qoniqarli o'rganilgan emas. Xorazmdagi mahallalar nomining bir qismi etnonimlardan: Qo'ng'iro't, Mang'it, Xo'jato'p, Eshonto'pi, Arablar, Eroni, Jaloyir bir qismi kishi ismi va laqablardan yasalgandir: Qosim Rahmatov, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur; joyning ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlardan: Oqoltin, Oltinsoy, Tasmachi, Yangiobod, Do'stlik va b.

2. *Guzarlar nomi.* Xorazmdagi guzarlarning ko'pchiligi va ularning nomi qadimiy tarixga ega. Ularning miqdori 20 dan ortiq bo'lib, ayniqsa, *Yangirabot, Yoshlik, Tinchlik* nomlari xarakterlidir.

3. *Qal'alar, qo'rg'onlar nomi.* Urganch shahri hududida qadimiy devorlar, qal'alar, qo'rg'onlarning qoldiqlari yoki nomi saqlanib qolgan. Bu obyektlarning har qaysisi o'ziga xos nomlarga ega: *Ko'na qal'a*.

4. *Yo'llar, ko'chalar nomi.* Nomshunoslikda harakatlanish uchun mo'ljallab qurilgan yo'llar, ko'chalar nomi umumiy tarzda dromonimlar; shohko'chalar, prospektlar, ko'chalar, torko'chalar, boshi berk ko'chalar - godonimlar deb yuritiladi¹. Mustaqillik davrida O'zbekistonning toponimik siyosati² tadbirlari tufayli ahvol ancha o'zgardi va hozirda Xorazm hududida ko'chalarning yangi nomlari mavjud: *Amir Temur ko'chasi, Bahor ko'chasi, Mustaqillik ko'chasi, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, Al-Xorazmiy ko'chasi, Gurlan yo'li, Shovot yo'li, Xiva yo'li, Yangiariq yo'li, Cholish yo'li*.

5. *Masjidlar nomi.* Diniy tushuncha va tasavvur bilan bog'liq bo'lgan obektlar, muqaddas joylar nomi nomshunoslikda *agiotoponimlar* deb yuritiladi. Masjidlar nomi ham muayyan o'rinni bildiruvchi atoqli ot sifatida agionimlarga kiradi. Ma'lumki, masjidlarda islom dini bilan aloqador bo'lgan diniy marosimlar, rasm-rusumlar ado etiladi. Oqmachit, Oxunbobo masjidi, Chakka masjidi, Zargar masjidi.

6. *Muqaddas qadamjoylar, qabrlar, qabristonlar nomi.* Inson dafn qilingan joylar – qabrlar, qabristonlar va boshqa xil ana shu tipdagi o'rinlar nomshunoslikda nekronimlar deb yuritiladi. Xorazm toponimiyasi nekronimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bular asrlar davomida xorazmlik ajdodlarimiz abadiy uyquga ketgan, keyingi avlodlar esa muqaddas bilib kelgan, sig'ingan qadamjoylardir. *Oxunbobo, Shahobiddinbobo* qabristoni va b.

7. *Gidronimik obyektlar nomi.* Xorazm hududida daryo mavjud. Suvlarning nomlari aholi tilida yil bo'yi qo'llanib turadi. Xorazm potamonimlari (daryo va soylar nomi)ni o'rganish muhimdir, chunki ularning aksariyati juda qadimiy gidronimlardir. Quduqlar nomi suv obekti inshootlariga tegishli bo'lgani uchun gidronimlar, mayda gidronimlarning atoqli oti bo'lgani uchun urbanonimiyaning urbanogidronimlar guruhiga mansubdir: *Yoshlar ko'li, Qirg'izyop, Shovot kanali, O'risyop* kabi

Urganch shahri urbanonimiyasida tog' va cho'qqilarning, qoyalarning nomlari uchramaydi.

Urbanonimlar tarkibida kelib joy nomining qanday obyektning atoqli oti ekanini anglatib turuvchi so'zlar toponimik indikator deb yuritiladi. Indikatorlar nafaqat qayd qilingan vazifani, balki obyekt nomining atoqli ot bo'lib shakllanishiga ham xizmat qiladi. Yuqorida Urganch shahri urbanonimlarining asosiy tiplarini tahlil qildik. Ushbu toponimlarning har biri bitta yoki birdan ortiq toponegizlardan yasalgan atoqli otlardir. Ammo ushbu toponegizlarning ba'zilar toponimiya tarkibida faqat bir marta uchrasa, ba'zilar bir necha marta ishtirok etadi, ayrimlari esa ko'plab

nomlar tarkibida uchraydi. Demak, ushbu qonuniyatga ko'ra, toponimlarni hosil qiluvchi negizlar toponimlar miqdoridan kam bo'ladi.

O'zbek tilida so'zlar ko'p, ammo bu so'zlarning barchasidan ham toponimlar yasalmaydi. Bundan xulosa shuki, o'zbek tilidagi urbanonimlarni hosil qilishda toponimiya sistemasi talab va ehtiyojlarini qondira oluvchi ma'lum miqdor so'zlar qatnashadi. Mana shu so'zlar majmuyi nomshunoslikda toponimik leksika, toponegiz, topoleksema deb yuritilmoqda. Ma'lum hudud toponimiyasi negizida yotgan topolekselarni, ularning miqdorini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Asosida turdosh leksika yotuvchi urbanonimlar. Urbanonimlarning aksariyati asosida turdosh leksika yotadi. Xorazm toponimiyasida bunday leksikaning tiplari quyidagilardir:

1) hududning landshaftini ifoda etuvchi toponegizlar. Bularga hududning reliefini, suvliklarning xususiyatini ifoda etuvchi so'zlar kiradi: Shulliktepa, *Qarg'aotiz, Oqtumpak*;

2) geografik obyektning joylashish o'rniga ishora qiluvchi toponegizlar: O'rtako'cha, Orqako'cha;

3) geografik obyektning hajmini ifoda etuvchi toponegizlar: Kattachorbog', Kichchi chorbog';

4) obyektning miqdorini ko'rsatuvchi toponegizlar: Uchog'och, Uchsolmo;

5) joyning tuproq xususiyati, rang va tusini ifoda etuvchi toponegizlar: Oqgumbaz, Oqoltin;

6) obyektning xususiyati va shakliga ishora qiluvchi toponegizlar: Chuvak, Archalik;

7) obyektning tabiiy materiali tarkibiga ishora qiluvchi toponegizlar: *Yekanko'l, Moshinbozor yo'li* kabi.

8) obyektning paydo bo'lishi davriga ishora qiluvchi toponegizlar: Navro'z;

9) hududning o'simliklar dunyosi (flora)ni ifoda etuvchi topoasoslar: Olmazor, Tikanli;

10) hududning hayvonot dunyosi (fauna)ga ishora qiluvchi nomlar: *Qo'chqorli, O'jakxona; Molbozor*;

11) kasb-hunar nomlaridan iborat bo'lgan toponegizlar: *Nonvoylar, Suvchilar*;

13) mahalliy aholining dastlabki hududiy o'rniga ishora qiluvchi toponegizlar: *Qozoqovul*;

14) aholining ijtimoiy tarkibiga ishora qiluvchi toponegizlar: *Arboblar, Zargarlar, Ulug'lar*;

16) aholining davr bilan bog'liq orzu va ideallarini, intilishlarini ifoda etuvchi toponegizlar: *Do'stlik, Yoshlik, Mustaqillik, Tinchlik, Bahor, Bo'ston, Yangi hayot*.

Mustaqillik Urganch shahri ergonimiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Firma nomlari istiqloq g'oyalari, milliy mentalitet nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilganligi nomlarga zamonaviy ruh berdi. Ergonimlar ham urbanonimlar makroko'lamiga kiradi.

Urganch shahri hududi doirasiga kiruvchi ergonimlar quyidagi asosiy semantik guruhlarda namoyon bo'lishi qayd etilgan bo'lib, Urganch ergonimiyasi tizimida korxonalar, firma va do'kon nomlari asosiy o'rinda turishi statistik jihatdan asoslandi. Jumladan:

– firma va korxonalar nomi sirasida: 168 ta firma, 9 ta yirik korxonalar, 12 ta qo'shma korxonalar nomi aniqlandi. Bu tizimdagi asosan firma nomlari bo'lib, nomlarning ko'pchiligi nisbatan keyingi davrlarning mahsuli deyish to'g'ri bo'ladi;

– do'kon nomlari sirasida: 130 ta nomlar qayd etildi. Bu umumiy ergonimlarining ko'p foizini tashkil etgan bo'lib, Urganch ergotizimidagi nomlar leksik-semantik guruhlariga ajratilib tahlil qilinganda ularning paydo bo'lishi ergonimlarning ham umumiy, ham mahalliy yasaliq qonuniyatlari doirasida kechganligi kuzatildi.

– miqdoran ozchilikni tashkil etadigan ergonimik guruhlar: 5 ta tahririyat, 2 ta televideniye, 9 ta kasalxonalar, 2 ta muzey, 2 ta stadion, 10 ta oromgoh nomlarining statistik manzarasini ko'rish mumkin.

Har bir semantik guruh yana kichik guruhlariga ajratilib tadqiq etish mumkin. Masalan, firma nomlari sirasiga kiruvchi nomlari quyidagicha ma'noviy guruhlariga bo'lish mumkin:

– gidronimlar asosida nomlangan firma nomlari: *Jayhun savdo impeks MCHJ, Jayhun inter mega savdo MCHJ, Amudaryo PGS MCHJ, "Amudaryo avto korxonasi" MCHJ va h. k.*

– gidronim va toponimlar asosida nomlangan firma nomlari: *Urganch Jayhun impeks MCHJ* kabi.

- kishi ismlari bilan aloqador nomlar: *Mustafo Dovud MCHJ, Shahnoz To‘maris MCHJ, Murod-Bekzod x/k* va h. k.
- tarixiy–afsonaviy nomlar: *Humo*.
- obyektning ishlab chiqaruvchi mahsulotini anglatuvchi nomlar: *Toza Temir Mahsulot, Xorazm Keramika MCHJ, Urganch non mahsulotlari* kabi.

Qanday turdagi mahsulotlarni savdo qilishi bilan bog‘liq nomlar: “*Xorazm Kanstovar savdo*” *MCHJ, Urganch sharobsavdo MCHJ* kabi.

Qanday faoliyat bilan shug‘ullanishini belgilaydigan nomlar: *Xorazm Dizayneri x/k, “Obodonlashtirish ko‘kalamzorlashtirish” diregatsiyasi, Urganch maxsus sanitar trans IchdK, Xorazm me‘mori MCHJ, Uyg‘ur qurilish servis MCHJ, Xorazm Gaz Payvandchilar MCHJ, Gurganch xususiy bosmaxona korxonasi, Urganch nasoschi MCHJ* kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
2. Begmatov E. Istiqloq o‘lkasining toponimik siyosati // O‘TA. T. , Fan, 1997. 3-son. B. 3-9; O‘TA. T. , Fan, 1997. 4-son. B. 7-9.
3. Enazarov T. J. Toponimlarning etimologik tahlilidan namunalar // Ilm sarchashmalari. Urganch Davlat universiteti ilmiy-metodik jurnali. 2003. 2-son. 94-97-betlar.
4. Enazarov T. J. Etimologik tahlil turlari (so‘z va toponimlar misolida) // Geografiya va qadriyatlar. T. , Universitet, 2001. 180-184-betlar.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati. T. , O‘z-bekiston Milliy Entsiklopediyasi, 2002. 164 b.

*Исмаилова Феруза Исмаиловна,
НОУ «Университет-Маъмуна»
E-mail: @whitecartom@gmail. Com*

О СБОРНИКЕ «ПОСЛОВИЦЫ РУССКОГО НАРОДА» В. И. ДАЛЯ

Аннотация. Материалы сборника В. И. Даля являются очень важным источником изучения особенностей культурной традиции русского народа. Статья посвящена структуре и истории изучения сборника «Пословицы русского народа» В. И. Даля

Ключевые слова: пословица, поговорка, речь, жанр, фольклор, мудрость народа, сборник, язык.

Величайшее богатство народа его язык. Тысячелетиями накапливаются и вечно живут в слове несметные сокровища человеческой мысли и опыта. И, может быть, ни в одной из форм языкового творчества народа с такой силой и так многогранно не проявляется его ум, так кристаллически не отлагается его национальная история, общественный строй, быт, мировоззрение, как в пословицах.

Меткий и образный русский язык особенно богат пословицами. Их тысячи, десятки тысяч! Как на крыльях, они перелетают из века в век, от одного поколения к другому, и не видна та безграничная даль, куда устремляет свой полет эта крылатая мудрость. . .

Для многих из нас В. И. Даль (1801—1872) прежде всего создатель «Толкового словаря живого великорусского языка». Но не всякий знает, что знаменитый лексикограф одновременно работал и над сборником «Пословицы русского народа». На словаре и сборнике лежит печать единого замысла. Дело, однако, не только в том, что они созданы одним и тем же человеком, они отмечены чертами именно Даля, в высшей степени примечательного лица в нашей отечественной культуре. Словарь и сборник пословиц

возникли как естественное следствие глубокой и точной осведомленности Даля, его заинтересованности в литературных делах и деятельного участия в судьбах отечественной культуры.

В пословицах Даль нашел лучшее подтверждение своим мыслям о народном языке. В пословице, полагал собиратель, налицо цельность и единство чисто народного содержания и присущих живому языку «стойкости», «родимости». Для Даля-лексикографа пословица - образчик устной речи, ее склада, слога - «музыки». В то же время пословица сосредоточила в себе, выразила собой высоко ценимый Далем взгляд народа на мир, общественные порядки, бытовые установления. Это сгустки идей и чувств, отпечаток душевного склада народа. Пословицы для Даля едва ли не большая ценность, чем само по себе народное слово. Являя в «Толковом словаре» пример словоупотребления, пословицы одновременно характеризуют строй народных мыслей и суждений о мире и жизни. Без пословиц было бы затруднительно дать самое толкование слов, тонких оттенков их смысла. Пословицы стали органической частью «Толкового словаря», а самая мысль внести их в словарь не просто счастливая идея Даля, а следствие всех мыслей его о языке народа. Это выношенное убеждение.

Хотя пословицы, внесенные в словарь, способствовали уяснению связей народного слова со всем кругом понятий и представлений народа, но «народописательская» полнота не могла возникнуть в лексикографическом труде. Для этого была необходима другая композиция словарных богатств и, оставив пословицы в словаре, Даль одновременно выделил их в отдельную книгу. Так возникло намерение издать особый сборник пословиц.

Ко времени приезда в Нижний Новгород в 1849 году огромное собрание пословиц у Даля было налицо, материал был «отчасти подобран» и встал вопрос о его полном упорядочении. Эта работа заняла несколько лет - сборник был окончен к 1853 году. Близко знавший Даля писатель П. И. Мельников-Печерский свидетельствует: «В. И. Даль признал необходимым расположить свой запас пословиц по их смыслу». И еще: «Пословицы подбирались по их последовательности и связи, по их значению». Об этом посвоему рассказал и Даль, публикуя сборник в Москве.

Пословицы, расстриженные на «ремешки» - полоски бумаги, получали обозначение в виде одного слова: им назывался предмет, к которому относилась каждая из пословиц. Составились, как выразился Даль, «без всякого предварительного умствования», заглавия разрядов, образовались тематические разделы-тетрады. Тут существенна не столько техника работы, весьма продуманная у тщательно работавшего Даля, сколько ее естественный результат. «. . . Я уже не только тешусь острою той либо другой пословицы, - писал Даль, но вижу в них одну общую и цельную картину, в которой есть более глубокий смысл и значение, чем в одиночных заметках (то есть в отдельном пояснении пословиц. -В. А.)». И далее: «Это перегон или выморозки ума целых поколений, во образе своего родного быта, с приправою всего, что только касалось этого насущного и умственного быта». Цель была достигнута - возник труд, в котором предстала «народописательная» полнота.

В сборнике было сто восемьдесят (без одного) разделов - по числу соответствующих тетрадей, куда их разнес Даль. Нет беды в том, что одна пословица спорила с другой, «В том-то и достоинство сборника пословиц, - писал Даль, что он дает не однобокое, а полное и круглое понятие о вещи, собрав все, что об ней, по разным случаям, было высказано. Если одна пословица говорит, что дело мастера боится, а другая добавляет, что иной мастер дела боится, то, очевидно, обе правы: не равно дело, и не ровен мастер». Сборник представил всю громаду, полноту народных суждений о жизни и предметах, касавшихся народа.

Даля не смущали противоречия и разноречия самой мысли народа. Во вступительной статье к сборнику Даль писал, что пословицы для него предмет «изучения и розыска», и добавлял: «посему мы и хотим знать все, что есть». Много раз собиратель возвращался к этой мысли: «. . . моя задача была: собрать в возможной полноте все то, что есть и каково оно есть, как запас, для дальнейшей разработки и для каких кому угодно выводов и заключений»; и еще энергичнее: «. . . не прячь, не скрывай ни добра, ни худа, а

покажи, что есть». В своей установке на честное и объективное исследование Даль предстает перед нами рыцарем истины.

История публикации сборника одна из драматических страниц истории русского свободомыслия. У Даля являлась даже мысль положить сборник «на костер и сжечь». К счастью, он этого не сделал. Сборник лишь попал под спуд и пролежал, по точному подсчету составителя, «восемь лет». Презрительной иронией отплатил Даль своим гонителям, высказавшись о превратных понятиях «передовых просветителей наших» относительно того, что нужно, а что не нужно печатать. Когда стала возможной публикация, Даль передал сборник в Общество любителей Российской словесности при Московском университете. Это случилось в конце 50-х - начале 60-х годов. Благоприятная общественная обстановка открыла дорогу произведениям, не допускавшимся до той поры в печать. От гибели сборник спасла русская демократия.

На титульный лист сборника Даль вынес народное изречение: «Пословица несудима». Собиратель желал занять позицию объективного исследователя, и это ему удалось в отношении состава материала. Другое дело - рубрики, под которые подведены пословицы. Сборник открывался разделом «Бог - вера», и первая его пословица «Жить - богу служить». Пословичное изречение ходило в патриархальном народе -- в этом факте трудно усомниться - тому ручательством и добросовестность собирателя. Но упование на бога у патриархальной Руси - это лишь частица, одна сторона ее идей и мыслей. Великий народ приближался к кануну грандиозных социальных перемен второй половины XIX и XX в. Даль вносит в сборник пословицы, от которых веяло иными настроениями: «Бог не в силе, а правде» - патриархальная Русь уже знала, что сила, хотя и действует от имени бога, может быть неправой. Крайне двусмысленно звучат пословичные изречения: «У бога всего много»; и еще: «У бога все возможно» - не исключалось, что небесным попусчением творится и беззаконие. Очевиден крамольный смысл пословичного афоризма: «Человек по-своему, а бог по-своему», - то есть люди живут по своим земным законам и порядкам, далеким от воображаемых, справедливых.

Самое же веское возражение противникам возможно полного состава сборника Даль нашел в убеждении, что пословица и поговорка «не сочиняется, а вынуждается силою обстоятельств, как крик или возглас, невольно сорвавшийся с души». Иначе сказать, чего нет в жизни, что не дает повода в самом быту, того нет и в пословицах. Сборник представил «свод народной опытной мудрости и суемудрия» «это стоны и вздохи, плач и рыдания, радость и веселие, горе и утешение в лицах; это цвет народного ума, самобытной стати; это житейская народная правда, своего рода судебник, никем не судимый».

Острота и емкость смысла, картинная образность, неподражаемая живость интонаций, резкая определенность пословиц и поговорок давно восхищают всех ценителей народного творчества и народного способа передавать мысли. Ныне ко всему сказанному о пословицах и поговорках все труднее добавлять что-либо новое, и все же, читая сборник Даля, находишь новые и новые красоты и свойства, еще мало или плохо понятые в науке. Объяснение бесконечного многообразия и высоких художественных достоинств пословиц по необходимости следует искать, помимо всего прочего, в самой природе их как особой формы фольклора.

От пословиц Даль отличал «пословичные изречения», афоризмы: не заключают в себе «никакой притчи» (иносказания), отметил Даль и оговорился, что «верной и резкой границы» между пословицами и «пословичными изречениями» «протянуть нельзя», что многие из пословиц допустимо причислять к «пословичным изречениям». Это замечание можно понимать так, что пословица тоже содержит прямой смысл (помимо переносного) и поэтому в «строгом» смысле тоже является изречением.

Поговорка, по весьма точной характеристике Даля, - лишь окольное «выражение», «простое иносказание», «способ выражения». Даль отличал поговорку от пословицы тем, что поговорка не договаривает, то есть не является полным суждением, изречением, а лишь входит в какое-нибудь суждение на правах его части. Таковы, к примеру, выражения:

«не все дома», «одной клепки нет» - они заменяют собой прямой смысл одного слова: «глупый». Сборник как целое производит грандиозное впечатление обширностью и разнообразием материала. Собиратели малых жанров после Даля превзошли его лишь в полноте тех видов афористического фольклора, которые, по оценке самого Даля, ждали новых собирателей. Но в части пословиц и поговорок сборник Даля уникален, не превзойден.

Сборник был окончен, а Далю уже виделся новый труд. В. И. Порудоминский пишет, что, судя по одному из писем, неутомимый исследователь предполагал, основываясь на пословицах, показать, что именно народ говорить о бедности, о доле, о законах, о торговле, о пьянстве. [1] Пословицы, разнесенные в сборнике по разделам, сами вели к такой разработке, но дело, на которое ушло почти пятьдесят лет жизни, уже не оставило Далю времени для новых свершений. Это был завет будущим поколениям исследователей.

Некогда Н. В. Гоголь сказал о Дале: «. . . каждая его строчка меня учит и вразумляет, придвигает ближе к познанию русского быта и нашей народной жизни. . . » [2] Весомость этих слов тем значительнее, что они исходят от великого знатока Руси и ее народа, а ведь это было сказано еще тогда, когда не было ни «Толкового словаря», ни сборника пословиц! Что бы сказал Гоголь, доживи он до публикации главных трудов Даля! Впрочем, В. Г. Белинский по-своему предвосхитил эту оценку, сказав про Даля, что он любит народную, крестьянскую Россию: «. . . любит ее в корню, в самом стержне, основании ее, ибо он любит простого русского человека, на обиходном языке нашем называемого крестьянином и мужиком» [3] Любовь к народу подвигала Даля на свершение необозримо большого дела, и за это он заслужил непреходящую славу благодарности у поколений живших, живущих и тех, кто будет жить после нас.

ЛИТЕРАТУРА

1. Порудоминский В. И. Даль, с. 298.
2. Гоголь Н. В. Собрание сочин. в 6-ти томах. Т. 6. -М. , 1953, с-191.
3. Белинский В. Г. Полн. собр. сочин. в 13-ти томах. Т. 10. -М. , 1956, с. 80.
4. Аникин В. П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. М. , 1957.
5. Даль В. Напутное // Пословицы русского народа, М. , 1957.
6. Рыбникова М. А. Русские пословицы и поговорки. М. , 1961.

Abdullayev Abdulla Quranbayevich
Urganch innonatsion university
o'qituvchi-stajyor
ORCID: 0009-0007-9037-1364
abdulla_abdullayev9270@mail.ru

CBOW USULI VOSITASIDA O'ZBEK TILI KORPUSI MATNLARINI RAQAMLASHTIRISH

Annotatsiya. Kompyuter yozma matnni tushunishi uchun so'zlarni raqamli vektor ko'rinishida shakllantirish kerak. Ushbu vazifani bajarish uchun so'zlarni joylashtirish (word embeddings) usulidan foydalanib, so'zlarni raqamli vektor sifatida ifodalash mumkin. Raqamli vektorlar so'zlarning ma'nosini va ularning tildagi boshqa so'zlar bilan munosabatlarini qamrab oladi. Bugungi kunda Word2vec (CBOW, Skip-Gram), GloVe yoki FastText kabi nazoratsiz (o'qituvchisiz) o'rganish algoritmlari yordamida til korpuslari asosida so'zlarni joylashtirishni amalga oshirish mumkin. Ushbu maqolada CBOW (Continuous Bag of Word) deb nomlanuvchi

“uzluksiz soʻzlar sumkasi” metodi yordamida oʻzbek tili korpusi matnlarini raqamlashtirish (sonli shaklga keltirish) va mashinali oʻqitish algortimlarida ulardan foydalanish usullari keltiriladi.

Kalit soʻzlar: *Oʻzbek tili korpusi, Word2Vec, CBOW, Skip-Gram, soʻzlarni joylashtirish, kontekstli soʻzlar, context words, maqsadli soʻz, target word, word embedding.*

Kirish

Word2vec modeli 2013-yilda Google tomonidan ishlab chiqilgan va kontekstual va semantik oʻxshashlikni aks ettiruvchi soʻzlarning taqsimlangan va uzluksiz zich vektorli koʻrinishlarini yaratish uchun neyron tarmoqqa asoslangan bashoratli modeldir [1, 2]. Word2vec nazoratsiz model boʻlib, katta hajmdagi matn korpusini oʻz ichiga olishi, mumkin boʻlgan soʻzlarning lugʻatini yaratishi va ushbu lugʻatni ifodalovchi vektor maydonidagi har bir soʻz uchun zich soʻz birikmalarini yaratishi mumkin. Odatda, Word2vec modelida soʻzni joylashtirish vektorlarining hajmini oʻrnatish mumkin boʻlib, vektorlarning umumiy soni asosan lugʻat hajmiga teng boʻladi [3]. Word2vec modelidagi zich vektor maydonining oʻlchovi anʼanaviy Bag of Words modellari yordamida qurilgan yuqori oʻlchamli siyrak vektor maydonidan ancha past qiladi [4]. Word2vec modeli dastlab Mikolov va boshqalar tomonidan fanga kiritilgan boʻlib, modelning tavsifi "Distributed Representations of Words and Phrases and their Compositionality" va "Efficient Estimation of Word Representations in Vector Space" deb nomlangan ilmiy nashrlarda keltirilgan [1, 2]. Word2vec metodining ikkita asosiy yondashuv mavjud [5]:


- Continuous bag-of-words (CBOW);
- Skip-gram.

Continuous Bag of Words (CBOW) – bu soʻzlarni joylashtirish uchun ishlatiladigan mashhur NLP usuli boʻlib, tabiiy tildagi soʻzlar oʻrtasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni qamrab oladi [6, 7]. CBOW – neyron tarmogʻiga asoslangan algoritim boʻlib, maqsadli soʻzni uning atrofidagi kontekst soʻzlarini hisobga olgan holda bashorat qiladi. Bu “nazoratsiz” oʻrganishning bir turi boʻlib, u tenglanmagan maʼlumotlarni oʻrgatadi va *hissiyotlarni tahlil qilish, matnni tasniflash* hamda *mashina tarjimasini* kabi turli NLP vazifalari uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan soʻzlarni joylashtirishni oldindan tayyorlash uchun ishlatiladi. CBOW – bu katta hajmdagi maʼlumotlar toʻplamlarida oʻqitilishi mumkin boʻlgan oddiy va samarali model boʻlib, *matnni tasniflash* va *tabiiy tilni tushunish* vazifalari uchun yaxshi tanlovdir.

CBOW modeli orqali bitta yoki soʻz birikmalarini sonli koʻrinishga keltirish mumkin. Ushbu maqolada oʻzbek tilidagi gap/matnlar ustida amallar bajariladi. Ammo CBOW modeli odatda milliardlab soʻzlar bilan oʻqitiladi va til modeli shakllantiriladi.

CBOW usuli

CBOW usuli *qoʻshni (kontekst) soʻzlaridan maqsadli* soʻzni taxmin qilishga harakat qiladi. Buni boʻsh topshiriqni toʻldirish kabi oʻylashingiz mumkin, bu yerda yaqin atrofdagi soʻzlarni kuzatish orqali boʻsh joy oʻrniga soʻzni taxmin qilishingiz kerak. CBOW modeli sayoz neyron tarmogʻi boʻlib, nazorat ostidagi oʻrganish algoritmi yordamida oʻqitiladi. Trening maʼlumotlari (*context_window, target_word*) juftliklaridan iborat boʻlib, *context_window* maqsadli soʻz atrofidagi soʻzlar toʻplamidir.



1-rasm. CBOW metodi sxemasi
CBOW modeli


CBOW modeli soʻzlarni sonli vektor fazoda tasvirlashga asoslangan soʻzlarni joylashtirish (*word embeddings*)ni sunʼiy intellekt metodlari vositasida oʻrgatishni amalga oshiradi. CBOW usulining maqsadi gapdagi kontekstli soʻzlar (*context words*)ni hisobga olgan holda maqsadli soʻz (*target word*)ni bashorat qilishdir. CBOW usulidan farqli tarzda **Skip-gram modeli** berilgan maqsadli soʻz asosida kontekstli soʻzlarni bashorat qiladi [5, 8].

CBOW modeli arxitekturasi nisbatan sodda boʻlib, kirish qatlami (*input layer*), yashirin qatlam (*hidden layer*) va chiqish qatlami (*output layer*)dan iborat. Kirish qatlami kontekstli soʻzlarni ifodalash uchun, yashirin qatlam soʻzni joylashtirishni oʻrganish uchun va chiqish qatlami maqsadli soʻzni taxmin qilish uchun ishlatiladi [6].

Kirish qatlami odatda bitta *one-hot encoded vector* bilan ifodalanadi. Ushbu vektordagi har bir element lugʻatdagi maʼlum bir soʻzga mos keladi. Misol uchun, agar lugʻatda **10000** soʻz mavjud boʻlsa, kirish qatlami **10000** elementdan iborat boʻladi.

Yashirin qatlamida soʻzlarni joylashtirish oʻrganiladi. Bu *zich qatlam (dense layer)* boʻlib, har bir *neyron* lugʻatdagi maʼlum bir soʻzni ifodalaydi. Yashirin qatlamdagi neyronlar soni lugʻatdagi soʻzlar soni bilan bir xil.

Chiqish qatlami ham zich qatlam boʻlib, har bir neyron lugʻatdagi maʼlum bir soʻzni ifodalaydi. Chiqish qatlamidagi neyronlar soni lugʻatdagi soʻzlar soni bilan bir xil.



2-rasm. CBOW metodi arxitekturasi

CBOW metodining ishlash mexanizmini matematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm):

- x_1, x_2, \dots, x_n – kontekstli soʻzlar, bunda x_i *one-hot encoded* vektor.
- W_1 – kirish qatlamini yashirin qatlam bilan bogʻlovchi ogʻirlik matritsasi;
- W_2 – yashirin qatlamni chiqish qatlami bilan bogʻlovchi ogʻirlik matritsasi;
- h – yashirin qatlam boʻlib, kirish vektorlarining oʻrtacha qiymati:

$$h = \mathbf{1/n} * (x_1 + x_2 + \dots + x_n)$$

- y – lugʻat boʻyicha ehtimollik taqsimoti boʻlgan chiqish qatlami;

$$y = \text{softmax}(W_2 * h)$$

- **Maqsadli soʻz** – y dagi ehtimoli eng yuqori boʻlgan soʻz.

CBOW metodini tushunish uchun bir misolni koʻrib chiqamiz.

“Bugun juda ajoyib kun” va “ajoyib” so‘zi neyron tarmoqqa kirish sifatida qabul qilinadi. Bunda CBOW modeli “kun” so‘zini taxmin qilishga harakat qiladi. CBOW modeli kirish so‘zlari uchun bitta *one-hot encoded vektordan* foydalanadi va maqsadli so‘z bilan xatolik darajasini o‘lchaydi. Bu bizga eng kam xatolikka ega so‘z asosida chiqishni bashorat qilishga yordam beradi. CBOW modeli yuqoridagi gapdan *{kontekst so‘z (contextword), maqsadli so‘z (targetword)}* shakldagi so‘z juftliklarini hosil qiladi. CBOW modelida so‘z juftliklarini hosil qilish uchun **oyna o‘lchami (window size)**ni o‘rnatish kerak. Agar kontekstli so‘z oynasi o‘lchami **2** ga teng bo‘lsa, so‘z juftlari quyidagi ko‘rinishga ega: (*[Bugun, ajoyib], juda*), (*[juda, kun], ajoyib*)]. Ushbu so‘z juftliklari yordamida model kontekst so‘zlari ko‘rib chiqilgan maqsadli so‘zni taxmin qilishga harakat qiladi.

Agar bizda bitta maqsadli so‘zni bashorat qilish uchun ishlatiladigan **4** ta kontekstli so‘z bo‘lsa, kirish qatlami to‘rtta (**$1 \times W$**) o‘lchamli kirish vektori shaklida bo‘ladi. Ushbu kirish vektorlari yashirin qatlamga uzatiladi va (**$W \times N$**) o‘lchamli matritsa bilan ko‘paytiriladi. Nihoyat, yashirin qatlamdagi (**$1 \times N$**) o‘lchamli chiqish vektori yakuniy qatlamga qabul qilinadi va yakuniy vektorlarda element bo‘yicha yig‘indi hisoblanadi va natija hosil qilinadi.

CBOW metodi uchun *o‘qitish jarayoni (training process) entropiyani yo‘qotish (cross-entropy loss)* funksiyasidan foydalangan holda bashorat qilingan ehtimollik taqsimoti **y** va **maqsadli so‘z** o‘rtasidagi farqni minimallashtiradi. Ushbu jarayon o‘quv ma’lumotlar to‘plamidagi har bir gap uchun amalga oshiriladi va natijada o‘rgatilgan korpus (model) shakllantiriladi.

CBOW metodining asosiy afzalliklaridan biri uning samaradorligidir. Model kontekstli so‘zlar to‘plamini hisobga olgan holda faqat bitta maqsadli so‘zni bashorat qilishi lozimligi sababli, u maqsadli so‘z berilgan bir nechta kontekstli so‘zlarni bashorat qilishi kerak bo‘lgan skip-gram modeliga qaraganda ancha kattaroq ma’lumotlar to‘plamida sinovdan o‘tkazilishi mumkin. Shuningdek, CBOW metodi odatda kichikroq ma’lumotlar to‘plamlarida yaxshiroq ishlaydi deb hisoblanadi.

CBOW modelini amalga oshirish

CBOW modelni o‘zbek tili korpusi matnlariga qo‘llashda Python tilidagi Gensim paketi vositalaridan foydalanish mumkin. CBOW modelini o‘rgatish uchun o‘zbek tili korpusidan foydalanib, quyidagi bosqichlarda amalga oshiramiz:

- *Korpus lug‘atini shakllantirish (build the corpus vocabulary);*
- *CBOW (context, target) generatorini yaratish (build a CBOW (context, target) generator);*
- *CBOW modeli arxitekturasi yaratish (build the CBOW model architecture);*
- *Modelni o‘rgatish (train the Model);*
- *So‘zlar joylashuvini hisoblash (Word Embeddings).*

CBOW modelidan foydalangan holda so‘zlarning o‘xshashligini namoyish qilish uchun so‘zlarni joylashtirishni amalga oshiramiz. Ushbu maqolada *Abdulla Qodiriyning “Otkan kunlar”* romani korpusi asosida CBOW modelidan foydalanib korpusni raqamlashtiramiz. Birinchi qadamda barcha kerakli Python kutubxonalarni import qilamiz va ma’lumotlar to‘plamini yuklaymiz. Keyinchalik, korpusni tokenizatsiya qilamiz va sonli vektorga aylantiramiz.

```
import tensorflow as tf
from tensorflow.keras.models import Sequential
from tensorflow.keras.layers import Dense, \
    Embedding, Lambda
from tensorflow.keras.preprocessing.text import Tokenizer
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
from sklearn.decomposition import PCA
```

```
sample = open("d:\\BooksText\\O‘tkan_kunlar.txt", encoding="utf8")
s = sample.read()
data = []
```

```

sentences=s. split('\n')
corpus = sentences
tokenizer = Tokenizer()
tokenizer. fit_on_texts(corpus)
sequences = tokenizer. texts_to_sequences(corpus)

```

Keyingi qadamsa oyna o'Ichami 2 ga teng bo'lgan hol uchun CBOW modelini quramiz.

```

vocab_size = len(tokenizer. word_index) + 1
embedding_size = 10
window_size = 2
contexts = []
targets = []
for sequence in sequences:
    for i in range(window_size, len(sequence) - window_size):
        context = sequence[i - window_size:i] + \
            sequence[i + 1:i + window_size + 1]
        target = sequence[i]
        contexts. append(context)
        targets. append(target)
X = np. array(contexts)
model = Sequential()
model. add(Embedding(input_dim=vocab_size,
                    output_dim=embedding_size,
                    input_length=2*window_size))
model. add(Lambda(lambda x: tf. reduce_mean(x, axis=1)))
model. add(Dense(units=vocab_size, activation='softmax'))
model. save_weights('cbow_weights. h5')

```

Keyingi qadamda, *Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"* romani asosida shakllantirilgan CBOW modelidagi so'zlarni vizualizatsiya qilamiz.


```

embeddings = model. get_weights()[0]
pca = PCA(n_components=2)
reduced_embeddings = pca. fit_transform(embeddings)
plt. figure(figsize=(25, 25))
for i, word in enumerate(tokenizer. word_index. keys()):
    x, y = reduced_embeddings[i]
    plt. scatter(x, y)
    plt. annotate(word, xy=(x, y), xytext=(5, 2),
                textcoords='offset points',
                ha='right', va='bottom')
plt. show()

```

Hosil qilingan model asosida shakllantirilgan raqamli vektorlarga namunalar keltiramiz:

4-rasm. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining CBOW modeli asosida shakllantirilgan raqamli ko‘rinishi
CBOW modelini o‘rgatish



5-rasm. CBOW modelini o‘rgatish bosqichlari

Til korpusidagi semantik munosabatlarni samarali qamrab oladigan so‘zlarni joylashtirish uchun CBOW modelini o‘rgatish juda muhimdir. CBOW modelini korpus ma‘lumotlariga joriy qilish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim: *boshlang‘ich qayta ishlash, kontekst oynasini qurish, kirish-chiqish juftliklarini yaratish, neyron tarmoq arxitekturasini aniqlash va model parametrlarini optimallashtirish* (6-rasm).

1. Ma‘lumotlarni boshlang‘ich qayta ishlash: CBOW modelini o‘rgatishdan boshlang‘ich matnli ma‘lumotlarni qayta ishlash kerak. Boshlang‘ich ishlov berish bosqichlari odatda *tokenizatsiya, tinish belgilarini olib tashlash, matnni kichik harflarga o‘tkazish va maxsus belgilar bilan ishlashni* o‘z ichiga oladi. Shuningdek, nomuhim so‘zlarni (semantik qiymati kam bo‘lgan umumiy so‘zlar) olib tashlash va so‘z variantlarini kamaytirish uchun *stemming* yoki *lemmatizatsiyani* amalga oshirishimiz mumkin [9, 10, 11].

2. Kontekst oynasini qurish: CBOW metodining asosiy g‘oyasi maqsadli so‘zni uning atrofidagi kontekst so‘zlari asosida bashorat qilishdir iborat. Buni amalga oshirish uchun maqsadli so‘zning har ikki tomonidagi kontekst so‘zlari deb hisoblanadigan so‘zlar sonini aniqlaydigan kontekst oynasi hajmini aniqlash lozim. Kattaroq kontekst oynasi modelga ko‘proq kontekstni qo‘lga kiritish imkonini bersa-da, hisoblash xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

3. Kirish-chiqish juftliklarini yaratish: Kontekst oynasi aniqlangandan so‘ng, uni boshlang‘ich qayta ishlangan matn ma‘lumotlari ustiga surish kerak. Kirish-chiqish juftliklarini yaratish uchun har bir maqsadli so‘z uchun oyna ichidagi kontekstli so‘zlarni ajratish lozim.

4. Neyron tarmoq arxitekturasini aniqlash: CBOW neyron tarmog‘i arxitekturasini kirish-chiqish juftliklari bilan aniqlash mumkin. Arxitektura odatda *kirish qatlami, yashirin qatlam va chiqish qatlamidan* iborat. Kontekst oynasidagi har bir so‘z kirish sathida bir martalik kodlangan vektor sifatida ko‘rsatiladi. Yashirin qatlamda so‘z tasvirlari o‘rganiladigan va chiqish qatlami maqsadli so‘zni bashorat qiladigan o‘rnatish qatlamini o‘z ichiga oladi.

5. CBOW modelini o‘rgatish: Training jarayoni kirish-chiqish juftliklarini CBOW modeliga kiritish va bashorat qilish xatosini minimallashtirish uchun model parametrlarini sozlashni o‘z ichiga oladi. *Stoxastik gradient descent (SGD)* yoki *Adam* kabi umumiy optimallashtirish algoritmlari training paytida modelning *og‘irliklari (W_1, W_2)ni* yangilaydi. Optimallashtirish jarayoni korpusdagi so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni eng yaxshi aks ettiruvchi so‘z birikmalarini topishga qaratilgan.

6. Softmax funksiyasi: CBOW modelining chiqish qatlami odatda softmax funksiyasidan foydalanadi. Softmax boshlang‘ich natijalarini ehtimollik taqsimotiga aylantiradi. Bu esa modelga ma‘lum kontekst uchun zarur so‘zni taxmin qilish imkonini beradi. Maqsadli so‘z bitta *one-hot encoded vector* taxmin qilingan ehtimollik taqsimoti bilan taqqoslanadi va model parametrlarini yangilash uchun xato tarmoq orqali qayta uzatiladi.

7. Trening davrlari va paket hajmi: Trening davomida *davrlar* deb nomlanuvchi kirish-chiqish juftliklarini bir necha marta qayta ishlatiladi. Davrlar soni o'quv ma'lumotlar to'plami qanchalik tez-tez qayta ishlanishini aniqlaydi. Shuningdek, kirish-chiqish juftliklari o'qitishni tezlashtirish va parallel qayta ishlashdan foydalanish uchun odatda *paketlarga* ajratiladi. Paket hajmi har bir o'quv bosqichida qayta ishlangan namunalar sonini nazorat qiluvchi *giperparametrdir*.

8. Trening davomida baholash: CBOW modelining mashg'ulot jarayonini kuzatish va haddan tashqari moslashishning oldini olish uchun mashg'ulot paytida modelning ishlashini tekshirish to'plamida baholash juda muhimdir. Tekshirish to'plami o'quv to'plamidan farq qiladigan kirish-chiqish juftliklarini o'z ichiga oladi. Ushbu to'plamdagi modelning ishlashini baholash orqali biz uning ko'rinmas ma'lumotlarga yaxshi umumlashtirilganligini va mashg'ulotlarni to'xtatish yoki tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiqligini aniqlashimiz mumkin.

9. Giperparametrlarni sozlash: Yuqorida aytib o'tilganidek, CBOW bir nechta giperparametrlarga ega. Jumladan, *kontekst oynasi o'lchami, joylashtirish o'lchami, o'rganish tezligi va paket hajmi*. Giperparametrlarni sozlash tekshirish to'plamida eng yaxshi ishlashni ta'minlaydigan optimal konfiguratsiyani topish uchun giperparametrlarning turli kombinatsiyalari bilan muntazam ravishda tajriba o'tkazishni o'z ichiga oladi.

CBOW modelini matn ma'lumotlarining katta hajmli til korpusida o'rgatish orqali so'zlar o'rtasidagi *kontekstual munosabatlarni* aks ettiruvchi so'zlar joylashishi aniqlanadi. Bu esa **so'z o'xshashligi**, *matn tasnifi* va *hissiyotlarni tahlil qilish* kabi turli xil NLP vazifalarini hal qilish imkonini beradi. CBOW modelining muvaffaqiyati uning so'zlarni mazmunli ifodalash, tilni yaxshiroq tushunishga yordam berish qobiliyatidir.

Xulosa

Bugungi kunda so'zlarni joylashtirish NLPning asosiy metodlaridan biri bo'lib, bu mashinalarning inson tilini qayta ishlash va tushunish usullarini o'zgartirdi. So'zlarning sonli vektor ko'rinishi ularning semantik ma'nosini va so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi, NLP algoritmlariga matn ma'lumotlari bilan samarali ishlash imkonini beradi. CBOW modelidir til korpusidagi turli xil so'zlarni joylashtirish usullari orasida soddaligi va samaradorligi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolada CBOW modeli arxitekturasi va uning qanday ishlashi ko'rib chiqildi. Shuningdek, CBOW modeli o'zbek tili korpusi ma'lumotlar to'plami (matnlari)ga qo'llandi va natijalar tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida o'zbek tilidagi matnlar asosida so'zlarni joylashtirish va CBOW metodidan foydalanish haqida fikr mulohazalar yuritildi. Umuman olganda, CBOW modeli so'zlarni joylashtirishni o'rgatish uchun kuchli vositadir.

CBOW modelining soddaligi va samaradorligi sababli, bugungi kunda undan *matnni tanib olish (text recognition)*, *matn tasnifi (text classification)*, *nutqni matnga aylantirish (speech to text conversion)* va *mashina tarjimasi (machine translation)* kabi NLP vazifalarida keng miqyosida foydalaniladi. Maqolada Abdulla Qodiriyning "Otkan kunlar" romani korpusi asosida CBOW modelidan foydalanib raqamlashtirildi va vizuallashtirildi. Maqolada keltirilgan CBOW metodining nazariy asoslari, ish tamoyillari va o'zbek tili matnlariga qo'llanishidan turli NLP ilovalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

CBOW modelining nazariy asoslarini tushunish, amaliy tatbiqini o'rganish va kuchli tomonlari hamda cheklovlarini tushunish orqali til modelini yaratish, ma'lumot olish va boshqa AI ilovalarini ishlab chiqish mumkin. NLP tadqiqotlari rivojlanishi bilan, CBOW va boshqa so'zlarni joylashtirish modellari rivojlanishda davom etadi, bu esa mashinalarga inson tilini tushunish va ular bilan yanada samarali ishlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mikolov, T. , Chen, K. , Corrado, G. , & Dean, J. (2006). Distributed Representations of Words and Phrases and their Compositionality. *Neural Information Processing Systems, 1*.

2. Mikolov, T. , Chen, K. , Corrado, G. , & Dean, J. (2013). Efficient estimation of word representations in vector space. *1st International Conference on Learning Representations, ICLR 2013 - Workshop Track Proceedings*.
3. Sabharwal, N. , & Agrawal, A. (2021). Introduction to Word Embeddings. In *Hands-on Question Answering Systems with BERT*. https://doi.org/10.1007/978-1-4842-6664-9_3
4. Søgaard, A. , Vulić, I. , Ruder, S. , & Faruqui, M. (2019). Cross-Lingual Word Embeddings. *Synthesis Lectures on Human Language Technologies*, 12(2). <https://doi.org/10.2200/S00920ED2V01Y201904HLT042>
1. Короткевич, Ж. А. Развивающая взаимооценка говорения на иностранном языке с использованием технологии семантического картирования / Ж. А. Короткевич, Е. А. Прокопчук // Вестник МГЛУ. Сер. 2, Педагогика. Психология. Методика преподавания иностранных языков. – 2023. – № 2 (44). – С. 70-77.

Салтыкова М. В. ,
Глазовский государственный инженерно-педагогический
университет им. В. Г. Короленко,
доцент кафедры иностранных языков и удмуртской филологии
Ельцова О. В. ,

*Глазовский государственный инженерно-педагогический
университет им. В. Г. Короленко,
доцент кафедры иностранных языков и удмуртской филологии*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИДЕОКОНТЕНТА ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ АУДИРОВАНИЮ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ

Аннотация: Использование видеоматериала в процессе изучения языка студентами является одной из предпочтительных форм обучения. Современная молодежь обладает так называемым клиповым мышлением, поэтому использование коротких видеороликов в процессе обучения аудированию будет эффективным для развития коммуникативной компетенции. Применение популярных хостингов способствует развитию мотивации обучаемых.

Ключевые слова: видеоконтент, обучение аудированию, русский язык как иностранный, клиповое мышление, интерактивные технологии обучения

*Saltykova M. V.,
Glazov davlat muhandislik-pedagogik
O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
V. G. Korolenko,
chet tillar va Udmurtiya filologiyasi kafedrasida dotsenti
Eltsova O. V.,
Glazov davlat muhandislik-pedagogik
O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
V. G. Korolenko,
chet tillar va Udmurtiya filologiyasi kafedrasida dotsenti*

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGANAYOTGAN TALABALARNI TINGLASHNI O'RGATISH UCHUN VIDEO KONTENTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Talabalar tomonidan tilni o'rganish jarayonida videotasvirlardan foydalanish o'qitishning afzal shakllaridan biridir. Zamonaviy yoshlar klip fikrlash deb ataladigan narsaga ega, shuning uchun tinglashni o'rganish jarayonida qisqa videolardan foydalanish kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda samarali bo'ladi. Ommabop xostinglardan foydalanish talabalarning motivatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: video kontent, tinglashni o'rganish, rus tili chet tili sifatida, klip fikrlash, interaktiv o'qitish texnologiyalari

*Saltykova M. V.,
Glazov State Engineering and Pedagogical
University named after V. G. Korolenko,
Associate Professor of the Department of
Foreign Languages and Udmurt Philology
Eltsova O. V.,
Glazov State Engineering and Pedagogical
University named after V. G. Korolenko,
Associate Professor of the Department of
Foreign Languages and Udmurt Philology*

USING VIDEO CONTENT TO TEACH LISTENING TO STUDENTS LEARNING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

Abstract: The use of video material in the process of language learning by students is one of the preferred forms of education. Modern youth have the so-called clip thinking, so the use of short videos in the process of learning listening skills will be effective for the development of communicative competence. The use of popular hosting services contributes to the development of motivation of trainees.

Keywords: video content, listening training, Russian as a foreign language, clip thinking, interactive learning technologies

Основной целью методики преподавания русского языка как иностранного является формирование у обучаемых иноязычной коммуникативной компетенции. Как отмечает Е. И. Пассов, процесс обучения должен быть организован таким образом, чтобы по своим основным характеристикам оно было как можно более подобно реальному процессу общения [5, С. 36]. Поэтому аутентичный материал, в данном случае видеоконтент носителей изучаемого языка, зачастую является наиболее ценным учебным материалом на занятиях.

Учитывая эти особенности, преподаватель может подобрать аутентичные видеоматериалы, которые будут наиболее эффективными для обучения иностранных студентов, изучающих русский язык [4].

Точное определение понятия «видеоконтент» в настоящее время в русскоязычных словарях отсутствует. В Викисловаре это понятие определяется как «совокупность видеоматериалов, составляющих содержимое чего-либо» [1].

Современное развитие возможностей передачи видеoinформации, которые позволяют любому человеку стать оператором и транслировать видеоматериал по различным каналам вещания, дает понимание того, что необходимо разграничить понятия видеоматериал и видеоконтент. Если видеоматериал трактуется как любое видео, то видеоконтент — это не абстрактная ТВ-передача, не абстрактное интернет-видео, а содержание конкретного видеофайла]. Таким образом, в данной статье понятие «видеоконтент» представлено как любительский видеофайл, созданный одним или несколькими пользователями и выложенный в сети Интернет.

Преимущественный возраст студентов, изучающих русский язык, составляет 18 – 25 лет. Это поколение рожденных с 1999 года и позже, которых называют «поколение зуммеров (поколение Z, центениалы, постмиллениалы, цифровые аборигены, молчаливые)». Для зуммеров характерны такие черты, как клиповое мышление, навыки многозадачности, а также стремление к независимости, толерантность, экономность, раннее взросление [3]. По мнению исследователей, именно клиповое мышление как вид восприятия информации через короткие форматы и яркие образы является основным признаком данной возрастной группы. Соответственно, презентация видеоматериала в форме коротких роликов для обучения аудированию в некоторых случаях является предпочтительной.

В настоящее время существует несколько больших хостингов, предоставляющих короткие видеоролики на русском языке. Наиболее популярны среди них YouTube и TikTok.

Во время проведения занятий использованы интерактивные приемы обучения, упражнения для развития не только навыков аудирования, но и других видов речевой деятельности, а также социокультурной компетенции, межкультурной коммуникации, разные формы работы (индивидуальная, парная, групповая, фронтальная). Учтены требования к аудиоматериалу (наличие разных видов голосов в видеороликах, разный темп речи блогеров), что позволяет студентам более результативно развивать навык аудирования и воспринимать речь русскоговорящих носителей языка.

Видеоматериалы могут включать различные телепродукцию, например, новости, интервью, ток-шоу, а также художественные, документальные и мультипликационные

фильмы, которые записаны на плёнку или любой другой цифровой носитель и используются в качестве дидактического материала.

Видеоматериалы могут использоваться на разных этапах урока с разными целями:

- в начале урока для озвучивания темы или ввода новой лексики;
- в ходе урока для презентации языкового материала в реальном контексте;
- в конце урока для закрепления пройденного материала.

При отборе видеоматериала необходимо следовать следующим критериям:

- изображение и звук должны быть качественными;
- речь должна быть чёткой и ясной;
- минимальное количество фоновых шумов;
- прослеживание чёткой связи между сюжетом и диалогами;
- акцент или диалект должен быть понятен учащимся.

Выделим наиболее интересные упражнения с использованием видеоконтента на занятии. Эти упражнения носят коммуникативный характер и предполагают обсуждение проблем, которые затронуты в фильме. Например, дискуссия, «круглый стол», «мозговой штурм» и др.

Кроме того, эффективными с методической точки зрения, являются такие упражнения, как:

- 1) во время просмотра фильма выявите аргументы «за» и «против» в рассматриваемой проблеме;
- 2) выберите информацию, подтверждающую его название;
- 3) определите, какие фразы героев точно характеризуют основную идею фильма и др.

Таким образом, использование видеоконтента при обучении аудированию позволяет более эффективно проводить обучение, повышает мотивацию и интерес студентов к изучению русского языка, развивает не только коммуникативную, но и социокультурную компетенцию.

Литература

1. Видеоконтент [Электронный ресурс]: Викисловарь. – URL: <https://ru.wiktionary.org/wiki/видеоконтент> (дата обращения: 20. 03. 2024)
2. Доронина И. М. К вопросу об определении понятия «видеоконтент»: номинация и корреляция со смежными понятиями. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-opredelenii-ponyatiya-videokontent-nominatsiya-i-korrelyatsiya-so-smezhnymi-ponyatiyami> (дата обращения: 20. 03. 2024)
3. Легина М. Что такое «зуммер»: разбираемся в сути этого явления. – URL: <https://fb.ru/article/509325/2023-chto-takoe-zummer-razbiraemsya-v-suti-etogo-yavleniya> (дата обращения: 20. 03. 2024)
4. Минеева Е. Как использовать настоящие видеоматериалы для развития навыков аудирования у студентов, которые говорят по-русски. – URL: <https://nauchniestati.ru/spravka/ispolzovanie-autentichnyh-videomaterialov-dlya-obucheniya-audirovaniyu-studentov-vladeyushhih-russkim-yazykom/> (дата обращения: 20. 03. 2024)
5. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. М. : Просвещение, 1991. 223 с.

Смирнова М. Н.

*Глазовский государственный инженерно-педагогический
университет им. В. Г. Короленко
доцент кафедры иностранных языков и удмуртской филологии
Глазов, Россия*

Новикова К. Н.

*Глазовский государственный инженерно-педагогический
университет им. В. Г. Короленко
студентка факультета социальных коммуникаций и филологии
Глазов, Россия*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ САЙТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ

Аннотация: В статье поднимается проблема активного внедрения инновационных Интернет-технологий в учебный процесс. Автор делает большой акцент на значимость иностранного языка в наше время и предлагает для использования образовательные Интернет-сайты для обучения иностранному языку в вузе. Вся технология обучения представлена в четыре этапа, где результатом является не просто приобретение речевых навыков, но и реализация личностно-ориентированного подхода в обучении. В статье также делается акцент на психологическую составляющую при использовании Интернет-технологий в учебном процессе.

Ключевые слова: образовательные сайты, интернет-технология, речевые модели, лексические навыки

Smirnova M. N.

*Glazov davlat muhandislik-pedagogik
O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi V. G. Korolenko
chet tillar va Udmurtiya filologiyasi kafedrasida dotsenti
Glazov, Rossiya*

Novikova K. N.

*Glazov davlat muhandislik-pedagogik
O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi V. G. Korolenko
ijtimoiy aloqa va filologiya fakulteti talabasi
Glazov, Rossiya*

UNIVERSITETDA CHET TILI DARSLARIDA O‘QUV SAYTLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: maqolada o‘quv jarayoniga innovatsion internet texnologiyalarini faol joriy etish muammosi ko‘tarilgan. Muallif bizning davrimizda chet tilining ahamiyatiga katta e‘tibor qaratadi va universitetda chet tilini o‘qitish uchun o‘quv internet saytlaridan foydalanishni taklif qiladi. Ta’limning barcha texnologiyasi to‘rt bosqichda taqdim etiladi, bu yerda natija nafaqat nutq

ko'nikmalarini egallash, balki o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishdir. Maqolada, shuningdek, o'quv jarayonida internet texnologiyalaridan foydalanishda psixologik tarkibiy qismga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim saytlari, internet texnologiyasi, nutq modellari, leksik ko'nikmalar

Smirnova M. N.

Glazov State University of Engineering and Pedagogics
named after V. G. Korolenko

Associate Professor of the Department of Foreign Languages and Udmurt Philology
Glazov, Russia

Novikova K. N.

Glazov State University of Engineering and Pedagogics
named after V. G. Korolenko
student of the Faculty of Social Communications and Philology
Glazov, Russia

PROSPECTS FOR THE USE OF EDUCATIONAL WEBSITES IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES AT THE UNIVERSITY

Abstract: The article raises the problem of the active introduction of innovative Internet technologies into the educational process. The author places great emphasis on the importance of a foreign language in our time and suggests using educational Internet sites for teaching a foreign language at a university. The entire learning technology is presented in four stages, where the result is not just the acquisition of speech skills, but also the implementation of a personality-oriented approach to learning. The article also focuses on the psychological component when using Internet technologies in the educational process.

Keywords: educational websites, Internet technology, speech models, lexical skills

На протяжении многих десятилетий проблема изучения иностранных языков постоянно находится под пристальным вниманием ученых-теоретиков, педагогов-практиков и многих обычных граждан мирового сообщества. Еще в древние времена люди поняли значимость владения иностранными языками для комфортного существования. Владение чужим языком способствовало и для налаживания торговых связей, и для осуществления успешной политической деятельности, и просто для коммуникации с представителями других народов. И чем дальше шло становление государства, тем более востребованными становились люди, владеющие одним, а лучше даже несколькими иностранными языками.

Но вернемся к современному этапу нашей жизни. Вряд ли надо кому-то доказывать, что знание языков – это мостик между разными народами и культурами. В наш век современных технологий это вполне очевидно. Но то, что кажется очевидным, не всегда легко достижимо. Желание изучить иностранный язык есть у многих людей, но вот возможность и способность для этого, к сожалению, есть не у всех.

Конечно, согласно проведенным исследованиям, изучать иностранный язык лучше начинать еще в раннем детстве, используя природную любознательность ребенка ко всему новому, например, в форме игры, когда он на подсознательном уровне будет осваивать незнакомый ему язык. Но что же делать, если данный момент в детстве был упущен, а в школе в силу объективных причин он не смог получить уровень знаний, необходимый для акта коммуникации с иноязычным собеседником? И тогда вся надежда - на преподавателя вуза.

В высшее учебное заведение приходят студенты с разным уровнем знаний по иностранному языку: от нулевого до достаточно высокого уровня (в данном случае мы не имеем в виду студентов языковых профилей). Как правило, именно в вузе многие обучающиеся осознают истинную значимость иностранного языка для своей

профессиональной деятельности, для личных потребностей и просто для самосовершенствования. И вот задача преподавателя иностранного языка - это выбрать такую технологию обучения, которая бы подходила для всех обучающихся, как с нулевым, так и с высоким уровнем знаний.

И вот одной из таких технологий является использование перспективных образовательных Интернет-сайтов на занятиях иностранного языка. В зависимости от того, какую цель мы ставим на занятии, мы можем использовать различные ресурсы. Это могут быть просмотры учебных фильмов и выполнение заданий после них, это могут быть аудиолекции по грамматике, лексике или фонетический тренинг на основе прослушивания образцов аутентичной речи, а затем, выполнение тестов и заданий в качестве закрепления и контроля.

О перспективах использования Интернет-технологий в учебном процессе говорят многие ученые. Среди них - Г. Э. Азимов, В. П. Беспалько, Р. П. Мильруд, Е. С. Полат и другие. И каждый из них имеет свое представление о критериях, которые предъявляются к отбору образовательных Интернет-ресурсов, но есть и общее, что их объединяет: соответствие учебной программе и целям занятия. Также следует учитывать и возраст обучающихся на предмет соответствия контента и уровня предъявляемого материала их интересам, способностям и владению информационными технологиями. К сожалению, в последнее время поступает много студентов из ближнего зарубежья, которые имеют проблемы с компьютерной грамотностью. Поэтому, следует быть более внимательными к таким студентам и уделять им больше времени на занятиях.

Рассмотрим технологию работы с образовательными сайтами на примере обучения лексическому материалу английского языка. Для формирования лексических навыков обучающихся преподаватель, используя возможности образовательного контента и интерактивной доски, может дать задания обучающимся на подбор адекватных лексических единиц, например:

- соотнести картинки с лексикой;
- составить предложение из данных слов,
- заполнить пропуски в предложениях/диалогах подходящей лексикой;
- составить словосочетания из предложенных слов.

Представим алгоритм работы с образовательным лексическим контентом:

1. Анализ потребностей обучающихся.

На первом этапе необходимо провести беседу с обучающимися и выяснить их уровень владения языком, их интересы, цели в жизни, ожидания от занятий иностранного языка. Это позволит преподавателю определиться с материалом, который следует включить в учебную работу с данным контингентом обучающихся по уровню языка, содержанию и методикой обучения, то есть подобрать тот образовательный сайт, который бы отвечал всем вышеназванным требованиям. И, конечно, следует брать во внимание соответствие учебной программе.

2. Подбор образовательного контента.

На втором этапе преподавателю следует изучить все доступные лицензированные образовательные Интернет-сайты и выбрать несколько из них, которые могут быть использованы на занятии. В дальнейшем после работы с этими сайтами решить, которые подходят для достижения поставленной цели, а какие нет. Это могут быть фильмы, аудиоматериалы для отработки фонетических и лексических умений, тесты, упражнения и различные типы заданий на контроль с автоматизированной проверкой самой программой. Можно провести пробное занятие и уже на начальном этапе определиться с Интернет-платформой. Обязательно должна быть преемственность заданий, то есть предыдущее и последующее упражнение должно укладываться в общую схему [1, С. 355].

3. Планирование занятия.

На третьем этапе, после того, как преподаватель провел пробное занятие, он может приступить к планированию занятий. Конечно, сложно точно спланировать всю свою

работу на большой период времени, не всегда все задуманное получается, но все же лучше сразу распределить все темы курса на этапы работы, четко определить количество часов на каждый этап и решить, когда и какой тип контроля будет использован и проведен. Это дисциплинирует самого преподавателя и не дает ему раствориться в его технологии, забыв о времени.

4. Практическая реализация.

Четвертый этап, а именно, практическая реализация работы с использованием образовательных сайтов, представляет собой выполнение интерактивных заданий, работа с аудио и видео материалом, самостоятельная работа студентов, как на занятии, так и дома, проведение ролевых и деловых игр на базе Интернет-сайтов. Поскольку данная работа была нацелена на формирование и совершенствование лексических навыков обучающихся, то и конечной целью всей работы будет – использование изученной лексики в речевых моделях. Благодаря систематической работе словосочетания, грамматические и лексические обороты прочно останутся в памяти обучающихся [2, С. 3-4].

Как показала практика, использование образовательных сайтов на занятиях иностранного языка:

- способствует запоминанию материала;
- предоставляет образец правильного произношения;
- снижает усталость;
- вносит в процесс изучения элемент праздничности;
- развивает память и мышление.

Достоинством данной технологии является еще и то, что студенты могут дома продолжить совершенствовать свои умения и навыки в рамках данного учебного сайта. Они могут работать в своем темпе, по необходимости возвращаться по несколько раз к изучаемым аспектам, если у них не сразу все получается. Они работают один на один с компьютером, и никто не видит их временный неуспех и то, сколько усилий им пришлось приложить, чтобы достичь уровня знаний своей группы. А в этом возрасте очень болезненно воспринимается личный неуспех и отношение к нему со стороны своих одноклассников.

Конечно, одному студенту для усвоения материала достаточно одного занятия, а другому - необходимо еще дополнительно позаниматься дома, но главное, это результат, когда материал освоен и усвоен всеми обучающимися в равной степени. В итоге, получается, что успешными становятся все студенты в группе, появляется мотивация для дальнейшего изучения иностранного языка, а возможно, и второго-третьего иностранного языка. Вот он результат! Поэтому использование образовательных сайтов – это очень эффективная и перспективная технология, которую следует использовать при обучении языку.

Конечно, нельзя строить свой учебный процесс только на этой технологии, существует множество других проверенных временем форм и методов обучения иностранному языку. Даже иногда старая традиционная методика тоже дает хороший результат.

Но время не стоит на месте и для того, чтобы молодое поколение с интересом посещало занятия иностранного языка и активно включалось в учебный процесс, необходимо брать в расчет их заинтересованность в современных инновационных технологиях и по необходимости использовать образовательные Интернет-сайты на занятиях иностранного языка, которые являются очень перспективным средством обучения.

Итак, использование Интернет-технологий в преподавании иностранного языка обусловлено не только стремлением к модернизации процесса обучения, но и тем фактом, что благодаря веб-технологиям становится возможной реализация личностно-ориентированного подхода к обучающемуся, что является основным направлением в образовании в наше время [3].

Литература / Фойдаланилган адабиётлар / References

1. Климентенко А. Д. Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе. / А. Д. Климентенко, А. А. Миролубов. – М. : Педагогика, 1981. – 456 с.
2. Павлова Е. А. Игровые упражнения с песнями и стихами на уроках английского языка. / Е. А. Павлова - М. : Чистые пруды, 2007. – 29 с.
3. Строкань В. И. Актуальность использования интернет-ресурсов в обучении иностранному языку / В. И. Строкань // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2017. - № S8. - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnost-ispolzovaniya-internet-resursov-v-obuchenii-inostrannomu-yazyku> (дата обращения: 31. 03. 2024).

Скрябина Мария

*Глазовский государственный инженерно-педагогический университет им. В. Г. Короленко
Глазов, Россия*

ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК СПОСОБ АКТИВИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация: Статья посвящена внедрению геймификации на уроках русского языка с целью активизации познавательной деятельности обучающихся в соответствии с требованиями ФГОС РФ. В статье рассматриваются различные подходы к использованию игровых элементов, основанных на принципах геймификации. Авторы предлагают перечень условий, учёт которых способствует наиболее эффективному использованию игровых элементов на уроках русского языка, способствующих повышению мотивации учащихся.

Ключевые слова: геймификация, инструмент, русский язык, приём.

Skriabina Maria

*V. G. Korolenko nomidagi Glazov davlat muhandislik-pedagogika universiteti
Glazov, Rossiya*

TA'LIM OLUVCHILARNING TA'LIM FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH USULI SIFATIDA GEYMIFIKATSIYA

Annotatsiya: Maqola ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatini faollashtirish maqsadida Rossiya Federatsiyasi MAHning talablariga muvofiq rus tili darslarida geymifikatsiyani joriy etishga bag'ishlangan. Maqolada geymifikatsiya tamoyillariga asoslangan o'yin elementlaridan foydalanish bo'yicha turli yondashuvlar ko'rib chiqilmoqda. Mualliflar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladigan rus tili darslarida o'yin elementlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladigan sharoitlar ro'yxatini taklif etmoqda.

Asosiy so'zlar: geymifikatsiya, asbob, rus tili, qabul.

Scriabin Maria

*Glazov State University of Engineering and Pedagogics named after V. G. Korolenko
Glazov, Russia*

GAMIFICATION AS A WAY TO ACTIVATE COGNITIVE ACTIVITY OF STUDENTS

Abstract: The article is devoted to the introduction of gamification in Russian language lessons in order to activate the cognitive activity of students in accordance with the requirements of the Federal State Educational Standard of the Russian Federation. The article discusses various approaches to the use of game elements based on the principles of gamification. The authors offer a list of conditions, the accounting of which contributes to the most effective use of game elements in Russian language lessons, which contribute to increasing student motivation.

Keywords: gamification, instrument, Russian language, technique.

Обновлённый ФГОС РФ ставит главной целью развитие личности обучающегося, его осознанное отношение к обучению, то есть активной познавательной деятельности учащихся [1]. Учителю важно заинтересовать учеников, побудить их самостоятельно добывать знания. Следовательно, необходимо наполнять уроки интерактивными элементами.

По мнению педагогов и психологов, нынешнее поколение детей сильно отличается от своих предшественников, в результате чего обучающие и тренировочные упражнения становятся недостаточными.

В связи с этим ключевым образовательным трендом современного образования является геймификация, подразумевающая использование игровых элементов в неигровых ситуациях. Целью этого процесса является привлечение и повышение внимания обучающихся для улучшения их мотивации при решении практических задач при обучении новым видам деятельности [2].

В настоящее время игры активно используют учителя точных наук, причём на различных онлайн-платформах. На уроках русского языка, по нашему мнению, учителям также нужно и даже необходимо использовать игровые элементы [3].

Изучив научную и учебно-методическую литературу, мы пришли к выводу, что при подготовке занятий с включением игровых элементов необходимо учитывать следующие условия:

Первое условие требует учёта **возраста** обучающихся. Так, для средних классов будут более подходящими игры конкурентного характера или игры, где дети проявляют свои **индивидуальные качества**. В старших классах следует использовать игры, которые отражают **проблемы современного общества** и направлены на их решение.

Второе условие сопряжено с уровнем **сложности** игры. Это значит, что использование игровых заданий действительно сможет заинтересовать школьников лишь в том случае, если для них будут понятны правила и поставленная задача.

Третье условие заключается в том, что игра — лишь **инструмент** в достижении цели, а не сама цель, поэтому игре на уроках должно отводиться максимум **25% урочного времени**.

С опорой на перечисленные выше условия был проведён эксперимент, состоящий из трёх этапов. На констатирующем этапе ученикам пятого класса были представлены «классические» упражнения по теме «Глагол» (тексты с пропущенными буквами), в результате чего были получены не только положительные, но и неудовлетворительные результаты усвоения темы. На формирующем этапе помимо заданий из учебников мы предложили учащимся игровые задания: орфографический лабиринт, словообразовательный аукцион, орфографическая новелла, три в ряд, морфологический квест, найди пару, третий лишний и др. Итоги выполнения таких заданий были проанализированы на контрольном этапе. Результаты усвоения темы улучшились на 20%, а количество активно работающих на занятии учеников увеличилось в 2 раза.

Таким образом, геймификация — один из наиболее эффективных в настоящее время приёмов повышения познавательной деятельности и развития когнитивных способностей обучающихся.

Литература / Фойдаланилган адабиётлар / References

1. Федеральный государственный образовательный стандарт основного общего образования: национальный стандарт Российской Федерации: издание официальное: утвержден приказом Министерства Просвещения Российской Федерации от 31 мая 2021 г. № 287 / разработан Министерском Просвещения Российской Федерации – Москва: [б. и.], 2021. – Текст: электронный. URL: <https://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/401333920/#1000>
2. Илалтдинова, Е. Ю. Игра в воспитательном пространстве детско-возрастного сообщества / Е. Ю. Илалтдинова // Народное образование. — 2014. — №6. — С. 45-51.
3. Говоров, А. И. Геймификация как средство повышения мотивации учащихся / А. И. Говоров, М. М. Говорова // Информатика и образование. — 2014. — №9. — С. 76-78.

Ro‘zimboyev Sarvar Saparboyevich
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Urganch, O‘zbekiston, Urganch davlat universiteti
sarvarbek210973@gmail.com

ENANTIOSEMIYA HODISASINI O‘RGANISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada enantiosemiya hodisasini o‘rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Bunda amaliy mashg‘ulotlar ishlanmalarini elektron dastur asosida tayyorlangan nostandart testlar orqali o‘rganilishi misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: *Enantiosemiya, test, nostandart testlar, integrativ testlar, adaptiv testlar, mezonli-mo‘ljil testlar, Blum taksonomiyasi.*

Аннотация. В данной статье освещены вопросы использования инновационных технологий в изучении энантиосемии. При этом на примерах доказывается позитивная роль нестандартных тестов, подготовленных на основе электронной программы.

Ключевые слова: *энантиосемия, тест, нестандартные тесты, интегративные тесты, адаптивные тесты, критериальные тесты, таксономия Блума.*

Annotation. This article highlights the use of innovative technologies in the study of enantiosemy. At the same time, examples prove the positive role of non-standard tests prepared on the basis of an electronic program.

Key words: *enantiosemy, test, non-standard tests, integrative tests, adaptive tests, criterion tests, Bloom's taxonomy.*

Lisoniy ziddiyat masalasi o‘zbek tilshunosligida antonimik va antisemik birliklar doirasida o‘rganilgan. Lekin tilda, leksik sathda yana bir ziddiyatning turi borki, bunda qarama-qarshi munosabat, antonimik va antisemik birlikdan farqli ravishda, bir til birligi doirasida yuzaga chiqadi. Mazkur ziddiyat turi **enantiosemiya** bo‘lib, mohiyat e‘tibori bilan so‘z turkumi doirasi bilan yuzaga chiqadigan sof semantik hodisa hisoblanadi[2: 15-b.].

Enantiosemiya leksik sathning o‘ziga xos hodisasidir. U bir so‘zda ikki zid ma’noning mavjudligiga asoslanadi. Enantiosemiya yunoncha **en** “ichidagi”, **anti** “qarama-qarshi”, **sema** “belgi” degan ma’noni anglatadi[3: c 537] va lingvistik atama sifatida 1883-yilda chex tilshunosi V. Shersl tomonidan tilshunoslik ilmiga olib kirgan. Olim mazkur lisoniy hodisani enantiosimiya deb atar ekan, ushbu atama ostida so‘zlar o‘trasidagi qarama-qarshi ma’nolarni emas, balki bir so‘zdagi o‘zaro zid ma’nolarni tushunish lozimligini ta’kidlaydi[4: c 259-264].

Enantiosemiyaning murakkab hodisaligi, unda bir vaqtning o'zida omonimiya, antonimiya va polisemiya o'xshash jihatlarining mavjudligidir. Enantiosemiyaning yuzaga kelishi ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi kishilarning lingvomadaniyati bilan ham bog'liq hisoblanadi. Misol uchun, **odamovi** so'zining adabiy tildagi "odamlardan o'zini tortadigan", "hech kimga qo'shilmaydigan" degan ma'noni anglatishi hammamizga ma'lum. Ammo bu so'zning muayyan bir hududda, adabiy tildan farqli "odamshinavanda, doim el-yurt bilan birga" degan ma'noni ifoda etishi o'sha hudud aholisining lingvomadaniyati bilan izohlanadi, ya'ni o'sha joyda istiqomat qiluvchi til egalarining lisoniy tafakkur tarzi odamovi so'zini "odamoxun, odamshavanda" shaklda idrok etishga xoslangan[2: 63-b.]. Bu holatlar enantiosemiya hodisasining lingvokulturologik xususiyati mavjudligini ham ko'rsatadi.

Ushbu ishimizning maqsadi enantiosemiya hodisasini tahlil qilish, turli ilmiy-nazariy fikrlarni leksika sathida ifodalashini, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda talabalar savodxonligini oshirishga qaratilgan. Aslida talabalarda enantiosemiya hodisasi haqida to'liq tasavvur shakllanishi uchun uni tanlov fani maqomida kurs sifatida o'qitilishi maqsadga muvofiq. Chunki tanlanma fanning amaliy mashg'ulot soatlarida mavzu turli innovatsion texnologiyalar asosida atroflicha o'rganiladi.

Bunda bizga kompyuter dasturi asosida tayyorlanadigan nostandart testlar yordam beradi. Ma'lumki, nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra 3 xil bo'ladi: **1. Integrativ testlar; 2. Adaptiv testlar; 3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.**

Integrativ testlar qiyinchilik darajasi o'sib boruvchi, yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, talabalarga nisbatan individual yondashish imkonini beradigan testlardir. Adaptiv testlar qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, talabaning tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari talabalarining umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali talabalarining bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari haqida fikr yuritish lozim. Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
- Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;
- Test topshirig'idagi savol va javobning qisqaligi;
- Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;
- Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
- Talabalarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;

Test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli o'quv kursi mazmunidagi bilimlarni aniqlash va ularga mos o'quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq. Professor-o'qituvchilar o'rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda Blum taksonomiyasiga asosan o'quv maqsadlarini aniqlashi va shu asosda mashg'ulotlarni tashkil etishi lozim. O'quv maqsadlarini mashg'ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta'lim samaradorligini aniqlash va kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi.

O‘quv maqsadlari taksonomiyasi Benjamin Blum - tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o‘z ichiga oladi[1: c 232].

Ushbu ishimizning maqsadi enantiosemiya hodisasini tahlil qilish, turli ilmiy-nazariy fikrlarni leksika sathida ifodalanishini, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalangan holda o‘quvchilar savodxonligini oshirishga qaratilgan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi nostandart testlarni hukmingizga havola etamiz:

Nostandart test topshiriqlari

1. Terminlarga berilgan ta’riflar o‘rtasida moslikni toping:

1	Zidlanish	A	Tilning ikki taraqqiyot davri: masalan, qadimgi turkiy til va eski turkiy til; eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili		
2	Enantiosemiya	B	Mohiyat-e’tibori bilan tilning muayyan bir davrida so‘zda yuzaga kelgan ma’noviy qarama-qarshilikdir.		
3	Sinxroniya	C	Tilning tabiiy taraqqiyoti natijasida ma’lum bir davrda ijobiy yoki salbiy bahoni bildirgan so‘z tilning boshqa bir davrida aksincha bahoni ifodalashi		
4	Diaxroniya	D	Til bir taraqqiyot davri: masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tili davri		
5	Sinxron enantiosemiya	E	So‘z yoki ibora ma’nolarining o‘zaro qarama-qarshi xarakterda bo‘lishi		
6	Diaxron enantiosemiya	F	Bir til birligining ikki zid ma’nolarga ega bo‘lishidan iborat lisoniy hodisa		
1	2	3	4	5	6

To‘g‘ri javob:

1	2	3	4	5	6
E	F	D	A	B	C

2. To‘g‘ri javoblarni aniqlang. Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.

<p>1. ijarachi so‘zining “uy-joyini, yerini yoki narsalarini (foyda evaziga) ijaraga beruvchi” va “uy-joy, yer yoki narsa-larni vaqtincha ijaraga oluvchi” ma’no-lari enantiosemiyaga misol bo‘la oladi.</p> <p>2. bosh so‘zining “boshlanish joyi” hamda “oxiri, etagi” semalari enantiosemiya hodisasi sanaladi.</p> <p>3. Ajdod – avlod tarzidagi zidlanish zot, zurriyod, avlod, ajdod, nasl so‘zlari orqali ifodalanishi mumkin.</p> <p>4. Antonimiya va enantiosemiya bir hodisa sanaladi.</p> <p>5. Enantiosemiyani omonimiya ichida o‘rganish to‘g‘ridir.</p> <p>6. Do‘st – dushman tarzidagi zidlanish tarfkash so‘zining</p>	<p>8. Enantiosemiyaning yuzaga kelishi ma’lum bir hududda yashovchi kishilarning lingvomadaniyati bilan ham bog‘liq emas.</p> <p>9. Enantiosemiya yuzaga kelishining dastlabki omili sifatida sinkretizmni ko‘rsatish mumkin.</p> <p>10. <i>Oq kiymoq</i> iborasining ba’zi joylarda “a’zaga kirmoq” ma’nosini, ba’zi joylarda esa “a’zadan chiqmoq” ma’nosini ifodalashi enantiosemiya-ning etnolingvistik xususiyati borligini ko‘rsatadi.</p> <p>11. So‘zning uzual va okkazional ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladigan zidlanish nutqiy enantiosemiyani namoyon etadi.</p> <p>12. Diaxronik enantiosemiya arabcha o‘zlashma qatlam so‘zlarida ko‘p uchraydi.</p> <p>13. “O‘zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemiya kitobining muallifi tilshunos olim Y. Odilov</p>
--	--

<p>“tarafini oluvchi, tarafdor” va “qarshi chiquvchi, raqib” semalari orqali enantiosemiyaga misol bo‘la oladi.</p> <p>7. Ahmad kitob sotib oldi. Savdogar bayram bahonasida mahsulotlarini sotib oldi. Bu misollardagi sotib olmoq – “xarid qilmoq” va sotib olmoq – “tez va osonlik bilan pullamoq” enantiosemik hodisalardir.</p>	<p>sanaladi”. 14. So‘zdagi enantiosemik ma’nolarning tilning bir taraqqiyot davri yoki ikki taraqqiyot davriga xosligi sinxronik va diaxronik enantiosemiyani yuzaga keltirmaydi.</p>
--	---

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14

To‘g‘ri javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Ha	Ha	Ha	Yo‘q	Yo‘q	Ha	Ha	Yo‘q	Ha	Ha	Ha	Ha	Ha	Yo‘q

Shuni qayd etish kerakki, talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayoni oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan ta‘lim-tarbiya jarayonining ajralmas uzviy qismi bo‘lib, mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etilishi ta‘lim samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Enantiosemiya mavzusini o‘rganishda nostandart testlar, ularning shakllari va savodxonlikni oshirishdagi o‘rni katta ekanligi yuqoridagi topshiriqlardan anglashiladi. Yuqorida keltirilgan testlar enantiosemiya mavzusi bo‘yicha tayyorlash mumkin bo‘lgan topshiriqlarning bir qismigina bo‘lib, bu ishni lug‘aviy va frazeologik birliklar sathida ham amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi vazifalarni e‘tiborga olgan holda professor-o‘qituvchilar ta‘lim-tarbiya jarayonida ta‘lim mazmuniga bog‘liq innovatsion ta‘lim texnologiyalarini tanlash, mashg‘ulotlar ishlanmasi va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o‘quv maqsadlarni amalda qo‘llay olishi, talabalarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil eta olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bloom B. S. a. o. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N - Y. , McGraw-Hill, 2014.
2. Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тафаккур нашр, Тошкент-2015.
3. Розенталь Д. Э. , Теленкова М. А. Словарь –справочник лингвистических терминов. –М. : Просвещение, 1976.
4. Шерцль В. И. О словах с противоположными значениями (или о так называемой энантиосемии) Хрестоматия по истории русского языка. – М. : Высшая школа, 1973.

Shaxlo Naraliyeva,
Qozog‘iston Respublikasi, Jumabek
Tashenev nomli universitet
Xalqaro hamkorlik departamenti direktori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'ZBEK TILI O'QITISHNING MA'NAVIY- MA'RIFIY TAMOIYILLARI

(Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida yuritiladigan maktablar misolida)

Annotasiya. Mazkur maqolada Qozog'iston Respublikasidagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida o'zbek tili darslarini innovasion metodlar asosida tashkil etish, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar nutqini shakllantirishning zamonaviy tomoyillari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar. tarix, ta'lim, o'zbek tili, badiiy tafakkur, qobiliyat, o'zbek-qozoq qardoshligi, innovatsion g'oya, lug'at boyligi, nutq madaniyati, uslub.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные принципы организации уроков узбекского языка на основе инновационных методов и формирования речи учащихся в узбекско язычных школах Республики Казахстан.

Ключевые слова. история, образование, узбекский язык, художественное мышление, способности, узбекско-казахское братство, новаторская идея, словарный запас, культура речи, стиль.

Annotation: This article discusses modern principles of organizing Uzbek language lessons based on innovative methods and developing students' speech in Uzbek-language schools of the Republic of Kazakhstan.

Key words. history, education, Uzbek language, artistic thinking, abilities, Uzbek-Kazakh brotherhood, innovative idea, vocabulary, speech culture, style.

O'zbek va qozoq tillari orasidagi bir til oilasiga mansublik; hududiy chegara nuqtai nazaridan O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi qo'ni-qo'shnichilik; qondoshlik rishtalari; ijtimoiy turmush tarzining yaqinligi, o'zbek tili, adabiyoti, san'ati, madaniyatining qozoq tili, qozoq adabiyoti, qozoq san'ati va madaniyatining o'zbeklarga ta'siri umumturkiy ma'naviyatning o'ziga xos qirralaridan biridir.

Barcha zamonlarda ham ta'limning maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblangan. Ta'limning maqsadi jamiyat amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadi jamiyatning maktab oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasiga ko'ra belgilanadi. Vaziyatga moslab, o'quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmuni, usul va vositalari, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, bu tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisni shakllantirishini loyihalaydi.

Ko'p asrlardan beri til va madaniyat, til va qadriyat munosabati muammosi kun tartibining eng dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Tarixning turli davrlarida bunday munosabatlar jamiyat ehtiyojiga ko'ra umumiy va juz'iy mezonlarga bo'linadi. Zero, har doim insonning tili, ya'ni nutqi, uning odobi, ichki madaniyatini namoyon qiluvchi vosita deb qaralgan. Ajdodlarimiz har bir shaxsning tiliga, uning tilga munosabatiga, nutqining qay tarzda namoyon bo'lishiga alohida e'tibor berishgan. Shunday qarashlar tufayli zamonlar o'tishi bilan nutq odobini, muloqot madaniyatini belgilovchi ma'lum mezonlar vujudga kelgan.

Atoqli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Y. Tojiyevning fikricha, "O'zbek tilining ifoda imkoniyatlari ba'zi olimlar ta'kidlayotgan darajadan ham ancha yuqori. Hozirgi kunda bu tilning imkoniyatlari haqida gap borganda, odatda, tadqiq etish asosida isbotlangan, ochib berilgan, omma tan olgan jihatlarga nazarda tutiladi. Vaholanki, o'zbek tili birliklarining nutqda qo'llanish imkoniyatlaridan juda kam qismigina, ya'ni ayrimlarining ba'zi imkoniyatlarigina ochib berilgan, xolos. Axir har bir til birligining o'ziga xos nutqda qo'llanish imkoniyatlarini to'la ochib berish, belgilash degan so'z, har bir fonetik birlikning (fonemalar, bo'g'inlar, urg'u, ohang. . .), morfem birlikning (barcha asos bo'la olish xususiyatiga ega bo'lgan bosh morfemalar, yordamchi morfemalar sifatida baholanayotgan affikslar – qo'shimchalar, so'z tarkibida o'rtnashib qolgan rudiment xarakteridagi birikmalar, hatto, morfema va fonemalar ham) leksik vositalarning, birikma gap qurilmalarining barcha imkoniyatlari: bir-biri bilan birikish

qonuniyatlari, ma'no va vazifalari, uslubiy jihatlari, konnotatsiyalari, turli xil o'zgarishlarida ochiladigan boshqa qirrali mukammal tadqiq etilishi lozim, deganidir" [2].

Dunyoda ta'lim oluvchilarning, jumladan, maktab o'quvchilarining sifatli o'qitilishi, ularning intellektual qobiliyatlari, ijodiy tafakkurlari, kreativ fikrlashlarini shakllantirish va takomillashtirish mamlakatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi shartlardan biri sifatida tan olindi [4]. Zero, ona tili darslarida o'quvchilarning lug'at xazinasini boyitish, bu borada ta'limning samaradorligi yuqori bo'lgan metodlarini takomillashtirish, ta'limning didaktik ta'minotini boyitish, o'qitish jarayonida zamonaviy talablarga javob beradigan innovasion shakl, metod va vositalardan foydalanish, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi ham bejiz emas. Hozirgi zamon metodikasining ijodiy faoliyatni kuchaytirishga yo'naltirilgan yondashuvda ham bunga alohida diqqat qaratilmoqda.

Ona tili kishi tafakkurini shakllantiruvchi, insonni inson sifatida rivojlantirib boruvchi, uning ma'naviy kamoloti, komilligini ta'minlab beradigan asosiy manba hisoblanishi hech birimiz uchun sir emas. Shuning uchun ham dunyo tamaddunida o'zini, o'zligini tanigan har bir xalq, har bir millat, avvalo, o'z ona tili qadrini yuksaltirishga, uning ta'limi samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida M. Mahkamovning "Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish", F. Aminovning "O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari", A. Aripovning "Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari", K. Bozorbekovning "O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari", T. Jo'rayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida epistolyar janrning til va uslubiy xususiyatlari", Sh. Abdurahmonovning "O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar", Sh. Yuldashevaning "Davlat tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy metodik asoslari", A. Nisanbayevaning "O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari", A. Ergashevaning "Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o'stirish metodikasi" mavzusida olib borilgan tadqiqotlarida nutq madaniyati, notiq nutqi, nutq o'stirish, og'zaki va yozma nutq muloqot madaniyati, kasbiy pedagogik muloqot madaniyati masalalari til, pedagogika, metodika fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinib, muammo ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq qilingan. Keyingi yillarda o'zbek tili nutq madaniyatida ifodalarning grammatik jihatdan to'g'riligi, nutqning qator kommunikativ sifatleri, ham og'zaki, ham yozma nutqda nutq madaniyati talablari hisobga olinganligi, uslubiy qoidalarga amal qilinganligi, bo'yoqdor leksika, ekspressiv ifodalovchi grammatik vositalar mahorat bilan ishlatilganligi masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Bir guruh olimlarning fikricha, ona tili ta'limi maqsadi dialektik kategoriyalar asosida umumiy hamda xususiy maqsadlarga ajratiladi hamda ona tili ta'limining umumiy maqsadi zamon va makonlar yoki hukmron mafkuralar bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. U barcha zamonlarda ham ta'lim oluvchiga xat-savod o'rgatilishini, fikrini yozma/og'zaki shakllarda bayon etish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishni nazarda tutadi. Ta'lim ona tilida amalga oshirilganda bu maqsad, albatta, voqyelanadi. Ona tili ta'limining xususiy maqsadi ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'lanishda bosqichlilik va davomiylukda – keyingi maqsad oldingisini o'z ichiga olgan holda tadrijiy ravishda o'sib boradi.

Ma'lumki, ta'limning umumiy maqsadi ta'lim turlari va bosqichlari maqsadi bilan, ular esa har bir muayyan dars maqsadi, shuningdek, maqsadga muvofiq mazmun va usul bilan uzviy bog'liqlikda belgilangandagina ko'zlagan samarani beradi. Maktabda ona tili ta'limining umumiy logikasi, ya'ni mazmuni shu o'quv predmeti ta'limning maqsadiga muvofiq tarzda idrok etilishi kerak, sababi, ona tili ta'limi mazmuni uning maqsadiga mos tarzda o'quvchi shaxsining ehtiyojlari davlat, jamiyat, fan, texnika, ishlab chiqarish talablari, san'at, madaniyat rivojini hisobga olgan holda ta'minlanishi kerak.

Har bir yangi avlod ijtimoiy turmush tarzi davomida, o'zlarigacha yig'ilgan bilim va tajribalarni o'zlashtiradi hamda mazkur bilimlar asosida yangilarini yaratadi. Ona tili ta'limi maqsadi bilan bog'liq ravishda o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmi va tabiati ijtimoiy zarurat bilan belgilanadi hamda ta'lim oluvchining ehtiyoju imkoniyatlari bilan

muvoqilashiriladi. O'quvchiga bilim berishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uni mustaqil faoliyatga yo'llash, mikrososiumda o'z o'rnini egallashga tayyorlash hamda eng zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat bo'lgandagina ahamiyatli sanaladi.

Qozog'istondagi o'zbek maktablarida ona tili mashg'ulotlarini tashkil etishda ham o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilimlar muayyan ko'nikma va malakalar hosil qilishiga jiddiy e'tibor beriladi. Amaliyotda tatbiq etilishi mumkin bo'lmagan, ya'ni kundalik mustaqil ijodiy tatbiq bilan bog'lanmagan yoki o'quvchiga bir xil saviyadagi bilimlarni singdirishga harakat qilmoq ham to'g'ri emas, aslida. Zero, umumiy o'rta ta'lim jarayonida o'quvchi uchun mo'ljallangan bilimlar amaliyligi, pragmatik qiymatligi bilan xarakterlanadi. Bu o'qitishning makon va zamonidan qat'i nazar, istalgan o'rta umumiy ta'lim maktablarining barcha ona tili mashg'ulotlariga bir xil tegishlidir. Qozog'istondagi o'zbek maktablarida ona tili mashg'ulotlarini tashkil etish o'qituvchidan har bir soatlik dars jarayonini oldindan loyihalashni talab etadiki, bu ona tili o'quv predmeti ta'limining usuli bilan bog'lanadi.

Ona tilidan har bir soatlik dars loyihasida mashg'ulot jarayonida ketma-ket amalga oshiriluvchi ta'limiy voqelikning belgilanishi; ularning pragmatik qiymati; belgilangan axborot bazasini o'quvchilarga tez va oson singdirish yo'llarini izlab topish; tahliliy-tanqidiy izoh; natijani oldindan ko'ra bilish va rejalashtirish kabi ijodiy faoliyat turlari namoyon bo'ladi. Ma'lumki, loyihalayotgan dars jarayoniga pedagogik tashxis qo'ya olish, ijobiy natijani oldindan ko'ra bilish va shu asosda dars jarayonini loyihalash istalgan pedagogik vazifani amalga oshirishning asosiy kompotenti hisoblanadi.

Dars jarayonlarini oldindan loyihalashda o'qituvchi nihoyatda ziyrak bo'lishi zarur. Negaki, u o'quv faoliyatining shunchaki taxminiy variantlarini belgilab qo'yishi mumkin emas. Ayniqsa, o'zga tilli ijtimoiy turmush sharoitidagi o'zbek maktablarida ona tili mashg'ulotlarini tashkil etish loyihalashtirilayotganda uning natijalarini tashxislash ham nihoyatda muhim. Mazkur faoliyatda asosan loyihalash g'oyalari va uning yechimlarini generatsiyalash, ishlash va integratsiyalash jarayoni loyihalashning ijobiy natijalaridan biri sanaladi²².

Bu borada rus metodist olimasi G. Ye. Muravyeva aniq ta'kidlaganidek, avvalo, fan o'qituvchisi o'zi ta'lim beradigan o'quv predmeti mavzularini puxta loyihalay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarurki, bunda didaktik jarayon rivojining natijasini oldindan ko'ra bilish sifatida tashxislay olish; loyihani amalga oshirishni aniq rejalashtirish; moddiy vositalarni yaratishga doir texnologik jarayonni konstruksiyalash; obyekt haqida yangi axborot olishni modellashtirish kabi sifatlar mazkur ko'nikmaning asosini tashkil etadi. Insonda tafakkur tili, odatda, ona tili bo'ladi. Kishi ona tilida o'ylaydi, ona tilida fikrlaydi, ona tilida dilidagini tiliga, nutqiga ko'chiradi. Ilk so'zi ham, so'nggi kalomi ham ona tili bilan bog'liq. Ta'kidlash joizki, inson uchun, odatda, so'zlashayotgan tili uning tafakkur tiliga aylanib boradi, shu til foydalanuvchisining ijtimoiy ongini shakllantiruvchi muhim omil sanaladi, inson qaysi tilda so'zlasa va fikrlasa, o'sha tildagi mafkuraga moyil bo'lishi ham inkor etib bo'lmas haqiqat. Yana aytish joizki, maktabda ta'lim qaysi tilda olib borilsa, o'sha til o'rta umumta'lim tarkibiga kiritilgan barcha o'quv predmetlarini o'rgatish va o'rganish vositasiga aylanadi.

Mamlakatda mavjud o'zbek maktablarida ona tili o'qitilishi uchun mo'ljallangan o'quv dasturida o'zbek tili ta'limi oldidagi asosiy maqsad shunday belgilangan:

1) o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda (tinglash, so'zlash o'qish va yozish) savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish;

2) bilim darajasi yuqori, o'y-fikrlari teran, o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladigan, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga qodir, hamda hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan yangi avlodni kamol toptirish;

3) ushbu o'quv materiali umumiy ta'lim mazmunining ichki aloqadorliklaridan yuzaga kelib, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari bilan birgalikda qo'shib amalga oshiriladi.

Har bir soatlik dars loyihasida mashg'ulot jarayonida ketma-ket amalga oshiriluvchi ta'limiy voqelikning belgilanishi; ularning pragmatik qiymati; belgilangan axborot bazasini o'quvchilarga tez va oson singdirish yo'llarini izlab topish; tahliliy-tanqidiy izoh; natijani oldindan

ko'ra bilish va rejalashtirish kabi ijodiy faoliyat turlari namoyon bo'ladi. Ma'lumki, loyihalananayotgan dars jarayoniga pedagogik tashxis qo'ya olish, ijobiy natijani oldindan ko'ra bilish va shu asosda dars jarayonini loyihalash istalgan pedagogik vazifani amalga oshirishning asosiy kompetenti hisoblanadi.

Ta'lim maqsadi "Nima uchun o'qitamiz?", ta'lim mazmuni "Kimga nimani qancha o'qitamiz?", ta'lim usuli "Qanday o'qitamiz?", ta'lim vositalari esa "Nima asosida o'qitamiz?" degan savollarga javob beradi. Shu mantiqdan kelib chiqib, Qozog'iston o'rta umumta'lim maktablarida o'zbek tili o'qitish mazmuni ko'zlangan maqsadga (umumiy tarzda) hamohang, deb ayta olamiz. Zotan, "ta'lim mazmuni – yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir".

Mazkur tavsifdan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmuni deganda o'quvchiga dars davomida berilishi lozim bo'lgan bilimlar, shu bilimlar asosida hosil bo'ladigan ko'nikma va malakalar, faoliyat usullari hamda o'quvchining voqelikka emosional bahosi nazarda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи//Ўзбекистон овози газетаси. 21. 10. 2019; <https://uza.uz>
2. Тожиев Ё. Адабий тилдан фойдаланишга муносабат масалалари. Ўзбек тилшунослиги мамлакатимиз инновацион тараққиёти кўзгусида. Т. 2011.
3. Розиков О. , Оғаев С. , Маҳмудова М. , Адизов Б. Дидактика. – Т. : Фан, 1997. – 256 б. – 85-б.
4. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2015 йилнинг сентябрида Барқарор ривожланиш бўйича ўтказган саммити <https://old.xs.uz>.
5. Юлдашева Д. Н. "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: пед. фан. ном. дисс. . . – Т. , 2007. – 146 б. ;
6. Yuldasheva D. N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013, 2019. – 168 bet.
7. Муравьева, Г. Е. Проектирование технологий обучения. Учеб. пособие. – Иваново, 2001. – 123 с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01000744463>.

*Gulhida Ikromova –
FarDU katta o'qituvchisi,
guliikromova9413@gmail.com*

INDIVIDUAL NEOLOGIZMLAR BADIY ASARDA TASVIRIY VOSITA SIFATIDA

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada individual nutq neologizmlari va ularning tilshunoslikdagi tadqiqi hamda Sharof Boshbekov dramalaridagi individual nutq neologizmlarning dramatik asar ekspressivligini ta'minlashdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.*

KALIT SO'ZLAR: *yangi leksika, okkozionalizm, faollashgan leksema, lug'aviy individual neologizmlar, grammatik individual neologizmlar, frazeologik individual neologizmlar, neologizm-semema.*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье говорится о неологизмах индивидуальной речи и их исследованиях в языкознании, а также о роли неологизмов индивидуальной речи в драмах Шарофа Башбекова в обеспечении выразительности драматического произведения.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: новая лексика, окказионализм, активированная лексема, лексические единичные неологизмы, рамматические единичные неологизмы, фразеологические единичные неологизмы, неологизм-семема.

ANNOTATION. This article talks about neologisms of individual speech and their research in linguistics, as well as the role of neologisms of individual speech in the dramas of Sharof Boshbekov in ensuring the expressiveness of the dramatic work.

KEY WORDS: new lexicon, occasionalism, activated lexeme, lexical individual neologisms, rammatic individual neologisms, phraseological individual neologisms, neologism-sememe.

Individual nutq neologizmlari neologizmlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida mazkur hodisa tarkibida “yangi leksika”, “sof yangi leksika”, “faollashgan leksema”, “umumtil neologizmi”, “individual nutq neologizmlari”, “okkozionalizm”, “individual-stilistik neologizm” (N. Mahmudov) hamda “maromsiz yasamalar” (S. Toshaliyeva) [1] kabi qo‘llanishlar ham kuzatiladi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy nutqda individuallik va uning ko‘rinishlari borasida ayrim ijodkorlar misolida ma‘lum darajadagi tadqiqotlar amalga oshirilgan [2].

Ma‘lumki, badiiy asarda kashf etilgan so‘zlar ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat berib, mazkur hodisa yozuvchidan so‘zning yangi ma‘no qirralarini ochish, uning ta‘sirchanlik va bo‘yoqdorlik ko‘lamini kengaytirishda katta mahorat, bilim va iqtidor talab qiladi. Okkozionalizmlarning stilistik bo‘yoqdorlikka ega ekanligi ular imkoniyatining naqadar kengligidan dalolat beradi. Badiiy matn uchun ijodkorning o‘zi tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual neologizmlar estetik qimmatga molikdir [3].

Sharof Boshbekov dramalarida ko‘p o‘rinlarda ma‘lum asosga unumli so‘z yasovchi affiks qo‘shish usuli bilan hosil qilingan lug‘aviy individual neologizmlarni uchratishiz mumkin:

Sh o i r. Shu uyda birpas o‘tirib ishlab bo‘lmaydi: qiy-chuv, to‘polon. Bolalar-da... Nima demoqchi edim? Ha. Rahmatilla akam kelgan bo‘lsalar, bir-ikki soat bolalarni aylantirib kelarmidilar, deb... Keyin kallani bir joyga qo‘yi-i-ib...

O l i m. E, shoirvachchalaringizni qo‘ya turing, shoir bola. Bugun Rahmatilla olmishga kirib o‘tiribdi-yu, siz qayoqdagi gaplarni gapirasiz!

(*Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo‘ldi?» 132-bet*)

Parchada -vachcha shaxs oti yasovchi qo‘shimchasini shoir leksemasiga qo‘shish orqali muallif shoirvachcha individual neologizmini hosil qilgan. Mazkur leksema muallifning kutilmagan va g‘ayrioddiy obraz yaratish ehtiyoji, nutq vaziyatidagi yumoristik pafos hosil qilish zarurati tufayli personaj nutqiga olib kirilgan. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan mazkur individual neologizm ijodkor istak-xohishi, badiiy niyati mahsuli bo‘lib, o‘zbek tilidagi so‘z yasash me‘yorlari ham shaklan, ham mazmunan mos keladi.

Nutqimizda mavjud bo‘lgan qo‘shma so‘zlar til birliklari sanalib, tilning lug‘at tarkibidan o‘rin egallaydi. Shunga qaramay, badiiy asarlarda, ya‘ni adiblar ijodida tilning lug‘at tarkibida uchramaydigan individual neologizm ko‘rinishidagi qo‘shma so‘zlar uchrab turadi. Sharof Boshbekov dramalarida ham muallif ijodiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan qo‘shma so‘zlar mavjud bo‘lib, ular dramatik matn ekspressivligini oshirishga, qahramon nutqini individuallashtirishga xizmat qilgan.

Sh o i r. Kechirasiz, kennoyi, men uncha tushunmadim... Nima demoqchi edim? Ha. Fidoiylikda me‘yor bo‘lmaydi, kennoyi. Chalafidoi bo‘lish mumkin emas, kennoyi, yo fidoi bo‘lish kerak, yo hech narsa. Qisqasi, men bu fikringizga qo‘shilmayman.

(*Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo‘ldi?» 147-bet*)

Parchada sifat + sifat qolipi orqali yasalgan chalafidoi nutqiy yasama qo‘shma so‘z qo‘llangan. Muallif mazkur individual neologizmi personaj replikasida fidoiy leksemasi bilan antonimik munosabatda qo‘llash orqali poetik nutq ta‘sirchanligining ortishiga erishgan.

P i r m a t. Ha, ishonaver, imon topgur. (Eslab.) Shu, birinchi marta shahar tushganimda qiz-u juvonlar to‘piqdan ko‘ylak kiyishardi. Baraka topishsin. Shahar deganlariyam o‘zimizning

Gulbuloqday gap ekan, deb keluvdim. Ikkinchi gal prontdan keyin shahar tushdim. Mundoq razm solum, xotin-qizlar tizzadan ko'ylak kiyadigan bo'lishibdi. Shu, qishloqqa ko'nglim g'ash bo'lib qaytdim. Uchinchi marta... O'n besh yil bo'ldi-yov, Qulmat?

(Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo'ldi?» 144-bet)

O'zbeklar nutqida murojaat shakllarining turli xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular yosh xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Katta yoshli kishilar nutqida o'zidan kichik yoshlilarga nisbatan baraka topgur shaklidagi murojaat ko'p uchrab turadi. Mazkur murojaat shakli "Eshik qoqqan kim bo'ldi?" dramasi personaji Pirmat nutqida *imon topgur* shaklida qo'llangan.

Dramada Pirmat "sakson yoshli, hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, avliyosifat" obraz sifatida tasvirlanadi. Muallif ushbu personaj nutqini individullashtirish, personajni tomoshabin yoki kitobxoniga "alohida" tanishtirish maqsadida personaj nutqida mazkur individual neologizmdan foydalanadi.

Iboralarning yangicha ko'rinishlari (qayta ishlangan, tarkibiga yangi birliklar kiritilgan, tarkibi qisqartirilgan va b. Masalan: *Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo'lib qolasiz*. S. Ahmad) badiiy adabiyotda keng kuzatiladi [4]. Badiiy matnlarda uchraydigan bunday frazeologizmlar tilshunoslikda frazeologik individual neologizmlar termini bilan yuritiladi.

No z i k. Voy, nega titrab-qaqshayapsiz o'zingizdan o'zingiz? Men nima dedim?

SH o i r. Tilimni qitiqlamang, sayrab yuboradi-ya!

No z i k. Sayramoq tugul, bo'kirib yubormaydimi? Qo'rqadigan joyim yo'q.

(Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo'ldi?» 158-bet)

Yuqoridagi parchada Shoir nutqida "tilini qichitmoq" frazeologizmi qo'llangan bo'lib, mazkur ibora ma'nosi quyidagicha izohlanadi: "*Til (i) qichidi kimning – til (i) ni qichitmoq kim kimning. Gapirgisi keldi. Variant: til (i) qichishdi – til (i) ni qichishtirmoq (bular oz ishlatiladi)*" [5]. Personajlar xususiyatidan kelib chiqqan holda, muallif ushbu frazeologizmi tilini qitiqlamoq tarzida qo'llaydi. Dramaturg Shoir nutqi qaratilgan personaj – Nozikning ayol kishi ekanligini hisobga olgani holda, mazkur frazeologizm tarkibidagi salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan "qichitmoq" leksemasi ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan "qitiqlamoq" leksemasi bilan almashtirib qo'llash orqali dramatik matn ekspressivligini ta'minlashga erishgan. "Til ijtimoiy hodisa sanalib, undagi so'zlar davr bilan bog'liq holatda ma'no imkoniyatini oshirishi yoki, aksincha, holga tushishi mumkin [6]". So'zning ana shunday qo'shimcha ma'no kasb etishi tilshunoslikda neologizm-semema atamasi ostida o'rganiladi. Muallif parchada "sayramoq" so'zini "bo'kirmoq" so'zi bilan birgalikda qo'llash orqali yangi neologizm-semema hosil qilgan bo'lib, "bo'kirmoq" leksemasi "insonni chidab bo'lmas darajada gapirishga majbur qilish" ma'nosini ifodalagan. Mazkur ma'no "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'z ifodasiga ega emas [7]. Shu holatning o'ziyoz mazkur so'zning neologizm-semema ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Sharof Boshbekov dramalarida qo'llangan individual nutq neologizmlari dramatik matnning obrazlilik va ifodaviylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mardonova S. O'zbek she'riyatida muallif nutqi neologizmlari. // Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue 02/2022. –B. 104.

2. Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У. Азим шеърляти мисолида). Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2019; Шодиева Д. Ш. Муҳаммад Юсуф шеърляти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. автореф. – Тошкент, 2007; Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. (Тоғай Мурод асарлари асосида). Филол. фан. номз. автореф. – Тошкент, 2007.

3. Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърляти лингвопоэтикаси: Фил. фан. номз... дис. автореф. – Тошкент, 2007. –Б. 25.

4. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. док. ...дис. автореф. –Тошкент, 2009. –Б. 48.

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б. 231.

6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 210. – Б. 284.
7. https://n.com/books/uzbek_tilining_izohli_lug'ati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20B.pdf zyouuz.

Ruzmetova D. A.

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (PhD) dotsenti
druzmetova_1974@gmail.com

BO'LAJAK CHET TIL O'QITUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqola bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyati va chet tilni texnologik ta'lim vositasida o'quv predmeti mazmunini takomillashtirish va amaliyotga uni tatbiq etish borasida zamonaviy muammolarini hal etishga bag'ishlanadi.

Tayanch so'zlar: Ta'lim mazmuni, kasbiy tayyorgarlik, kreativ tayyorgarlik, o'rganish bosqichlari, ijodiy fikrlash, transformatsiyalash metodi.

Рузметова Д. А. (PhD)

*Доцент Ташкентского международного университета
финансового менеджмента и технологий.*
druzmetova_1974@gmail.com

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация: Данная статья посвящена социально-педагогической необходимости развития творческого мышления у будущих учителей английского языка и решению современных проблем совершенствования содержания предмета и применения его на практике средствами технологического обучения иностранному языку.

Ключевые слова: Содержание образования, профессиональная подготовка, творческая подготовка, этапы обучения, творческое мышление, метод трансформации.

Ruzmetova D. A.

*Docent of Tashkent International
University of Financial Management and Technologies (PhD).*
druzmetova_1974@gmail.com

DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Abstract: This article is devoted to the social and pedagogical necessity of developing creative thinking in future English language teachers and solving the modern problems of improving the content of the subject and applying it to practice through the means of technological education of a foreign language.

Key words: Educational content, professional training, creative training, stages of learning, creative thinking, transformation method.

Shaxsning kreativligini rivojlantirish jamiyat hayotining barcha bosqichlarida o'z dolzarbligini namoyon etmoqda. Bunda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi bilan bog'liq turli-tuman holatlar nazarda tutiladi. Shaxsning kreativligini rivojlantirishga oid yondashuvlar dastlab xorijlik olimlar tomonidan ilgari surilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish muammosi O. V. Sorokina [3] tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. Uning ta'biricha, bo'lajak mutaxassislarda kreativlikni rivojlantirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: talabalar oldida turgan kognitiv mazmundagi muammolarni emotsional muammolarga transformatsiyalash; talabalarning hissiy holatlarini baholamasdan qabul qilish hamda ularning hissiy holatlarini qo'llab-quvvatlash; talabalarning hissiy ta'sirlari va holatlari bilan bog'liq vaziyatlarda dialog va o'quv jarayonini individuallashtirish metodlaridan foydalanish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglar va psixologlarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga bag'ishlangan E. V. Dvoretzkayaning [2] tadqiqotlari ham mutaxassislarining e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari aniqlangan. Mazkur tadqiqotda talabalarning kasbiy muammolar doirasida kreativlik haqida chuqur o'ylashlari pedagogik-psixologik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, tafakkurning asotsiativligi, tashabbuskorligi, metaforistik xarakterga egaligi, betakror yechimlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi. Ruhiy jarayonlarning faollashuvi shaxs tafakkuri va xulq-atvorida ruhiy inersiyalarning bartaraf etilishiga ko'maklashadi.

Ye. Ye. Sherbakovaning [5] "Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning kreativligini rivojlantirish" mavzusidagi tadqiqotida pedagogik kreativlikning mavjud jihatlari asoslangan. Bunda kommunikativ va didaktik kreativlik uyg'un holda tahlil qilingan. Talabalarda o'z-o'zini ijodiy his etishning ko'rsatkichlari tizimli yondashuv asosida ochib berilgan. O'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish, hissiy barqarorlik, irodaviy sifatlar, quvonch hissi, ishchanlik darajasi, atrof-dagilarga nisbatan mehr va rahmdillik bilan yondashish, shuningdek, ijodiy layoqat ko'rsatkichlari, topqirlik, uyg'unlashtirish layoqati, divergent tafakkur, vizual ijodkorlik, assotsiyatsiyalash layoqati kabilar pedagogik kreativlikning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Yu. R. Varlakova o'zining "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativlikni shakllantirish" [1] nomli asarida kreativlikning rivojlanishi quyidagilar uchun imkoniyat yaratishini asoslab bergan: ta'lim mazmunini shaxsiy-ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyat natijalari bilan boyitish, hayotiy vaziyatlarning yaxlitligi tavsiflash, muammolilik va kontekst bilan bog'liqlikni ta'minlash; talabalarni kasbiy vazifalarni yechish bilan bog'liq faoliyatga jalb etish, kuzatish jarayonini tashkillashtirish, tanlangan kasb kontekstida mavjud tajribalar haqida o'ylash hamda kreativlikka munosabatni namoyon etish; ta'lim jarayonining muammolilik xarakterini ta'minlash kabilar.

Bunda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligi shakllanish jarayoniga nisbatan layoqatlilik sifatida tushuniladi. Bu esa talabaning o'z-o'zini namoyon etish, pedagog va dizayn sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish, bo'lajak kasbiy faoliyatda ijodiy natijalarga erishish uchun nostandart va kasbiy g'oyalarni tezkor generatsiyalash imkonini beradi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kreativ yondashuv asosida texnologik ta'limga oid bilimlarni rivojlantirishda biz kreativlikka bag'ishlangan pedagogik-psixologik xarakterdagi ilmiy yondashuvlardan samarali foydalanishga harakat qildik. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlarning natijalarini o'rganish asosida to'rtta muhim yo'nalish aniqlastirildi:

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida texnologik ta'limga oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlarini ajratish.

Bo'lajak o'qituvchilarda texnologik ta'limga oid bilimlarni shakllantirish imkonini beradigan kreativ texnologiyalarni qo'llash.

Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda texnologik ta'limga oid bilimlarni taqdim etishning TRIZ texnologiyalaridan foydalanish.

Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning texnologik ta'limga oid bilimlarini rivojlantirish samaradorligini TRIZ texnologiyasi vositasida rivojlantirish vositalari va usullarining samaradorligini muayyan mezonlar yordamida asoslash.


Talabalar darsdan tashqari vaqtlarida o'z kreativliklari va texnologik ta'limga oid bilimlarini rivojlantirish uchun turli ko'rgazmalar, tanlovlar, ijodiy kechalarda ishtirok etadilar. O'quv faoliyati esa guruhli ish asosida amalga oshiriladi. Bunda professor o'qituvchilarning o'qitishning faol metodlari va texnologiyalaridan foydalanishlari nazarda tutiladi.

I. V. Shovgurovaning [4] ilmiy tadqiqoti mutaxassislarda alohida qiziqish uyg'otgan. Unda gumanitar yondashuv doirasida entomadaniy an'analarni o'rganish asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kreativligini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Ushbu tadqiqotda kreativlik ilk bor bo'lajak o'qituvchining tayanch kasbiy layoqati sifatida tadqiq etilgan. Egallanayotgan kasbiy faoliyatni etnomadaniy qadriyatlar bilan integratsiyalash asosida tadqiq etilgan. Bunda etnomadaniy an'analar bilan talabaning shaxsiy madaniyatini integratsiyalash asosida kreativ faoliyatni shakllantirish ham nazarda tutilgan. Mazkur faoliyatning o'ziga xos jihatlari texnologiya o'quv fani misolida ko'rsatib berilgan.

Faoliyatli, insoniy-shaxsiy hamda sinergetik yondashuvlar negizida talabalarning texnologik ta'limga oid bilimlarini boyitish orqali kreativliklarini ta'minlashning konseptual asoslarini ishlab chiqish o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Ushbu konseptual asoslar yangi tipdagi texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kreativliklarini rivojlantirish, istiqbolda o'quvchilar bilan ijodiy ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Mazkur yo'nalishda nafaqat kasbiy vazifalarni yechish, balki ma'naviy-axloqiy layoqatlarini ham rivojlantirish nazarda tutiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchining texnologiya ta'limiga oid bilimlarini rivojlantirish asosida ularning ijodiy fikrlashni tarkib toptirish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Agar o'quv fanlari mazmuni qadriyatli-fikriy, muammoli loyihaga asoslangan bilimlar bilan boyitilsa, ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorligi ta'minlanadi. Mazkur jarayonda bo'lajak dizayner o'qituvchining individual o'quv yo'nalishi shakllantiriladi, bo'lajak o'qituvchining kreativ imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot yaratiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini o'quv tasviriy faoliyati orqali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'quv tasviriy faoliyat bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak dizayner o'qituvchilar uchun vebal hamda tasviriy kreativlik muhim ahamiyatga ega. O'quv tasviriy faoliyat jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'zlarining kreativliklarini namoyon etadilar. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariining kreativliklarini rivojlantirish sharoitlari quyidagilarda namoyon bo'ladi(1-rasm):



Bo'lajak o'qituvchilarning texnologik ta'limga oid bilimlarini kreativ yondashuv asosida boyitish quyidagilarni ta'minlash imkonini beradi: bo'lajak o'qituvchilarning hissiy holatlarini

anglash va qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hosil qilish, bo'lajak o'qituvchining hissiy ta'sirlar va holatlarga munosabatini baholash, tizimli tarzda tahliliy faoliyatni amalga oshirish, ta'lim mazmunini shaxsiy-ijtimoiy tajriba bilan boyitish, amaliy faoliyat tajribasini o'quv jarayoniga singdirish kabilar.

Texnologik ta'limga oid bilimlar vositasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish uchun umumlashgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish talab qilinadi. Bunda kreativlik pedagogikasiga oid nazariy qarashlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak o'qituvchilar kreativ pedagog hamda kreativ dars nazariyasi bilan yaqindan tanishtirilishlari lozim. Ushbu yondashuv doirasida kreativlikni nazariy jihatdan asoslash va kreativ texnologiyalarni tasniflash nazarda tutiladi. Kreativ texnologiyalarni rang-barang asoslarga tayangan holda tasniflash va pedagogik ta'lim jarayonida qo'llash bo'lajak o'qituvchilarda kreativ faoliyat tajribasini hosil qilishga ko'maklashadi. Chunonchi:

- g'oyalar maydonini yaratish texnologiyasi;
- rivojlantiruvchi va muammoli ta'lim texnologiyasi;
- rekonstruksiyalash, yangi g'oyalarni yaratish texnologiyasi;
- shaxsning hissiy sohasi, axloqiy tanlov texnologiyasi;
- g'oyalarni amalga oshirish layoqatini rivojlantirish texnologiyalari;
- vizual kreativ texnologiyasi;
- ijodiy layoqatlilikni yuksaltirish texnologiyasi.

Pedagogikada axborot-informatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida muayyan tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini berdi.

Kreativlikning muhim belgilari bo'lajak o'qituvchida bilish motivatsiyasining shakllanishi, o'qish va ijod qilish; kreativlik va uni diagnostika qilish; ijodiy topshiriqlarni yechish metodlarini qo'llash; kreativ pedagogikaning muhim belgisi sifatida o'z-o'zini shaxsiy-kasbiy rivojlantirish; kreativ pedagogikaning muhim elementi sifatida didaktik o'yinlardan foydalanish; kreativ xarakterdagi pedagogik-psixologik texnologiyalarning kelib chiqishini aniqlash kabilar bo'lajak o'qituvchida texnologik ta'limga oid bilimlar vositasida kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mutaxassislarning ko'rsatishlaricha talabalarda kreativlikni shakllantirish uchun chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish talab qilinadi. Shuningdek, chet tilni o'rganuvchi talabalarda kreativlik didaktik vositalar, usullar va metodlar hamda nazorat mexanizmlarini tizimli tarzda qo'llash natijasida rivojlanadi. Amaliy ingliz tili yo'nalishidagi talabalarning kreativliklarini nazorat qilish jarayonini tashkil etish va unda tegishli metodikalarni qo'llash tizimli tarzda amalga oshiriladi. Nazorat jarayonini tashkil etish metodikasi kompleks tarzda talabalarning texnologik ta'limga oid bilimlarini boyitish va nazorat qilishga yo'naltiriladi.

Talabalarning texnologik ta'limga oid bilimlarini nazorat qilishga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar majmui ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunday metodikalar asosan mustaqil ta'limga oid yoki til o'rganish to'garaklar mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Biz o'z kuzatishlarimiz va tavsiyalarimizni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashga harakat qildik. Amaliy ingliz tili yo'nalishidagi talabalarda kreativlikni rivojlantirishga oid g'oyalarni har bir mashg'ulotda tadbqiq etishga e'tibor qaratdik. Bunda biz etnik, milliy, gender, shaxsga yo'naltirilgan, madaniy-estetik yondashuvlarga tayandik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu yondashuvlar talabalarda kreativlikni rivojlantirish bilan bir qatorda ularning milliy-estetik va madaniy-estetik dunyoqarashini shakllantirishga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ijodkorlikni rivojlantirishga oid topshiriqlarni ishlab chiqish zaruriyati kuchaymoqda. Talabalarda ijod psixologiyasi va texnologik ta'limga oid tasavvurlarni kengaytirishda TRIZ (Ixtirochilik topshiriqlarini yechish nazariyasi) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur texnologiyaning asosiy vazifalaridan biri ijodkorlikka oid topshiriqlarni yechishga talabalarni yo'naltirishdan iborat. TRIZning asosiy funksiyalari:

- topshiriqlarning murakkablik darajasi, yo'nalishlari hisobga olish;
- topshiriqlarning texnik tizimi rivojlanishini bashorat qilish;

- ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida talabalarning tabiiy iqtidorlari va layoqatlarini ro'yobga chiqarish. Bunda birinchi navbatda talabaning obrazli idroki va tizimli tafakkurini rivojlantirish;
- talabalarning ijodiy jamoalarini shakllantirish va ular foliyatini takomillashtirish, ularning g'oyalarini qo'yilgan maqsad sari yo'naltirish nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Варлакова Ю. Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе. Дисс. . . . на соискание ученой степени кандидата педагогических наук – Красноярск, 2013. – 208 б.
2. Дворецкая Е. В. ART&SCIENCE: Инновации В Образовании Проблемы педагогической инноватики в профессиональном образовании. Первые Макаренские чтения: Материалы XVIII Международной научно-практической конференции/ – СПб.:РГПУ им. А. И. Герцена, 2017. – 498 с. , с. 59–64.
3. Сорокина О. В. Развитие креативности как профессионально-значимого качества личности у студентов-психологовтема. Дисс. . . . кандидат психологических наук. – Москва, 2010. – 157 с.
4. Шовгурова И. В. Формирование креативности будущего учителя технологии на основе гуманитарного изучения этнокультурных традиций: автореферат дис. . . . кандидата педагогических наук : 13. 00. 08. – Астрахань, 2010. - 19 с.
5. Щербакоева Е. Е. Педагогическая креативность как фактор профессионального развития студентов: дис. . д-ра пед. наук: 13. 00. 08. Чебоксары, 2006. - 548 с.
6. Adilbekovna R. D. Challenges in Teaching English as a Specific Purpose //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 93-97.
7. Рузметова Д. А. Об экономической потенциальной лексике //Молодой ученый. – 2012. – №. 4. – С. 455-457.
8. Maksudova G. O. et al. Research of Modern Technologies of Education //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 2483-2485.
9. Ruzmetova D. A. , Muratova N. V. ABOUT COMPARATIVE ANALYSIS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 777-779.
10. Nabiyeva M. S. , (2023). FORMATION OF FOREIGN LANGUAGE LEXICAL SKILLS. *Confrencea*, 5(05), 66–72. Retrieved from <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/599>
11. Elmirzaeva O. N, R. 2023. APPROACHES OF TEACHING VOCABULARY TO THE JUNIOR STUDENTS. *Confrencea*. 5, 05 (Apr. 2023), 73–77.

*Axmedova Ugiljon Kuronboyevna
Tojiboyeva Inobat Kaxramon qizi
Urgench, Uzbekistan
Urgench innovation university
Faculty of Social-Humanitarian Sciences and Pedagogics*

INGLIZ TILINI SAMARALI O'RGANISHDA LOYIHA TEXNOLOGIYASINING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasining muhimligi va uni o'qitish jarayonidagi qulayliklari va kamchiliklari ilmiy asoslarda ko'rib chiqilgan. Shuningdek talabalarni ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: *ijodiy yondashish, erkin fikrlash, loyihaga asoslangan ta'lim, oson o'qitish usullari.*

Аннотация: В данной статье на научных основаниях рассматривается значение проектной технологии, ее преимущества и недостатки в учебном процессе. Оно также направлено на повышение интереса студентов к английскому языку.

Ключевые слова: *творческий подход, свободное мышление, проектное обучение, эффективные методы обучения.*

Abstract: This article examines the importance of project-based learning and its advantages and disadvantages in the teaching process on scientific theories. It is also aimed at increasing students' interest in the English language.

Key words: *creative approach, free thinking, project-based education, effective teaching methods.*

Loyihaga asoslangan ta'lim – bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'rganish va qo'llash uchun real dunyo, mazmunli va amaliy loyihalar bilan shug'ullanishlariga qaratilgan ta'lim yondashuvidir. Loyiha texnologiyasidan foydalanish orqali talabalar uzoq vaqt davomida muayyan loyiha yoki muammo ustida ishlaydi, odatda tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi. Ushbu yondashuv faol o'rganish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, akademik va amaliy ko'nikmalarni egallashga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Loyihaga asoslangan ta'lim XX asr boshidagi ilg'or ta'lim harakatidan kelib chiqqan va Jon Dyu kabi o'qituvchilar amaliy tajribalar orqali o'rganishni ta'kidlaganlar. Biroq loyiha texnologiyasi XX-XXI asrlarda katta qiziqish uyg'otdi, chunki ta'lim nazariyotchilari va amaliyotchilari uni chuqur tushunish va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tan olishdi. [5] So'nggi o'n yillikda loyiha texnologiyasi K-12 ta'limi va oliy ta'limda ommabop ta'lim yondashuviga aylandi, bu haqiqiy muammolarni hal qilish va hamkorlikni ta'kidlaydigan talabalarga yo'naltirilgan, so'rovga asoslangan ta'limga o'tishni aks ettiradi. [4;69]

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarni doskaga chiqib nutqini bayon qila olishi va erkin fikrlashi uchun sharoit yaratib berish lozim. Bunday turdagi loyiha ishlari aynan fikr va g'oyalarini bayon qila olmaydigan talabalar uchun juda samaralidir.

Ko'ramizki, maktablarda ayrim o'quvchilar doskaga chiqib masala yechishda yoki mavzuni so'zlab berishda havotirlanishadi, negaki ularda "xato qilib qo'ysamchi, noto'g'ri gapirsam ustimdan kulishmasmikan" degan qo'rquv bo'ladi. Loyiha shunday turdagi talabalarni erkin fikr bildirishlarini, tengdoshlari bilan ko'proq muloqot yoki hamkorlikda ishlashni o'rgatadi. [2;56]

Loyihalar real vaziyat yoki qiyinchiliklarni taqlid qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha bir nechta fan sohalarini birlashtiradi va talabalarni murakkab muammolarini hal qilish uchun turli sohalaridagi bilimlarni qo'llashga undaydi.

Loyiha modeli orqali talabalar loyiha tomonidan qo'yilgan ulkan muammoni bosqichma-bosqich hal qiladilar. Har bir muvaffaqiyatsizlik ularga nimani noto'g'ri qilganliklarini va uni to'g'irlash uchun nima qilishlari kerakligini bilishga yordam beradi. [4;96]

Ko'pincha talabalar texnik jihatdan malakali bo'lib, ammo moslashuvchanlik, muloqot qobiliyatlari va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati kabi ish joyidagi asosiy ko'nikmalarga ega bo'lmaydi. Loyiha asosida o'qitish talabalarga ham malakali kadr, ham inson sifatida namoyon bo'lish qobiliyatini yaratib beradi. Loyihaning deyarli qo'shimcha mahsuloti

sifatida talabalar birgalikda qanday ishlashni, to'siqlardan qanday o'tishni, qanday yetakchilik qilishni, qanday tinglashni va qanday ma'no va motivatsiya bilan ishlashni o'rganadilar. [3;55]

Loyihaga asoslangan ta'lim bo'yicha eng muvaffaqiyatli amaliy tadqiqotlardan biri Kaliforniyaning San-Diego shahridagi High Tech High maktablar tarmog'idir. [2;65] High Tech High maktabining o'quvchilari doimiy ravishda yuqori akademik natijalarga erishadi, ular standartlashtirilgan testlarda yuqori natijalarni ko'rsatadi va tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqotda qimmatli ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Uning muvaffaqiyati boshqa ko'plab ta'lim muassasalarini ushbu metodologiyani qabul qilishga va haqiqiy loyihaga asoslangan o'rganish tajribasining muhimligini ta'kidlashga ilhomlantiradi. U talabalardan ma'lumotni tahlil qilishni, qaror qabul qilishni, muammolarni tanqidiy hal qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, vazifalarni taqsimlash va jamoalarda samarali ishlashni o'rgatadi.

Loyiha texnologiyasini qo'llash barobarida G. N. Ibragimova ta'lim nazariyasi va shaxs bilish faolligini rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, bugungi kunda pedagogikada o'qitishning bir qator modellarini ko'rishimiz mumkin. Bular:

1. Passiv o'qitish modeli – bu model doirasida ta'lim oluvchilar o'quv jarayoni obyeksi sifatida namoyon bo'ladilar.

2. Faol o'qitish modeli – ushbu jarayonda talabalar o'qitish jarayoni obyeksi sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

3. Interfaol o'qitish modeli – mazkur o'qitish jarayoni ta'lim oluvchilarning muntazam faol munosabatlari va birgalikdagi harakatlari asosida amalga oshadi. [3;98]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab ketish joizki, loyihaga asoslangan ta'lim yordamida talaba yoshlarning tanqidiy fikrlashi oshadi, muammolarga turli yondashuvlar bilan yechim topishni va loyihalar bilan qanday ishlash, shu bilan birga tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni o'rganishadi. Ushbu modulni qog'ozda emas, amaliy tajribalarda qo'llash o'quvchilar uchun foydaliroqdir. Loyihaga asoslangan ta'limni chuqur tushunish XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorlikni oshiradi va bu loyiha ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida ommabop ta'lim yondashuviga aylanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедова Л. Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Тошкент, 2009. – 202с.
2. Barron, B. , Schwartz, D. , Vye, N. , Moore, A. , Petrosino, A. , Zech, L. , & Bransford, J. (1998). Doing with understanding: Lessons from research on problem- and project-based learning. *The Journal of the Learning Sciences*, 7(3&4), 271-311.
3. Markham, T. , Larmer, J. , & Ravitz, J. (2003). *Project-based learning handbook: A guide to standards-focused project based learning for middle and high school teachers*. Novato, CA: Buck Institute for Education.
4. Махкамова Г. Т. Формирование межкультурной компетенции студентов филологического вуза: (английский язык): Автореф. дисс д-ра педаг. наук. – Ташкент, 2011. –47 с.
5. [<https://ahaslides.com/uz/blog/project-based-learning-examples-ideas/>]
6. [<https://cyberleninka.ru/article/n/loyihaga-asoslangan-ta-lim>]

Rajabbayeva Feruza Rajabbayevna
Urganch innovation universiteti o'qituvchisi
feruza.rajabbojeva@mail.ru

MEDIA MAKONDA AXBORAT KOMUNIKATSIYALARNING FAOLIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola axborot kommunikatsiyalarining jamiyatdagi faoliyati va ulardan foydalanish shart sharoitlari va insoniyat uchun dastlabki axborot almashish manbasi xat

ekanligiga bag'ishlanadi. Shuningdek insonlar xat yozish uchun turli yo'llardan foydalanilgani, keyinchalik esa texnologiyalar rivojlanib internetdan keng miqyosda foydalanishga o'tilganligi haqida gap boradi. Ushbu maqolada internet platformalaridan axborot komunikatsiya faoliyatining so'nggi statistik ma'lumotlarini yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: xat, axborot, internet, Facebook, YouTube, Instagram

Аннотация: Данная статья посвящена функционированию информационных коммуникаций в обществе и условиям их использования, а также тому, что первоисточником обмена информацией для человечества является письмо. Также говорят, что люди писали письма разными способами, а затем технологии развились, и Интернет стал использоваться в больших масштабах. Целью данной статьи является освещение статистических данных о количестве информационно-коммуникационных мероприятий с интернет-платформ.

Ключевые слова: письмо, информация, интернет, Facebook, YouTube, Instagram

Abstract: This article is devoted to the functioning of information communications in society and the conditions for their use, and the fact that the initial source of information exchange for mankind is the letter. It is also said that people used different ways to write letters, and then the technology developed and the Internet was used on a large scale. This article aims to highlight statistical data on the number of information communication activities from Internet platforms.

Keywords: letter, information, internet, Facebook, YouTube, Instagram

Ilm fan va texnika rivojlanayotgan bir davrda axborot komunikatsiyalari va ulardan foydalanishning bir qancha shart sharoitlari yaratilgan. Axborot (Informatsiya) termini "information" lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma'lumot berish, tushuntirish ma'nosini anglatadi. Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o'rtasida og'zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma'lumot almashinish tushunilgan. "Informatsiya" tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi. Ammo insoniyat uchun dastlabki axborot almashish manbai bu xat bo'lgan. Biz bilamizki xat bu *yo'naltirilgan xabar* ma'nosini anglatadi va yozma shaklda bo'lib axborotni masofadan uzatish hisoblanadi.

Dastlabki insoniyat uchun axborot almashish vositasi hisoblangan xatlar loy parchasiga, [hayvonlarning maxsus ishlov berilgan terisiga](#) yoki qayin po'stlog'iga, materillarga qo'lda yozilgan. Bugungi kunga kelib xatlar qog'ozga qo'lda yoki kompyuter vositalari orqali yoziladi. Xatning qachon va qaerda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar berilmagan. Ammo uning vazifasi xabar berish va fikr almashish hisoblanadi. Shuni alohida takidlab aytishimiz joizki xat mazmun va xususiyatiga ko'ra, shaxsiy va davlat ahamiyatiga ega hisoblanadi va albatta xatdagi berilgan axborotlar shaxsiy hisoblanadi. [4]

Bundan tashqari xatlar subyektlar o'rtasidagi muzokaralar, kelishuvlar yoki shartnomalar haqida davlatning rasmiy axborotlari ham bo'lishi mumkin. Shuningdek, xat har qanday bitim yoki shartnomaga ilova qilinadi, uning vazifasi tuziladigan bitim yoki shartnoma haqida ma'lumot va tafsilotlarni taqdim etishdir. Hatto bugungi kunda ham xat rasmiy doiralarda yoziladi, shakli o'zgarishi mumkin, ammo funktsiyasi bir xil bo'lib qoladi.

Globalashgan texnologiyalar davrida axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayotida ijobiy bilan bir qatorda salbiy rol ham o'ynamoqda. Sababi ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar jamiyat hayotiga kundan-kunga tobora ko'proq kirib boryapti. Bugungi kuni biz internet va hali kashf etilmagan yuqori texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Shu sababdan ham bugungi axborot asrida axborot almashish vositasi bu internet bo'lib qoldi. [2]

Axborot almashish bo'yicha eng tez rivojlanayotgan platforma bu Instagram bo'lib, uning auditoriyasi millionlab yangi foydalanuvchilar bilan to'lgan. Shunday bo'lsa ham statistik ma'lumotlarga ko'ra Instagram foydalanuvchilarning umumiy miqdoriga ko'ra, u hamon Facebook, YouTube va boshqa ba'zi platformalardan ortda qolmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham oltin qoidaga –me'yorni unutmazlik shartiga amal qilish zarur. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashish juda qulay va oson bo'lib unda video, audio, surat va boshqa ma'lumotlarni topish juda oson. [3]

Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa messenjerlar axborot almashishda juda katta qulayliklar berdi. Turli shakldagi axborotlarni uzatishni keskin osonlashtirib yubordi. Yuborilgan ma'lumotlar messenjerlarning o'zida saqlanishi sababli interneti bor istalgan joyda ulardan foydalanish mumkin, hatto o'z qurilmangizdan o'chirib yuborgan bo'lsangiz ham.

Ijtimoiy tarmoqlarning eng ijobiy xususiyatlaridan biri bu ilm olish va inson hayotida kerakli bo'ladigan axborotlarni olish hisoblanadi. Aytaylik, ijtimoiy tarmoqlar orqali butun dunyo bo'ylab joylangan metodlardan foydalanib pedagogik mahoratlarni oshirish mumkin. So'ngi 3 yillik statistik ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardan axborot almashish bo'yicha Facebook 2, 74 milliard foydalanuvchisi borligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda YouTube platformasi foydaluvchilar soni 2, 291 mlanni ko'rsatadi va WhatsApp platformasidan 2000 mln foydalanuvchi axborot almashuvchi vosita sifatida foydalanadilar. Axborot almashish bo'yicha Facebook Messengerlarning statistik ko'rsatkichi 1, 3 mlrdni tashkil qiladi va Instagram platformasidan foylanish bo'yicha 1, 221 mlanni tashkil qiladi.

Bundan tashqari O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan axborot vositalarining soni 1893 taga teng. Misol uchun:

- 642 ta gazetalar;
- 482 ta jurnallar;
- 17 ta axborotnoma-byulleten;
- 37 ta radio aloqalar;
- 72 ta televideniya vositalari;
- 5 ta axborot agentliklari;
- 638 ta internet nashr va veb-saytlardir. [1]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi globallashtirish jamiyatida axborot kommunikatsiyalardan foydalanish kundan kunga rivojlanib bormoqda va inson hayotining ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muratova N, Qosimova N, Alimova G, Dadaxonov A, Ilyosxonova A, Xolmatova S, Hakimova N. Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar"-T. : O'zbekiston, 2019. –B. 135.
2. Горовик А. А. , &Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
3. Nesterenko F. P. , Irnazarov K. T. , Mamatova Y. M. Lug'at–ma'lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablikrileyshnz. –T. , Zarqalom, 2003. –B. 48.
4. https://ya.ru/search/?text=xat+nima&lr=21105&clid=2329551&search_source=yaru_desktop_common&search_domain=yaru&src=suggest_Pers

PhD, dots. Elov Botir Boltayevich

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti.*

ORCID: 0000-0001-5032-6648

elov@navoiy-uni.uz

Abdullayev Abdulla Quranbayevich

Urganch innovatsion universiteti

o'qituvchi-stajyor

ORCID: 0009-0007-9037-1364

abdulla_abdullayev9270@mail.ru


SKIP-GRAM MODELINI O‘ZBEK TILI MATNLARIGA QO‘LLASH

Annotatsiya. NLP metodlari orqali lug‘at yoki korpusdagi so‘zlar va so‘z birikmalariga ishlov berish uchun ularni sonli vektorlar shakliga o‘tkazish kerak. Word Embedding – bu so‘zlarni sonli shaklda ifodalash usuli bo‘lib, u mashinali o‘rgatish algoritmlariga o‘xshash ma’noga ega so‘zlarni tushunishga imkon beradi. Ushbu metod neyron tarmoqlari, ehtimollik modellari yoki so‘zlarning birgalikdagi matritsada o‘lchamlarni kamaytirishdan foydalangan holda so‘zlarni sonli vektorlarini aniqlash orqali tabiiy tilni modellashtirishga imkon beradi. Bugungi kunda so‘zlarni joylashtirishni o‘rganishning Word2Vec, GloVe va FastText kabi mashinali o‘qitish (Machine Learning, ML)ning chuqur o‘rganish (Deep Learning, DL) usullari mavjud. NLP vazifasini hal qilishda samarali natijalarga erishish uchun so‘zlarni joylashtirish va chuqur o‘rganish modellarini tanlash juda muhim. Ushbu maqola Skip-gram usuli vositasida o‘zbek tilidagi matnlarini qayta ishlash usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili korpusi, matnlarini qayta ishlash, Word2Vec, CBOW, Skip-Gram, so‘zlarni joylashtirish, word embedding.*

Kirish

Skip-gram modelidagi amallar ketma-ketligini mavjud til korpusiga qo‘llash orqali sinovdan o‘tkazamiz. Shuningdek, Skip-gram modeli asosida olingan natijalarni CBOW modeli natijalari bilan solishtiramiz. Skip-gram modeli quyidagi besh qadam orqali amalga oshiriladi [1, 2, 3]:



1-rasm. Skip-gram modelini amalga oshirish bosqichlari.

1. Korpus lug‘atini yaratish

Xuddi CBOW modeliga o‘xshash tarzda birinchi bosqichda til korpusi lug‘ati va undagi har bir unikal so‘zni ajratib olamiz hamda unga unikal raqamli identifikatorni mos qo‘yamiz [4, 5].

```
from tensorflow.keras.utils import to_categorical
import pickle
from tensorflow.keras.preprocessing import text
from tensorflow.keras.preprocessing import sequence
tokenizer = text.Tokenizer()
tokenizer.fit_on_texts(norm_corpus_text)
word2id = tokenizer.word_index
# korpusga mos unikal so‘zlar lug‘atini shakllantirish
word2id['PAD'] = 0
id2word = {v:k for k, v in word2id.items()}
wids = [[word2id[w] for w in text.text_to_word_sequence(doc)] for doc in
norm_corpus_text]
vocab_size = len(word2id)
print('Vocabulary Size:', vocab_size)
print('Vocabulary Sample:', list(word2id.items())[10])
```

Vocabulary Size: 43

Vocabulary Sample: [('bulutli', 1), ('somsa', 2), ('kun', 3), ('bo‘lsa', 4), ('yomg‘ir', 5), ('yog‘ishi', 6), ('ertaga', 7), ('havo', 8), ('bo‘ladi', 9), ('toshkent', 10)]

Ushbu bosqichda korpusdagi har bir unikal so‘z va raqamli identifikatorga ega bo‘lgan lug‘at shakllantirildi.

2. Skip-gram ((target, context), relevancy) generatorini yaratish

Yuqorida aytib o'tilganidek, bizga so'zlar juftligi va ularning ahamiyatini beradigan skip-gram generatorini ishlab chiqish lozim. Python tilidagi **keras** paketida **Skipgrams** yordamchi funksiyasi mavjud bo'lib, CBOW metodida bo'lgani kabi bu generatorni qo'lda amalga oshirishimiz shart emas [1, 5, 6]. Ushbu **Skipgrams** funksiyasi so'z indeksleri (butun sonlar ro'yxati) ketma-ketligini quyidagi shakldagi so'z birikmalariga aylantiradi:

– (so'z, bir xil oynadagi so'z), 1 yorlig'i bilan (ijobiy namunalar);

– (so'z, lug'atdagi tasodifiy so'z), 0 yorlig'i bilan (salbiy namunalar).

```
from keras.preprocessing.sequence import skipgrams
embed_size = 100
window_size = 2 # context_window o'lchovi
# skip-gramlarni generatsiya qilish
skip_grams = [skipgrams(wid, vocabulary_size=vocab_size, window_size=10) for wid in
wids]
```

```
# skip-gram namunalarini ko'rish
```

```
pairs, labels = skip_grams[0][0], skip_grams[0][1]
```

```
for i in range(10):
```

```
print("{:s} ({:d}), {:s} ({:d})) -> {:d}".format(
```

```
id2word[pairs[i][0]], pairs[i][0],
```

```
id2word[pairs[i][1]], pairs[i][1],
```

```
labels[i]))
```

```
(kun (3), yog'ishi (6)) -> 1
```

```
(yog'ishi (6), bulutli (1)) -> 1
```

```
(yomg'ir (5), quyon (31)) -> 0
```

```
(bulutli (1), kun (3)) -> 1
```

```
(kun (3), bulutli (1)) -> 1
```

```
(kun (3), yomg'ir (5)) -> 1
```

```
(bo'lsa (4), havo (8)) -> 0
```

Shunday qilib, yuqoridagi dastur kodi orqali berilgan korpus asosida kerakli skip-grammlar muvaffaqiyatli shakllantirildi; oldingi chiqishdagi namunaviy skip-grammalarga asoslanib, **0** yoki **1** yorliq asosida nimaning muhim, nimaning ahamiyatsiz ekanligini namoyish qilindi.

3. Skip-gram modeli arxitekturasini yaratish

В период с 2002 по 2021 г. в Афганистане наблюдался беспрецедентный рост количества студентов, поскольку кабульское правительство и многие международные учреждения уделяли большое внимание разработке и поддержке национальной политики в области образования. Это позволило не только возобновить работу многих финансируемых государством университетов и прочих учебных заведений, но и реализовать частные и государственные инициативы.

В период с 2001 по 2005 гг. система высшего образования Афганистана подверглась значительным изменениям в материально-техническом и программно-содержательном направлениях. Постепенно происходило восстановление зданий университетов, пострадавших после военных десятилетий, строились новые корпуса университетов, обеспеченные водой, электричеством, современным оборудованием, библиотекой.

Высшее образование Афганистана переходило на новые стандарты образования, преимущественно западного образца. Кроме реорганизации и создания новых университетов были созданы новые направления подготовки, новые магистерские программы. Увеличился качественный и количественный состав профессорско-преподавательского состава афганских вузов, в том числе и держателей степени магистратуры [6, Р.104]. Важно отметить, что в системе высшего образования Афганистана возросла роль английского языка, он стал языком университетской инфраструктуры и контента. В настоящее время (2 года управления талибами) все университеты имеют англоязычную наполненную версию своих сайтов. В ведущих университетах Афганистана появились IT центры и современные библиотеки, способствующие подготовке студентов по определенным направлениям. Период с 2002 по 2021 г. – время сотрудничества с мировыми университетами в США, Европейских странах, Индии и др.

Сотрудничество с международным сообществом и странами-донорами привело к открытию более 60 частных высших учебных заведений, колледжей и школ. Только в Кабуле в 2018 г. насчитывалось более 10 университетов и колледжей, в которых обучалось около 100 000 – 120 000 студентов, что значительно превысило их количество в 2001 г., составлявшее всего 4000 человек. Кроме того, около 17 тысяч афганских студентов (данные ЮНЕСКО за 2016 г.) учились в университетах соседних государств, в том числе и страны Центральной Азии [1].

Приход к власти движения «Талибан» в августе 2021 г. видоизменил политическую систему и социокультурный контекст афганского общества. Политическая система Исламского государства Афганистан, основанная на конституции 2004 г., разрушается, но не отменяется до конца. Функции Законодательного органа власти выполняет лидер Талибан мулла Хайбатулла Ахунзаде, который издает фирманы, заменяющие законы [9]. Система управления в Афганистане постепенно синхронизируется с шариатскими порядками.

Правительство Талибан стремится добиться тотального контроля над всеми сферами жизни общества, в том числе и в системе образования. Проблемами функционирования системы образования в Афганистане в XX – начале XXI в можно отнести: отсутствие единой системы образования по всей территории Афганистана, гендерный дисбаланс в системе доступа к образованию, неравномерное развитие материально-технической базы школьных и высших учебных заведений Афганистана в сельской и городской местности и др.

Список литературы:

1. Абазов Р. Образование в Афганистане: десятилетия прогресса дают надежду на будущее. 4.11.2021. URL: <https://www.un.org/ru/159578> (дата обращения 25.04.2024 г.)
 2. Шарифов Р.Я. История традиционного и современного образования в Афганистане: монография. – Душанбе: типография «Таъминотчи», 2018. – 320 с.
 3. Бойко В.С. Проблемы и противоречия модернизации в Афганистане в XX – начале XXI в.: очерки альтернативных стратегий и практик развития. – Барнаул, 2017. – 140 с.
 4. Saif R. Samady Education and Afghan Society in the twentieth century / UNESCO, Education Sector. https://archive.org/details/azu_acku_pamphlet_la1081_s36_2001 (дата обращения 20.04.2024 г.)
 5. Parul Bakhshi Unpacking inclusion in education: Lessons from Afghanistan for achieving SDG4/ UNESCO, 2020, Global Education Monitoring Report Team. Retrieved from URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373690> (дата обращения 20.04.2024 г.)
 6. Misbah Abdulbagi Higher Education in Afghanistan. 2009 // Policy Perspectives. – Vol.6. – No.2 (July – December 2009). – Pp.99-117.
 7. Цветкова Н.А, Ширяев Б.А., Стадник И.Т. Политика США и СССР по отношению к Кабульскому университета в период «Холодной войны» // США и Канада: экономика, политика, культура. – 2014. – № 6 (534). – С. 109-118.
 8. Hares Saiq Factors affecting gender inequality in education: the case of Afghanistan // Социально-политические исследования. – 2023. – №1(18). – С.167-179.
- Laletin Yu. Formation of the Political System of the Islamic Emirate of Afghanistan: Challenges and Limitations. Режим доступа: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4048666 (дата обращения 4.11.2023)

Masharipov Qudrat –
Urganch Davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori

XII ASR OXIRI – XIII ASR BOSHLARIDA XORAZMDA KECHGAN ETNOSIYOSIY JARAYONLAR MUAMMOSI

Maqolaning qisqacha mazmuni: XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ulkan hududlarni egallagan Xorazmshoh – anushtaginiylar davlati juda ko‘plagan etnik birliklarni o‘zida birlashtirgan bo‘lib, bu holat davlat siyosiy jarayonlarga ham bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazib kelayotgan edi. Ayniqsa, mo‘g‘ul bosqini arafasida xorazmshoh – anushtaginiylar davlati ichki va tashqi siyosatiga mazkur etnosiyosiy jarayonlarning ta‘siri masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Xorazmshoh – anushtaginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlarning mazmun – mohiyati, sulola so‘nggi vakillarining, shu jumladan, Jaloliddin Manguberding qaysi etnik guruhga mansubligi, hozirgacha bu borada tarix fanida shakllangan qarashlar tahlil qilinib, mazkur muammo yuzasidan yangicha xulosalarga kelinganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshoh-anushtaginiylar, Jaloliddin Manguberdi, Oychechak, Turkon xotun, qipchoq, qang‘li, yemek, boyovut, uron, Nasaviy, Juvayniy, Rashididdin, Ibn al-Asir, Juzjoniy, V. V. Bartol’d, P. Pe’lo, Z. Buniyodov, S. M. Axinjanov, D. M. Timoxin, V. V. Tishin, Ya. Pilipchuk.

Аннотация: В конце XII - начале XIII века Хорезмшахи - Ануштагинское государство, занимавшее огромные территории, объединяло большое количество этнических единиц, и эта ситуация оказала непосредственное влияние на политические процессы государства. Особенно накануне монгольского нашествия вопрос о влиянии этих этнополитических процессов на внутреннюю и внешнюю политику государства хорезмшахов-ануштегинцев является одной из наиболее актуальных проблем. В данной статье анализируется содержание и характер этнополитических процессов, происходивших в государстве Хорезмшахов-Ануштагинов в конце XII - начале XIII века, этнической группы последних представителей династии, в том числе Джелал ад-дина Менкбурни, а мнения, сложившиеся в области истории, до сих пор объясняются тем, что выводы сделаны.

Ключевые слова: Хорезмшах-Ануштегини, Джелал ад-дин Менкбурни, Айчечак, Туркон Хотун, Кипчак, Канглы, Йемек, Бойовут, Урон, Насави, Джувайни, Рашидиддин, Ибн ал-Асир, Джужони, В. В. Бартольд, П. Пело, З. Буниядов, С. М. Ахинджанов, Д. М. Тимохин, В. В. Тишин, Я. Пилипчук.

Annotation: At the end of the 12th century - the beginning of the 13th century, Khorazmshah - the Anushtaginian state, which occupied huge territories, united a large number of ethnic units, and this situation had a direct impact on the political processes of the state. Especially on the eve of the Mongol invasion, the question of the impact of these ethno-political processes on the domestic and foreign policy of the Khorezmshah-Anushtegin state is one of the most urgent problems. In this article, the essence of the ethno-political processes that took place in the Khorezmshah-Anushtagin state in the late 12th - early 13th centuries, the ethnic group of the last representatives of the dynasty, including Jela ad-din Menkburni, and the views formed in the field of history until now have been analyzed, and new conclusions have been reached regarding this problem.

Key words: Khorezmshakhs-Anushteginids, Jela ad-din Menkburni, Ay-Chichek, Terken Khatun, Kypchak, Kangli, Yemek, Bayavut, uran, Nesevi, Juveini, Rashid ad-din, Ibn al-Athir, Juzjani, V. V. Barthold, P. Pello, Z. Bunyadov, S. M. Axinjanov, D. M. Timokhin, V. V. Tishin, Y. Pilipchuk.

KIRISH (INTRODUCTION). Mo'g'ullar bosqini arafasidagi Xorazmda kechgan etnik jarayonlar tarix fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, aynan shu jarayonlar xorazmshoh – anushteginiylar sulolasining mo'g'ullar tomonidan tugatilishining sabablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xorazmshoh – anushteginiylar davlatining so'nggi vakili, vatanparvar sarkarda, mo'g'ullarga qarshi tolmas kurashchi Jaloliddin Manguberdining qaysi urug' – qabilaga mansubligi haqida manbalarda va tarixiy tadqiqotlarda turli qarashlar, turli – tuman va ziddiyatli ma'lumotlar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ulkan hududlarni egallagan Xorazmshoh – anushtaginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlar masalasiga bag'ishlangan alohida yozma manba yo'q. Xuddi shunday bu masalada alohida tarixiy talqiotlar ham olib borilmagan. Faqat shunisi ma'lumki, bu muammo yozma manbalarda biror-bir siyosiy voqea bilan bog'liq holda qisman keltirilib o'tilgan xolos. SHu jihatdan olganda yozma manbalarda jumladan, an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin va Juzjoniy kabi asosiy manbalarda bu masalada bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lib, ular ham alohida mavzu sifatida tahlil qilinmagan. SHu jihatdan olganda, eng avvalo, mazkur manbalarni chuqur ilmiy tahlil qilish zarur.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan alohida ilmiy tadqiqot deyarli yo'q. Faqat qozoq tarixchi olimi S. M. Axinjanovning xorazmshoh – anushtaginiylar davlatining Dashti Qipchoq ko'chmanchilar dunyosi bilan etnik va siyosiy munosabatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarini hisobga olmaganda. Bu mavzu yuzasidan asosan bir qancha maqolalar e'lon qilingan. Jumladan, P. Pelyo, D. M. Timoxin, V. V. Tishin, Ya. Pilipchuk, M. Bayramov va shu kabi tadqiqotchilar maqolalarida bu mavzu yuzasidan manbalarni tahlil qilish asosida ma'lum bir fikr – mulohazalar bildirib o'tilgan bo'lsada, ammo, bu maqolalar mualliflarining yakuniy xulosalari turlicha yoki bir – biriga qarama – qarshi. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha yuqoridagi

yozma manbalar eng asosiy manbalar hamda xorazmshoh – anushteginiylar tarixi, jumladan, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqida ko‘proq to‘xtalib o‘tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V. V. Bartold, P. Pelyo, Z. Buniyodov, S. M. Axinjanov, D. M. Timoxin, V. V. Tishin va Ya. Pilipchuklar tadqiqotlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Jaloliddin Manguberding qaysi qabila vakili bo‘lganligi masalasida ikkita qarash mavjud bo‘lib, birinchisi, u anushteginiylar sulolasi asoschisi bo‘lgan Anushtegin kabi o‘g‘uzlarning bekdili urug‘idan bo‘lgan va shu asosda u turkman qabilasiga mansub deb qaraladi. SHu bilan birga shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi tadqiqotlarning ko‘pchiligida, ayniqsa turkman tarixchilari asarlari va maqolalarida Jaloliddin Manguberdi turkman qabilasidan bo‘lgan degan qarash hukmron bo‘lib, hatto Jaloliddin Manguberdi ularning milliy qahramoni, anushteginiylar sulolasi esa Turkmaniston tarixidagi ikkinchi turkman imperiyasi bo‘lgan degan qarash hukmron [1]. Aslida esa, hech bir manbada Jaloliddin Manguberding qaysi qabilaga mansubligi keltirilmagan. Qolaversa, ko‘pgina tadqiqotchilar manbalarni chuqur o‘rganmasdan turib, Jaloliddinning onasi Oychechakning turkman qabilalaridan birining (aynan bekdili urug‘idan ham emas) vakili bo‘lganligi haqidagi yanglish ma’lumot asosida Jaloliddin ham turkman qabila – urug‘laridan birining vakili bo‘lganligini yozadilar [2]. Ammo, manbalarni chuqur tahlil qilish asosida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, hech bir manbada Oychechakning turkman qabilasi vakili ekanligi haqida birorta ma’lumot yo‘q.

Jaloliddin Manguberding qaysi etnik guruhga mansubligi borasidagi haqiqatga yaqin bo‘lgan ikkinchi qarash bu uning otasi Alouddin Muhammadning onasi Turkon xotunning qipchoq yoki qang‘li qabilalar uyushmasiga mansub qabila urug‘laridan birining vakili ekanligidan kelib chiqib hamda Alouddin Muhammad xorazmshoh davriga kelib, xorazmshoh – anushteginiylarning qipchoqlashuvi jarayoni bilan bog‘liq holda shahzoda va malikalarning, hukmdorlar ayollarining, shu jumladan, Jaloliddin Manguberding onasi Oychechakning ham qipchoq urug‘laridan birining vakili bo‘lganligi to‘g‘risidagi qarashdir.

Tadqiqotlarni tahlil qilish asosida shunga amin bo‘lindiki, Jaloliddin Manguberding turkman qabilasiga mansubligi borasidagi dastlabki fikrlar shu davrda sovet davlati rahbari I. V. Stalinning Xorazm tarixini, ayniqsa, go‘yoki o‘z vatani Gruziyani talon – taroj qilgan hukmdor sifatida, Jaloliddin Manguberding tarixdagi o‘rnini va umuman nomini tarix sahifalaridan o‘chirib tashlash lozimligi borasidagi sa‘y – harakatlari natijasi bo‘lgan deyishga qisman asos bor. SHu jihatdan olganda, I. V. Stalin Xorazmni uchta respublika tarkibiga qo‘shib yuborib, uning davlatchilik tarixi ildizlarini quritgan bo‘lsa, yuqorida keltirib o‘tilgani tarixga nisbatan o‘z shaxsiy nuqtai – nazaridan kelib chiqib, Jaloliddin Manguberdi kabi davlat arboblari nomini tarix sahifalaridan o‘chirib tashlashga harakat qilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Natijada, 1938 – 1939 yillarda ikki jildlik “Turkmanlar va Turkmaniston tarixiga oid materiallar” to‘plami chop qilindi. Aynan shu to‘plamda birinchi bor xorazmshoh – anushteginiylar davlati asoschisi Anushtegin Garchai o‘g‘uzlarning bekdili urug‘iga mansubligi (aslida bu qarashning ham mutlaq ilmiy haqiqatligi isbotlanmagan bo‘lib, yozma manbalarda bu borada turli ma’lumotlar keltirilgan hamda tarixchi olimlar o‘rtasida turli qarama – qarshi fikrlar mavjud va shu asosda Jaloliddin Manguberdi va uning onasi Oychechakning turkman urug‘iga mansubligi g‘oyasi shakllangan [3].

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid asosiy manbalar ichida ham faqat Turkon xotunning qaysi urug‘ga mansubligi keltirilgan xolos. Jumladan, Nasaviy Turkon xotunni yemek qabilasining boyovut urug‘idan [3], Juvayniy o‘zining asari bir joyida Turkon xotunni qang‘li urug‘idan bo‘lganligini yozsa, yana bir joyida uni o‘ron-uran qabilasidan ekanligini (undan kelib chiqib Rashiddin ham Turkon xotun uroniylar qabilasidan bo‘lganligini yozgan) [4], Juzjoniya esa umumiy holatda uni qipchoq malikasi bo‘lganligini ta’kidlaydi [5]. Nasaviy ham Jaloliddinni va uning oilasi, onasini bilgani holda Jaloliddinning aynan qaysi etnik guruhga mansubligini keltirmagan. Nega shunday degan savolga esa javob izlash jarayonida shu narsa

ma'lum bo'ladiki, Nasaviy faqat Turkon xotunning va anushteginiylar sulolasi ba'zi vakillarining mansub bo'lgan etnik guruhi nomini keltirib o'tgan xolos. Jumladan, Turkon Xotun yemek qabilasining boyovut (V. V. Bartold va P. Pe'olalar boyovut urug'i mo'g'uliy bo'lganligi uchun xato berilgan, aslida u bayot bo'lishi kerak deb ta'kidlab o'tganlar [6]. Kamol Matyoqub tarjimasida ham bayot shaklida keltirilgan, lekin Turkon xotun bayot qabilasining yemek urug'idan deb xato berilgan) urug'iga mansub bo'lgan. Nasaviy, uning nabiralari Uzlohshoh va Oqshohlarni, Jand noibi Qutlug'xon Bo'ji Pahlavonni ham boyovut (bayot) urug'idan bo'lganligini ta'kidlagan [7]. O'tror hokimi Inolchiq Turkon Xotunning jiyani, Samarqand hokimi To'g'ayxon va Urganch noibi Xumortegin uning ukasi bo'lganligi haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ularning hammasi bayot-boyovut urug'idan bo'lgan [8]. Demak, anushteginiylar davlatida bu paytda qang'li yoki qipchoq qabila uyushmasining yemek qabilasiga mansub hamda Nasaviy yanglishib boyovut deb atalgan urug' yoki Juvayniy keltirgan uron urug'i hukmronlik qilgan va bundan kelib chiqadiki, Oychechak ham mazkur yemek qabilasining boshqa urug'iga, ammo boyovut yoki uron urug'iga qarshi bo'lgan urug'lardan birining vakili hisoblangan degan xulosaga kelish mumkin. Nasaviyning ta'kidlashicha: "Qipchoq urug'lari Xorazmshohlar xonadoni bilan do'stlik va muhabbat rishtalari orqali mustahkam bog'langandi. Qadim zamonlarda bo'lgani kabi ayni kunlarda ham Xorazmshohlar oilasida farzandlar qipchoq hukmdorlarining kelin qilib olib kelingan qizlaridan dunyoga kelar, bu yerda onalik baxti ko'proq ularga nasib etardi. Ayni paytda, qipchoqlar Xorazmshohlarning asosiy tayanchi, ular qo'shinlaridagi ko'psonli yetakchi kuch, shon-shuhratlarining manbai edi" [8]. Mazkur ma'lumot, Oychechakning ham yemek qabilasiga mansubligini, faqat Turkon xotun urug'idan bo'lmaganligini isbotlaydi.

Shu o'rinda rossiyalik tadqiqotchilar D. M. Timoxin, V. V. Tishin va ukrainalik tarixchi Ya. Pilipchuklar tadqiqotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu tadqiqotlarda XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Xorazmshoh – anushteginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlar masalasi yanada keng miqyosdagi manbalar jalb qilinishi asosida tahlil qilinib, muammoga turli tarafdin yondashilgan. Ammo, bu tadqiqotlarda mazkur masala yuzasidan asosan ilgari fikr – mulohazalar va xulosalar tahlil qilinib, so'nggi anushteginiylar davridagi etnik jarayonlar, hukmron sulola vakillarining qaysi etnik guruhga mansubligi masalasi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinmagan. Jumladan, bu tadqiqotchilar ham so'nggi anushteginiy hukmdorlar sulolasi vakillari umumiy holatda qang'li – qipchoq qabilaviy uyushmalarining turli urug'lariga mansub bo'lganligi borasidagi xulosaga kelishgan [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Oychechak va uning o'g'li Jaloliddin Manguberdi umuman turkman qabilasiga mansub bo'lmaganligi aniq. Ular qipchoq qabila uyushmasiga mansub yemek qabilasi urug'laridan (bayot-boyovut va uron urug'laridan tashqari) birining vakili bo'lganliklari haqiqatga yaqin.

Tojikistonlik olimlar bot-bot ta'kidlaydigan Xo'jand hokimi Temur Malikning tojik bo'lganligi masalasi ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki birorta manbada uning tojik bo'lganligi yozilmagan. Mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazm davlatining barcha viloyat va shahar hokimlarining aynan Turkon xotunning bevosita ta'sirida hamda uning urug'iga mansub kishilarning hokim qilib tayinlanganidan kelib chiqib, Temur Malik ham qang'li, yemek yoki qipchoq qabilasi vakili bo'lgan. Jumladan, Hirot hokimi Amin al-mulk ham Turkon xotun qarindoshlari bo'lib, qang'li qabilasining vakili edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Язбердыев А. Ануштагин Гарча – основатель династии хорезмских правителей. // Мирас. 2017, № 2. – С. 36 – 59.
2. Язбердыев А. Избранные статьи. В 10-ти томах. Т. III. – Ашгабат: "Билим", 2012. – С. 163-168, 178-180; Байрамов М. Об этнической принадлежности Джелал ад-дина Менгуберди и династии хорезмшахов-ануштегединов. - Ашхабад, 2018 // http://turkmen-horezm.blogspot.com/2018/07/blog-post_31.html?view=timeslide.

3. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С. Л. Волина, А. А. Ромаскевича, А. Ю. Якубовского. М. -Л. : Наука, 1939. – 612 с.
4. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёкубов таржимаси. / – Т. : O‘zbekiston, 2006. – Б. 64.
5. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо. (Жаҳон фотиҳи тарихи). / Масъул мухаррирлар: Ҳ. Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – Б. 350, 415; Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М. , Л. : Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – Б. 209.
6. *Ṭabakāt-i-Nāṣirī*: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia, Including Hindustan; from A. H. 194 (810 A. D.) to A. H. 658 (1260 A. D.) and the Irruption of the Infidel Mughals into Islam / by Minhāj-ud-dīn, Abū-‘Umar-i-‘Usmān; transl. from original Persian manuscripts by H. G. Raverty. Vol. I. London: Printed by Gilbert & Rivington, 1881. LXIV. – P. 240.
7. Pelliot P. A propos des Comans // *Journal Asiatique*. 1920. XI série. Т. XV. №1. – P. 87-89, 91-92, 125–185; Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // В. В. Бартольд. Сочинения. – М. : Наука, 1963. Т. 1. – С. 434; Бартольд В. В. Сочинения. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов // В. В. Бартольд. Сочинения. – М. : Наука, 1968. Т. 5. – С. 271.
8. Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. – Б. 64, 80; Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов-Ануштагинидов 1097–1231 г. – М: Наука, 1986. – С. 90, 247.
9. Тимохин Д. М. , Тишин В. В. Происхождение Теркен-хатун, матери хорезмшаха Ала ад-Дина Мухаммада: к проблеме соотношения этнонимов в восточном Дешт-и Кыпчаке в XII-начале XIII вв. в исторических источниках // Материалы II-й научной конференции средневековой истории Дешт-и Кыпчака. Павлодар: ТОО НПФ “ЭКО”, 2018. – С. 83-103; Пилипчук Я. В. , Сабитов Ж. М. Очерки этнополитической истории кыпчаков. – Астана, ГЫЛЫМ, 2015. – 248 с.

Sabirov Kurbanbay.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Xorazm viloyati, Urganch shahri. Urganch davlat universiteti.

Nurmetov Sardor Baxtiyorovich.

Xorazm viloyati, Urganch shahri.

Urganch innovatsion university

O‘ZBEKISTON QISHLOQLARINING JOYLASHISH GEOGRAFIK OMILLARI.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston qishloqlari joylashishining geografik omillari haqida ba’zi mulohazalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Xo‘jakent, Obirahmat, Teshiktosh, Sul-ton Uvays, Ustyurt, Amudaryo, Zarafshon.

Аннотация: В статье освещены некоторые соображения о географических факторах расположения сел Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекистан, Селунгур, Кольбулок, Ходжакент, Обирахмат, Тешикташ, Султан Увайс, Устырт, Амударья, Зарафшан.

Annotation: The article covers some considerations about the geographical factors of the location of the villages of Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, Selungur, Kolbuloq, Khojakent, Obirahmat, Teshiktash, Sultan Uvais, Ustyurt, Amudarya, Zarafshan.

Osiyo materigining tarkibiy qismi bo'lgan O'rta Osiyo mintaqasi yuzasining rang-barangligi geologik taraqqiyoti davrlarida yuz bergan paleotektonik va paleogeografik jarayonlar natijasidir. Shu ma'noda mintaqaga o'ziga xos geografik muhit, iqlim-antropogen landshafti, tabiiy boyligi jihatdan bir-birini takror qilmaydigan bir necha qismlardan iborat. Shunday ma'lum muayyan geografik hududlarga ega bo'lgan tarkibiy qismlardan biri O'zbekiston hududi hisoblanadi. O'lkamiz yer yuzasi tuzilishi tog' va tekisliklardan iborat bo'lishi uchlamchi va to'rtlamchi davrlarda kechgan geologik jarayonlar natijasida O'rta Osiyo mintaqasi markazida geografik o'rin sifatida shakllangan. O'zbekiston hududining Kaspiy dengizi sohilidan sharqiy tomonda ko'kga bo'y cho'zgan tog'larga 1400 km, Orol dengizi sohili janubidan Amudaryogacha maydon 925 km. hudud tog'li va tekisliklardan iborat. Geografik muhit, iqlim sharoit jihatdan bir-biridan farqlanishi fizik-geografik xaritada o'z ma'nosini topgan. Vatanimiz hududini Turon pasttekisligi o'rtasida joylashganligi, shimoli-g'arbiy tomoni ochiqligi, shimoli-sharqiy va janubi-sharqida osmono'par tog'lar, janubiy qismi esa Amudaryo bilan cheklanganligi xususiyatlari bilan qo'shni hududlardan farqlanish holati kuzatiladi. O'zbekiston hududi geografik rang-barangligi jihatdan boshqa tarixan tarkib topgan bir necha tabiiy-ijtimoiy qismlardan Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo va Quyi Amudaryo hududlari yuzasi tuzilishi jihatidan o'xshashlik mavjud emas [1]. Geografik adabiyotlarda qayd qilinishicha O'rta Osiyo mintaqasi egallagan maydon 3 mln 450 ming kv. kmni tashkil etib, shundan tekisligi 71%, 29% tog' va dasht hududi O'zbekistonga to'g'ri kelgan [2]. O'lkamizning geografik o'rnini tekisligi unumdorligi, tog'li hududlar tabiiy resurslari odamzotning joylashib, ilk kasb-korlarini olib borishga imkoniyat yaratgan. XX asr adabiyotlari va XXI asr boshlarida tadqiqotlar natijasida qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, tosh davrining ashel davri quyi bosqichidan o'lkamizning muayyan hududlarida madaniy izlarini qoldirganlar. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, yer geologiyasining kaynazoy erasining to'rtlamchi davrida kechgan geologik jarayonlar natijalarini tosh asrida xo'jalik an'analari davom ettirgan ajdodlarimiz bosib o'tgan tarixi ashyolangan. Tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, to'rtlamchi davr quyi bosqichi neogendan-mindel davrlari orasida tekislik bo'lgan bo'lsa, mindel-riss davridan boshlab (500 – 10-ming yillar pleystosen muzligi qoplagan, IX – V ming yilliklar golosen (neolit)) davridan iborat bo'lgan [3]. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bundan 4 – 3-million yillar Sirdaryo va Amudaryo oralig'i, Ustyurt hududlari tekislik bo'lgan [4]. O'zbekiston viloyatlarida rus tadqiqotchilari hamda mahalliy-ilmiiy markazlarning qadimshunoslar rahbarligida arxeologik ekspeditsiyalarning keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik izlanishlari natijalari asos qilib olgan adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlar nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning muayyan hududlarida 1 million yildan temir davri oxirigacha amaliy tajribalarining rivojlanishi bir tarixiy jarayonda kechgan emas. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, Farg'ona vodiysi Oloy tog' tizmasi So'x daryosi Xaydarkon qishlog'ida paleotektonik harakatlarning bir necha marotaba kechishi natijasida vujudga kelgan g'or-makon Selung'ur ichki qismi uzunligi 120 m, eni 34 m, balandligi 25 m bo'lgan [5]. Demak manzilgohning geografik o'rnini odamzotning joylashib, tevarak-atroflari tabiiy resurslaridan uddaburon va ephillik bilan foydalanish imkoniyatini yaratganligi bois Farg'ona vodiysi tosh asrining ashel davri quyi bosqichida ilk etnik bo'lib, qo'shni hududlarga tarqalish obyekti bo'lganligini qayd qilish joiz. Ashel davri quyi bosqichida odamzotning o'zlashtirish tadbiri Toshkent viloyati Ohangaron vodiysi geografik manzarasini tasvir qilgan Chotqol tog' tizmasi tarkibidagi Qizil-Olmasoy so'l sohili etagiga ulangan tog' tizmasida Chashma bulog'i etagiga ulanib ketgan tekislikda kechgan. M. R. Qosimov tomonidan mazkur tekislikdagi Ko'lbuloq manzilgohi madaniy qatlamlaridan Selung'ur g'or-makonidan olingan moddiy ashyolarni takror qilgan [6:5-35]. Ko'lbuloq ochiq manzilgoh bo'lib, odamzot kundalik faoliyatlarida ishlatilgan tosh qurollarning yoyilish hududiy chegaralarini aniqlashtirish imkoniyati yo'qligi munosabati bilan, uning topografik joylashish xususiyatlarini aniqlash qiyin.

Zarafshon vodiysi shimoli-gʻarbiy hududlarida Qoratogʻ togʻida joylashgan Urgut, Ijond va Vaush gʻor-makonlari madaniy qatlamlaridan olingan moddiy ashyolar Selungʻur va Koʻlbuloq ovchilari bilan bir tarixiy davrda etnik jarayonlarni olib borganlar. Ovchilarning mehnat qurollarni tayyorlashda Kavobi shaxta ustaxonasi xizmat qilgan [7]. Arxeologik nashrlarda qayd qilingan maʼlumotlarga koʻra, Ustyurt hududi geografik holati ochiq-yalangligi, osmonoʻpar togʻlardan holi boʻlishiga qaramasdan ashel davri quyi bosqichi davrida odamzotning kelib Shoxpaxta havzasidagi quduqlar atroflarida 5x7 m, 10x20 m, 50x70 m, 30x150 m kabi manzilgohlar ovchilarga kundalik faoliyatlarini olib borishga imkon yaratgan [8:65-68]. Tadqiqotchilarning maʼlumotlari asosida Oʻzbekistonning tabiiy-geografik hududlarida ashel davri quyi bosqichida ovchilarning olib borgan etnik jarayonlar hududiy chegaralarni tarixiy kartografiyasini yaratish imkoniyati mavjud. Ashel davri quyi bosqichida odamzotning joylashishiga hudud jihatdan cheklanganligi tabiiy gʻorlar makon sifatida xizmat qilib, aholi soni miqdoriga mos boʻlgan togʻ tizmalarida tabiiy manbalari serob boʻlgan ochiq manzilgohlarni joylashishi odamzotning faoliyat olib borishiga toʻsiqlar mavjud odamzotning muayyan hududlarda oʻrnashishi munosabati bilan fizik-geografik hududlarda, tarixiy-geografik hamda etnodemografiya atamalarining vujudga kelishiga zamin boʻlgan. Arxeologik adabiyotlarda ashel davri quyi bosqichida Toshkent, Fargʻona, shimoli-gʻarbiy Zarafshon, Ustyurt Shaxpaxta havzasida tabiiy manbalardan, xususan togʻ-kon ashyosi kvarsit va chaqmoqtoshdan texnologik jarayonlar natijasida xilma-xil mehnat qurollarining kundalik faoliyatlarida qoʻllanilishi va etnik jarayonlarni olib borishi bir-birini takror qilmaydigan tabiiy geografik sharoit hamda hududiy joylashish chegaralari geologik jihatdan yagona, ammo bir-biridan ancha uzoqda joylashgan odamlarning koʻnikkan hudud, moddiy va maʼnaviy madaniyati rivojlanishida xilma-xil shaklli xoʻjalik sohalari keyingi tarixiy davrda rivojlanishiga asos boʻlib xizmat qilgan. Darhaqiqat, muayyan hududlarda joylashgan ibtidoiy odamzotning kundalik faoliyatlarida hayotiy tajribasi asosida madaniy-xoʻjalik va etnik munosabatlarning uzluksiz sifatda rivojlanishiga imkon yaratgan [9:93-94]. Tadqiqotchilar nashrlarida ibtidoiy ovchilarning olib borgan oʻzlashtirish tadbirlari toʻgʻrisida fikr-mulohazalar kuzatilmaydi. Shu maʼnoda nashrlar mazmunida aks etgan tarixiy maʼlumotlardan kelib chiqib oʻrta tosh davrida Fargʻona, Ustyurt hududida allaqachon geografik muhitga moslashgan ovchi-termachilar tabiiy-manbalar zaxirasi mavjudligini eʼtiborga olib, kundalik faoliyatlarida qoʻshnin hududlar sari migratsion tadbirni olib bormagan degan xulosaga kelish mumkin. Shu maʼnoda nashrlar mazmunida aks etgan tarixiy maʼlumotlardan kelib chiqib oʻrta tosh davrida Fargʻona, Ustyurt hududida allaqachon geografik muhitga moslashgan ovchi-termachilar tabiiy-manbalar zaxirasi mavjudligini eʼtiborga olib, kundalik faoliyatlarida qoʻshni hududlar sari migratsion tadbirni olib bormagan degan xulosaga kelish mumkin.

Oʻzbekistonning tabiiy-iqtisodiy hududlarida tosh asrining ashel davrida ibtidoiy odamlarning gʻor-makonlar va ochiq manzilgohlarda yashab, olib borgan etnik jarayonlar yagona emas. Ibtidoiy ovchilar tomonidan kundalik amaliy mashgʻulotlarda ishlatilgan tosh sixchalar, qoʻl choʻqmorlari, nuklueslar qoʻshni Qozogʻiston janubida Takali I-III, Tanirkazigʻon, Boʻriqozigʻon, Kamar va Shabakti, sharqiy, shimoliy va gʻarbiy hududlarida Sari Arka, Semiz-bugʻu, Qudaykul, Jaman Aybat, Qirgʻizistonda Qizqalʼa, On-Archa, Tojikiston janubida Qoratogʻ-1, Loxutiy, Xavolang, Turkmaniston hududida Yangaja, Qoratanger, Tomchisuv bulogʻi odamlari ilk tosh davrida etnik munosabatlarni geografik kenglikda olib borganlar [10].

Qirgʻizistonda On-Archa ovchilari yangi hududlarda kashf qilgan Tossor, Georgiy-Bugor, Xoʻjagʻayr manzilgohlarda, janubiy Qozogʻistonda Betlak-8, Muzdel, Intori, Burgutli 1-3, Uzunbuloq 1, 2, Turkmanistonda esa Qashqirbuloq, Janurpa, Katta Bolxon va Uzboy hududlarida mustye davriga oid moddiy ashyolar olingan [11:41-44]. Mustye davri ovchilarining kundalik faoliyatlari soʻnggi tosh davri manzilgohlarida davom etgan. Misol uchun Tojikiston hududida Pomir togʻi etaklari Vaxsh tekisligida Oshxona, Qoratumshuq, Chilgor Chashma, Tutqovul, Turkmanistonda Dam-Dam Chashma, Kaylyu, Jebel manzilgohlari mezolit davri ovchi-termachilariga xizmat qilgan va etnik munosabatlar kechgan. Tadqiqotchilar qayd qilishicha, Koʻlbuloq manzilgohida aholisi soni oʻsganligi, mehnat qurollari tanqisligi, oziq-ovqat muammosi hamda tabiiy manbalar zaxirasi kamayganligi munosabati bilan ularning guruh vakillari Xoʻjakent

va Obirahmat g'or-makonlariga kelib joylashib notanish geografik muhitda etnik munosabatlarni olib borib hudud geografik kengligini hosil qilgan [12:20]. Obirahmat g'or-makoni shakli yoysimon, uzuligi 50 m, eni 20 m, kirish janubiy yo'nalishda, Xo'jakent g'or-makoni kengligi 6 m, balandligi 2, 5 m, chuqurligi 4 m. O'rta Zarafshon tog'li va tekisliklarida Chashma atroflarida ovchi-termachilari tomonidan Omonqo'ton (kengligi 1, 5 m, balandligi 0, 9 m, chuqurligi 25 m), Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Takalisoy, Go'rdaryo, Vaush manzilgohi ovchilari olib borgan o'zlashtirish tadbirlari natijasidir [13:8-9].

Surxondaryo viloyati Boysun tog'idagi tabiiy g'or ovchilar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida ilk etnik jarayonlar obyekti bo'lgan. Ilk etnik makon Teshiktosh atamasi bilan ma'lum bo'lib, kirish qismi shimoli-sharqiy tomonda kengligi 20 m, chuqurligi 11 m, balandligi 5 m. Teshiktosh madaniy qatlamlaridan neandertal bolasi bosh suyagi, uning qopqog'i qoldig'i etnik jarayonlarga oid ilk moddiy ashyolar qoldig'i edi [14:32-33]. O'rta tosh davri odamlari g'or-makonlar, tog' tizmalari, tekisliklar suv havzalari etaklarida o'rnamashganlar. Yangi hududlarni o'zlashtirish munosabati bilan geografik hududlar kengayganligi bilan etnik munosabatlarni rivojlantirganlar holda so'nggi tosh davriga yetib kelgan. So'nggi tosh davrida (mil. avv 40 – 12-mingyilliklar) ovchi-termachilar etnik jarayonlar geografik kenglikda davom etdilar. Misol tariqasida, O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlarida so'nggi tosh davrida ovchi-termachilar moslashgan geografik hudud doirasida etnik munosabatlarni davom ettirganlar (Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Ustyurt). So'nggi tosh davrida O'rta Zarafshonda qo'shni hududlarni o'zlashtirish jarayoni kechganligini isbot qilgan moddiy ashyolar Samarqand, Siyobcha, Xo'jamazgil, Olmabuloq [15:20-21], Ustyurt hududi janubi-sharqiy qismida Churuk 12 manzilgohi ovchilari bir guruh vakillari Sulton Uvays tog'i so'l hududiga kelib, Burli-3 manzilgohlarida istiqomat qilib yangi geografik jarayonda etnik munosabatlarni davom ettirganlar.

O'zbekiston so'nggi tosh davrining xususiyati mazmuni shundaki aholining asosiy qismi tekislik, dashtlar va suv havzalari etaklarida yashab etnik munosabatlarni jadal rivojlantirgan urug'lar ko'nikkan geografik hududda istiqomat qilganlar. Ba'zi urug' jamoalari esa yangi hududlarni o'zlashtirib xo'jalik-madaniy tiplarni vujudga keltirganlar. Tabiiy-iqlim sharoit bir xil, kundalik faoliyatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati, tosh va suyakdan ishlangan mehnat ashyolari bir xil belgilari mavjud bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi – Toshkent. O'qituvchi–1996.
2. Baratov. P, Mamatqulov. M, Rafikov. A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi – Toshkent. "O'qituvchi". 2002.
3. Kabirov J, Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi – Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
4. Виноградов А. В, Итина М. А, Кесь А. С, Мамедов Э. Д. Палеогеографическое обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии// Первообытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене – М, :Наука, 1974 – С. 290-291
5. Islomov U. Farg'onaning ibtidoiy tarixi// Anorboyev A, Islomov U. I, Matbabayev B. O'zbekiston tarixida Qadimgi Farg'ona – Toshkent, "Fan", 2001.
6. Касымов М. Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане – МИА, -М, :1972 – Вып 185.
7. Kabirov J, Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi – Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
8. Бижанов Е. Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте //Вестник Каракалпакского филиала АН УЗССР. - Нукус, №1, 1983.
9. Козлов В. М. Этнос и территории//СЭ, - М, :Наука. 1971.
10. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. Отв. ред. В. М. Массон. М. -Л. : 1966.
11. Kabirov J, Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi – Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
12. Kabirov J, Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi – Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
13. Jo'raqulov M. J. Samarqand vohasining ibtidoiy madaniy tarixi sahifasi// Археология Узбекистана. – Самарканд, Вып № 1(2). 2011 – С. 8-9.

14. Islomov U. Farg‘onaning ibtidoiy tarixi. – Toshkent, “Fan”, 2001.
15. Jo‘raqulov M. J. Samarqand madaniyati tarixining ko‘hna ildzilari – Samarqand, 2000.

Anyozov Ruslan Botirovich
PhD. dotsent
O‘zbekiston, Urganch
UrDU. Tarix kafedrası

XORAZM VOHASI KARVON YO‘LLARI MARKAZIY OSIYO KOMMUNIKATSIYA TIZIMINING BIR BO‘LAGI SIFATIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm vohasi karvon yo‘llarida xizmat ko‘rsatish tizimi rivojida karvon tarkibi va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi.*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о составе каравана и особенностях их деятельности по развитию системы обслуживания на караванных маршрутах оазиса Хорезм.*

Annotation: *This article provides information about the composition of the caravan and the specifics of their activities to develop a service system on the caravan routes of the Khorezm oasis.*

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, Xorazm, Buyuk ipak yo‘li, karvon yo‘llari, Xorazm shaharlari, karvon boshi, tibbiyot, pochta, ot, tuyu, eshak, arava.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, Хорезм, Великий шелковый путь, караванные пути, города Хорезма, Глава каравана, медицина, почта, лошади, верблюд, осел, повозка(арба).*

Key words: *Central Asia, Khorezm, the Great Silk Road, caravan routes, cities of Khorezm, Head of the caravan, medicine, mail, horses, camel, donkey, cart.*

Xorazm vohasi karvon yo‘llarida xizmat ko‘rsatish tizimi rivojida karvon tarkibi va ular faoliyatining savdo tizimida tutgan o‘rnini o‘rganish va bu masalada yangi ilmiy qarashlarni shakllantirish hozirgi kundagi tarixiy zarurat hisoblanadi.

Xorazm vohasi qadimdan Markaziy Osiyo kommunikatsiya tizimining bir bo‘lagi sifatida Buyuk ipak yo‘lining shimoliy yo‘nalishidagi muhim hudud sifatida ko‘zga tashlanadi. Xorazm vohasi yo‘llarida xizmat ko‘rsatish tizimi rivojida karvon tarkibi va ular faoliyatining ahamiyati Markaziy Osiyo mintaqasida karvon yo‘llari taraqqiyoti, dinamikasini ko‘rsatuvchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlar uzil-kesil shakllangan. Bu xususiyatlar ichida qulay aloqa yo‘llarining mavjudligi, ularni qurish va ta‘mirlashga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishi, yo‘lbo‘yi inshootlari – vaqtinchalik qo‘nalg‘alar, rabotlar, karvonsaroylar, sardobalar, quduqlar, ko‘priklar va boshqa tegishli infratuzilmalar mavjudligi hamda ulov-transport vositalaridan foydalanishning kengayishi yetakchi o‘rin tutadi.

Ma‘lumki, karvon yo‘llarida xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyati, aniqrog‘i uning ko‘lami karvon tarkibiga ham bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli karvon tarkibi masalasiga qisqacha to‘xtalib o‘tish zarur. Karvon tarkibi odatda borilayotgan shahar yoki mamlakatning uzoq-yaqinligi, savdo karvoni bosib o‘tadigan hududning tabiiy geografik shart-sharoitlari, yo‘llarning holati va xavfsizlik darajasi, yo‘lbo‘yi infratuzilmalari mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, safar amalga oshirilayotgan mavsumning qandayligi va boshqa shunga o‘xshash holatlarni hisobga olingan holda tuzilar edi. Katta karvonlarda tuyalar 20 tadan 60 tagacha bo‘linib, bir to‘pni – qo‘shni tashkil qilgan. Savdo karvonlariga karvonboshi yetakchilik qilib, karvon tarkibini aniqlash, yo‘nalishni belgilash, yo‘lda harakatlanish tartibini va vazifalarni aniqlashtirish, xavfsizlikni ta‘minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish uning zimmasida bo‘lgan. Karvonboshilar odatda jamiyatning nufuzli ijtimoiy tabaqalariga mansub bo‘lib, ko‘p hollarda yuqori siyosiy va katta iqtisodiy nufuzga ham ega bo‘lgan. Uzoq yillar yirik savdo karvonlariga boshchilik qilgan

karvonboshilar katta miqdorda boyluk to'plashga va jamiyatning e'tiborli va ta'sirli namoyandaligidan bo'lishga erishganlar [1].

O'rta asrlarda turkiy xalqlar ham iqtisodiy-savdo aloqalarida faol qatnashganlar. Xalqaro savdoda ishtirok etgan savdogarlar va savdo karvonlari turkiy xalqlarda "Arqish" deb yuritilgan. Arqish (Arqis) atamasi xabar yoki xabarchi, elchi ma'nolarini ham berib qadimgi turklarning mintaqaning ichki va tashqi savdo aloqalaridagi keng ishtirokidan dalolat beradi.

Savdo yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanib borishida ikki jihat ko'zga tashlanadi. Birinchisi, savdo karvonlariga, elchilik missiyasi a'zolariga yoki yo'lovchilarga yirik savdo markazlarida, shaharlarda va boshqa yo'lbo'yi infratuzilmalarida xizmat ko'rsatishni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lib, buni yuqorida ko'rib o'tdik. Ikkinchi tomondan, savdo karvoniga bevosita karvon yo'lida, karvon tarkibiga kirgan holda xizmat ko'rsatishning tashkil qilinishi edi. Bu ikkinchi toifaga o'z ulov vositasi bilan karvonlarga xizmat ko'rsatadigan kirakashlar, ayrim yo'nalishlarda yo'lboshlovchi vazifasini bajaradigan kishilar yoki guruhlar, turli tillarda gaplashuvchi savdogarlarning savdo aloqalaridagi muloqotida muhim o'rin tutuvchi tilmochlar (tarjimon), uzoq mamlakatlarga boruvchi savdo karvonlari tarkibida bo'lishi talab etiladigan tabiblar va boshqalar kirgan.

O'z ulov vositalari bilan savdo karvonlariga xizmat ko'rsatuvchi kishilar guruhi – kirakashlar toifasining shakllanishi ancha qadim davrlarga borib taqaladi. Kirakashlar odatda savdo karvoni o'tadigan hududda yashovchi xalqlar vakillaridan tashkil topgan. Kirakashlik aholining ayrim tabaqalari uchun asosiy kasb hisoblanar edi. Hatto ko'chmanchi turkman va qozoqlarning ayrim qabilalari uchun kirakashlik yagona daromad manbai bo'lgani ma'lum. Xususan, Xorazm vohasini Rossiya shaharlari va Kaspiybo'yidagi Eron shaharlari bilan savdo aloqalarida qozoqlar va turkmanlar yirik savdo karvonlariga yo'lboshlovchi va kirakash bo'lib yollangan. Umuman olganda, arava va tuyalarni yuk tashish uchun ijaraga olish Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha yirik shaharlarda bo'lgan. Masalan, Buxoro amirligida XIX asrning ikkinchi yarmida o'rtacha 1000 ga yaqin arava, 5000 ga yaqin tuya yuk tashish uchun yo'lovchilar va savdogarlar xizmatida bo'lgan. Arava 25 pudgacha, tuya 16 pud, ot 6 pud va eshak 4 pud yuk ko'tara olgan. Tog'li hududlarda yuk asosan ot va eshaklarda tashilgan. Buxoro-Qo'qon yo'lida ham aravalardan foydalanilib, Qo'qondan Qashqarga boruvchi savdogarlar esa mollarini ijaraga olingan otlarga (har bir otga 8 puddan) yuklab, har bir ot uchun 2-4 tillo haq to'laganlar.

Savdo aloqalarining samaradorligiga karvon yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash va boshqa xizmatlar ko'rsatishdan tashqari, yo'llarning sifati ham katta ta'sir ko'rsatar edi. Markaziy va mahalliy hukumat yo'llar va yo'lbo'yi inshootlarining uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga ma'sul hisoblanmada, yo'lbo'yi inshootlari barpo etishga davlat xazinasi hamda xususiy shaxslar mablag'lari sarflaganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shunga qaramasdan, XIX- XX asr boshlariga tegishli manbalarda Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida yo'llarning holati yomon ekanligi qayd etilgan.

Karvon tarkibida tibbiy xizmat. Xalqaro tranzit yo'llarning iqtisodiy-madaniy aloqalarda, sivilizatsiyalararo muloqotda tutgan o'rnini ta'kidlash bilan birga, ba'zi hollarda xavfli yuqumli kasalliklarning savdo yo'llari bo'ylab katta hududlarga tarqalganligini ham qayd etib o'tish kerak. Misol tariqasida, XIV asrda Xitoyda boshlangan qora o'lat kasalligi 1330-1340-yillarda Buyuk ipak yo'li yo'nalishlari bo'ylab Bolqon va Sharqiy Yevropa mamlakatlarigacha yetib borganligini aytish mumkin. Bunday holatlar qadimda va o'rta asrlarda tez-tez takrorlanib turgani bois, karvon yo'llarida tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil qilinishi hayotiy zarurat edi. Markaziy Osiyoda va qo'shni hududlarda ham qadimdan boshlab aholiga hamda yo'lovchilarga, savdogarlarga tibbiy yordam ko'rsatiladigan shifoxonalar bo'lgan. Tibbiyot taraqqiyoti ayniqsa rivojlangan o'rta asrlarda yuksak cho'qqilarga ko'tarildi [2].

Tibbiyot sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar karvon yo'llarida tibbiy xizmat ko'rsatish rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Rivojlangan o'rta asrlar davriga kelib bu sohada ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Shaharlardan tashqari, yirik qishloqlarda va muhim bekatlarda ham savdo karvonlariga, yo'lovchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilib, bu bilan shug'ullanadigan maxsus tabiblar guruhlari shakllandi. Tibbiy bilimlar va tibbiy xizmat ko'rsatish sirlari odatda

avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, ko'plab tabiblar sulolalari paydo bo'ldi. Xususan, mintaqaning chekka hududlarida ham yo'lovchilarga va ulov vositalariga malakali tibbiy xizmat ko'rsata oladigan mahalliy tabiblar bo'lganligi manbalarda qayd etiladi [3].

Elchilik missiyalari va yirik savdo karvonlari tarkibida maxsus tabiblar ham bo'lgan. Bu bir tomondan turli hududlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tibbiy bilimlarning savdo yo'llari bo'ylab turli mintaqalarga tarqalishiga xizmat qilgan. Maxsus choparlar, ayg'oqchilar va davlat xizmatidagi boshqa kishilar odatda, eng zarur tibbiy dori-darmonlar, turli dorivor giyohlar bilan ta'minlanib, ular o'zlariga va sheriklariga birlamchi tibbiy yordam ko'rsata olish malakasiga ham ega bo'lishgan.

Ma'lumki, karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish sohalari tizimida pochta xizmati ko'rsatish izchil yo'lga qo'yilgan bo'lib, davlat ahamiyatiga ega sohalardan hisoblangan. Markaziy Osiyoning xususan Xorazm vohasi karvon yo'llari bo'ylab barpo etilgan pochta bekatlari, ularda davlat pochta xizmatchilariga, choparlarga tegishli xizmatlar ko'rsatish, ot-ulovlarini almashtirish, xat-xabarlarining xavfsizligini ta'minlash kabi muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalarni bajarish davlat pochta xizmati mahkamalari zimmasiga yuklatilgan edi.

Pochta xizmati hukmdorlarga va xususiy shaxslarga tegishli xat-xabarlarni manzilga yetkazish vazifasini bajarib, maxsus xabarchilar orqali amalga oshirilgan. Manbalarda davlat pochta xizmatidan tashqari xususiy pochta xizmatlari ham bo'lganligi, shuningdek, xat-xabarlarni yetkazishda maxsus o'rgatilgan kaptarlar va boshqa qushlardan ham foydalanilganini tasdiqlovchi ma'lumotlar bor [4].

Karvon yo'llarida pochta xizmati ko'rsatish tizimi keyingi davrlarda yanada takomillashib bordi. XIII asrda Markaziy Osiyoda bo'lgan mashhur sayyoh Marko Polo Buyuk Xon buyrug'i bilan karvon yo'llarida xon choparlariga xizmat ko'rsatish yaxshi yo'lga qo'yilganligini, xususan, har 22-25 mil masofada pochta bekatlari – "yanb" (yom) barpo etilgani, ularda choparlar dam olishi uchun barcha sharoit mavjudligi, har bir bekatda 200 tadan 400 tagacha chopqir otlar choparlar xizmatida ekani, asosiy yo'llarning ikki tarafga daraxtlar ekilgani, karvonlar va yo'lovchilar adashmasligi uchun tegishli joylarda tosh va ustunlar shaklida maxsus yo'l ko'rsatkichlar o'rnatilganini qayd etadi.

Ulov-transport vositalari va yuk tashish xizmati. Markaziy Osiyo xususan, Xorazm vohasidagi karvon yo'llari tizimida ulov-transport vositalari katta o'rin tutadi. Ulov vositalaridan foydalanish tosh davrining so'nggi bosqichlaridayoq boshlangan bo'lib, keyingi tarixiy davrlarda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti hamda ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalariga mos ravishda rivojlanib bordi. Ot, tuya, eshak va boshqa hayvonlarning xonakilashtirilishi eneolit va ayniqsa bronza davridan boshlanib, keyingi davrlarda yilqichilik va tuyachilik qishloq xo'jaligining alohida sohalari sifatida rivojlanib, mintaqamizda bu hayvonlarni boqishga ixtisoslashgan hududlar va qabilalar paydo bo'la boshlaydi. Bunday ixtisoslashuv va hayot tarzi deyarli o'zgarishsiz to XX asr boshlarigacha saqlanib keldi.

Markaziy Osiyoda qadimdan yuk tashish va ulov vositasi sifatida tuyalar muhim o'rin tutgan. Mintaqada qadimdan tuyalarning 2 ta turi - bir o'rkachli (dromoder – tez chopuvchi) luk tuyalar va ikki o'rkachli, bo'yi pastroq (baktrion – ayri) tuyalar boqib kelingan. . Bu tuyalar chatishtirilib, o'zbek va qozoqlar Nortuya, turkmanlar Iner deb ataydigan yirik gavdali, ishchan va kuchli duragay tuyalar olingan.

Umuman olganda, tuyalar ulov va yuk tashish vositasi sifatida bronza davridan to so'nggi davrlargacha o'z ahamiyatini saqlab keldi. XIX-XX asr boshlarida ham tuyachilik bilan mintaqaning ko'chmanchi va yarimko'chmanchi qabilalari shug'ullanib kelganlar.

Xorazm vohasi karvon yo'llari infratuzilmalari, karvon tarkibi va ulov-transport vositalarining xizmat ko'rsatish tizimidagi ahamiyati Markaziy Osiyo mintaqasida karvon yo'llari taraqqiyoti, dinamikasini ko'rsatuvchi bir qator o'ziga xos xususiyatlar uzil-kesil shaklangan davr sifatida ham alohida o'rin tutadi. Bu xususiyatlar ichida qulay aloqa yo'llarining mavjudligi, ularni qurish va ta'mirlashga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, yo'lbo'yi inshootlari – vaqtinchalik qo'nalg'alar, rabotlar, karvonsaroylar, sardobalar, quduqlar, ko'priklar va boshqa tegishli

infratuzilmalar mavjudligi hamda ulov-transport vositalaridan foydalanishning kengayishi yetakchi o‘rin tutadi.

Shu tariqa, Xorazm vohasi karvon yo‘llari infratuzilmalari va xizmat ko‘rsatish sohalari ko‘p qirrali tizim sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, uning rivojlanish darajasi (dinamikasi) jamiyatlardagi iqtisodiy-madaniy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga ham mos kelgan. Bu xususiyatlardan kelib chiqib, Xorazm vohasi karvon yo‘llari, karvon yo‘llari infratuzilmalari va xizmat ko‘rsatish sohalarini Markaziy Osiyo mintaqasi kommunikatsiya tizimi faoliyati rivojida alohida o‘rin egallaganini qayd qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агзамова Г. А. Среднеазиатские ханства и Россия: к истории караванной торговли ... – С. 15.
2. Матвеев. Краткій очеркъ Бухары. 1887 г. Генерального Штаба Полковника Матвеева // СМА. – СПб. , 1888. Вып. XXXLI. – С. 3.
3. Уролов А. Самарқанд шахрининг ўрта асрлардаги даволаш ва шифобахш муассасалари. . . – Б. 233-235.
4. Небольсин П. Н. Очерки торговли России со Средней Азией. ЗИРГО. Кн. X. – СПб. , 1856. – С. 6.

G‘ofurov Jasur Isaqovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
dotsent, (PhD). Jizzax*

ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONA QISHLOQ QURILISHI ME‘MORCHILIGINING ASOSIY XUSUSIYATLARI HAQIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola Ustrushonaning ilk o‘rta asr qishloq makonlarini arxeologik o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada o‘rganilayotgan hududdagi qishloq makonlarining tipologiyasi, me‘moriy-qurilish usullari, xranologiyasi va vazifalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, ilk o‘rta asr qishloq makonlari, Tirmizaktepa, Pardaqultepa, tipologiyasi, me‘moriy-qurilish reja, “taroqli yo‘lak”, qishloq makonlarining xronologiyasi va vazifalari.

Аннотация

Данная статья посвящена истории археологического изучения раннесредневековых сельских поселений Уструшани. Также, в статье рассматриваются типология, архитектурно-планировочные принципы, хронология и функции сельских поселений изучаемого региона.

Ключевые слова: Уструшона, раннесредневековых сельских поселения, Тирмизактепе, Пардакултепе, типология, архитектурно-планировочные, "гребенчатый переулок", хронология и функции сельских поселений.

Annotation

This article is devoted to the history of the archaeological study of the early medieval rural settlements of Ustrushan. Also, the article discusses the typology, architectural and planning principles, chronology and functions of rural settlements in the region under study.

Keywords: Ustrushona, early medieval rural settlements, Tirmizaktepe, Pardakultepe, typology, architectural planning, "comb lane", chronology and functions of rural settlements.

O‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Ustrushonaning markaziy, shimoliy, shimoliy-g‘arbiy vohalarida ilk o‘rta asrlarda bunyod etilgan qishloq makonlarining qurilish usullariga,

qolaversa eng avvalo iqtisodiy va madaniy hayoti tarixiga bir qator aniqliklar kiritildi. Bu ishlar Ustrushonaning markaziy vohalarida o'tgan asrning 60-70-yillarida amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston qismidagi vohalarda 1970-yillardan boshlanib hozirga qadar davom ettirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, vohada hisobga olingan arxeologiya yodgorliklari kompleksining deyarli 65-70 foizini ilk o'rta asrlarga taalluqli obidalar tashkil etadi. Ilk o'rta asr yodgorliklarining son jihatdan ustunligi, nafaqat Jizzax vohasi uchun, balki butun Ustrushona hududi uchun xosdir. Zero, Ustrushona 400 ta qal'a-rabotlar mamlakatidir [1]. Son jihati va ushbu davr yodgorliklarini qoniqarli darajada saqlanganligi Jizzax vohasining ilk o'rta asrlarga oid arxeologiyasini, me'morchiligining asosiy xususiyatlarini nisbatan yaxshi o'rganilishiga asos bo'ldi. Ilk feodal davri qishloq makonlaridan dastlabki o'rganilgan O'rtaqo'rg'on, Tirmizaktepa, Chilhujudan tashqari Pardaqltepa, Komilbobotepa, Qing'irtepa, Almantepa I, II, Yoqubbobotepa qal'alarining ochib o'rganilgan me'moriy komplekslari misolida Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq qurilishi, me'morchilik usullari va ularning evolyutsiyasi masalalari haqida fikr yuritishimizga imkoniyatlar tug'ildi.

O'rta Osiyoning barcha hududlarida bo'lgani kabi Ustrushona qishloq qurilishida asosan xom g'isht, paxsa, juda kam holatda yog'och va tosh materiallar ishlatilgan. Xom g'ishtlar shu yerda, ayni qurilish chog'ida qizg'ish va sarg'ish tuproq loyidan yasalgan. G'ishtlar to'g'ri to'rtburchak ko'rinishda, hajmi $50 \times 25 \times 12$, $48 \times 24 \times 10$, $46 \times 23 \times 10$, $40 \times 22 \times 23 \times 10$, $46 \times 26 \times 12$, $46 \times 23 \times 9$, $42 \times 25 \times 10$, $40 \times 20 \times 10$ sm bo'lib, Ustrushona Sug'd, Shosh-Iloq, Farg'ona mintaqalarida ishlatilgan hom g'ishtlarning umumiy shakli va o'lchamlariga mutanosib keladi [2]. Paxsa asosan sarg'ish tuproq loyidan tayyorlangan. Yog'och materiallaridan asosan katta xonalarni usti yopilganda, ikki qavatli uylar bunyod etilganda va tekis-yassi shakldagi eshiklar peshtoqida "eshik boshi" sifatida ishlatilgan. Toshlar juda kam hollarda ayrim devorlar tagligi uchun ishlatilgan bo'lsa, ulardan ko'proq o'z ahamiyatini yo'qotgan eshiklar o'rnini berkitishda ishlatilgan [3].

Xonalar loyihasi. Ustrushona qishloq makonlaridagi xonalar joylashgani aksariyat hollarda ushbu imoratning funksiyasidan va u yerdagi hayotning davomiyligidan kelib chiqqan. Muayyan qishloq makonida hayot davomiyligi qancha uzoq vaqt bilan o'lchansa, undagi qayta qurishlar, ta'mirlash ishlari shuncha ko'p amalga oshirilgan. Bu esa xonalar loyihasiga vaqti-vaqti bilan o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'lgan. Bunday holatni Pardaqltepa yodgorligidagi qiyosiy taxlillar bilan izohlaymiz. Bizning kuzatishlarimizcha, Pardaqltepa 3 ta qurilish, 1 ta asosiy 2 ta qayta qurilish davrini bosib o'tgan. Dastlabki qurilish yadrosi bo'lib, 1, 2, 4, 6, 7-xonalar o'rnini xizmat qilgan. Fikrimizcha, 1, 2, 4-xonalar bu davrda bitta yaxlit katta xona bo'lgan. Mazkur xonaning sharq-g'arb devorlarida eshik o'rnini mavjud bo'lgan, 6, 7-xona yaxlit bo'lgan va janubiy devordagi eshik orqali hovli qismi bilan bog'langan [4].

2-qurilish davrida markaziy kompleksni shimoli-sharqiy qanotlarida qurilish ishlari davom ettirilgan. Shimoliy qismidagi "o'q" koridor orqali mazkur qurilish kompleksi teng bo'lmasada ikkiga bo'lingan. "O'q" koridorning shimoliy qanotida hozircha bitta 9-xona ochilgan bo'lsada, mikrorel'efning ko'rsatishicha bu imoratlarni yana davomi bor. Shimoliy qism xonalari janubiy xonalar bilan 8-xona tor "o'q" koridordan 2-xonaga ochilgan eshik orqali bog'langan. Shuningdek, bu davrda sharqiy tomonida 3-xona qurilgan. Mazkur xona markaziy 2-xona bilan avval mavjud bo'lgan g'arbiy eshik orqali bog'langan bo'lsada, janubiy devorda qal'a hovlisiga olib chiquvchi yana bir eshik bor.

3-qurilish davrida ilk qurilish yadrosi hisoblangan katta xona ichida qo'shimcha janubiy devor qurilgan va bitta katta xonadan uchta xona hosil qilingan. Shuningdek, 6, 7-xonalar ham qalin devor bilan ikkiga ajralgan. 2, 3, 6, xonalarni ikkinchi qavat qurilgan va fikrimizcha aynan shu maqsadda xonalar kichraytirilgan. Mazkur qo'sh qavatli uylarni ikkinchi qavatiga chiqish uchun 5-xonaning janubga, ya'ni hovliga qarab pasayib borgan, "ko'tarma yo'lak" xizmatini bajargan enli devoridan foydalanilgan. Fikrimizning dalili sifatida aytishimiz mumkinki, aynan 5-xonadek tor 1-4-xonalar tomi gumbaz bilan yopilgan bo'lsa, 5-xona tomi tekis usulda yopilgan. Shuningdek, 3-xonaning janubiy eshigi g'isht terib yopilgan. Mazkur 3-qayta qurish nazarimizda qal'ada hayot 2-qurilish davridan so'ng, qisqa to'xtamdan keyin amalga oshirilgan. 1, 3, 6-xonalar o'q otar shinaklarini berkitilishi bu davrni bir muncha siyosiy barqarorlikka erishilgan eftaliylar

davri, deb ham taxmin qilish imkonini beradi. 2-xona ichidagi yarim aylanasimon monolit minora ham shu davrda qurilgan bo'lib, fikrimizcha, u tom ma'noda ikki qavatli uylarning baland devorlari xavfsizligini ta'minlash, hamda kuzatuv nuqtasi bo'lib xizmat qilgan [5].

Sangzor daryosi bilan bog'liq sug'orma dehqonchilik mavzelerida ilk qal'a, rabodlar qurilishi, rivojlanishi, ulardagi me'morchilik an'analari uy-joylar loyihasida rejalashtirish masalalarini o'rganish maqsadida Qing'irtepa, Almantepa I-II yodgorliklarida dastlabki tadqiqotlar o'tkazilgan edi [6]. Bu tadqiqotlar natijasi nashr qilingani sababli bu xususda Pardaqltepa va Komilbobotepa qal'alaridan olingan so'ngi ma'lumotlar bilan cheklanamiz.

Demak, Sangzor havzasi qal'a-rabodlari qurilishining hozircha ilk bosqichi hisoblanayotgan IV asrga taalluqli Pardaqltepa (shurf ma'lumotlari bo'yicha Rasulboyqultepa III asrga taalluqli) imorati rejasi markazdan o'tuvchi umumiy tor yo'lak (koridor) va uning ikki tomonida joylashgan qarama-qarshi xonalardan iborat. Keyingi davr VII-VIII asrlarda shimoli-g'arbiy Ustrushonada, xususan, Qing'irtepada bu rejalashtirish usuli an'anaviy tarzda davom ettiriladi va ba'zi bir muvaffaqiyatli o'zgartirishlar ham kiritiladi. Xususan, Almantepa I yodgorligida markaziy yo'lak saqlangan holda, barcha xonalarni o'rab oluvchi aylanma yo'lak paydo bo'lgan va bu orqali imoratning ichki mudofaa qudrati yanada kuchaytirilgan [7].

Arab istilosi arafasida Sug'd va Ustrushonaning qurilish me'morchiligida V. A. Lavrov ta'biri bilan aytganda "eng oddiy va eng qulay rejalashtirish usuli yonma-yon joylashgan "taroqsimon yo'laklar" kompleksi ham tarqalgan. Ushbu rejalashtirish usuli uzoq saqlangan bo'lsada, xech qachon O'rta Osiyoda an'anaviy tusni olmagan. V. A. Voroninaning ta'kidlashicha, Sug'd, Ustrushona, Sirdaryoning yuqori oqimi uchun "taroqsimon yo'laklar" rejasi notanish bo'lmasada, Xorazm vohasi uchun mutlaqo begonadir [8]. Shu sababli bo'lsa kerak, Komilbobotepa qal'asi rejalashtirish usulida ma'lum darajadagi "qurama" holatni ko'ramiz. Bu kompleksdagi 4-5-xonalar taroqsimon yo'laklarni eslatsa, 1, 3, 4, 7, 8-xonalar aylanma yo'lakka o'xshab ketadi. Komilbobotepada markaziy o'q yo'lagi mavjud bo'lmagan.

Klassik toifadagi taroqsimon yo'laklarni Almantepa II kompleksida ko'ramiz. Bu imorat 6 xonadan iborat bo'lib, xonalarning uzunligi 9, 75 m, eni 2, 30 m. Ta'kidlashim joizki, Sangzorning o'rta oqimidagi (G'allaorol) qishloq makonlarining qurilishida mazkur joy rel'efi (tabiiy tepalik, jarlik, tik qirg'oq....) hisobga olinib, inshootning mudofaa faoliyati uchun muvofiqlashtirilgan bo'lsa, bunday holni Jizzax vohasi yodgorliklarida hamma vaqt ham uchratavermaymiz [9].

Shunday qilib, shimoliy-g'arbiy Ustrushonada ochib o'rganilgan qishloq makonlari davriy sanasi IV-VIII asrlar bilan belgilanadi. Bu qishloq makonlarda me'morchilikni o'ziga xos an'analari va rejalashtirish evolyutsiyasi kuzatiladi. IV-VI asrlarda markazdan o'tuvchi "o'q" koridor keng qo'llanilsada, VII-VIII asrlarda aylana yo'lak loyihasi davom etgan holda, "taroqsimon yo'lak"lar kompleksidan tashkil topgan Sug'd va Ustrushonaga xos bo'lgan rejalashtirish usuli ham qurilishga tadbiiq etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Негматов Н. Н. Историко – географический очерк Уструшаны с древнейших времен по X в. н. э. // МИА №37 Москва-Ленинград, 1953, С. 243.
2. Нильсен. В. А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв.). Ташкент, 1966. С. 204-206.
3. Ғофуров Ж. И. Жиззах воҳасининг V-VIII асрлардаги қишлоқ маконлари меъморий қурилиш усуллари хусусида // УзМУ хабарлари. № 1/3. Тошкент, 2018. Б. 32-35.
4. Пардаев М. Ҳ. , Ғофуров Ж. И. Жиззах воҳасининг V-VIII асрлардаги қишлоқ маконлари меъморий қурилиш усуллари хусусида // ГулДУ ахборотномаси. №3. Гулистон, 2011. Б. 59-65.
5. Пардаев. М. Ҳ. Шимолий-ғарбий Уструшона қишлоқ қурилиши меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари // УММТ. 28-нашри. Самарқанд, 1997. Б. 142-148.
6. Бердимуратов А. Э. , Пардаев М. Х. Замок Кингиртепа // ИМКУ. Вып. 22. Ташкент, 1988. С. 66-75. ; Бердимуратов А. Э. , Пардаев. М. Х. Раскопки верхнего здания Алмантепа // ИМКУ. Вып. 23. Ташкент, 1990.

7. Пардаев М. Х. Археологические работы на Расулбайкултепа // ИМКУ. Вып. 26. Ташкент, 1992. С. 62-63.
8. Воронина В. А. Изучение архитектуры древнего Пенджикента // МИА. Вып. 15. Москва–Ленинград, 1950. С. 190.
9. Пардаев. М. Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалом нижнего течения р. Сангзар). Автореф. канд. ист. наук. Ташкент, 1995.

*Ishmuratov Madamin Jumabayevich –
Urganch Innovatsion universiteti rektori, f. f. n. , dotsent*

QADIMGI XORAZMDA QULCHILIK MASALALARI.

Maqolaning qisqacha mazmuni: Miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlar Xorazm vohasi tarixi juda sust yoritilgan. Bu eng avvalo, shu davrlarga oid yozma manbalarning kamligidan bo‘lsa, ikkinchidan shunga bog‘liq ravishda bu davr tarixi ilmiy jihatidan chuqur tahlil qilinmagan. Ayniqsa, Xorazm vohasining antik davr ijtimoiy hayoti tarixi, jumladan, oila munosabatlari, jamiyatda mavjud ijtimoiy tabaqalar, qulchilik masalalari deyarli ilmiy tadqiq qilinmagan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada, Xorazm vohasi antik davr tarixining eng kam o‘rganilgan masalalaridan biri, ijtimoiy tarix masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antik, Avesto, Tuproqqal’a, hujjatlar, ijtimoiy munosabatlar, oila, patriarxal qulchilik, vorislik.

Аннотация: История Хорезмского оазиса IV – IV веков нашей эры освещена слабо. Во-первых, это связано с отсутствием письменных источников, относящихся к этим периодам, а во-вторых, в связи с этим история этого периода не была глубоко научно проанализирована. В частности, история общественной жизни Хорезмского оазиса в древности, включая семейные отношения, социальные классы общества, вопросы рабства являются одной из актуальных проблем, не получивших научного исследования. В данной статье анализируется один из наименее изученных вопросов истории античного Хорезма – социальная история.

Ключевые слова: античный, Авеста, Топраккала, документы, общественные отношения, семья, патриархальное рабство, наследство.

Annotation: The history of the Khorezm oasis of the 4th – 4th centuries AD is poorly illuminated. Firstly, this is due to the lack of written sources relating to these periods, and secondly, in connection with this, the history of this period has not been deeply scientifically analyzed. In particular, the history of the social life of the Khorezm oasis in ancient times, including family relationships, social classes of society, and issues of slavery are one of the pressing problems that have not received scientific research. This article analyzes one of the least studied issues in the history of ancient Khorezm - social history.

Key words: antique, Avesta, Toprakkala, documents, social relations, family, patriarchal slavery, inheritance.

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazm vohasida XX asrning 30-yillaridan boshlangan arxeologik tadqiqotlar natijasida voha tarixining turli sohalariga oid juda ko‘plagan ma’lumotlar to‘plandi. Ammo shunday bo‘lsada, Xorazm vohasida antik davrda kechgan ijtimoiy munosabatlar masalasi, voha tarixining eng kam o‘rganilgan sahifasi bo‘lib qolmoqda. Bu mavzuni o‘rganish masalasi dolzarb muammolardan bo‘lib, barcha yozma manbalar va arxeologik, numizmatik va etnografik tadqiqotlar ma’lumotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida mavzuga oid muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Antik davrga oid yozma manbalarning kamligi bu masalani tahlil qilishni qiyinlashtiradi albatta. Lekin, bu borada qo‘shni xalqlar va elatlar antik davr ijtimoiy munosabatlar tarixini o‘rganish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Antik davr Xorazm vohasi aholisining ijtimoiy turmush tarzi, oila va nikoh munosabatlari hamda ijtimoiy tabaqalar kabi masalalar juda sayoz o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Bu borada yozma manbalar ma'lumotlari juda kam. Agar mavjud yozma manbalarni tasniflash lozim bo'lsa, bu borada eng avvalo "Avesto" matnlarini ko'rib chiqish asosida boshqa hududlarda mavjud manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, "Avesto" eng qadimgi manba sifatida, ko'proq ahamionylardan oldingi davrlar ijtimoiy tuzumini qisman yoritadi xolos [1]. Yunon – rim manbalari (Kvint Kurtsiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ham Xorazm vohasiga qo'shni tarixiy hududlar to'g'risida ko'proq ma'lumotlar bersada, lekin aynan Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar xususida ma'lumotlar keltirilmaydi [2].

Xorazm vohasida antik davrda kechgan ijtimoiy jarayonlar xususida ko'proq ma'lumotlar olish lozim bo'lgan manba bu, Xorazmning so'nggi antik davr poytaxti Tuproqqal'adan topilgan hujjatlar hisoblanadi [3].

Numizmatik manbalar ham asosan so'nggi antik davr tarixiga oid bo'lib, ammo, bu tur manbalar ham ancha kam topilgan. Faqat arxeologik tadqiqotlar yordamida bu masalaga oid nisbatan to'liqroq ma'lumotlarni olish mumkin. Jumladan, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati davomida, miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlar Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy munosabatlar tarixiga oid bir qator tadqiqotlar nashr etildi [4].

Tadqiqotchilardan S. Yatsenko va A. N. Gertman tadqiqotlarida Xorazm vohasidan topilgan turli buyumlarda aks etgan tamg'alar va kiyim-kechaklar tasvirlari asosida voha antik davr ijtimoiy munosabatlar tarixiga oid bir qator ma'lumotlar keltirilib o'tilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlantirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Antik davr Xorazm vohasida ijtimoiy hayot masalalarini ochib beruvchi eng asosiy manbalar bu Xorazm vohasidan topilgan turli mazmundagi bitiklar va tamg'alar hisoblanadi. Ular ichida ayniqsa, so'nggi antik davr yodgorligi hisoblangan Tuproqqal'adan topilgan Xorazm yozuvi va tilidagi hujjatlar juda muhim hisoblanadi. Ta'kidlanganidek, bu yozuvlar so'nggi antik davrlarga, ya'ni milodiy II – III asrlarga oid.

Tuproqqal'a hujjatlariga ko'ra, barcha jamiyatlarda bo'lgani kabi antik Xorazm jamiyatining asosini ham patriarxal oilalar tashkil qilgan. Jumladan, xonadon yoki oila (BYT') atamasi yog'ochga bitilgan barcha hujjatlarda aks etgan [3]. Bu hujjatlar mazmuniga ko'ra, mamlakatdagi har bir patriarxal oila yoki xonadon ro'yxatga olib borilgan. Ammo, bu ro'yxatlarning ma'lum siyosiy va iqtisodiy tad'bir sifatida olib borilganligi ma'lum bo'lsada, aniq qay maqsadda olib borilishi borasida turli fikrlar mavjud. Jumladan, mazkur hujjatlarni o'qib chiqqan B. A. Livshits bu ro'yxatlar aholidan soliq undirilishini tartibga solish uchun qilinganligini (jumladan, V. B. Xenning fikricha shunday [6]) shubha ostiga olib, davlat harbiy salohiyatini aks ettirish uchun yoki xalq qo'shinini shakllantirish uchun olib borilganligini ta'kidlagan [3]. Bu fikrni tadqiqotchi Y. A. Rapoport ham qo'llab-quvvatlagan [7]. Har qanday holatda ham, bu hujjatlar Xorazmda antik davr ijtimoiy tabaqalari hamda qulchilik munosabatlari haqida muayyan ma'lumotlarni beradi.

Hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, antik davrda Xorazmda muayyan ijtimoiy qatlamlar guruhi shakllangan. Jumladan, bu ijtimoiy qatlamlar, katta patriarxal oila boshliqlari: zodagonlar (qishloq yoki shahar zodagonlari ahamiyati yo'q), turli kasb egalari bo'lgan shahar yoki qishloqlarning oddiy a'zolari, qullar. Umuman, bu ijtimoiy guruhlar hujjatlarda zodagonlar va ozod jamoa vakillari hamda ularga tobe uy qullaridan ('BDn') iborat katta patriarxal oila (xonadon) sifatida aks etgan. Ammo, bu ozod xonadonlar vakillarining har qaysisining alohida qullari bo'lgan. Masalan, 'BDn' ZK 'NTTYH – "Bu (uning) xotining xizmatkorlari (bandilari) qullari", 'BDn' ZK 'MYH - "bu (uning) otasining qullari" kabi jummlalar buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari, oila qullaridan tashqari hujjatlarda saroy xo'jaligining ham alohida qullari bo'lganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar mavjud [3].

Hujjatlardagi ma'lumotlardan ma'lumki, Xorazmda ham butun Sharq mamlakatlaridagi kabi, katta patriarxal oilalar bo'lib, bu oilaning boshlig'i ota oila a'zolariga nisbatan deyarli cheklanmagan huquqga ega bo'lib, uylanish, bolalariga nisbatan munosabatda, meros masalasida uning mavqei eng yuqori bo'lgan albatta. Shu jihatdan ham, Tuproqqal'a hujjatlarida ham, ayniqsa, "xonadonlar ro'yxatlari"da ro'yxat boshida oila boshlig'ining keltirilishi bejiz emas. Oila boshliqlaridan keyin merosxo'r katta og'illar ismi keltirilgan. Jumladan, 5 ta "xonadonlar ro'yxati"dan 4 tasida katta oila – xonadon tarkibidagi erkaklar zikr etilgan [8], ular xonadon boshlig'i-otaning uch avlodi (o'g'li yoki o'z o'g'li bo'lmasdan balki, o'g'il qilib saqlab olingan o'g'il, shu holatda ba'zida kuyov va erkak nabira) va uy qullarini o'zida aks ettirgan. Uy sohibining faqat ismi hujjatning birinchi qatorida keltirilgan bo'lib, xonadon – BYT' (so'nggi xorazmiy tilida pdk) so'zidan so'ng qayd etiladi [3].

I, II va IV hujjatlarda ikkita erkak ismi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bular oila boshlig'i yoki vorisi bo'lib, bu xonadon merosxo'ri katta o'g'ilning hali uylanmaganligini, yoki hali u ota xonadonidan alohida bo'lib chiqmaganligini ko'rsatadi [3].

Hujjatlar tahlilidan yana shuni ko'rishimiz mumkinki, agar xonadonda otaning balog'atga yetgan o'g'illari bo'lmasa, ba'zi hollarda uy sohibi va uning o'g'lidan so'ng kuyovlar ("z'mk") ham ro'yxatga olinganligi kuzatiladi [3]. Bu holat ayniqsa, xonadon egasining o'g'il farzandi bo'lmagan taqdirda, otadan keyin albatta kuyovning ismi qayd etilganligining guvohi bo'lish mumkin. Jumladan, III hujjatda uy sohibidan so'ng, o'g'il farzandlar ismining ko'rsatilmaganligi [3], bu xonadonda balog'atga yetgan o'g'il bolaning yo'qligini ifodalaydi. Bu ro'yxatda zikr etilgan kuyovning mazkur xonadonda "ichkuyov" bo'lganligi hamda oilada o'g'il bolalar yo'qligini ham anglatgan. Qolaversa, oiladagi qizning odat bo'yicha kuyovning oilasiga kelin bo'lib tushishi munosabati bilan, turmushga chiqqan o'sha qizning ham, kuyovning ham "xonadonlar ro'yxati"ga kiritish mumkin bo'lmagan [3].

Hujjatlarda oila boshlig'i xotining, o'zi umuman oila ayollarining hamda qizlarining huquqlari ancha cheklanganligini ko'rish mumkin. Hujjatlarda oila boshlig'ining bir necha xotini bo'lganligi, hatto otaning oila cho'risiga (hujjatlarda u asira sifatida ko'rsatilgan) ham uylanishi mumkinligi aks etgan ma'lumotlar mavjud. Jumladan, I hujjatida 'BDn' BRY' TKYN, ya'ni, "asiraning o'g'liga tegishli qul" so'zi tilga olingan [3]. Bu jumla yana shunisi bilan qiziqki, Sharqning boshqa hududlaridagi antik jamiyatlarda bunday xildagi qul turi, ya'ni, o'zi asira, bandi yoki aniqrog'i qul-cho'rining quli degan qul turi uchramaydi. Umuman, bu asira uy sohibining norasmiy nikohidagi xotini bo'lib, undan tug'ilgan farzand xuddi Xiva xonligidagi kabi, chori xotining o'g'li ham oilaning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilingan hamda meros olish hamda o'z quliga ega bo'lish huquqiga ega bo'lgan [3].

Rasmiy yoki norasmiy ko'pxotinlilik antik davr Xorazm jamiyatiga ham xos bo'lganligini III hujjatdagi "'BDn' K'SBKYN" so'zi, ya'ni, rasmiy yoki norasmiy nikohdagi xotinlaridan (joriya yoki kanizak ham bo'lishi mumkin) qaysi biriningdir quli ekanligini anglatadi. Ammo, oromiy alifbosidagi yozuvlar xorazmlik kotiblar yoki mirzolar tomonidan ancha buzib ishlatilganligi uchun B. A. Livshits bu so'zning asl ma'nosini aniqlay olmaganligini ta'kidlasada, bundan baribir ayni shu ko'pxotinlilik mazmuni aks etgan [3].

Hujjatlarning keyingi satr boshini xonadon qullari – 'BDn' va yangi ismlar ro'yxati egallaydi. Bu qullar uy sohibi, uning o'g'illari va kuyoviga tegishli bo'lgan. I, II, IV hujjatlardagi 'BDn' ZK 'NTTYH jumlasida "bu xotining qullari" deb talqin qilinadi [3]. Ya'ni, bu qullar uy sohibasiga tegishli qullar bo'lgan. Hujjatlarga ko'ra, hatto uydagi balog'at yoshidagi farzandlardan tashqari kichik yoshdagi bolalarga qarovchi qullar ham bo'lgan, lekin ular uy sohiblariga tegishli bo'lishgan ko'rinadi. 'BDn' KNYWRTYH jumlarida xuddi shu holat aks etgan [3]. Ehtimol, bu o'rinda uy sohibining nevaralari, uyda qolgan qizining farzandlari (BRY- BRTYH)ga taalluqli yoki uylangan, lekin oiladan bo'lak chiqmagan o'g'lining farzandlariga tegishli qullar ham deyish mumkin bo'ladi. Faqat bu qullar uy sohibining voyaga yetmagan farzandlariga tegishli bo'lmagan [3]. Chunki voyaga yetmagan farzandlarga qul tutish ruxsati bo'lmagan.

"Xonadon ro'yxati"dagi keyingi uy-xonadon BYT' va undagi qullar –'BDn', uy sohibasi - 'NTTYH va xorazmiy tilidagi z'mk - "kuyov" atamaları S. P. Tolstov va V. B. Xenninglar

tomonidan o‘qib chiqilgan [3], bu ro‘yxatlar ma’lum bir tartib asosida amalga oshirilganligini aytish mumkin. V. B. Xenning bir necha shaxs ismlarining o‘qilishi va ’yt–“kelgindi” so‘zini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan edi. Matnlar orqali xonadondagi “o‘g‘il” va “qiz” KNYWRTYH (*BRY-BRTYH) va “asiraning o‘g‘li” – BRY’TKYH (*BRY-’MTYH) kabilar ham aniqlandiki [6], bu patriarxal oila a’zolari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi.

Hujjatlardagi qullar sonining ozod kishilarga qaraganda ko‘pligi, boshqa Sharq antik jamiyatlariga xos holat. Jumladan, Parfiya davlatida ham ozod kishilardan ko‘ra qullar sonining ko‘pligi manbalarda aks etgan. Ya’ni, Parfiyada ham patriarxal oilaning erkin a’zolariga nisbatan xonadon qullarining sonining ko‘pligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Pompey Trogning Parfiya qo‘shini xususidagi ma’lumotiga ko‘ra: “miloddan avvalgi 53 yilda Karr yonidagi jangda Rim lashkarboshisi Krassga qarshi Parfiya lashkarboshisi Suren 11 ming otliq jangchi bilan peshvoz chiqib, bu qo‘shinning faqat 1000 jangchisi og‘ir qurollangan hamda ozod kishilardan yoki zodagonlardan iborat bo‘lgani holda, qolgan 10000 jangchi shaxsan Surening qullaridan iborat bo‘lgan”.

Miloddan avvalgi 36 yilda Parfiya davlati Rim lashkarboshisi Antoniyga qarshi 50000 kishilik qo‘shin yuborgan bo‘lib, bu qo‘shinda faqat 400 ozod kishi bo‘lgan [10].

I hujjatda jami 21 ta erkak ismi: uy sohibi, ikki o‘g‘li, kuyovi va 17 ta quli, shu jumladan, 12 tasi uy sohibiga, o‘g‘illari va kuyoviga, 2 tasi uy sohibiga, 2 tasi nevaralariga, 1 tasi asiraning o‘g‘liga tegishli bo‘lgan. II hujjatda esa 15 ta erkak ismi keltirilgan: uy sohibi, kuyov va 12 ta qul shu jumladan 10 tasi uy sohibiga, uning o‘g‘illariga va kuyoviga, 2 tasi uy sohibasiga tegishli bo‘lgan. III hujjatda 17 ta erkak ismi keltiriladi: uy sohibi, kuyov va 15 ta qul, shulardan 12 ta uy sohibi va kuyovga, 3 tasi K’ŠBKYN qaysidir, bir xotiniga (joriyasiga) tegishli hisoblangan. IV hujjatda 15 ta erkak ismi: uy sohibi, 2 ta o‘g‘il va 12 qul keltiriladi, ulardan 8 tasi uy sohibi va uning o‘g‘illariga va 4 tasi uy bekasiga qarashli bo‘lgan. Bu ro‘yxatlarda asosan badavlat oilalar ko‘rsatilgan [3]. O‘rta hol oilalardagi vaziyat boshqacha bo‘lgan deyish mumkin. Masalan, 5 hujjatda 4 ta erkak ismi ismi qayd etilib, uy sohibi va 3 ta quldan iborat. Qullarning biri uy sohibiga, biri uy bekasiga va 1 uy sohibi onasiga tegishli bo‘lgan. Qullarning ismlaridan ular asli xorazmiylar deyishga imkon beradi. Faqat VI hujjat namunasida saqlangan Xridak ismi “sotib olingan” ma’nosini beradi. Bu antik davr Xorazmda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni namoyon etadi. So‘g‘d hujjatlaridagi kabi qulchilikning bir necha ko‘rinishlari (βntk – bantak - qul, np’k – nipak – garovgir bandi, wn’k’ - vanak-asir kabi) xorazm hujjatlarida uchramaydi. Hatto so‘g‘diy hujjatlardagi kabi δ’yh - ayol cho‘rilar yoki doylar ham qayd etilmagan [8]. Buning sababi hujjatlarda asosan erkak aholi ro‘yxati keltirilgan bo‘lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS) Butun O‘rta Osiyo, qolaversa Sharqqa xos bo‘lgan uy qulchiligi ma’lum ma’noda xo‘jalik ishlari doirasida amalga oshirilgan. Yuqoridagi “xonadon ro‘yxati”ni tuzishdan maqsad esa katta yoshdagi erkaklar sonini bilish va ulardan harbiy hamda davlat ishlarida foydalanish bo‘lgan. Chunki bu shaxslarga nisbatan hujjatlarda ’yt atamasi qo‘llanilgan. Xorazmda necha yoshdan balog‘at yoshi hisoblanganligini sosoniylar Eronida mavjud bo‘lgan zardo‘shiylik qonuniga ko‘ra 15 yosh bilan belgilash mumkin [3]. Agar zardo‘shiylik an‘anasini mintaqa uchun umumiylikni e’tiborga olsak, Xorazmda ham Eronidagi kabi 15, nari borsa 16 yosh balog‘at yoshi hisoblanib, bu yoshdagi erkaklar davlat tomonidan amalga oshiriluvchi “xonadon ro‘yxati”ga olingani shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Авеста // В. С. Соколова. Опыт морфологической транскрипции и перевод / И. А. Смирнова. Подготовка материалов к изданию и редактирование. – СПб. : Наука, 2005 – 544 с.
2. Пьянков И. В. Хорезм в античной письменной традиции // Хорезм и Мухаммад ал-Хорезм в мировой истории и культуре. – Душанбе: Дониш, 1983. – С. 38-56.
3. Лившиц В. А. Документы // Топрак-кала: Дворец / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. 14. Отв. ред. Ю. А. Рапопорт, Е. Е. Неразик. – Москва: Наука, 1984. – С. 251-286.

4. Толстов С. П. Датированные документы из дворца Топрак-кала и проблема «эры Шака» и «эры Канишки» // Проблемы востоковедения. 1961. №1. – С. 54-71; Кой-крылган-кала – памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н. э. – IV в н. э. // ТХАЭЭ. — М. : «Наука», 1967. Т. V. – С. 9-271, 265–309; Неразик Е. Е. Сельские поселения афригидского Хорезма. — М. : «Наука», 1966. – С. 8-12; o'sha muallif: Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.). Из истории жилища и семьи // ТХАЭЭ. — М. : «Наука», 1976. Т. IX. – С. 13–57; Топрак-кала: Дворец / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. 14. Отв. ред. Ю. А. Рапопорт, Е. Е. Неразик. – Москва: Наука, 1984. – С. 251-286; Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. М. : Наука, 1977. – С. ; уана унинг: Хорезмийская эра // Древние цивилизации Евразии. История и культура. М. : Восточная литература, 2001. С. 136–141.
5. Яценко С. А. Знаки-тамги ираноязычных народов древности и раннего средневековья. – М. : Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – 190 с. : ил. ; уана унинг: Яценко С. А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы). – М. : Рос. гос. гуманитарный ун-т. Восточная литература, 2006. – 664 с. ; Гертман А. Н. Знаки на кирпичах и некоторые вопросы организации древневосточного строительства (по материалам древнего Хорезма) // Приаралья в древности и средневековья. К 60-летию Хорезмской археологической-этнографической экспедиции. – М. : Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1998. – С. 136-150.
6. Henning W. V. The Choresmian documents. – Asia Major, new series, London, 1965, v. XI, pt. 2. – Pp. 166–179.
7. Рапопорт Ю. А. Краткий очерк истории Хорезма в древности // Приаралья в древности и средневековья. К 60-летию Хорезмской археологической-этнографической экспедиции. – М. : Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1998. – С. 37-38.
8. Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. – М. : Наука. Главная редакция восточной литературы, 1970. — С. 73.
9. Таджиева Ф. Ж. Хива хонлигида кулчилик муносабатларининг моҳияти ва ижтимоий оқибатлари. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2022. – Б. 103-104.
10. Манандян Я. А. Заметки о феоде и феодальной войске Парфии и Аршакидской Армении. – Тифлис : Науч. -исслед. ин-т кавказоведения, 1932. – С. 3; Периханян А. Г. К вопросу о рабовладении и землевладении в Иране парфянского времени // Вестник древней истории 4 (42). 1952. – С. 15.

Nurbek Matyakubov
PhD, dotsent v. b. ,
Urganch innovatsion universiteti

XUSUSIY UY-JOYLAR VA XUSUSIY FIRMALARNING UY-JOY QURILISHDAGI O'RNI VA ROLI

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha aniq tartiblar ishlab chiqilgan va ular amaliyotga tatbiq etilgan. Biroq uy-joylarni qurishda har doim ushbu tartiblarga rioya qilinmagan. Xususan, xususiy uy-joylar aniq arxitektura qoidalari asosida qurilishi muammoli vaziyat hisoblangan.

Kalit so'zlar: Uy-joy siyosati, namunaviy uylar, shaharsozlik kodeksi, qonun, shaharsozlik, qurilish, imtiyoz, siyosat.

Annotatsiya: During the years of independence, specific procedures for the construction of private houses were developed and put into practice. However, these procedures were not always followed in the construction of houses. In particular, the construction of private houses based on specific architectural rules was considered a problematic situation.

Keywords: Housing policy, model homes, urban development code, law, urban development, construction, privilege, policy.

Аннотация: За годы независимости были разработаны и внедрены в практику конкретные процедуры строительства частных домов. Однако эти процедуры не всегда соблюдались при строительстве домов. В частности, проблемной ситуацией считалось строительство частных домов по специфическим архитектурным правилам.

Ключевые слова: Жилищная политика, типовые дома, градостроительный кодекс, закон, градостроительство, строительство, привилегии, политика.

2017-2020-yillarda O‘zbekistonda yakka tartibdagi xususiy uylar qurish aksar hollarda o‘tib borgan. Boshqa tomondan, viloyatlar kesimida bu masalada kichik farqlar mavjud bo‘lgan. Jumladan, aholisi ko‘proq viloyatlarda tabiiy holatda ko‘proq uylar qurilgan hamda aksincha, kam sonli aholiga ega viloyatlarda boshqa viloyatlarga qaraganda kamroq xususiy uylar qurilgan.

Uy-joylarni qurishda aholidan shahar yoki qishloq bosh rejasiga amal qilish talab etilgan. Bunda asosiy muammo aholining uy-joy qurishda qo‘shni bo‘sh maydonlarni egallab olish va natijada omma yo‘liga yoki binolariga muammolar tug‘dirganligi bo‘lgan. O‘zboshimchalik bilan qurilgan uylar ba‘zan o‘sha hududda yashovchi aholiga noqulayliklar yaratgan. Xususan, 1998-2004-yillarda Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani, Shukur Burhonov mahallasidagi “Intizor-3” va “Intizor-7” berk ko‘chalarida yashovchilar ko‘chani bir qismini o‘zboshimchalik bilan hovlilariga qo‘shib olgan qo‘shnilari ustidan bir necha bor turli idoralarga shikoyat qiladi. Ushbu ko‘chada yashagan aholi bir necha bor sudlarga ham murojaat etadi. Ularning ko‘chalarida qurilgan bir qancha uylar shaharsozlik talablariga rioya qilmagan holda qurilganligi, natijada aholiga noqulayliklar yaratilganligi ta’kidlanadi. Jumladan, yangi qurilgan uy egalari ko‘cha hududidagi yerlarni o‘zlashtirib olgan va u yerga imoratlar solgan. Natijada mazkur ko‘chadagi yer 4 metr bo‘lib qoladi. Shaharsozlik talablariga ko‘ra, yo‘llar kamida 9 metr bo‘lishi kerak bo‘lgan. Ushbu mahallaning rejalarida ham ko‘chalar eni 9 metr deb ko‘rsatilgan [1].

Ayrim hollarda bunday shaxslarga choralar ko‘rilgan. Masalan, 2003-yilda Jizzax viloyatida uy-joy qurish jarayonida bosh rejani u yoki bu darajada buzganlarga nisbatan Shaharsozlik kodeksiga binoan ma’muriy va intizomiy choralar qo‘llanilgan. Jumladan, ushbu yilda 17 ta holat bo‘yicha ish sudga oshirilgan bo‘lsa, 26 ta holatda esa aybdorlar jarimaga tortilgan [2].

Ko‘p qavatli uylarda xonadonlarni ta’mirashda o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yilgan holatlar ham uchragan. Bunda, asosan, xonadon devorlarini buzish va bu orqali xonadon egasi turar-joyini o‘ziga qulaylashtirib olishga harakat qilgan. Biroq bunday hollarda o‘sha binoning yaroqlilik muddatiga ta’sir etgan hamda ayrim holatlarda o‘sha ko‘p qavatli uyning devorlari yorilishiga olib kelgan.

O‘zbekistonda uy-joy qurilishiga oid qonunchilikda aholining xususiy turar-joylarini ta’mirashga taqiqlar mavjud bo‘lmagan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Uy-joy” kodeksining 24-moddasida “Uyning, kvartiraning mulkdori ularning saqlanishini ta’minlash, o‘z hisobidan joriy va kapital ta’mirash ishlarini amalga oshirishi shart” deyilgan. Boshqa tomondan, o‘sha me’yoriy hujjatda ushbu ta’mirash ishlari belgilangan me’yorlar asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Jumladan, ushbu hujjatda bu haqida quyidagicha yozib qo‘yilgan: “Ko‘p kvartirali uydagi kvartiraning mulkdorlari tegishli ruxsatnoma olmay o‘zboshimchalik bilan qayta qurgan yoki o‘zgartirgan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi va ushbu xonani o‘z hisobidan avvalgi holatiga keltirishi shart” [3].

Ko‘p qavatli uylarning mustahkamligi bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lgan. Aholi uylarini ta’mirash jarayonlarida ko‘p qavatli uylarga zarar berish holatlari uchragan [3]. Ko‘p qavatli uylardagi o‘zboshimchalik bilan amalga oshirilgan qurilishlarning nazorati uy-joy shirkati tomonidan amalga oshirilgan. Bu “Uy-joy shirkatlari to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida belgilab qo‘yilgan. Agar mulkdorlar tomonidan biror nojo‘ya xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda

shirkatlar ushbu holat yuzasidan dalolatnoma tuzib, tuman texnik inventarizatsiya kadastr byurosiga yozma ravishda axborot berishlari lozim bo'lgan.

Ayrim vaqtlarda fuqarolarga tegishli bo'lgan uylar qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan. O'zbekiston Respublikasi "Uy-joy" kodeksiga ko'ra, yer uchastkalari davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda mazkur shaxslarga, ularning oila a'zolariga hamda ushbu uylarda yoki kvartiralarda doimiy yashagan fuqarolarga ularning xohishiga ko'ra, yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkasi berilishi lozim bo'lgan. Shuningdek, yer uchastkalarini o'zlashtirish davrida, ya'ni ikki yilgacha muddat bilan ijara shartnomasi asosida vaqtincha uy-joy berilib, buzilayotgan uylar yoki kvartiralar, imoratlar, inshootlar va daraxtlarning qiymati to'liq qoplangan. Ayrim hollarda shaxslar yakka tartibda uy-joy qurishda qonun-qoidalarga rioya qilmagan. Uy-joy kodeksining 14-moddasiga ko'ra, fuqarolarga tegishli yer uchastkalarida yangi qurilayotgan uyga mulk huquqi uy davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga kelgan [4].

1990-yilning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda qurilish sohasiga xususiy firmalar kirib kela boshladi. 1997-2000-yillarda qurilish sohasidagi "Uzpromgrajdanstroy", "Uzvodstroy", "Uzagrostroy", "Uzkolxozstroy" va "Glavtashkentstroy" kabi yirik takshilotlar, korporatsiyalar, birlashmalar tugatilgan. Bundan tashqari, qurilish pudrat ishlari bozoridagi 25 ta respublika miqyosidagi trestlar va birlashmalar ham birma-bir faoliyatini to'xtatgan. Bularning o'rniga keyinchalik boshqa pudrat tashkilotlari paydo bo'la boshladi. 2003-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3240-sonli farmoni qabul qilingan. Mazkur farmon asosida qurilishni amalga oshiruvchi bir qancha xususiy pudratlar tashkil topa boshladi [5].

Jumladan, 2010-yilda O'zbekiston qurilish ishlari bozorida jami 9268 taga yaqin pudrat tashkilotlari faoliyat yuritgan. Ularning 151 tasi aksiyadorlik jamiyatlari, 2928 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, 4922 tasi xususiy korxonalar, 961 tasi xo'jalik hisobidagi korxonalar, 246 tasi qo'shma korxonalar, 4 tasi chet el korxonasi, 213 tasi davlat korxonasi va 376 tasi boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar bo'lgan. Ushbu tashkilotlar to'g'ridan-to'g'ri yoki foydalanishga tayyor holda topshirish shartlari bilan qurilish ishlarini olib borgan [5].

Mazkur pudrat tashkilotlarining ayrimlari respublika va viloyat komissiyalari tomonidan tanlab olinib, ularga ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarni qurish vazifalari topshirilgan. Xususan, 2009-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan birgalikda respublika reyestriga kiritish uchun ijtimoiy sohaning barcha turdagi qurilish obyektlarini qura oladigan 147 ta pudrat tashkilotlari tanlab olingan. Ularning 7 tasi Qoraqalpog'istonda, 12 tasi Andijon viloyatida, 8 tasi Buxoro viloyatida, 14 tasi Jizzax viloyatida, 18 tasi Qashqadaryo viloyatida, 3 tasi Navoiy viloyatida, 7 tasi Namangan viloyatida, 20 tasi Samarqand viloyatida, 8 tasi Surxondaryo viloyatida, 4 tasi Sirdaryo viloyatida, 12 tasi Toshkent viloyatida, 15 tasi Farg'ona viloyatida, 6 tasi Xorazm viloyatida va 13 tasi Toshkent shahrida faoliyat olib borgan. Masalan, Andijon viloyatida "Andijon viloyat qurilish" MChJ, "Rich-treyd" MChJ, "Nodir LTD" MChJ, "Xon" MICHK, "Andijonta'mirqurilish" MChJ, "Transta'mirlash" XK, "XKMS-1" MChJ, MPPF "Bog'i Shamol", "And-tex-naz" MChJ, "Mustaqillik-AN" MChJ, "Andijon KMK" MChJ va "Hamkor Trans Baraka" MChJ pudratchi tashkilotlari ijtimoiy obyektlar bilan birgalikda turar-joylarni qurishda faol ishtirok etgan [5].

2009-yilda O'zbekistonning barcha shahar va tumanlarida jami 899 ta ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari tashkil etilgan. Ushbu tashkilotlar 2014-yil 1-yanvargacha "Qishloqqurilishinvest" injiniring kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha foydalanishga tayyor holda topshirish shartlari bilan yakka tartibda uy-joylar qurgan. "Qishloqqurilishinvest" injiniring kompaniyasi buyurtmasiga asosan foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida qurilgan pudrat tashkilotlari tomonidan quriladigan uy-joylar narxlarini bozor narxiga nisbatan 32-38 foiz atrofida pasayishiga olib kelgan [5].

Quyidagi jadvaldan ko'rinadiki, 2017-2020-yillarda O'zbekistonda uy-joy qurilish bilan shug'ullangan qurilish firma va kompaniyalarining soni oshgan. Viloyatlar kesimida bu masalani tahlil qiladigan bo'lsak, asosan aholi miqdori ko'proq bo'lgan viloyatlarda qurilish firmalari soni

ham ko‘proq bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Bu esa o‘sha hududlarda uy-joyga bo‘lgan talab kuchliligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida xususiy uy-joylarni qurish bo‘yicha aniq tartiblar ishlab chiqilgan va ular amaliyotga tatbiq etilgan. Biroq uy-joylarni qurishda har doim ushbu tartiblarga rioya qilinmagan. Xususan, xususiy uy-joylar aniq arxitektura qoidalari asosida qurilishi muammoli vaziyat hisoblangan. Bu bir tomondan, o‘sha uyda yashovchi shaxslarga noqulayliklar tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, shaharsozlik tamoyiliga putur yetkazgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дониёров С. Йўл устига қурилган уй // Халқ сўзи. – 2004. – № 258.
2. Жонузоков И. Ҳовли–жойингиз сариштали, файзли-фаришталими?: Қишлоқларимиз қиёфаси, қурилаётган уй-жойлар ва миллий меъморчилигимиз муаммолари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбекистон овози. – 2003. – № 109.
3. Ўзбошимчалик: қимга фойдаю қимга зарар? // Қишлоқ ҳаёти. – 2004. – № 42.
4. Толибжонов А. Ўзбошимчалик билан иморат қуриш ва унинг оқибатлари // “Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши” журнали. – 2010. – № 2. – Б. 32.
5. Максумов Н. Фойдаланишга тайёр ҳолда топшириш усули билан ишлайдиган пудрат ташкилотларининг пудрат ишлари бозорини кенгайтириш // “Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши” журнали. – 2010. – № 3. – Б. 25.

*Jumaniyazov Bekzod –
Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD*

O‘ZBEKISTONDA SAYLOV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TARIXI

Annotatsiya: Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – bu jamoatchilik fikrining davlat siyosatiga amalda ta’sir ko‘rsata olishida namoyon bo‘ladi. Rivojlangan fuqarolik jamiyatida urf-odatlar, huquq va jamoatchilik fikri ham ijtimoiy institutga aylanadi. Parlament va hukumat, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlari jamoatchilik fikri asosida faoliyat yuritadi.

Аннотация: Одной из важных особенностей гражданского общества является способность общественного мнения влиять на государственную политику. В развитом гражданском обществе обычаи, право и общественное мнение также становятся социальными институтами. Парламент и правительство, политические партии и неправительственные некоммерческие организации действуют на основе общественного мнения.

Abstract: One of the important features of civil society is the ability of public opinion to influence public policy. In a developed civil society, customs, law and public opinion also become social institutions. Parliament and government, political parties and non-governmental non-profit organizations operate on the basis of public opinion.

Kalit so‘zlar: Fuqaro, fuqarolik jamiyati, demokratiya, huquq, partiya, o‘z-o‘zini boshqarish, siyosat.

Ключевые слова: Гражданин, гражданское общество, демократия, право, партия, самоуправление, политика.

Keywords: Citizen, civil society, democracy, law, Party, self-government, politics.

Mustaqillik yillarida mamlakatda saylov tizimini demokratlashtirishda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi. Natijada, qisqa davr ichida demokratik talablarga javob bera oladigan mil–liy saylov tizimi va qonunchiligi yaratildi. Uning asosiy prinsiplari va qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobida, shuningdek, alohida qabul qilingan qonunda mujassamlashgan. 1991, 2000, 2007, 2015 va 2016-yillarda o‘tkazilgan prezident saylovlari, shuningdek, vakillik organlariga 1994, 1999, 2004, 2009, 2014 va 2019-yillarda o‘tkazilgan saylovlarda erkin va adolatli saylov o‘tkazishga doir milliy tajriba to‘plandi. Ayniqsa,

saylovlarning ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati va ta'siri ham tobora ortib bordi.

Yildan yilga, saylovdan saylovgacha to'plangan tajribalar va fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongining ortib borishi, siyosiy partiyalar o'rtasida sog'lom siyosiy raqobatning rivojlanishi natijasida saylov qonunchiligi ham takomillashib, ham demokratlashib bordi. Ayniqsa, 2008-yil 19-noyabrda qabul qilingan "saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun mamlakatda saylov tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda ilk bor 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti demokratik prinsiplar asosida saylandi. Mazkur saylovda O'zbekiston XDPdan nomzod Islom Karimov va "Erk" demokratik partiyasidan S. Madaminov (Muhammad Solih) ishtirok etdi. Bu siyosiy voqeaning tarixiy ahamiyati shundaki, o'zbek xalqi 130 yillik mustamlaka davlat sifatida yashab, o'z tarixida birinchi marta o'z prezidentini erkin tanlovlar asosida sayladi. Saylovchilarning 86 foizi (8514136 kishi) Islom Karimov nomzodiga, 12, 3 foizi (1220474 kishi) esa "Erk" partiyasi rahbari S. Madaminovga ovoz berdi.

Mustaqil O'zbekiston tarixida parlamentga demokratik tamoyillar asosidagi saylovlar ilk bor 1994-yil 25-dekabrda o'tkazildi. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga o'tkazilgan birinchi saylov mamlakatda tobora taraqqiy topayotgan demokratik jarayonlarning amaldagi ifodasi bo'ldi. Ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tgan saylovlarda fuqarolarning huquqlari har jihatdan qadrlandi.

Saylovda 250 ta o'rin uchun XDPdan 247 nafar, VTPdan 146 nafar, davlat hokimiyati vakillik idoralaridan 250 nafar nomzod kurashdi. Saylovda saylovchilarning 93, 6 foizi ovoz berishda ishtirok etdi. Natijada XDPdan Oliy Majlisga 69 kishi, VTP dan esa 14 nafar deputat, mahalliy hokimiyat organlaridan 167 nafar deputat saylandi.

1999-yil 5-dekabrda va 2000-yil 9-yanvarda mamlakatimizda o'tkazilgan Prezidentlik saylovi ham demokratik tamoyillar — ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tkazildi. Nomzodlarning saylovoldi tashviqotlari oshkoralik va teng huquqlilik asosida olib borildi. Saylov yakunlariga binoan O'zbekiston XDP 48 ta, "Vatan taraqqiyoti" partiyasi 20 ta, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi 10 ta, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi 11 ta, "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi 34 ta, saylovchilar tashabbuskor guruhlar 16 ta, hokimiyat vakillik organlari 111 ta deputatlik o'rinlarini egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yuksak darajada o'tkazish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Natijada 12746. 903 nafar saylov huquqiga ega fuqarolardan 12123. 199 nafari ishtirok etdi (95%). "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug'anievich Karimov uchun 11147. 621 nafar saylovchi (91, 9 foizi) ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomzodi Abdulhafiz Marahimovich Jalolov uchun 505. 161 nafar saylovchi (4, 17) ovoz berdi.

2004-yil 26-dekabrda Oliy Majlisning qonunchilik palatasi va mahalliy vakillik organlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovda quyi palatada O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 41 ta (34, 2%), O'zbekiston XDP 28 ta (23, 3%), "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining 18 ta (15, 0%), "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 11 ta (9, 2%), "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 10 ta (8, 3%), saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan 12 ta (10%) deputatlik o'rnini egalladi.

2007-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik saylovida ovoz berishda ro'yxatga olingan 16 mln. 297 ming 400 nafar saylovchidan 14 mln. 765 ming 444 nafari ishtirok etgani, bu ro'yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 90, 6 foizini tashkil etishini aniqladi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tomonidan ko'rsatilgan I. A. Karimov nomzodi uchun 13 mln. 8 ming 357 nafar saylovchi yoki saylovda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88, 1 foizi ovoz berdi. O'zbekiston XDP ko'rsatgan A. A. Rustamov nomzodi uchun 468 ming 64 nafar saylovchi ovoz berdi (3, 17 foiz); saylovchilar tashabbuskor guruhidan ko'rsatilgan A. H. Saidov nomzodi uchun 420 ming 815

nafar saylovchi ovoz berdi (2, 85 foiz); O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi nomzodi D. G‘. Tashmuxeimedova nomzodi uchun 434 ming 111 nafar saylovchi (2, 94 foiz) ovoz berdi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi qonunning 14, 35-moddalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi markaziy saylov Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Saylovni kuzatishda 5 ta xalqaro tashkilot – Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorligi tashkilotidan hamda 52 ta davlatdan 340 dan ortiq kuzatuvchilar, shuningdek, siyosiy partiyalarning 70 mingdan ziyod kuzatuvchilari va vakolatli vakillari ishtirok etdi.

2014-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatlari saylovi natijalariga binoan saylangan deputatlarning tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafar, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36 nafar, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafar, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 20 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat O‘zbekiston ekologik harakatining vakillaridir. Saylangan deputatlarning 24 nafari yoki 16 foizi xotin-qizlardir.

Xalqaro tashkilotlarning baholashlariga binoan 2014-yil 21-dekabrda parlament va mahalliy vakillik organlariga bo‘lgan saylovlarni ham xalqaro standartlar va demokratik prinsiplar talablari darajasida o‘tkazishga erishilmadi. Bu haqda jahondagi saylovlarni xalqaro standartlar asosida baholovchi eng asosiy xalqaro tashkilot-Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (exht) demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi (diihb) dastlabki xulosalarida keltirilgan baholashda ko‘rishimiz mumkin: “2014-yilgi parlament saylovlari kompetentlik asnosida o‘tkazildi, ammo ularda haqiqiy saylov raqobati va munozaralari kuzatilmadi. Musobaqalashayotgan to‘rtta partiyaning barchasi davlatni qo‘llab-quvvatlovchi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi bo‘lib, ularni bir-biriga raqobatchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi deyish mumkin. Qonunlarga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlar hamda saylovlarni tashkil etishdagi katta bo‘lmagan takomillashtirishlar va barcha siyosiy partiyalar tomonidan yoshroq nomzodlarning taklif etilishi parlamentning rolini kuchaytirish va yanada raqobatbardosh siyosiy muhitni yaratish tomon qo‘yilgan qadamlar sifatida talqin etildi.

2015-yil 29-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylovda ishtirok etgan saylovchilarning 90, 39 foizi tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan prezidentlikka nomzod Islom Karimovga ovoz berdi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan nomzod Akmal Saidov 3, 08 foiz, O‘zbekiston xalq demokratik partiyasidan nomzod Hotamjon Ketmonov 2, 92 foiz, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Narimon Umarov 2, 05 foiz ovoz to‘pladi. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlardan kelgan kuzatuvchilarning fikricha, O‘zbekistonda saylov ochiq, oshkora, milliy qonunchilikda nazarda tutilgan qoida va me‘yorlarga to‘la muvofiqlikda, demokratik tamoyillar asosida o‘tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Халқ сўзи”. – 1991. – 31 декабрь.
2. Файзиев М. Сайлов тизими. // Ўзбекистон Республикаси: Энциклопедия. — Т. : Ўзбекистон, 1997. –Б. 196-197.
3. Ахборот-маълумот материали. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси. – Т. : Ўзбекистон, 2006. – Б. 8.
4. <https://www.elections.uz/uz/lists/view/737>.
5. <https://www.elections.uz/uz/lists/view/737>.
6. <https://elections.uz/uz/lists/view/740>.
7. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси. , 2008, №1 (18). – Б. 11-12.

8. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси, 2015, №1-2 (34-35). – Б. 169.
9. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси, 2015, №1-2 (34-35). – Б. 169.
10. <https://elections.uz/uz/lists/view/742>.

*Satimov Bahodir –
Urganch Innovatsion universiteti
dotsenti v. b. , PhD*

BRONZA DAVRIDA OROLBO‘YIDA HARBIY ISHNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.

Annotatsiya: Maqolada Bronza davrida Orolbo‘yi hududlari aholisi qurol-aslahasi tarixi arxeologik ma’lumotlar asosida qarab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Shimoliy Tagisken, Qizilqum, Yog‘ochband, Andronovo madaniyati, Tozabog‘yob, Amirobod, Gonur, M. A. Itina, bronza.

Аннотация: В статье на основе археологических данных рассматривается история вооружения жителей Приаралья в эпоху бронзы.

Ключевые слова: Северный Тагискен, Кызылкум, Ёгочбанд, Андроновская культура, Тозабогёб, Амирабад, Гонур, М. А. Итина, бронза.

Annotation: The article examines the history of armaments of the inhabitants of the Aral Sea region during the Bronze Age on the basis of archeological data.

Keywords: North Tagisken, Kyzylkum, Yogochband, Andronovo culture, Tozabogyob, Amirabad, Gonur, M. A. Itina, bronze.

Orolbo‘yi hududlarida, dastlabki qurol-yarog‘larning vujudga kelishi va qurollanish tarixining ildizlari kam o‘rganilgan masala bo‘lib, bu masala harbiy ishga bag‘ishlangan adabiyotlarda qisqacha aksini topgan, xolos.

Bronza metallurgiyasi va ixtisoslashgan qurolsozlik taraqqiyoti oqibatida, bronzaning tarkibiy qismi mis va qalay kabi ma‘dan ashyolariga ehtiyoj oshib boradi. Mis va qalay konlari Qizilqum, Janubiy Ural va Markaziy Qozog‘istonda joylashib, ulardan faol foydalanilgan. [1] Konlardan xomashyo olinib, ishlab chiqarish joylarda ma‘dan eritilgan va quyma yombi iqtisodiy yo‘llar orqali turli viloyatlarga yetkazib berilgan. [2]

So‘nggi tadqiqotlar natijalarining talqin qilinishiga ko‘ra, Marg‘iyona-Baqtriya bronza davri sivilizatsiyasi Shumer, Elam, Sharqiy Eron va Hind vodiysi sivilizatsiyalariga oid ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy belgilari bilan ajralib turgan. Ular yuqori darajada taraqqiy topgan qishloq xo‘jaligi va ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari, ibodatxona va saroy mulkchiligi, ilk shaharlar va davlatchilik tizimida namoyish etilgan. [3]

Shu bois harbiy ishning rivojlanishi siyosiy omillar ta‘siri bilan belgilangan edi. Misol tariqasida, Marg‘iyonadagi bronza davri Gonur shahrida xom g‘ishtdan qurilgan va to‘rtburchakka yaqin tarhi asosida (120x125m) barpo etilgan hashamatli saroyning mudofaa devori ichki yo‘lakka ega. Yo‘lak ichidan tashqi devorda o‘rnatilgan shinaklar orqali kamondan o‘q otilgan, shuningdek, mudofaa inshoot barcha tomondan to‘g‘ri burchakli burjlari bilan mustahkamlangan. [4] Markazida katta saroy qal‘asi mavjud Gonur shahri alohida mudofaa devorlariga ham ega. Ular shahar aholisini himoya qilish maqsadida tashqi harbiy bosqinlarga qarshi qurilgan. Gonurning janubiy tevaragida yirik ibodatxona joylashgan. Uning markaziy qismi mudofaa devor va dumaloq shaklda burjlar bilan mustahkamlangan, xususan sajdagoh istehkomi va uning atrofi bo‘ylab katta to‘rtburchak qal‘a ichida aniqlangan ibodatxona xizmatchilarning turar joylaridan iborat. [5] Janubiy Baqtriyada (Shimoliy Afg‘oniston) dumaloq tarhidagi bronza davri Dashtli 3

ibodatxonasini, ichki yo‘lak tashkil etuvchi ikki xalqa mudofaa devorlari o‘rab olgan. Yo‘lakdan inshoot devorlarini bo‘ylab bunyod etilgan 10 ta to‘g‘ri burchakli burjlarga kirish joyi bo‘lgan. Ibodatxonaning istehkomli tashqi tevarak qismida, sajdagoh mulki xizmatchilarning turar joylari mavjud bo‘lib, ushbu me‘moriy majmuasining qazib ochilgan shimoliy qismidan 110 dan ortiq uy – joylar qoldiqlari aniqlangan. [6]

Shuningdek, Janubiy O‘zbekistonda joylashgan, labirint tizimiga ega uch qator mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan Sopollitepa hamda Sherobod vohasidagi ichki qal‘a, saroy, ibodatxona va dehqonchilik jamoalarning turar joylaridan iborat ilk shahar – Jarqo‘tonni tilga olish maqsadga muvofiq. [7] Bunday mudofaa inshootlar – alohida qal‘alar, istehkomli saroylar va ibodatxonalar hamda ilk shaharlarning vujudga kelishi uzoq masofada amalga oshirilgan tashqi migratsiyalar bilan belgilangan. Ularning sabablari mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida Old Osiyoda iqlimning isib ketishi natijasida daryolarda suv hajmi darajasining pasayishi, qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayonlarining boshlanishi bilan belgilandi. [6] Shu bois ilg‘or Sharq sivilizatsiyalari hududlaridan ommaviy migratsiyalar oqibatida Marg‘iyona va Baqtriya yerlari o‘zlashtirilgan edi. Tadqiqotchilarning yozishicha, ko‘chib kelgan ziroatkor – chorvadorlar, hunarmandlar va binokorlar o‘zlarining sobiq yurtlarida qo‘llanilgan me‘morchilik tuzilish usullarini, murakkab mudofaa tizimi, turli inshootlar, katta binolarni barpo etish, binokorlik texnikasini va murakkab geometrik qurish tizimini avval bilgan uyushgan jamiyat vakillari edi. [8] Tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va davlat ma‘muriy boshqaruvi muhitda rivojlangan jamiyat vakillari, o‘zlariga ko‘p jihatdan noma‘lum o‘zlashtirilgan yangi yerlarda aholi manzillarini dushman hujumlaridan saqlash uchun mudofaa inshootlarini bunyod etishgan. Harbiy istehkomlarning yuqori darajada taraqqiy topganidan ilgaridan ishlab chiqilgan binokorlik rejasi tamoyillariga asoslangan tarhi to‘g‘ri burchakli, dumaloq va to‘rtburchakli qal‘alar, mudofaa devorlarining tashqi qismidagi ichki xonalarga ega burjlar, ikki devor orasida yo‘laklar va kamondan o‘q otishga mo‘ljallangan shinaklar yorqin darak beradi.

Marg‘iyona va Baqtriyaga nisbatan Orolbo‘yida bronza davri chorvador qabilalari yaratgan moddiy madaniyatining ko‘rinishi, turmush – tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zaro aloqalari, siyosiy omillar va davlatchilik tizimidan yiroq urug‘-qabila jamoalarning eski an‘analariga tayanib rivojlangan. Ilmiy adabiyotlarda Tozabog‘yob madaniyatining kelib chiqishi mil. avv. II ming yillikning o‘rtalarida Quyi Volgabo‘yi, Janubiy Ural va Qozog‘iston dashtlaridan Srubnaya (Yog‘ochband) – Andronovo madaniyati chorvador qabilalarning Orolbo‘yi hududlariga kirib kelishi bilan bog‘lanadi. [9] Yevroosiyo hududlarida keng yoyilgan ushbu qabilalarning tarixi “dasht bronza madaniyati” tushunchasi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning yozishicha, dasht chorvadorlarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi mil. avv. II ming yillikning o‘rtalaridan boshlangan. Migratsiya yo‘llari Ustyurt, Janubiy va Sharqiy Orolbo‘yi, Toshkent va Zarafshon vohalari orqali o‘tib, Turkmanistonning janubiy-g‘arbi, Shimoliy Afg‘oniston, Surxon vohasi va Janubiy Tojikiston kabi keng sarhadlarni qamrab olgan. [10] Dasht chorvador qabilalari qurollanish sohasida katta yutuqlarga erishgan, lekin Orolbo‘yidagi Andronovo madaniyati qabilalarning oraliq makonlaridan qurol–yarog‘lar topilmagan, chunki ular mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan. [9] Aksincha ular janubiy Tojikistonda mozar qo‘rg‘onlar va manzilgohlarni, arxeologik o‘rganilishi natijasida qo‘lga kiritildi. Dasht qabilalariga oid qurollar bronzadan ishlangan bolta, nayza, xanjar, o‘q uchlari, pichoqlar hamda toshdan yasalgan gurzi va o‘q uchlari iborat. [11] Chakmoqtosh o‘q uchlari avvalgidan dasht hududlarida keng yoyilgan (neolit–eneolit davrlari). [12] Dasht qabilalarning janubiy vohalarga kirib kelishi tinch sharoitda amalga oshirganligiga o‘xshaydi. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, chorvadorlar tomonidan ziroatkor aholi qal‘alarining harbiy kuch ishlatib zabt etilishi, yondirib yuborilishi va vayron qilinishi izlari aniqlanmagan. Aksincha shimoldan ko‘chib kelgan va tub joyli aholi guruhlari yonma–yon yashab, ularning o‘zaro munosabatlari osoyishta rivojlangan. Raqobatchilik va jiddiy nizolar bo‘lmagan sharoitda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari bilan o‘zaro iqtisodiy foydali ayirboshlash ustunlik qilgan. Odatda, etnomadaniy jarayonlarning rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki, turli etnos vakillarining yaqin hududiy qo‘shnichiligi yoki aralash joylashishi hamda

uzoq muddatli o'zaro munosabatlari, ularning qorishib ketishiga olib kelishgan. Natijada yangi etnik birliklar paydo bo'ladi.

Mil. avv. X-VIII asrlar Janubiy Orolbo'yida Amirobod madaniyati rivojlangan paytlarida, urug' jamoalar a'zolari avvalgidek yog'och ustunli yarim yerto'lali kulbalarda yashagan. Orolbo'yida kulbalarda kun kechirish an'analari Kaltaminor madaniyati davridan boshlab, 4 ming yil davomida deyarli o'zgarmasdan paxsa – xom g'isht turar joylarning qurilishida ishlatilmagan. Shuningdek, manzilgohlarni o'rab olgan g'ovlar (sun'iy ko'tarmalar) va xandaqlar aniqlanmadi. Alohida turar joylardan bronzadan qurollar yasash ishlariga mansub quyma tosh qoliplarning topilishi e'tiborga molik. [9] 1959 yilda Quyi Sirdaryo sarhadlaridagi Inkardaryo eski o'zani qirlarida Shimoliy Tagisken mozar qo'rg'onlarining kashf etilishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi. Bu yerdan mil. avv. IX-VIII asrlarga oid, xom g'ishtdan qurilgan katta maqbaralarning qoldiqlari topib tekshirilgan. Maqbaralarning markazida tarhi to'rtburchak yoki dumaloq shakldagi devorlar bilan o'ralgan, keng xilxonalar (maydoni 50 kv. metr dan ortiq) joylashgan bo'lib, ular, qalinligi 3-4 metrli ikkinchi qator devorlariga ega. Ikkita devor maxsus yo'lak bilan ajratilgan. [13]

M. A. Itinaning yozishicha, Shimoliy Tagisken arxitekturasini Orolbo'yi va umuman shimoliy dasht chorvadorlarning so'nggi bronza davri olamida betakror voqea sifatida baholash lozim, chunki Tagisken me'morchiligida Orolbo'yi qabilalarning xom g'ishtdan qurilishda ilk bor foydalanganligi namunasi o'z aksini topib, dasht hududlarida bunday binokorlik an'analari Baqtriya sivilizatsiyasining madaniy ta'sirida tatbiq etilgan. [14] Shu masala yuzasidan quyidagi e'tiborli jihatlarni uqtirib o'tish maqsadga muvofiq: Shimoliy Tagisken maqbaralarining barpo etilishi jarayonida qo'llanilgan binokorlik – me'moriy tuzilish usullari hamda dumaloq va to'rtburchakli tarh, inshootlar devorlari orasida ichki yo'lakning mavjudligi va qurilishida to'g'ri burchakli g'ishtdan foydalanish, mazkur ishning oldingi sahifalaridan joy olgan ma'lumotlarga ko'ra, avvalgidan bronza davri Marg'iyona-Baqtriyaning istehkomli me'morchiligida to'liq ifodalangan. Shu bilan birga maqbaralarning qalin tashqi devorlari, go'yo ular mudofaa ahamiyatga ega va dushman hujumiga qarshi qurilgan. Mil. avv. VII asrda, ilk temir davri boshlanishi bilan birga, quyi Sirdaryoning qadimiy o'zanlari bo'ylab ilk sak qabilalari keng joylashadi. Ular Sariqamish bo'yi (Dovdon o'zani) tevaragidagi yerlarni ham o'zlashtirishgan. [15] Mil. avv. VII-VI asrlar chegarasida Sariqamishbo'yi tepaliklarida Ko'zaliqir qal'asi bunyod etiladi. Xususan Ko'zaliqir Orolbo'yida ilk mudofaa inshooti xisoblanadi. Ushbu davr Xorazm vohasida davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi. Bu tarixiy bosqich etnik, siyosiy va madaniy omillar bilan belgilangan edi. [16]

Orolbo'yida chorvador qabilalari harbiy uyushmalarining vujudga kelishi va o'troq aholisi ilk davlatchilik tuzumiga o'tishi davrida qurol-yarog'lar va harbiy texnika yangi asoslarda rivojlana boshlagan. Ushbu holat va harbiy sohaga tegishli boshqa masalalar mazkur tadqiqotning keyingi bandlarida ochib beriladi. Eneolit va bronza davri O'rta Osiyo janubida metallurgiya taraqqiy topishi oqibatida xo'jalik va hunarmandchilik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnomadaniy sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Tadqiqotning shu bandi mazmunida uqtirilganidek, bronzaning kashf qilinishi, ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishi, tashqi migratsiyalar natijasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi va etnomadaniy jarayonlar ta'sirida mudofaa inshootlarni barpo etish va qurol-yarog'larni takomillashtirish dolzarb vazifaga aylanadi. Biroq turli tabiiy – geografik sharoitda madaniy va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lib, O'rta Osiyoning ilk sivilizatsiyalari va dasht madaniyatlarining o'zaro ta'siri o'z xususiyatlariga ega bo'lgan. [17] Tabiiy – geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan belgilangan mintaqa qabilalarining notekis rivojlanishi tufayli, janubiy viloyatlarga nisbatan Orolbo'yida ilk shaharlar va davlatchilik tizimi, harbiy istehkomlar va ixtisoslashgan qurollanish sohasi kechroq paydo bo'lgan.

Bronza davrining so'nggi bosqichlarida (Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlarini) Orolbo'yi qabilalarining jamoalarida ov qurollaridan farqli ravishda asosiy vazifalarga ko'ra, hujum va himoya qilish maqsadida ishlatish mumkin bo'lgan qurol-yarog'lar (bronzadan yasalgan nayza uchi, xanjar, katta pichoqlar hamda jangovor kamon va o'q) vujudga kelgan. Ilk temir davrida Orolbo'yi harbiy ish sohasi tarixida yangi bosqich boshlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рузанов В. Д. Металлообработка Средней Азии в эпоху бронзы. – Самарканд, 2013.
2. Мавлонов У. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 34-35.
3. Абдуллаев Ў. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: Лессон пресс, 2019. – Б. 199.
4. Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. –Ашхабад, 2003, –С. 22-25.
5. Сарианиди В. И. Археологические доказательства протозароастризма в Бактрии и Маргиане // Тр. Маргианской археологической экспедиции. Т. 2. – М. , 2008. – С. 9-27.
6. Сарианиди В. И. Древние земледельцы Афганистана. – М. :Наука, 1977. С. 34. рис. 11.
7. Аскарлов А. А. , Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: Институт археологии АН РУз, 1993. –162 с.
8. Сагдуллаев А. С. , Тогаев Ж. Э. Миграция эпохи бронзы в центральной Азии // Проблемы истории, археологии и этнологии центральной Азии. –Ташкент, 2018. – С. 89-90.
9. Итина М. А. История степных племен Южного Приаралья (ИИ–начало II тысячелетия до н. э. // Тр. ХАЕЕ. Т. X. –М. , 1977. – С. 232.
10. Кузьмина Е. Е. О южных пределах распространения степных культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового века Евразии. – М. : Наука, 1964. – С. 121-140.
11. Мандельштам А. М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане // МИА. №145. – Л. : Наука, 1968. –С. 74-85; Виноградова Н. М. , Кузьмина Е. Е. Контакты степных и земледельческих племен Средней Азии в эпоху бронзы // Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока. – М. ; Наука, 1986. – С. 136, рис. 6, С. 145, рис. 11; Пьянкова Л. Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1989. – С. 42-47.
12. Виноградов А. Б. О распространении наконечников кельтеминарского типа// Этнография и археология Средней Азии. –М. : Наука, 1979. – С. 3-9; Бижанов Е. Б. Новые данные о неолите Юго–Западного Устюрта// ККФ АН Уз ССР. №3, 1980. – С. 71, рис. 1, с. 73, рис. 2.
13. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М. : ИВЛ, 1962. – С. 80-85.
14. Итина М. А. Взаимодействие земледельческих цивилизаций Средней Азии с их «варварской» периферией в эпоху бронзы // Древние цивилизации Востока. –Ташкент: Фан, 1986. – С. 133-134.
15. Итина М. А. Ранние саки Приаралья // Археология СССР. – М. , 1990. – С. 31-34.
16. Вишневецкая О. А. , Рапопорт Ю. А. Городище Кюзели–гыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма// ВДИ. – №2. –М. :1997. – С. 150-151.
17. Аскарлов А. К вопросу о взаимоотношениях населения степей Евразии и Южного Турана в эпоху бронзы // Культуры азиатской части Евразии в древности и средневековье. – Самарканд, 2021. –С. 55-64; Сагдуллаев А. С. Некоторые вопросы изучения взаимодействия степных культур и древних цивилизаций// Культуры азиатской части Евразии в древности и средневековье. – Самарканд, 2021. – С. 132-136.

Барышников А. В.

*Глазовский государственный инженерно-педагогический университет
доцент кафедры истории и социально-гуманитарных дисциплин
Глазов, Россия*

МЕЖЭТНИЧЕСКОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ В ПОЛИЭТНИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ ВЯТСКОЙ ГУБЕРНИИ В ПОРЕФОРМЕННЫЙ ПЕРИОД

Аннотация: в статье раскрываются особенности взаимодействия представителей различных этносов на территории «удмуртских» уездов Вятской губернии во второй половине XIX века. Отмечается, что преобладающее русское население зачастую приносило элементы своей культуры, меняя жизнь своих соседей, что особенно ярко проявилось в экономической сфере.

Ключевые слова: полиэтничный регион, крестьянство, капитализм, пореформенный период, товарно-денежные отношения.

Barishnikov A. V.

*Glazov Davlat muhandislik va Pedagogika universiteti
tarix va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti
Glazov, Rossiya*

ISLOHOTDAN KEYINGI DAVRDA VYATKA VILOYATINING POLIETNIK MAKONIDAGI MILLATLARARO O'ZARO TA'SIR

Annotatsiya: maqolada 19-asrning ikkinchi yarmida Vyatka viloyatining "Udmurt" tumanlari hududida turli etnik guruhlar vakillarining o'zaro munosabatlari xususiyatlari ochib berilgan. Ta'kidlanishicha, hukmron rus aholisi ko'pincha qo'shnilarining hayotini o'zgartirib, o'z madaniyatining elementlarini kiritgan, bu ayniqsa iqtisodiy sohada yaqqol namoyon bo'lgan.

Kalit so'zlar: ko'p millatli mintaqa, dehqonlar, kapitalizm, islohotdan keyingi davr, tovar-pul munosabatlari.

Baryshnikov A. V.

*Glazov State University of Engineering and Pedagogics
named after V. G. Korolenko
Associate Professor of the Department of History
and Social and Humanitarian Disciplines
Glazov, Russia*

INTERETHNIC INTERACTION IN THE POLYETHNIC SPACE OF VYATKA PROVINCE IN THE POST-REFORM PERIOD

Abstract: The article reveals the features of interaction between representatives of various ethnic groups on the territory of the "Udmurt" districts of the Vyatka province in the second half of the 19th century. It is noted that the prevailing Russian population often introduced elements of their culture, changing the lives of their neighbors, which was especially evident in the economic sphere.

Keywords: multi-ethnic region, peasantry, capitalism, post-reform period, commodity-money relations.

История крестьянства – одна из важнейших тем отечественной историографии. Без ее исследования невозможно представить картину жизни российского общества во всей полноте.

В Вятской губернии, где многонациональное крестьянство составляло абсолютное большинство населения, хозяйственные и этнокультурные традиции были результатом взаимодействия и взаимовлияния языческого финно-угорского, христианского и мусульманского миров. Наиболее ярко это взаимодействие позволяет проследить богатый материал истории так называемых «удмуртских» уездов Вятской губернии.

К концу XIX века на территории четырёх «удмуртских» уездов Вятской губернии проживали 1 336 402 человека различных этносов, из которых преобладающими являлись русские (57, 6%) и удмурты (29, 6%) [1, С. 277]. Другие этносы, проживавшие на данной

территории, были представлены следующим образом – татары (8, 15%), марийцы (1, 44%), башкиры (0, 82%), коми (0, 6%) [1, С. 277]. Наиболее многочисленным слоем населения являлось крестьянство (93, 7%), в то время как доля городских жителей составляла 2, 8%. Вторая половина XIX в. представляла собой период роста населения региона и увеличения количества населенных пунктов более чем на 60% [1, С. 277].

Формирование межличностных отношений на различных уровнях деревенской жизни в полиэтническом регионе происходило на протяжении нескольких веков и продолжилось во второй половине XIX в. в условиях активизации модернизационных процессов.

Согласно статистическим материалам, русское население составляло большинство, причем если в Глазовском, Малмыжском и Елабужском уездах доля русских примерно одинакова и находилась в районе 50%, то в Сарапульском уезде доля значительно выше – 68, 3%. Второе по численности место занимал коренной этнос – удмурты, чья доля наиболее высока в Глазовском уезде – 40, 8%, а в остальных колебалась от 24, 6% до 27, 1%. Отдельного упоминания заслуживают татары, их доля достаточно высока в Малмыжском (20, 7%) и Елабужском (15, 5%) уездах, но незначительна в Глазовском (4, 3%) и Сарапульском (1, 7%) уездах. Стоит отметить, что пермяки, марийцы, башкиры, бесермяне были представлены в четырёх «удмуртских» уездах фрагментарно и не оказывали формирующего влияния на развитие уездов [2].

Неоднородно складывались взаимоотношения русских с татарами. Татарское население, преимущественно, проживало обособленно от других этносов, что было вызвано в первую очередь исповедованием ислама, сформировавшим иной менталитет и, как следствие, иные бытовые и хозяйственные особенности. Однако часть татар являлись новокрещенами, принявшими православие ещё в дореформенный период. Они проживали совместно с крещёными удмуртами и русскими, как, например, в поселениях Старо-Ятчинской и Черкасовской волостей Елабужского уезда [3, С. 57–65]. В селе Архангельском изначально проживали татары-мусульмане, однако с приходом русских переселенцев они приняли православие [3, С. 60].

В условиях невысокой развитости традиционных для крестьянства отраслей – земледелия и животноводства, более широкий охват имели внеземледельческие занятия. Например, в Усадской волости Малмыжского уезда, где русские и татары проживали бок о бок, местными промыслами занималось 645 русских и 426 татарских крестьян, при этом преобладающими среди русских земледельцев были кустарные промыслы, тогда как татары в большей степени были вовлечены в подённые работы.

Развитие товарно-денежных отношений вылилось здесь в активное функционирование торжков и базаров. Базары проводились в селе Вятские Поляны в субботу каждой недели, а в деревне Нижние Шуни в пятницу каждой недели. На них производилась торговля товарами с уплатой пошлин. Без платежа пошлин разрешалась торговля продуктами домашнего потребления. В указанных населённых пунктах, помимо базаров, устраивались торжки. В деревне Нижние Шуни с 1880 г. , на торжке реализовывались товары местного потребления. В селе Вятские Поляны сформировалась группа крестьян – скупщиков, закупувавших в течение осени и зимы у местных крестьян хлеб, который сплавляли для реализации на ярмарках поволжских низовых городов.

Взаимодействие различных этносов явственно обозначились в сфере экономики. И если в сельскохозяйственном секторе могли возникать противоречия по вопросам системы севооборота или удобрения пашни, то в секторе внеземледельческих занятий динамика отношений была несколько иной. Так, исследователями отмечалось, что соседство русских с удмуртами на протяжении длительного времени, способствовало взаимовыгодному обмену духовной и материальной культуры, составным элементом которой являлись промыслы [4, С. 147]. Вместе с тем, необходимо отметить, что развитие промыслов происходило неравномерно. Каждый крестьянский двор занимался исконными видами промысловой деятельности, преимущественно в домашней форме, а в товарном производстве число русских кустарей было в 3, 6 раза выше по сравнению с удмуртскими

[5, С. 142]. Промыслы, возникавшие в XIX в. преимущественно были привнесены русскими. Этому способствовали развивающиеся миграционные процессы, а также развитие капиталистических отношений, аккумулировавших отходничество и товаризацию крестьянских хозяйств.

Динамика развития межнациональных отношений различалась по уездам, однако, представляется возможным проследить основные тенденции. Во-первых, вытеснение русскими переселенцами коренного населения не являлось повсеместным явлением, и там, где оно происходило, оно не было фатальным для этноса, вынужденного покинуть обжитую местность, а выступало лишь катализатором миграции в границах волости. Во-вторых, основой противоречий служил этноконфессиональный фактор, когда представители этносов не могли проживать совместно на одной территории в силу различного вероисповедания. В-третьих, катализатором конфликтов, возникавших между переселенцами и коренным населением выступал экономический фактор, а именно различия в ведении хозяйственной деятельности. Имело место развитие ассимиляционных процессов, приобретших многообразные формы.

Литература/Фойдаланилган адабиётлар / References

1. История Удмуртии: XX в. / Под ред. К. И. Куликова. Ижевск: УИИЯЛ УрО РАН, 2005.
2. Материалы по статистике Вятской губернии.
3. Материалы по статистике Вятской губернии: Т. VI. Елабужский уезд: Часть 2. Подворная опись. Приложения к подворной описи. Вятка, 1889.
4. Лигенко Н. П. Крестьянская промышленность Удмуртии в период капитализма (60 – 90-е гг. XIX в.). Ижевск, 1991.
5. Удмуртская Республика: историко-этнографические очерки / УИИЯЛ УрО РАН; науч. ред. А. Е. Загребин. Ижевск, 2012.

Abdullaeva Nazokat Baxtiyorovna
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

XORAZM VILOYATIGA KOREYSLARNING KO'CHIRIB KELTIRILISHI VA VILOYATDA KOREYS DIASPORASINING SHAKLLANISHI (XX ASRNING 30-70-YILLARI).

Annotatsiya: XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslar diasporasi tarixi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Zero, sovetlar davrida markaziy arxivlarda saqlanayotgan ko'pgina hujjatlar maxfiylashtirilgan edi. Faqat sovet davlati mafkurasini ulug'lash yoki davlat yutug'i sifatida ko'rsatish uchungina koreyslar diasporasining muayyan hududlarda iqtisodiy sohada erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar e'lon qilinib borilgan. XX asrning 90-yillaridan boshlab, sovet totalitar tizimining mustamlakachilik zanjiridan qutulgan mustaqil respublikalarning paydo bo'lishi bilan ko'plab arxiv fondlarining maxfiylik darajasidan chiqarilishi, og'zaki tarix ma'lumotlarining ko'payishi mazkur mavzuga yanada kengroq, asosiysi esa ilmiy xolislik nuqtai-nazaridan yondashish lozimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: koreyslar, diaspora, deportatsiya, kapitalistik uklad, ko'pmulkchilik, mavsumiy ijara, koryo saram, Gurlan, Xonqa, Urganch, kolxoz, sovxoz.

Аннотация: История корейской диаспоры, переселившейся в Хорезмскую область в 30-е годы XX века, является одной из практически не анализируемых научных тем. Ведь во времена СССР многие документы, хранившиеся в центральных архивах, были засекречены. Лишь в целях прославления идеологии советского государства или показа ее как государственного достижения публикуются сведения, отражающие достижения

корейской диаспоры в экономической сфере в отдельных регионах. Начиная с 90-х годов XX века, с появлением независимых республик, освободившихся от колониальных оков советской тоталитарной системы, рассекречиванием многих архивных фондов, увеличением данных устной истории, эта тема становится более обширной, и основной из них является точки зрения научной объективности. показывает, что необходимо подходить с точки зрения

Ключевые слова: Корейцы, диаспора, депортация, капиталистический строй, многовладение, сезонная аренда, корё сарам, Гурлан, Ханка, Ургенч, колхоз, совхоз.

Annotation: The history of the Korean diaspora, which was moved to the Khorezm region in the 30s of the 20th century, is one of the almost unanalyzed scientific topics. After all, during the Soviet era, many documents stored in the central archives were classified. Only in order to glorify the ideology of the Soviet state or show it as a state achievement, information reflecting the achievements of the Korean diaspora in the economic sphere in certain regions has been published. Since the 90s of the 20th century, with the emergence of independent republics freed from the colonial chains of the Soviet totalitarian system, the declassification of many archival funds, the increase of oral history data, this topic is more extensive, and the main one is the point of view of scientific objectivity. shows that it is necessary to approach from the point of view.

Key words: Koreans, diaspora, deportation, capitalist system, multi-ownership, seasonal rent, koryo saram, Gurlan, Khanka, Urganch, collective farm, state farm.

KIRISH (INTRODUCTION). Butun bir xalqlarning o‘zlarining yashab turgan tarixiy o‘lkalaridan boshqa hududlarga majburiy ko‘chirilishi, SSSR davlatida stalincha qatag‘onlik siyosatining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, majburiy ravishda 15 ta millat vakillari turli hududlarga majburan ko‘chirilgan [1]. Bu millat vakillari ichida koreyslar ham bo‘lib, ular aslida Rossiya imperiyasining Uzoq Sharq o‘lkalariga XIX asrdanoq turli sabablarga ko‘ra (avvalo siyosiy va so‘ngra iqtisodiy sabablarga ko‘ra) ko‘chib kelib, o‘rnashib boshlagan edilar. Ammo, 1937 – 1938 yillarda koreyslarning Qozog‘iston va O‘zbekiston viloyatlariga, shu jumladan, Xorazm viloyatiga ko‘chirilishi zamirida faqat siyosiy omillar yotadi. XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko‘chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat ijtimoiy – iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Xorazmdagi koreys diasporasining kelib joylashuvi tarixi va madaniyati masalasi alohida tadqiqot sifatida hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Koreya mavzusidagi mahalliy va xorijiy asarlarning aksariyati sobiq sovet davrida nashr etilgan. Sovet davlatidagi koreys diasporasi yagona etnik guruh sifatida qaralganligi sababli, ko‘plab tadqiqotlar “sovet koreyslari”ga bag‘ishlangan, ammo bu tadqiqotlarning empirik materiallari ma’lum bir mintaqada yashovchi koreyslarni o‘rganishga asoslangan (masalan, O‘zbekiston yoki Qozog‘iston).

Bularning barchasi - mavjud adabiyotlarni hisobga olgan holda – O‘zbekistondagi, shu jumladan Xorazmdagi koreyslarning zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini baholash bilan bog‘liq masalalarni, O‘zbekistondagi diasporalar ijtimoiy ahvolini aks ettiruvchi dasturlarini qo‘llash fonida ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

1937-yil 21-avgustda sovet hukumati 142B-326 sonli “Uzoq Sharq o‘lkasining chegara hududlarida yashovchi koreys aholisini ko‘chirish to‘g‘risida”gi maxfiy qaror qabul qildi. Bu qarorga ko‘ra, Uzoq Sharq o‘lkasining Yaponiya bilan chegaradosh hududlarida yashovchi koreyslarning go‘yoki, o‘sha paytda militaristik bosqinchi davlat hisoblangan Yaponiya tarafiga o‘tib ketishlarining oldini olish lozim edi. Shuning uchun Uzoq Sharq koreyslari qisqa muddat ichida (1937-yil dekabrigacha) Qozog‘iston va O‘zbekiston hududlariga ko‘chirilishi lozim edi [2].

Koreys oilalarini O'zbekistonga joylashtirish jarayonlari ancha qiyin sharoitda kechdi. Chunki, bu davrda O'zbekistonning o'zida iqtisodiy muammolar talaygina bo'lib, ko'chirilgan koreyslarga respublika byudjetidan mablag' ajratish masalasi og'ir kechdi. Shu bilan birga 1937-yil qishining o'ta sovuq kelishi Amudaryo suv yo'lini deyarli yaroqsiz holatga keltirib, Qoraqalpog'iston ASSR hududlariga ko'chirilishi kerak bo'lgan oilalarning ancha qismi O'zbekistonning boshqa hududlariga joylashtirildi. Bu holat SSSR Ichki Ishlar Xalq komissari o'rinbosari V. V. Chernishevga kotibi A. Grishaninning bergan shoshilinch xabarnomasida O'zbekiston SSRda ko'chirib keltirilgan koreys millati vakillarini joylashtirish ishlari ayanchli holatda ekanligi, ko'chirilganlar uchun ajratilgan yerlarni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan kredit mablag'laridan 42 million so'mdan bor-yo'g'i 7, 5 million som ishlatilganligi, qurilish ishlari, koreyslarni ijtimoiy ahvolini yaxshilash va ish bilan ta'minlash borasida to'liq shakllantirilgan tizimning yo'qligi, agar bu borada favqulodda choralar ko'rilmasa, 1938-yilga kelib ahvol yanada battarlashishini ta'kidlab o'tgan edi [3].

Shu bilan birga ko'chirilish jarayonining o'zi ham bir nechta bosqichda, eng asosiysi esa o'ta shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilishi natijasida, ko'chirilgan koreys oilalarining ko'pchiligi bir-biridan ajratilib yuborildilar. Jumladan, ko'pgina koreys oilalari alohida-alohida vagonlarga joylashtirilganliklari uchun O'rta Osiyoga kelganlaridan so'ng turli hududlarga tushib qoldilar [4]. Masalan, Andijon shahriga joylashtirilgan Ivan Mironovich Kimning ma'lumotiga ko'ra, ularni Uzoq Sharqdan O'rta Osiyoga ko'chirish boshlanganda ota – onasini alohida vagonlarga joylashtirganliklari uchun, u akasi va singlisi bilan Andijonga, keksa ota-onasi esa Xorazm okrugi Gurlan tumaniga joylashtirilgan. Kim I. M. juda ko'p bora turli instansiyalardagi tashkilotlarga va hatto Moskvaga, SSSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligi yuqori martabali mansabdorlariga qilgan murojaatlari ham befoyda bo'lib, oxir-oqibat Kim I. M. keksa otalaridan alohida yashashga majbur bo'lgan [5].

1937-yildan boshlab ikki yil ichida O'zbekistonga 70 mingdan ziyod koreys millati vakillari ko'chirib keltirilgan. Jumladan, aniq raqamlarga murojaat qilinadigan bo'lsa, 1939-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirlari natijasiga ko'ra, O'zbekistonda 72944 koreys yashagan bo'lsa, shulardan 4963 kishi Xorazm viloyatida yashagan [6]. Koreyslar O'zbekistonda "maxsus ko'chirilganlar" yoki "ma'muriy yuborilganlar" maqomida bo'lib, boshqa deportatsiya qilingan xalqlarga nisbatan vakolatlari unchalik ham cheklanmagan edi. Jumladan, ular chegara hududlardan tashqari SSSRning barcha hududlari bo'yicha erkin harakatlanish huquqiga ega edilar [5]. Shu jihatdan, Qozog'iston va Rossiya koreyslari hisobiga O'zbekistonda yil-sayin koreyslar diasporasi soni oshib borgan. 1959-yilda O'zbekistonda koreyslar soni 138453 kishini tashkil qilgan. Shunisi e'tiborliki, Xorazm viloyatida bu davr mobaynida koreyslar soni 1939-yilga nisbatan qaytanga kamayib, 1959-yilda viloyatda 4833 koreys yashagan. Arxiv hujjatlariga e'tibor qaratsa, Xorazm viloyatiga joylashtirilgan koreyslarning bir qanchasi o'z qarindoshlari yoniga, ya'ni yo Toshkent viloyatiga yoki Qozog'istonga ko'chib ketgan [7]. 1970-yilgi aholini ro'yxatdan o'tkazish natijasiga ko'ra esa Xorazm viloyatida umumiy 6368 kishi yashagan [8].

Koreyslar eng avvalo Xorazm viloyatining asosan kam o'zlashtirilgan hududlariga, kam hollarda ilgari aholi yashab kelayotgan joylarga keltirilib joylashtirilgan. Jumladan, ularning katta qismi Gurlan tumaniga, so'ngra Yangiariq (keyinchalik Xonqa tumani qilib tashkil qilingan) va Urganch tumanlariga joylashtirilgan [2].

Umumiy holatda 1937-yil 5-dekabr holatiga ko'ra, Gurlan tumaniga 1100 koreys oilasi yoki 5290 kishi ko'chirib keltirilgan edi [3]. 1938-yil noyabr oyi ma'lumotlari bo'yicha Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslarning 477 oilasidan iborat 3 ta kolxoz tashkil qilingan bo'lsa, 399 koreys oilalari 9 ta mahalliy kolxozga joylashtirildi [9].

Koreyslar diasporasining aksari qismi qishloqlarda yashaganlar. Ammo, shaharda yashovchi koreyslar soni ham yil sayin oshib borgan. Jumladan, 1939-yil holatiga ko'ra, Xorazm viloyatidagi 4963 kishidan, 435 kishi shaharlarda yashagan bo'lsa [6], 1959-yilga kelib endi, viloyat bo'yicha 4833 kishidan 1094 kishi shaharlarda yashagan [7]. 1970-yilgi aholini ro'yxatdan o'tkazish natijasiga ko'ra esa, umumiy 6368 kishidan 2608 kishi shaharlarda yashaganlar [8].

Arxiv ma'lumotlarini hamda koreys keksalarining esdaliklarida vohaga ko'chirib keltirilgan koreyslar ham shu davr jamoalashtirish siyosatiga asosan, bir qancha koreys jamoa xo'jaliklari shakllantirilgan. Jumladan, ilk deportatsiya davri sovet hukumati hujjatlarida koreyslar ham "maxsus ko'chirilganlar" degan nom ostida mahalliy aholidan alohida joylashtirilgan bo'lsa, bir guruh koreys muhojirlari mahalliy o'zbek qishloqlariga joylashtirilgan. Ammo, ular asosan qo'riq yerlarga, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan hududlarga joylashtirildilar. Bunday hududlar asosan to'qay va qamishzorlardan iborat yerlar bo'lgan.

Koreyslar ko'chib kelgan yangi hududlaridagi og'ir sharoitlarga qaramasdan, o'zlarining mashaqqatli mehnatlari evaziga to'qay va qamishzorlarni o'zlashtirib, obod qishloqlarga aylantirdilar. Koreyslar sholi, piyoz, karam, baqlajon ekish madaniyatining yangi-yangi uslublarini yerli xalqqa o'rgatdilar [4].

Umumiy holatda, arxiv hujjatlarida O'zbekistonga ko'chirilgan koreyslarning joylashtirilishi va ularning yashash sharoitlarini yaxshilash, ish bilan ta'minlash va oilalar farzandlarining ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsada, bu muammoning aynan Xorazm viloyatida qanday yechim topganligi, ko'rilgan chora tadbirlar, bu borada ajratilgan mablag'lar borasida ma'lumotlar juda kam.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xorazm viloyatiga koreyslarning ko'chirib keltirilishi va viloyatda koreys diasporasining shakllanishi jarayoni oson kechmagan hamda bu jarayon XX asrning 30-70-yillari davomida yakunlangan. Arxiv ma'lumotlari, aynan XX asrning 70-yillaridan koreyslar viloyatda muqim yashab boshlaganliklarini, to XX asrning 90-yillarigacha ular viloyatdagi etno-demografik vaziyatga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'zlarining yetarli darajada hissasini qo'sha olganliklarini ko'rsatadi. Koreyslar dastlab bir tumanga Gurlan tumaniga joylashtirilgan bo'lsalar, keyinchalik ular iqtisodiy sabablarga ko'ra Urganch, Xonqa va Xiva tumanlariga ham joylashtirilganlar. Koreyslar asosan dastlab Xorazm viloyatining hali o'zlashtirilmagan, to'qay, qumloq va qamishzor bo'lib yotgan yerlarga joylashtirilgan. Ammo, koreys xalqining matonatli va og'ir mehnati evaziga bu yerlar obod qilinib, boshqa hududlarga namuna bo'lgan, koreys qishloqlari, koreys mahallalari va umuman Xorazm koreyslari diasporasi shakllangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сталинские депортации. 1928-1953 / Под общ. ред. акад. А. Н. Яковлева; Сост. Н. Л. Поболь, П. М. Полян - М. : МФД: Материк, 2005. – 904 с.
2. Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) "О корейцах". 21 августа 1937 г. // Лубянка. Сталин и Главное управление госбезопасности НКВД. Архив Сталина. Документы высших органов партийной и государственной власти. 1937–1938. – М. : МФД, 2004. – С. 325-326. // АП РФ. Ф. 3. Оп. 58. Д. 139. Л. 1—2. Подлинник. Машинопись. // РГАСПИ Ф. 17, Оп. 166, Д. 578 Л. 29-32.
3. По решению Правительства Союза ССР / Сост. , авт. введ. , коммент. Н. Ф. Бугай, А. М. Гонов. — Нальчик: Изд. центр «Эль-Фа», 2003. – С. 143.
4. Ким Б. И. Ветры наших судеб: Советские корейцы. История и современность – Ташкент: Узбекистон, 1991. – С. 35.
5. Хан В. С. Коре сарам: Кто мы? (Очерки истории корейцев). Изд. 3-е, перераб. – Бишкек: ИЦ "АРХИ", 2009. – С. 59-60.
6. Всесоюзная перепись населения 1939 года: Основные итоги / Под ред. Ю. А. Полякова. – М. : Наука, 1992. – С. 74.
7. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 года. Узбекская ССР. Распределение населения по национальсти и родному языку. – Москва: Госстатиздат ЦСУ СССР, 1962. – С. 138-144.
8. Итоги Всесоюзной переписи населения 1970 года. Том IV. Национальный Состав населения СССР, союзных и автономных республик, краев, областей и национальных округов. – Москва: Статистика, 1973. – С. 202, 221.

9. Рахманкулова А. Х. Вклад корейцев в экономику Узбекистана (в конце 1930–1950 гг.) // 1937 год: русскоязычные корейцы — прошлое, настоящее и будущее / Сборник материалов Международного симпозиума, посвященного 80-летней годовщине принудительного переселения корейцев с Дальнего Востока в Центральную Азию (15–17 сентября 2017 г., Владивосток–Уссурийск). – М., «Аквариус», 2018. – С. 309-319; Yana uning: Документы ЦГА Республики Узбекистан по истории депортации народов в Узбекистан в 1930-е годы (на примере корейцев). [Электронный ресурс]. URL: [http:// www. world. lib. ru](http://www.world.lib.ru) 2004. (Дата обращения: 28. 03. 2024).

*Abdirimov Razzorberdi –
Urganch innovatsion universiteti
dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Maxmudov Umrbek –
Urganch innovatsion universiteti
kafedra mudiri*

QAL’AJIQ QAL’ASINING O’RGANILISH TARIXIGA DOIR TADQIQOTLAR XUSUSIDA

Annotatsiya: Maqolada Qal’ajiq qal’asining o’rganilishi tarixi, unga oid manbalar, keyingi olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yoritilgan.

Аннотация: В статье описана история изучения крепости Калайжик, ее истоки и последующие археологические исследования.

Annotation: This article explains the sources, the history and the outcomes of additional archaeological investigation on the Kalajk castle

Kalit so‘zlar: Qal’ajiq, Dovud-qal’a, Kardarnaxos, Al-Istaxriy, Al-Maqdisiy, Abulg’ozi, Munis, Ogahiy, Ya. G’ulomov, T. P. Snesev, M. Mambetullayev, V. Zavyalov

Ключевые слова: Қалъажик, Довуд-қалъа, Кардарнахос, ал-Истахрий, ал-Макдисий, Абулгази, Мунис, Агахий, Я. Гулямов, Т. П. Снесарев, М. Мамбетуллаев, В. Завялов

Key words: Kalajk, David castle, Paradaronxos, Al-Makdisiy, Abulgazi, Munis, Agahi, Ya. Gulamov, T. P. Snesev, N. Mametullayev, V. Zavyalov

Qal’ajiq yodgorligida arxeologik tadqiqot ishlari 2021-yil aprel oyida rejaga muvofiq amalga oshirilgan.

Xalq tilida Dovud-qal’a nomi bilan mashhur bo’lgan bu yodgorlik Hazorasp – Xiva yo’li ostonasida, aniqrog’i Hazoraspdan 25 km g’arbda joylashgan. Bu qal’a haqidagi dastlabki ma’lumotlar o’rta asr muarrixlarining asarlarida “Qardaronxos” nomi bilan uchratish mumkin [1].

Arxeologik jihatdan bu yodgorlik dastlab akademik Y. G’. G’ulomovning arxeologik kuzatuvlari asosida tadqiq qilingan (G’ulomov, 1959, 88-b). Keyinchalik yodgorlikda M. Mambetullayev (Mambetullayev, 1973, 53-55-b; Mambetullayev, 1974, 58-63-b), V. A. Zavyalov (Zavyalov, 1992; Zavyalov, 1997, 298-317-b) va Sh. Matrasulov (Matrasulov, 2010 arxeologik qazishmalarni amalga oshirganlar.

Arxeologik tadqiqotlarga ko’ra, Qal’ajiq qal’asida hayot mil. avv. IV – III asrlardayoq vujudga kelgan va milodning birinchi asrlarida to’xtagan. VII – VIII asrlarda qal’ada hayot qaytadan jonlandi va XI asrgacha davom etadi (Zavyalov, 316-317-b). Biroq qal’adan tashqarida hayot XIII asr boshlarigacha davom etgan.

Qal’ajiq qal’a sharqdan g’arbg qarab cho’zilgan noto’g’ri to’rtburchakni hosil etadi. Qal’ajiqning sharqiy devorlaridan boshqa hamma devorlari ancha balandlikda saqlanib qolgan: shu bilan birga ular ustidagi istehkomlar ham saqlangan. Hozirgi kunda saqlanib qolgan janubiy

devorning uzunligi 210 metr, shimoldagisining uzunligi 154 metr, g'arbdagisi – 65 metr. Sharqiy devor saqlanmagan, undan faqat devorning bir qismi do'nglik sifatida kuzatiladi. Qal'ajiq yodgorligining o'ziga xos jihatlaridan biri uning burjlarga ega emasligidadir.

Qal'ajiq qal'a o'rta asrlar manbalarida turli nomlar bilan, masalan muallifi noma'lum va fors tilida bitilgan "Hudud-al olam" asarida u "Kardonasxaz", Al-Istaxriy va Al-Maqdisiy kabi mualliflar asarlarida "Kardaranxosh" va "Kardaranxos", Abdulg'ozi, Munis, Ogahiy singari xorazmlik tarixchilar asarlarida esa "Kardanaxast" yoki "Gardanaxast" kabi nomlar bilan uchraydi [3].

Qal'ajiq qal'ada ilk bor arxeologik tadqiqot o'tkazgan olim Yahyo G'ulomov bo'lib, 1938 – 1940-yillarda va 1946 – 1950-yillarda Xorazmning sug'orilish tizimini o'rganish jarayonida Qal'ajiqda tadqiqot ishlarini olib borgan. Y. G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asariga ko'ra, yodgorlikning vujudga kelishi miloddan avvalgi IV – III asrlar bilan belgilanishi va 2 ta rivojlanish bosqichini boshdan kechirganligi qayd qilib o'tgan. Uning fikriga ko'ra, Qal'ajiqda hayot ayniqsa, miloddan avvalgi IV – I asrlarda gullab yashnagan. Milodiy I asrdan boshlab qal'ada hayot so'na boshlab IV asrda bu yodgorlik butunlay tashlandiq holatga kelgan. Milodiy VI asrdan boshlab qal'a hayotining ikkinchi bosqichi boshlangan va VIII asrda arab bosqini munosabari bilan yana bo'shab qolgan. Faqat IX – XIII asrlarda ya'ni to mo'g'ul bosqinigacha Qal'ajiq nihoyatda gullab-yashnagan. Y. G'ulomov Abulg'ozi, Munis va Ogahiyning asarlaridagi ma'lumotlar Qal'ajiqda hayot qisman XVI – XVIII asrlarda ham davom etilganligi tasdiqlaydi.

Qal'ajiqda 1958 – 1960-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining o'zbek etnografik otryadi G. P. Snesarev boshchiligida tadqiqotlar olib borgan. Ana shu tadqiqotlarga ko'ra, yodgorlik xuddi Hazorasp kabi asosan harbiy mudofaa markazi bo'lib, miloddan avvalgi IV asr boshida barpo etilgan. 1973 – 1974-yillarda O'ZFA Qoraqalpog'iston filialining M. Mambetullayev boshchiligidagi arxeologik otryadi madaniy qatlamlar ochilib qolgan joylarda yuzasini tozalash ishlarini olib bordi va shu bilan birga shaharning stratigrafiyasi va xronologiyasini aniqlash uchun ikki joyda (g'arbiy va markaziy qismida) shurf solindi. O'tkazilgan tadqiqotlari M. Mambetullayev Qal'ajiq antik davrda ham, o'rta asrlarda ham mudofaa uchun mo'jallangan tipik qal'a bo'lganligini ta'kidlaydi.

M. Mambetullayev tadqiqotlariga ko'ra, birinchi tarixiy davrda kengligi 2, 75 m. bo'lgan yo'lakli ikki qatorli paxsa mudofaa devor tiklangan bo'lib, yodgorlikning sharqiy devori o'rtasiga yaqin joyda tepalik mavjud bo'lib, u kirish qismining qoldig'i bo'lsa kerak. Ikkinchi qurilish davrida paxsa devorga kvadrat g'ishtli devor qad ko'tarilgan (40x40x10x44x44x13 sm.) tashqi devorga 5 m uzoqlikda qo'shimcha paxsa devor qurilgan bo'lib, uning balandligi 0, 80-1, 20 m. Tashqi devorda esa oralig'i 1, 34-1, 35m. , kengligi 0, 20 sm. , balanligi 60 sm. , tashqi tomonda esa 1, 50 m. nayza o'qli shinaklar joylashganligi aniqlandi [4].

1991-yilda Qal'ajiqda Rossiya Fanlar akademiyasining Sank-Peterburg arxeologiya bo'limi xodimlari arxeolog V. Zavyalov rahbarligida arxeologik tadqiqotlar olib bordilar.

Tadqiqotlar asosan, qal'aning shimoliy devori va uning yon atroflarida olib borildi. Natijada mazkur shimoliy devor o'rtasida hokim saroyi bo'lgan ko'shk qoldiqlari topib o'rganildi [5].

Tarix fanlari doktori, arxeolog Qudrat Masharipov va o'lkashunos Xanifa Raximovalarning tadqiqotlariga ko'ra, "Qal'ajiq eng dastlabki paytda to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lgan va ikki qator mudofaa devoriga ega bo'gan. Har ikkala devor o'rtasida himoyachilar va o'qchilar yurish uchun kengligi 2, 80-3 m bo'gan dahliz-koridor mavjud bo'lgan. Koridorlarda odam ko'kragi balandligi hamda bir-biridan 1, 20 m masofada o'q uzish shinaklari bo'lib, Qal'ajiq Xorazmda kam uchraydigan uslubdagi, ya'ni burjlarsiz va faqat shinaklardan iborat qal'a turiga kiradi.

Umuman olganda, Qal'ajiqning devorlari Xorazmning boshqa qal'alarida bo'lgani kabi ikki qavatli bo'lgan bo'lishi mumkin, keyinchalik sharoitga qarab Qal'ajiqning shakli o'rgarib borgan [6].

2021-yilda yodgorlikda olib borilgan qazish ishlari shimoliy mudofaa devorida (qazishma №1, transheya №2) qal'aning sharqiy qismida (transheya №1) va g'arbiy qismida (shurf №1) olib borildi. Transheyalar va shurfdagi qazish ishlari jo'yali natijalarni bermadi.

Yodgorlikning keng qamrovli qazish ishlari asosan shimoliy devordagi 1-qazishmada amalga oshiriladi. Qazishma maydoni 95 kvadrat metrni tashkil qilib, antik davr mudofaa devorining tashqi devori, yo‘lagi hamda to‘siq devor qoldilari ochib o‘rganildi. Yo‘lak 3, 3 metr chuqurlikkacha ochilib pol sathigacha tushildi. Yo‘lak kengligi pastki qismida 2, 8 metr bo‘lib tepaga qarab kengayib boradi. Antik davrning ichki devori ustiga ilk o‘rta asrlarda paxsa devor qurilgan. Antik davr devorining balandligi 2, 5 m. uning ustiga qurilgan ilk o‘rta asrlarda paxsa devor bilan birgalikda saqlanib, balandligi 8-10 m. ga yetadi. Tashqi devorning asosi ham paxsadan tiklangan bo‘lib, qalinligi 2, 3 m. Shinaklar paxsa devorini kesib yasalgan bo‘lib, uning ustidan 44x44x12 sm. hajmdagi xom g‘ishtlar terilgan. Saqlanib qolgan balandligi 3-5 metrni tashkil qiladi, devorning og‘ish burchagi 83-85°. Shinaklar ichki tarafdan balandligi 65 sm, tashqi tarafdan balandligi 1, 2 m. , eni 35-36 sm. Shinaklar orasidagi masofa 1, 1-1, 2 m. , og‘ish burchagi 22° ni tashkil qiladi. Shinaklar shaxmat tartibiga o‘xshab joylashgan, lekin ularning balandligi o‘rtasidagi farq uncha katta emas. Shinaklarning ko‘rinishi o‘q uchi shakliga ega. Bunday tipdagi shinaklar Xorazmda antik davr qal‘alarining deyarli barchasida uchraydi.

Tashqi devorga parallel ravishda 3, 2 m. masofada to‘siq (barer) devor barpo etilgan. To‘siq devor paxsadan qum ustiga tiklangan bo‘lib, qalinligi 1 m. , saqlanib qolgan balandligi 1, 4 m. gacha yetadi. Bu devor antik davr devori bilan deyarli bir sathda bo‘lib, aftidan bu devor antik davr devori o‘z vazifasini bajarmay qo‘ygandan keyin qal‘aning ilk o‘rta asrlar devorlari bilan birga barpo etilgan. Xorazm vohasidagi aksariyat qal‘alarda to‘siq devorlar butun antik davr davomida qo‘llanilgan [2].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, asosan 1-qazishma hududidan bir qancha sopol buyumlar, temir o‘q uchi va yog‘och qoldiqlari aniqlandi. Sopol buyumlarning ishlash uslubi va xususiyatiga ko‘ra, antik davrning ilk va so‘nggi bosqichlariga tegishli bo‘lib, ular orasida xumlar, xumchalar va xurmachalar qoldiqlari ko‘plab kuzatiladi. Idishlar sifatli loydan tayyorlangan, pishirilishi tekis, tashqi sirti qizil angob bilan bo‘yalgan. Bunday tipdagi sopol buyumlar Xorazmning antik davr yodgorliklarida ko‘plab aniqlangan.

O‘z navbatida yodgorlik atrofi sinchiklab o‘rganilganda u yerdan o‘rta asrlarga oid sopol qoldiqlari ham aniqlangan. Ushbu ashyolar akademik Y. G‘. G‘ulomov ta’kidlaganidek, ilk o‘rta asr va rivojlangan o‘rta asrlarda ham uning atrofida qishloq aholi manzilgohlari joylashganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, yodgorlikda aniqlangan ma’lumotlar oldingi tadqiqotlarchilarning xulosalariga mos keladi.

Qal‘ajiq qal‘a taxminimizcha, mill. avv. V asr oxiri – IV asrda vujudga kelgan va XIII asrlargacha bu yerda hayot davom etgan. Demak, bu qal‘a Xorazmning miloddan avvalgi V – III asrlarda barpo etilgan qal‘alar tipdagi yaxshi mustahkamlangan istehkomlariga kiradi va strategik jihatdan Hazoraspdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.

Tadqiqot yakunida qazib ochilgan mudofaa devorining bir qismi tajriba ko‘rinishida ekspeditsiya a’zolari tomonidan an’anaviy usulda somon suvoq bilan ta’mirlandi va sayyohlar tomosha qilishi uchun ko‘rgazma sifatida tayyorlab qo‘yildi. Qal‘a mudofaa tizimining yaxshi saqlanganligi kelajakda yodgorlikni o‘rganish ahamiyatini yanada oshiradi, uni rekonstruksiya qilish hamda ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish orqali turizmning istiqbolli rejalarini amaliyotda qo‘llashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulomov Y. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Qadimgi zamonlardan hozirgacha. O‘zR FA nashriyoti T. : 1959
2. Xo‘janiyozov G. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent, 2007
3. Munis va Ogahiy. Firdavs-ul iqbol (Baxt-saodat jannati). (Mas‘ul muharrir va turkum muallifi Sh. Vohidov). Yangi asr avlodi. Toshkent, 2010

4. Мамбетуллаев М. Отчет об археолого-топографических изысканиях на территории Хоразмской области в 1974 году. Нукус, 1974. Маданий мерос департаменти архиви А 9355/М-22

5. Завялов В. А. Отчет о работах Багатской экспедиция ИИМК в крепости Қаладжик в мае июне 1991 г. Санк-Петербург, 1992. Маданий мерос департаменти архиви. А 9351/3-13

6. Masharipov K, Rahimova H. Qal'ajiq qal'a (uslubiy qo'llanma). (mas'ul muharrir O'. Abdullayev) UrDU noshirlik bo'limi. Urganch, 2016

*Atadjanova Dilnoza –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

ICHAN QAL'A MUZEY-QO'RIQXONASIDA YOG'UCH O'YMAKORLIGI NA'MUNALARINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi hududida joylashgan obidalaridagi yog'och o'ymakorligi na'munalarining o'ziga xosligi, yog'och turlarining tanlanishi va xivalik ustalar yog'ochga ishlov berish usullari masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Yog'och o'ymakorligi, Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi, eshik, darvoza, naqsh, yog'och.

Аннотация. В данной статье рассказывается об уникальности резьбы по дереву на памятниках, расположенных на территории музея-заповедника «Замок Ичан», выборе пород дерева и методах обработки дерева хивинскими мастерами.

Ключевые слова. Резьба по дереву, музей-заповедник Ичан-Кала, дверь, ворота, узор, дерево.

Abstract. This article describes the uniqueness of the wood carvings in the monuments located in the territory of the Ichan Castle Museum Reserve, the selection of wood types, and the methods of woodworking by Khiva craftsmen.

Keywords. Wood carving, Ichan Castle Museum-Reserve, door, gate, pattern, wood.

Ko'hna va navqiron Xiva shahri 2500 yillik tarixga ega bo'lib, o'zida xalqimiz o'tmishi va madaniyatiga daxldor boy merosni saqlab kelmoqda. Qadim o'tmishdanoq Xiva shahri Buyuk ipak yo'lida madaniyatlar kesishgan nuqta sifatida o'zida me'morchilik va san'at sohalarida boy madaniy me'rosini ham mujassam qilgan. Shu sabab ham Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi 1990-yil Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu yerda bugungi kunda ham me'morchilik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik va boshqa sohalar avlodan-avlodga, ustozdan shogirdlarga o'tgan holda saqlanib qolmoqda.

Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlariga chizilib, kesib, o'yib ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Shaqrdan antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O'rta Osiyoda ham yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy-ro'zg'or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo'llanilgan [1].

Xorazm yog'och o'ymakorligini Xiva shahrida saqlanib qolgan obidalar va buyumlar orqali o'rganishimiz mumkin. XIX asr boshlarida Xiva xonligi taxtiga Qo'ng'iro't sulolasi vakillari kelganlaridan keyin Xiva shahrining qayta qurish ishlari boshlanib ketdi va shaharda bir qancha yangi inshootlar barpo qilindi. Xiva xonlari va amaldorlari tomonidan qurilgan binolarni

Xorazmning yog'och o'ymakor ustalari chiroyli, ulug'vor o'ralar, bejirim darvoza, va eshiklar, panjaralari bilan bezaganlar.

Qasrlar, saroylar va hatto oddiy imoratlarda xorazmcha ayvonlarning rusmligi, ularning albatta baland o'ralar bilan bostirilganligi yog'och o'ymakorligining san'ati va mahoratini belgilovchi omilga aylangan. Shu tariqa bir-biridan chiroyli, nafis naqshlar bilan bezatilgan ustunlar paydo bo'ladi. Bu ustunlarni tomosha qilgan rus elchilari ularni "betakror", serjilo naqshlari bilan. . . hunarmandchilikning yuqori pog'onasi deb ta'riflashgan [2].

XIX asr xivalik tarixchi Xudoybergan ibn Qo'shmuhammadning yozishicha, "Xiva bir necha marta vayron qilingan va qayta tiklangan. Shaharni ayniqsa Muhammad Rahimxon va uning ukasi Qutlimurod inoq obod qilgan. Ularning sa'y-harakati bilan, xususan, katta madrasa binosi barpo etildi. . . Olloqulixon buyrug'i bilan karvonsaroy, yopiq bozor, katta madrasa qurildi" [3].

Xivalik naqqoshlar, koshinkorlar saroy, madrasa va maqbaralarni yuksak did bilan tosh, ganch, yog'och o'ymakorligidan foydalanib bezaganlar. Shahar minoralari (Islom Hoji, Juma masjid minoralari, Kaltaminor, Polvon qori, masjid va madrasalar minoralari) ham koshin, ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi bilan jozibador bezatilgan [4].

Xiva yog'och o'ymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Boqbekovlarning ijodiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Bu maktab o'ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi alohida ahamiyat kasb etadi [5].

Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablar ishlaridan naqshlarining maydaligi, islamiy va girxlarning ko'p ishlatilishi, narshsiz zaminning kam qoldirilishi, o'ynoqligi bilan farq qiladi. Xiva yog'och o'ymakorligi ustalari asosan gujum (qayrag'ochlar oilasiga mansub temit daraxt, faqat Xorazm vohasida o'sadi), terak yog'ochlarini ko'proq ishlatganlar. Yirik, tik o'sgan qurigan yog'ochni oldin ma'lum bir muddat (3-6 oy) suvga solib qo'yib, keyin xashak tagida soya joyda quritganlar, keyinchalik tabiiyligini saqlash uchun sigir yog', oq yog' (oqlanmagan paxta yog'i) berilgan, shundan keyin unga naqsh o'yilgan. Xiva naqshining go'zalligi, naqshlari turli chuqurlikda o'yilishi orqali katta aniqlikka erishilgan. Ustalar yog'ochning tabiiy ko'rinishini saqlashga harakat qilib, yangi o'yma yuzasini silliqlash, bo'yash ishlarini qo'llamaganlar [6].

Xiva shahar yodgorliklaridagi o'yma naqshli eshik, darvoza, o'ra (ustun) va o'ra tosh (ustun tagi) lardagi naqshlarni tahlil qilib qaralsa, ularning naqshlaridan qaysi yuz yillikka mansub ekanligini bilish mumkin. Chunki bu o'yma naqshlar bir-birida ishlangan yili va ustaning nomi, Qur'on oyatlari va hadislar hamda allomalarning ibratli so'zlari bitilgan [6].

Xorazmlik duradgor ustalarining ham yog'och o'ymakorligida qo'llash uchun maxsus daraxtlari mavjud bo'lgan. "Yog'och turlari ular olinadigan daraxtlarga qarab farqlanadi. Har bir daraxtning yog'ochi bir-biriga nisbatan qattiq-yumshoqligi, og'ir-yengilligi, zichligi, turli ta'sirlarga chidamliligi, ishlov berishga qulayligi, ko'rinishi, rangi va boshqa belgilar bilan farqlanadi. Yog'och olinadigan daraxtlar igna bargli va yaproqli (bargli) turlarga ajratiladi. Igna bargli daraxtlarga qarag'ay, tilog'och, archa, kedr kiradi. Bu daraxtlarning har biri o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi [7]. Xivalik ustalar yog'och tanlashda hudud tabiatida uchrashi mumkin bo'lgan daraxt turlarining mustahkam va chidamli navlaridan foydalanishgan.

Bundan tashqari xivalik ustalar eshik va darvozalarni naqsh bilan bezashda Qur'on oyatlari hamda sur'alaridan ham foydalanishgan. Ota Darvoza, 1975-yilda qayta tiklangan. 1849-1850-yillarda ushbu darvozaning yog'och tabaqalari ishlangan bo'lib, u qayta tiklangan paytida yana qaytadan o'z o'rniga qo'yilgan. Darvozaning o'ng tabaqasiga to'rtburchak ichiga Qur'ondagi "Ixlos" surasi (nasx) va pastgi qismiga esa forsiy tilda (suls) matov so'zlari bitilgan [8].

Ko'pchilik hollarda o'ymakor ustalar naqsh ulgisini naqqoshlardan olishgan, shuning uchun ular naqqoshlar bilan hamkor bo'lib ishlaganlar. Lekin ayrim hollarda ustaning o'zi ham naqqosh, ham hattot va o'ymakor bo'lgan [6].

Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi o'zining an'analari va ishlov berish usullari bilan boshqa yog'och o'ymakorligi maktablaridan ajralib turadi. Xivalik ustalar bir turdagi naqshni

takrorlamasdan, har bir predmet uchun alohida naqshlardan foydalanadilar va bu holatni eshiklar hamda ustunlar misolida ko'rish mumkin.

Xiva Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasida joylashgan inshootlardagi yog'och o'ymakorligi na'munalari o'zlarining naqshlari, ishlov berish usullari bilan boshqa hudud na'munalaridan farq qiladi. Shu bilan birga xivalik ustalar yog'ochning chidamliligi va tashqi ta'sirlarga bardoshlilikini sinash uchun uni maxsus sinovlardan o'tkazishgan. Faqat yemirilishga bardoshli yog'ochgina ishlov berish jarayoniga o'tkazilgan. Xiva me'morchiligida o'ymakorlikning yana bir o'ziga xosligi yog'ochning bo'yoqlarsiz pardozlanishida bo'lib, unga faqat maxsus yog'lar bilan ishlov berilishi orqali yog'och tabiiyligini uzoq muddatga saqlashga muvaffaq bo'lishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т. : «Меҳнат», 1991. –В. 226.
2. Абдурашулов А. Хива. –Т. : «Ўзбекистон», 1997. –Б. 71.
3. Ртвеладзе Э. В. и другие. Хорезм в истории государственности Узбекистана. –Т. : «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2013. – Б. 207.
4. Vaxitov M. , Mirzayev Sh. Me'morchilik. I qism. –Т. : “Tafakkur”, 2010. –В. 228.
5. Tuxsavova V. Amaliy san'at turlari. –Buxoro, 2022. –23.
6. Бобожонов Д. , Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. –Хива, 2010. –Б. 19-20.
7. Abdullayev M. , Erimbetova Sh. , Ismailova X. Xorazm yog'och o'ymakorligi // Synergy: journal of ethics and governance. Vol. 03. 2023. –В. 20
8. Zargarova N. Xiva me'moriy yodgorliklaridagi xattotlik namunalari. –Хива, 2022. –В. 36.

*Iskandarova Zulfiya –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTIQLOLINING DASTLABKI YILLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI QURILISHINING FALSAFIY ASOSLARI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Respublikamiz Mustaqilligi yillarida jamiyat qurilishi, bu yo'lda fuqarolik jamiyati g'oyalari qaror toptirila borishining falsafiy masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Islohot, fuqarolik jamiyati, strategiya, mustaqillik, bozor iqtisodiyoti, taraqqiyot yo'li, huquqiy davlat.

Аннотация. В данной статье освещаются философские вопросы построения общества в годы независимости нашей Республики и развития идей гражданского общества на этом пути.

Ключевые слова. Реформа, гражданское общество, стратегия, независимость, рыночная экономика, путь развития, правовое государство.

Abstract. In this article, the philosophical issues of the construction of society during the years of independence of our Republic, and the development of the ideas of civil society in this way are covered.

Keywords. Reform, civil society, strategy, independence, market economy, development path, legal state.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining qo'lga kiritilishi natijasida mamlakatda fuqarolar erkinligini va huquqlarini ta'minlovchi fuqarolik jamiyatini qaror toptirish sari dadil qadamlar tashlandi. Bunda avvalo, ajdodlarimizdan meros qolgan jamiyat boshqaruviga oid qarashlar va shu bilan birga, jahon tajribasi, rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlar tomonidan tanlangan fuqarolik jamiyati qurish yo'nalishlari o'rganildi.

Bu masalada birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday fikrlarni bildirib o'tganlar: "Biz islohotlarni chuqurlashtirish, demokratik tub o'zgarishlar yo'lidan olg'a siljish, hayotimizda asl demokratik qadriyatlar qaror topayotgani to'g'risida gapirganda, avvalo, fuqarolik jamiyati asoslariga o'tish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish muassasalarini butun choralar bilan kengaytirishni nazarda tutamiz. Bu barcha islohotlarimizning asosiy mohiyati va bosh mantiqidir" [1].

O'zbekiston Markaziy Osiyoda yetakchi davlat maqomiga davogar deyish mumkin. Chunki, aynan yurtimiz mintaqadagi barcha davlatlar bilan chegaradosh hisoblanadi. Shu fenomen respublikamiz hamda xalqimiz tanlagan yo'l qo'shni xalqlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Mintaqaning bo'lajak taqdiri ko'p jihatdan O'zbekistonga bog'liq. O'zbekiston xalqi qaysi yo'lni tanlasa, qo'shnilar ham shu yo'ldan ketishi ehtimoli bor [2]. Shu sabab Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston qaysi yo'lni tanlashi mintaqaning ham siyosiy qiyofasini belgilab berishi mumkin edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi [3].

Fuqarolik jamiyati asoslari yaratilmasdan turib, sof demokratik shakldagi boshqaruvni joriy qilishning imkoni yo'q. Rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish uchun, avvalo, bozor munosabatlari uzil-kesil qaror topishi, o'tish davri yakunlanishi kerak. Muvofiq ravishda iqtisodiyotda tizimiy qayta qurishni, texnik va texnologik modernizatsiyani amalga oshirish, demokratiyalashtirish jarayonlarini tegishli darajaga yetkazish va fuqarolik jamiyatini barpo etish, kishilarning turmush darajasini yuksaltirish lozim. Umuman olganda, bu hal etilishi mumkin, lekin muayyan vaqt va katta mas'uliyatni talab etadigan vazifadir [4].

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shu vazifani nazarda tutib, aytganidek: "Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir" [5].

Milliy mustaqillikni mustahkamlashning birdan-bir yo'li sifatida kuchli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadi ko'ndalang masala sifatida ko'rildi. Milliy mustaqillikni mustahkamlash yo'lida to'siq bo'ladigan har qanday g'oyalarga qarshi muvaffaqiyatli kurash uchun milliy mafkurani takomillashtirish, uning falsafiy ildizlarini mustahkamlash, ta'sirchanligini tobora oshirib borish, yosh avlodni o'z vatanini qadrlash, milliy ongini rivojlantirishga imkon tug'dirib, ularning yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishidan saqlash muhim bo'lib turibdi [6]. Shu sababdan ham Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq fuqarolik jamiyatini qaror toptirish va uni mustahkamlash uchun g'oyaviy bo'shliqqa qarshi kurashildi.

Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat aholisi, har bir kishi tafakkurini chuqur o'zgartirishni, ularning ma'naviy, jumladan huquqiy madaniyati darajasini yuksak saviyada bo'lishini ta'minlashni o'ta jiddiy hayotiy zaruratga aylantirmoqda [7].

Aholining siyosiy-huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan targ'ibotni samarali tashkil etishda ta'lim muassasalari, davlat organlari va ularning huquq-targ'ibot bo'linmalari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari ham muhim rol o'ynaydi [8]. Shu bilan birga iqtisodiy munosabatlarda ham kapital erkinligini ta'minlovchi bozor iqtisodiyotiga o'tish ham kun tartibiga qo'yildi.

Bozor iqtisodiyoti sari buyuk sakrashlar, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchilik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi, hal qilishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir [9]. Shu sababdan erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, qonun ustuvorligi, davlat roli masalalari Birinchi Prezidentimiz tomonidan "O'zbek modeli" da ochib berilgan edi.

O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi [10].

Prezident I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o'zbek modeli konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o'rin tutadi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgan va zamon talabidan kelib chiqib tanlangan ma'qul yo'l ekanligini bir necha bor isbotladi.

Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda 2010-yil 12-noyabrda o'tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida I. A. Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan va taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mamlakatda yangi jamiyat qurishning strategik dasturi bo'lib xizmat qildi. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur konsepsiya yangi jamiyat qurishga doir qator huquqiy asoslar, qonunlarni qabul qilish g'oyasini ilgari surdi [11].

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qoida va xulosalari asosiy strategik maqsadga erishishga — bozor iqtisodiyoti barqaror rivojlanib borayotgan, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, balki amalda oliy qadriyat hisoblanuvchi kuchli fuqarolik jamiyatiga ega bo'lgan ochiq demokratik huquqiy davlatni barpo etishga, O'zbekiston dunyoning rivojlangan demokratik davlatlari safidan o'rin olishiga qaratilgan. Konsepsiya mamlakatning siyosiy tizimini yanada modernizatsiya qilish jarayonida dasturiy hujjat, O'zbekistonni isloh qilish va demokratlashtirishda yangi bosqich bo'ldi [12].

Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin [13].

Yurtimiz siyosiy taraqqiyoti, uning konseptual ta'minoti mustahkam bo'lganligi tufayli izchil ravishda ro'y bermoqda. Xalqaro globallashuvning turli salbiy ta'sirlariga nisbatan jamiyatimizning barqaror immuniteti kafolatli ravishda ta'minlanib bormoqda. G'oyaviy jihatdan mustahkam, to'g'ri strategik reja asosida 2016-yildan keyingi davrda Yangi O'zbekiston fuqarolik jamiyatini yaratish sari ildam qadamlar tashlamoqda.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan "Harakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiya" larining ishlab chiqilishi, hayotga keng tadbiiq qilinishi mustaqillik yillarida mamlakatimizda boshlangan fuqarolik jamiyati va demokratik davlat qurilishi ishlarining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ldi.

Iqtisodiyoti rejali asosdagi sovet tuzumi parchalangan bir davrda Respublikamiz oldida jahon standartlariga javob bera oluvchi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirgan davlat qurish orqaligina Mustaqillikning dastlabki yillarida vujudga kelgan inqirozli holatni bartaraf qilish mumkin edi. Shu sababdan bozor munosabatlari erkinlashtirildi, xususiyy mulkchilik munosabatlari tartibga solindi hamda buning ta'sirida aholining iqtisodiy faolligi oshirilishiga erishildi. Bunda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashibgina qolmasdan, fuqarolarning demokratik va huquqiy onggi mustahkamlanib borilishi natijasida fuqarolik jamiyati g'oyalari qaror toptirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. —Тошкент: «Ўзбекистон», 1996. —Б. 183-184.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий Истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. —Тошкент: «Ўзбекистон», 1996. —Б. 5-6.
3. Жалилов А. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма. —Т. , 2015. —Б. 155.
4. Ahmedova M. Falsafa. —Т. , 2006. —В. 474-475.
5. Karimov I. A. . Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. —Т. : "O'zbekiston", 1996. —В. 11.
6. Каримов И. , Рустамова М. Фалсафа фани тарихи ва назарияси. —Т. , 2007. —Б. 208.
7. Yusupov E. Falsafa. —Т. : "O'qituvchi", 2005. —В. 290.

8. Жалилов А. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма. –Т. , 2015. –Б. 154.
9. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. –Т. : «Ўзбекистон», 1992. –Б. 41.
10. Назаров Қ. ва бошқалар. Фалсафа. –Т. , 2000. –Б. 242
11. O‘tamuradov A. , Qirg‘izboyev M. , Xojiyev T. N. Fuqarolik jamiyati. –Т. : “Mumtoz so‘z”, –Б. 162.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 03. 12. 2010 yildagi 116-II-son. <https://lex.uz/docs/-2947919>
13. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1996. –Б. 39.

Akobirov Mirjalol Himmatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari KMTM
Gumanitar va ijtimoiy fanlar o‘qituvchisi

SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI VA XALIFA AN-NOSIR.

Maqolaning qisqacha mazmuni: Ushbu maqolada sulton Jaloliddin Manguberdi harbiy harakatlarining bir bo‘g‘ini hisoblangan diplomatiyasiga, jumladan, Arab xalifaligini boshqarayotgan Abbosiylar sulolasi vakillari bilan olib borgan diplomatik aloqalari bayoni keltiriladi.

Kalit so‘zlar: xalifa an-Nosir, Ziyо Buniyodov, al-Malik al-Muazzam, Qo‘shtemur, al-Malik, al-Ashraf, “As-sulton ul-a’zam Jalol ad-dunyo va-d-din”

Аннотация: В статье описывается дипломатия Джелал ад-дина Менгбурну, которая является частью его военных действий, в том числе его дипломатические отношения с представителями династии Аббасидов, правившей Арабским халифатом.

Ключевые слова: Халиф ан-Насир, Зия Буниядов, аль-Малик аль-Муаззам, Куштимур, аль-Малик аль-Ашраф, «Ас-султан уль-азам Джалал ад-дунио ва-д-дин»

Abstract: This article describes the diplomacy of culton Jaloliddin Manguberdi, which is a part of his military actions, including his diplomatic relations with the representatives of the Abbasid dynasty that ruled the Arab Caliphate.

Key words: Caliph An-Nasir, Ziya Buniyadov, al-Malik al-Muazzam, Koshtemur, al-Malik al-Ashraf, “As-sultan ul-a'zam Jalal ad-dunyo wa-d-din”

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazmshoh Anushteginiylar Alouddin Takash davridan boshlab xalqaro munosabatlarni to‘laqonli sub’ektiga aylandi. Ammo bu jarayon murakkab kechgan. Bu jarayon ayniqsa sulolaning oxirgi vakili Jaloliddin Manguberdi hukmronligi davrida anchgina murakkablashdi. Biz tarixda Sulton Jaloliddinni mo‘g‘ullar zulmiga qarshi kurashgan qahramon sifatida bilamiz. Yana shuni ham alohida e‘tiborga olishimiz kerakki, u Eron, Ozorbayjon, Gruziya hududlarini qo‘l ostida birlashtirib, xalifalik hamda Misr va Ko‘niya sultonlari bilan ittifoq tuzgan holda qachonlardir sulolasi tomonidan boshqarilgan hududlardan mo‘g‘ullarni haydab chiqarishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edi. Ittifoqni shakllantirish uchun esa mohirlik bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirish lozimligini u yaxshi anglar edi. Sulton Jaloliddin maqsadiga erishish uchun olib borgan diplomatik munosabatlarni yoritishda Jaloliddin aloqalar o‘rnatgan davlatlar ichida Arab xalifaligi bilan munosabatlari beqaror bo‘lgan bo‘lsada bu masalaga aloxida to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Xorazmshohlar – anushteginiylar davlatining va bu sulola so‘nggi vakili Jaloliddin Manguberding xalifalik bilan munosabatlari nihoyatda murakkab bo‘lgan. SHu jihatdan olganda

yozma manbalarda jumladan, an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin va Juzjoniy kabi asosiy manbalarda bu masalada bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lib, ular ham alohida mavzu sifatida tahlil qilinmagan. SHu jihatdan olganda, eng avvalo, mazkur manbalarni chuqur ilmiy tahlil qilish zarur.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan alohida ilmiy tadqiqotlar deyarli yo'q. Zamonaviy tadqiqotchilarning ko'pchiligi xorazmshohlar mavzusi bilan bog'liq voqea va jarayonlarda eslatilgan ularning xalifalik bilan munosabatlari haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tish bilan cheklanadilar xolos. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha yuqoridagi yozma manbalar eng asosiy manbalar hamda xorazmshoh – anushteginiylar tarixi, jumladan, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqida ko'proq to'xtalib o'tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari Z. Buniyodov, Oydin Tonariy va S. Saburovalar tadqiqotlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Sulton Jaloliddinning Afg'oniston va Hindistonda olib borgan faoliyatlari davomida samarali aloqalarni kuzatmaymiz. Ammo Eronni egallaganidan keyin mo'g'ul bosqinchilariga qarshi turishdek katta ishonch sultonni xalifalik bilan munosabatlarni yaxshilashga undadi. Biroq shu o'rinda xalifa an Nosirni diplomatik noshud ekanligi namoyon bo'ladi. Albatta biz ma'lumotlarni keltirishda dastlab birlamchi manbalar va tadqiqot natijalariga tayanamiz, ammo manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni har doim ham to'g'ri deb qabul qilishga shoshilmasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi har qanday manba o'sha davr siyosiy muhiti bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Masalan Sulton Jaloliddin bilan xalifa an Nosir o'rtasidagi munosabatlarda xalifani faoliyatini ijobiy baholamadik. CHunki Juvayniyning keltirishicha Sulton Jaloliddinni Shoburxosdan Bag'dodga tomon yo'lga chiqqanida sultonning dushmanga (mo'g'ullarga) qarshi kuchlarni birlashtirish taklifi bilan yuborgan maktubiga xalifa quloq osmadi va kelishish o'rniga amir Qo'shtemur boshchiligidagi yigirma ming kishilik qo'shinni sultonga qarshi yubordi. Muarrir bunga sabab qilib, xalifa avvallari sulton Jaloliddinning otasi va bobosining o'ziga nisbatan qilgan qilgan ishlarini haliyam unutmaganligini ko'rsatadi [1]. Qaysidir ma'noda bu to'g'ri. CHunki xorazmshoh Takash 1200-yilda Bag'dod ustiga yurish qilgan edi [2]. Ammo mo'g'ul bosqinchilaridek katta xavfning yaqinlashib kelayotganligini hisobga olsak, bu vaziyat xalifaning Jaloliddinning otasi va bobosini qilgan ishlarini eslab, araz urub, tor doirada fikralashni taqazo qilmasdi. Baholanki bu vaqtga kelib xalifa bilan doimiy nizoda bo'lgan sulton Muhammad Xorazmshoh ham, uning davlati ham yo'q edi.

Tarixchi olim Ziyoy Buniyodovning ma'lumotlariga qaraganda Jaloliddinning xalifadan qasos olishdek maxfiy niyati ham bo'lgan. Hatto Ayubiylardan al Malik al Muazzamga maktub yo'llab, uni xalifa an Nosirga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rishini so'ragan [3]. Bundan ko'rinadiki go'yoki ikki o'rtadagi munosabatlarni chigallashtirishda sulton aybdordek. Ammo al Muazzamga ushbu maktub xalifaning sultonning yordam so'rab yozgan maktubini javobsiz qoldirgani va unga qarshi Qo'shtemurni qurollantiganidan keyin [3]. yozilganini hisobga olsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning ustiga agarda, sulton Jaloliddinning Bag'dodni egallab xalifani taxtdan ag'darish niyati bo'lganida Qo'shtemurni mag'lubiyatga uchratib, Bag'dod atrofida o'n ikki kun turgan vaqtida askarlariga Bag'dodga hujum qilishiga ruxsat bergan bo'lar edi.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Jaloliddinning shaxsiy kotibi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning ma'lumot berishicha, sulton Jaloliddin Hindistondan eronga kelganidan keyingi dastlabki yozishmalarida xalifa an Nosirga "Sizning itoatgo'y sodiq xizmatkoringiz sulton Sanjarning o'g'li Manguberdi" deb murojat qiladi. Xalifa esa maktublarida "Muxtaram janob xoqon" deb murojat qilardi. Bu esa sultonga yoqmasdi va o'zini sulton deb atashini talab qilardi [4]. Oliy devondagilar esa bu taklifni qabul qilmaydilar. Sababi yuqorida ta'kidlaganimizdek xalifa an Nosir Jaloliddinni xuddi otasi kabi o'zi uchun katta xavf deb bilar edi. Sulton Jaloliddin o'zi zarb ettirgan tangalarda "As-sulton ul-a'zam Jalol ad-dunyo va-d-din" degan so'zlarni yozdirgan. Xalifa unga sultonlik unvonini bermaganligi uchun sulton ham uning nomini zarb ettirgan tangalariga yozdirmagan [2]. Xalifa an Nosir shu darajagacha yetdiki, hatto

o'zi yoqtirmagan Jazira hukmdori al Malik al Ashrafga Jaloliddinga qarshi ittifoqdosh sifatida murojat qiladi [3]. SHuning uchun ham al Malik al Ashraf Jaloliddin bilan dastlabki vaqtlarda diplomatik aloqalar o'rnatishga shoshilmagan. CHunki unga akasi al Muazzamga qarshi turish uchun xalifa an Nosir va katta akasi Misr hukmdori al Malik al Komildek ittifoqdoshlar bor edi.

Biz yuqorida sulton bilan xalifa an Nosir o'rtasidagi munosabatlarni ziddiyatli tus olganini ko'rib chiqdik. Biroq keyingi xalifalar davridagi munosabatlarni biroz iliqlashganini ko'ramiz. Masalan, xalifa an Nosirdan keyin xalifalik taxtiga kelgan xalifa Imom az-Zohir Bi'amrullohning elchilari Najmiddin ar-Roziy va Rukniddin ibn Attorlar sulton huzuriga 1225-yilda tashrif buyuradilar. Sulton ham xalifaning elchilariga qo'shib o'z elchisi Mujiriddindan sovg'a sifatida o'zining bir xil'atini xalifaga yuboradi. Ammo elchi yo'ldaligida xalifaning vafot etganini eshitadi. Biroq elchi xalifalikdagi siyosiy vaziyatni o'rganish uchun ham Bag'dodga boradi [2]. Xalifa Imom az-Zohir Bi'amrullohning sulton bilan munosabatlarini iliqlashishini bir qancha omillar bilan izohlash mumkin. **Birinchidan:** Xalifa Bi'amrilloh mo'g'ullardan keladigan xavfni to'g'ri baholay olgan. **Ikkinchidan:** Butun musulmon olamining markazi bo'lmish xalifalik taxtini egallash naqadar katta ma'sulyatli vazifa ekanini hisobga olsak, taxtga o'tirgan Bi'amrillohning ham butun musulmon olamida, ham notinchlik hukm surayotgan xalqaro munosabatlarda ishonsa va kerak bo'lsa suyansa bo'ladigan ittifoqdosh siyosini Jaloliddinda ko'rganligi ehtimoldan xoli emas.

Tarixchi olim Ziyo Buniyodovning ma'lumotlariga qaraganda xalifa Imom az-Zohir Bi'amrulloh ham o'tmishdoshi an Nosir singari sultonga katta xavf sifatida qaragan. Masalan, tadqiqotchining ma'lumot berishicha sulton Jaloliddin Manguberding ukasi G'iyosiddin Pirshoh 1227-yil 5-sentyabrda Isfaxon yaqinida mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda akasiga pand berib, odamlari bilan jang maydonini tashlab qochganidan keyin, u akasidan qochib avval Xuzistonga boradi va o'sha yerda xalifa Imom az-Zohir Bi'amrullohga (1225-1226) elchi jo'natib undan yordam so'raganida xalifa Bi'amrilloh G'iyosiddin Pirshohga 50 ming dinor pul bilan yordam qilganligini ta'kidlaydi [3]. Vaziyatning qiziq jihati shundaki, tadqiqotchi olimni keltirishicha G'iyosiddin Pirshohning akasiga xiyonati 1227-yilgi Isfaxon jangida yuz beradi. Bu to'g'ri. Sababi ushbu jang sanasini Rashididdin va Juvayniylar ham 1227-yil deb ko'rsatadi. SHihobiddin Muhammad an Nasaviy esa bu jangni hijriy 625-yil, ya'ni milodiy 1228-yil bo'lganini va shu bilan birgalikda G'iyosiddin Pirshoh elchisini Xalifa devoniga jo'natganligini hamda xalifa unga 30 ming dinor berganligini ta'kidlaydi [5]. Ammo gap G'iyosiddinga xalifani qancha pul berganida emas, balki, G'iyosiddinni aynan qaysi xalifa huzuriga elchisini yuborganligi haqida ketayapti. Biroq muallif G'iyosiddinni aynan qaysi xalifa huzuriga elchi jo'natganini aytmagan. Ziyo Buniyodov esa elchini aynan xalifa Imom az-Zohir Bi'amrulloh huzuriga kelganini, shuningdek yuqorida ta'kidlaganimizdek bu xalifani sultonga bo'lgan munosabati xuddi an Nosirniki singari bo'lgani uchun G'iyosiddinga yordam berganini ta'kidlaydi. Biroq xalifa Bi'amrilloh 1225-1226-yillarda hukmronlik qilgan bo'lsa, muallif aytganidek jang 1227-yil 5-sentyabrda bo'lgan bo'lsa, qanday qilib xalifa Imom az-Zohir Bi'amrulloh huzuriga borishi mumkin? O'ylashimizcha xalifa Bi'amrilloh bilan sulton o'rtasida munosabatlarda faqat iliq munosabatlar uchun harakatlar bo'lgan.

Xalifa Imom az-Zohir Bi'amrullohdan keyin xalifalik taxtiga o'tirgan xalifa Mustansir davrida ham munosabatlarda iliqlikni kuzatamiz. Masalan, Sadaddan ibn al-Hasan al-Hojib Oliy devondan elchi bo'lib keladi. Elchining keltirgan maktubida xalifa sultonni "Muhtaram janob shahanshoh" deb e'tirof etadi. Sulton ham javob maktubida xalifaga "Sizning qulingiz" deb murojat qiladi. Maktub orqali xalifa sultondan bir qancha o'zining tarafdorlari va xizmatida bo'lgan hukmdorlardan sulton o'ziga bo'ysunishini talab qilmasligini so'ragandi. Sulton bunga rozilik beradi va barcha qo'l ostidagi mulklarda Amir al Mo'minin imom Abu Jafar al Mansur al Mustansir billoh nomini xutbaga qo'shib o'qish to'g'risidagi farmoyish beradi [5]. Sultonni xalifani elchilariga qo'shib yuborgan elchilariga xalifa ham boshqa hukmdorlarning elchilariga nisbatan ko'proq hurmat ko'rsatadi. Ammo xalifaning sultonga yuborgan faxriy kiyim boshlarini Jaloliddin qabul qilmaydi. CHunki xalifa Bi'amrilloh vafotidan keyin, xalifa Mustansirni munosabatini o'ziga nisbatan qanday bo'lishini bilish kerak edi. Biroq voqealar rivoji shuni

ko'rsatadiki xalifa Mustansir davrida xalifa an Nosir davriga nisbatan munosabatlar iliqlashadi. Buning sababini sulton o'zining harbiy harakatlarini Kavkaz davlatlari va Kichik Osiyoning sharqiy tomonlariga qaratganligi bilan izohlash mumkin. Hilot qamali vaqtida xalifa Mustansir sultondan qamalni to'xtatishni iltimos qiladi [1]. Buning sababi shunda ediki, Hilot ayubiy al Malik al Ashrafning tayanch bazasi hisoblangan, o'z navbatida al Malik al Ashrafning xalifalik bilan avvaldan tuzgan ittifoqlik shartnimasini bizga ma'lum. Xalifa bu ittifoqni unutmagan edi.

1227-yilda sulton huzuriga Mag'rib (Sudan)dan al Mahdiyalar elchisi keladi [5]. Elchilik munosabatlaridan asosiy ko'zlangan maqsadni anglash uchun al Mahdiyalar va Abbosiylar o'rtasidagi siyosiy va diniy muammolarni tahlil qilish yetarlicha bo'ladi deb o'ylaymiz. Ular o'rtasidagi muammo shunda ediki, Abbosiylar al Mahdiyalar ham siyosiy jihatdan, ham diniy jihatdan tan olishmasdi⁴. Yana shuni ham aytish joizki, Abbosiylarni sulton bilan munosabatlarini yaxshilanib borayotgani al Mahdiyalar bezovta qilgan bo'lishi mumkin. Har qanday holatda sulton elchini iliq kutib oladi va hatto unga Ozarbayjonning Mayanij shahrida saf tortgan qo'shinini ko'rikdan o'tkazib unga baho berishga ruxsat beradi. Elchi ularni ko'rib haqiqiy jangchi ekanini ta'kidlaydi [5]. Ehtimol shundan keyin u sulton bilan munosabatlarni yanada mustahkamlashdek qarorini yanada qat'iyalashtirgan bo'lsa ajab emas. Biroq sultonning al Mahdiyalar bilan munosabati Abbosiylarga ma'qul kelmagan. Buni al Mahdiyalar elchisini ortga qaytayotganda Mosulda qo'lga olinib Bag'dodga yuborilgani, shundan keyin elchining taqdiri nomalum bo'lib qolganligi isbotlaydi.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, xalifalik bilan sulton Jaloliddin o'rtasidagi munosabatlar doimiy ravishda barqaror bo'lmagan. Ayrim mualliflar xorazmshohlarni ikki o'rtadagi muommoni faqat saljuqiylarning merosxo'ri bo'lib qolgan va xuddi ulardek (saljuqiylardek) xalifalikni o'zlarining ta'sir doirasida tutib turishga haqli hisoblab intilishida deb ta'kidlashadi. Biroq yuqorida ta'kidlaganimizdek sulton Jaloliddin davrida vaziyat tubdan o'zgargan edi. Keyinchalik xalifalik bilan sulton Jaloliddin o'rtasidagi munosabatlar har qancha yaxshilangandek ko'rinsada, biroq sulton Jaloliddin umrining so'ngi daqiqalarida ham mo'g'ullarga qarshi kurashda xalifalikdan hech qanday yordam ololmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xalifalikni nafaqat xorazmshohlar bilan, balki boshqa yirik musulmon davlatlari bilan ham aloqalari aydarli darajada yaxshi bo'lmagan. Masalan Ayubiylardan Al Malik al-Ashraf va xalifa an Nosir o'rtasidagi aloqalar 1225-yildan keyin, ya'ni sulton Jaloliddinning Yaqin SHarq mintaqasi atrofida paydo bo'lishi munosabati bilan yaxshilanadi. Alamutdagi Ismoililar bilan ham xalifalikning aloqalarini yaxshi bo'lgan deb bo'lmaydi. Chunki Ismoililar xorazmshohlar va xalifalikning kuchsizlanishidan foydalanib, ularga tegishli bo'lgan ko'pgina hududlarni bosib olishni mo'ljallagan edi. Ko'niya sultonligi bilan xalifalik o'rtasidagi diplomatik aloqalarni sezilarli darajada rivojlanganligini manbalarda uchratmaymiz. 1227-yilda Mag'ribdan al Mahdiyalar tomonidan kelgan elchiga sultonning iliq munosabati Abbosiylar xalifasiga ma'qul kelmagani xalifalikni Mahdiyalar bilan ham munosabatlarida ziddiyatlar borligini ko'rsatishini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Bu holat keyinchalik mo'gullar bosqini davrida xalifalik uchun ham qimmatga tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Ўзгурк. Т. : Мумтоз сўз, 2015. –Б. 382
2. Собурова С. Ануштагин-Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097-1231 йй.). – Т. : 2008. –Б. 72
3. Зиё Буниёдов Ануштеги Хоразмшоҳлар давлати/ Таржима ва сўз боши муаллифи А. Аҳмад ва М. Маҳмуд. Т. : Адабиёт ва санъат, 1998-Б. 207

⁴ Изох: Ал Махдийлар ўзларини “Амир ал-Мўминин”-мусулмонларнинг энг ишончли, тўғри йўлдан борган халифаси деб аташарди.

4. Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалолоддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёқубов Камол. Т. : ФАН, 2018–Б. 351
5. Насавий Шаҳобиддин Муҳаммад. Ўша асар. –Б. 188

Karimov Sarvarbek Otabayevich
O'qituvchi, mustaqil izlanuvchi
Ma'mun nodavlat ta'lim muassasasi,
Xiva, O'zbekiston
sarvarkarimov788@gmail.com

O'ZBEKISTON HUDUDIDA AHOLI TURAR JOYLARIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annatsiya: Maqolada O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlarida tosh davrida etnik munosabatlar va xo'jalik yuritish uslublarining rivojlanib borishi tarixi yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'rta Zarafshon, Janubiy Orolbo'yi, Sariqamish, Shaxpaxta, Gujayli, O'zboy, Daryosoy, Mohandaryo, Markaziy Farg'ona, Oqchadaryo.

Аннотация: В статье описывается история развития этнических отношений и хозяйственных укладов в культурно-экономических регионах Узбекистана в эпоху каменного века.

Ключевые слова: Средний Зарафшан, Южный Аролбой, Сарыкамыш, Шахпакхта, Гуджайли, Узбой, Дариосой, Мохандарья, Центральная Фергана, Акчадарья.

Annotation: The article describes the history of the development of ethnic relations and economic methods in the cultural and economic regions of Uzbekistan during the Stone Age.

Key words: Middle Zarafshan, Southern Arolboyi, Sarikamish, Shakhpakhta, Gujayli, Uzboy, Daryosoy, Mohandaryo, Central Fergana, Akchadaryo.

O'rta Osiyo mintaqasining tarixiy-madaniy viloyatlarida neolit davri urug' jamoalari turar-joylari eng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijlari ilmiy tahlil asosidagi nashrlar ma'lumotlari, "Dono ona" rahnamoligida yangi iqtisodiy hudud sari migratsion jarayon munosabati bilan navbatdagi etnik makonlar vujudga kelganligini izohlaydi. Neolit davri urug' jamoalari geografik xususiyat, tabiiy – sharoit, iqtisodiy manbalar ma'lum hududdagi zahirasi odamlar manfaatlariga yetarli bo'lganligi bois ajdodlari yashagan yerlarda faoliyatini davom ettirgan bo'lsa, ba'zi hududlarda esa aholi zichligi, ekologik vaziyat, suv tanqisligi sababli uzoq muddatga yetadigan zahirasi bo'lgan hududlarga migratsiya qilishgani ma'lum.

Tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan ma'lumotlar dalillaridan kelib chiqib, quyidagi hududlarga neolit davri urug' jamoalari uzoq hududlar sari migratsiya siyosatini kundalik hayotga olib kirmaganalar. Misol tariqasida Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi, Shimoliy-sharqiy O'zboy suv sohili etagiga ulangan tepalik yon qirlarida yer sathiga va yog'och ustunli yarim yerto'la shaklida turar joylarda xo'jalik va terimchilik yo'nalishlarini daryo irmoqlari hamda suv toshqini natijasida hosil bo'lgan ko'p sonli suv havzalari sohili etagida mavjud bo'lgan antropagen landshafldan hamda suv havzalarining organik dunyosidan foydalanib, oziq-ovqat mahsotlari seroblighi natijasida O'zboy-Oqdaryo, Tuyamo'yin hududlaridan yangi hududlari sari ko'chish zaruriyatini keltirib chiqargan emas [1].

Tadqiqotchilar hamkorlikda nashr qilgan tadqiqotda Zarafshon daryosi havzasi sohili etagiga ulanib ketgan botiqlar Mohandaryo, Gujayli, Daryosoy irmoqlari suv oqimi rejimi suv oqimi yuqori bo'lganligi bois suv havzalari sohili atroflarida hosil bo'lgan antropagen landshaft mavjudligi neolit jamoalarining yangi vorislari ota-bobolari xo'jaligi sohlaridagi amaliy bilimlarini davom ettirganligi qayd qilinadi [2]. Aynan amaliy bilimlar Qizilqum markazi hamda boshqa markaziy hududlarida davom etgan arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'lum. E. B.

Bijanovning Ustyurt chinkining janubiy-sharqiy hududida dala amaliyoti olib borishi munosabati bilan ro'yxatga olingan urug' turar - joy makonlarida faoliyat olib borgan urug' jamoalari so'ngi neolit davrida ham etnik jarayonlarni olib borganlar [2].

Markaziy Farg'ona vodiysining markaziy qismidan olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini ilmiy tadqiq qilgan tadqiqotchilar nashrlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, neolit davri urug' jamoalari guruh-guruh holda yashab ovchilik va termachilik bilan shug'ullanib, tog' hududlaridan kelib soy bo'yi sohillariga joylashganlar. Toshkent vodiysidagi Tuyabo'g'iz suv ombori hududidagi istiqomat qilgan urug' jamoalari makonlari neolit davriga mansub bo'lib, ularning kasbi ovchilik va termachilik bo'lganligini qayd etish joiz [4]. Mazkur hududda meozlit davri (Bo'zsuv 1, 2, 3; Qo'shilish) ovchilarining migratsiyasi natijasida yarimyerto'la turar joylar urug' jamoalarining yangi avlodlari tomonidan bunyod qilingan degan xulosaga kelish mumkin. Neolit davriga mansub Kopetdog' oldi etaklarida loy me'morchiligi bilimini turar joylarda aks ettirish Joytun ziroatchi-chorvador urug' jamoalari tomonidan amalga oshirilgan. Joytunliklarning xo'jalik bilimini rivojlantirishning yangi uslublari, ya'ni kvadrat uy-xonali paxsa-guvala devorlar, loydan yasalgan odam haykallari, paxsa uylarda "otashgohlar" mavjud bo'lganligi ko'zga tashlanadi [5].

Ovchi va termachilarning vorislari Hisor vodiysining geografik sharoiti, antropogen landshafti, ekologiyasi doimo mavjudligi bois qo'shni hududlarga ko'chish siyosati hayotda kun tartibiga kiritilmagan. Darhaqiqat Boysun tog'lari mezolit davri ovchilari Hisor vodiysiga ko'chib borib, aholi zichligini hosil qilishgan. Albatta, machayliklar Hisor vodiysiga ko'chib borib joylashgan hududlarda boshqa urug' jamoalarga duch kelganlar degan xulosani qayd qilish lozim.

Demak, tarixiy geografik hududlarda neolit davrida tabiiy-sharoit geografik muhit, tabiiy resurslardan qanday foydalanilganligiga urg'u bergan urug' jamosi uyushmalari mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarni rivojlantirishda erishgan yangi natijalari bilan eneolit davriga qadam qo'yganlar. Markaziy, shimoliy hududlarda hunarmandchilik uy chorvachilig yarim yerto'la chaylalar ustunlik qilgan bilimlari bilan markaziy va shimoliy hududlarda aholi eneolit davri urug' ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga asos bo'lgan bo'lsa, Kopetdog' oldi etaklari, Murg'ob daryosi havzasida o'troq sug'orma dehqonchilik, turar-joylar qurilishida loy me'morchiligi bilimi bilan yangi davrni boshlab berganlar. Kopetdog' oldi etaklari va Murg'ob daryosi havzalarida neolit davri urug' jamoalarining, sug'orma dehqonchilik, loy me'morchiligi bilimi shaharsizlik madaniyati sari ilk qadamlari bo'lib, uning yanada yangi ko'rinishlari eneolit davrida davom etganligini qayd etish joiz.

Neolit davrida urug' jamoalari kundalik dehqonchilik, hunarmandchilik olib borgan. Xorazm, Zarafshon, Toshkent, Farg'ona hududlarida neolit urug' jamoalari kundalik xo'jaliklarini olib borishda paxsadan qurilgan turar joylar kuzatilmaydi. Mazkur uslub Koetdog' oldi etaklari va Murg'ob daryosi havzalarida kundalik turmush tarzini olib borgan aholi loy me'morchiligi bilimini turar - joylar qurilishida namoyon etganlar. Loy me'morchiligi sohasida faoliyat olib borgan hunarmandlarning alohida guruhga bo'linganligini anglash qiyin emas. Kopetdog' oldi etaklari hamda Murg'ob daryosi havzasi sarhadida o'rnatilgan urug' jamoalari paxsadan turar-joylar qurilishi sohasida bir qadam oldinda bo'lganlar.

Demak, yuqorida qayd qilingan urug' jamoalarining hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan xo'jalik yo'nalishlari neolit davrining iqtisodiy-madaniy belgilari shular jumlasiga jalb qilish mumkin.

Tadqiqotchi Q. Sobirov esa VI-V ming yilliklarda O'rta Osiyo mintaqasida sodir bo'lgan o'zgarishlarga quyidagicha xulosalarni bayon qilgan:

Neolit davri:

- Iqlim sharoiti yaxshilanishi, ishlab chiqarish kuchlarining yangi hududlarga joylashishi,
- Etnik makonlar chegarasining kengayishi,
- Aholi sonining oshib borishi,
- Ibtidoiy sug'orish asosidagi dehqonchilik,
- Oddiy holdagi rejalashtirish, me'morchilik, qurilish bilimining paydo bo'lishi,
- Mudofaa inshootlari bilimining moddiy texnika bazasining paydo bo'lishi [6]

5, 6, 7 punktlarda qayd qilingan bilimlar markaziy va shimoliy hududlar xo‘jalik sohasida olib borgan aholi ma‘naviyatini aks ettirmaydi.

O‘rta Osiyo mintaqasining xo‘jalik madaniy viloyatlarida neolit urug‘ jamoalarining yangi vorislari Tajan daryosi havzasi sohili etagiga ulanib ketgan qumtepaliklar oralig‘ida avvalgi sernam va serunum taqir maydonlarga kanallar chiqarib, sug‘orma dehqonchilikni o‘z hayotlariga olib kirganlar.

Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish xo‘jaligining rivojlanishi hududiy joylashish, oziq-ovqat bilan ta‘minlanish, patrixal oilaning alohida ajralib chiqishi, yangi jamiyat alomatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu ma‘noda hududlarda geografik xususiyat bilan bog‘liq holda jamiyat tizimida yangi xususiyatlarning paydo bo‘lishini kuzatish qiyin emas. Jamiyatda vujudga kelgan yangi xususiyatning mazmuni shundaki, xo‘jalik shakli uning rivojlanishi asosida ortiqcha mahsulot paydo bo‘lishi kabi belgilar eneolit davri jamiyati mazmunini namoyon qilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishi, aholining migratsiyasi ularning joylashuvi, loy binochiligi bilimining yanada rivojlanishi hamda baliqchilik, ovchilik va uy chorvachiligining notekis rivojlanishi eneolit davrida ham davom etganligi kuzatilgan. Tadqiqotchilarning tarixiy ma‘lumotlariga ko‘ra, neolit davrida quyi Zarafshon hududlari Kichik va Katta Tuzkon atroflarida yashagan urug‘ jamoalari uyushmalarining avlodlari xo‘jalik an‘analarini davom ettirganlar [7]. Ayniqsa xo‘jalik madaniy tiplarning ijodkor ovchilari faoliyatlari Quyi Amudaryo, Sariqamish hamda Qizilqum, Farg‘ona va Toshkent vodiylarida davom etganligini kuzatish mumkin [8]. Mazkur kundalik xo‘jalik yo‘nalishlari O‘rta Zarafshon hududida ham namoyon bo‘lgan [5].

O‘rta Osiyo mintaqasining janubiy-g‘arbiy va shimoliy hududlarida qabilalar kundalik faoliyatlarni olib borgan. Misni o‘zlashtirib, undan xilma-xil mehnat qurollari yasab foydalangan bo‘lsa ham Kopettog‘, Tajan va Murg‘ob daryosi havzasidagi qabilalar jamiyat iqtisodiyotni rivojlantirish borasida ma‘naviy jihatdan ancha yiroqda edilar.

Kezi kelganda ta‘kidlash joiz bo‘ladiki, janubiy - g‘arbiy Kopettog‘ oldi va Murg‘ob daryosi havzasi hududlarining suv bilan ta‘minlanishi, Quyi Zarafshon, Xorazm va Farg‘ona hududlari sug‘orish holatida keskin farqlanish kuzatiladi. Birinchidan, Joytun avlodlari Geoksur vohasida o‘rnashgandan keyin Tajan daryosi o‘zanidan sug‘orish kanallarini chiqarib, 70-75 ga yer maydonni sug‘orish imkoniyatini hosil qilgan. Xorazm hamda Quyi Zarafshon hududlarida Amudaryo va Zarafshon daryosining dinamik harakati natijasida qumtepaliklar orasidagi maydonlar suv havzalarga aylangan. Havzalar o‘z navbatida organik dunyo, uning sohil etaklari esa qamishzor va chakalakzorlarga aylangan. Bu esa o‘z navbatida turli qushlar va yovvoyi hayvonlarning sohil atrofiga to‘planishiga sabab bo‘lganligi bois oziq-ovqat muammosini keltirib chiqarmagan. Shuning uchun ham bu hudud doimo xo‘jalik-madaniy markaz sifatida faoliyat olib borishiga sharoit yaratgan. Kopettog‘ oldi etaklari va Murg‘ob daryosi havzalarida bunday ozuqaga boy xususiyat kuzatilmaydi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarni asos qilib olib, ushbu bandni quyidagicha yakunlash mumkin:

- Neolit davri O‘rta Osiyo mintaqasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jihatdan rivojlanish jarayoni notekis holatda eneolit davrida davom etadi;

- Texnika sohasida kichik qabilalar misni ixtiro qilib, undan mehnat qurollarini ishlab chiqarib, uni hayotda qo‘llanishi munosabati bilan metallsozlik yo‘nalishi vujudga kelgan;

- Aholi orasida metallsozlik kasbini egallagan alohida qatlamlar vujudga kelishi sodir bo‘lgan;

- Misdan ishlab chiqilgan qurollar Kopettog‘ oldi etaklari, Geoksur va Murg‘ob daryosi havzalarida aholi tomonidan yangi yerlar o‘zlashtiriladi, sug‘orish inshootlari ixtiro qilinadi, sug‘oriladigan hududlar inson manfaatlariga xizmat qilishi boshlanadi;

- Aholining migratsion siyosati natijasida geografik hududlar kengayadi, dehqonchilik vohasi vujudga keladi;

- Ikkinchi qutb bo‘lgan hududlarda istiqomat qilgan aholining kundalik hayotida ovchilik, termachilik va uy chorvachiligi eneolit davrida saqlanib qolgan.

Eneolit davrida ishlab chiqarish hamda o'zlashtirish xo'jaligi ustunlik qilgan xo'jalik-madaniy vohalar vujudga kelgan.

Sug'orma dehqonchilik ma'daniyatini olib borgan Kopettog' oldi etaklar va Murg'ob daryosi havzalarida istiqomat qilgan aholi paxsa-to'g'ri burchakli g'ishtdan turar joylar qurilishini amalga oshirganlar.

- O'troq joy, sug'orma dehqonchilik, paxsa-xom g'isht yordami bilan turar- joylarning qurilishi, sug'oriladigan hududlar, ibodatxonalar va etnik munosabatlarning umumiy jihatlarini shaharsozlik madaniyati sari yana bir qadam tashlagan.

Eneolit davri qabilalari kundalik hayotida jamiyat rivojlanishi uchun mavjud bo'lgan imkoniyatdan foydalangan holda, uning keyingi taraqqiyoti bronza davrida davom etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Толстов С. П. Древний Хорезм. -М. :Наука, 1948. – С 59-64.
2. Холматов Н. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти. –Тошкент: Фан, 2008 –Б. 27-35
3. Бижанов Е. В. Неолитические памятники Юго-Восточного Устюрта // Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент, 1978. – С 68-79.
4. Заднепровский, Ю. А. Неолит Центральной Ферганы. КСИА, вып. 106 7. – М. , 1966, – С. 13.
5. Кабиров А. Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент:“Ўқитувчи”, 1990, . – Б. 80-81.
6. Собиров К Ўрта Осиё мудофаа иншоотлари тарихидан. (энг қадимги даврдан II минг йиллик охири) –Тошкент, 2003. – Б. 7.
7. Гуломов Я. Г. , Исламов Ў. , Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. –Ташкент: Фан, 1966. – С. 80-88
8. Гуломов Я. Ф. Хоразминг суғорилиш тарихи. -Тошкент: Фан, 1959. – Б 43-50

Anyozov Ruslan Botirovich

PhD. dotsent

O'zbekiston, Urganch

UrDU. Tarix kafedrası

XORAZM SAVDO MARKAZLARINING MARKAZIY OSIYO SAVDO ALOQALARIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo savdo munosabatlarida Xorazm savdo markazlarining tutgan ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация: В этой статье представлена информация о значении торговых центров Хорезма в торговых отношениях Центральной Азии.

Annotation: This article provides information about the importance of Khorezm Trade Centers in Central Asian trade relations.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Xorazm, Buyuk ipak yo'li, karvon yo'llari, Xorazm shaharlari, Gurganj, Urganch, Kat, karvonsaroy.

Ключевые слова: Центральная Азия, Хорезм, Великий Шелковый путь, караванные пути, города Хорезма, Гургандж, Ургенч, Кат, караван-сарай.

Key words: Central Asia, Khorezm, Great Silk Road, caravan routes, Khorezm cities, Gurganj, Urgench, Kat, caravanserai.

Xorazm savdo markazlarining Markaziy Osiyo savdo tizimida tutgan o'rnini o'rganish va bu masalada yangi ilmiy qarashlarni shakllantirish hozirgi kundagi tarixiy zarurat hisoblanadi.

Xorazm savdo markazlarining vujudga kelishi va rivojlanishi shart-sharoitlari hamda siyosiy vaziyat to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, Xorazmni Markaziy Osiyoning bir bo'lagi sifatidagi faoliyati, xo'jalik hayoti va savdosidagi o'rni to'g'risida so'z yuritiladi. Buning uchun eng avvalo, Movarounnahr xo'jalik hayoti xususida tushunchaga ega bo'lish kerak. Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida (IX-X asrlar) Movarounnahrda xo'jalik taraqqiyoti faqat Markaziy Osiyoninggina emas, balki, Old Osiyoning ham yetuk hududlaridan biri hisoblanardi. Shahar bilan qishloq, o'troq dehqonchilik hududlari bilan ko'chmanchi qabilalar o'rtasidagi mahsulot ayriboshlashning kuchayib borishi, karvon savdosining o'sishi o'lkaning qishloq xo'jaligi, kon ishlari va hunarmandchilikning rivojlanishi keyingi sohalarning rivoji, savdo-sotiqning taraqqiy etishining omili bo'ldi.

Bu davrda Movarounnahr va Xorazm iqtisodiy jihatdan musulmon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallardi. Mamlakatda dehqonchilik ham, hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy qilgan bo'lib o'z ehtiyojini qondiribgina qolmasdan, chetga ham juda ko'p miqdorda mahsulot chiqarishga imkoniyat yaratgan edi. Butun dunyoda mashhur bo'lgan Movarounnahr mahsulotlarining turi ko'p edi. Buni yozma manbalar to'la tasdiqlaydi. Al-Istaxriyning ta'kidlashicha, Movarounnahrning o'zida ishlab chiqariladigan moddiy boyliklar shunchalik mo'lti, bu yerning aholisi, boshqa mamlakatlardan mahsulotlar olmasdan ham o'z ehtiyojlarini qondira olardilar. Yozma manbalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Farg'ona, Eloq, Shosh va Xorazmda IX-XV asrlarda dehqonchilik va bog'dorchilikda ma'lum bo'lgan barcha mahsulotlar yetishtirilgan, hunarmandchilikda ham barcha mahsulotlar ishlab chiqilgan. Al-Istaxriy Zarafshon vodiysini tasvirlar ekan, uning unumdorligiga qoyil qolib, Buxoro vohasini moviy osmon gumbazi ostiga to'shalgan va qasrlar bilan naqshlangan yam-yashil gilamga o'xshatsa, Zakariyo Qazvinii esa Gurganjda hunarmandchilikning barcha turlarining nihoyatda rivojlanganini ko'rib, hayratda qolgan edi.

Xususan Xorazmning Markaziy Osiyo shaharlari xo'jalik va savdo hayotidagi o'rni to'g'risida aytadigan bo'lsak, X asr arab manbalari (Maqdisiy, Is-taxriy, Ibn Rusta, Ibn Fadlan) ma'lumotiga ko'ra, bu sohada Xorazmning o'rni beqiyos bo'lganligini ko'ramiz. Bu manbalarning barchasi Xorazmning Markaziy Osiyo tashqi savdosida juda katta rol o'ynaganligini, ayniqsa, Sharqiy Yevropa, Volgabo'yi va Sibir xalqlari bilan bo'ladigan tranzit savdoda Xorazm asosiy bog'lovchi halqa bo'lganligini tasdiqlaydi.

Maqdisiy asarlarida keltirib o'tilgan chetga chiqarilgan va keltirilgan tovarlar ro'yxatida, Xorazm orqali bulg'orlardan keltirilgan juda ko'p turdagi mahsulotlarni ham ko'rsatib o'tadi.

X asr manbalarida keltirilgan ma'lumotlar nafaqat X asrga, balki keyingi asrlarga ham xos bo'lib, Xorazmning Volgabo'yi, Sharqiy Yevropa, ko'chmanchilar dunyosi, Xuroson, Eron, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy va ayniqsa, Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan bo'lgan savdo aloqalari yillar o'tib, kengaysa-kengayganki, aslo to'xtab qolmagan. Xorazmning Markaziy Osiyo shaharlari bilan olib borgan savdosi haqida X-XV asr manbalarida turli-tuman ma'lumotlar mavjud bo'lsada, ular bu mavzuni to'laligicha o'rganish imkonini bermaydi.

Bir asr davomida, hozirgi Markaziy Osiyo hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yordamidagina, bu sohada ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishildi. Ammo bu bilan ham hali savdo yo'llari xususidagi bilimlarimizni yetarlicha deb bo'lmaydi.

Ammo shu o'rinda, tarixiy manbalarda (Istaxriy, Maqdisiy) keltiriladigan savdo yo'llari xususidagi ma'lumotlar bilan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni taqqoslab o'rganishdan oldin, dastavval, Istaxriy va Maqdisiy asarlarida keltirilgan Xorazmning ichki va Markaziy Osiyo shaharlari bilan bog'lovchi savdo yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiy holatga keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak deb o'ylaymiz.

Istaxriy asarida Hazoraspdan Katgacha bo'lgan yo'l ko'rsatilgan: Hazorasped-Kardaranxos – 3 farsax; Kardaranxos-Xiva – 5 farsax; Xiva-Safardiz – 5 farsax; Safardiz-Kat – 3 farsax. Agar

Kardaronxosning hozirgi kundagi Bog'ot tumanidagi Qal'ajiq yodgorligi o'rniga, Safardizni hozirgi Xonqa o'rniga, Katni hozirgi Beruniy o'rniga to'g'ri kelishini hisobga oladigan bo'lsak, Istaxriy keltirib o'tgan manzillar orasidagi masofa (1 farsax – 6-8 km) aynan shu manzillar o'rnida hozirgi kundagi shahar va manzillar orasidagi masofaga to'g'ri kelib boradi.

Xorazm savdo markazlarining Movarounnahr savdo markazlari bilan bo'ladigan aloqasida, ayniqsa, Amudaryo muhim rol o'ynaganligini, Amudaryo orqali yuk ortilgan kemalar Movarounnahrning ko'pgina shaharlariga borib yetgan. Yozma manbalar ham Amudaryoda kemalar qatnaganligi va asosiy savdo yo'llaridan biri bo'lganligini tasdiqlaydi. Ibn Fadlan o'z sayohatnomasida Buxoro bilan Xorazm o'rtasidagi savdo ishlari asosan, kemalar orqali amalga oshirilganligini yozib qoldirgan.

Somoniylar davrida ulkan mintaqadagi siyosiy barqarorlik natijasidagina Xorazm yuqorida ko'rsatib o'tilgan xo'jalik muvaffaqiyatlariga erishgan deyishimizga to'liq asos bor. Hatto numizmatik materiallarga tayanadigan bo'lsak, Xorazm savdogarlari so'g'd savdogarlaridan keyin, ba'zi hollarda esa teng mavqeda ish yuritib, asta-sekin Movarounnahr savdosida o'z mavqelarini oshirib borganligini ko'rish mumkin. Chunonchi IX-X asrlarga oid So'g'd shaharlarining faqat uchtasida – Varaxsha, Poykent, Qumsovgandan topilgan tangalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu tangalar orasida Xorazm mayda ayirboshlov tangasi, faqat Samarqand So'g'd tangalaridan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Shu o'rinda mashhur tarixchi Narshaxiyning ma'lumoti qiziqish uyg'otadiki, u o'zining «Buxoro tarixi» asarida arablar istilosi davrida va undan oldin (VII-VIII asrlar) Buxoro ichki savdosida Xorazm tangalari hukmronlik qilganligini yozib o'tgan edi. Ammo keyinchalik vaziyat bora-bora Xorazm savdogarlari foydasiga o'zgarganligini ko'ramiz. Chunki, keyingi X-XV asrlarda ro'y bergan siyosiy voqealar ham bunga kuchli ta'sir o'tkazgan. Buning sabablari quyidagilardir: Osiyoda vujudga kelgan va birining o'rnini ikkinchisi egallab turgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari o'rtasida o'zaro kurash va urushlardan, Movarounnahrning boshqa hududlariga nisbatan chetda bo'lgan hamda ular tarkibida ham mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatgan. Bu esa Xorazmning iqtisodiy rivojiga, savdo shaharlarining o'sishiga unchalik ta'sir qilmadi.

X-XII asrlar davomida ham Xorazm Sharqiy Yevropa, Volgabo'yi va Rus bilan bo'lgan savdoda tranzit savdo markazi rolini o'ynashi bilan birga, o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yildan-yilga ko'payib borganligini nafaqat manbalar, balki arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan buyumlar ham tasdiqlaydi.

XII-XIII asrlarda vujudga kelgan Xorazmshoh-anushteginlar davlatining markazi sifatida ham Xorazm savdo markazlarining roli shu darajada oshdiki, Xorazm savdogarlari bu davrda Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy savdo ishlarini to'laligicha o'z qo'llariga olganlar.

Bu davrda Xorazm savdo markazlarining ahamiyati Markaziy Osiyo ichki va tashqi savdo munosabatlarida juda muhim bo'lganligi bilan izohlanadi. Savdo yo'llari bo'ylab yangi shaharlar paydo bo'lib, ular ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarda ishtirokiga qarab rivojlanib borganlar. Bu Xorazm vohasidagi shaharlarda savdo karvonlariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan infratuzilmalar mavjudligida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu esa Xorazm vohasining o'rta asrlar davri karvon yo'llarida joylashgan va o'z davrida xizmat ko'rsatish tizimida muhim o'rin tutgan tarixiy-arxeologik va me'moriy yodgorliklarni kengroq o'rganish imkonini beradi.

Biz yuqorida Xorazm savdo shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilganda ham ta'kidlab o'tgan edik.

Mo'g'ullar bosqini arafasidagi Xorazm haqidagi Yoqut Hamaviy fikrini eslab o'tish joiz deb o'ylaymiz: ". . . hech qayerda bunday gavjum va yashnagan joyni ko'rmaganman. . . Xorazmning deyarli hamma shaharlarida mol-tovar hamda do'kon-rastalarga boy bozorlar bor, bozori bo'lmagan qishloq kamdan-kamdir".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mo'g'ul bosqini Movarounnahr shaharlari kabi, Xorazm shaharlariga ham katta vayronagarchiliklar keltirdi. Ammo mo'g'ul bosqini oqibatlaridan tezda o'zini o'nqlab olgan Xorazm, ayniqsa, uning Oltin O'rdaga bo'ysunuvchi qismi, oldingidek, hatto oldingidan ham rivojlanib, Movarounnahr va Oltin O'rdaning eng muhim savdo markaziga

aylanadi. Gurganch esa butun Movarounnahr va Oltin O'rdada ishlab chiqarilgan barcha tur mahsulotlar to'planuvchi savdo markazlaridan biri hisoblanardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия с. 295.
2. Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati. 135-bet.
3. Mavlanov O'. M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya. -T. :Akademiya, 2008. y. 287-bet.
4. Narshaxiy. Buxoro tarixi. //«Meros» to'plamida. –T. : «Kamalak», 1991, 14-bet.
5. Anyozov R. B. Xorazm karvon yo'llari, savdo aloqalari va savdo shaharlari tarixi o'rganilishining manbalarda aks etishi (rivojlangan o'rta asrlar). “Xorazm – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida” Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman. Urganch, 2020. –B 208-210.
6. Машарипов К. Ю. Исторические связи Хорезма с торговыми центрами государств Среднего Востока и Европы (X-XV вв.). : Автореф. Дисс...канд. ист. наук – Нукус, 2004. – с. 25.

N. R. Matyakubov

PhD. , dotsent v. b. ,

Urganch innovatsion universiteti

MAMLAKATIMIZDA UY-JOY KOMMUNAL SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR

Annotatsiya: O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, uy-joydan foydalanish idoralari (JEK) o'rniga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi bu sohadagi o'zgarishlarni boshlab berdi. Natijada, uy-joy fondlari boshqaruvi ma'lum shartnomalar asosida amalga oshirila boshladi.

Kalit so'zlar: Uy-joy siyosati, namunaviy uylar, shaharsozlik kodeksi, qonun, shaharsozlik, qurilish, imtiyoz, siyosat.

Annotatsiya: A number of changes have taken place in the field of housing and communal economy in Uzbekistan. In particular, the establishment of private housing owners' associations instead of housing use offices (JEK) initiated changes in this field. As a result, management of housing funds began to be carried out on the basis of certain contracts.

Keywords: Housing policy, model homes, urban development code, law, urban development, construction, privilege, policy.

Аннотация: В сфере жилищно-коммунального хозяйства Узбекистана произошел ряд изменений. В частности, изменения в этой сфере положило создание ассоциаций собственников частного жилья вместо контор жилищного пользования (ЖИК). В результате управление жилищными фондами стало осуществляться на основе определенных договоров.

Ключевые слова: Жилищная политика, типовые дома, градостроительный кодекс, закон, градостроительство, строительство, привилегии, политика.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xo'jaligida aholiga sifatli xizmat ko'rsatishda ikkita asosiy kamchilik mavjud bo'lgan. Birinchidan, shirkatlar tuzilgan shartnoma bo'yicha ishlamagan va shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarni sifatli ado qila olmagan. Ikkinchidan, kadrlar bilan bog'liq muammo mavjud bo'lgan. Rasmiy hujjatlarga ko'ra, uy-joy mulkdorlari shirkatlari raislari saylanishi lozim bo'lgan, biroq raislar turli noqonuniy yo'llar orqali hujjatlarni to'g'rilagan va raislikka o'tirgan. Biroq o'sha hududda yashovchi aholi bilan suhbatlashganda ular shirkat raisini tanishini, biroq mazkur raisni ular saylamaganligini ta'kidlagan hollar ko'p uchragan [1].

Umuman olganda, 2017-yilgacha uy-joy kommunal xo'jaligida bir qancha kamchiliklar mavjud bo'lgan. Mazkur kamchiliklar, asosan, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining sust faoliyati hamda turar-joylardan foydalanishdagi samarasiz harakatlardan iborat edi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017-son farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2900-son qaroriga asosan "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish" vazirligi tashkil etilgan [3]. Bundan tashqari, 2017-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2922-son qarori qabul qilingan [4]. Bu sohada alohida vazirlik tashkil etilishi va yuqoridagi bir qancha hujjatlarning qabul qilinishi uy-joy kommunal xo'jaligini samarali olib borish imkonini yaratgan.

Buni bir qancha statistik ma'lumotlarda asoslash mumkin. Jumladan, 2018-yilda O'zbekistonda 8055 ta ko'p xonadonli uylar ta'mirlangan hamda ularning atrof-hududlari obodonlashtirilgan [5]. Masalan, Namangan viloyati Uy-joy kommunal xizmat boshqarmasi tizimida viloyat "Suvoqava", "Issiqlik manbai", "Ta'mirlash-tiklash xizmati", "Yagona hisob-kitob markazi" davlat unitar korxonalarini va ularning shahar va tuman bo'limlari faoliyat yuritgan. 2018-yilda Namangan viloyatida jami 1175 ta ko'p qavatli uylar mavjud bo'lgan bo'lib, ularga 342 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatgan [5]. Bundan tashqari, mazkur davrda "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlari amalga oshirilgan bo'lib, bular ko'p qavatli uylarni ta'mirlash imkonini bergan. Masalan, 2018-yilda "Obod qishloq" dasturi asosida Jizzax viloyati Arnasoy tumanidagi Cho'lquvar QFYda 7 ta, Zarafshon QFYda 7 ta, jami 14 ta ko'p qavatli uy-joylar to'liq ta'mirlangan [6].

Boshqa tomondan, mazkur davr kommunal xo'jaligida asosiy ikkita muammo mavjud bo'lgan. Bular ko'p qavatli uylarga noqonuniy obyektlar qurilishi hamda ayrim uy-joy shirkatlarining o'z vazifasini to'liq bajarmaganligi bilan bog'liq. Masalan, tadqiqotchi Berdiyeva Dilfuza 2018-yil 1-iyun holatiga ko'ra, Toshkent shahri hududida uy-joy fondlari va ularning texnik holati monitoringi natijalarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, Toshkent shahrida o'rganilgan uy-joy fondlari soni jami 8527 tani tashkil etgan. O'rganishlar natijasida ushbu uy-joy fondlarida bir qancha kamchiliklar aniqlangan. Xususan, jami uy-joy fondlarining 7583 tasida noqonuniy obyektlar aniqlangan hamda ularni buzib tashlash to'g'risida majburiy ko'rsatmalar berilgan. Bu, asosan, aholi tomonidan uy-joy qurilish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlar edi. Mazkur o'rganishlar natijasida uy-joy shirkatlari tomonidan ham bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlangan. Jumladan, uy-joy fondlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish jarayoni bilan bog'liq texnik holati yaxshi bo'lmagan. Masalan, pudratchilarning ishlarni bajarishga moliyaviy imkoniyati yo'qligi, ishchi kuchi yetishmasligi, materiallar arzon-garovga sifatsiz keltirilganligi bois ishlar sifatsiz qilinganligi yoki qilinishi kerak bo'lgan ishlar umuman qilinmaganligi ko'zga tashlanadi. Mazkur holat, asosan, ajratilgan mablag'larning talon-taroj qilinishi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, mazkur davrda yerto'la qismidagi muhandislik uskunalaridagi kamchiliklar soni 2058 tani, fasadlar va kirish yo'laklarida aniqlangan kamchiliklar miqdori 1849 tani, uylarning tom qismida aniqlangan kamchiliklar soni 831 tani, romlarni o'rnatish bo'yicha kamchiliklar 1404 tani, yoritgich moslamalari o'rnatilmaganligi bilan bog'liq kamchiliklar 7508 tani tashkil etgan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida respublikadagi 34 mingta uy-joyning holatini o'rganish masalasi qo'yilgan. Shu topshiriqqa binoan, 33 727 ta ko'p xonadonli uy-joy fondlarining texnik holati tekshirilgan. Natijada, 8089 ta xonadondan iborat bo'lgan 409 ta uy-joy fondlarining texnik jihatdan avariya holatida ekanligi aniqlangan. Mazkur turar-joylarning 98 tasi yoki 13, 4 foizi bo'yicha hududlardagi loyiha tashkilotlari tomonidan tegishli xulosalar chiqarilgan. Unga ko'ra, bu uy-joylarning 41 tasi (30%) buzish, 66 tasi (70%) ta'mirlashga muhtoj ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, texnik jihatdan avariya holatida deb topilgan 409 ta uy-joy fondlarining 297 tasi (27%)

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining hududiy boshqarmalari tomonidan batafsil o'rganish uchun loyiha tashkilotlariga taqdim etilgan [7].

2021-yildan qonun bilan ko'p kvartirali uy-joy fondiga tutash hududlarni ta'mirlash xarajatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tizimiga kiruvchi issiqlik ta'minoti tashkilotlarining issiqlik tarmoqlari va qozonxona uskunalari kapital ta'mirlash xarajatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirish tartibi joriy qilingan [8].

2021-yilda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vaziri Sherzod Hidoyatov AOKAda "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimida olib borilayotgan ishlar, "Mening uyim" billing tizimi va boshqa masalalar yuzasidan matbuot anjumani o'tkazadi. Uning ushbu matbuot anjumanida bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonda 39 265 ta ko'p kvartirali uy mavjud bo'lib, shundan 22 mingdan ziyodi ko'p kvartirali uy 3 753 ta shirkat hamda 324 ta boshqaruvchi tashkilot tomonidan boshqarilgan. Shuningdek, 889 ta uy bevosita joylarning mulkdorlari tomonidan boshqarib kelingan. Ko'p kvartirali uylarning 876 tasi boshqa tashkilotlar balansida, qolgan 1407 tasi boshqaruvsiz uylar hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan, eksperiment tariqasida 2021-yilda hududlarda 15 ta boshqaruvchi tashkilot "ochiq tanlov" yo'li bilan tanlangan va faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur holatda 1 227 ta ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish uchun tegishli shartnomalar tuzilgan. Shuningdek, vazir respublika bo'yicha boshqaruv kompaniyalari kredit qarzidorligi 43 milliard so'mdan 22 milliard so'mgacha qisqarganligini hamda 500 nafarga yaqin ish o'rinlari yaratilganligini qayd etadi [9].

Davriy matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalarga ko'ra, 2021-yilda amaliyotda haqiqatdan ham birmuncha ijobiy ishlar amalga oshirilganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, "Xalq so'zi" gazetasida chop etilgan "Mahalla-islohotlar poydevori, taraqqiyot yo'lining poydevori bo'ladi" nomli maqolaga ko'ra, Toshkent shahri Shayhontohur tumani, Sarxumdon mahallasida 2021-yilda 6 ming 500 nafardan ortiq aholi yashagan. Mahalladagi 45 ta ko'p qavatli uy 1970-yillarda qurilgan bo'lib, o'shandan buyon ta'mirlanmagan. 2021-yilda mazkur uylarning tom va fasad qismi hamda kirish qismi ta'mirlangan [9].

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, uy-joydan foydalanish idoralari (JEK) o'rniga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi bu sohada o'zgarishlarni boshlab berdi. Natijada, uy-joy fondlari boshqaruvi ma'lum shartnomalar asosida amalga oshirila boshladi. Ya'ni, bu shartnomalar uy egalari hamda xususiy shirkatlar o'rtasida tuzilgan va ularda uylarga ko'rsatiladigan kommunal xizmat ko'rsatish tartiblari bayon etilgan. Aholi, o'z navbatida, mazkur xizmatlar uchun ma'lum miqdorda haq to'lagan. Biroq manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon har doim ham bir tekisda kechmagan. Boshqacha aytganda, xususiy shirkatlarning o'z vazifasini sifatli bajarmaganligi yoki uy mulkdorining pulni o'z vaqtida to'lamaganligi bu sohada uchragan eng katta muammolardan biri bo'lgan. 2017-yilda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil topishi natijasida bu masalalar qonunchilikda ko'rsatilgan shartlar asosida hal qilinishiga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маликова Г. Хусусий уй-жой мулкдорлари ширкатларини ривожлантириш: тажриба ва муаммолар // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2014. – № 4. – Б. 36.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 апрелдаги "2017-2021 йилларда кўп хонадонли уй-жой фондини сақлаш ва ундан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ2922-сон қарори.
3. Бердиева Д. Уй-жой фондидан фойдаланиш ва уни бошқариш самарадорлигини янада ошириш // Иқтисод ва молия. – 2018. – №12. – Б. 26; Нурибетов Р., Султанов А. Уй-жой фондини бошқаришнинг хорижий тажрибаларидан республикада фойдаланиш истиқболлари // Хоразм Ма'мун академияси ахборотномаси. – 2019. – № 3. – Б. 16

4. Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш соҳаси ходимларига // Уй-жой коммунал хизматлари. – 2019. – № 2. – Б. 2.
5. Рақамлар тилга кирганда. . . . // Уй-жой коммунал хизматлари. – 2019. – № 2. – Б. 22.
6. Нурматов Р. Қаловини топсанг. . . . // Уй-жой коммунал хизматлари. – 2019. – № 2. – Б. 20
7. Назиров Н. Якка отнинг донғи чиқмас. . . // Уй-жой коммунал хизматлари. – 2019. – №1. – Б. 12.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг йигирма иккинчи ялпи мажлиси биринчи иш куни тўғрисида ахборот // Халқ сўзи. – 2021. – №268.
9. <https://xs.uz/uzkr/post/boshqaruv-kompaniyalari-kredit-qarzdorligi-43-milliard-somdan-22-milliard-somgacha-qisqardi>
10. Маҳалла-ислохотлар пойдевори, таракқиёт йўлининг пойдевори бўлади // Халқ сўзи. – 2021. – №251.

*Matyakubova Sohiba –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

XALQIMIZ MADANIYATIDA DEHQONCHILIKDAGI URF-ODATLARGA DOIR BA'ZI QARASHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqimiz madaniyatida asrlar osha saqlanib qolayotgan dehqonchilikka doir ba'zi marosim va udumlar, ularning xalqimiz o'tmishi va bugungi kuni bilan bog'liqligiga doir masalalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Dehqonchilik, chorvachilik, madaniyat, suv, Avesto, kult, din, hosil.

Аннотация. В данной статье описаны некоторые обряды и традиции земледелия, сохранившиеся в культуре нашего народа на протяжении веков, и вопросы, связанные с их связью с прошлым и настоящим нашего народа.

Ключевые слова. Земледелие, животноводство, культура, вода, Авеста, культ, религия, урожай.

Abstract. This article describes some rituals and traditions of farming that have been preserved in the culture of our people for centuries, and issues related to their connection with the past and present of our people.

Keywords. Agriculture, animal husbandry, culture, water, Avesta, cult, religion, harvest.

Ma'lumki, dehqonchilik ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakli hisoblanib ilk tamaddun o'choqlarini vujudga keltirgan omil hisoblanadi. Aynan ko'chmanchilikdan o'troq dehqonchilikka o'tish jarayoni Qadimgi Sharqda ilk sivilizatsiyalarning vujudga kelishini ta'minlagan. Bunda tabiiyki suv resurslari hal qiluvchi ahamiyat kasb qilib, dehqon xo'jaligining asosini tashkil qilgan.

O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar tarixi dastlab Turkmanistonning janubiy-g'arbida boshlangan. Mil. avv. VI-V ming yilliklarga oid dehqonchilik Joytun madaniyatining manzilgohlari (Joytun, Cho'pontepa, Chagalli va boshqalar) Kopettog' yonbag'irlari va shimolda Qoraqum tepaliklari bilan cheklangan tor tekislikda joylashgan [1].

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, mil. avv. VII-VI ming yilliklardan e'tiboran O'rta Osiyo sarhadlarida neolit davrida xo'jalik asosan ikki yo'nalishda rivojlangan. Uning janubiy, janubiy-g'arbiy hududlarida, xususan, Kopettog' yonbag'irlarida neolit qabilalari toshqin suvlar hamda sodda sun'iy sug'orish asosida dehqonchilik bilan shug'ullanishib, o'troq hayot kechirishgan [2].

Keyingi davrlarda dehqonchilik madaniyati O'rta Osiyoning boshqa hududlari, xususan Janubiy O'zbekiston sarhadlari tomon siljib, bu yerda ilk o'troq madaniyat shakllanishiga sabab bo'ladi. Keyinchalik o'troq hayot negizida ilk shaharsozlik madaniyati ham yuzaga keladi.

Dehqonchilik xo'jaligi xalqimiz qadim davrdanoq shug'ullanib kelayotgan qadriyat darajasidagi mashg'ulot bo'lib, unga doir urf-odat va marosimlar hozirgacha madaniyatimizda saqlanib qolgan.

Dehqonchilikka doir qarashlar O'rta Osiyo haqida ma'lumot beruvchi eng qadimiy mahalliy yozma manba hisoblanuvchi Avestoda ham bayon qilingan. "Vendidod" hamda "Visparad" ning alohida qismlarida dehqonchilikni rivojlantirishga, yerga chap qo'l-u o'ng qo'l bilan, bel yordamida omocho vositasida astoydil ishlov berishgan, yerning meliorativ holatining pokizaligini saqlashga undov ancha kuchli [3]. Avestoda yerga ishlov berish lozimligi, ekin ekilmay qolgan yer baxtsiz yer hisoblanishi, yerga ishlov berishda sidqiqildan mehnat qilish va halol bo'lishlarining uqtirilishi zardushtiylikda dehqonchilik va yerga ishlov berishga alohida e'tibor qaratilganidan dalolat beradi.

Dehqonlar, bog'bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan eson-omon chiqib, bahorning iliq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rganlar. Omocho-bo'yinturuqlar, molalarni sozlab, taxt qilganlar, otlar sovutilgan, aravalar tuzatilib ishga yaroqli holga keltirilib qo'yilgan. Asosiy ishchi kuchi hisoblangan ho'kizlar yaxshi parvarishlanib, ular yer haydashga olib chiqilgan. Shu boisdan ham o'rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami "Navro'zi kishvarzon" – "dehqonlar bayrami" deb nomlangan [4].

Suv Markaziy Osiyo xalqlari uchun "buyuk tarbiyachi" hisoblanadi. Mintaqa aholisi suvni "hayotiy muhim modda yo resurs" deb emas, eng muhim qadriyatlardan biri hisoblab, "boshidan suv ugirib ichadi" degan iborada ifodalanganidek, chuqur e'zozlaydi [5].

Dehqonchilik bilan bog'liq agromadaniyat an'analari bahorgi ekish mavsumida dalaga birinchi qo'sh chiqarish marosimi muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Chunki yetishtiriladigan hosilning mo'l bo'lishi va yil barakali kelishi ekish mavsumining o'z vaqtida sifatli o'tkazilishiga bog'liq bo'lgan [6].

Bugungi zamonaviy texnika dehqonchilikka chuqur kirib borishiga qaramasdan ushbu udum va marosimlar saqlanib qolgan. Bunga misol tariqasida dehqonchilikda mavsumiy ishlar boshlanishidan oldin, yoki ekin ekish jarayoni oldidan qurbonlik keltirib ishga kirishilishi hozirgacha davom qilib kelayotgan holat hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan dinlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan dehqonchilik kultlari juda tez unutilib ketgan. Buning asosiy sababi ular rasmiy kultlar hisoblanib, bir guruh koinlar tasarrufida bo'lgan va islom kirib kelgan damlardan boshlab koinlikning yo'q qilinishi bilan birga ushbu kultlar ham unutilgan. Lekin bu kultlar rasman butkul kundalik hayotdan chiqib ketgan bo'lsada, xalq orasida ular bilan bog'liq alohida an'analari va marosimlar saqlanib qolgan [4].

O'rta asrlarga kelganda suv bilan muomala qilish davlat tomonidan nazoratga olinadi. Azal-azaldan miroblik va ariq oqsoqoli vazifasini sharaf bilan ado etish eng mas'uliyatli ish bo'lib kelgan. Bu lavozimga xalqqa taniqli, obro'-e'tiborli, halol, kayvoni odamlar saylangan. Chunki suv jamiyat taraqqiyoti, qattiq mehnat-mashaqqat bilan yetishtirilajak mo'l-ko'l hosilning garovi hisoblangan. Mirob ishini amin nazorat qilgan va suv masalalari bo'yicha mabodo kelishmovchilik, nizolar chiqsa, bek va qoziga hisobot berilib, nizo hal qilingan. Mirobboshi va ko'kboshilar, asosan, yirik suv tizimlari bo'lgan daryolar hamda kanallarni nazorat qilsa, miroblar ushbu suv manbalaridan ajralib chiqqan «shoh ariq» hamda «ena ariq» deb yuritiluvchi sug'orish tizimlarini boshqarganlar [5].

Elshunos olim G. P. Snesarevning qayd etishicha, Xorazm viloyatining Xonqa tumanida istiqomat qiluvchi dehqonlar dalaga bug'doy bilan birga bir hovuch jiyda sochganlar. Chunki jiyda Baraka va serhosillik timsoli sifatida talqin qilishgan. Buxorolik dehqonlar esa ekish uchun olib kelingan g'allaning bir qismini ataylab qaytarib olib ketganlar. Shunday qilingan taqdirdagina yil bo'yi dehqonning ro'zg'oridan Baraka arimaydi deb hisoblashgan [5].

Dehqonchilik madaniyati mavjud ekan unga doir qadimiy urf-odat va marosimlar yashashda davom qilaveradi. Turli davrlardagi madaniy ta'sirlarga qaramasdan azaldan shakllangan marosimlar xalq milliy urf-odatlari bilan birga bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bunga sabab sifatida xalqimiz tomonidan dehqonchilikka kun ko'rish vositasigina sifatida yondashilmasdan, bakli, qadriyat darajasida ulug'lanishini ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Массон В. М. Джейтун и Кара-Деле. Предварительные сообщения о работах 1955 г. // СА, 1957. №1. – С. 144-146.
2. Nazarov O. , Isroilov M. Neolit davri inqilobi. –Т. : “Lesson press”, 2023. –В. 92.
3. Хомидов Х. Авесто файзлари. –Т. , 2001. –Б. 37
4. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. –Т. , 2007. –Б. 130.
5. Аширов А. Ўзбек маданиятида сув. –Т. : "Академнашр", 2020. –Б. 138.
6. Жўраев М. Ўзбек халқ аграр маросимлари тизимида «шоҳ мойлар» ёки «биринчи кўш» удуми // Ўзбекистон ҳудудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдиэлари ва замонавий жараёнлар. –Т. , 2006. –Б. 84.

*Nurullayeva Kuvonch –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHIGA DOIR BA'ZI MASALALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda iqtisodiyotning huquqiy asoslari, respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqaviy hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishida tutgan o'rni, uning tarmoqlar kesimida rivojlanish tendensiyalari haqida so'z boradi. Unda sohani rivojlantirishning ba'zi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek modeli, mulk, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые основы экономики Узбекистана, роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии региональной и национальной экономики республики, а также тенденции развития его отраслей. В ней освещены некоторые вопросы развития отрасли.

Ключевые слова: узбекская модель, собственность, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство.

Abstract: This article discusses the legal foundations of the economy in Uzbekistan, the role of small business and private entrepreneurship in the development of the regional and national economy in the republic, and the development trends of its branches. Some issues of the development of the industry are covered in it.

Key words: Uzbek model, property, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak har bir davlat o'z mamlakatining milliy manfaatlarini hisobga olmasdan, xalq farovonligi va taraqqiyotini ta'minlashi mumkin emas. MDH doirasidagi ayrim mamlakatlar xorijiy mamalatlarning taraqqiyot modeliga mamlakatining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olmasdan ko'r-ko'rona tayanib ish tutgani jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida o'zining zaif tomonlarini ko'rsatdi va biron bir davlatning rivojlanish yo'lini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmasligini amalda isbotladi. Bozor munosabatlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi sababli unga o'tishning milliy xususiyatlarini nuqtayi nazaridan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini borligicha qabul qilib bo'lmaydi.

Mamlakatni demokratlashtirish, modernizatsiya qilish hamda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yuzasidan puxta o'ylangan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida ishlab chiqilgan dunyoda "o'zbek modeli" nomi bilan tan olingan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish orqali O'zbekiston zamonaviy va barqaror rivojlanib borayotgan davlatga aylandi.

A. Smitning fikricha, bozorning qudratli kuch ekanligini, u jamiyatni zarur tovarlar bilan doimo ta'minlashi va bu tizim o'z-o'zini muvofiqlashtirishini ko'rsatib berdi. O'z-o'ziga qo'yib berilgan bozor tizimi rivojlanadi va bunday tizimi bor xalqning boyligi ortaveradi [1]. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili – yaxlit nazariya, ta'limot hisoblanadi. Bu ta'limot totalitar tizimdan, nochor iqtisodiy ishlab chiqarish holatidan samarli iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotiga o'tishning qonun-qoidalari va ko'p qirrali iqtisodiyotni qaror toptirish, xususiy mulkchilikni rivojlantirish orqali O'zbekistonni zamonaviy va rivojlangan davlatga aylantirishga oid ilmiy qarashlar yig'indisidan iborat.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosini tashkil qildi. Tadbirkorlik ideologi hisoblangan XX asr buyuk iqtisodchisi Yozef Shumpeter (1883 - 1950- yillar): "Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo'lmagan joyda juda his qilish mumkin" [2], deb ta'kidlab o'tgan. O'z vaqtida bu borada yuritilgan oqilona siyosat mamlakatda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etgan sharoitda iqtisodiyotda tizimli islohotlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning omili sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati ortgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bozor munosabatlariga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini har xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilar huquqi ustunligini hisobga olgan holda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan teng muhofaza etilishini kafolatlaydi deb belgilab qo'yilganligi iqtisodiyotning nodavlat sektorini shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta'siri katta bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarda ham, O'zbekistonda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining yarmidan ortig'i kichik va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi [3]. Bu esa tadbirkorlik aholining ish bilan bandligi va mehnat, iqtisodiy faolligining o'sishi va buning natijasida uning daromadlarining oshishiga katta hissa qo'shadi.

Mamlakatda demokratik islohotlar, tadbirkorlik va uni rivojlantirish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlarida o'z tasdig'ini topadi. O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichida esa tadbirkorlarning mamlakat rivojlanish strategiyasi va yangi rivojlanish bosqichida ahamiyati O'zbekiston Respublikasi hoziri prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev [4] asarlarida ifodalangan. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil vazifasini tadbirkorlik faoliyati tashkil etadi. Bugungi kunga kelib davlatda ham tadbirkorlik yoinki kichik biznes tushunchalari yildan yilga keng ildiz otib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan. Oxirgi besh yilda ushbu yo'nalishni rivojlantirishga yo'naltirilgan ikki mingga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligi bundan dalolat beradi.

Qayd etish joizki, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat yo'li bilan tartibga solishda moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati O'zbekistonda haqiqiy bozor munosabatlariga o'tish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Davlatning vazifasi mamlakatda ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhit yaratish va uni rivojlantirishga yordam ko'rsatish, bozor mexanizmining qulay ishlashi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev M. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T. , 2011. – B. 7.
2. Abdullayev A. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik:tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. –T. , 2005. –B. 18.
3. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari. T. , 2010. – B. 32.
4. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O'zbekiston

“TEMUR TUZUKLARI”: ODILLIK VA ADOLAT, HUQUQ VA MA’NAVIYAT NEGIZIDIR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanimiz tarixida munosib o‘rin egallagan buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temurning faoliyati qisqacha bayon etilgan. “Temur tuzuklari” bugungi kungacha o‘zining qiymatini yo‘qotmasdan kelmoqda.

Аннотация: В данной статье кратко описана жизнь Амира Темура, великого лидера и основателя йентрализованного государства, занявшего достойное места в истории нашей страны. “Темур тузуклари” не увилчил свою стоимость и по сей день.

Abstract: This article briefly describes the life of Amir Temur, the great leader and founder of the centralized state, who took a worthy place in the history of our country. “Temur tuzuklari” has not inceased its value to this day.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, buyuk sarkarda, markazlashgan davlat, islohotlar, kengash, adolat.

Ключевые слова: Амир Темур, законы Темура, великий полководец, централизованное государство, реформы, совет, правосудие.

Key words: Amir Temur, Temur’s laws, great commandr, centralized state, reforms, justice.

“... Amir Temur bobomiz bilan hammamiz faxrlanamiz. Lekin xolisona aytaylik, ulug‘ Sohibqironning “Tuzuklari”ni qancha askar o‘qigan va harbiy mahorati haqida hamma yetarli bilimga egami? Vaholanki, bu ajdodlarimizning g‘alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko‘plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o‘rganishadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev

Tarixdan malumki, mamlakatimiz qadimdan alloma-yu jahon ilm fani ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmat Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom at- Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi mutafakkirlar, To‘maris, Shiroq, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi.

Nafaqat Vatanimiz tarixida, balki dunyo ma’naviy-ma’rifiy hayotida o‘chmas iz qoldirgan buyuk alloma va mutafakkirlar, sarkarda-yu qahramonlar bilan har qancha faxrlansak arziydi. Xalqimiz tarixning har qanday murakkab sharoitlarida ham o‘zining bunyodkorlik, ma’rifatparvarlik qarashlariga sodiq qoldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi” [3].

Amir Temurning 27 davlatni birlashtirgan Markazlashgan ulkan saltanati, tabiiyki, qonunlar to‘plamlari asosida yaratilgan.

Amir Temur turmush tajribalari asosida ishlab chiqqan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko‘tarilgan qoidalar majmui bor ediki, ularni to‘plam holiga keltirib, o‘zidan keyingi vorislariga ham qonunlar tizimi, ham maslahatlar tarzida qo‘llanma qilib qoldirish lozim edi.

Ana shu to‘plam tarixiy asarlarda va turli tildagi tarjimalarga mos holda “Temur tuzuklari”, “Tuzukot Temuriy”, “Temurning aytganlari” va “Voqeoti Temuriy” – “Temurning boshidan kechirganlari”, “Qissasi Temur”, “Malfuzoti Temuriy”, “Zafar yo‘li”, “Zafarnoma”, “Tarjimai hol”, “Esdaliklar”, turkiy chig‘atoy tilidan rus tiliga o‘girilganda Mafluzot va Tuzukot o‘rniga “Dastur ul amal” nomlari bilan mashhurdir. [6].

“Tuzuklar” O‘zbekiston davlatchiligi tarixi o‘rni haqida eng ko‘p fikr, baholar bildirilib, o‘z boshidan turli davrlarda turlicha munosabatni kechirgan tarixiy manbalarga asoslanadi:

1. “Tuzuklar” – haqiqiy tarixiy manba va dunyoviy qonun-qoidalarni o‘zida mustahkamlagan huquqiy manba;

2. “Tuzuklar” Amir Temur davrida uning o‘z qo‘li bilan yoki devonida yaratilgan, uning o‘zi bir necha marta ko‘rib, tahrir qilgan;

3. “Tuzuklar” davlat tuzugi, uni boshqarish, mustahkamlash borasidagi huquqiy asoslarni belgilab beradigan, shariat, odat va qonunlariga tayangan tavsiya hamda qoidalaridan iborat bo‘lgan, u o‘z davrining Konstitutsiyaviy qo‘llanmasidir;

4. O‘zbek davlatchiligi tarixida uning nihoyatda yuksak ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. [6] Amir Temur davlatining markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tuzilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, bir-biriga bo‘ysunadigan va bo‘ysunmaydigan idoralar, ularning siyosatda muvofiqlashtirilgan, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uyg‘unligining ta‘minlanishi, ularning yechimlari masalalari bugun ham o‘z ahamiyati va mohiyatini saqlab qolgan.

Sohibqiron davlat ishlarini to‘ra va tuzukka asoslanib boshqardi. To‘ra va tuzukka tayanib, saltanatda o‘z martaba va maqomini mustahkam saqlab turadi. “O‘z tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar din-u tartib asosida qurilmas, to‘ra tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi”, - deb uqtiriladi “Temur tuzuklari”da. [5]

Shuningdek, “Tuzuklar”da shunday o‘qiyimiz: “Sulton har narsada adolatparvar bo‘lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin”. [5]

Amir Temur o‘zining siyosatini amalga oshirishda, davlatni boshqarishda ulamolar, ilm-fan ahllari va yuqori tabaqa vakillariga qattiq tayangan. Amir Temurning mardligi, jasorati ayniqsa, bunyodkorlik salohiyati barcha xalq va millatlar tomonidan tan olingan hislatlaridan biridir. [7]

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o‘ziga xos maktab yaratdi, adoatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustuvorligiga rioya qildi. Shuningdek, Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirishda aql-idrok salohiyatiga tayanib, taktik va strategik asosda shakllantirdi. Uning saltanati ma‘naviyati va oliy darajadagi madaniyatga yo‘rg‘ilgan saltanat edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T. : “O‘zbekiston”, 2016
2. Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T. : “Ma‘naviyat”, 2016
3. Temur tuzuklari. –T. : “Hilol mediya” 2018
4. Temur tuzuklari. –T. : “O‘zbekiston”, 2018
5. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan B. Ermatov tarjimasini. –T. : “O‘zbekiston”, 2019
6. M. Rahimov, A. Zamanov. O‘zbekiston tarixi. –T. : “Fan”, 2019.

*Otabekova Mardonabonu –
Urganch innovatsion universiteti talabasi*

AMIR TEMUR FAOLIYATINING JAHON HAMJAMIYATI TOMONIDAN E‘TIROF ETILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sohibqiron Amir Temur faoliyatining Yevropa va jahon hamjamiyati vakillari tomonidan tadqiq qilinishi, ushbu tadqiqotlardagi Amir Temur shaxsining ifodalanishi tadqiq qilingan.

Kalit soʻzlar. Fransiya, Vatikan, Yevropa, Turkiya, Kastiliya, Samarqand, usmoniyalar, opera, doston, xotiralar.

Аннотация. В данной статье деятельность Мастера Амира Темура изучается представителями европейского и мирового сообщества, а также изучается выражение личности Амира Темура в этих исследованиях.

Ключевые слова. Франция, Ватикан, Европа, Турция, Кастилия, Самарканд, Османы, опера, сага, воспоминания.

Abstract. In this article, the activities of the Master Amir Temur are studied by representatives of the European and world community, and the expression of Amir Temur's personality in these studies is studied.

Keywords. France, Vatican, Europe, Turkey, Castile, Samarkand, Ottomans, opera, saga, memories.

Sohibqiron Amir Temur qurgan ulkan saltanat tarixi nafaqat mahalliy tadqiqotchilar, balki jahon hamjamiyatini ham befarq qoldirgan emas. Ular tomonidan turli davrlarda yaratilgan adabiyotlarda Amir Temur faoliyatiga doir muhim ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Bunday asarlar va tadqiqotlarni XV asrdan, ya'ni, Sohibqiron yashagan asrdan uchratishimiz mumkin. Buning sababini sohibqironning Yevropani ulkan bosqindan, usmonlilar xavfidan saqlab qolganligi bilan izohlashimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar Amir Temur siymosining jahon miqyosida nechogʻlik katta ahamiyatga ega ekanligini aniqlashga yordam beradi.

“XVI, XVII, XVIII, XIX va XX asrlarda Fransiya, Italiya, Ispaniya, Angliya va Germaniyada Amir Temurga boʻlgan qiziqish hayratomuz darajada ortib ketdi” [1]. Bunga sabab tengsiz azm-u shijoat va donishmandlik ramzi boʻlgan Amir Temur Usmonlilar xavfidan butun Yevropa qitʼasini ozod qilganligi, shu oʻringa ulkan saltanat barpo qilganligi, Sharq dunyosiga Gʻarb mamlakatlarida ulkan qiziqish uygʻotdi.

XVI-XX asrlar oraligʻida Gʻarb mamlakatlarida shavkatli sohibqiron siymosi tasvirlangan 60 dan ziyod turli janrdagi sahna asarlari yaratilgan. Bu asarlarning nomlanishi deyarli bir xil, syujet yoʻnalishi ham oʻzaro oʻxshashdir [2]. Gʻarb adiblari yaratgan asarlarda Amir Temur qiyofasi oʻziga xos tarzda talqin qilinib, qalamkashlar tayangan manbalarda sohibqiron shaxsi bir-biriga butunlay qarama-qarshi, baʼzan esa oʻta chalkash ifoda etilgan.

Bahodir Ermatovning [3] fikricha, XIX-XX asrlarda Italiya, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Belgiya kabi mamlakatlarda 30 taga yaqin opera asarlari ushbu mamlakatlardagi nufuzli teatrlarda sahnaga qoʻyilgan.

Buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temur haqida yurtimizda va dunyo miqyosida ilmiy va badiiy asarlar turli koʻrinishda, sahna asarlari va hatto, opera asarlari yaratilgan.

Ushbu asarlar bitta tadqiqot ishiga jamlanishi Amir Temur siymosi jahon miqyosida qanday shakllarda namoyon boʻlishi, uning qiyofasi qay koʻrinishda talqin qilinganini koʻrishimiz mumkin boʻladi. Misol uchun, Kristofor Marloning hanuzgacha jahon sahnalaridan tushmay kelayotgan “Buyuk Amir Temur tragediyasi”, nemis kompozitori Gendelning “Amir Temur” operasi juda mashhurdir. Pyesa shu qadar muvaffaqiyat qozonganki, zamondosh ingliz drammaturlari orasida bir zumda eng peshqadam adibga aylangan. K. Marlo tragediyaning ikkinchi qismini 1588-yilning bahor-yoz oylarida sahnalashtirishga muvaffaq boʻlgan.

Amir Temurning Yevropa nigohiga tushishining asosiy sababi sifatida usmoniy turklarning hudud davlatlariga xavfi hisoblanadi. Bu jarayonga diniy tus ham berilib, xristian dunyosi markazi Vatikan ruhoniylarining Boyazidga qarshi chiqishlari ham kuzatiladi. Shunday ruhoniylardan biri avliyo Ioann dastavval Mironshoh bilan yaqin aloqalarni yoʻlga qoʻyadi va Sohibqiron ishonchiga kirishga intiladi. Avliyo ota Ioann ayniqsa, Turkiya Bolqon yarim orolidagi mamlakatlarni istilo qilgandan keyin faollashdi. Qudratli Turkiyaga qarshi Ovrupo hukmdorlariga maxsus tavsiyanoma ham yozib berdi. “Boyazid Yildirimga faqat Amir Temur bas kelishi mumkin” – deb oʻrgatdi ularga [4].

Amir Temur va uning yurishlari haqida italiyalik tujjorlar Paole Zane, Beltramus de Mignanelli va Emmanuil Paole hamda ispan elchisi Rui Gonsalez de Klavixo, asirga tushgan nemis askari Iogannes Shiltberger va boshqalar ham oʻz xotiralarini yozib qoldirganlar [3].

Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi Samarqandga tashrif buyurgani va uning buyuk sohibqiron tomonidan iliq qabul qilinganligi tarixdan ma'lum. Klavixoning o'zi ushbu qabul marosimi haqida quyidagilarni yozadi: "Shunda Temurbek bizga on hazrat qirolimiz haqida savol berdi: "Qirol o'g'limning ishlari qanday?" Biz unga javob berdik va o'z tashrifimizdan maqsadimizni so'zladik; U bizni diqqat bilan tingladi" [5]. Bundan ma'lumki Amir Temur Kastiliya qiroli bilan yaxshi diplomatik aloqalar olib borish tarafdori bo'lgan. "Yetti iqlim sultoni" kitobining muallifi angliyalik Xilda Xukxem bu haqida so'z yuritarkan: "O'g'il so'zi tobeinlarga murojaat shakli edi" deb yozadi [6]. Bunda o'zbek olimi A. Ziyoyev ham qo'shiladi: "o'g'lim" degani- "menga tobe degani bo'lgan" [7]. Alqissa shuki, Amir Temur saltanati obro'si shu qadar katta bo'lganki, Yevropa davlati hisoblangan Kastiliya hukmdori sohibqironning bu marhamatini inkor qilmagan. Kastiliya va uning qiroli Genrix III Amir Temurga qaram bo'lmagan. Shu bilan birga mohir diplomat homiysi bo'lgan Amir Temur o'z vassallari yoki tobeinlarni "o'g'lim" deb atagani haqida tarixda birorta ham misol yo'q. Buni sharq ustamonligidagi qaramlik masalasidan ko'proq yaqin diplomatik aloqaning belgisi deyish mumkin.

K. Marlo o'z asarida Amir Temur zo'r jismoniy kuchga ega yengilmas va irodali, avvaliga oddiy xalq ichida jangchilarning yo'l boshchisi bo'lgan va tez orada dunyoning katta qismini zabt etgan afsonaviy qahramon ko'rinishida namoyon qilindi. Qizig'i shundaki, tarixga nufuzli zotlarning farzandi nasabnoma sifatida muhrlangan Amir Temur K. Marlo tomonidan oddiy cho'pon sifatida tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin.

Xaydelberg tarixchilar maktabining namoyandasi Fridrix Shlosser (1776-1861) "Yalpi tarix" asarida Amir Temur to'g'risida yozarkan, unga "omadli jangchi, dunyoning yangi hukmdori. . . taktik va strategik bilimlarni uyg'unlashtirgan inson", deb ta'rif beradi. Ayni vaqtda, Sohibqiron shaxsiga bo'lgan qarashlarida dabdabozlikni ortiqcha bilib, "davlatni boshqarishda tuzuk va qonunlarga suyangani" aytib o'tadi. Ingliz tarixchisi Edvard Gibbon (1737-1794) esa G'arbiy Yevropa va Sharq o'rta asr tarixiga baho berarkan, Amir Temurning "oddiy bekdan to Osiyo hukmdori darajasiga ko'tarilgani" dan hayratda qolganini yashirmaydi va uning "inson sifatida ham, hukmdor sifatida ham Yildirim Boyaziddan ustun turishini" alohida qayd etadi [8].

Fransiyada Sohibqiron hayotligidayoq, paydo bo'lgan ilk asarlardan biri Fransiya Marshali Jan II Busiko (1365-1421) qalamiga mansub bo'lib, u "Le Livre des faits du marechal Boucicaut" ("Marshal Busiko amalga oshirgan ishlar") deb ataladi. Sohibqiron haqida Jan II Busikoning xotiralari O'zbekistonda hali o'rganilmagan [9].

Mashhur nemis adibi I. V. Gyotening "G'arb-u Sharq devoni" dagi Amir Temurga bog'liq qismlari e'tiborimizni tortdi. Po Edgar Allan "Buyuk Temur" dostonida sohibqironni mag'rur va muzaffar zot sifatida talqin etadi. Garchi shoirning fojeaviy kayfiyatlari ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Doston uchun Bayron poemalarida qo'llanilgan to'rt turoqli yamb vazni tanlangan. E. Po she'rlarining yana bir rus tarjimoni mashhur shoir Valeriy Bryusov qayd etganidek, doston texnik nuqsonlardan holi emas, uslubi anchayin navqiron.

Dostonda ayrim kamchiliklar borligini va nuqsonlar ozgina qunt bilan barham topishi o'z zamondoslaridan farqli o'laroq ilk asarni haddan tashqari yaxshi ko'rgani aytiladi.

Ulug' Amir Temurning Yevropa, bundan kelib chiqib jahon miqyosidagi o'rni juda beqiyosdir. Temur siymosi tarannum etilgan yuzlab asarlar borki ular hamon o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tarixshunos, sharqshunos, temurshunos olim-u adiblari yozib qoldirgan asarlar yurtimizda tadqiq etilayotganligiga qaramasdan bu ishlar ko'lamini qoniqarli darajada deyish qiyin. Yevropa xaloskori solih va buyuk bunyodkor shaxs Amir Temur merosiga bag'ishlab yaratilgan tadqiqotlarni chuqur o'rganishimiz, xolis va haqqoniy talqin qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jean Paul Roux. Temerlan. 1994. –P. 23.
2. Tursunova P. F. "San'at" jurnali 2006 No 2.

3. Эрматов Б. Амир Темур Фарбий Европа адиблари нигоҳида. – Т. : «Navro‘z», 2019. – Б. 5.
4. Аҳмедов Б. Амир Темур ҳақида ҳикоялар. –Т. : "Ёзувчи", 1998. –Б. 80.
5. Клавихо Руи Гонсалес. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура[1403-1406] – М. : «Наука», 1990. –С. 106.
6. Xilda Xukhem. "Yetti iqlim sultoni". –Т. : "Adolat", 1999. –Б. 282.
7. Ziyoyev A. Temur markazlashgan davlat asoschisi// Amir Temur: shaxsining zamondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatining Mustaqil O‘zbekiston uchun ahamiyati. Samarqand 1996 24-sentabr.
8. Мухаммад Али ва бошқалар. Амир Темур чет элликлар нигоҳида. –Т. , 2016. –Б. 12-13.
9. Xayrullayev U. Amir Temur faoliyatining Yevropaliklar tomonidan dastlabki e’tirofi//Amir Temur – Buyuk sarkarda va davlat arbobi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Buxoro, 2022. –Б. 39.

Rahimboyeva Nodira Urazmatovna
Urganch davlat universiteti magistranti
rahimboyeva98@gmail.com

MUSTAQILLIK YILLARIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI TARIXIY XOTIRASINING TIKLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberdi tarixiy xotirasining tiklanishi va uni abadiylashtirish bo‘yicha olib borilgan ishlar tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: tarixiy xotira, moddiy meros, ma’naviy meros, orden, yirik tadbirlar, ajdod, avlod, harbiy akademik litsey

Аннотация: В данной статье анализируется работа, проводимая по восстановлению и увековечению исторической памяти Джалалуддина Мангуберди в годы независимости.

Ключевые слова: историческая память, материальное наследие, духовное наследие, заказ, основные события, Предок, поколение, Военный академический лицей

Annotation: This article analyzes the work carried out on the restoration and perpetuation of the historical memory of Jalaluddin Manguberdi during the years of independence.

Key words: historical memory, material heritage, spiritual heritage, order, major events, ancestor, generation, military academic lyceum

Kirish. Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning o‘rni va ahamiyati katta. Biron bir xalq o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ajdodlarimiz tarixini tiklash borasida ko‘plab tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Shu o‘rinda vatan qahramoni Jaloliddin Manguberding o‘zbek davlatchiligi tarixida turgan o‘rni beqiyosdir. U o‘g‘ir siyosiy vaziyatda hokimiyat tepasiga kelgan, lekin, shunga qaramay mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonovor kurashgan. Uning mardligiga xatto dushmanlari ham qoyil qolgan. Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Jaloliddin Manguberdi tarixiy xotirasini tiklash borasida ko‘plab tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bular jumlasiga 1998-yilda Vazirlar Maxkamasining 408-son qaroriga asosan yurtimizda Jaloliddin Manguberding 800-yillik yubileyi nishonlandi [1]. Ushbu tadbir davomida Urganchda Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi barpo etildi, Jaloliddin Manguberdi hayotiga bag‘ishlangan badiiy film yaratildi, ko‘chalar va bir nechta obyektlarga Jaloliddin Manguberdi nomi berildi. Yubiley munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Moliya vazirligi qiymati 25 so‘m bo‘lgan esdalik yubiley tangasini muomalaga chiqardi. O‘zbekiston badiiy akademiyasi Jaloliddin Manguberdi qiyofasini yaratish bo‘yicha respublika ochiq tanlovini o‘tkazdi. Jaloliddin

Manguberdi haqqoniy tarixini yaratish bo'yicha mahalliy va xorijlik tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan ko'plab asarlar tahlil qilindi.

1999-yilda Urganchda birinchi Prezidentimiz I. Karimov tomonidan Jaloliddin Manguberdiga haykal qo'yildi. Ushbu salobatli haykal bugun ham Respublikamizdagi eng baland haykal sifatida qad ko'tarib turibdi. Ammo haykal barpo etilgan yillarda ham, hozir ham unga nisbatan jamoatchilikda bir qator munosabatlar shakllangan. Chunonchi, tarixchi olimlar tomonidan haykalning otda tasvirlanmaganligi ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lgan edi. Axir, necha ming yillardan buyon Sharqda ot hokimiyat ramzi sanalgan. Har bir hukmdor ot bilan tasvirlanishi qonuniyatga aylangan edi.

2000-yil 30-avgustda Jaloliddin Manguberdi ordeni ta'sis etildi [2]. Ushbu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog'ini himoya qilishda hamda uni ko'z qorachig'iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan, davlatimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan qo'mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar. Jaloliddin Manguberdi ordeni 925 probali kumushdan tayyorlanadi, qirrador kumushrang nurlar taralgan beshburchak shaklga ega. Ordenning markazida, oq aylana bilan hoshiyalangan doirada, taralayotgan nurlar fonida Jaloliddin Manguberding qabariq zarhal tasviri joylashgan. Siymo ortidagi fon havorang-moviy emal bilan qoplangan. Aylananing yuqori qismida doira bo'ylab "Jaloliddin Manguberdi" degan yozuv joylashgan. Aylananing pastki qismida yashil emal qoplangan ikkita dafna novdasi simmetrik tarzda joylashgan bo'lib, barglari orasiga fianit kristallar o'rnatilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 12-13 mart kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida sulton Jaloliddin Manguberdi maydonini barpo qilish, uning nomiga yangi haykal o'rnatish, bunda sultonni otda tasvirlash tashabbusi ilgari surildi. Ushbu tashabbusni viloyatdagi ko'pchilik jamoatchilik vakillari, ziyolilar ma'qulladilar. Shu tariqa ulkan va salobatli haykalni yasash ishlari o'z yakuniga yetib qoldi, maydon qurilishi ham jadallik bilan olib borildi. Haykal bronzadan yasalgan bo'lib, Xorazm viloyati Urganch shahrida qad ko'targan. Haykal oldida esa Qur'on oyatlari, Jaloliddin Manguberdi shajarasi yozilgan bitiktosh ham o'rnatilgan. Ushbu haykalning ochilish marosimi 2022-yil 29-avgust kunida bo'lib o'tdi. Majmuaning tantanali ochilish marosimiga esa prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyuradi. Viloyat faollari, jamoatchilik vakillari ishtirokida haykalning ochilish tadbiri o'tkaziladi. Bu majmua Urganch shahar Al-Xorazmiy va Islom Karimov ko'chalarining kesishmasida joylashgan. Barpo etilgan majmuadagi haykal balandligi esa 25 metrdan iboratdir. Ushbu baland haykalda o'z tulpori jilovini mahkam tutib, yurt himoyasiga otlangan sarkarda siymosi tasvirlanadi. Shuni ham aytish joizki, mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberdi sharafiga ikki marotaba haykal o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyunda "Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-184-sonli qarori qabul qilindi [3]. Litsey o'rta-maxsus ta'lim muassasasi hisoblanadi. Litseyga qabul va o'quv jarayoni 2023-2024-o'quv yilidan boshlanadi. Litseyda o'quv jarayoni davomiyligi 2 yil bo'lib, yillik qabul kvotasi 150 nafarni tashkil etadi. Ushbu litseyga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish maqsadida Urganch davlat universiteti va Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti birlashtirildi. Litseyga o'quv-metodik jihatdan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ko'maklashadi. Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyda 12 mingdan ziyod elektron va 4 mingga yaqin badiiy adabiyotlar fondiga ega bo'lgan shinam kutubxona, Jaloliddin Manguberdi muzeyi, yopiq turdagi sport zali hamda ochiq maydondagi sport shaharchasi, saf maydoni, oshxona, 4 qavatli yotoqxona, internet global tarmog'i, Urganch davlat universiteti hamda kitob. uz internet saytiga ulangan zamonaviy kompyuter xonalari, kir yuvish va isitish majmualari-yu texnikalarni saqlash joylaridan iborat. O'quvchilar bu dargohda yashashi, ta'lim va tarbiya olishi, sport bilan mashg'ul bo'lishi shu bilan birga o'zlari yoqtirgan sohaning sir-asrorlarini o'rganishi uchun barcha qulayliklar mavjud.

Xulosa va takliflar. O'rta asrlarda odil hukmdor va mashhur sarkardalardan sulton Jaloliddin singari buyuk ajdodlarimiz yetishib chiqdiki, ular tariximiz va kelajagimiz barcha davrlari uchun faxrdir. Buyuk ajdodimiz sulton Jaloliddin Manguberding nafaqat vatanimiz

miqyosidagi balki butun sharq olamida, shuningdek, jahon tarixida tutgan o‘rnini bor bo‘yi bilan tarixiy manbalar asosida o‘qib, o‘rganishimiz lozim. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberdi tarixiy xotirasining tiklanishi va abadiylashtirilishi bo‘yicha yirik tadbirlar amalga oshirildi. Masalan, yurtimizda Jaloliddin Manguberding 800 yillik yubileyi keng nishonlandi, yubiley munosabati bilan ko‘plab tadbirlar o‘tkazildi, yodgorlik majmuasi barpo etildi. Jaloliddin Manguberdi nomidagi orden ta‘sis etildi. Mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberdiga 2 marta haykal qo‘yildi. Uning nomi bilan atalgan ko‘chalar, markazlar, ta‘lim muassasalari barpo etildi. Bunday tarixiy shaxslarimiz har asrda ham dunyoga kelavermaydigan buyuklar sirasidan ekanligini nazarda tutsak, bugungi va kelajak avlodlarni harbiy vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati bemisldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. 24. 09. 1998-yildagi 408-son
2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 30. 05. 2000-yildagi 110-II-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 12. 06. 2023-yildagi PQ-184-son

Risolat Sapayeva,

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali 2 – kurs talabasi,

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori

Ilmiy rahbar: H. Hamroyeva, filologiya fanlari doktori (DSc)

AN‘ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK: RAQSLARDA VATAN TARIXI

Annotatsiya: Mazkur maqolada an‘anaviylik va zamonaviylik tamoyillari O‘zbekiston xalq artisti G. Matyoqubova yaratgan tarixiy raqslar misolida tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: qadimiyat, qal‘a, tarix, marosim, udum, an‘ana, milliy ruh, “Lazgi”, mohiyat, san‘at, raqs, Xorazm.

Аннотация: В данной статье принципы традиционности и современности изучаются на примере исторических танцев, созданных народной артисткой Узбекистана Г. Матьёкубовой.

Ключевые слова: древность, крепость, история, обряд, традиция, национальный дух, «лазги», сущность, искусство, танец, Хорезм.

Abstract: In this article, the principles of traditionality and modernity are studied using the example of historical dances created by the People's Artist of Uzbekistan G. Matyoqubova.

Key words: antiquity, fortress, history, ceremony, tradition, national spirit, "Lazgi", essence, art, dance, Khorezm.

Milliy – ma‘naviy qadriyatlarda umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan jihatlar mujassamki, bir tomondan xalq yoki millatga xos qadriyatlar sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchidan o‘zi bilan insoniyatga ham dahldor bo‘lgan g‘oya va maqsadlarni olib yuradi. Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi milliy qahramonlarimizning Vatan ozodligi, inson erki uchun olib borgan bahodirona kurashlari, ona yurt, ota makon taqdiri uchun ko‘rsatgan jasratlari bizning tengdoshlarimizda cheksiz iftixor va milliy g‘urur uyg‘otadi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda

amalga oshirilayotgan bunyodkorlik islohotlari san'at va madaniyat sohasida zamonaviy kashfiyotlarni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "ushbu san'atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo'nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda" [1], deyilgan.

Har bir sohaning tarixiylik o'tmish haqiqatlari, tarixiy tajriba, tarixiy jarayonlardan chiqariladigan ilmiy tahlil va xulosalarning ishonchliligi bilan belgilanadi. Globallashayotgan dunyoda milliy qadriyatlarni, o'tmish saboqlarini o'rganishga ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Ilm-fanda ham, san'at va adabiyotda ham umumbashariy tarixiy jarayonlarning yaxlit interpretatsiyasi tadrijiy ravishda muntazam fikrlar izchilligini taqozo etadi.

XX asr 50-yillarida fanga "Sharq Renessansi" konsepsiyasini olib kirgan atoqli sharqshunos olim, akademik N. I. Konrad "Insoniyat tarixi – bu qandaydir jonsiz jarayon emas. U judayam konkret holda o'z tutumiga ega bo'lgan alohida xalqlar faoliyatining birlashuvi bilan shakllanadi. Lekin, shu bilan bir vaqtda, ko'pincha tarixiy jarayonlarning mazmuni bitta xalqning tarixiga taalluqli bo'lib ko'rinsa-da, u tom ma'noda faqat umumbashariy tarix tufayligina ochiladi"[2].



Bugungi kunda barkamol avlod shaxsini voyaga yetkazish masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. Barkamol avlod shaxsini shakllantirish bevosita tarixni bilish, vatan tarixini sevish, bu tamoyillarni yosh avlod tarbiyasiga singdirish bilan bog'liq. Tarix falsafasi – olam va odam, inson va jamiyat munosabatlarining ifodasidir. O'zbekiston xalq artisti G. Matyoqubova "Lazgi afsonasi", "Anaxita", "Qayroq so'zlaganda", "Toshlar tilga kirganda", "Lagan o'yini", "Olti xalfa", "Zikr" kabi raqsalarida avvalo yo'qolib borayotgan folklor elementlarini qayta tikladi. Muallifning Xorazm raqs san'ati tarixini yaxshi o'rganganligi, unga taalluqli nazariy-ilmiy manbalar bilan tanishgani "Xorazm "Lazgi" raqsi: tarixi va tavsifi" monografiyasining yaratilishiga asos bo'ldi. Unda "Lazgi" tarixi, shakllanish bosqichlari va taraqqiyotining estetik-ma'naviy manzarasi, milliy qiyofasi gavdalanirilgan.


O'zbekiston xalq artisti, Xorazm raqsalarining tadqiqotchisi va targ'ibotchisi G. Matyoqubova "Lazgi" raqsining tarixiy ildizlari "Avesto" bilan bog'liqligini shunday sharhlaydi: "Lazgi" raqsi haqida gapiradigan bo'lsak, uning ritmi "Avesto" "goh"lari ritmi bilan chambarchas bog'liq. Ritmik jihatdan shakllangan "goh"larni yodda saqlab qolish oson, ular shu yo'l bilan avlodlardan avlodga o'tib kelgan. "Lazgi" raqsi ham aynan o'ziga xos ritmi tufayli bugungi kungacha yetib kelgan" [3]. Ikkita raqsdan iborat "Anaxita" ("Uyqudagi go'zal") turkumi Gavhar Matyoqubova ijodini yanada yuksaklikka ko'tardi. Ularda quyosh nurlarini erk deb biluvchi, ezgulikka intiluvchi xalq ruhi, jasorati, orzu - armonlari o'z aksini topgan.

Qadimda raqs orqali insonlar atrofda bo'layotgan voqealar va tabiat hodisalariga munosabatini bildirgan. His-tuyg'ularini, qalb izhorlarini, quvonch va alamlarini ifodalagan. G. Matyoqubova sahnalashtirayotgan tarixiy mavzudagi raqsalarda avvalo bugun va kelajakning ildizlari o'tmish bilan tutashadi. Raqqosaning harakatlari va nozik ishoralarida oniy voqea va holatlar inson qalb tug'yoni bilan qayta uyg'onadi, yuragining eng tubidagi ehtirosli kechinmalari qayta tiriladi, goh alam, goh shodlikda kechgan hissiyotlar tomoshabin ko'z o'ngida yaqqol

namoyon bo‘ladi. Sevgi otashi, armonlari, sadoqat tuyg‘ulari tilga kiradi. G. Matyoqubova Vatan tarixi va milliy qadriyatlarga muhabbatini, o‘tmish haqida o‘qiganlari, bilganlari va eshitganlarini, tasavvurlari hamda ichki kechinmalarini raqslarda ifodalash orqali tomoshabinni tafakkurga, hayot ziddiyatlari mohiyatini anglashga undaydi.



Xorazm raqlari azaldan serjilo va maftunkor, uning tilsim to‘la falsafasi murakkab, bir-birini takrorlamaydigan jo‘shqin harakatlari tomoshabinni o‘ziga sehrlaydi. Libos hamda bezaklaridagi yorqin ranglar va rangin naqshlarning o‘zi ham go‘yoki raqs tushayotganga o‘xshaydi: nihoyatda jozibali. Raqs o‘zida ijodkor qalbidagi yashirin intilishni, romantik hissiyotlar va hayotsevarlikni mujassam etgani tufayli inson qalbini rom qiladi. Haqiqiy raqsdan abadiy nafasat suratlari jo‘ bo‘ladi. Uning harakatlarida o‘ziga xos yashirin timsollar, ishoralar va ramzlar mavjud. G. Matyoqubovaning tarixiy mavzudagi raqlari kuchli ma‘no va mohiyatga ega bo‘lib, ularda yashash va yaratish ishq, dunyoni orzularda ko‘rayotgan hayotsevar inson qiyofasi bo‘y ko‘rsatadi. “Uyqudagi go‘zal” (“Anaxita”) turkumini ko‘rgan tomoshabin, raqs-hissiyotlar va kechinmalar, nozik ishoralar san‘ati ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qiladi.



Chunki, ildizlari “Avesto”ga borib tutashuvchi milliy raqs ham madaniy-ma‘naviy merosimizning ajralmas qismidir. Milliy raqslarning taraqqiyotida ular mansub xalqning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va jug‘rofiy sharoitlari muhim rol o‘ynaydi. Asarda eng yorqin bo‘yoqlarda “Avesto” davrining tarixiy – estetik manzarasi chizilganligi, Anaxita timsolida ayol qalbining nozik kechinmalari, olam va odam munosabatlaridagi sirlar, tilsimlar, ruhiyatidagi iztiroblar mujassam bo‘lganligi uchun ham Gavharxonimning “Anaxita” turkumi xalqaro YUNESKO tashkilotining ko‘plab tadbirlarida ijro etildi, xorijlik san‘atshunos-mutaxassislarning e‘tiboriga tushdi, hamisha eng sovrinli o‘rinlarni egalladi, iste‘dodli, go‘zal raqqosa Dilnoza Mavlonova ijodining gultojiga aylandi.

Tarixiy mavzudagi raqs muayyan sharoitda yuzaga kelgan va inson ruhiyatining, hayotining turli holatlarini o‘zida aks ettiradi va san‘at asarlarining eng ta‘sirchan vositasi hisoblanadi. Aynan shu xususiyatlari bilan odamlarni o‘ziga tortadi. O‘zbekiston xalq artisti, etnograf va san‘atshunos, betakror iste‘dod sohibasi, mohir baletmeyster G. Matyoqubova yaratgan har bir raqs uzoq izlanishlar va mashaqqatli mehnat mahsuli bo‘lganligi uchun chinakam kashfiyot darajasiga ko‘tariladi, ularda o‘ziga xos obrazlilik, o‘tmish voqeligi, dramatism, raqs texnikasi, maftunkor go‘zallik va sehr bor. Zero, odamlarni hayratga solish ham ulkan san‘at.

G. Matyoqubovaning tarixiy mavzudagi raqlari – uzoq o‘tmishimiz, bebaho madaniyatimizning boy qadimiy an‘analari haqidagi qimmatli ma‘lumotlar xazinasini bo‘lib, yoshlarning ma‘naviy saviyasini va badiiy didini o‘tkirlashtiradi, ularning ong-u shuurida milliy g‘urur va ijodkorlikni shakllantiradi hamda xorijlik san‘atshunos-tadqiqotchilarning milliy raqs san‘atimizga qiziqishlarini kuchaytiradi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan Yangi O‘zbekistonda boy xalqimizning tarixiy an‘analarini, milliy-ma‘naviy qadriyatlarini mukammal o‘rganish va tadqiq qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini ulg‘aytirishda madaniyat, san‘at va adabiyotning, xususan, O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori Gavhar Matyoqubova kabi ustoz san‘atkorlar yaratayotgan tarixiy mavzudagi rangin va jozibali, sof milliy raqslarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ЎЗР Президентининг “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, ЎЗА, 2020, 4 февраль
2. Конрад Н. И. Запад и Восток. М. : изд. Главная редакция восточной литературы. 1972. с. 454.
3. Матёкубова Г. Тохтасимов Ш. Ҳамроева Ҳ. Хоразм “Лазги” рақси: тарихи ва тавсифи. Т. :2022. Б. 32.

*Ҳамдамова Юлдуз Равшанбек қизи –
Хоразм вилояти ИИБ ходими*

SOVET DAVRIDA QATAG‘ON QURBONIGA AYLANGAN ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI FAOLIYATINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet davrida Xorazm viloyati ichki ishlar organlarida xizmat qilib, qatag‘on qilingan xodimlar shaxsining o‘rganilishi, ularning hayoti va faoliyati haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *komissarlik, ichki ishlar, militsiya, Xorazm, xotira, qatag‘on, arxiv, ekspozitsiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируются изучение личности сотрудников, служивших в органах внутренних дел Хорезмской области в советский период и подвергшихся репрессиям, а также сведения об их жизни и деятельности. .*

Ключевые слова: *комиссариат, внутренние дела, милиция, Хорезм, память, репрессии, архив, экспозиция.*

Annotation: *This article analyzes the study of the personality of employees who served in the internal affairs bodies of the Khorezm region during the Soviet period and were subject to repression, as well as information about their lives and activities.*

Keywords: *commissariat, internal affairs, police, Khorezm, memory, repression, archive, exhibition.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi”da milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish hamda tahlil qilish, Vatanimiz ozodligi va tinchligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish asosida xodimlarda xizmat burchini bajarish borasida qat‘iy hayotiy e‘tiqodni qaror toptirishga alohida e‘tibor qaratilgan [QHMMB, 2021: 3].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-avgust kuni “Shahidlar xotirasi” xiyobonida berilgan konseptual fikrlar va topshiriqlar ijrosini ta‘minlash, nohaq qatag‘onga uchragan ichki ishlar organlari xodimlarining nomlarini tiklash va yosh avlodga yetkazish orqali ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini yanada yuksaltirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirining 2023-yil 27-dekabrda 389-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida Xorazm viloyati IIB boshlig‘ining 2024-yil 11-yanvar kuni 2-sonli farmoyishi imzolandi [XVIIIBJA, 2024].

Ushbu farmoyishga asosan, Sobiq ittifoq tuzumi davrida nohaq qatag‘on qilingan ichki ishlar organlari xodimlariga bag‘ishlab, tayyorlanayotgan kitob uchun ma‘lumotlar to‘plash maqsadida Xorazm viloyat ichki ishlar boshqarmasining tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlari, viloyat ichki ishlar organlari faxriylari, tarixchi olimlardan iborat ishchi guruhi tuzildi. Ishchi guruh tomonidan Nazir Sholikorov, Masharif Koriyev, Axmedjon Ibroxim hamda general-mayor Sabirov Salim Zakirovichlarning hayoti va faoliyati haqidagi ma‘lumotlari, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlari va foto materiallari o‘rganildi [XVIIIBJA, 2024].

Xorazmda militsiya sohasini tashkil etgan va ushbu sohaning dastlabki rahbari bo'lgan Nazir Sholikorov 1881-yilda Xiva shahrida savdogar Qurboniyoz Sholikorov xonadonida tug'ilgan. U 1920-yilda Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Respublikasini barpo etishda faol qatnashgan. 1920-yil 9-apreldan XXRning birinchi qurultoyida ichki ishlar noziri, militsiya boshqarmasining boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatgan. Nazir Sholikorov militsiya saflariga o'zi kabi adolatparvar, fidoyi kishilarni ishga olishga, ularga o'z bilim va tajribalarini oshirib borishga yordam berib bordi.

Bir yillik faoliyatidan so'ng, u 1921-1930-yillarda yangi ochilgan kooperativda, keyin Xiva shahar mudofaa bo'limi boshlig'i lavozimida ishlagan. 1931-yilda pensiyaga chiqqan. 1937-yil sovet jamiyatida boshlangan "katta terror" davrida tuhmatdan iborat ayblovlar tufayli qamoqqa olingan. 1938-yil 4-oktabrda otuvga hukm qilingan [Tajiyev K. , 2022: 22].

O'rganishlar natijasida Nazir Sholikorovning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar "Postda" gazetasining 2024-yil 25-yanvar kunidagi 4-son nashrida chop etildi [Jabborov X, 2024: 3].

Ichki ishlar tizimida xizmat qilgan general-mayor Sabirov Salim Zakirovich Ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini 1946-yilda Farg'ona shahar IIB profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. 1946-yildan 1975-yilga qadar Farg'ona shahar IIBda xizmat qilgan. 1975-yildan 1984-yilga qadar Xorazm viloyati IIB boshlig'i lavozimlarida xizmat qilgan. 1984-yilda ichki ishlar organlari xizmatidan bo'shatilgan. 1988-yil 30-dekabrda Sobiq ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasining hukmi ozodlikdan mahrum qilingan. 1994-yil 9-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumi qarori bilan Sobiq ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasining hukmi bekor qilinib, jinoyat ishi harakatdan tugatilgan [XVIIIBA, 2024].

Ichki ishlar tizimida xizmat qilib, 1937-38-yillardagi "Katta terror" yillarida qatag'on qurboni bo'lgan Masharif Qoriyevning shaxsiga va faoliyatiga oid ma'lumotlarni aniqlash maqsadida Urganch shahar arxividan ma'lumotlar izlash jarayonida 1925-yilda M. Qoriyev nomiga ochilgan №1 raqamli yig'ma jild topildi. Undagi ma'lumotga ko'ra M. Qoriyev 1901-yilda Xiva shahrida tug'ilganligi ko'rsatib o'tilgan. Urganch shahridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyidan M. Qoriyevning Xorazm xalq Respublikasi Ichki ishlar noziri o'rinbosari vaqtida tushgan surati topildi.

1990-yil 1-fevralda "Xorazm haqiqati" gazetasida M. Qoriyevga bag'ishlab tarixchi professor Madrim Mahmudovning "U 36 yoshda edi" nomli maqolasi chop qilingan. Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Umid Bekmuhammadning "Qatag'on qurbonlari" kitobida yozilishicha, u Toshkent shahri Yunusobod tumanida yashagan [Bekmuhammad U, 2020: 47-48].

Xorazm Xalq Respublikasi o'rnatilgan davrda 17 yosh bo'lgan Masharif Qoriyev 1925-yilgacha bo'lgan davrda Xorazmda militsiya otryadida faoliyat ko'rsatgan. Xiva, Yangiariq, Xonqa tumanlarida ichki ishlar bo'limlarini tashkil etishga boshchilik qilgan. Okrug partiya komiteti va sobiq O'zSSR Ichki ishlar komissarligi 1926- yilda Masharif Qoriyevni Xorazm okrug Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i qilib tayinlagan. U bu vazifada 1930-yilgacha 4 yil faoliyat ko'rsatgan.

1930-yildan 1934-yilgacha Respublika Xalq Komissarlari sovetida faoliyat ko'rsatgan. 1933-34-yillarda O'zbekiston SSR yer ishlari xalq komissarining o'rinbosari bo'lib ishlagan. 1934-37-yillarda Xorazmga qaytib kelib, okrug Ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari bo'lib ishlagan. 1937-yilda avj olgan qatag'on davrda "xalq dushmani" sifatida qamalib, 1939-yilning 3-yanvar kuni qamoqda vafot etgan [Tajiyev K. , 2022: 28].

Ichki ishlar tizimida xizmat qilib, 1937-38-yillardagi "Katta terror" yillarida qatag'on qurboni bo'lgan Axmedjon Ibroximning shaxsiga va faoliyatiga oid ma'lumotlarni aniqlash maqsadida Qo'shko'pir tumanida olib borilgan izlanishlar natijasida Qo'shko'pir tumani, Oqdarband qishlog'i, "Oshoqqa'la" mahallasi fuqarolar yig'inida Axmedjon Ibroximovning portreti borligi aniqlandi. "Oqdarband" xotira kitobida Axmedjon Ibroximov Shovot tumanida raykom kotibi bo'lib ishlagani, toshhovuzlik o'zbek ayoliga uylangani, Nargiz va Narimon ismli

farzandlari borligi, Axmedjon Ibraximov qamaliganidan so‘ng oilasi Shovot tumanida qolgani haqida yozilgan.

Nurmat Rajabovning “Shovot tarixi” kitobida Axmedjon Ibroximov otliq suvoriylari bilan tushgan surati aks etgan. Izlanishlar natijasida Axmedjon Ibroximov 1938-yilda qamoqqa olingani, qamoqdan 1940-yilda ozod etilgani, keyin Toshkent va Chirchiq shaharlarida va Namangan viloyati Uychi tumanlarida yashab, ishlagani aniqlangan.

Bundan tashqari, ishchi guruh a‘zolari tomonidan Xorazm militsiyasi podpolkovnigi marhum Qurbonboy Tangriberganov ham qatag‘on qurboni bo‘lganligi aniqlangan. Qurbonboy Tangriberganov 1926-yilda Bog‘ot tumanida tug‘ilgan. U dastlab Qirg‘iziston militsiyasida 15 yil xizmat qilgan. 1965-yilda u tug‘ilib o‘sgan yurti Xorazmga xizmatga o‘tkazilgan. Bu yerda u avval viloyat ichki ishlar boshqarmasida, keyin Urganch shahar IIBda jinoyat qidiruv bo‘linmalariga rahbarlik qildi. 1973-yilda mayor Qurbonboy Tangriberganov Qo‘shko‘pir rayon ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i qilib tayinlandi. Keyinchalik Hazorasp tuman IIB boshlig‘i vazifasida xizmat qilgan. O‘rganishlar natijasida Qurbonboy Tangriberganovni 1980-yillarning boshlarida “gdlyanchilar” guruhi faoliyatidan aziyat chekkanligi aniqlanadi.

Xulosa shuki, Ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilgan insonlar orasida shunday xodimlar bo‘lganki, ular o‘zlarining fidoyi mehnatlari tufayli el orasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lganlar. El osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilishni o‘zlarining umr mazmuni qilib olgan bunday insonlar hayotini yoshlarga ibrat sifatida ko‘rsatadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (QHMMB), 02. 04. 2021 y. , 07/21/5050/0280-son
2. Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasining joriy arxiv ma‘lumoti (XVIIIBJA). Urganch, 2024-yil.
3. Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasining 2024-yil 8-fevraldagi 7/168-sonli xati.
4. Tajiyev K. , Matyakubov M. va b. Osoyishtalik yo‘lida bir asr. Toshkent: Azmin nashr print, 2022-yil.
5. Jabborov X. Xorazmning asl o‘g‘loni // Postda” gazetasi, 2024-yil 25-yanvar.
6. Mahmudov M. U 36 yoshda edi // Xorazm haqiqati, 1990-yil 1-fevral.
7. Bekmuxammad U. Qatag‘on qurbonlari. Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 2020-yil.
8. Raxmanova Yu. , Xudayberganov M. Oqdarband. Toshkent, 2023-yil.

***Bozorov Sodiqjon Normo‘minovich –
MXO tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar
boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari.***

JALOLIDDIN MANGUBERDI FAOLIYATI IBN AL-ASIR TALQINIDA

Maqolaning qisqacha mazmuni: XX asr 90 – yillaridan boshlab jahon miqyosida va O‘zbekistonda Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga doir bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsada, buyuk qahramonning hayoti va faoliyati haqidagi yozma manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari haligacha to‘liq tahlil qilinmagan. Qolaversa, ayniqsa yozma manbalar ma‘lumotlari tanqidiy tahlil qilinmagan. Jumladan, mashhur tarixchi Ibn al-Asirning asari shubhasiz juda muhim manbalar sirasiga kiradi. Ammo, muallif asarida Jaloliddin Manguberdiga salbiy munosabatda bo‘lgan. Shu jihatdan olganda mazkur manbani qiyosiy va xolisona tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada, Ibn al-Asirning Jaloliddin Manguberdi haqidagi fikr-mulohazalari va munosabati masalasi tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: Jaloliddin Manguberdi, Ibn al-Asir, An-Nasaviy, V. V. Bartold, Z. M. Buniyotov, I. P. Petrushevskiy, S. M. Akimbekov, Ye. I. Kichanov, T. I. Sultanov, D. M. Timoxin, R. P. Xrapachevskiy.

Аннотация: Начиная с 90-х годов XX века, во всем мире и в Узбекистане проводится ряд исследований деятельности Джелал ад-Дина Менкбурни, однако письменные источники и историографические исследования о жизни и деятельности великого героя до сих пор не проанализированы в полной мере. Кроме того, информация письменных источников не подвергалась критическому анализу. В частности, одним из важнейших источников, несомненно, является труд известного историка Ибн аль-Асира. Однако в своем произведении автор отрицательно относился к Джелал ад-Дину Менкбурни. В связи с этим сравнительный и объективный анализ данного источника является одним из актуальных вопросов. В данной статье анализируется мнение и отношение Ибн аль-Асира к Джелал ад-Дину Менкбурни.

Ключевые слова: Джелал ад-Дина Менкбурни, Ибн аль-Асир, Ан-Насави, В. В. Бартольд, З. М. Бунятов, И. П. Петрушевский, С. М. Акимбеков, Е. И. Кычанов, Т. И. Султанов, Д. М. Тимохин, Р. П. Храпачевский.

Abstract: Since the 90s of the 20th century, a number of studies have been carried out around the world and in Uzbekistan on the activities of Jalal ad-Din Menkburni, however, written sources and historiographic studies about the life and work of the great hero have not yet been fully analyzed. In addition, information from written sources has not been subjected to critical analysis. In particular, one of the most important sources is undoubtedly the work of the famous historian Ibn al-Athir. However, in his work the author had a negative attitude towards Jalal ad-Din Menkburni. In this regard, a comparative and objective analysis of this source is one of the pressing issues. This article analyzes the opinion and attitude of Ibn al-Athir towards Jalal ad-Din Menkburni.

Key words: Jalal ad-Dina Menkburni, Ibn al-Asir, An-Nasawi, V. V. Bartold, Z. M. Buniyotov, I. P. Petrushevsky, S. M. Akimbekov, E. I. Kychanov, T. I. Sultanov, D. M. Timokhin, R. P. Khrapachevsky.

KIRISH (INTRODUCTION). Maʼlumki, XII asrning ikkinchi yarmi - XIII asrning boshlaridagi davr islom tarixining eng qorongʻu sahifalarini tashkil qiladi. Bizgacha yetib kelgan manbalarning maʼlumotlari bir-birlariga qarama-qarshi boʻlib, muhim tarixiy voqealar sanalarini aniqlash ham qiyin. Bu muammoga hatto, V. V. Bartold ham duch kelganini aytgan [1]. Bu manbalarda aks etgan, tashqaridan shunday qudratli koʻringan saltanatning ichki tomondan zaifligi tashqi dushman bilan toʻqnashuvida tez namoyon boʻlgani va ayniqsa, Jaloliddin Manguberding moʻgʻullarga qarshi olib borgan kurashlari voqealari va uning faoliyatiga berilgan baholar esa koʻp hollarda mavhum va bahstlab mavzulardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Soʻnggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi faoliyati va uning Chingizxon va moʻgʻullarga qarshi olib borgan kurashlari tarixi XIII asr Markaziy Osiyo, Kavkazorti, Oʻrta va Yaqin Sharq xalqlari tarixining eng muhim sahifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olganda mazkur voqealar oʻrta asrlar yozma manbalarida: arab-fors, suriya, gruzin, arman va xitoy manbalarida aks etgan. Bu manbalar ichida, soʻzsiz Ibn al-Asirning “al-Komil fi-t-tarix” (Komil tarix, Tarixi komil) asari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Tabiiyki, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqidagi mazkur manbaning maʼlumotlarining qay darajada ishonchli yoki ishonchsiz ekanligi borasida ham turli savollar tugʻiladi. Ammo mazkur manbaga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, Ibn al-Asir Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga salbiy munosabatda boʻlgan. Bunday salbiy munosabatning sababi shundaki, muallifning voqealarni qaerdan va kimdan olganligi yoki voqealar va shaxslarga qay darajada hamda qanday qarashda munosabatda boʻlganligi bilan bogʻliq.

Mazkur manbaning tarixshunoslik tahliliga qaratilgan tadqiqotlar ham afsuski, aynan manbadagi kabi Jaloliddin Manguberdi siymosiga turlicha baho berilgan hamda fikr va xulosalar bir-biriga qarama-qarshidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Xorazmshoh – anushteginiylar davlati, so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi faoliyati va umuman, Chingizxon va mo'g'ullar bosqini davri voqealari, shu davrlar xalifalik va musulmon davlatlari tarixiga bag'ishlangan eng muhim asarlardan biri - bu Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdulvohid ash-Shayboniy, ya'ni Izzaddin Ibn al-Asir al-Jazariy nomi bilan mashhur bo'lgan muarrixning "al-Komil fi-t-tarix" (Komil tarix, Tarixi komil) nomli asaridir [2].

"Al-komil fi-t-tarix" asari o'n ikki jilddan iborat bo'lib, unda dunyoning "yaratilishi"dan to 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil, xronologik, ya'ni davr tartibida bayon etib beriladi. Asar 1198 – 1199 yillarda yozib boshlanib, 1230 – 1231 yillarda tugallangan.

Shu bilan birga, muarrix o'z asarida keltiriladigan ikkita qarama-qarshi fikrdan qaysisini tanlashda qiynalgan holda ikkalasini ham keltirgan [1].

V. V. Bartold Ibn al-Asir asarlarining qiymatini yuqori baholab, uni o'z asarlariga ma'lumot to'plash jarayonida "ulug' bir vijdoniylik va o'sha davrda kamdan-kam ko'zga tashlanadigan tanqidiy yondashuv bilan ish tutganini" qayd qilgani holda, u bizning mavzumizga oid ma'lumotlarini chuqur va xolisona tahlil qilmagan. Ya'ni, Bartold so'nggi Xorazmshohlar Alouddin Muhammad va Jaloliddin Manguberdi faoliyatni yoritish jarayonida ko'proq Ibn al-Asirga bog'lanib qolib, ular haqida bir yoqlama xulosa chiqargan hamda Chingizxonni ortiqcha ideallashtirib yuborgan (bu haqda mavzumizning tarixshunoslikka bag'ishlangan qismida batafsil to'xtalib o'tamiz). Jumladan, mo'g'ul bosqini va uning oqibatlarida faqat Muhammad Xorazmshohni aybdor qilib ko'rsatadi. Zero, Xorazmshoh-anushteginiylarning mo'g'ul bosqinini bartaraf eta olmasdan parchalanib ketishiga juda ko'plagan tarixiy jarayonlar sabab bo'lgan. Buni zamonaviy tarixshunoslarning aksariyati o'z asarlarida ta'kidlab o'tganlar.

Umumiy holatda Ibn al-Asirning "al-Komil fi-t-tarix" asarining, Jaloliddin Manguberdi faoliyati aks etgan XII jildi biz uchun muhim. Zero, uning muallifi shu davrda yashagan va ko'p voqealarning bevosita guvohi bo'lgan. Ayniqsa, mo'g'ullar bosqini bilan bog'liq voqealar faqat arab tilidagi yana ikki asarda – Shihobaddin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy (vafoti 1249 yil)ning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Munkburniy" va Minhoyuddin Abu Umar Usmon ibn Muhammad al-Juzjoniyy (vafoti 1250 yildan keyin)ning "Tabaqoti Nosiriy" asarida kengroq yoritilgan, xolos.

Ammo Ibn al-Asirning bu asarini o'qib chiqar ekanmiz, unda muallifning Xorazmshohlarga nisbatan yomon munosabatda bo'lganligi seziladi yoki qandaydir g'ayirlik ruhi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdigacha munosabat masalasida Ibn al-Asirning asaridan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimki, unda Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati tarixiga ruhiy tushkunlik, g'amginlik holatida baho berilganligi seziladi. Buni tushunish mumkin. Zero, o'z asarining kirish qismida, muallif asarni yozishga uzoq vaqt qo'li bormaganligini, hatto bu voqealarning guvohi bo'lgandan ko'ra tug'ilmagani yaxshi bo'lganligini o'z og'zi bilan aytib o'tadi. Jumladan, mo'g'ullarning O'rta Sharqqa yurishlarining boshlanishini tarixchi Ibn al-Asir shunday yozadi: ". . . Bu voqealarni qayd qilishni hech ham istamasdim, ba'zan buni yozish kerakligini tushunsam ham bir qadam oldinga, ikki qadam ortga qaytib voz kechardim. Islomning va musulmonlarning o'lim xabarleri va boshlariga tushgan falokatlarini yozish osonmi? Koshki onam meni tug'masa, koshki bu daxshatli falokatlardan oldin o'lib ketsam". Kimdir biri "Alloh taolo tomonidan Odam atoning yaratilganidan to bugunga qadar bu daxshatga o'xshashi yo'qdir" desa mutlaqo haq gapni aytgan bo'lar edi" [2].

Bundan xulosa shuki, islom olamiga juda og'ir musibatlarni keltirgan mo'g'ullar bosqinini o'ziga ruhiy jihatdan og'ir olgan muallif, bu fojialarning sabablarini emas, balki sababchisini izlaydi. Uning nazdida esa bu fojiviy voqealarning sababchisi Xorazmshohlar sulolasi, shu jumladan, Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. Nasaviy ham o'zining asari boshida Ibn al-Asirning

ba'zi masalalarda haqiqatdan biroz chekinganligini ta'kidlaydi [3]. Eng asosiysi, bu manbadan ko'pgina yozma manbalar mualliflari va hatto, XIX asrdan keyingi tadqiqotchilar ham birlamchi manba sifatida foydalaniligidan Jaloliddin Manguberdi shaxsi haqida bu manbalarda ham salbiy munosabat shakllangan. Bu, ayniqsa, arab manbalariga taalluqli bo'lib, Ibn Vosil, Sibt Ibn al-Javziy, Yosin al-Umariy, Al-Kalkashandiy, Ibn Tiqtaqa, Ibn Tangriberdiy, Ibn Xollikon, Ibn Qosir, Ibn al-Ibriy, Ibn al-Vardiy, Ibn al-Amid, G'ozzi Ahmad G'afforiy, Abulfaraj, Bayhaqiy, Vassof va boshqa o'nlab tarixchilarning va keyingi tadqiqotchilar V. V. Bartold hamda Z. Buniyodovning asarlarida Jaloliddin Manguberdi haqidagi salbiy fikrlarning shakllanishini shu ma'noda tushunish mumkin.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, zamonaviy tadqiqotchilarning ko'pchiligi negadir Juvayniyni Jaloliddin Manguberdi siymosini ideallashtirib yuborganlikda ayblab, Ibn al-Asirni esa mo'g'ullar bosqini va Jaloliddin Manguberdi tarixini haqqoniy tarzda yoritgan deb ta'kidlashdan charchamaydilar. XX asr boshidayoq mashhur boshqird siyosiy arbobi va tarixchisi Ahmad Zaki Validiy To'g'on bejiz V. V. Bartold asarlaridan ehtiyotkorroq bo'lib foydalanishni ta'kidlamagan edi [4]. Shunday ekan, endilikda faqat V. V. Bartold asarlari ma'lumotlari bilan cheklanib qolmasdan, barcha manba va tadqiqotlar ma'lumotlarini chuqur mushohada va tahlilga asoslangan tarixni yoritish vaqti allaqachon yetdi va bu manba va tadqiqotlarning o'zini tanqidiy o'rganish lozim.

Tadqiqotda Ibn al-Asir asarining 2006 yilda amalga oshirilgan rus tilidagi terma tarjimasidan (Toshkent: O'zbekiston. Tarjimonlar P. G. Bulgakov va Sh. Kamoliddin) keng foydalanildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumot beruvchi barcha manbalarni o'rganish asosida uning siymosiga qanday munosabatda bo'linishidan qat'iy nazar, buyuk vatanparvar lashkarboshi Chingizxonning eng munosib raqibi, ozodlik uchun tolmas kurashchi, vatanparvar qahramon sifatida tan olinadi va uning tarixdagi o'rniga munosib baho berilgan. Bu manbalar ham baribir Jaloliddinning Chingizxonga qarshi olib borgan kurashlarini yoqlaydilar va Jaloliddinning mo'g'ul bosqinidan himoya qiluvchi yagona devor bo'lganligini tan oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. – С. 77.
2. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих (Полный свод истории). Избранные отрывки. / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П. Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш. С. Камолитдина. – Т. : Узбекистан, 2006. – 560 с. +вкл. 32 с.
3. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолитдин Мангуберди хаёти тафсилоти. / Камол Матёкубов таржимаси. / – Т. : O'zbekiston, 2006. – Б. 19.
4. Ibn Fadlan's reisebericht von A. Zeki Validi Togan. Leipzig, 1939; яна қаранг: Шигабиддинов Р. Неизвестные страницы А. Валидий. Пер. с башкирского языка Д. Рашидова. "Ўзбекистон тарихи", 2000, №1-2, 57-70-бетлар.

QO'NG'IROT SO'FIYLARINING TAXTGA KELISHI MUAMMOSI

Maqolaning qisqacha mazmuni: Xorazm vohasida qo'ng'iro't so'fiylari deb nom olgan sulolaning taxtga kelishi muammosi to'liq o'z yechimini topgan emas. Zero, mavjud yozma manbalar ma'lumotlari bu sulolaning Xorazmda XIV asrning 70-yillaridan Chig'atoy ulusining Amir Temur tomonidan tugatilishi voqealari ta'sirida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Ammo, bundan oldin ham Oltin O'rda davlati ta'sirida bo'lgan qo'ng'iro'tlar Xorazmda hokimiyatni egallab kelayotgan edilar, arxeologik va numizmatik manbalar yordamida bu muammoni hal qilish mumkin bo'ladi. Shu jihatdan olganda, mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qo'ng'iro't so'fiylari, Amir Temur, temuriylar, Xiva, Vazir, Tirsak, Yangishahar (Shemaha-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik.

Аннотация: Проблема восшествия на престол династии известных как Кунгиратских суфиев в Хорезмском оазисе до конца не решена. Потому что, согласно имеющимся письменным источникам, эта династия была создана в Хорезме в 70-х годах XIV века под влиянием событий прекращения династии Чигатай Амиром Темуrom. Однако еще до этого под влиянием золотоордынского государства кунгираты захватили власть в Хорезме, поэтому решить эту проблему можно будет с помощью археологических и нумизматических источников. В связи с этим данная статья посвящена этой теме.

Ключевые слова: Улус Чигатай, Золотая Орда, Кунгратские Суфи, Амир Тимур, Тимуриды, Хива, Вазир, Тирсак, Янгишехр (Шемаха-кала), Адак (Ак-кала), Кумкэнд, Багдадик.

Annotation: The problem of the accession to the throne of the dynasty known as Kungirat Sufis in the Khorezm oasis has not been fully resolved. Because, according to the available written sources, this dynasty was created in Khorezm in the 70s of the 14th century under the influence of the events of the termination of the Chigatai dynasty by Amir Temur. However, even before that, the bells under the influence of the Golden Horde state were taking power in Khorezm, so it will be possible to solve this problem with the help of archaeological and numismatic sources. In this respect, this article is dedicated to this topic.

Key words: Ulus of Chigatai, Golden Horde, Kungrat Sufis, Amir Timur, Timurids, Khiva, Wazir, Tirsak, Yangishehr (Shemakha-kala), Adak (Ak-kala), Kumkend, Bagdadik.

KIRISH (INTRODUCTION).

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Keyingi o'rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm (ko'proq Shimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqei baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Ammo, mo'g'ul istilosidan keyin to Xiva xoni Abulg'oziygacha yozilgan yozma manbalar juda kamligi va borlarida ham ushbu muammo bir taraflama yoritilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu mavzuga oid ma'lumotlar mavjud bo'lgan arab-fors tilidagi manbalari jumlasiga Rashidaddin Fazlulloh [1], Ibn Battuta [2], Ibn Arabshoh [3], Hamdulloh Mustavfiy Qazviniy [4], Shahobiddin al-Umariy [5], al-Bakuviy [6], Shayx al-Birzaliy [7] kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm vohasi siyosiy tarixi, jumladan, qo'ng'iro't so'fiylari tarixi, ularning Amir Temur va Temuriylar sulolasi bilan munosabatlari masalalari bilan bir qatorda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ham o'z aksini topgan.

Qo'ng'iro't so'fiylarining Xorazmda taxtga kelishi muammosi masalasi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ammo, bu mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar chiqarilgan tadqiqotlar yo'q. Mazkur mavzu bo'yicha V. V. Bartold [7], V. G. Tizengauzen [5], B. I. Vaynberg [8], N. Ibrohimov [9], J. Sabitov [10] M. Sh. Qdirniyazov [11] kabi tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borganlar.

TADDIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Yuqorida ta’kidlanganidek, Xorazmda qo’ng’irot so’fiylari sulolasi qachon mustaqil idora qila boshlaganligi to’g’risida aniq ma’lumotlar yo’q. Ammo, manbalar tahlili, ularning Xorazmda boshqarishi XIV asrning boshlaridan boshlaganligi xususida to’xtamga keluvchi ma’lumotlar mavjud. Jumladan, fors tarixchisi Rashididdin “Jome’ ut-tavorix” asarida Jo’ji ulusi tarkibidagi qo’ng’irot urug’iga mansub hamda ota tarafdan Chingizxonning xotini Burte Fudjen urug’idan bo’lgan Soljitoiy mulki Xorazm yaqinida bo’lgan [1]. Soljitoiy yana Oltin O’rda xoni To’xtaxonning onasi tarafidan bobosi hisoblangan. Bundan kelib chiqiladigan bo’lsa hamda Soljitoiyning Xorazm atroflarida (Shimoliy Xorazm ham kirgan bo’lsa kerak) boshqarganini hisobga olinsa, qo’ng’irot sulolasi Xorazmni deyarli XIV asrning boshlaridan boshqarib kelganlar. Bundan tashqari, Rossiyalik tadqiqotchilar, D. M. Ishoqov va I. L. Izmayilov, qozog’istonlik tadqiqotchi J. Sabitovlarning fikricha, mashhur Xorazm amiri Qutlug’ Temur ham aslida qo’ng’irot urug’idan bo’lgan [11].

1335 yilda Qutlug’ Temur vafot qilganidan so’ng amirlardan biri Nongadoiy Xorazmda boshqara boshladi. Bu holat yuqoridagi fikr, ya’ni Qutlug’ Temurning qo’ng’irot urug’idan bo’lganligi haqiqatga yaqinligini ko’rsatadi. Chunki undan keyin hokimiyatga albatta uning qarindoshi yoki urug’doshi kelishi tabiiy hol.

Ammo, Qutlug’ Temurdan farqli ravishda Nongadoiyning ham, umuman qo’ng’irot so’fiylari sulolasi vakillari ham dabdabali unvonlarga ega bo’lmaganlar (jumladan Qutlug’ Temur: “Quadratli malik, arab va arab bo’lmagan hukmdorlar homiysi, dunyo va iymonning ulug’vorligi, islom va musulmonlarning buyukligi” unvoni bilan ulug’langan edi). Ibn Battutaga ko’ra, Nongadoiy hatto buyuk amir unvoniga ega bo’lmasdan oddiy amir bo’lgan xolos. Uning vorislari esa so’fiy unvoni bilan boshqargan bo’lib, tadqiqotchilar fikricha, so’fiy nisbasi bu yerda faqat urug’ yetakchilari ismiga qo’shib aytilgan bo’lib, agar mazkur hukmdor urug’ vakili bo’lgan taqdirda ham boshqaruvchi huquqiga ega bo’lmagan bo’lsa so’fiy nisbasi qo’shilmagan [8].

XIV asrning 60- yillarida Xorazm yangi mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdi. Biroq uning hukmdorlari Oltin O’rda xonlari bilan qarindoshlik iplari vositasida bog’langan edilar. Bu bevosita Xorazm voliysi, ko’zga ko’ringan amirlardan Nongadoiy (musulmon manbalarida - Nanguday, Tangadoiy Manguday, Namguday, Banguday, Yanguday, Venetsiya hujjatlarida – Nagadain) faoliyati bilan bog’liq. Muiniddin Natanziy va Nizomiddin Shomiy uni Xorazm hokimi deydishgan, Sharafiddin Ali Yazdiy esa, mazkur shaxsni qo’ng’irot qabilasi yetakchisi bo’lgan, deb yozadi [13]. Demak XIV asr 2-yarmida Xorazmda qo’ng’irotlar vakili hokimiyatni boshqargani ma’lum bo’ladi.

Qo’ng’irotlarning dastlabki joylashgan joyi Markaziy Osiyoning sharqiy qismida Novar mavzei bo’lgan. Mo’g’ullar davlati tashkil topganda, qo’ng’irotlar Jo’ji ulusi tarkibiga kirdi va Xorazm hukmdorlari (Husayn So’fi, Yusuf So’fi, Sulaymon So’fi) qo’ng’irotlardan edi. Amir Temurning Xorazmga beshinchi yurishida Xorazm hukmdori Sulaymon So’fi qochib To’xtamish huzuriga borgani va Qunduzchadagi jangda uning lashkar amirlaridan bo’lgani ma’lum [13].

Qo’ng’irotlar vakillari nafaqat Xorazmning, balki butun Oltin O’rdaning siyosiy-ma’muriy tizimida ma’lum mavqega egalik qilgan. Chunonchi To’xtamishxon lashkari tarkibida Alibek qo’ng’irot va Navro’z qo’ng’irot ismli sarkardalar ham bo’lgan [11].

Husayn So’fi Jo’ji avlodidan bo’lgan Jonibekning singlisiga uylangandi, qizi Kabak xotun xonning to’rt xotinidan ikkinchisi edi. U Oltin O’rdada kechgan siyosiy vaziyatdan foydalanib o’z mavqeini mustahkamlab oldi.

Xorazmga voliy bo’lgan Husayn so’fi, XIV asrning 60 - yillarida Oltin O’rdadagi siyosiy parokandalik chog’ida Xorazmda so’filar sulolasiga asos soldi. Ko’p o’tmay Chig’atoy ulusidagi tarqoqlikdan foydalanib, Xorazmning janubi-sharqiy qismini ham qo’shib oldi [13]. Undan keyingi voqealardan Xorazmning Amir Temur davlatiga kiritilgani va XV asr davomida mazkur viloyat Temuriylar davlati tarkibida bo’lgani alohida mavzu.

Shunday qilib, Xorazmni qisqa muddat (1361-1388 yillarda) boshqargan qo’ng’irot so’fiylari sulolasi hali bu bilan tugamadi. Bu sulola vakillari Xorazmda XVI asrning boshlarigacha yuksak mavqeni egallab kelganlar hamda XVIII asrning 80-yillariga kelib Xorazmda yana hokimiyatni egallaganlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, XIII asr 20-yillaridan to XIV asr 50-yillarigacha Xorazm vohasi mo'g'ullar tomonidan ikkiga bo'lib boshqarilgan: Shimoliy Xorazm Oltin O'rda davlati tarkibiga, Janubiy Xorazm Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. Ammo, afsuski bu davrlar Xorazm tarixi juda sust tadqiq qilingan. Chunki yozma manbalar ma'lumotlari kamligi, mavzuni to'laqonli ravishda ochib berish imkoniyatini bermaydi. Shu jihatdan olganda, XIII – XV asrlar Xorazm siyosiy tarixi, Xorazmda qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi hamda ular davrida Xorazm siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi masalalari kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рашид ад-Дин Сборник Летописей. т. 1 ч. 2. –Москва, 1952. – 281 с.
2. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. -Т. , «Шарқ баёзи», 1993. – 104 б.
3. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Т. , «Меҳнат», 1992. – 326 б.
4. Извлечения из “Нузхат ул-кулуб” Хамдаллаха Казвини // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С. Л. Волина, А. А. Ромаскевича и А. Ю. Якубовского. – С. 506-511; Бартольд В. В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т. 3. – М. : Наука, 1963. – С. 260-268; Бартольд В. В. Сведения об аральском море ижтимоий ңызоях Амударьи с древнейших вресён до XVIII в. – Сочинения. Т. 3. – М. : Наука, 1963. – 712 с.
5. Тизенгаузен В. Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941. – С. 90-99.
6. Ал-Бакувй, 'Абд ар-Рашйд. Китаб Талхис ал-ссәр ва 'аджә'иб ал-малик ал-каххәр: ("сокращение [книги о] "Памятниках" и чудеса царя могучего") / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение З. М. Буниятова. – Москва: Наука, 1971. – 192 с.
7. Бартольд В. В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т. 3. – М. : Наука, 1963. – С. 260-268; Бартольд В. В. Сведения об аральском море ижтимоий ңызоях Амударьи с древнейших вресён до XVIII в. – Сочинения. Т. 3. – М. : Наука, 1963. – 712 с.
8. Вайнберг Б. И. К истории Кунгратских Суфи // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1957 г. М. : Наука, 1960. С. 104–114.
9. Сабитов Ж. М. Кунгираты в восточном Дешти-Кипчаке в XIII–XV веках// Вестник Евразийского Национального Университета. Астана. 2012. №3(88). С. 121–124.
10. Кдыр尼亚зов М. -Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII- XIV веках. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1989. – 176 с.
11. Исхаков Д. М. , Измайлов И. Л. Этнополитическая история татар (III - середина XVI вв.). Институт истории. АН РТ. – Казань: Школа, 2007. – С. 154; Сабитов Ж. М. «Маджму ат-Таварих» как источник по истории Улуса Джучи // Золотоордынское обозрение. 2017. Т. 5, №3. С. 577–590.
12. Вайнберг Б. И. К истории Кунгратских Суфи // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1957 г. М. : Наука, 1960. С. 109–110.
13. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков. – Т. : Шарқ, 1997. – Б. 72.

“AVESTO”DA BESHİK VA SUNNAT TO‘YLARI BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri ekanligi, “Avesto”ning o‘lmas g‘oyalari, milliy udumlar, islom dini, madaniyati, “sirdapo‘shlik” udumi, zardushtiylik davri bilan bog‘liq ravishda shakllangan eng qadimiy milliy udumlar, Beshik to‘yi, Sunnat to‘yi, farzandni xatna qilish odati, ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho tarixiy qadriyatlar haqida ma‘lumot berilgan.

Аннотация

В данной статье говорится, что это один из древнейших центров человеческого общества в Центральной Азии, бессмертные идеи “Авесты”, национальные традиции, исламская религия, культура, “мистерическая” традиция, а также древнейшие национальные традиции, сформировавшиеся в связи с зороастрийской эпохой, Колыбельная свадьба, Обрезанная свадьба, обычай обрезания, сведения о бесценных исторических ценностях, созданных нашими великими предками.

Annotation

In this article, it is said that it is one of the oldest centers of human society in Central Asia, the immortal ideas of “Avesta”, national traditions, Islamic religion, culture, “mystery” tradition, and the oldest national traditions formed in connection with the Zoroastrian era, Cradle Wedding, Circumcision Wedding, custom of circumcision, information about priceless historical values created by our great ancestors.

Kalit so‘zlar

“Avesto”, Markaziy Osiyoda shakllangan ilk sivilizatsiya, zardushtiylik, umuminsoniy qadriyatlar, Ahura Mazda, islom dini, “sirdapo‘shlik” udumi, Beshik to‘yi, Sunnat to‘yi, jahon sivilizatsiyasi.

Ключевые слова

“Авеста”, первая цивилизация, сформировавшаяся в Центральной Азии, зороастризм, общечеловеческие ценности, Ахура Mazda, исламская религия, “мистерическая” традиция, колыбельная свадьба, обрезанная свадьба, мировая цивилизация.

Key words

“Avesta”, the first civilization formed in Central Asia, Zoroastrianism, universal human values, Ahura Mazda, Islamic religion, “mystery” tradition, Cradle wedding, Circumcision wedding, world civilization.

Insoniyat ma‘naviy taraqqiyotining takomil bosqichlaridan biri bo‘lmish muqaddas “Avesto”ning o‘lmas g‘oyalari, uning tarixiy ahamiyatini anglash jarayoni kishilarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Tariximizning barcha davrlarida ham “Avesto” o‘z ahamiyatini saqlab qolgan holda doimo barqarorlikka, taraqqiyotga xizmat qilib kelgan. Mana shu bebeho asar orqali xalqimizning uzoq o‘tmishi to‘g‘risida, Markaziy Osiyoda shakllangan ilk sivilizatsiya to‘g‘risidagi boy tarixiy materiallarni bilib olamiz.

Xalqning eng noyob, hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan bebaho boyligi ajdodlarimizning ilm-fanga oid asarlari hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek, - “Modomiki, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tariximiz bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”.

Tarixchi, madaniyatshunos olimlarning fikrlariga asoslanib, o'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyati ma'lum darajada rivojlanib o'tganligini, bu madaniyat rivojlanish kurtaklari eng qadimiy paleolit davridan, ya'ni 500 ming yil avvalgi davrlarga, O'rta Osiyoda odam zoti paydo bo'la boshlagan davrlarga borib yetganiga guvoh bo'lamiz. Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri deb hisoblanadi. Bu zaminda eramizdan million yillar burun ham kishilar yashab kelganligi ham buning isbotidir. Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi III ming yilliklar boshlarida, So'g'd, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlar paydo bo'lib, ularda o'troq dehqonchilik rivoj topgan, ibtidoiy jamiyat yemirila borib, quldorlik tuzumi vujudga kelgan. Yangi diniy qarashlarning shakllanishi natijasida paydo bo'lgan va o'sha davrga xos bo'lgan turmush tarzini ifodalovchi an'ana, rasm-rusumlar, marosimlar, shuningdek, bayramona qadriyatlar yuzaga kelgan. Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan ajdodlarimiz - saklar, massagetlar, baqtriyaliklar, so'g'diylar, xorazmiylar o'zlari yashayotgan qadimgi viloyatlar, tumanlarni doimo asrashga, bir-birlariga yaqin bo'lishga intilishgan [1].

Jahon madaniyati tarixida Markaziy Osiyo madaniyati muhim o'rin tutadi. Butun dunyo Markaziy Osiyoning o'rta asrlardagi madaniyatiga allaqachon munosib baho bergan. O'zbeklarning farzandlariga bo'lgan mehr-oqibati, rang-barang urf-odatlarini, rasm-rusmlari, an'ana, taomil va udumlarining bisyorligidan, ularning ajdodlardan avlodlarga singdirilib kelinayotganligidan hayratga tushgan sayyoh German Vamberi, "O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini yuksak darajada maqtovg'a sazovor bo'ladigan tomonlari shuki, ular o'z milliy xarakteriga ega bo'lgan ajoyib fazilatlarini qat'iyat bilan saqlaydilar", - deb yozgan edi [2].

Zardushtiylik davri bilan bog'liq ravishda shakllangan eng qadimiy milliy udumlarimiz shu qadar rang-barang va xilma-xil bo'lib, xalqimizning o'troq, hayotining dastlabki paytlariga to'g'ri kelsa, Markaziy Osiyoda islom dini, madaniyati va taraqqiyoti kirib kelishi bilan ayrim urf-odatlarimiz, aksariyat marosimlarimiz hozirgacha davom ettirilib, ezgu qadriyat sifatida ardoqlanib kelinmoqda. Bu esa bir qator omillar tarixan tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Insonlarning turmush tarzi shunday omillardan biri hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlar deb, milliylik qobig'idan chiqqan, u yoki bu xalqning azaliy an'analarigaga aylanib qolgan marosimlarga aytiladi. Sharq xalqlari orasida, Arab va Ajam mamlakatlarida, shuningdek, o'zbeklar, tojiklar, ozarbayjonlar, qozoqlar, qirg'izlar orasida eng keng tarqalgan udumlardan biri o'g'il farzandni xatna qilish odatidir. Bu odat islom dini paydo bo'lmasidan oldinroq Axura Mazda - Avesto davrida Eron va Turonda, so'ngroq yahudiylar dini iudaizm qoidalarida ham mavjud edi. Qadimgi yahudiylar o'z xudolari ko'rsatmasiga ko'ra o'g'il bola tug'ilgan kundan to 12 kunigacha albatta uning jinsiy a'zosini chilpish odatini amalga oshirishgan. O'rta Osiyo mintaqasida islomdan oldin ham bu odat mavjud bo'lsa-da, islom dini, arablarning kirib kelishi bilan yanada qat'iyroq qonunlashtirildi. Sunnatilik musulmonlikning bosh omillaridan biriga aylandi [3].

O'zbek xalq urf-odatlarida zardushtiylikda rasm bo'lgan "sirdapo'shlik" udumining o'ziga xos izlari uchraydi. Jumladan, XX asrning o'rtalarigacha xalqimiz orasida barcha erkaklar yaktak kiyib, bellariga belbog' bog'lash va salla o'rash udumi keng tarqalgan edi. Odatda belbog' va salla o'rash bolalikdan o'smirlik yoshiga o'tgan davrda bajarilgan. Belbog' doimo uch marta tugun qilib bog'langan. Qolaversa o'zbeklar orasida boshqa yurtlardan kelgan mehmonlarga, nikoh to'yida kelinning kuyovga to'n, do'ppi kiydirish va beliga belbog' bog'lash udumi hozir ham keng urf bo'lgan. Bu udumning asosida bir tomondan mehmonga, kuyovga hurmat, izzat-ikrom namoyon etilsa, boshqa tomondan, o'sha mehmonning xalqimiz safiga ramziy qabul qilinganligi yoki kuyovning kelin oilasining yangi a'zosi bo'lganligini anglatgan. Bizningcha, xalqimiz orasidagi to'n kiydirib, belbog' bog'lash bilan bog'liq udumlar zardushtiylikdagi "sirdapo'shlik" marosimining o'zlashgan shakli bo'lsa kerak [4]. Xalqimiz orasida to'n, do'ppi kiydirish va beliga belbog' bog'lash udumi sunnat to'yi va beshik to'ylarida ham saqlanib qolgan. Sunnat qilinadigan bolaga to'y kuni chiroyli to'n kiydirib, beliga belbog', boshiga do'ppi kiydirib qo'yiladi. Shuningdek, yangi chaqaloq tug'ilganda kuyovning ota-onasi, kuyov kelinning uyiga suyunchilab borishganda xushxabarni suyunchilagan kishiga, yoki quda tomonga to'n kiydirib, beliga belbog' bog'lash udumi saqlanib qolgan.

Insoniyat olovni kashf etgandan buyon unga yuksak ixlos bilan qaraydi. Ma'lumki, zardushtiylik dinida ham olovni muqaddas deb bilishgan. Zero, olov issiqlik va yorug'lik manbai sifatida muqaddas hisoblangan. Ajdodlarimiz olovni yana shu jihatdan ham e'zozlaganki, u o'z shu'lasini bilan insonga ta'sir etadigan zararli kuchlarni kuydiruvchi, poklovchi va yorug'lik ramzi sifatida zulmatga qarshi kuch hisoblangan. Zardushtiylikning biror marosimi shu e'tiqodning ramzi – olovsiz o'tgan emas. Barcha odamlar turli balo-qazolarni daf qilish maqsadida "Alas-alas, barcha balolardan halos", deb gulxanlardan sakraganlar [4]. Xorazmda hozir ham olov bilan aloqador irimlar faol qo'llaniladi. Xususan, kelin mingan ulovni olov ustidan o'tkazish, go'shangaga chiroq yoqqan holda kelish, beshik atrofida olov aylantirish kabi odatlar shular jumlasidandir. Zardushtiylik dinining ko'plab marosimlari, odatlari xalqimizning turmush tarzida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Qadimgi davrlarda, Xorazmda nikoh to'yida kelin keladigan yo'lning ikki tomonida gulxan yoqqanlar va kelin tushgan arava ana shu olov orasidan o'tgach, kuyovning uyi tomon yo'l olgan. G. P. Snesev bu udum "O'rta Osiyo xalqlarining olov bilan poklanish marosimi asosida kelib chiqqan" [5], deb ta'kidlaydi. Keyinchalik kelin mingan mashina kuyov xonadoniga yaqinlashganda, yonib turgan olovning ustidan o'tgan. Zardushtiylikdagi olovning poklovchi xususiyatidan foydalanish ham marosimlarda faol qo'llaniladi.

Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgan. Zardushtiylikning axloq kodekslari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o'rin berilgan. Farzand tug'ilganidan so'ng yetti kundan to'qqiz kungacha, ba'zida esa kichkina chillasi tugaguncha davom etgan chilla davrida o'tkaziladigan tabular zaminida ikki xil ma'no yotadi: birinchidan, bu davrda ayol kishi yomon ruhlar ta'siriga tez chalinadigan bo'lsa; ikkinchidan, ko'zi yorigan ayol bu davrda marosimiy toza bo'lmaganligi bois suvni, nonni, o'choq olovni, ovqatni, sigir sutini bulg'ashi mumkin, deyilgan [4].

Zardushtiylik muqaddas o'simlik sifatida qadrlaydigan o'simlik bu bugungi turmush tarzimizda keng qo'llanuvchi isiriqdir. Xalqimizda isiriqni xazorispan, ispan deb, muqaddas o'simlik sifatida qadrlangan. Isiriqdan kasalliklarning oldini olish maqsadida keng foydalanishgan. Xususan, uyda birov bemor bo'lsa, chaqaloqni birincha marotaba beshikka belayotganda, kelin tushirganda, uyga begona odam kelib ketgan paytlarda ehtiyot chorasi sifatida isiriq tutatilgan [4]. Xalqimiz orasida Nikoh to'yi, Beshik to'yi, Sunnat to'yi va shu kabi to'ylarda, marosimlarda ko'z tegishidan, turli xil zararli ta'sirlardan himoyalovchi vosita sifatida isiriqdan eng ko'p foydalanishadi. Beshik to'yida bolani beshikka solgandan keyin, kayvoni ayol isiriq tutatib, ona va beshik atrofida aylantiriladi. Bu bilan uydagi havo tozalanadi [6]. Bolaning beshigi yostig'i ostiga pichoq, non parchasi qo'yilgan. Isiriq tutatilib, tumor osilgan [3]. Chaqaloq bilan onasi joylashgan xonaga va ular atrofiga udumlarimizga ko'ra isiriq solingan (tutatilgan). Isiriq tutatishdan maqsad, chaqaloq yotgan xona gumon qilingan turli ins-jinslardan tozalangan, xonada o'tirganlarning, mehmon ayollarning bolaga ta'siri sinsin, "ko'zi tegmasin" deb, shuningdek isiriqning o'ziga xos yoqimli bo'yidan, hididan bahramand bo'lsinlar, degan niyat ham e'tibordan chetda qolmagan.

Vatanimiz hududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimgi madaniyatiga ega bo'lgan xalqlardan biri ekanligini tarixda "Avesto" nomi bilan ma'lum bo'lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. "Avesto" kitobida Markaziy Osiyo hududlarida yashagan barcha turkiy xalqlar, forsiy, ozarbayjon, afg'on va boshqa xalqlarning qadimgi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlari o'z aksini topgan [4]. Ilmiy-tarixiy, amaliy-didaktik qimmatga ega buyuk merosimiz bo'lgan "Avesto"ning butun ma'no mohiyati inson taqdiri, uning istiqboliga qaratilgan.

Asrlar davomida Markaziy Osiyo hududida o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va uyg'ur kabi xalqlarning ajdodlari yonma-yon, ko'p hollarda aralash yashab kelganliklari bizga tarixdan ma'lum. Ushbu bepoyon mintaqada asrlar davomida yashayotgan xalqlar o'ziga xos tarixga, an'analarga va milliy qadriyatlariga ega bo'lib, do'stlik asosida qurilgan o'zaro hamkorlikda hayot kechirib kelmoqdalar. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho tarixiy qadriyatlarimizni keng ko'lamda o'rganish, ularni targ'ib qilish jahon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mislsiz darajada rivojlanib, globallashuv jarayonlari

tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda insoniyatning kelgusi hayoti, ayniqsa, jahon sivilizatsiyasining taqdiri va barqarorligi bilan bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston xalqlari tarixi". Toshkent: "Fan", 1-jild, 4-5-bb
2. Вамбери Г. Очерки Средней Азии, М. , 1868. С. 296.
3. Махмуд Саттор "Ўзбек удумлари". Тошкент, Ўзбекистон Республикаси фанлар академиясининг "Фан" нашриёти 1993 йил
4. Yo'ldoshyeva S. Xalq urf-odatları va an'analari. Toshkent – 2003. "Ijod dunyosi" Nashriyot uyi. 43-бет
5. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М. : Наука, 1969. – С. 82.
6. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. Тошкент "Ўқитувчи" нашриёти, 1991-йил

*Nazokat Ahmedova –
Urganch davlat universiteti doktaranti*

XIVA XONLARI OILASIDAN CHIQQAN SHOIRLARNING ILMİY MEROSI (XIX ASRNING BIRINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA)

ANNOTATSIYA

Xiva xonligida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yuzaga kelgan madaniy va adabiy muhit Muhammad Rahimxon II davrida yanada taraqqiy qildi. Xorazm adabiy muhitida Muhammad Rahimxon II va uning avlodlari o'zlaridan ulkan meros qoldirgan, ular o'zlarining asarlari bilan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega. So'nggi yillarda Xorazm adabiy muhiti, xon oilasi vakillari ijodiy maxsus tadqiqotlar doirasida ham o'rganilmoqda, shuningdek shahzoda shoirlar hayoti va ijodiy merosiga doir ba'zi fikrlar bildirilgan, maqolalar e'lon qilingan. Ushbu maqolada xon avlodidan chiqqan shoirlar va ularning ijodiga oid ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, madaniy hayot, adabiy muhit, shoir, tazkira, ijodkor, adabiyot.

АННОТАЦИЯ

Культурная и литературная атмосфера, созданная в Хивинском ханстве в конце 19 - начале 20 веков, получила дальнейшее развитие в период правления Мухаммад Рахимхана II. В литературной среде Хорезма Мухаммад Рахимхан II и его потомки оставили большое наследие, они своими произведениями занимают свое место в истории узбекской классической литературы. В последние годы в рамках специальных исследований изучена литературная среда Хорезма, творчество представителей ханского рода, высказаны некоторые мнения о жизни и творческом наследии княжеских поэтов, опубликованы статьи. В данной статье сравнительно анализируются поэты ханского поколения и сведения об их творчестве.

Ключевые слова: Хивинское ханство, культурная жизнь, литературная среда, поэт, поэтесса, творец, литература.

ANNOTATION

The cultural and literary atmosphere created in Khiva Khanate in the late 19th - early 20th centuries was further developed during the reign of Muhammad Rahim Khan II. In the literary environment of Khorezm, Muhammad Rahimkhan II and his descendants left a great legacy, they have their place in the history of Uzbek classical literature with their works. In recent years, the literary environment of Khorezm, the works of representatives of the khan family have been studied within the framework of special studies, and some opinions on the life and creative heritage

of prince poets have been expressed and articles have been published. In this article, the poets of the khan's generation and the information about their works are comparatively analyzed.

Key words: Khanate of Khiva, cultural life, literary environment, poet, poet, creator, literature.

Kirish. Muhammad Rahimxon soniy Feruz nafaqat Qo'ng'irotlar sulolasining zabardast hukmdori balki, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lgan adib hamdir. Shu sababli bu davr Xiva adabiy muhitini Feruzsiz tasavvur qilish qiyin. Negaki, u ham shoir, ham musiqashunos, ham hukmdor edi. Feruz xon sifatida davlatni 47 yilu 8 oy 20 kun davomida boshqardi. U o'z hukmronlik qilgan yillarda adabiy va madaniy muhitga jonkuyarlik qilgan [1]. Uning Xiva madaniy muhitidagi o'rni haqida tadqiqotchi D. Rahim va Sh. Matrasul: "Xiva xoni Muhammad Rahimhon II Feruz xonlik madaniy – ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutgan, deyarli yarim asrlik boshqaruvni o'z qo'liga olgan hukmdor. Muhammad Rahimhon II Feruz nafaqat xon balki madaniyat va marifat homiysi, ayniqsa adabiy muhit rivojida alohida ahamiyatga molik ishlarning tashabbuskori hamdir. Feruz ham huddi otasi Sayid Muhammadxon singari har haftaning ikki kuni saroyda shoirlar mushoirasi, kitobxonlik kechalari o'tkazib borishni o'ziga odat qilib olgan edi." [2] Haqiqatdan ham Feruz tom ma'noda taraqqiyparvar davlat arbobi bo'lib, uning davrida birinchi o'zbek kinosiga, toshbosmaga asos solindi, san'at gullab-yashnadi, nota yozuvi yaratildi. [3] Feruz adabiyot, til, mantiq ilmida shunday kamolotga erishdiki, saroy adabiy muhitidagi shoirlarning she'rlarini tahlil etish va baholash bobida uning oldiga tushadigan ulamo va fuzalo kam edi [2]. Xon saroyida she'riy musobaqalar, maqom oqshomlari o'tkazish an'ana tusiga kirganligi manbalarda aks etgan. Feruz she'r va she'riyatga mehri baland bo'lgan hukmdor. Uning saroyida ellikka yaqin shoiru yozuvchilar, sozanda va go'yandalar, muarrixlar, tarjimonlar, xattotlar, noshirlar faoliyat ko'rsatgan: Muhammad Yusuf Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo, Ahmad Tabibiy, Avaz O'tar o'g'li, Chokar, Rog'ib, Devoniy, G'oziy, Shinosiy, Oqil, G'ulomiy, Komyob kabi shoirlar shular jumlasidandir. Ana shunday qalam sohiblarining kamol topishida, avvalo Feruzning xizmatlarini ta'kidlash kerak. Chunki, badiiy ijod ahli uchun eng muhimi bu yetarli shart-sharoit hisoblanadi. Shuning natijasida bu oiladan Komyob, Oqil, Sodiq, Murodiy kabi yetuk qalam sohiblari yetishib chiqdi.

Tahlillar va natijalar. So'nggi yillarda Xorazm adabiy muhiti, xon oilasi vakillari ijodi maxsus tadqiqotlar doirasida ham o'rganilmoqda, shuningdek shahzoda shoirlar hayoti va ijodiy merosiga doir ba'zi fikrlar bildirilgan, maqolalar e'lon qilingan. Masalan "Feruz gulshani" nomli kitobda Feruz oilasidagi she'riyat muhiti vakillaridan Bayoniy, Xusrav, Murodiy, Komyob, Farrux, Oqil, Sultoniy, Asad, G'oziy, Sa'diy, Sodiq va ayol ijodkorlardan Kishjonbikalarning she'rlari tazkira, bayoz, majmualardagi matni asosida tuzib chiqilgan [4].

Xorazm adabiy muhitida Muhammad Rahimxon II va uning avlodlari o'zlaridan ulkan meros qoldirgan, bu haqida xon saroyi shoirlardan biri bo'lgan adib Hasanmurod qori Laffasiyning tazkirasida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa, muallifning "Tazkirayi shuaro" asaridan Xiva xonligi adabiy jarayonlarida ishtirok etgan oltmishga yaqin shoirlar va ijodkorlar haqida bilib olishimiz mumkin. Laffasiy o'z asarida quyidagi nomlari keltirgan: Munis, Ogahiy, Rojiy, Ravnaqiy, Zirakiy, So'fiy, Feruz, Murodiy, Komyob, Komil, Nishotiy, Xoja, Ravnaqiy, Rojix, Xolis, Nozim, Farruh, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, Oqil, Bayoniy, Asad, G'oziy, Nozir, Shinosiy, Mirzo, Tabibiy, G'ulomiy, Kamoliy, Po'rkamil, Avaz, Devoniy, Umidiy, Xayoliy, Inoyat, Xodimiy, Nadimiy, Chokar, Mutrib, Ojiz, Doiy, Xaqiriy, Yusufiy Rog'ib, Xabibiy, Xokiy, Niyoziy, Muznib, Faqiriy, Laffasiy, Koni'iy kabi qator shoirlar haqida gapiradi va ular haqida qisqacha biografik ma'lumotlar keltiradi [5]. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, "Tazkirai shuaro" asarida Laffasiy shoirlarning Xiva xonlari oilasidan yetishib chiqqanligiga alohida e'tibor berib, o'zbek adabiyoti tarixidagi hukmdorlar oilasiga mansub sulolaviy ijodkorlarni tavsiflash an'anasini davom ettirgan va Muhammad Rahimxon II Feruz, uning amakivachchalari Bayoniy, Xusrav, ukalari Murodiy, Komyob, o'g'li Farrux, jiyanalari Oqil, Sodiqiy, nabiralari Sultoniy, G'oziy, Sa'diy, Asad kabi shoirlarning hayoti, ijodi hamda g'azallaridan namunalar keltirilgan.

Asarda keltirilishicha, hatto xon o'z yaqinlarining ijodiga qiziqqan, ularning tarbiyasi va ta'lim olishi uchun maxsus kishilarni tayinlagan [6]. Adabiyot bilimdoni Laffasiy o'z tazkirasida muhim bir dalilni keltiradi: "Feruzning nabira avlodlari she'rga havaskor bo'lib, alar ham Feruzga qo'shimcha har xil g'azal, muxammaslarni yozib turadilar." [2]

Xon va uning ijodkor avlodlari haqida saroy shoirlaridan biri Ahmad Tabibiy o'zining Xorazm shoirlari haqida "Majmuat ush-shuaroi payravi Feruz Shohiy", "Majmuai muxammasoti ash-shuaroi Feruz Shoqiy" (1909) tazkiralari tuzgan. Tabibiyning "Majmuai o'ttiz shuaro shohi payravi Feruz" asari Feruz zamonasidagi 33 shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish bilan birga Feruzni faqat hukmdor sifatida emas, balki adabiyot ihlosmandlarining homiysi sifatida gavdalantiriladi [2].

Ahmadjon Tabibiy tomonidan tuzilgan majmuada Feruz, Sultoniy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Nosir, Shinosiy, G'ulomiy, Kamoliy, Inoyat, Doiy, Ojiz, Xaqiriy, Niyoziy, Xoqiy, Yusuf, Tabibiy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib, Avza, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Habib, Po'rkomil kabi shoirlarning g'azallari va muhammaslari keltirilgan va ular haqida she'riy yo'l bilan qisqacha ma'lumotlar berilgan [5]. Xon saroyida ijod etgan shahzoda va amaldorlar, mudarris va mirzaboshilar tomonidan Feruz g'azallariga bitilgan o'ttiz bir nafar shoirning naziralarini shoir o'zining aynan "Majmuat ush-shuaroi payravi Feruzshohiy" (1908) tazkirasiga jamlagan. Tazkiradan ma'lum bo'lishicha, adabiy muhit ishtirokchilari vazir va amaldorlar, xonzoda va shoirlar, mufti va xattotlardan iborat. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, shoirning ma'lumotlariga ko'ra adabiy muhitda nafaqat saroy shoirlari, xon avlodi va davlat amaldorlari ham faol ishtirok qilgan. Shoirlikning havosi ham, maqom ham baland edi. Xonning atrofidagi amaldorlaridan, aka-uka qarindoshlarigacha she'r yozar edilar. Tarixnavis Muhammad Yusuf Bayoniy asarida ularni nomma-nom keltirib o'tadi. Masalan, Otajon to'raning "Komron", tug'ishgan ukasi To'ramurod to'ra (1855-1908) ning "Murodiy" taxallusi bilan she'rlar yozganini ma'lum qiladi.

Yuqoridagi tazkiranislarning ma'lumotiga qaraganda, Muhammad Rahimxon Soniy avlodidan Murodiy, Komyob, Oqil, Sulton, Sa'diy, G'oziy, Asad kabi o'nga yaqin sohibi devon shoirlar yetishib chiqdi. Bu shoirlar ijodi va faoliyati XX asr birinchi yarmi Xorazm adabiy muhitini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Shu sababdan Feruz avlodiga mansub bir necha shoirlar to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Muhammad Rahimxon Feruzning o'g'li Sayyid Asfandiyor To'ra (1871-1918) ajoyib g'azallar yozgan [7]. "Asfandiyor yoshligidan yuvosh tabiatli, g'oyat iqtidorli kishi bo'lib, "Farrux" taxallusi bilan she'rlar bitgan. Kasb – hunarga qiziqqanidan soatsoz va qilich yasovchi usta sifatida mashhur bo'lgan. Tijoratchi sifatida Rossiya va Sharq davlatlarini kezib chiqqan. Hatto rus tili, dunyo jo'g'rofiyasini mukammal bilgani bois Rossiya jo'g'rofiya jamiyatining a'zosi ham edi". [8] Tarixiy manbalar va adabiy merosi Sayyid Asfandiyorxon nafosatli va nozikta'b shoir bo'lganligidan dalolat beradi. [7] Xorazm shoirlaridan Mirzo taxallusli Muhammad Rasul Mirzaboshi "Asfandiyor xon – Farrux yozg'on g'azallarni tuzatur erdi". [9] Xon saroyining taniqli shoiri Laffasiyning yozishicha, "Otasi Muhammad Rahimxon Feruzga ma'qul bo'lmoqlik uchun Farrux taxallusi bilan she'r mashq etib, ajab shirin oshiqona abyotlar yozib maqbuli Feruz bo'latur. Manbalarda yozilishicha, "uning ijodiy tab'i yaxshi bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da, devon tuzgan. "Devoni Farruxshohiy"da 20 ga yaqin g'azal, 2 ta muxammas, 1 ta ruboiy mavjud. U "Yetti shahzoda devoni"da nashr etilgan [10].

Bayoniy, Xodim, Laffasiy ma'lumotlariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, Feruzning aka-ukalari ham ijodkor bo'lib jumladan inisi, Sayyid Muhammadxonning o'g'li Otajon To'ra ham she'rlar yozgan: "Ul hazrat o'zlarin Komron taxallusi bilan mutaxallis etib, she'r ham aytur erdilar. Ma'lum bo'lsunkim, xon hazratlari bag'oyat mushfiq – fuqaro va bag'oyat xayrdo'st erdilar" [11]. Komron Xorazmning iste'dodli shoirlaridan biri bo'lgan [7]. Sayyid Muhammadxonning yana bir o'g'li To'ramurod To'ra - Feruzning yana bitta inisi, badiiy adabiyotga mehri baland bo'lgan inson bo'lib, "Murodiy" taxallusi bilan ajoyib she'rlar yozgan. : "O'zlarin Murodiy taxallusi bilan mutaxallis etib, she'r ham oytur erdilar" [12]. Murodiy ajoyib shoir bo'lgan. Atrofiga nazm ahli, olim va fozillarni yig'ib, she'riy majlislar va ma'rifiy suhbatlar tashkil qilgan. Laffasiyning ma'lumotiga ko'ra "ul hamisha Xiva ulamolari bilan suhbatdosh

bo'lib, doimo kitoblar o'qib turar erdi. Shul sababli Murodiy forsiy, arabiy lison birla oshno bo'lib, she'rga havaskor bo'lgani bilan Murodiy taxallus qilib har turlik g'azal, muxammas, musaddas, masnaviy, qasidalar yozib bir "Devoni Murodiy" asar yozib qoldirdi" [2]. Shuningdek Bayoniy Murodiyning ajoyib hislatlarini tasvirlab yozadi: "Ul hazratdin ikki o'g'il yodgor qoldi. Biri Rahmonquli to'ra va biri Xudoyquli to'radurlar. Ul hazrat muhibbi ulamo va muhibbi aqroboni jam qilib ijtihodi yaqranglik tariqidan bir zarrayi munharif bo'lmay kamoli muhabbat va muddat bila masohabat va muvanasat ko'rguzur erdilar. Bizlar jami og'a-ini bila da'vatlari mujibicha majlislariga hozir bo'lur erdik." Mana shu dalillardan ko'rinadiki, Murodiy zamonasining yetuk shoirlaridan bo'lgan.

Sayyid Homid to'ra Komyob (1861-1930) Xiva xonlari sulolasiga mansub ijodkor ya'ni Muhammad Rahimxon II ning inisi. Otadan yosh qolgan Komyob tarbiyasiga akasi alohida e'tibor qaratgan. Komil, Bayoniy kabi ijod sohiblari uning badiiy adabiyotga ixlos qo'yishiga ta'sir o'tkazganlar. Uning shoir va muarrix sifatida yaratgan asarlari o'zbek adabiyoti va tarixnavisligini o'rganishda munosib o'rin tutadi. Xiva adabiy muhitida tarbiya topgan Komyob bitta she'riy devon, Xorazm tarixiga oid "Tavorix ul-xavonin", "Muntaxab ul-voqeot" kabi tarixiy asarlar va XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o'zgarishlari to'g'risida ma'lumot beruvchi esdaliklar yozib qoldirgan [13]. Shoir sifatida ulkan devon tuzgan. Devoniga g'azal, qasida, masnaviy, mustazod, muxammas, musaddas, murabba', musamman, tarkibband, tarji'band, ruboiy, qit'a, tuyuq, muammo, chiston, fard, ta'rix singari janrdagi she'rlari kirgan. Komyob arab tilidan tashqari, fors-tojik tillarni ham puxta o'rgangan va bu tilda she'rlar ham yozgan. Umuman olganda Komyob devonlaridagi asosiy mavzu ishq-muhabbat masalasi bo'lgan [2].

Feruzning suyakli nabiralari ham bir qancha g'azallar muallifi bo'lib, ularning hayoti va badiiy ijodi haqida Laffasiy ma'lumotlariga tayanib shuni aytish mumkinki, Feruz ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan va ijodini qo'llab-quvvatlagan. Ana shunday ijodkor nabiralaridan biri Nosir to'ra bo'lib, Feruzning o'g'li Muhammadyor to'raning farzandi. Yoshligidan uni Feruz tarbiya qilib, o'n olti yoshida shoir qilib yetishtiradi. Nosir to'ra Sultoniy taxallusida forsiy g'azallar bitgan. U "Devoni Sultoniy" nomli bir devon tartib bergan va bu devon hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik ilmgohida saqlanadi [2]. Feruz tomonidan alohida e'tiborga sazovor bo'lgan nabiralaridan biri Sa'diy hisoblanadi. U yigirma yoshida shoir bo'lib yetishadi. Sa'diy katta iste'dod egasi bo'lib, nafaqat shoir balki rassom ham bo'lgan. Uning mo'yqalamiga mansub rasmlar shu davrda Feruz saroyiga osib qo'yilgan. U o'z she'rlarini jamlab "Sa'diy" nomli devon tartib qiladi va Feruzga taqdim qiladi. Sa'diy yaratgan she'rlar baquvvatligi bilan alohida ahamiyatga ega [2].

Xulosa. Yuqoridagilardan ham ma'lumki, bu oilada tarbiya topgan kishilar xalq, adabiyot, ilm - fan uchun katta xizmat qilganlar, o'zlaridan ulkan adabiy meros qoldirganlar. Muhammad Rahimxon Soniy - Feruzning farzandlari va nabiralari badiiy ijod bilan shug'ullanishgan, adabiyotni sevishgan, har bir shahzodaning atrofida ko'plab saroy shoirlari bo'lgan. Xiva xonlari va shahzodalari ana shu shoirlar ishtirokidagi adabiyot va g'azalxonlik kechalaridan zavqlanishgan va ko'ngil yozishgan. Ularning she'riyatga bo'lgan muhabbati va e'tiborlari mumtoz adabiyotimiz va tariximiz taraqqiyotiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Озод Машарипов. Алишер Машарипов. Хоразм тарихига бир нигоҳ. - Т.: Хоразм, 2011. 131-бет.
2. Раҳим Давлатёр, Шихназар Матрасул. Феруз:шоҳ ва шоир қисмати. Тошкент, 1991, 61-бет;
3. Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. - Т. : Адабиёт ва санъат, 1994, Б 6.
4. Umarova Sohiba Zakirovna. Xorazm adabiy muhitida devonchilik an'anasi// Т. : Adabiyot va san'at. 2002.
5. Муниров. Қ. Хоразмда тарихнавислик(XVII-XIX ва XX аср бошлари). Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т. 2002, 6-бет.

6. Дўстова Сурайё Савроновна Ҳасанмурод Лаффасийнинг «Тазкираи шуаро» асари унинг қиёсий-матний тадқиқи. Jizzax. 2021. 88. bet.
7. Guseynov G. Sharqdan ko'tarilgan to'fon. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: L. Abdrimova. Toshkent, 2020. -B. 5.
8. Bekmuhammad U. Moziydagi sirli o'limlar. T. : Yangi asr avlodi, 2009. -B. 36.
9. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. T. : Yozuvchi, 1998. -B. 36.
10. Erkinov A. , Polvonov N. , Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehristi. Toshkent, 2009. -B. 166
11. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. T. :Kamalak, 1991. -B. 251-252.
12. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. T. : G'. G'ulom nomidagi ASN, 1994. -B. 93.
13. Qorayev. Sh. Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodirxon va uning farzandlari ijodi hamda saroy adabiy majlislarining o'ziga xos xususiyatlari. -S. : Jild: 04, Nashr: 03 |mart – 2024. 12-bet.

*Abdrimov Zarifboy –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

XORAZMSHOH – MA'MUNIYLAR SULOLASINING TAXTGA KELISHI MUAMMOLARI

Annotatsiya: Nafaqat Xorazm vohasi, balki butun jahon ilm – fan taraqqiyotida muhim rol o'ynagan Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida iqtisodiy soha ham jadallik bilan taraqqiy qilganligini yozma manbalar ma'lumotlari to'la tasdiqlaydi. Ammo, jahon miqyosida ilm – fani taraqqiyotiga, Buyuk Ipak yo'lidagi jahon savdosi rivojiga ulkan hissa qo'shgan bu sulola vakillarining hukmronlik davri siyosiy voqealari taxtga kelishi shart – sharoitlari masalasi yozma manbalarda deyarli aks etmaganligi uchun o'zbek davlatchiligi tarixining eng muammoli sahifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan olganda, mazkur maqola O'zbekiston xalqlari davlatchiligi tarixining dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Gurganch – al-Jurjoniya, Somoniylar, Muhammad ibn Ali, Ma'mun ibn Muhammad, Beruniy, Bayhaqiy, Ibn al – Asir, Yoqut Hamaviy, “Dorul hikma va maorif”, K. E. Bosvort, V. V. Bartold, A. Z. Validiy To'g'on.

Аннотация: Сведения письменных источников полностью подтверждают, что во времена династии Хорезмшахов – Маъмунидов, сыгравшей важную роль в развитии не только Хорезмского оазиса, но и всего мира, экономический сектор Хорезмского оазиса развивался быстрыми темпами. Однако в период этой династии не только народы Средней Азии, но и мира внесли несравненный вклад в развитие науки, а политические события правления представителей этой династии в источниках, как а также условия их восшествия на престол остаются проблематичными. Ведь в письменных источниках упоминались события объединения Хорезма представителями этой династии, основания второй династии хорезмшахов в истории Хорезмского оазиса, но и эти события были описаны кратко. В связи с этим данная статья посвящена одной из актуальных проблем истории государственности народов Узбекистана.

Ключевые слова: Гургендж – ал-Джурджания, Саманиды, Мухаммад ибн Али, Мамун ибн Мухаммад, Бируни, Байхаки, Ибн ал-Асир, Якут Хамави, «Дарул хикма ва мариф», К. Э. Босворт, В. В. Бартольд, С. П. Толстов.

Annotation: Information from written sources fully confirms that during the Khorezmshahs-Ma'munids dynasty, which played an important role in the development of not

only the Khorezm oasis, but the whole world, the economic sector of the Khorezm oasis developed at a rapid pace. However, during the period of this dynasty, not only the peoples of Central Asia, but also the world made an incomparable contribution to the development of science, and the political events of the reign of the representatives of this dynasty in the sources, as well as the origin of the representatives of the dynasty and the conditions of their accession to the throne, remain problematic. Indeed, written sources mentioned the events of the unification of Khorezm by representatives of this dynasty, the founding of the second dynasty of the Khorezmshahs in the history of the Khorezm oasis, but these events were described briefly. In this regard, this article is devoted to one of the pressing problems in the history of statehood of the peoples of Uzbekistan.

Key words: Gurganch - al-Jurjaniya, Samanid, Muhammad ibn Ali, Ma'mun ibn Muhammad, Beruni, Bayhaqi, Ibn al-Asir, Yakut Hamavi, "Darul hikma wa' ma'rif", K. E. Bosworth, W. W. Barthold, S. P. Tolstov.

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi qisqa davr hukmronlik qilgan bo'lsada, ular davrida Xorazm vohasida ijtimoiy – iqtisodiy soha bilan birga madaniy soha ham jadallik bilan taraqqiy qilganligini yozma manbalar ma'lumotlari to'la tasdiqlaydi. Bu sulolaning jahon ilm – fan taraqqiyotida muhim rol o'ynagan bo'lishiga qaramay, manbalarda bu sulola vakillarining kelib chiqishi masalasi hamda shu bilan bog'liq ravishda ularning taxtga kelishi shart – sharoitlari, hukmronlik davri siyosiy voqealari masalalari muammoligicha qolmoqda. Zero, yozma manbalarda, bu sulola vakillarining Xorazmni birlashtirishi, Xorazm vohasi tarixida ikkinchi xorazmshohlar sulolasiga asos solinganligi voqealari qisqa bayon qilingan. Shu jihatdan olganda, mazkur muammoni ochib berishda yozma manbalar ma'lumotlari yetarli bo'lmasdan, arxeologik va ayniqsa, numizmatik manbalarni ham tadqiqot doirasiga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasining kelib chiqishi va taxtga chiqishi masalasi xususida yozma manbalar ma'lumotlari juda kam. Bu mavzu yuzasidan, muallifi noma'lum "Hudud al-alam" asarida [1], Beruniy [2], Gardiziy [3], Abul Fazl Bayhaqiy [4], Nizomi Aruzi Samarqandiy [5], Yoqut al-Hamaviy [6] va Ibn Al-Asir [7] asarlarida qisqa ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Mavzuning tarixshunoslik tahliliga to'xtaladigan bo'lsa, bu borada dastlab V. V. Bartold [8] va Ahmad Zaki Validiy To'g'on [9] o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar. Ma'muniylar sulolasi borasida S. P. Tolstov ham ba'zi fikr – mulohazalar keltirib o'tgan [10]. Bu boradagi eng so'nggi tadqiqotlarni turkiyalik tadqiqotchi A. O'zbayraqtar [11] hamda Ma'mun Akademiyasi tadqiqotchisi Sh. Ismoilovlar [12] olib bormoqdalar. Mazkur mavzu bo'yicha yana, K. E. Bosvort, R. Reva, V. Kalinin [13], B. I. Vaynberg [14], E. Goncharov [15] kabi tadqiqotchilar ham tadqiqotlar olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Yuqorida ta'kidlanganidek, yozma manbalarda, Ma'muniylar sulolasi vakillarining qachon va qay yo'sinda taxtga kelganligi borasida ma'lumotlar keltirilmagan. Shu jihatdan olganda, mazkur muammoni ochib berishda arxeologik va ayniqsa, numizmatik manbalarni tadqiqot doirasiga jalb qilish juda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, bu muammoni tahlil qilishdan oldin Gurganch shahrining taraqqiyoti, uning X asrga kelib nafaqat Xorazmning, balki, butun musulmon Sharqidagi eng yirik shaharlardan biriga aylanishi jarayonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

X ars Xorazm tarixiga oid eng dastlabki manba bu mashhur arab sayyohi Ibn Fadlanning ma'lumotlari bo'lib, u 924 – 926 yillarda arab xalifasining Volga Bulg'oriyasiga yuborilgan elchiligi tarkibida bo'lib, elchilik Xorazm orqali o'tgan. Ibn Fadlan Xorazmga kelgan payti ikkala Xorazm hukmdori haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Jumladan, uning davrida Janubiy Xorazmda Banu Iroq sulolasiga mansub bo'lgan Muhammad ibn Iroq xorazmshoh unvoni bilan boshqargan

bo'lsa, al-Jurjoniya (Gurganchda) esa amir boshqarganligi haqida so'z yuritadi. Ammo, afsuski u zamondoshi bo'lgan bu amirning ismini keltirib o'tmagan [17]. Bu ma'lumotlardan shunisi aniqki, ikkala hudud ham somoniylar davlatiga rasman qaram bo'lganlar. Ibn Fadlanning yana bir ma'lumoti nihoyatda muhim ahamiyatga egaki, unga ko'ra xalifa elchilikka Bulg'or podshosiga beriladigan 4000 dirham pulni, xalifalikda uzoq vaqt vazirlik qilgan Abu al-Xasan 'Ali ibn al-Furatning (855–924 yillar) Xorazmdagi Ardaxushmisan shahri atroflaridagi mulkidan keladigan daromad hisobidan qoplashni buyurgan edi [17]. Bundan kelib chiqadiki, Xorazm IX – X asrlar davomida Bag'dod xalifaligining alohida e'tiborga sazovor hudud bo'lgan. Xalifalik vaziri Ibn al-Furatning Xorazmda yer-mulklarga ega bo'lishi voqeasiga qo'shimcha ravishda, 847-861 yillarda hukmronlik qilgan xalifa al-Mutavakkilning onasi xorazmlik Shuja' ismli ayol bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'lardi [18].

Ma'muniylarning taxtga kelishi voqealari xususida, mashhur arab tarixchisi Ibn al-Asirning "al-Komil fi-t-ta'rix" ("Mukammal tarix") asarida qisman ma'lumotlar mavjud. Asarda bir juda muhim voqea keltirilib o'tiladiki 951-952 yillarda Shimoliy Xorazmda vaqtincha hokim bo'lmagan [18]. Bu holat qancha vaqt davom etgani noma'lum bo'lib, faqat 965 yilda Gurganch amirining Xazar hoqoniga turkiylarga (bu yerda o'g'uzlarga) qarshi kurashda yordam bergani uchun hoqonlik aholisining islom diniga o'tganligi voqeasi keltirilib o'tiladi [18]. Tangalar tahliliga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, mazkur voqea Gurganch amiri Muhammad ibn Ali davriga to'g'ri keladi. Chunki, 967 yilda Gurganchda Muhammad ibn Ali tomonidan zarb qilingan mis fals tangasi topilgan [14]. Demak, bu voqealar markazi Gurganch bo'lgan Shimoliy Xorazmda Ma'muniylar sulolasining taxtga kelganligini yaqqol tasdiqlaydi. Ammo, shu o'rinda savol tug'iladiki, Ma'muniylar sulolasi Shimoliy Xorazmda hokimiyatga aynan X asr o'rtalarida kelganmi yoki oldinmi? Bu savolga aniq javob berish imkoni yo'q. Chunki bu haqda na yozma manbalar ma'lumotlari, na numizmatik manbalar mavjud emas. Tadqiqotchi Sh. Ismoilov, Jurjoni (Gurganch) shahrinoibi hisoblangan Muhammad ibn Alining 967 yilda zarb qilgan tangasidan kelib chiqib, sulola taxtga aynan 967 yilda kelganligini ta'kidlagani holda [12], turk tadqiqotchisi A. O'zbayraktar fikricha, Ma'muniylar Gurganchda hokimiyatga 959-982 yillar oraliq'ida kelganlar [12].

Ammo, bizningcha Ma'muniylar Gurganchda hokimiyatga 967 yildan oldinroq kelganlar. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Ibn al-Asirning yozishicha 951-952 yillarda Xorazmda hokimiyatsizlik davri bo'lib, bizningcha Gurganchda Ma'muniylar hokimiyatga aynan shu yillarda kelgan bo'lsa kerak.

Umuman, bu davrda abbosiy xalifalar, Gurganch noiblariga alohida munosabatda bo'lganlar. Bu alohida munosabat shundan kelib chiqadiki, birinchidan Gurganch Sharqiy Yevropa, Xazar xoqonligi, Volga Bulg'oriyasi hamda ko'chmanchilar dunyosi bilan bo'ladigan savdoda juda katta o'rin tutgan. Afrig'iylar poytaxti Kat shahridan tashqari, Xorazm vohasining shu davrlardagi birorta shahri bunday mavqega ega emasdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazmda Ma'muniylar sulolasining hokimiyatga kelishi hozirda mavjud manbalar ma'lumotlari asosida X asrning 50-yillariga to'g'ri kelishini taxmin qilish mumkin. Ma'muniylar sulolasining taxtga kelishi muammosini ochib berishda, bu davlatning Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir xalqlari bilan ham yaqin savdo munosabatlari masalasini o'rganish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, birinchidan, Ma'muniylar sulolasi siyosiy tarixining ham ko'pgina qirralarini ochib beradi. Jumladan, bu hududlardan Ma'muniylarning ilk vakillari tangalarining topilishi bu sulola vakillarining siyosiy salohiyati qay darajada bo'lganligini ham ko'rsatadi. Ikkinchidan esa, arxeologik manbalar Xorazm vohasining Ma'muniylar sulolasi davrida Buyuk Ipak yo'lidagi savdo aloqalaridagi o'rnini yaqqol ko'rsatib beradi. Shu jihatdan olganda, Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir xalqlari bilan savdo munosabatlari qay darajada yo'lga qo'yilganligi masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Извлечения из «Худуд Ал-Алем» – анонимного персидского географического сочинения // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI – XV вв.) / Под ред. С. Л. Волина, А. А. Ромаскевича, А. Ю. Якубовского. – М. -Л. : Наука, 1939. – С. 209-217.
2. Бируни Абу Райхан. Определение границ, мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия) // Избр. произведения. Т. 3. / Иссл. , пер. и примеч. П. Г. Булгакова. -Т. , «Фан», 1966; Абу Райхон Беруний. Танлаган асарлар. I-жилд. -Т. , "Фан", 1968.
3. Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А. К. Арендса. “Фан”, 1961. – 146 с. ; Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С. Л. Волина, А. А. Ромаскевича, А. Ю. Якубовского. М. -Л. : Наука, 1939. – С. 228-229.
4. Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М. : Изд-во А. Х. Арендса. 1969. – 1009 с.
5. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. – Москва: Изд-во вост. лит. , 1963. – 173 с.
6. Йакут ал-Хамави. Му’жам ал-булдан. //МИТТ, т. 1. -М. -Л. , 1939.
7. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П. Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш. С. Камалиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – С. 67-68, 74, 78-79, 94, 97, 115, 132, 141, 146, 161-162, 165, 174, 181-182.
8. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. 1. — Т. : «Наука», 1963. – С. 201-204, 293, 322-324, 339-340.
9. Togan A. Z. Hârizm // İslam Ansiklopedisi. C. V/1. – İstanbul, 1987. –S. 241-242; Ahmet Zeki Velidi Togan. Umumî Türk tarihine giriş. Cild I: en eski devirlerden 16. asra kadar. 3. Baskı. – İstanbul: Enderun Kitabevi, 1981. – 538 s.
10. Толстов С. П. Бируни и его “Памятники минувших поколений” // Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения, I. Ташкент. АН УзбССР. 1957. – С. VII-XXI.
11. Özbayraktar Aykut. Hârezm’de Me’mûnî devleti’nin kuruluşu. Ortaçağ araştırmaları dergisi, 6/2 (Aralık 2023). – S. 723-738; yana uning: Hârezm’in Gazneliler tarafından işgali ve Me’mûnî Devletinin yıkılışı. Külliye, [Türkiye Cumhuriyeti'nin 100. Yılı Özel Sayısı], 2023. – S. 296-314;.
12. Ismoilov Sh. Ma’muniyalar sulolasining hokimiyatga kelishi va etnogenez masalasi // Ma’mun Science, I jild, №1. 2023. – B. 376-382.
13. Bosworth Clifford Edmund. The Islamic dynasties, a chronological and genealogical handbook. – Edinburgh: University Press, 1967. – 245 p. ; yana qarang: Босворт К. Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П. А. Грязневича. – М. : Наука, 1971. – 324 с.
14. Рева Р. , Калинин В. , Атаходжаев А. Нумизматические дополнения к истории Хорезма X в. // Материалы XVI Всероссийской нумизматической конференции. – Санкт-Петербург: Издательство Государственного Эрмитажа. 2011. – С. 58- 60.
15. Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. М. : Наука, 1977. – 220 с.
16. Гончаров Е. Ю. , Настич В. Н. Монеты сырдарьинских огузов IX в. // Тюркологический сборник. 2011-2012: политическая и эт-нокультурная история тюркских народов и государств. М. : Наука, Вост. лит. , 2013. С. 80-91.
17. Путешествие Ибн Фадлана: Волжский путь от Багдада до Булгара / Кат. выставки Гос. Эрмитаж. – М. : Изд. дом Марджани, 2016. – С. 23-24.
18. Абу-л-Хасан 'Али ибн ал-Хусайн ибн 'Али ал-Мас'уди. Золотые копи и россыпи самоцветов [История Аббасидской династии: 749—947 гг.]. – М. : Наталис, 2002. – С. 290.

XORAZM VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA AYOLLARINING FAN VA TA'LIM SOHALARGA JALB QILINISHI

ANNOTATSIYA. Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati xotin-qizlarining fan va ta'lim sohasidagi mehnat faoliyatlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Urush yillarida viloyatda birgina Xorazm o'qituvchilar instituti mavjud edi. Urush munosabati bilan bu ta'lim dargohida har xil qisqa muddatli kurslar tashkil qilindi. Erkak o'qituvchilarning frontga safarbar qilinishi natijasida o'quv kurslariga asosan xotin-qizlar jalb qilindi. Bundan tashqari, Xiva pedagogika bilim yurtining ham bu davrda ahamiyat katta bo'ldi. Bu ta'lim muassasasida ham o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil qilindi, unda ta'lim olgan xotin-qizlar maktablarga o'qituvchi sifatida jalb qilindi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, Xorazm, fan, ta'lim, faoliyat, o'qituvchi, oliy ta'lim.

1. Dolzarbli: Dunyo aholisining to'rtinchi qismi qatnashgan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabaga SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston xalqi jumladan xorazmliklar ham katta hissa qo'shishdi. Bu o'zbekistonliklarning jangovar harakatlarda ishtirok etishi bilan birga O'zbekiston frontni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash bazasiga aylantirilishi, front oldi hududlaridan evakuatsiya qilingan odamlarga, xususan bolalarga, ishlab chiqarish, fan va madaniyat xodimlari va boshqalarga g'amxo'rlik ko'rsatishi kabilarda namoyon bo'ldi. Ayni damda oddiy xalq urush sharoiti qiyinchiliklariga nisbatan matonat va iroda namunasini ko'rsatdi. Barcha narsa mamlakat mudofaasi uchun kurashga safarbar etilishi natijasida fan va ta'lim tizimida katta o'zgarishlar bo'ldi. Urush yillarida xalq ta'limi, ayniqsa oliy o'quv yurtlari og'ir sinovdan o'tdi. Ularning ko'pchilik professor-o'qituvchilari, harbiy chaqiruv yoshidagi yigit-qizlar frontga safarbar etildi[1]. Frontga ketgan o'qituvchilarning o'rnini to'ldirish maqsadida respublikamizning barcha hududlarida xotin-qizlar o'quv yurtlari tashkil qilindi. Bu davarda Xorazm viloyatida yagona oliy ta'lim muassasasi bu Urganch shahridagi Xorazm o'qituvchilar instituti edi. Bu ta'lim dargohi 1935 yilning 9-noyabrida tashkil qilinib, 1942 yilning 1-sentyabridan Xorazm davlat pedagogika instituti sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Bu ta'lim muassasasi Xorazm maktablari uchun o'qituvchi qadrlar tayyorlab berar edi. Urush munosabati bilan Xorazm davlat o'qituvchilar instituti hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Urush boshlanishi bilan institutda mitinglar bo'lib o'tdi. Urushning dastlabki kunlaridanoq bir guruh o'qituvchilar, talabalar va ishchi xizmatchilar hamma qatori o'zlarining Vatan oldidagi muqaddas burchlarini bajarish uchun frontga jo'nadilar.

2. Metodlar: Urush davridagi viloyat xotin-qizlarining fan va ta'lim sohasidagi jasoratlarini yoritishda statistik usullardan va tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanildi.

3. Tadqiqot natijalari: Xorazmdagi oliy ta'lim muassasasida dastlab to'liqsiz oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlangan bo'lib, unda ikkita ya'ni Fizika-matematika hamda O'zbek tili va adabiyoti fakultetlari bo'lib, ularda 64 talaba ta'lim oldi, 10 dan ortiq o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi. 1942 yilda urush munosabati bilan institutning ish uslubi, o'quv dasturi, ta'lim-tarbiyaviy ishlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. 1942 yilning 1-sentyabrida pedagogika institutining tarix, o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti hamda fizika-matematika fakultetlarida o'qishlar boshlab yuborildi[2]. Ularga yuzga yaqin talabalar qabul qilindi. Institutda yangi kafedralar ochildi. Fizika-matematika, ximiya mashg'ulotlarida harbiy strategiya va harbiy texnikaga aloqador bo'lgan mavzular kengaytirildi. Tarix, o'zbek tili, rus adabiyoti fanlarida esa yoshlarni vatanparvarlik va jangovarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor kuchaytirildi. Yangi tashkil etilgan harbiy ta'lim kafedrasini talabalarni boshlang'ich harbiy tayorgarlikdan o'tkazishdek muhim vazifani amalga oshirdi. 1941-1942 o'quv yilida institutni 20 kishi bitirib chiqdi[3, b-4]. Institut o'zining 7 yillik tarixida 300 ga yaqin o'qituvchilarni-fiziklar, adabiyotchilar va tilchilarni yetishtirib chiqardi. 1942-1943 o'quv yilida institutga 125 kishi, til-adabiyot, fizika-matematika

va rus tili va adabiyoti bo'limlariga talabalar qabul qilishi belgilandi. Shu o'quv yilida O'zbekiston Xalq Maorif Komissarligi bu yil tibbiyot-geografiya va tarix bo'limlarini ochishga ham ijozat berdi[4, b-2].

Ma'lumki, urush yillarida viloyat maktablarida muallimlar soni juda kamayib qolgan edi. O'sha davrda institut jamoasi oldida yana bir mas'uliyatli vazifa paydo bo'ldi. Tezkor va qisqa muddatli kurslar ochib, maktabga ko'plab o'qituvchi kadrlar tayyorlab berish zarur bo'lib qoldi. Shuni hisobga olib, 1942-1944 yillarda institut qoshida tarix-geografiya va fizika-matematika fanlaridan o'qituvchilar tayyorlovchi bir yillik o'quv kurslari ish olib bordi.

Urush yillarida institutda sharoitning barcha qiyinchiliklariga qaramay, talabalarga fan asoslarini o'rgatishda, ularni tarbiyalashda xotin-qiz o'qituvchilardan F. Isoqova, R. Boltacheva, F. Sadridinova, F. Rahimboyeva kabilarning xizmatlari katta bo'ldi[5, b-89].

Shu davrda fan o'qituvchilarini tayyorlashda Xorazm o'qituvchilar institutining o'rni juda katta bo'lgan. 1941 yilning ikkinchi yarmida Xorazm o'qituvchilar institutida frontga hamshiralarni tayyorlash kursini 20 nafar talaba a'lo baholarga tugatganligi, yana 40 nafar talaba hamshiralikka o'qitilayotganligi arxiv hujjatlarida keltirib o'tilgan[6, b-2]. 1944 yilda to'liqsiz oliy ma'lumot beruvchi ikki yillik o'qituvchilar instituti bilan bir qatorda oliy ma'lumot beruvchi to'rt yillik pedagogika instituti ham ochildi. 1944-1945 o'quv yilida viloyatda 2186 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi. Ularning 55 nafari oliy, 292 nafari to'liqsiz oliy ma'lumotga ega edi. Bu raqamlar orqali biz xotin-qizlardan o'qituvchilar soni ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, 1942-1943 o'quv yilida respublikada o'qituvchilik bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar respublikadagi o'qituvchilarining 46, 8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1944-1945 o'quv yilida bu ko'rsatkich 94, 3 foizga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston hukumatining 1941 yil 9-noyabrdagi qaroriga binoan Urganch va Xiva shaharlarida 9-10-sinflarning iqtidorli o'quvchilaridan pedagogik kadrlar tayyorlovchi sinflar tashkil qilindi. Xiva pedagogika bilim yurti shulardan biri edi. Xiva pedagogika bilim yurtida ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash qisqa muddatli kurslari tashkil qilindi[7, b-175]. Bundan tashqari, Xiva pedagogika bilim yurti va Xorazm o'qituvchilar institutida 3 va 6 oylik qisqa muddatli pedagoglar tayyorlash kurslariga asos solindi. Pedagogika o'quv yurtlarida o'qigan qizlar soni kundan-kunga ortib bordi.

Maktablarda o'qituvchilik qilayotgan xotin-qizlar targ'ibot-tashviqot ishlarini ham olib borishdi. Yangiariq tumanidagi o'qituvchilar maktab o'quvchilarini o'quv mashg'ulotlaridan keyingi bo'sh vaqtlarida dala ishlariga jalb etib, fidokorona mehnat qilishga undadilar. 1941 yilgi arxiv ma'lumotlarida, maktab o'quvchilaridan Ullijon Rahimova, Qurbonjon Sobirovalar dala ishlarida namunali ishlab, kuniga uch normadan bajarganliklari hamda ular kolxozdan olgan mehnat haqlarini O'zbekiston komsomoli nomidagi tank bo'linmasini qurishga berganliklari yozib qoldirilgan[8, b-4].

Ikkinchi jahon urushi yillarida xotin-qizlardan Hadicha Bekchurina, G. Bekchurina, Saodat Salimova, O. Yusupovalar yoshlarga ta'lim tarbiya berib faoliyat ko'rsatdilar. Ulardan ayrimlarining hayot va faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

Saodat Salimova suronli yillarda xorazmlik o'zbek ayollari orasidan yetishib chiqqan birinchi o'qituvchidir. Oldin o'qituvchi bo'lib ishlagan S. Salomova ayni urush yillarida Xiva tumani ma'orifi bo'limiga mudir qilib tayinlandi. Uni qilgan mehnatlari qadrlanib urush tugagandan keyin "Xalq ma'orifi a'lochisi" ko'krak nishoni, hukumatimizning bir qancha orden, medallari va fahriy yorliqlari bilan taqdirlandi. Saodat Salimova 39 yil mobaynida bir sohada uzliksiz ishlagan ta'lim sohasining jonkuyarlaridan biri edi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, Xiva shahridagi savodsizlikni tugatishning faol ishtirokchisi Oyimjon Yusupova Xiva shahridagi pedagogika bilim yurtining kechki bo'limini 1936 yil a'lo baholar bilan bitkazdi. Shu yili Oyimjon Yusupova Xivadagi Polvon Qori madrasasida joylashgan "8 mart" nomidagi maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq berdi. Oyimjon Yusupova S. Salimova, D. Karimova, M. Otajonova kabi ma'rifatchi ayollar bilan birgalikda Xivada va Xorazmning chekka qishloqlarida savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. 1941-1945 yillarda Oyimjon Yusupova Qo'shko'pir tumanidagi "Ko'ktom" qishlog'ida

o'qituvchilik qildi. 1945 yilda Xivaga kelib, shahardagi Voroshilov (hozirgi Avaz O'tar) nomli maktabda ishlab, Xorazm Davlat pedagogika institutining sirtqi bo'limida ma'lumotini oshirdi. 1958 yilda Oyimjon Yusupova katta mehnatlari va xalq ta'limini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun hukumatimiz tomonidan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni bilan taqdirlangan.

Oyimjon Yusupova yetuk mahorat egasi bo'lib yoshlarga shunday ta'lim berganki, uning ko'pchilik o'quvchilari hali bugungi kunlarimizgacha ustozini nomini faxr bilan tilga olishib bizni savodimizni "Oyimjon muallim chiqargan" deb aytishadi.

4. Xulosalar. Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, urush davrining muhtojliklari, yetishmovchiliklari va yo'kotishlariga qaramasdan ta'lim xodimlari ham mardonavor mehnat qilib fashizm ustidan qozonilgan g'alabani poydevorini barpo qildilar. Xorazm davlat pedagogika instituti hamda Xiva pedagogika bilim yurti jamoasi 1941-1945 yillar mobaynida viloyat xalq maorifiga jami 400 ga yaqin malakali o'qituvchilar tayyorlab berdi. Ushbu bilim maskanlarida tahsil olgan yosh yigit-qizlar kelajakda elimizga munosib farzandlar tayyorlab, yetkazib beradigan ustoz murabbiy bo'lib yetishdilar. Vaqt o'tib borgani sari Ikkinchi jahon urushi yillarida chinakam insoniylik namunasini ko'rsatgan yurtdoshlarimizning g'alabaga qo'shgan hissasi qadri ortib boraveradi. Xalqimiz ularning tinchlik yo'lidagi buyuk jasoratini aslo unutmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <http://dkm.gov.uz/ru/buyuk-galabani-75-yilligiga-3-toshkent-front-orqasidagi-karamon-saar.> (<http://dkm.gov.uz/ru/buyuk-galabani-75-yilligiga-3-tashkent-front-arkasidi-karamon-saar.>)
2. <http://urdu/site/about.> (<http://urdu/site/about.>)
3. Xorazm haqiqati 1 avgust 1943 yil №154 (4464), b-4. (The truth of Khorezm, August 1, 1943 #154 (4464), p-4.)
4. Xorazm xaqiqati 31 may 1942 yil № 124 (4132), b-2. (The Truth of Khorezm, May 31, 1942, No. 124 (4132), p-2.)
5. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-1, op-123, d-19. B-89. (State archive of Khorezm region. F-1, op-123, d-19. B-89.)
6. Xorazm viloyati davlat arxivi. Xorazm haqiqati gazetasi. 1941 yil 24-dekabr, №305. B-2. (State archive of Khorezm region. Khorezm Haqiqat newspaper. December 24, 1941, No. 305. B-2.)
7. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. -T. : QBT, 1997. B 175. (Encyclopedia of the Republic of Uzbekistan. -T. : QBT, 1997. B 175.)
8. Xorazm viloyati Davlat arxivi. Xorazm haqiqati. 1941 yil 9-dekabr. №292. B-4. (Khorezm Region State Archive. The truth of Khorezm. December 9, 1941. No. 292. B-4.)

*Allaberganov Sherali Yo'ldashevich –
Urganch davlat universiteti
yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, PhD.
allaberganov.sherali7129@gmail.com.*

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDAGI YOSHLARNI FABRIKA ZAVOD TA'LIMIGA TORTILISHI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada respublikada mehnat zaxiralari tizmining tashkil topishi, unga barcha viloyatlardan yoshlarning jalb qilinishi, tizimning faoliyatida mavjud yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi. 1941 yilda SSSR hududida bevosita urush boshlanishi va xalq xo'jaligini harbiy izga o'tkazilishi hamda aholini frontga jalb qilinishi mehnat resurslariga talabni keskin oshirdi. Urush yillarida moddiy qiyinchiliklar, pedagogik kadrlarning yetishmasligi va

bitiruvchilar malakasining pastligi tizimning asosiy muammolari bo'ldi. Shunga qaramasdan, mehnat zaxiralari tizimi ta'lim muassasalari FZO iqtisodiyotni tezlikda ishchi kadrlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kalit so'zlar: mehnat zaxiralari tizimi, FZO, O'zbekiston, Xorazm, Ikkinchi jahon urushi.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi boshlangan davrda respublikada iqtisodiyotni harbiy izga o'tkazishda bir qancha muammolar ko'zga tashlandi. Jumladan, respublikaga sanoat sohasida kadrlar tanqisligi masalasi yuzaga keldi. Urushga ketgan erkak kadrlar o'rniga xotin-qizlar bilan birgalikda yoshlar sanoat korxonalariga kasb-kor o'rganishga jalb etildi. Urush yillarida Xorazm viloyatining asosiy sanoat markazlaridan uzoqda joylashganligi, temir yo'lining yo'qligi, urush yillarida faqat Amudaryoning Cholish pristani orqali markaziy shaharlar bilan bog'lanish imkoniyati borligi hamda zavod-fabrikalarning kamligi viloyat sanoatini rivojlanishiga ancha to'sqilik qildi. Shunday bo'lsada viloyat yoshlari FZO larga jalb qilindi. Xorazmlik yigit-qizlar Toshkentda ta'lim olish uchun yuborildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ikkinchi jahon urushi davrida yoshlarni fabrika zavod ta'limiga tortilishi, yoshlardan sanoat sohasi bo'yicha kadrlarni yetishtirish masalasi yoritilgan bir necha ilmiy ishlar nashr etildi. Ularda urush yillarida FZO da o'qitilgan kadrlar soni to'g'risida dastlabki ma'lumotlar berildi. Shuningdek, viloyatdan fabrika zavod ta'limiga jalb qilingan kadrlar masalasi, ularni mablag' va oziq-ovqat bilan ta'minlash ishlari yoritilgan bir qancha arxiv xujjatlari tahlil qilindi.

O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida fabrika zavod ta'limi faoliyatini ochib bergan alohida tadqiqot yaratilmagan bo'lsada, ma'lum ma'noda ushbu masalalar va ma'lumotlar uch tomlik —Uzbekskaya SSR v godi Velikoy Otechestvennoy voyni (1941-1945 gg.)|| (1981, 1983, 1985) kitobida aks etgan. Bundan tashqari X. Babadjanovning "O'zbekistonda mehnat zahiralari tizimining tashkil etilishi va 1941-1945 yillardagi faoliyati" nomli maqolasida ham fabrika zavod ta'limi tizimidagi muammolar bilan birgalikda ta'lim jarayoni to'g'risida ham ma'lumotlarni keng yoritib bergan. Viloyatda yoshlarni FZO maktablariga jalb qilinishi bo'yicha M. Matniyozovning Xorazm tarixi kitobida ham qisqa bo'lsada ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1941 yilda O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushiga jalb etilishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning keskin oshishi kadrlar tayyorlash tizimini tezlikda qayta tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Mehnat zaxiralari tizimiga huquqiy asos sifatida 1940 yilning 2 oktyabrida SSSR Oliy Sovet Prezidiumining - SSSR Davlat mehnat zaxiralari to'g'risidagi qarori asos qilib olindi. Qarorda kadrlar zaxirasini tayyorlash ishlarini amalga oshirishda asosiy mas'ul tashkilot etib Mehnat zaxiralari bosh boshqarmasi belgilandi[1].

Sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlashda yoshlarning hissasi katta bo'ldi. O'smirlar va qizlar davlat mehnat o'rinbosarlari tizimi, fabrika-zavod ta'limi(FZO), hunar va temir yo'l bilim yurtlari orqali ishlab chiqarishga kelib qo'shildilar. Faqat mehnat o'rinbosarlari yo'li bilan 1942 yilda 30 ming yosh ishchi tayyorlandi. Zavodlar, fabrikalar, temir yo'l korxonalarida FZO ni, hunar bilim yurtlarini bitirib chiqqanlar 65-70 foizni tashkil etadi.

1941-1943 yillarda respublika hududidan tashqarida sanoatning bazaviy tarmoqlari, eng muhim mudofaa qurilishlari va korxonalarida ishlash uchun harbiy xizmatga majbur 155 ming o'zbekistonlik safarbar etilgandi, ularning aksariyati qishloq aholisi edi[2].

Mehnat zaxiralari tizimi hunarmandchilik, temiryo'l maktablari va fabrika zavod (FZO rus tilida – Fabrichno-zavodskoye obucheniye) ta'lim muassasalaridan iborat bo'lib, ular davlat xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun malakali ishchi va texnik xodimlarni tayyorlash kerak edi. Mehnat zaxiralari tizimi tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalari o'qish muddati va beriladigan malakalar turlicha bo'lgan. Jumladan, xorazmlik yoshlar FZO maktablariga jalb qilinib, unda ta'lim olish barcha viloyatdagi singari olti yoki o'n oy qilib belgilandi. O'qish muddatidan kelib chiqqan holda FZO maktablari bitiruvchilarining malaka darajasi 3-4 razryaddan iborat bo'lgan.

FZO muassasalarida o'quv jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lgan. Amaliy mashg'ulotlar bevosita ishlab chiqarishda tashkil etilgan. Buning uchun umumiy o'quv soatidan FZO maktablarida esa 85-90 % gacha vaqt o'quvchilarning amaliyot o'tashiga ajratildi.

1941 yilda Xorazm viloyatidan yoshlarni FZO maktablariga jalb qilish uchun targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Lekin chaqiriq davrida ancha xatolarga yo'l qo'yildi. Jumladan, 19-20 yoshga to'lgan va ushbu yoshdan oshgan yoshlarni FZO maktablariga safarbar qilishdi[3]. Zero SSSR Xalq Komissarlari kengashi qaroriga ko'ra FZO maktablariga 16-17 yoshdagi yoshlar jalb qilinishi huquqi berilgandi.

Tumanlardagi ayrim chaqiriq komissiyalari chaqirilgan yoshlarning xujjatlarini yaxshi tekshirmadilar. Ba'zi yoshlar ta'lim joylariga ust-boshsiz, mablag'siz va oziq-ovqatsiz bordilar. Ba'zi tumanlarda FZO maktablariga sog'liqlari to'g'ri kelmaydigan kishilarni ham yubordilar. Buning natijasida ko'p o'quvchilar qaytib ketishga majbur bo'ldilar. Bunday hollar ayniqsa viloyatning Xiva va Gurlan tumanlarida yuz berdi.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti va O'zK(6)P Markaziy Komiterining qaroriga muvofiq 1942 yil 15 oktyabrdan 1 noyabrgacha fabrika-zavod ta'lim maktablariga navbatdagi chaqiriq o'tkazildi. Yoshlarni fabrika-zavod ta'lim maktablarida navbatdagi chaqiriq davlat ahamiyatiga ega bo'lib, unda sanoat uchun kadrlar tayyorlashdi. Shuning uchun partiya sovet va profsoyuz tashkilotlari shahar va qishloq yoshlari orasida ommaviy agitatsiya ishlarini keng miqyosda olib bordilar, chaqiriq punktlarida ommaviy tushuntirish ishlarini namunali tashkil qilinib fabrika-zavod ta'lim maktablariga jismoniy sog'lom, baquvvat yoshlarni jalb qildilar. Fabrika-zavod ta'lim maktablariga 5-6-7-sinflarni tugatgan qishloq yoshlari, ishlamaydigan shahar yoshlari va sanoat kooperatsiyasi sistemasida ishlovchi hamda bolalar uylarida tarbiyalanuvchi 15-17 yoshda bo'lgan yigitlar va 16-18 yoshda bo'lgan qizlar qabul qilinishi rejalashtirildi. Fabrika-zavod ta'lim maktablariga chaqirilgan butun yoshlar ta'lim olish uchun Toshkent shahriga yuborildi.

1942 yilda oldingi yilgiga o'xshash xatoliklar bo'lmasligi uchun chaqiriq komissiyasiga kelgan yoshlardan passport yoki yoshi to'g'risidagi guvohnoma, ma'lumoti haqida spravka bilan birga kolxoz yoki qishloq sovetidan spravka, bolalar uyida tarbiyalanuvchi yoshlar esa bolalar uylarida spravka keltirishlari talab qilindi va ushbu xujjatlar tekshirish qattiq nazoratga olindi. Tibbiy tekshiruv komissiyalari chaqiriluvchi yoshlarning salomatliklarini puxta tekshirib chiqishlari zarur edi. Tibbiy tekshirishdan o'tgandan keyingina yoshlarni chaqiruv komissiyasiga kiritildi va ularni FZO maktablariga qabul qilinishlari qat'iy ravishda xal qilindi.

1942 yilning yanvarida O'zbekistonda o'tkazilgan FZO maktablariga yig'imda har bir o'quvchida ustki va qalin kiyim-bosh, oyoq kiyim, ikki komplekt ichki kiyim, sochiq va yo'l uchun yetarli oziq-ovqat bo'lishi belgilab qo'yildi. Lekin ushbu ta'minot harajatlari kolxozga a'zo bo'lmagan qishloq va shahar yoshlari uchun ularning ota-onalariga, kolxozlarga (kolxozga a'zo bo'lgan) va boquvchisi bo'lmaganlar uchun Maorif XK tomonidan qoplanishi belgilandi [1].

Kolxozchi yoshlar kolxoz hisobiga ustki kiyim bosh, issiq kiyim va maktabga borib yetgunga qadar oziq-ovqat bilan ta'minlandi. Kolxozlarda ishlamaydigan qishloq yoshlari va shahar yoshlari ota-onalari hisobidan ta'minlandilar[4].

Bundan tashqari FZO ga jalb qilingan yoshlarga kolxoz tomonidan hamda Maorif XK tomonidan ma'lum miqdorda pul mablag'i ham ajratildi. Jumladan, Urganch va Xiva shaharlaridan ketgan yoshlarga 450 rubldan, Urganch, Gurlan, Shovot, Qo'shko'pir, Xonqa tumanlaridan ketgan yoshlarga 750 rublgacha pul mablag'lari ajratilgan. Bu mablag'ni 50-150 rubl FZO da ta'lim olayotgan talabaning o'qish va oziq-ovqatiga sarf qilingan xolos. Qolgan asosiy qismi komsomol tashkiloti tomonidan ushlab qolingan[5].

1942 yilning dekabrda Xorazm viloyatidan Urganch va Xiva shaharlaridan hamda Urganch, Xonqa, Hazorasp, Yangiariq, Xiva, Qo'shko'pir, Shovot, Mang'it, Gurlan tumanlaridan jami rejaga muvofiq 500 nafar kishi jo'natilishi rejalashtirilgan bo'lib, aslida 492 nafar yoshlar chaqirilgan shulardan 86 nafari bolalar uyi tarbiyalanuvchilari edi. FZO larga jalb qilingan viloyat yoshlari asosan 1926-1928 yillarda tug'ilgan 14-16 yoshdagi yigitlar hamda 1924-1928 yillarda tug'ilgan 14-18 yoshdagi qizlardan iborat edi.

1943 yil yanvar oyida O‘zbekiston SSR Mehnat zahiralari respublika boshqarmasining buyrug‘iga ko‘ra viloyatdan yana Toshkentdagi №26 sonli FZO maktabigaga o‘g‘il-qizlar jalb qilindi[6]. 1943 yilning 8 yanvarida yangitdan tuman va shaharlar kesimida qabul o‘tkazildi. Xorazm viloyatidan Urganch va Xiva shaharlaridan hamda Urganch, Xonqa, Hazorasp, Yangiariq, Xiva, Qo‘shko‘pir, Shovot, Mang‘it, Gurlan tumanlaridan jami 248 nafar yigit-qizlar FZO larga jalb qilingan asosan 1926-1927 yillarda tug‘ilgan 16-17 yoshdagi yigitlar hamda 1925-1927 yillarda tug‘ilgan 16-18 yoshdagi qizlardan iborat edi[7]. Bu yigit-qizlar Cholish pristani orqali Toshkentdagi FZO maktablariga jo‘natildilar. Ularni ortib ketayotgan eshalon boshliqlariga yoshlarni eson-omon manzillariga yetkazishlari uchun 500 rubldan mukofot puli ham ajratildi.

O‘quv jarayoni ham qayta tashkil etilib, sifat ko‘rsatkichlaridan ko‘ra bitiruvchilar sonini ko‘paytirishga urg‘u berildi. MZT o‘quvchilari uchun 8 soatlik ish soati majburiyligi belgilandi. Tizim ta‘lim muassasalarida vaqtincha umum nazariy va maxsus predmetlar o‘qitish bekor qilindi. O‘quv jarayonida asosiy e‘tibor amaliyotga berilib, bevosita o‘quvchilar ta‘limni zavod va fabrikalardagi ish jarayonidan oladigan bo‘lishdi. Buning uchun ular tajribali ishchilarga birlashtirildi.

Albatta, tezlikda tayyorlangan kadrlar malakasi yetarli darajada bo‘lmay, bu tizimdan chiqqan ishchilar harbiy sanoat korxonalaridagi murakab texnika va dastgohlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishardi. Bu masala 1943 yilda SSSR Xalq Komissarlari Soveti darajasida muhokama etilib, mehnat zaxiralari tizimida tezkor kurslarda tayyorlangan kadrlar sifati qoniqarsizligi tan olindi.

Qisqa kurslarni bitirib chiqqan ishchilarni qo‘shimcha qayta o‘qitish zaruriyati vaqtini maqsadsiz o‘tkazish hamda mablag‘ni o‘rinsiz sarflanishini anglatardi. 1943 yil 3 fevraldagi SSSR XKS qarori asosida tezkor tayyorlov kurslarini ko‘pi bilan yiliga ikki marotaba, faqatgina mehnat zaxiralari bosh boshqarmasi talabi asosida tashkil etish mumkinligi belgilandi [1]. Bu holat sobiq Ittifoqning iqtisodiyotni harbiy izga muvaffaqiyatli o‘tib olganini va bundan buyon ishchi kuchiga ehtiyoj urushning dastlabki davridek o‘tkir emasligidan edi.

Yuqorida keltirilib o‘tilgan muammolarga qaramasdan, 1941-1945 yillarda MZT ta‘lim muassasalari mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga erishdi. O‘zbekistonda FZO maktablari bitiruvchilari respublikadagi sanoat korxonalarini ishchi-texnik kadrlar bilan ta‘minlashda asosiy manbalardan biri bo‘ldi. 1942 yilda O‘zbekistondagi FZO maktablarining o‘zida 26 ta ishchi kasblarini tayyorlash yo‘lga qo‘yildi [1]. Iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi salmog‘i yuqori bo‘lgan O‘zbekiston uchun muhimi, 1942 yilning oxiridan boshlab mehnat zahiralari MZT qishloq xo‘jaligi uchun mexanizatorlar tayyorlashni boshladi [1]. Bu kasblarga ham asosan ayollar jalb qilindi. 1941 yilning 10 oktyabriga kelib respublika fabrika va zavodlarida 45 foiz, 1943 yilda esa 63 foiz xotin-qiz ishladi. Shu davrda ayollar egallamagan kasb qolmadi.

Xulosa va takliflar. 1941-1942 yillarning o‘zida O‘zbekistonda faoliyat olib borgan 54 ta FZO maktablarida viloyatdan mingdan oshiq malakali ishchi tayyorlandi [1]. Ushbu ishchilar respublikaning turli burchaklaridagi sanoat korxonalarida samarali faoliyat olib bordilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida MZT moliyaviy va kadrlar tanqisligi sharoitida minglab yoshlarni kasb yo‘naltirishga, ularga dastlabki malakalar berishda hamda eng asosiysi, sanoat va qishloq xo‘jaligini tezlikda ishchi kuchi bilan ta‘minlashda o‘z hissasini qo‘shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babadjanov X. O‘zbekistonda mehnat zahiralari tizimining tashkil etilishi va 1941-1945 yillardagi faoliyati. O‘zMU xabarlari. 2021. 1/3-son. 5-varaq
2. Xotira kitobi. O‘zbekiston Respublikasi 1941-1945. –T: “Qomuslar bosh tahririyati”. 1995. 20-21-varaqlar
3. Xorazm viloyati davlat arxivi. 1-fond, 3-ro‘yhat, 167-yig‘majild, 66-varaq
4. Xorazm xaqiqati 22 oktyabr 1942 yil № 245 (4253)
5. Xorazm viloyati davlat arxivi. 1-fond, 3-ro‘yhat, 167-yig‘majild, 56-varaq
6. Xorazm viloyati davlat arxivi. 1-fond, 3-ro‘yhat, 167-yig‘majild, 61-varaq

7. Xorazm viloyati davlat arxivi. 1-fond, 3-ro'yhat, 167-yig'majild, 72-77-varaqlar.

*Abdullayeva Nazokat –
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi*

XX ASRNING 40-80 –YILLARI OXIRLARIDA XORAZM VILOYATI XO'JALIGI TARAQQIYOTIDA KOREYSLAR DIASPORASINING O'RNI.

Annotatsiya: XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat ijtimoiy – iqtisodiy hayotida tutgan o'rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Zero, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat rad qilgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan “kobondi” xo'jalik ishlab chiqarish uslubi yordamida juda katta yutuqlarga erishilgan. Ammo, aynan shu sovet hokimiyati iqtisodiy mafkurasiga mos kelmaganligi uchun bu ishlab chiqarish uslubi sovet davri ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda mazkur maqola ana shu “kobondi” ishlab chiqarish uslubi tahliliga va umuman koreyslar diasporasining Xorazm viloyati xo'jalik-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rni masalasi tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: koreyslar, diaspora, deportatsiya, kobondi, kobondya, kapitalistik uklad, ko'pmulkchilik, mavsumiy ijara, “xalq mulki”, Gurlan, Xonqa, Urganch, kolxoz, sovxoz.

Аннотация: Вопрос о роли корейской диаспоры в социально-экономической жизни региона, переселенной в Казахстан и Узбекистан, в том числе Хорезмскую область в 30-е годы XX века, является одной из практически не анализируемых научных тем. Ведь большие достижения были достигнуты с помощью способа экономического производства «кобонди», основанном на рыночной экономике, который был отвергнут основанным только на государственной собственности производства социалистическим обществом. Однако этот способ производства не анализировался в научных исследованиях советского периода именно потому, что он не соответствовал экономической идеологии советской власти. С этой точки зрения данная статья посвящена анализу этого способа производства «кобонди» и роли корейской диаспоры в экономической жизни Хорезмской области.

Ключевые слова: Корейцы, diaspora, депортация, кобонди, кобондя, капиталистический строй, многовладение, сезонная аренда, «народная собственность», Гурлен, Ханка, Ургенч, колхоз, совхоз.

Annotation: The question of the role of the Korean diaspora in the socio-economic life of the region, resettled in Kazakhstan and Uzbekistan, including the Khorezm region in the 30s of the twentieth century, is one of the practically unanalyzed scientific topics. After all, great achievements were achieved with the help of the “kobondi” method of economic production, based on a market economy, which was rejected by a socialist society based only on state ownership of production. However, this method of production was not analyzed in scientific studies of the Soviet period precisely because it did not correspond to the economic ideology of the Soviet regime. From this point of view, this article is devoted to the analysis of this method of production of “kobondi” and the role of the Korean diaspora in the economic life of the Khorezm region.

Key words: Koreans, diaspora, deportation, kobondi, kobondya, capitalist system, multiple ownership, seasonal rent, “people's property”, Gurlen, Khanka, Urgench, collective farm, state farm.

KIRISH (INTRODUCTION). XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat ijtimoiy – iqtisodiy hayotida tutgan o'rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Jumladan, koreyslar diasporasining viloyat qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlari o'sha paytlarda dunyo miqyosida tan olingan edi. Ammo, bu yutuqlarga sovet adabiyotlarida xolisona baho berilmasdan, sotsialistik

jamiyatning yutuqlari sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, koreyslar xo‘jaligida qo‘llanilgan hamda “kobondi” deb nom olgan ishlab chiqarish uslubi hatto maxsus adabiyotlarda ham ilmiy jihatdan tahlil qilinmagan edi. Zero, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat mafkurasi hukmronligi sharoitida, kapitalistik jamiyat illati sifatida baho berilgani uchun “kobondi” xo‘jalik ishlab chiqarish uslubi o‘sha davrlarda nafaqat sovet hukumati tomonidan amalda qabul qilinmadi, balki ilmiy jihatdan ham umuman tahlil qilinmagan.

Ammo, bu ishlab chiqarish uslubi sovet davri ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda mazkur maqola ana shu “kobondi” ishlab chiqarish uslubi tahliliga va umuman koreyslar diasporasining Xorazm viloyati xo‘jalik-iqtisodiy hayotidagi tutgan o‘rni masalasi tahliliga bag‘ishlangan.

Zero, ko‘plab arxiv fondlarining maxfiylik darajasidan chiqarilishi, og‘zaki tarix ma’lumotlarining ko‘payishi mazkur mavzuga yanada kengroq, asosiysi esa ilmiy xolislik nuqtai-nazaridan yondashish lozimligini ko‘rsatadi. Ammo mazkur maqolada, koreys sovxoz va kolxozlarining yoki koreyslar aholi tarkibida ko‘pchilikni tashkil qiluvchi kolxozlar, jumladan, Xonqa tumanidagi Al-Xorazmiy nomli sovxoz va Gurlan tumanidagi “Kommunizm” kolxozlari haqida so‘z yuritilmaydi. Zero, koreys sovxoz va kolxozlarining o‘zlariyoq sovet davrida alohida “fenomen” sifatida mashhur bo‘lib, ularning o‘zlari alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Xorazmdagi koreys diasporasining kelib joylashuvi tarixi va madaniyati masalasi alohida tadqiqot sifatida hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Koreya mavzusidagi mahalliy va xorijiy asarlarning aksariyati sobiq sovet davrida nashr etilgan. Sovet davlatidagi koreys diasporasi yagona etnik guruh sifatida qaralganligi sababli, ko‘plab tadqiqotlar “sovet koreyslari”ga bag‘ishlangan, ammo bu tadqiqotlarning empirik materiallari ma’lum bir mintaqada yashovchi koreyslarni o‘rganishga asoslangan (masalan, O‘zbekiston yoki Qozog‘iston). Xuddi shu sababga ko‘ra, shuningdek, Sovet koreyslarining aksariyati Markaziy Osiyoda yashaganligi sababli, ko‘plab koreysshunoslik fanlarining sarlavhalari “Markaziy Osiyo koreyslari”ga bag‘ishlangan, garchi bu asarlarda ko‘pincha ma’lum bir respublikaning, masalan, Qozog‘iston yoki O‘zbekistondagi koreyslariga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston viloyatlarida yashovchi koreyslar tarixi, ijtimoiy hayoti va madaniyatining turli qirralari, shu jumladan, sovet davlati hukmronligi davrida faqat koreyslar diasporasiga xoc “kobondi” xo‘jalik yuritish uslubi mavzusi V. S. Xan [1], B. Kim [2], G. Li [3], D. Men [4], A. Raxmonqulova [5] kabi tadqiqotchilar asarlarida aks etgan. Bularning barchasi - mavjud adabiyotlarni hisobga olgan holda - Xorazmdagi koreyslarning voha qishloq xo‘jaligi sohasi taraqqiyotida koreyslar diasporasining o‘rni bilan bog‘liq masalalarni, O‘zbekistondagi diasporalar ijtimoiy ahvolini aks ettiruvchi dasturlarini qo‘llash fonida ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Viloyatda yashayotgan koreys diasporasi vakillarining sanoat va qishloq xo‘jaligi sohaslarining taraqqiyotidagi o‘rni masalasi yoritilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, koreyslarning O‘zbekiston hududlariga ko‘chirib keltirilgan paytda respublikaning o‘zida sanoat taraqqiyoti darajasi past edi. 1927-yildan boshlangan sanoatlashtirish siyosati bilan bog‘liq ravishda O‘zbekistonda sanoat sohalari endi shakllantirilib bo‘linib, 30-yillar oxirlariga kelib hali ham talab darajasida emasdi. Shu bilan birga koreyslar asosan qishloqlarga va yanada aniqrog‘i ko‘proq hali o‘zlashtirilmagan hududlarga joylashtirilganliklari uchun ham XX asrning 40-60-yillari davomida koreyslar asosan O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat olib borganlar. Bundan tashqari, agar 1959-yilda O‘zbekiston SSR aholisi tarkibida shahar aholisi soni qancha bo‘lganligidan kelib chiqib, bu borada 138 453 koreys aholisidan 44 112 kishi shaharlarda yashagan. Ya’ni O‘zbekiston koreyslarining taxminan 32 foizi shaharda yashaganlar [6]. Aslida shaharda yashagan koreyslarning ko‘pchiligining faoliyati baribir qishloq xo‘jaligi sohasiga oid

bo'lgan [6]. Qishloqlarda ham koreyslar asosan maxsus qishloqlarni tashkil qilib, xalq tilida ular "koreys kolxozlari" deb nom olgan edi.

Umuman koreyslar diasporasining qishloq xo'jaligi taraqqiyotidagi o'rni beqiyos bo'lib, ular bu sohada ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ayniqsa urush yillarida koreys kolxozlari frontorti va front ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynadilar. Urush yillarida va undan keying yillarda koreyslar vakillarining mehnat yutuqlari shu sohada yaqqol namoyon bo'ldiki, O'zbekistonda 135 kishi "Sotsialistik Mehnat Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan bo'lsa, mingga yaqin koreys diasporasi vakillari davlatning yuksak orden va medallar bilan mukofotlanganlar [7]. Ko'pmillatli SSSR davlatida birorta millat bunday yutuq bilan faxrlana olmaydi. Bu borada Xorazm viloyatida yashovchi koreyslar ham qishloq xo'jaligi sohasida mislsiz yutuqlarga erishganlar. Jumladan, Xorazm viloyatidan koreys millatiga mansub to'rt kishi "Sotsialistik Mehnat Qahramoni" degan eng yuksak unvonga sazovor bo'lganlar. Jumladan, 1950-yilda bu unvonga 2 ta kishi sazovor bo'lgan: Gurlan tumani, sobiq Stalin (keyinchalik "Kommunizm", hozirgi Vazir) nomidagi kolxoz kolxozchilari Nyu Kvansen va Yugay German, 1966-yilda yana shu "Kommunizm" kolxozi brigadiri N. Pak va 1973-yilda Xonqa tumani Al-Xorazmiy sovxoziga uzoq yillar rahbarlik qilgan N. V. Kim qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlari uchun mazkur unvon, orden va medallar sohibiga aylandilar [8].

Koreys sovxoz va kolxozlarida ekinlar hosildorligi boshqa kolxoz va sovxozlarda olingan hosildorlikka nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Jumladan, Gurlan tumanidagi Kommuniz nomli kolxoz a'zolari sholining har gektaridan 60-80 sentner hosil olganlar. Bu ko'rsatkich nafaqat Xorazm viloyati miqyosida balki, butun sobiq SSSR respublikalari ko'rsatkichlaridan ancha yuqori edi. Vaholanki, O'zbekistonning koreyslar yashamaydigan boshqa kolxozlarida sholi hosildorligi gektaridan 24-27 sentnerdan oshmagan. Sholining hozirda ham eng mashhur navlaridan biri "lazer" navining dunyo miqyosida mashhur bo'lishida aslida Xonqa tumani Al-Xorazmiy sovxoz rahbari Nikolay Kim juda katta rol o'ynagan [9]. Koreys kolxoz va sovxozlarida har bir qarich yerdan ratsional foydalanish hamda o'ta mashaqqatli mehnat evaziga shu yutuqlarga erishganlar.

Shu bilan birga koreyslar faqat a'naviy dehqonchilik ekini bo'lmish sholidan emas, balki boshqa ekin turlari, jumladan, kanop, paxta, qand lavlagi, tarvuz, makkajo'xori va piyozdan ham yuqori hosil olib, bu sohalarda ham katta yutuqlarni qo'lga kiritgan edilar. Jumladan, koreyslar O'zbekistonda koreyslar uchun yangi ekin turi bo'lmish paxta yetishtirishda ham o'zbek mirishkorlaridan o'zib ketgan edilar. Koreys kolxozlarida paxta hosildorligi har gektarga 40-45 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'zbek kolxoz va sovxozlarida zo'rg'a 25-30 foizni tashkil qilgan [10]. Kanop ekini yetishtirish bo'yicha esa koreys kolxozlari XX asrning 50 – yillariga kelib o'z yakkahukmronligini o'rnatdilar. Zero, koreys sovxoz va kolxozlarida kanopdan gektaridan 70-80 sentner hosil olganlar (o'zbek kolxozlarida bu ko'rsatkich atigi 10-15 sentnerni tashkil qilgan) [5].

Umuman olganda, koreys kolxoz va sovxozlari erishgan yutuqlari O'rta Osiyo va Qozog'iston miqyosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalarida samaradorlikni oshirish bo'yicha dasturulamal bo'lib xizmat qilgan.

Ammo, koreyslar diasporasining viloyat qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlari o'sha paytlarda dunyo miqyosida tan olingan bo'lsada, bu yutuqlarga sovet adabiyotlarida xolisona baho berilmasdan, sotsialistik jamiyatning yutuqlari sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, koreyslar xo'jaligida qo'llanilgan hamda "kobondi" deb nom olgan ishlab chiqarish uslubi hatto maxsus adabiyotlarda ham ilmiy jihatdan tahlil qilinmagan edi. Zero, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat mafkurasi hukmronligi sharoitida, kapitalistik jamiyat illati sifatida baho berilgani uchun "kobondi" xo'jalik ishlab chiqarish uslubi o'sha davrlarda nafaqat sovet hukumati tomonidan amalda qabul qilinmadi, balki ilmiy jihatdan ham umuman tahlil qilinmagan. Tadqiqot ishining mazkur bo'limida aynan shu "kobondi" ishlab chiqarish uslubi hamda xo'jalik shakli tahliliga katta e'tibor qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Umuman olganda xususiy mulkchilikni rad qilib, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat gullab – yashnagan davridayoq O‘zbekiston koreyslari o‘zlarining xo‘jalik hayotida o‘sha sotsialistik jamiyat rad qilgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan “kobondi” xo‘jalik ishlab chiqarish uslubi yordamida juda katta yutuqlarga erishganlar. Ammo, bu ishlab chiqarish uslubi sovet davri ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda, viloyatda yashovchi koreyslar diasporasi qishloq xo‘jaligi sohasida juda ko‘p yangiliklarni va ekin ekish texnologiyalarini olib kelishdiki, bu masalani butun viloyat bo‘yicha tumanlar kesimida tahlil qilib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хан В. О специфике трудовой деятельности Коре Сарам в СССР: Кобонди – образ рыночника в не рыночной экономике // 러시아지역 해외한인연구 3권. 서울, 2019. – С. 289-325; Хан В. Освещение истории корейской полуполюгальной сельскохозяйственной аренды (кобонди) в художественной и публицистической литературе // O‘zbekiston tarixi. №2, 2014. – С. 77-86.
2. Ким Б. И. Ветры наших судеб: Советские корейцы. История и современность – Ташкент: Узбекистон, 1991. – 183 с.
3. Ли Г. Гобонди. Записки наблюдателя о любви корейцев к земле. Бишкек. Б. и. 2000. – 316 с.
4. Мен Д. Роль корейских колхозов Центральной Азии в строительстве социализма в СССР (1937-1991 гг.) / 러시아지역 해외한인연구II – 러시아지역 한인의 이산과 정주. Seoul: Sunin, 2019. Pp. : 301-357.
5. Рахманкулова А. Х. Вклад корейцев в экономику Узбекистана (в конце1930–1950 гг.) // 1937 год: русскоязычные корейцы – прошлое, настоящее и будущее / Сборник материалов Международного симпозиума, посвященного 80-летней годовщине принудительного переселения корейцев с Дальнего Востока в Центральную Азию (15–17 сентября 2017 г. , Владивосток –Уссурийск). – М. , “Аквариус”, 2018. – С. 315.
6. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 года. Узбекская ССР. – Москва: Госстатиздат, 1962. – С. 139-143.
7. Шин Д. В. Советские корейцы – Герои Социалистического труда. – Ташкент: ZAMIN NASHR, 2019. – 544 с.
8. Xorazm viloyati Yangibozor tuman Davlat arxivi. 116 fond, 1 ro‘uxat, 37 yig‘ma jild, 108-110 varaqlar; yana qarang: Xorazm viloyati Xonqa tuman Davlat arxivi. 270 fond, I ro‘uxat, 91 yig‘majild, 1-3 varaqlar.
9. Xorazm viloyati Yangibozor tuman Davlat arxivi. 116 fond, 1 ro‘uxat, 37 yig‘ma jild, 108-110 varaqlar; yana qarang: shu arxiv. 122 fond, 1 ro‘uxat, 7-chi va 32 yig‘ma jildlar, 103, 105-106 varaqlar.
10. Bu haqda qarang: Ли Г. Гобонди. Записки наблюдателя о любви корейцев к земле. Бишкек. Б. и. 2000. – С. 154-157; Ким Б. И. Ветры наших судеб: Советские корейцы. История и современность – Ташкент: Узбекистон, 1991. – С. 78; Мен Д. Роль корейских колхозов Центральной Азии в строительстве социализма в СССР (1937-1991 гг.) / 러시아지역 해외한인연구II – 러시아지역 한인의 이산과 정주. Seoul: Sunin, 2019. Pp. 301-357; Хан В. Освещение истории корейской полуполюгальной сельскохозяйственной аренды (кобонди) в художественной и публицистической литературе // O‘zbekiston tarixi. №2, 2014. – С. 77-86.

4TH SECTION.
**THE ROLE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF EASTERN THINKERS IN WORLD
CIVILIZATION.**
***РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В МИРОВОЙ
ЦИВИЛИЗАЦИИ.***
**SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMİY MEROSINING JAHON SIVILIZATSIYASIDA
TUTGAN O'RNI.**

JADID BOBOLARIMIZNING ILMIY-MA'RIFIY QARASHLARI

Annotasiya. Mazkur maqolada Vatan ozodligi, istiqlol yo'lida, millat savodxonligi uchun umrini baxshida etgan ma'rifatparvar ziyolilarimiz, avlodlarni erk va ozodlikka, ma'rifat va taraqqiyotga yetaklab jadidlar nomi bilan tarixga kirgan fidoyi vatandoshlarimiz faoliyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ozodlik, millat, jadidchilik, qadriyat, uyg'onish, matbuot, ma'rifatparvar, ziyolilarimiz, Yangi O'zbekiston, millatparvarlar, adabiyot.

Аннотация. В данной статье размышляется о деятельности нашей просвещенной интеллигенции, отдавшей свою жизнь за свободу Родины, независимость и грамотность нации, и наших самоотверженных соотечественников, вошедших в историю во имя джадидов, ведущих поколения к свободе и развитие свободного просвещения.

Ключевые слова: свобода, нация, модернизм, революция, возрождение, пресса, просветитель, наша интеллигенция, Новый Узбекистан, националисты, литература.

Annotation. In this article, freedom of the Motherland, on the way to independence, our enlightened intellectuals who sacrificed their lives for the literacy of the nation, we will reflect on the activities of our self-sacrificing compatriots who went down in history in the name of Jadids, leading generations to freedom, enlightenment and development.

Key words: freedom, nation, jadidism, value, revival, press, enlightener, our intellectuals, New Uzbekistan, nationalists, literature.

Qadimgilar “moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir” deyдилar, zotan yurtimizning uch ming yillik tarixida Vatan va millat uchun qayg'urgan insonlarning boqiy faoliyatlarini bugungi yoshlarga ibrat qilmoq shunday xayrli amallardan hisoblanadi.

“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yetti yo'nalishida madaniy-ma'rifiy islohotlarning “yo'l xaritalari” millatparvar, ma'rifatparvar, jadid bobolarimizning boy tarixlarini o'rganmoq borasidagi islohotlarning aks-sadosi sifatida ko'rsatiladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, “. . . bizning insoniy qadr-qimmatimizni, g'urur va sha'nimizni, din-u diyonatimizni, milliy davlatchiligimizni tiklab bergan mustaqillik kuni Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo'lib qoladi” [1].

Jadidlar ta'limoti—o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Bu haqda filolog olim, professor Begali Qosimov Turkiston tarixining XX asr boshidagi eng muhim hodisa hisoblangan jadidchilik harakatiga katta baho berdi: “Jadidchilik harakati millatni ham tarbiyalab bordi. Jadidlar millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar” [2].

Xalqimizning ma'rifatparvar farzandlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma'naviy-tarixiy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyaviy ta'limotni yoshlar ongiga qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo'lamiz.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, istiqlol g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, noshir, jurnalist edi. Jadidchilik harakatining taniqli namoyandalardan biri, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yilning 30-yanvarida Samarqandda tug'ildi. U tog'asi Muhammad Siddiq yordamida xat-savodini chiqardi. Eski maktab-madrasada o'qidi. Arab tilini o'rgandi. Qozixonalarda mirzalik, qozilik vazifalarida ishladi. 1893-1900-yillarda Yaqin Sharq mamlakatlariga, jumladan, Makkaga haj safariga boradi.

1903-1904-yillarda Moskva, Peterburg, keyinroq Qozon, Ufa shaharlarida bo‘lib, ta‘lim-tarbiya maskanlari bilan tanishadi. 1914-yilda Arabiston, Misr, Turkiya kabi bir qator mamlakatlarda bo‘ladi. Behbudiy o‘z davrining yirik allomalaridan biri, muftiy bo‘lishiga qaramay, hamisha bid‘at va xurofotga qarshi kurash olib bordi, o‘z asarlarida islom dinining asl mohiyatini to‘g‘ri tushunish lozimligini uqtirdi, milliy masalaga keng e‘tibor berdi. Behbudiyning Turkistonda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishdagi va jadidchilik g‘oyalarini matbuot orqali targ‘ib qilishdagi xizmatlari g‘oyat katta. U 1903-1904-yillarda o‘zbek va tojik tillarida “Qisqacha umumiy geografiya” asarini, yangi usuldagi maktablar uchun darslik va qo‘llanmalarni yozdi. “Behbudiy” nomli nashriyotni tashkil etib, unda o‘zbek tilida darsliklar bosib chiqardi.

Buyuk Shekspirning “Hayot –sahna har bir inson unda o‘z rolini o‘ynaydi” degan gapi bor. Sahnada ko‘rsatilgan quvonch-u kamchiliklar insonni to‘g‘ri yo‘lga solishga xizmat qiladi, xatodan saboq, yutuqdan shukronalik fazilatini beradi. “Teatr bu ibratxonadir” hikmatiga amal qilgan alloma o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib, “Padarkush” (1913) asarini, ya‘ni muallifning fikriga ko‘ra “Milliy fojea” deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda asar o‘sha davrning katta ijtimoiy voqeasiga aylandi. Cho‘ntagida puli bo‘la turib, xat-savod chiqarmagan, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani, nodonlik va jaholat pand bergani haqidagi drama Samarqand-u Farg‘ona vodiysi aholisiga nihoyatda katta ta‘sir ko‘rsatdi. 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda, Avloniyning “Turon” teatr truppassi tomonidan Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida namoyish qilinadi. Boy rolini Abdulla Avloniy ijro etadi. O‘z maishatiga o‘ralib, dunyoni unutgan millatdoshlarga mazkur spektakl kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. «Padarkush» dramasi turkistonlik yoshlarni Ovro‘po ilmgohlarida o‘qitish g‘oyalariga ham duch kelish mumkin. Mazkur asar o‘z davrida Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», Mirmuhsin Fikriyning «Befarzand Ochildiboy», Hamza Hakimzodaning «Yangi saodat» kabi asarlarining yaratilishiga ham ta‘sir ko‘rsatgan edi. Bu asarni Amerikaning Kaliforniya dorilfununida tarjima ham qilinib, sahnalashtirilganligini yaxshi bilamiz.

Behbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo‘ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e‘tibor berdi. Umuman Behbudiyning publisist sifatida faoliyati adib iste‘dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko‘proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Uning maqolalari 300 dan ortiq. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avval, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan, uning 1906-yil 10-oktabrda «Xurshid» (6-son) gazetasida bosilgan «Xayrul umuri avsothu» («Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir») maqolasi diqqatga sazovordir. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtayi nazaridan baholanib, Behbudiyni qoralash uchun nishon bo‘lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o‘sha 1906-yildayoq socialistik ta‘limotni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog‘lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan edi. U hamustoz I. Gasprinskiy kabi sosializmni zo‘ravonlik hisoblaydi, sosial tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko‘rdi. Xuddi shu e‘tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi.

Samarqandda mahalliy aholi uchun qiroatxona ochishga boshchilik qildi. Behbudiy 1913-yilning aprelda “Samarqand” gazetasini, o‘sha yilning avgust oyidan boshlab esa “Oyna” gazetasini chiqarishga kirishdi. U millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o‘ylar ekan, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog‘idan qutqarib olishning birdan bir yo‘li ilm-ma‘rifatli bo‘lishdir, degan xulosaga keldi [3].

Ushbu tarixiy davrda yashagan olim M. Behbudiy va A. Fitrat kabi ma‘rifatparvarlarning milliy taraqqiyot uchun avvalo, dunyo tajribasini o‘rganmoq darkor deb, zamona yoshlarini ilm-ma‘rifatga, chet tillarni puxta egallashga chaqirgani, ularning asarlarida aks etadi [4]. Biroq, bu davrda o‘ziga xos yo‘nalish sifatida maydonga kelgan ma‘rifatparvarlik harakati mazkur masalada yangilik kiritishga urindi. Ularning asarlarida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj asoslandi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat va ularning boshqa safdoshlari o‘zlarining serqirra faoliyatida til

o'rganish masalasini ilgari surdilar. Behbudiy o'zi asos solgan va muharrirlik qilgan "Oyina" jurnalining 1913-yil 13-avgust 1-sonida [4] kamida 4 tilni bilish lozim, degan g'oyani ilgari surdi. Shuningdek, faoliyati davomida jurnalni to'rt tilda nomlagani ham chet tillarni bilish va egallash favqulotda zarurligidan dalolat beradi. M. Behbudiy bu masalada shaxsan o'zi ibrat bo'lgan.

"Biz o'z qismatimizni bilamiz. . . agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. . . Mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq saodatini taminlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi" (M. Behbudiyning qatl oldidan yozgan "vasiyatnoma"sidan).

Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16-23-aprelida Behbudiy Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan qurultoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

Is'hoqxon Ibrat ilmiy asar va maqolalarida zamondoshlariga sharq tillari bilan bir qatorda g'arb tillarini ham o'rganishni targ'ib etdi. Adibning o'zi ham Sharq mamlakatlaridan tashqari Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida istiqomat qildi [5]. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga kelgan. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombay va Kalkuttada yashab, bu yerda ko'p ishlatiladigan arbailisonni, ya'ni to'rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rganadi.

Munavvar qori Abdurashidxonov o'zbek xalqining milliy ozodlikka erishish yo'lida faoliyat ko'rsatgan pedagog, jurnalist, jamoat arbobidir. XX asr boshlarida o'lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma'naviy tanazzul tomon yuz o'giranini ko'rgan Munavvar qori bu holatlarning ijtimoiy ildizini tekshirishga urinadi. Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish zarur degan xulosaga kelishiga turtki bo'ldi. Munavvar qori maktab maorif islohoti, tom ma'nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmagan. Munavvar qori "*Usuli jadid*" "milliy maktab" asoschisi bo'lib qolish bilan birga, chet elga bolalarni o'qishga yuborish masalasini ko'tardi. Toshkentda bo'lib o'tgan yig'ilishda Munavvar qori, "o'zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muxtojimiz. Bolalar o'qib, ilm tahsil qilib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar", deb ma'ruza qilgan.

Fitrat asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm- ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Abdurauf Fitrat asarlarida chor Rossiyasi tomonidan Turkiston zo'rlab bosib olinib mustamlakaga aylantirilganligi, keskin qoralangan. U bu haqida o'zining "Yurt qayg'usi" she'riy to'plamida "Ko'rdim, yozdim, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir", - deb yozgan edi. Yangi O'zbekistonda tariximiz, eng avvalo o'tgan buyuk siymolar, ajdodlarimiz, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Munavvar Qori to'g'risida badiiy filmlar yaratildi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [https://nrm.uz/contentf?doc=612866_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi\(2020_yil_24_yanvar\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=612866_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi(2020_yil_24_yanvar)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

2. Қосимов. Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т. : Маънавият, 2002. –Б. 4.
3. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т. : Шарқ, 2009. – Б. 48.
4. Бехбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б. Қосимов). –Тошкент: Маънавият, 1997. –60 б. ; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. –Т. : Маънавият. 2000. –256 б.
5. Ибрат И. Танланган асарлар (Ибрат И. Сиддикий-Ажзий. Сўфизода). //Тўпловчи, нашрга тайёрловчи сўзбоши ва луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Аҳмедов, У. Долимов. – Т. : Маънавият, 19

Mirkomilov Baxtiyor,
t. f. n. , professor. ,
Burxonov Lazizjon o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

“AVLODLAR BERUNIYNI ILOHIY QOBILYATLI SIYMO” DEB BILGANLAR

Annotsiya: O'rta Osiyoning buyuk qomusiy olimi, Beruniyning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni, Allomaning avlodlarga katta ilmiy meros qoldirganligi, Beruniy asarlarining Sharq va g'arb madaniyatining rivojlanishga qo'shgan hissasi, Jahon olimlarining, “Ilohiy qobilyat egasi”, buyuk tarixiy shaxs, bobokalonimiz haqidagi fikrlari.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar, Qomusiy olimlar, jahon sivilizatsiyasi, Sharq mamlakatlari, G'arb madaniyati, “Xorazmning mashur kishilari”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi”.

Аннотация: Великий учёный-энциклопедист Средней Азии, роль Беруни в развитии мировой цивилизации, великое научное наследие Алломы, вклад трудов Беруни в развитие восточной и западной культуры, учёные мира, «Обладатель Божественных способностей», великий исторический человек, его мысли о нашем дедушке.

Ключевые слова: Средневековье, учёные-энциклопедисты, мировая цивилизация, страны Востока, западная культура, «Знаменитые люди Хорезма», «Геодезия», «Индия», «Понятные и непостижимые индийские знания», книга определения лип.

Annotation: The great encyclopedic scholar of Central Asia, Beruni's role in the development of world civilization, Alloma's great scientific legacy, the contribution of Beruni's works to the development of Eastern and Western culture, world scientists, "Owner of Divine ability", great historical the person, his thoughts about our grandfather.

Key words: Middle Ages, Encyclopedic scholars, world civilization, Eastern countries, Western culture, "Famous people of Khorezm", "Geodesy", "India", "Intelligible and inconceivable Indian knowledge" the book of identification of limes".

“Umri bo‘yi bitta to‘n, bir kosa suv va bitta nonga qanoat qilgan Shamsulmaoliyning vazirlik, sulton Ma’sudning bir fil ko‘tara oladigan boyligini rad etgan, insoniyatga mamlakatlar xirojiga teng asarlar tuhfa etgan”- Abu Rayxon Muxammad ibn Ahmad al-Beruniy tavalludining 2023-yilda 1050 yilligi xalqlarimiz tamonidan munosib nishonlandi. Ismi Muhammad, otasining ismi Axmad bo‘lmish u zot Xorazmning Qiyot shahri yaqinidagi qishloqlardan birida tug‘ilgan. Zamonaviy manbalarda u Kot yoki Kat deb ataladi. **(3, 85-bet.)**

Beruniyning o‘smirlik, yoshlik va yetuklik davri haqida bir qancha qimmatli manbalar bor, biroq uning qanday inson bo‘lganini uning asarlaridan bilib olamiz. U kitoblarida ilmiy risolalarga xos bo‘lmagan ajoyib uslub qo‘llagan: ro‘y bergan voqealar tafsiloti, fikr-mulohazalarini bitib ketgan.

Beruniyning ta’kidlashicha, otasi u esini tanimasdan burun vafot etgan, onasi esa o‘tinchilik bilan kun kechirgan. Yoqut Hamaviyning “Irshod al-arib ila ma’rifat al adib” asarida

olimning o'zi yozgan shunday mazmundagi she'ri keltiriladi: "Ollohga qasamki, men o'z sulolamni, o'z bobomni bilmayman. Qanday qilib bilardim, agar otamni ham ko'rmagan bo'lsam. [4].

"Men bolalik chog'imdanoq, - deb yozgan edi Beruniy - yoshim va sharoitimga qarab, imkon qadar ko'proq bilim olishga intildim. Buning dalili sifatida quyidagilarni keltirish kifoya: Biz turadigan kasabaga bir yunon ko'chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug'lar, mevalar va hokazolarni olib borib, unga ko'rsatib, bu narsalar uning tilida qanday atalishini so'rab, nomini yozib qo'yardim" [2.] U yoshligidanoq ilm-fanga qiziqdi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, Hindistonda Sanskrit tilini ham o'rganadi. Beruniy avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o'z davri ilm-fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma'lum. U tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan shug'ullanib, she'rlar yozdi. "Astrologiyaga kirish", "Astronomiya kaliti", "Jonni davolovchi quyosh kitobi", "Ikki xil harakatning zarurligi haqida", "Ko'ytirish asoslari", "Ptolomey", "Almagest" ning sanskritchaga tarjimasi, "Foydali savollar va to'g'ri javoblar", "Farg'oniy elementlariga tuzatishlar", "Turklar tamonidan ehtiyotkorlik", "Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma'lumotlar", "Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi" shular jumlasidandir.

Beruniyning ilmiy faoliyati, yozgan asarlariga o'z zamonasidayoq yuksak baho berilgan edi. Masalan, mashhur tarixchi Abul Fazl Bayhaqi shunday yozadi: "Uztoz Abu Rayhon og'zaki ijodiyotda, narsalar mohiyatini tushunishda, geometriya va falsafada shunday bilimdon ediki, uning zamonida unga teng keladigan boshqa kishi bo'lmagan" [2]. Shuningdek, Sharq va G'arb olimlaridan J. Reno, E. Zaxay, G. Zuter, E. Vitman, K. Nallino, J. Sarton, R. Rayt, M. Meyerxof, C. X. Nasr, M. Kozim, C. Baraniy, M. Nizamutdin, Sh Yaltkay kabilar Beruniy ijodiga yuqori baho berdilar. Amerikalik tarixchi olim J. Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Mashhur sharqshunos olim I. Y. Krachkovskiy Beruniy merosiga yuqori baho berib, "uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir" deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi [5].

Yana bir misol Beruniyning bir do'sti qozi Volvolijiy bir mahallar olim bilan suhbatlashganda "al-Jaddod al-fosida" huquqiga merosni taqsimlash ilmiga doir bir masala ustida gap ochgan-u, suhbat qandaydir sabab bilan chala qolib ketgan. Bir necha yildan so'ng o'lim yostig'ida yotgan Beruniydan hol so'ragani kelgan. Og'ir nafas olishiga, kuragi siqilishiga qaramay, Beruniy undan o'sha masalani yana so'rab qolgan. Do'sti Beruniyning ahvolini ko'rib "hozir vaqti emas" desa ham olim unamagan. "Ey baxtli o'rtoq ! Bu olamga kelgan har kishining u dunyoga ko'chmog'i zaruriydir. Men bu dunyo bilan xayrlashayotibman. O'sha masalani bilmay ketganimdan ko'ra bilib ketganim yaxshi emasmi? Deb qistagan, so'ngra do'stidan haligi masalani bilib olgach, shu xususidagi o'z fikrini oxirgi nafasigacha aytib bergan-u, dunyodan ko'z yumgan. [6].

Xulosa qilib aytganda, Beruniyning bilimga, fan sirlariga ishtiyoqi naqadar yuksak bo'lganligini yuqoridagi dalillarimiz yaqqol isbotidir. Alloma hayotining oxirgi damlariga qadar tinmay ilmiy izlanishda bo'lib, yuzdan ortiq ilmiy asarlar yozib qoldirganligining o'zi bir olam ibrat bo'lsa, hayoti davomida boshidan kechirgan qiyinchiliklar va sinovlar, ularga sabr va matonat bilan bardosh berib, yengib o'ta olganligini o'zi yana bir ibrat namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. 4-tom "Farmakognoziya". T. "Fan", 1973
2. Abul -Fazl Bayhaqi. Istoriya Masuda. T. 1962. S. 587.
3. Isoqjon Sulton. "Beruniyning aql mash'ali", Tafakkur. Jurnal. 2023-yil 1-son, 85-bet.)
4. I. Krachkovskiy. Izbrannie proizvedeniya. Tom 4, Izdatel'mstvo AN CCCR, 1957. Ctr. 245).

5. M. A. Xayrullayev. Ma 'naviyat yulduzlari. T. 2001, 109 b.
6. H. Hasanov. Sayyoh olimlar. T. , O'zbekiston. 1981, 54-55 b.

*Ishmuratov Madamin –
Urganch innovatsion universiteti rektori,
f. f. n. , dotsent*

ANTIK DAVR MANBALARIDA XORAZM DAVLATCHILIGI TARIXINING YORITILISHI

Maqolaning qisqacha mazmuni: Mazkur maqolada antik davr manbalarida Xorazm davlatchiligi tarixining yoritilishi masalasi va mazkur muammo yuzasidan yangicha qarashlar va yondashuvlar masalasi ochib berilgan. Xorazm hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasi antik davr manbalarida yetarli darajada o'z aksini topmagan. Ammo, shunday bo'lsada ulardagi ma'lumotlar xususidagi zamonaviy tadqiqotlar va fikrlar haligacha yakuniy xulosasini topmagan. Chunki, ulardagi ma'lumotlar uchinchi bir manbalardan olingan bo'lib, arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish davomida ular bir – biriga mos kelavermaydi.

Kalit so'zlar: Kir II, Doro I, Gekatey, Gerodot, Skilak, Strabon, Aleksandr Makedonskiy, Kvint Kurtsiy Ruf, Arrian, massagetlar, saklar, Avesta, Darg'amon, Artaikt, V. V. Struve, I. V. Pyankov.

Аннотация: В данной статье раскрывается вопрос освещения истории Хорезмской государственности в древних источниках и вопрос новых взглядов и подходов к этой проблеме. Вопрос возникновения первой государственности на территории Хорезма недостаточно отражен в древних источниках. Однако современные исследования и мнения по поводу содержащейся в них информации еще не нашли своего окончательного вывода. Потому что информация в них получена из третьих источников, и при сравнительном анализе с результатами археологических исследований они не соответствуют друг другу.

Ключевые слова: Кир II, Дарий I, Гекатей, Геродот, Скиллак, Страбон, Александр Македонский, Квинт Курций Руф, Арриан, Массагеты, Саки, Авеста, Даргамон, Артаикт, В. В. Струве, И. В. Пьянков.

Annotation: This article reveals the issue of covering the history of Khorezm statehood in ancient sources and the issue of new views and approaches to this problem. The issue of the emergence of the first statehood in the territory of Khorezm was not sufficiently reflected in the ancient sources. However, modern studies and opinions about the information in them have not yet found their final conclusion. Because the information in them is obtained from third sources, and during the comparative analysis with the results of archaeological research, they do not correspond to each other.

Key words: Cyrus II, Darius I, Hecataeus, Herodotus, Skillacus, Strabo, Alexander the Great, Quintus Curtius Rufus, Arrian, Massagety, Saki, Avesta, Dargamon, Artaictus, V. V. Struve, I. V. Pyankov.

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazm hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasi antik davr manbalarida yetarli darajada o'z aksini topmagan. Ammo, shunday bo'lsada ulardagi ma'lumotlar xususidagi zamonaviy tadqiqotlar va fikrlar haligacha yakuniy xulosasini topmagan. Chunki, ulardagi ma'lumotlar uchinchi bir manbalardan olingan bo'lib, arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish davomida ular bir – biriga mos kelavermaydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. VII – VI asrlarga kelib, Janubiy Orolbo'yi hududlarida turli etnik guruhlar – ko'chmanchi, yarim o'troq, o'troq qabilalar joylashgan. Ular qadimgi fors bitiklari va yunon tarixchilari asarlarida tilga olingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Mil. avv. 549 – 548 yillar mobaynida podsho Kir II boshchiligidagi qadimgi forslar Parfiya va Girkaniyani zabt etadilar [1]. Yunon tarixchisi Gerodotning xabarlariga ko'ra, Kir II ning

bosqinchilik rejalariga «Bobil, baqtriyalik xalqi, saklar va misrliklar to‘siq bo‘lib turganlar. Ushbu xalqlarga qarshi Kir shaxsan o‘zi yurish boshlash niyat qilgan» [2]. Mil. avv. 545–540 yillar oralig‘ida Kir II Marg‘iyona, Baqtriya va Sug‘dni bosib oladi [3]. Ammo manbalarda Quyi Amudaryodagi Xorazm, xususan xorazmliklar yurtiga qadimgi forslarning yurishlari haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma‘lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Mil. avv. 519–512 yillari oralig‘ida yunon Skilak (Kichik Osiyodagi Kariandi shahridan) podsho Doro I ning topshirig‘ini bajarib, Hind daryosi orqali kemalarda suzib, Arabiston va Qizil dengizlari bo‘ylab Misrga yetib borgan [4].

Skilakning sayohati haqida Gerodotning «Tarix» kitobida yoritilgan (ushbu kitob mil. avv. 455–445 yillar davomida yozilgan): «Osiyoning katta qismi Doro davrida ma‘lum bo‘ldi. Podsho, Hind daryosining dengizga qo‘yilishi joyidan xabar topish niyat qilgan (axir bu daryo Nildan tashqari, timsohlar yashagan yagona daryodir). Ushbu maqsadda Doro, o‘zi ishonch bildirgan bir necha odamni jo‘natgan. Ular orasida kariandlik Skilak ham bo‘lgan. Ular Paktiyadagi Kaspatira shahridan daryo orqali dengizga suzish boshlagan» [5].

Gekateyning xabarlariga ko‘ra, Skilak Midiyadan Kaspiy darvozasi va Parfiya orqali xorasmiylar (xorazmliklar) yurtiga yetib keladi. Ushbu yo‘lning ta‘rifi «parfiylar va xorasmiylar yerlarini bo‘ylab, baqtriyalargacha», hatto yunon tarixchisi Arrian (milodiy 90/95–175 yillar) «Aleksandr anabasisi» degan asarida takrorlanadi [3].

Gekatey, Skilakning ma‘lumotlariga asoslanib, xorasmiylarni Parfiya va Baqtriya o‘rtasida, birinchi viloyatdan sharqda, ikkinchisidan-g‘arbda joylashtirib, «parflardan sharqda xorasmiylar istiqomat qiladilar» deb yozadi. Gekatey xorasmiylarning yurti va tabiati to‘g‘risidagi xabar beradi. Ushbu masala va tarixshunoslik muammolari I. V. Pyankovning maqolasida batafsil yoritilgan [3].

Mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, xorasmiylar tekisliklarda va tog‘larda joylashganlar «u tog‘larda yovvoyi daraxtlar, tikanli kinara, tol, yulg‘un o‘sadi». Ushbu xabarlardan ko‘rinib turibdiki, xorasmiylar yerlarining florasi tog‘oldi, daryo vohalaridagi to‘qayzor, o‘rmonlardan iborat bo‘lgan.

Gerodot Gekateyning hikoyalarini to‘ldirib, xorasmiylarning xo‘jaligi to‘g‘risida quyidagicha yozadi: «Qishda xudo ularga, boshqa odamlarga singari, yomg‘ir beradi, yozda esa tariq va kunjut ekib, ular suvga muhtoj bo‘ladilar» va tog‘li daryo Akes suvidan foydalanadilar [2]. Gerodot xorasmiylarni tog‘oldi vodiya yashagan elat sifatida yoritadi:

Ushbu ma‘lumotlarga asoslangan holda, XX asrning boshlarida xorasmiylarning dastlabki hududiy joylashishi (ya‘ni ilk vatani) haqidagi ilmiy masala ruyobga chiqarildi va keyinchalik bahs-munozaralarga aylandi.

Gerodot, o‘z asarida xorasmiylarni yana 2 marta tilga oladi [2], bu ma‘lumotlardan biri Doro I ning satrapliklari ta‘rifi bilan bog‘liq. «Parfiyaliklar, xorasmiylar, sug‘dlar va ariylar 300 talant to‘laganlar. Bu – o‘n oltinchi o‘lka». Ikkinchi joyda, tarixchi podsho Kserksning harbiy qo‘shinlarida xorasmiylarni jangchi vakillar sifatida yoritadi: «Parfiyaliklar, xorasmiylar, sug‘dlar, gandariylar va dadiklar baqtriyaliklarning qurollariga o‘xshagan yarog‘-aslahalari bilan harbiy yurishni boshlaganlar. Ularning yo‘lboshchilari: parfiyaliklar va xorasmiylarniki – Farnak o‘g‘li Artaboz; sug‘dlarniki – Artey o‘g‘li Azan bo‘lgan».

Ahamoniylar davri mixsimon yozuvlarida Xorazm Fors podsholigi tarkibiga kirgan viloyat sifatida yoritiladi. Qadimgi fors bitiklari olimlar tomonidan keng o‘rganilgan va turli tarixiy masalalarni o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qilgan [5].

1972 yilda Suza shahrida topilgan Doro I haykalidagi yozuvlarda podsho nomidan bunday e‘lon qilinadi: «Suzadagi saroyini men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. . . Yaka yog‘ochi – Gandara va Kemandan, oltin Sard va Baqtriyadan, yarqirama toshlar

va lojuvard – So‘g‘diyondan, bu yerda ishlatilgan ko‘k yarqirama tosh-feruza – Xorazmdan yetkazib berilgan» [6].

Qadimgi Persepol shahrida Doro I va Kserks podsholar saroy devorlardagi o‘yib ishlangan bo‘rtma rasmlarda alohida guruhlardan iborat turli xalqlarning Ahamoniylar hukmdorlariga o‘lpon keltirish manzaralari mavjud. O‘n yettinchi guruh xorazmliklar bo‘lib, ular dudama xanjar, jangovar oybolta, bilaguzuklarni va otni olib kelayotgan holati tasvirlangan [7].

Sariqamishbo‘yi, Yuqori Uzboy hududlarida ko‘chmanchi chorvador qabilalar istiqomat qilgan. Ular yozma manbalarda massagetlar va saklar deb atalgan. «Massagetlar» etnonimi ma‘nosi aniqlanmagan. Adabiyotlarda keltirilgan bu so‘zning tarjimalari – «baliqxo‘rlar», «ulug‘ saklar», «ulug‘ getlar» ishonchli dalillarga asoslanmagan [8].

Gerodotning asarida massagetlar O‘rta Osiyoning boshqa qadimiy qabilalari va elatlariga nisbatan keng ta‘riflangan [9].

Massagetlarga oid yozma ma‘lumotlar I. V. Pyankov tomonidan maxsus tahlil qilingan [10].

Gerodotning «Tarix» kitobida massagetlar tarixi bilan bog‘liq quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

- massagetlarning umumiy tavsifi;
- Araks daryosi, uning orollari va ularda yashaydigan odamlarning ta‘rifi;
- Araks daryosi, uning tarmoqlari va balchiqlari atroflarida istiqomat qilgan aholisining tavsifi;
- Kaspiy dengizning tasviri;
- massagetlar yashaydigan tekislik, ularning turmush-tarzi, kiyim-kechaklari, qurollari va oziq-ovqatlarining ta‘rifi;
- massagetlarning dafn urf-odatlari va e‘tiqodlari to‘g‘risida ma‘lumotlar [10].

Bundan ko‘rinib turibdiki, Gerodot massagetlarning moddiy madaniyati, turmush tarzi va urf-odatlarini keng yoritishga harakat qilgan. Yunon geografi va tarixchisi Strabon (mil. avv. 64 – milodiy 24 yillar) Gerodotning ma‘lumotlaridan foydalanib, ularni qo‘shimcha dalillar bilan boyitgan [11].

Gerodot o‘z hikoyalarini shunday boshlab beradi: «Aytishlaricha, bu massagetlar jasur va behisob qabiladir. Ular sharqda, quyosh chiqish yo‘nalishida, Araks daryosining narigi yog‘idagi issedonlarga ro‘para bo‘lib joylashganlar. Ba‘zilar ularni skif qabilasi deb hisoblaganlar» [12].

Strabonning hikoyalari birmuncha farq qiladi: «Ekin yerlarga ega bo‘lmagan orollarda yashovchilar, ildizlar bilan ovqatlanadi, yovvoyi mevalarni iste‘mol qiladilar, mevalardan siqib chiqarilgan sharbatni ichadilar» [12].

Gerodotning aytishicha, massagetlar Kaspiy dengizdan sharqda quyosh chiqish yo‘nalishida bepoyon tekislikda yashaganlar. Strabon massagetlarning hududiy joylashuvini quyidagicha tasvirlaydi: «Kaspiy dengizning narigi yog‘ida yashovchilarning ba‘zilarini saklar, boshqalarni massagetlar deb aytib ko‘rsatadilar» [12]. Massagetlar tarixiga tegishli Gerodotning asosiy ma‘lumotlari Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi, Kir II va To‘maris o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, To‘maris boshchiligidagi ko‘chmanchilar va qadimgi forslar jangi ta‘rifiga bag‘ishlangan [2].

O‘rta Osiyo tog‘lari, tog‘oldi hududlari va dashtlari, jumladan, Orolbo‘yidagi Quyi Sirdaryo va Quyi Amudaryo dashtlarida istiqomat qilgan ko‘chmanchi chorvador sak qabilalari to‘g‘risida yunon tarixchilari asarlarida va qadimgi fors yozuvlarida turli ma‘lumotlar mavjud. Ular fors podshosi Doro I ning saka-tigraxauda qabilalariga qarshi yurishlari, saklarning fors davlatiga bo‘ysunishi va maxsus o‘lpon to‘lashi, Ahamoniylar harbiy qo‘shinlari safida ko‘chmanchi jangchilarning ishtiroki, ularning yarog‘-aslahalari va boshqa ayrim ma‘lumotlardan iborat [2].

Mil. avv. V asrda qadimgi fors podsholari Ahamoniylar davlatining o‘lkalarida harbiy istehkomlarga asos solganlar. U yerda turli elatlar vakillari bilan birga saklar va xorazmliklar xizmat qilganlar. Xorazmliklar quyidagi manbalarda qayd etib o‘tilgan.

- Sakkarada (Misr) arxeologik qazishmalarda topilgan ikkita oromiy tilda yozilgan hujjatda. Ular Memfis shahrida joylashgan kemasozlik ustaxonasi faoliyatiga aloqador;
- Elefantinada (Misr) topilgan oromiy tilidagi papiruslarda (xorazmlik Xarshin o'g'li Dargoman tilga olingan);
- mil. avv. 505 yilga oid to'rtta Bobil hujjatlarida;
- qadimgi fors, akkad va elam tillarida Persepoldagi podsho maqbarasi yozuvlarida (mil. avv. IV asr o'rtalari) [13].

Elefantinada mil. avv. 464 yilda tuzilgan papirus hujjatida bunday ma'lumotlar mavjud: «Dargoman, xorazmlik Xarshin o'g'li, Artabon qo'shinidan, Elefantina qal'asida, Variyzata qo'shinidan yaxudiy Maxseyga bunday dedi. . » [14]. Yozma manbalar ma'lumotiga ko'ra, xorasmiy Artaikt Dardanella bo'g'ozi bo'yidagi Sest shahri (Kichik Osiyo) boshlig'i lavozimiga tayinlangan [15].

Xorazmliklar haqida keyingi yozma ma'lumotlar Makedoniyalik Aleksandr yurishlari davriga to'g'ri keladi. Aleksandr zamondoshlari va yunon-makedonlar yurishlarining ishtirokchilari Ptolemey Lag, Klitarx, Aristobul Sharqda o'zlari ko'rib kuzatgan siyosiy va madaniy voqealarni yozib borganlar. Bu kundalik asarlar bizgacha yetib kelmagan, lekin ularning turli qismlaridan yunon-rim tarixchilari foydalanganlar (Diodor, Strabon, Pompey Trog, Kvint Kurtsiy Ruf, Arrian).

Makedoniyalik Aleksandr yurishlarini yoritgan tarixchilar asarlarida xorazmliklar, «xorasmiylar» shaklida tilga olingan elat haqida xabarlar quyidagi jihatlardan iborat: Kurtsiy Ruf, Klitarx ma'lumotlariga asoslanib, Aleksandrga qarshi chiqqan Baqtriya satrapi Bess xorasmiylardan yordam kutishini qayd etib o'tadi; Strabon, Aristobul ma'lumotlaridan foydalanib, xorasmiylarni massagetlarning tarkibiy qismi sifatida yoritadi; Arrian asarida xorasmiylar podshosi Farasmonning Aleksandr oldiga yetib kelishi haqida hikoya Aristobul xabarlariga asoslanadi [3].

Adabiyotlarda mavjud fikrlarga ko'ra, xorasmiylar haqida ma'lumotlarni yunon tarixchisi Ktesiyning xabarlarini bilan kengaytirish mumkin [3].

Ktesiyning «Persika» asarida «xoramniylar» elati tilga olinib, ularning joylashish hududi «parfiylar va baqtriylar o'rtasida» deb qayd etib o'tilgan. Ma'lumki, bunday yondashuv dastlab Gekateyning asarida xorasmiylarga nisbatan tegishli bo'lgan.

Ktesiy, xoramniylarni fors podshosi Kir zabt etib, ularni baqtriyaliklar, parfiylar va karmaniylar singari o'lpon to'lab berishdan ozod qilgan deb yozadi [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Gerodotning Araks daryosi va Bexistun yozuvlaridan nomsiz daryo ilmiy adabiyotlarda Quyi Amudaryo bilan bog'lanadi. Lekin qadimgi forslar daryodan kechib o'tgan joyi (Dovdon o'zani, Yuqori Uzboy) hanuzgacha aniqlanmagan va bu muhim muammo maxsus tadqiqotlarni amalga oshirish talab qiladi.

Tahlil qilingan yozma manbalar Xorazm tarixining qadimgi davrlarga oid bo'lib, muhim voqealarni o'rganishga imkon beradi. Mavjud ma'lumotlar turli avlod tadqiqotchilari tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lsa ham, ulardan manba sifatida foydalanish va yangi masalalarni tadqiq etish imkoniyatlari chegaralanmagan. Bu borada yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlar so'nggi kashfiyotlar natijalarini taqqoslash hamda qiyosiy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дандамаев М. А. Политическая история Ахеменидской державы. – М. : Наука, 1985. – С. 19.
2. Геродот. История. В девяти книгах / Перевод и примеч. Г. А. Стратановского – Л. : Наука, 1972. – Кн. I, 131.
3. Пьянков И. В. Хорезм в античной письменной традиции // Хорезм и Мухаммад ал-Хорезми. – Душанбе: Дониш, 1983. – С. 38.
4. Пьянков И. В. Хорасмии Гекатея Милетского // ВДИ. – М. , 1972. № 2. – С. 3–21.

5. Струве В. В. Поход Дария I на саков – массагетов // Известия АН СССР. – М., 1946. № 3. – С. 231–250; ўша муаллиф. Датировка Бехистунской надписи // ВДИ. – М., 1952. № 1. – С. 9–34; Дьяконов М. М. Очерк истории древнего Ирана. – М.: ИВЛ, 1961; Дандамаев М. А. Иран при первых Ахеменидах. – М.: ИВЛ, 1963; Дандамаев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: Наука, 1980; Эдаков А. В. Новые надписи Ахеменидов // ВДИ. – М., 1976. № 2. – С. 91–95.
6. Хрестоматия по истории Древнего Востока. Надпись Дария I о сооружении дворца в Сузах / Перевод В. И. Абаева. – М.: Высшая школа, 1980. Ч II. – С. 38–39.
7. Уилбер Д. Персеполь. Археологические раскопки резиденции персидских царей / Перевод с англ. Е. Л. Власовой. – М.: Наука, 1977 – С. 71.
8. Фрай Р. Наследие Ирана / Пер. с англ. В. А. Ливишца и Е. В. Зеймаль. – М.: Наука, 1971 – С. 71.
9. Пьянков И. В. К вопросу о маршруте похода Кира II на массагетов // ВДИ. – М., 1964. № 3; ўша муаллиф. Массагеты Геродота // ВДИ. – М., 1975. № 2. – С. 46–70.
10. Пьянков И. В. Массагеты Геродота. . . С. 47–49.
11. Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г. А. Стратановского. – М.–Л.: Наука, 1964. – X, 8, 6, 7.
12. Страбон. XI, 6, 2.
13. Балахванцев А. С. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана – Т. 2013. – С. 51–52.
14. Дандамаев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. . . С. 139.
15. Дандамаев М. А. Клинописные данные об ариях // История археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 86.

*Sayyora Samandarova –
Urganch innovatsion universiteti dotsenti, f. f. n.*

JADID MA'RIFATPARVARI BOBOOXUN SALIMOV IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSINING MA'RIFIY AHAMIYATI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Xorazmlik jadid ma'rifatparvari Bobooxun Salimovning hayoti ijodiy faoliyatiga bog'langan holda tadqiq etilgan. Jadid shoirining she'rlari o'sha davr manzarasi asosida tahlil qilinadi va adabiy merosidan namunalar keltiriladi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье изучается жизнь и творческая деятельность Хорезмского просветителя Бобоохуна Салимова. Анализируются стихи Джадидского поэта на основе пейзажа того времени и приводятся примеры его литературного наследия.

ANNOTATION: In this article, the life and creative activity of Bobohun Salimov, a modern enlightener from Khorezm, is studied. Jadid's poems are analyzed based on the landscape of that time and examples of his literary heritage are given.

KALIT SO'ZLAR: Jadid adabiyoti, jamiyat, islohot, she'r, maktab, darslik, adabiy meros.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Джадидская литература, общество, реформа, поэзия, школа, учебник, литературное наследие.

KEY WORDS: Jadid literature, society, reform, poetry, school, textbook, literary heritage.

Jadidchilik g'oyalari asosida jamiyatdagi barcha sohalar va davlat boshqaruvini isloh qilish, milliy uyg'onishni yuzaga keltirish uchun kurash olib borgan "Yosh xivaliklar" harakatining eng faollaridan biri, bu boradagi maqsad-u intilishlaridan chekinmagan Xorazmlik jadid - Bobooxun Salimov edi. O'z davrida taniqli qozikalon-huquqshunos, diplomat, pedagog, shoir sifatida tanilgan ushbu siymo Xorazmdagi jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi,

yo'lboshchilaridan biri bo'lib, uning nomi shu bois ham XX asr birinchi choragi Xorazm tarixida muhim o'rin tutadi.

“Biroq Xorazmdagi jadidchilik harakati va ular mansub bo'lgan siyosiy harakat-“Yosh xivaliklar”ning namoyandalari orasida faqatgina ikki shaxs-Bobooxun Salimov va Bekjon Rahmonlar boshqa safdoshlaridan ijodkorligi bilan alohida ajralib turadi. Ya'ni, Polvonniyozhoji Yusupov, Xudoybergan Devonov, Nazir Sholikorov, Husayinbek Matmurodov va boshqa jadid liderlar kabi ularning ham siyosiy faoliyati kurashlar, islohotchilik g'oyalari bilan o'tgan bo'lsada, ulardan asosiysi boy ijodiy, ma'naviy, adabiy meros qoldi” [1].

Ma'lumki, Bobooxun Salimov (1873-1929) otasi Salimoxun vafotidan so'ng 1912-1916-yillarda Xiva xoni qozikaloni bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Xudoybergan Devonov, Sultonqori Jumaniyozovlar singari jadidlarning “Yosh xivaliklar” harakati a'zosi bo'lgan. Bobooxun Salimov 1920-1924-yillarda esa Xorazm xalq respublikasida adliya noziri, RSFSRga yuborilgan diplomatik missiya rahbari, Afg'onistonda elchi va boshqa vazifalarda faoliyat yuritgan.

“Bobooxun xonlik davrida qozikalon vazifasida ishlarkan, fuqarolarning arz-dodini tinglash, turli janjal va shikoyatlarni adolatona yo'l bilan yechishga urinadi. Biroq, feodal-monorxiyaga asoslangan, buning ustiga mustamlaka davlatda ijtimoiy adolat borasida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Qolaversa, ba'zi ruhoniylarning muttasibligi, bir qator sharq tillarini bilgan, o'z davrining ma'rifatparvar jadidlari bilan yaqin maslakdosh bo'lish Bobooxunni jamiyatda islohotlar o'tkazishga undardi. Shuningdek, u jamiyatda ro'y berayotgan salbiy munosabatlarni yo'qotish uchun ham mudroq g'ururni uyg'otish lozimligini anglab yetgandi. Shu bois ham Bobooxunning ushbu she'rida jadidlarning g'oyasi aks etgandi” [2]:

Xazon faslida bulbuldek,

Dil afgor o'lg'on o'xshaydur.

Jaholat dardiga barcha

Giriftor o'lg'on o'xshaydur,

Sukut aylab demas bu kun

Rost so'zni shayxulislomlar.

Xaloyiq ichra bid'atlar,

Baddiydor o'lg'on o'xshaydur...

“Ojizo” taxallusi bilan ijod qilgan Bobooxun Salimovning boshqa she'rlarida ham mustamlakachilik asorati davriga xos mahzunlik, jamiyatdagi voqe'lklarga real baho berish aks ettirilgan.

Shoirning quyidagi she'rida shunday shu holatga oid misralar bor:

Ojizo, zor ko'ngillar,

Bo'ldi xandon oqibat.

Bizlarga zulm etganlar,

Bo'ldi yakson oqibat. . .

“Bizlar zul etganlar, bo'ldi yakson oqibat. . .”, ya'ni 1920-yildagi xonlik tugatilib, Xorazm xalq respublikasi o'rnatilgach esa, jadidlar g'oyasini amaliyotga joriy etish imkoniyati paydo bo'lgandi. Respublika adliya noziri, Afg'onistonda elchi bo'lib ishlagan Bobooxun 1922-yil fevral oyidan Xorazmda maorif va madaniyat noziriligida maktablar uchun yangi o'quv qo'llanmalari yaratish komissiyasining raisi bo'lib ishlay boshlaydi va yaratilgan “Ona tili”, “Adabiyot” darsliklariga Fitrat, Avloniy singari jadid maslakdoshlarining ijod namunalari kiritadi. .

“Bobooxun Salimov ushbu vazifada ishlab turib o'zi ham maktablar uchun “Alifbe” va “O'qish” kitobini yaratadi. Shuningdek, maslakdosh jadid birodari Bekchon Rahmon bilan hamkorlikda maktablar uchun o'quv qo'llanmalari yozadi. Ayniqsa uning “Maktab” sarlavhali she'ri xalq ta'limi uchun sidqidildan ishlagan jadid ziyolisining yorqin qiyofasini ko'rsatadi” [3]:

Xushdur ne balo havoyi maktab,

Jon o'lsa ravo fidoyi maktab.

Maktab demaki madori ilmdir,

To ilm iladur baqoyi maktab,

*Rashk o'tiga o'rtamish Eramni,
Gulzori farah fazoyi maktab
Anvoyi ilm ma'danidir.
Har go'shayi bir saroyi maktab.
Tan o'lg'usi bulbuli bahorda.
Tifloni g'azal saroyi maktab.
Har kimda bor ersa jahl dardi
Daf aylagusi davoyi maktab
Go'daklar adibu olim o'lmas.
To chekmaguncha jafo maktab,
Topmoq tilasang ikki jahonni
Zinhor bo'l oshnoyi maktab,
Xorazm elin aylagay munavvar,
Nuri qamari saymoyi maktab,
Mingdan birini tugatmas Ojiz
Yuz yil desa ham sanoyi maktab [4].*

“Xorazm elin aylagay munavvar maktab” deb bilgan Bobooxun Salimovning davlat boshqaruvidagi tajribasi inobatga olinadi va “1923-yil butun Xorazm ahlining IV qurultoyida XXR adliya nozirining muovini, 1924-yil 26-martdan yana qaytadan XXR adliya noziri vazifalarida faoliyat ko'rsatib boshlaydi. Shuningdek u 1924-yil 17-apreldagi ruhoniylarning I qurultoyi chaqirilishi va o'tkazilishiga rahbarlik qildi”. 1924-yildagi milliy chegaralanish siyosatidan so'ng siyosatdan chekinib Gurlan va Mang'it hududlaridagi yerlarida dehqonchilik qilib taqdir sinovlarini boshdan kechirgan jadid shoiri 1929-yilda vafot etadi.

Garchi jadid shoiri Bobooxun Salimov hayoti va ijodi hozirgacha to'la tadqiq qilinmagan bo'lsada, uning aniqlangan ijod namunalari, ushbu jadid namoyandasining ijodiy salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Xorazmlik jadid ijodkorlarning, xususan Bobooxun Salimovning hayoti, ijodini tadqiq qilish borasidagi izlanishlarimiz esa davom etaveradi. Bu borada Bobooxun Salimovning Gurlan tumanida yashovchi qarindoshlarida saqlanib kelayotgan adabiy merosi, jadidchilik g'oyalari asosidagi she'riyat namunalari ekanligini ko'rsatadi. Bu ijodiy meros orasida hanuzgacha nashr etilmay kelayotgan she'rlari jadid adabiyotida yangi sahifa ochishi tabiiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сайёра Самандарова, “Жадид маърифатпарвари Бекжон Раҳмон”, “Та'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari” бўйича Фарғонада ўтказилган конференция материаллари. 29 март, 2024 йил.
2. Умид Бекмуҳаммад “Хоразм ва хоразмликлар”, “Дурдона” нашриёти, Бухоро-2022 йил, 124 бет.
3. У. Бекмуҳаммад, Охунлар тақдири” “Гурлан ҳаёти” газетаси, 2002 йил 6 ноябрь.
4. Бобоохун Салимовнинг ушбу шеъри Гурланлик ушбу сулола давомчилари бўлган М. Салимовда сақланади.

*Panayeva O'g'iljon –
Urganch innovatsion universiteti katta o'qituvchisi, f. f. n.*

ULAR TANLANGAN INSONLAR YOXUD BIZ UCHUN ANDOZALAR

Har kim hodisalardan ibrat olib, tajribalardan foydalanib bilsa, boshi qattiq bu falak unga bo'ysunaveradi.
(Abu Ali Ibn Sino)

ANNOTATSIYA

Maqolada Sharq va G'arb madaniyati, ilmi, tafakkuri taraqqiyotiga hissa qo'shgan va asrlarga tatigulik xizmatlari bilan butun dunyoga tanilgan buyuk allomalar tilga olinadi. Xususan, Qomusiy olim Ibn Sino surati va siyrati, butun dunyoga ilm beshigini tebratgan g'oya kashfiyotlari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: renessans, qomusiy olim, tabobat, gumanizm, uchinchi uyg'onish, tabib

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается вклад великих ученых в развитие восточной и западной культуры, науки и мысли, которые стали известными всему миру своими выдающимися заслугами в области гуманитарных, научных и философских достижений. В частности, внимание уделено фигуре Ибн Сины, представлены его биографические данные и значимость в мировом научном прогрессе, а также раскрывающая его великие открытия, которые сыграли ключевую роль в развитии мировой науки.

Ключевые слова: ренессанс, комплексные знания, медицина, гуманизм, третье возрождение, врач

ANNOTATION

The article examines the contributions of great scientists to the development of Eastern and Western cultures, science, and thought, who have become known worldwide for their outstanding achievements in the fields of humanities, science, and philosophy. In particular, attention is paid to the figure of Ibn Sina, his biographical data is presented, and his significance in global scientific progress is highlighted, as well as his great discoveries, which played a key role in the development of world science.

Key words: renaissance, comprehensive knowledge, medicine, humanism, third revival, physician

Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini birlashtirgan buyuk shaxslar haqida so'z ketar ekan, albatta marjonday Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Maxmud Zamaxshariy, Imom Buxoriy ismlari teriladi. Ulardan keyin Imom Termiziy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg'iloniy, Abul Muin Nasafiy, kabi ulug' ulamolar, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Xofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, A. Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar, Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Mo'zahhid, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar birin-ketin ko'z oldimizdan o'tadi va butun insoniyat ilm beshigini tebratgan Sharq mutafakkirlarining avlodi ekanligimizdan faxr hissini tuyamiz. Renaissance yuz berishida asosiy ozuqa bu - kitobxonlik. Tariximizdan malumki, kitobxonlik rivojlangan mintaqalarda uyg'onish davri bo'lgan. Tarixchi Adm Mersning yozishicha, X asrda Islom tarixida 3 buyuk hukmdor - Kurdoba, Kohira, Bog'dod hukmronlari kitobsevarlar sifatida tarixga kirishgan. 960-yilda qo'zg'olon ko'targan Bog'dod hokimining 17 mingta muqovalangan kitoblari musodara qilingan. Shu bilan birga as Sohibning kitoblari 400 ta tuyaga yuk bo'lgan. Endi o'zimizga savol beraylik. Bizning shaxsiy kutubxonamizdagi kitoblar soni qanchaga yetadi, Biz hech bulmaganda bir oyda qancha kitob mutolaa qilyapmiz? Kishilik tarixidagi ilk Oliy o'quv yurti Forjak X asrda Buxoroda faoliyat ko'rsatgan. Xuddi shu asrning o'zida Samarqandda 17 ta madrasa ish yuritgan. Madrasalarda Qur'on, hadis, huquq, kalom, arab tili, adabiyot, matematika, meros fanlaridan o'rganilgan. Ushbu tizim XII asr oxiriga kelib Yevropada ham joriy etilgan. Keling, o'sha ulug' allomalarimizdan biri bo'lgan, bugungi kunda butun kasalliklar yosh tanlamayotgan, yangilanayotgan, yasharayotgan zamonda yashayotgan ekanmiz, Yaratgan tanlagan, andoza olishimiz zarur bo'lgan O'rta Osiyolik buyuk qomusiy olim Abu Ali al - Xusayn Abdulloh Ibn al-Xasan Ibn Ali haqida to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Ibn Sinoni ko'pchilik tabib va faylasuf sifatida taniydi. U kishi haqida nimalarni bilamiz? "980- 1037 yillarda hayot kechirgan Abu Ali ibn Sino 10 yoshga yetganda Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtirib oladi. Ayni vaqtda u hisob va al-jabr bilan shug'ullanadi, arab tili va adabiyotni mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozini Abu Abdulloh Notimiy bo'lgan. U ustozini qo'lida mantiq, handasa, falakiyotni

o'rganadi va bazi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketadi. 17 yoshida Ibn Sino Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida taniladi. U hukmdor Nuh ibn Mansurni davolaydi, evaziga saroy kutubxonasiidan foydalanishga izn so'raydi va bu imkoniyatga ega bo'ladi. Abu Ali ibn Sino falsafa, tibbiyot, mantiq, ruhshunoslik, kimyo, biologiya, mineralogiya, geologiya, astronomiya, matematika, musiqa, ahloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan 450 dan ortiq asar yaratgan. Biroq bizgacha 242 ta asar yetib kelgan. Tibbiyotni nazariy va amaliy jihatdan bir tizimga solish orqali ushbu sohani bir necha asrga ilgarilatgan, ayrim yo'nalishlarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirgan. "Tib qonunlari" 800 yil mobaynida Sharq va G'arbda ilmiy qo'llanma sifatida foydalanilmoqda" [1]. "XIV asrdan boshlab lotin tiliga o'girilgan va 30 martadan ortiq nashr qilinib, Yevropa universitetlarida asosiy darslik sifatida o'qitilgan. Ibn Sinoning tabobatga taalluqli ishlari judayam ko'p. Ayrimlarini aytib o'tamiz. Ibn Sino birinchi bo'lib kasalni bir odamdan ikkinchisiga yuqumliligi haqida so'z ochgan edi. U davrdagi odamlar kasalni yuqmaydi deyishardi. Diabet - saxar kasalligini u siydik holatidagi shirinlik moddasidan tashxis qilardi. Diabet kasalligida siydikda qand moddasi borligini 1975-yilda ingliz olimi aniqlagan. Lekin 700 yil avval bu haqiqatni Ibn Sino aniqlagan edi [2]. " Tabobat tarixida birinchi bo'lib Ibn Sino vabo bilan o'latni o'rtasini farqlab bergan edi. Meningit, oshqozon yarasi, sariq kasalligi, qizamiq, suvchechak kabi kasalliklarni belgilashni va kechish jarayonlarini puxta qilib tasvirlab bergan edi. Quturish kasalligini ko'rinishlari, uni yuqumli xarakteri, bemorning bu kasallikdagi holatini juda to'g'ri aniqlab bergan edi. 1804 yilda 800-yildan keyin Yevropalik olim Sinke quturgan hayvonning so'lagi yuqumli ekanligini tasdiqlagan. Unutilib ketgan eski narsa yangi narsa bo'lib kashf qilindi. Yelka suyagi chiqishini oddiy bosish yo'li bilan davolash ham Ibn Sinoga tegishli. Hozirgacha bu uslub "Aviseno usuli " deb ataladi. Umurtqani qiyshayishini Ibn Sino o'zi ixtiro qilgan yog'och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrda fransuz tabibi Kala yana qaytadan kashf etgan. Yana bir kashfiyotlaridan biri suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo'llanilgan. Lekin keyinchalik bu uslub esdan chiqib, yevropalik olimlar tomonidan 1852-yilda yangi ixtiro sifatida dunyoga taqdim qilingan. Jarrohlikda anestazeya masalasiga ham alohida e'tibor bergan. U kishining ishlaridan yana bittasi kasallikni davolashda shaxsiy gigiyenaga alohida e'tibor berishni uqtirgan va shunday hikmatli so'zlarni aytib o'tgan " O'z vaqtida meyor bilan badantarbiya qilgan kishiga dard yaqinlashmaydi", "Bolalarni tarbiya qilaman demanglar, ular baribir sizlarga o'xshagan bo'ladi". Haqiqatan sport – sog'lik garovi! Farzand aytganingnimas, qilganingni takrorlaydi. Ota-ona o'zi tarbiyalangan bo'lsagina farzandlari ham tarbiyali bo'lishadi. Olimlarimiz o'z ilmiy davralarida yer aylanishi, uning yumaloqligi, falak va samoviy jismlarning harakatlanishi, o'nli sanoq sistemasida yozishida ular ustida arifmetik amallarni bajarish qoidalari, yilning eng qisqa va uzun kunlari, quyoshda dog'ning borligi, yilning 365 kun, 50 soat, 49 daqiqa. . . ekanligi haqida so'zlab turgan bir vaqtda yevropaliklarning aqllari ana shu haqiqatlarning barchasi to'g'risida shubha, vahimalarga to'lgandi. Shu tufayli g'arbliklarda arabchadan lotinchaga tarjima qilish harakati boshlangan. "Ibn Sinoning tib to'g'risidagi "Al-qonun" kitobi XII asrda tarjima qilingandi. Shuningdek, Ar-Roziyning "Al- Xoviy" kitobi ham XIII asr nihoyasida lotinchaga o'girilgan. Bu ikki kitob Yevropa universitetlarida tibbiyot darslarining asosi sifatida XIV asrgacha o'qitilib kelindi. Olim Gustav Lubon aytadi: "Arab kitoblarining tarjimasi, xususan, ilmiy kitoblar o'qitish uchun yagona manba bo'lib, qariyb besh yoki olti asr xizmat qildi. Aytishimiz mumkinki, tib ilmi kabi ba'zi ilmlarda musulmonlarning ta'siri bugungi kunimizga yetib keldi. Ibn Sinoning kitoblari Monbilyada o'tgan asrning oxirlarida tarjima qilindi". Olim yana deydi : "Rojer Bekon, Leonard Albezi, Arno Alfifufi, Remon Lol, San Toma, Katta Albert va boshqalar faqat musulmonlarning kitoblariga ishonganlar ". Msye Renon deydi: " Albatta, Katta Albert Ibn Sinoga, San Toma esa o'z falsafasida Ibn Rushdga qarzdor" [2]. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda eng qulay sharoitlarga ega maktabgacha ta'lim muassasalari, zamonaviy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilmoqda. Zamonaviy universitetlar soni kengaymoqda. Gumanizm - inson manfaatlariga e'tibor, muhabbat kuchaytirilmoqda, yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bugun mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi uyg'onish" g'oyasi kezib yurmoqda. Darvoqe, O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasida bergan intervyusida Uchinchi

reessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalari haqida o‘zining yorqin fikrlarini aytib o‘tdi. “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlarida asos solgan alloma bobolarimizning orzu intilishlari va armonlari ham mujassam desak, adashmagan bo‘lamiz”, - dedi davlat rahbari va so‘zining oxirini shunday xulosalaydi :“Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O‘zbekiston" va "Uchinchi reessans" so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda". Yangi g‘oyalar sari intilar ekanmiz, moziyga nazar solib, nafaqat Sharq, balki G‘arb madaniyati ilmi tafakkuri taraqqiyotiga hissa qo‘shgan va asrlarga tatigulik xizmatlari bilan butun dunyoga tanilgan ota bobolarimiz tarixi, surati va siyrati bilan yaqindan tanishsak, ruhlarini shod va rozi qilib duo-yu fotihada bo‘lib buyuk allomalar avlodlari ekanligimizga shukronalar keltirib va izlariga izdosh bo‘lishni yurakdan istab, tanlangan buyuk insonlardan andozalar olsak yangi jadidlar bo‘lib yuksak marralarni egallarmidik, bu yashirin dunyoning qancha ochilmagan sirlarini kashf qilarmidik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akademik M. M. Xayrullayev (ijtimoiy tarmoq, maqola) Abu Ali ibn Sino
2. Disertatsiya. Sadiqov Rauf filologiya fanlari nomzodi, 2008 y.

*Karimov Zafarbek Ataboyevich –
Urganch Davlat Universiteti dotsenti*

JAMIYATNI REPRODUKTIV SOG‘LOMLASHTIRISHDA SHARQ ALLOMALARI G‘OYALARINING FALSAFIY JIHATLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq allomalari Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sinolarning ma’naviy-axloqiy, diniy va tarixiy-falsafiy, salomatlikka oid fikrlar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Ruhiiy salomatlik, sharq tabobati, ruhiy va badan tarbiya.

Аннотация: В данной статье изучаются духовно-этические, религиозные, историко-философские и оздоровительные идеи учёных Востока Абу Бакра ар-Рази и Ибн Сины.

Ключевые слова: Психическое здоровье, восточная медицина, психическое и физическое воспитание.

Abstract: This article studies the spiritual, ethical, religious, historical, philosophical and health ideas of the Eastern scientists Abu Bakr ar-Razi and Ibn Sina.

Key words: Mental health, oriental medicine, mental and physical education.

Sharq tafakkuri, madaniyati tarixida shunday shaxslarning ilmiy merosi va qarashlari mavjudki, ularni ikkilanmay zamonaviy tibbiyot va sog‘lomlashtirish kontsepsiyalarining asoslari deyish mumkin. Ularga arab falsafasining asoschichi Al Kindi (800-860) (“Ruhiiy tabobat” asari), Abu bakr ar Roziy (865-925) (“Ruhiiy tabobat” asari), Ibn Javziy (1201 yili va vafot etgan) (“Ruhiiy tabobat” asari), Yusuf ash Shiroziy (293 yili vafot etgan) (“Ruhiiy tabobat” asari) kabilar kiradi. Mazkur asrlar goho bir-biriga aynan, juda yaqin bo‘lsa-da, ular Sharq xalqlarining ma’naviy-axloqiy imperativlariga muvofiq keladi. Shu konsepsiya nuqtai nazardan ularni goho ijtimoiy-axloqiy asarlar qatoriga kiritishadi. Ular ichida bizga ma’lumi Ar Roziyning asaridir. Mutafakkir tana sog‘ligi bilan ruh sog‘ligini uyg‘un voqeliklar sifatida qaraydi. Ammo ruh insonning xatti-harakatlariga, turmush tarzi va kayfiyatiga ta’sir etuvchi “birinchi asosdir”. Bu asos mutlaq “o‘zi uchun mavjud” emas, u aql idrok amriga bo‘ysunadi. “Aqli kishi, deb yozadi

faylasuf, tanaga dam, ba'zan esa shodlik, quvonch va huzur berishi, ammo ular kishining sog'ligini asrashiga muvofiq bo'lishi lozim. Tana zaiflashib, butunlay kuchdan ketib, bizga begona bir narsa bo'lib qolmasligi zarur [1]. Tanani haddan tashqari zo'riqtirish salomatlikka zid, u kishining aqliga, idrokiga va turmushiga zarar keltiradi. Shuning uchun, deb yozadi Ar Roziy, "biz aqliy va amaliy ishlarimizda me'yorni bilishimiz zarur" [1].

Mutafakkirning huzurga, sharob ichishga, haddan ziyod darajada ovqatlanishga, kuch va imkoniyatlarni ortiqcha sarflashga, lavozim va boshqa mansablar olish uchun tirishishning salomatlikka keltiradigan zararlari haqidagi fikrlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Faylasufning aql-u idrok talablariga muvofiq yashash, ishlash, turmush qurish va tarbiya bilan mashg'ul bo'lish haqidagi tavsiyalari ratsional ahamiyatga ega, ularda mistitsizm, quruqdan quruq diniy logmatikani ulug'lash uchramaydi. Sharq tabobati va sog'lomlashtirish mashqlari mavzusini buyuk ajdodimiz Ibn Sino (980-1039) siz tasavvur etolmaymiz. Buni nafaqat buyuk ajdodimizga bo'lgan chuqur ehtirom, shuningdek, tadqiqot obyektiga ilmiy, xolisona yondashish ham toqazo etadi.

Ibn Sino inson salomatligini organizmning ichki va unga ta'sir etuvchi tashqi ta'sirdan deb biladi. U organizmni sinchiklab o'rganadi, turli jarrohlik ishlarini amalga oshiradi. Salomatliksiz sog'lom turmush tarzi yo'q, har qanday turmush tarzi kishining hayotiy pozitsiyasi, yon atrofga munosabatlari va o'zini o'zi shakllantirishi mahsuli, ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Mashhur "Tib qonunlari" asarining birinchi jildida alloma inson hayoti va salomatligi bilan tabiiy muhit o'rtasida uzviy aloqa borligi, organizmdagi o'zgarishlar asosan tabiatdagi o'zgarishlarning hosilasi, natijasi bo'lib kelishi borasida betakaror fikrlar bildiradi [2]. U salomatlikni asrashning eng samarali usuli badan tarbiya ekanini ta'kidlaydi. "Inson organizmini chiniqtirish maqsadida amalga oshiriladigan badan tarbiyani barchaga bir xil ko'rinishda tavsiya etish samarasizdir, deb yozadi Ibn Sino. Bu masalada kishilarning yoshlari, amaliy ko'nikmalari, odatlari, mijozlari, kuch quvvati va salomatligini hisobga olish muhimdir". Alloma kishi mudom sog'liq, shodlik va haqiqiy do'stga muhtoj, deb ko'rsatadi. Uning fikricha, har qanday bemorni so'z bilan davolasa bo'ladi. Organizmning o'ziga xos jihatlari mavjud, masalan, yosh bolaga to'g'ri kelgan ish, kattagi yoki xasta kishiga muvofiq kelmasligi mumkin. Shuning uchun Ibn Sino bolalar batantariyasiga alohida yondashish zarurligini asoslaydi [3].

Xullas, Ibn Sinoning amaliy tavsiyalari, dorivorlar tayyorlash va ularni iste'mol qilish tartiblari, tabiat, ob havo, suv, daraxt, osmon, oy bilan aloqadorliklar haqidagi fikrlari nafaqat tibbiyot fanining shakllanishga, rivojlanishiga, shuningdek, boshqa ta'limotlar (astrologiya, gipnoz, cho'milish, to'g'ri ovqatlanish, badan tarbiya, ochiq havo, so'z, musiqa kabilar orqali ham davolash)ga asos bo'lib xizmat qilgan.

Mutaxassislarning fikricha, sharq tabobati undagi noan'anaviy sog'lomlashtirish mashqlari (bu o'rinda asosan Sharq tabobati va sog'lomlashtirish mashqlari nazarda tutiladi) bugun nafaqat sharq xalqlari turmush tarzidan, shuningdek, o'z salomatligini mustahkamlashga intilayotgan dunyodagi, ayniqsa G'arb xalqlari turmush tarzida innovatsion usul, mutlaq yangi yondashuv, inson qalbi va xatti-harakatlarini uyg'unlashtirishning samarali texnologiyasi sifatida idrok etish keng tarqalib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абу Бакр Ар Рази. Духовная медицина. Душанбе, Ирфон, 1990. 58.
2. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1 jild. Toshkent: Fan, 1996. 253 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Men anglagan dunyo. Toshkent: Sharq, 2015. 250-258 b.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ADABIYOT HAQIDA

Annotatsiya: Maqolada Sharq mutafakkirlari, buyuk daholarning adabiyot haqidagi nazariy qarashlari, mulohazalari o'rganilib, adabiy jarayondagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, inson ma'naviy olami shakllanishidagi adabiyotning muhim vazifalari keltirib o'tildi.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические взгляды и идеи восточных интеллектуалов, считающихся литературными гениями, и оценивается их значение в писательском процессе. Было также отмечено, какое важное значение имеет литература для развития духовного мира человека.

Annotatsion: This article explores the theoretical perspectives and ideas of Eastern intellectuals, who are considered literary geniuses, and evaluates their significance in the writing process. It was also noted how crucial literature is to the development of the human spiritual world.

Kalit so'zlar: adabiyot, ma'naviy olam, ijtimoiy hayot, adabiy tur, janr, she'riy san'at, adabiy oqim, inson.

Ключевые слова: литературная форма, жанр, общественная жизнь, духовный мир, поэзия, литературное течение, человек.

Key words: literary form, genre, social life, spiritual world, poetry, literary movement, and human.

Adabiyot – inson ichki olamiga tutilgan ko'zgu misolidir. Ko'ngildagi his-tuyg'u, kechinma, kayfiyat, ehtiros barcha-barchasi bu ko'zguda o'z aksini topadi. Inson bu dunyoda yashab umrguzaronlik qilishi uchun aqliy va ruhiy quvvatga ehtiyoji mavjud bo'larkan, ruhiy quvvat manbayini adabiyotdan oladi. Bir so'z bilan aytsak, adabiyot – so'z san'ati ekanligidan tashqari, ruh tarbiyasi, his-tuyg'u va kechinmalarni tarbiyalab boruvchi ilmlardan biridir. Cho'lpon ta'biricha, "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralangan oyinlarimizni yorug' va ravshan qiladirg'on buloq suvi bo'lg'onligidan bizga g'oyat kerakdir" [1]. Shuningdek, inson ma'naviy olami shakllanishidagi adabiyotning muhim vazifasini ham qayd etish lozim. Ruhan va qalban uyg'oqlikka chorlash bu sohaning asosi hisoblanadi.

Adabiyotning shakllanishi bilan bog'liq ilk qarashlar insoniyat paydo bo'lishi bilan belgilanar ekan, turli davrda bu sohaning o'ziga xos talqinlari vujudga kelgan. Jumladan, har doim adabiyot ulug' mutafakkirlar faoliyatining bir qismini tashkil etgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan voqealarning badiiy adabiyotga ta'siri va bevosita obrazli aks etish tamoyili asosida buyuklar ijodida adabiyot va adabiyotshunoslikka doir qarashlarni kuzatish mumkin. Abu Nasr Forobiy ijodida "She'r san'ati", "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" nomli asarlari mavjudligi qayd etilib, unda adabiyot va she'r ilmi, she'riyatda so'z qo'llash mahorati, she'rlardagi qofiyadan tortib vazn talablari xususida fikr yuritiladi: "She'r baytlarining har bir bo'lagidan vazn tartibi bilan boshqa qismdagi tartib hamohang bo'lmog'i kerak. Natijada uning har bir bo'laklari o'qilish paytida bir-biriga barobar vaqtda o'qiladi va silliq chiqadi. Har bir vaznda ishlatiladigan bayt so'zlarining oxirlari ham cheklangan: yo tovushlar xuddi o'zagidagidek yoki uni talaffuz qilganda barobar keladigan so'zlar bo'lmog'i kerak" [2]. Mutafakkir fikricha, ba'zi xalqlarda oldin kuy yaratilib, keyin unga hamohang she'r bog'lanishi mavjud bo'lgan. Bu qoida she'rda vaznning ahamiyati katta ekanligi, she'r ritmi o'quvchi nutqida ravon bo'lishi lozimligi haqidagi qoidalarni asoslaydi. Arastuning "Fissinoat ash-she'r" ("She'r san'ati") asarida aytgan fikr-mulohazalariga ishora qilgan holda mug'olata-sofistika haqidagi mulohazalarini mukammal bayon qilmaganligini qayd etadi. Sofist va taqlidchining maqsadlari [2] haqidagi Forobiyning qarashlari hamda she'rga oid mulohazalari asosida IX-X asr madaniy hayotida adabiyotga e'tibor ancha chuqur ekanligini anglash mumkin.

Bundan tashqari she'r va shoirlik haqida bahs yuritarkan she'riy san'atlar ifoda go'zalligi, so'zning ma'no qudratini kengaytiruvchi omil ekanligini izohlab o'tadi. Hozirgi istilohimizda

mavjud janrlarni “nav” atamasi bilan nomlaydi. Shoirlar tug‘ma qobiliyatli va she‘r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo‘lishini qayd etadi. Adabiyotni san‘at hodisasi sifatida baholarkan, mulohazakor shoirlar bu ilmning otasi kabi e‘zozlanishini keltirib o‘tadi.

Sharqda buyuk alloma, tibbiyot ilmi asoschisi Abu Ali ibn Sino faoliyatida “She‘r san‘ati” nomli asar mavjud bo‘lib, Misr olimi Abdurahmon Badaviy 1953-yili Aristotelning “Poetika” asarini arab tilida nashr ettirib, unga Forobiy, Ibn Sino va Ibn Ro‘shdlarning bu xususda yozganlarini ham kiritadi. 8 ta fasldan iborat bu qo‘lyozma asosida izohlar bilan “She‘r san‘ati” asari 4 faslda o‘zbek adabiyotida A. Irisov tarjimasida asosida beriladi. Ushbu risolada ham she‘r ilmi va adabiyotga doir nazariy qarashlar ilgari surilganligining guvohi bo‘lamiz. “She‘rning dastlab paydo bo‘lish kayfiyati va she‘r turlari haqida” nomli 3-faslda inson quvvatida she‘r tug‘ilishining ikki sababi borligi, ularning biri taqlid, ikkinchisi yoshlikdan boshlab shu taqlidning inson faoliyatida ishlatilib kelinishi ekanligi qayd etiladi. Shu bilan birga inson taqlid borasida barcha tirik mavjudotlarning eng qobiliyatli deya baholanadi. She‘r haqida: “U kishi tabiatiga asta-sekin singib, una boshlaydi. U ko‘proq tabiatan shoir bo‘lganlarda kutilmaganda va tabiiy ravishda yaratiladi” [3], deya baholasa, shoirlar haqida: “Qaysi shoir iffatli va pokiza bo‘lsa, u yaxshi xulq-atvor va shunga o‘xshash fazilatlar bilan taqlidga mayl etadi; bordi-yu shoirlar tabiati past, tuban xususiyatli bo‘lsa, hajvga mayl etganlar, shu tariqa yomonlikni hajv qilishga o‘tganlar” [3] degan mulohazalarni bayon etadi.

Asarning “Baytlar miqdorining g‘arazlar bilan munosabati, xususan tragediya haqida, tragediya bo‘limlari bayoni” nomli to‘rtinchi faslida san‘atkorlik she‘riyatning eng oliy darajasi sifatida e‘tirof etiladi. Shuningdek, san‘atning asosini taqlid tashkil etishini, tragediya insonlarning xarakterlari, harakatlari, hayot tarzlari va baxt-saodatlariga taqlid qilishdan iboratligi xususida fikr yuritadi. Qadimgi yunon adabiyotida tragediyaning vujudga kelishi uchun sabab bo‘lgan ijtimoiy muhit va zarurat haqida to‘xtalib o‘tadi.

Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” nomli kitobida adabiyotning ijtimoiy tabiati, tur va janrlar, badiiy asar syujet va kompozitsiyasi, she‘r ilmi va badiiy san‘atlar, vazn qoidalari, nutq mahorati masalalari haqida ma‘lumot berilgan. Lirik haqida to‘xtalarkan she‘r ikki turli: manzum she‘rlar (tizim she‘rlari), mansur she‘rlar (sochim she‘rlar) ekanligini qayd etadi. Mansur she‘rlar uchun “vazn” va “qofiya” tegishli bo‘lmasa ham so‘zlarning san‘atkorona qo‘llanilishi bilan ahamiyatli ekanligini keltirib o‘tadi. Muallifning “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir” [4], - deya adabiyotga bergan ta‘rifining o‘zidayoq bu ulkan adibning naqadar yuksak va teran tafakkur egasi ekanligini anglash mumkin. Badiiy adabiyot tur va janrlari, she‘r ilmida qofiya, vazn va turoqning ahamiyati haqida nazariy qarashlaridan tashqari lapar, topishmoq, maqol kabi xalq og‘zaki ijodi janrlari xususida bahs yuritib, bu janrlarni “el adabiyoti” deb ataydi. “Yozma adabiyotning bir xususiyati yozmaligi, ikkinchisi, asar egasining ma‘lum bo‘lishidir, el adabiyotining xususiyati-da, shu sifatlarning bo‘lmasligi va og‘izdan og‘izga ko‘chib yurishidir” [4]. V. Mahmud fikriga hamohang ravishda el adabiyotiga xos ifoda, uslub, o‘xshatishlar, sifatlashlar, majozlar, istioralar asar badiiyatida muhim omil ekanligini qayd etadi.

Fitrat talqinida adabiy asarlar uchga: 1) *yurakchilik – lirika*; 2) *rivoya – epos*; 3) *tomosha* kabi turlarga bo‘linishi uchraydi. Adabiyotshunos olim tadqiqotlarida bugungi adabiy istilohda lirik, epik va dramatik turlarga ajratilishi belgilangan adabiy turlar xususida o‘z qarashlarini asoslab beradi. Unga muvofiq: “Lirika sezdirish, uyg‘ulantirish, to‘lqinlantirish tilaklari bilan maydonga chiqsa, rivoya, tomosha asarlari voqeada xayoldan bir voqeani tasvir qilish yo‘li bilan maqsadlariga qarab boradir” [4] kabi fikrlari adabiyotshunoslik va hozirgi adabiy jarayonga xos ilmiy-nazariy asoslar shakllanishida Fitratning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rish mumkin.

Tomosha asari deya dramatik turning o‘ziga xosligini qayd etuvchi qoidalarda tomosha asarlari bir necha bo‘lakdan iborat bo‘lishi, har bir bo‘lagiga parda deyilishi, tomosha asari mundariyasi 1) bog‘lanish; 2) borish; 3) bitish kabi kompozitsion qurilishga ega ekanligini keltirib o‘tadi. Bundan tashqari, klassizm, romantizm, realizm, sentimentalizm, ratsionalizm, naturalizm, futurizm, modernizm kabi adabiy oqimlarning bir-biridan farqi, adabiyotda yaratilayotgan asarlar va ijodkorlarning asar yaratish uslubi jihatdan qaysi oqimga tegishli ekanligini qayd etadi.

Adabiyot jamiyat hayotining bir bo‘lagi sifatida insoniyat paydo bo‘lgan ilk davrlardan unga hamrohlik qilarkan, ko‘ngildagi jamiki tuyg‘ular, kechinmalar unda o‘z aksini topadi. Fikr va his-tuyg‘u tarbiyalashda hech bir soha u kabi qudratga ega bo‘lmay, qalblarga ma’naviyat urug‘i qadalib, ma’rifat ildiz otishida adabiyotning roli beqiyosdir. Zero, ilk Prezidentimiz “Mustaqillik me’mori” ta’biri bilan aytganda “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” bo‘lib xalqimiz yana ming yillar davomida o‘zligini tanib, kelajakka yorqin nigohlar ila qarashni adabiyotdan hamda yaratilayotgan adabiy, badiiy asarlardan oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cho‘lpon “Adabiyot nadir”. Adabiy tanqidiy maqolalar. T. : “Cho‘lpon” nashriyoti. 1994. 37-bet
2. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. T. : Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. 110-bet.
3. Abu Ali ibn Sino “She’r san’ati”. A. Irisov tarjimai. T. : G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 105-bet.
4. Abdurauf Fitrat Tanlangan asarlar. T. : ”Ma’naviyat”. 2009. 13-bet

*Nyutonova Xilola –
Urganch RANCH texnologiya Universiteti o‘qituvchisi*

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARINING TA‘LIM TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi, ma’rifatparvar publitsist, dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi aks etganligi tilga olinadi. Behbudiy faoliyatining hozirgi yosh avlod uchun ibrat bo‘la oladigan jihatlari va “Padarkush” dramasidagi ma’naviy-axloqiy tushunchalarni bayon qilishining e’tiborga molik jihatlari tahlil qilinadi va ta’lim tizimidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, jadidchilik harakati, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mafkura, ma’rifiy harakat, mehnatsevarlik, manmanlik.

Аннотация: В данной статье отмечается, что вопрос духовно-нравственного воспитания отражен в творчестве Махмудходжи Бехбуди, просвещенного публициста, драматурга, яркого представителя туркестанского джадидистского движения. Анализируются аспекты деятельности Бехбуди, которые могут служить примером для нынешнего молодого поколения, а также примечательные аспекты изложения духовно-нравственных концепций в драме «Падаркуш» и раскрывается их значение в системе образования.

Ключевые слова: система образования, революционное движение, духовно-нравственное воспитание, идеология, просветительское движение, трудолюбие, высокомерие.

Abstract: In this article, it is mentioned that the issue of spiritual and moral education is reflected in the works of Mahmudhoja Behbudi, a bright manifestation of Turkestan modernism movement. Aspects of Behbudi's work that can serve as an example for the current young generation and the remarkable aspects of his presentation of spiritual and moral concepts in the drama "Padarkush" are analyzed.

Key words: educational system, revolutionary movement, spiritual and moral education, ideology, educational movement, hard work, arrogance.

Mamlakatimiz dunyo tamadduni va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, aziz-avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. Ma’naviyatimizning ildizlari bo‘lgan buyuk mutafakkirlarimiz hayoti, ijodini va ular ijodidagi hozirgi yoshlarimizning ma’naviy - axloqiy tarbiyasiga ta’sir etadigan qarashlarini keng ommaga targ‘ib qilish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Yaqin o'tmishga nazar tashlab jadidlardan nafs jilovini, yo'qchilig-u to'qchilik ustida fikrlashni, vatan va tuproq nima ekanligini o'rganish mumkin.

Ma'lumki, XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat tarix sahnasiga ma'rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir. Ular o'z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo'lida sarflashga intildi, o'rni kelganda mablag'ini ham ayamadi. Adib, publitsist, pedagog, olim, din va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan va yetakchilaridan biri edi. U "ma'rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, balki o'lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko'rsatdi" [1].

Shuningdek, Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh qilinishini millatning isloh etilishiga qiyosladi va uni umummilliy g'oya deb bildi. Millatga "o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun", - deya murojaat qilib, o'zi ilgari surgan milliy g'oyani barcha targ'ib qilishi zarurligini ta'kidladi. Behbudiyning umummilliy g'oyasi targ'iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar chiqara boshlagan gazeta-jurnallar rosmansiga fikr almashish, ilg'or g'oya va fikrlarni targ'ib etish, bahslashish maydoniga aylangan, demokratik qadriyatlarni o'zida aks ettirgan, fikrlar qarama-qarshiligini ko'tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi tanqidiy maqolalarni yoritadigan matbuot nashrlari edi [2]. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirlik qilgan "Oyina" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatish maqsadida millat va uning haq-huquqlariga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyodagi ahvolga oid turli-tuman maqolalarni chop etdi. Shuningdek, ayni yo'nalishlardagi bahslar uchun minbar vazifasini o'tadi. Behbudiy o'z zamonida millatning zabun ahvolini, Chor Rossiyasi yuritayotgan bosqinchilik siyosatini ko'rib o'zi va xalqining haqini talab qilgan insonlardan edi. Maqolalaridan birining sarlavhasiga ham «Haq olinur, berilmas» deb qo'ygan [3].

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy g'oyasining yana bir targ'ibot quroli, bu – adabiyot edi. Jadidlar Navoiy, Fuzuliy, Sa'diy singari buyuk zotlar hayoti va ijodini chuqur bilishgani sababli adabiyotni xalqqa yaqinlashtirishga, uning tilida yozishga intildilar va bu ishni uddaladilar. Ular tomonidan ko'plab asarlar yaratildi. Shulardan biri Behbudiyning 1911-yilda „Padarkush“ dramasi hisoblanadi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi, 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini „milliy fojia“ deb atagan. Shu bilan birgalikda "Padarkush" dramasi orqali o'zbek teatriga tamal toshini qo'ydi. Bu asarda u ilmsizlik, jaholatning qanday fojealarga sabab bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'tadi. Drama va undagi obrazlar: boy, ziyoli, domla, boyning o'g'li Toshmurod hamda uning do'stlari orqali adib oilada axloqiy tarbiyani naqadar katta ekanini ko'rsatib bergan. Ushbu dramaning dastlabki satrlaridanoq Toshmurodning tarbiyasiz ekanligi aniq sezilib turadi. Uning beadablarcha otasi va domla gaplashib o'tirgan xonaga besalom kirib kelishi, otasini mensimay gapirishi ilmsizlik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligining yaqqol namunasidir. Toshmurodning bunday ahvolga tushib qolishida boyning hissasi katta. Uning ilmga befarqligi, ilm ahlini kamsitishi, albatta, bizda boy haqida yaxshi taassurot qoldirmaydi. Uning bu harakatlari esa oxir-oqibat nodon o'g'li uning o'limiga sabab bo'lishiga olib keldi. Asarda ilm olish zarurligi va uning foydalari domla hamda ziyoli obrazlari orqali yoritib berilgan [4].

Xulosa. Bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlar oilada axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina yuzaga chiqadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantirish uchun ota-onalar farzandlari bilan shug'ullanishlari va o'zlari ham yaxshi xulq-atvorga ega bo'lishlari shuningdek, o'z atrof-muhitlariga befarq bo'lmasliklari lozimdir. Buning aksini biz "Padarkush" dramasi orqali ko'rishimiz Behbudiyning adib sifatida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi o'sha davr kishisi nuqtayi nazaridan ko'ra olganini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. -Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil.
2. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T. : Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b
3. Is‘hoqxon Ibrat nomli jamoa xo‘jaligi madaniyat ishlari bo‘yicha rais muovini B. Nizomov bilan K. Vohidova tomonidan o‘tkazilgan suhbat materiallari. 1994.
4. Hamroyeva, X. (2022). Oila tarbiyasi asoslari (yosh oilalar misolida). Scientific progress, 3(4), 582-586.

*Kazakova Gulasal –
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi*

MUSTAQILLIK YILLARIDA YARATILGAN ESSELARDA MUTAFAKKIRLAR SIYMOSI

Annotatsiya: Xurshid Davron asarlarida ijodkorlar siymosining badiiy tahlili, mutafakkirlar siymosiga berilgan chizgilar keltirilib, Navoiy va Bobur obrazidagi fe‘l-atvor, shaxsiy o‘ziga xoslik asoslab berildi. “Samarqand xayoli” essesida tarixiy-ma’rifiy esse yaratilishining adabiyotshunoslik sohasidagi ahamiyati yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: badiiy tahlil, esse, mutafakkir, tarixiy obraz, ma’rifiy esse, estetik tamoyil, Uyg‘onish davri.

Аннотация: Обоснован художественный анализ образа творцов, линии, заданные образу мыслителей в произведениях Хуршида Даврона, характер и личностная самобытность персонажей Навои и Бабур. Важность создания историко-просветительского очерка в области литературоведения была подчеркнута в очерке «Воображение Самарканда».

Ключевые слова: художественный анализ, эссе, мыслитель, исторический образ, педагогическое эссе, эстетический принцип, Возрождение.

Abstract: An artistic analysis of the image of the creators, the lines given to the image of thinkers in the works of Khurshid Davron, and the character and personal identity of the characters of Navoi and Babur were substantiated. The importance of creating a historical-educational essay in the field of literary studies was highlighted in the essay "Imagination of Samarkand".

Key words: artistic analysis, essay, thinker, historical image, educational essay, aesthetic principle, Renaissance.

Atoqli adib Xurshid Davron ijodining aksariyat qismini lirika tashkil etsa-da, qamrovi keng mavzu ko‘lamida ijod etishi hamda tarix haqiqatini asar badiiyatiga ko‘chira olgan qalami o‘tkir, serqirra ijodkor sanaladi. Uning “Samarqand xayoli” tarixiy badiyasini mustaqillik yillarida yaratilgan essechilik tamoyillari talabiga to‘la javob beruvchi asar sifatida baholash mumkin. Asarda har bir xalqning o‘ziga xos shonli o‘tmishi, tarix zarvaraqlarida nomi abadiyga zuhr etilmish ajdodlari hayot yo‘li, millat ravnaqi uchun jonbozlik qilgan ilm va fan sohiblarining faoliyatiga alohida to‘xtalgan. “Ajdodlar yodi” va “Vatan chegarasi” deb nomlangan qismda xalqimiz tarixida millat faxrini ifoda etguvchi Shiroq, To‘marisdan tortib Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek; Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘larning ibratli hayot yo‘li haqida hikoya qilib o‘tadi.

“Samarqand xayoli” kitobida tarixiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi esselardan tashqari XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalari xususida bir qancha ijodkorlar siymosiga badiiy chizgilar ham keltirib o‘tadi. So‘z va ifoda vositalariga yuksak mezonlar asosida yondashgan ijodkor tarixiy siymolarning murakkab hayot yo‘li haqida tarixiy va ma’rifiy badialar turkumini yaratdi. Ushbu ilmiy-ma’rifiy hamda tarixiy asar ham mustaqillikdan keyingi yillarda yaratilgan esse janri

talablariga to'la javob bera oluvchi asarlardan biridir. Jumladan, "Samarqand xayoli" essesi orqali X. Davron qalbidagi ona Vatanga muhabbat, o'tmish buyukligi, shonli o'tmishdan faxr tuyg'usini tuya olguvchi chinakam yurt o'g'loni ekanligini ham payqash mumkin. "Mustaqillik nima?" qismida vatanning milliy mustaqilligi, til erkinligi, iqtisodiy mustaqillik millatni ma'naviy tutqunlikdan xalos etuvchi yagona yo'l ekanligini keltirar ekan ijodkorning siyosiy hayotni o'nglashda xalq tashabbuskorligi muhim omil bo'la olishi haqida fikrlarini nazardan qochirib bo'lmaydi.

"Bolalikda Samarqand atrofidagi tumanlarning biriga chiqib, bir necha oy davomida paxtazorlar bilan o'ralgan, mung'ayib turgan vayrona yodgorlik (rabotmi, madrasami, masjidmi – bolalik ekan bilmaganman) atrofida paxta terib yurganimiz, kechqurun yonidan qo'rqa-pisa to'p-to'p bo'lib o'tganimiz hamon esimda. Vayronaning kuni bitgani shundoq ko'rinib turardi. O'sha paytlar naq fojeani ko'rib turganimni anglamaganman. Hozir eslasam, yuragim zirqirab ketadi... Har gal Samarqandga borganimda, albatta Shohizinda, Bibixonim, Registonni va boshqa yodgorliklarni aylanib chiqaman. Avvallari bir o'zim aylanardim, hozir o'g'lim yonimda bo'ladi" [1]. Ijodkorning bu essesi tarixiy-biografik va ijtimoiy-siyosiy esselar yo'nalishiga mos ekanligini ko'rish mumkin. X. Davron ijodida tarixiy haqiqatga yondashuv kelajak uchun muvaffaqiyat garovi ekanligi lirik va epik turga mansub asarlarida bosh g'oya darajasiga ko'tariladi.

"Samarqand xayoli" essesinde tarix va uzoq o'tmishdagi xalq qahramonlari xususida so'z ketarkan, tarixiy voqealar badiiy tasviridan tashqari ulug' mutafakkir Alisher Navoiy va Bobur Mirzo obrazining poetik tahlili ham Xurshid Davron ijodining yangi bir qirrasidir. "Navoiy armoni" essesi Alisher Navoiyning biz bilgan ijod namunalari, turkiy va forsiydagi lirikaning noyob namunalari, saroy ishlari bilan baravar qalam tebratishdagi g'ayrati haqida so'z yuritilar ekan hech qachon Ollohni unutmagani, darveshlar dilini ranjitmagani, har bir ishda ixlos va iymonni kasb etgani haqida fikr yuritiladi. Qolaversa, saltanat "ishkali"ni tuzatishda podshohga maslahat berishda imonni o'rta qo'yar, Tangri inoyati bois yoshlarga shafqat, do'stlarga karam, kattalarga izzat ko'rsatish yo'rig'iga rioya qilgani aytilarkan Navoiy siymosining haqiqiy komillik sifatlarini yangidan kashf etgandek bo'lamiz. Podshoh unga ko'p yer-suv in'om qilarkan u boyishni xayoliga keltirmas aksincha, o'z mulkidan tushgan daromaddan binolar tiklash, madrasalar ahvolini yaxshilash, ma'rifiy kitoblardan nusxa ko'chirish, ilm-u toliblarga nafaqa belgilash, muhtojlarga yordam ko'rsatish va hatto zarurat tug'ilganda podshohlar lashkarlariga sarflagan. "Mir Alisherning bir kunlik daromadi o'n sakkiz ming shohruhiy dinor edi va ana shu daromadning hammasini saxovat va himmat ehsoniga aylantirishga urindi. U hech qachon haqdan qo'rqishni esdan chiqarmadi. Boshiga mashaqqatlar tushganda sabr va chidam bilan Ollohga sig'indi. Boshqalarni ham shunga da'vat etdi. Shu yo'lda mashoyix-u so'fiylar zikrida va suluk yo'llari bayonida "Nasoyim-ul muhabbat", "Lison ut tayr" kitoblarini bitdi. Fuqaro-yu darvishlarning, g'arib-u musofirlar g'amida turli mavzelerde xonaqoh, robotlar, hovuzlar, hammomlar va ko'priklar tikladi. Birgina "Xolisliya" xonaqohida har kuni mingdan ziyod miskinga tomoq tarqatiladi, har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, chakmon, ko'ylak-ishton, taqiya va kovush ulashiladi. Bunday xonaqohlar esa bir necha..." [1].

Mustaqillik yillaridan keyin ijodkor shaxsini kuylash, fe'l-atvoridagi o'ziga xoslikning asarlarda aks ettirilishiga diqqatni qaratish adabiyot, xususan essechilik yo'nalishida ham ancha samarali bo'ldi. Xurshid Davron esselarida ham bu jihatlar o'z aksini topgan bo'lib, bu jihat yozuvchi ijodining serqirraligidan darak beruvchi omildir. Ijodkorlar faoliyatida tarixiy siymolarning aks etishi, yozuvchi dunyoqarashini asarlar mohiyatida anglay olishga intilish istiqloq bergan ne'matlardan biri ekanligini his qilish yetarli. Bu borada adabiyotshunos olim G. Ashurovaning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "Mustabid tuzum mafkurasi Navoiy shaxsiyati va ijodiga nisbatan ham o'z talablari asosida qaradi: uning diniy-tasavvufiy dunyoqarashi, olam va odamga munosabati masalasi haqqoniy tarixiy voqelik asosida yoritilishi cheklandi yoxud ayrim hollarda mutlaqo biryoqlama talqinlarga yo'l berildi, tarixiy faktlarga zid tasvirlar yaratildi" [2].

Esseda Navoiyni nafaqat ulug' mutafakkir va davlat arbobi sifatida balki chin insoniy xislatlarga doim kamarbasta, saxovatpesha, komillik sifatlarini o'zida mujassam etgan qiyofasida

qayta kashf etamiz. Qolaversa, esselar markazida tasvir etilayotgan ijodkor siymosini badiiy tahlil etishda tarixiylik prinsip muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganilayotgan asarga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilsa, qahramonlar ruhiy holatini, ularning biror xatti-harakatga undagan sabablarni ham tushunish oson bo'ladi. Aytaylik, Uyg'onish davri ulug' mutafakkiri Alisher Navoiy ijodkor sifatida maydonga kelishidagi ijtimoiy muhit: otasi G'iyosiddin Kichkinaning ilm-u ma'rifat borasidagi qarashlari, tog'alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylarning ijodiy davralarida tinglovchi bo'lishi, forsiy va turkiy adabiyotning betakror namunalarini mutolaa qilish asnosida ijodga qadam qo'yishi, adabiyot, san'at, millat gullab yashnashiga yuz tutgan Temuriylar sulolasining hukmronligi davridagi Navoiy yaratgan betakror ijod yo'li haqida Navoiy siymosi badiiy gavdalantiriladi. Cheksiz faxr shu bilan birga katta ibrat vazifasini anglashga chorlovchi Temuriylar saltanati gullab yashnashini ham ulug' siymo nomisiz tasavvur etish qiyin. Murakkab bu markazlashgan davlat rivojida Navoiy dahosini ko'pgina tarixchi olim, adabiyotshunos olimlar o'z qarashlarida ifodalab o'tganlar. Ammo X. Davron talqinidagi Navoiy siymosi biroz bo'lakcha edi. Alisher Navoiy do'sti Husayn Boyqaro xizmatiga o'tarkan katta umid va ishonch bilan yo'lqinlangani, saltanat hayotining H. Boyqaro davridagi dastlabki yillari xuddi shoir kutgandek yuz bergan, keyingi tahlikali zamonda ham ulug' ijodkorning tizim ziddiyatlaridagi jonkuyarligi aks ettirilgan.

Navoiy o'z davrining adabiyoti gullab yashnashida ijodining aksariyat qismini lirika tashkil etganligi, ishq mavzusi she'riyatining bosh tamoyili ekanligini nazarda tutib, ko'plab kitobxonlar shoir ijodining markaziy qismi romantizm yo'nalishi g'oyalariga asoslangan deya hisoblashadi. Ammo u o'z davrining realisti ekanligini aqliy va tasavvufiy qarashlari asarlarining markaziy qismida tasvirlanadi. Adabiyotshunos olim I. Haqqul "Haqiqiy she'riyatni sog'ingan kishi Navoiyga murojaat qilishi kerak" – degan edi.

Shoir armoni ustoz Nuran Mahdum (Abdurahmon Jomiy) Haj safarini amalga oshirgan chog'ida ko'ngliga tuggan niyati, ya'ni Ka'bani tavof etib qaytgandagi orzusi, ustoz kabi Olloh oldidagi burchni bajarmoq edi. Afsuski, mamlakat ichidagi notinchlik va amir-u beklarning mansab ilinjidagi tortishuvlari sabab yuzaga kelgan beqarorlik sababli bu orzusiga yeta olmaydi. Qalamga olingan ushbu jihat esse sarlavhasi uchun ham asos vazifasini o'taydi.

Shu o'rinda badiiy asarni tahlil qilishda muhim prinsiplardan biri estetik asoslarning ustuvor tamoyillardan ekanligini ta'kidlash joiz. Asarning Zahiriddin Muhammad Bobur ta'rif-u tavsifiga bag'ishlangan qismini ijodkor "Samarqand xayoli" essesda aks ettirib, asarni Boburning taxt tepasiga kelish lavhasi bilan boshlaydi. Ulug' shoh faoliyatini tasvir etishni Boburning otasi Umarshayx Mirzo xarakterini ochish, badiiy portretidan tortib sevimli mashg'ulotlari, hatto "Shohnoma"ni sevib o'qishini ham ta'kidlab o'tadi. Umarshayx ham yoshlik chog'larida xuddi o'g'li kabi g'azallar bitganligini, keyinchalik ijodiy faoliyatga ahamiyat bermaganligi xususida ham to'xtalib o'tadi. Bobur hayoti va faoliyati yoritilarkan ushbu tarixiy esseda "turkiylar", "turklar", "o'zbeklar" atamallari ustida chalg'ishlarning oldini olish maqsadida izoh berishni ma'qul ko'radiki, Xurshid Davron ijodida tarixiy va badiiy haqiqat doim mushtarakligini ta'kidlash joiz. Zahiriddin Muhammad Boburning shoh va shoirlik sifatlaridan tortib chin insoniy xislatlarinida tahlil qilarkan, uning doim yuragida Vatan sog'inchi jo'sh urib turishi aytiladi, pok vijdoni oldida "Ulug' Temur barpo etgan saltanatni asray olmadimmi?" degan afsus nadomatlar iskanjasida yashaydi.

Esse qahramonlari obrazi poetik tahlilida ideallashtirish jarayoni mavjud bo'lib Xurshid Davron bu usuldan Navoiy va Bobur siymolarini aks ettirishda unumli foydalangan. Ijodkorlik faoliyatidan tashqari tarixiy manbalarni badiiy aks ettirish, qahramon xatti-harakati va ruhiyat manzaralarini so'z durdonalari bilan qog'ozga tushirar ekan, ulug' daholarning tarixda qoldirgan o'chmas izidan tashqari chin insoniy xislatlari haqida bahs yuritadi. "Tuja sharasi" kitobidagi bir hikmatni keltirib o'tadi: "Agar oddiy odam o'z kelib chiqishini bilmasa, – deb yozadi Dalay-lama, – u o'rmonda adashgan maymunga o'xshaydi, agar u o'z urug'-aymog'ini bilmasa, feruzadan yasalgan ajdarhoga o'xshaydi; agar u ajdodlari haqida hikoya qiluvchi bitiklarni o'qiyolmasa, yo'qolgan va yo'lidan chalg'ib ketgan bolakayga o'xshaydi" [1]. Tarixni teran anglash va o'tmishga munosib avlod bo'lish mas'uliyati ilinjida yozilgan bu tarixiy va ma'rifiy esselar

turkumining “Ma’rifat shijoatdir”, “Yana ma’rifat haqida” qismlarida aynan mana shu qudratli yurtning kelajagi haqida ko‘plab fikrlar keltirib o‘tiladi.

Essenavis ijodkorlar qaysi yozuvchi yoki shoir hayoti, faoliyati haqida asar bitmasin, unda eng avvalo o‘z qalbini, ma’naviy dunyosini aks ettiradi. Shu ma’noda badiiy asarning g‘oyaviy-badiiy ahvolidan muallif dunyoqarashi, e’tiqodi va turmush tarzini ham anglash mumkin. Demak, esse qurilishida biografik metod asosiy tamoyillardan biridir. Bundan tashqari Navoiy va Bobur siymolari ko‘plab ijodkorlar Oybek, P. Qodirov, X. Sultonov kabi ijodkorlar tomonidan qalamga olingan bo‘lsa-da, XX asr so‘nggi davri adabiy janrlaridagi tub burilishlar sabab Xurshid Davron tomonidan Alisher Navoiy va Bobur obrazlari qayta talqin qilindi. “Badiiy asar tirik tan misoli hamisha o‘tib-o‘zgarib borganiday, olim-tadqiqotchisi ham doim yangi qirralarini kashf etaveradi. Mumtoz adabiyotda Bedil, Navoiy, Fuzuliy asarlari yuzlab talqinlarga imkon berganini bilamiz. XX asr oxiriga kelib o‘zbek adabiyotida jahon adabiyotidan o‘rganish, uning yetuk tomonlarini ijodiy davom ettirish tamoyili kuchaymoqda” [3]. Adabiyotshunos A. Rasulov hozirgi adabiy jarayondagi tub o‘zgarishlar ijod maydonida yangi imkoniyat va zafarlar uchun asos ekanligini ta’kidlar ekan, esse yo‘nalishining taraqqiyoti ham e’tibor nazarida hisoblanadi.

Mustaqillik davri ko‘plab tarixiy shaxslar hayotiga oid mavzu va muammolarni ancha dadil va kengroq miqyoslarda mushohada qilish imkonini berdi. Buyuk mutafakkirlar, yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan davlat arboblari va sarkardalar faoliyatini tarannum etish yozuvchi, shoirlarimizning diqqat markaziga ko‘chdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur hayoti va ijodiga e’tibor kuchaydi. Shu sababli esselar tarkibida bu kabi o‘ziga xoslikning aks etishi Xurshid Davron ijodining yangi bir qirrasini sifatida adabiyotda o‘z qimmatini topdi. Navoiy shaxsiyati insonparvarlik g‘oyalari targ‘ibotchisi bo‘lish bilan birga, ularni hayotga tatbiq etishga intilgan komil inson, alloma shoirning tengsiz shaxsiyati, o‘zi yaratgan asarlaridagi g‘oyalar bilan uyg‘unlashib shoirning hayotlik davridanoq tarixiy-badiiy asarlarning qahramoni bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X. Davron. “Самарқанд хаёли”. Т. : “Камалак” 1991. 34-35-бет.
2. G. Ashurova. “Alisher Navoiy va XXI asr” 9-uluslararo konferansi. Toshkent-Bursa. 2024-yil. 8-fevral. 121-bet
3. A. Расулов “Илми ғарибани қўмсаб”. Т. : Маънавият. 1998. 9-бет.

Bekchanova Nazokat –

Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi

NAVOIY IJODIGA BADIY CHIZGILAR

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodining turkiy adabiyot va madaniyat taraqqiyotidagi munosib ulushi, asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarning inson kamolotidagi ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. “Xamsa” dostonlaridagi obrazlar tavsifining umuminsoniy qadriyatlarga yo‘g‘rilganligi keltirib o‘tildi.

Аннотация: В статье рассматриваются идеи, заложенные в произведениях Алишера Навои, их значение для развития человечества, а также его вклад в развитие турецкой литературы и культуры. Отмечено, что описания персонажей эпоса «Хамса» ориентированы на общечеловеческие начала.

Annotatsion: The article discusses the ideas put out in Alisher Navoi's writings and their significance for human development, as well as his contribution to the growth of Turkish literature and culture. It was mentioned that the "Khamsa" epics' character descriptions are focused on universal principles.

Kalit soʻzlar: turkiy adabiyot, ilmiy meros, doston, zullisonayn, mumtoz adabiyot, nazm, nasr, tavsif.

Ключевые слова: турецкая литература, научное наследие, эпос, зуллисонайн, классическая литература, поэзия, проза, описание.

Key words: Turkish literature, scientific heritage, epic, zullisonayn, classical literature, poetry, prose, description.

Ulugʻ mutafakkir, davlat arbobi, soʻz mulkining sultoni Alisher Navoiy oʻzbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida oʻz oʻrniga ega zullisonayn ijodkordir. Navoiy va Foni taxallusi bilan nazm va nasrda qalam tebratarkan, turkiy tilning shuhrati butun dunyoga yoyilishida munosib ulushini qoʻshgan. Ilmiy merosini 4 qismga boʻlib oʻrganish mumkin: a) devonlari, b) dostonlari d) forsiy tilda yaratilgan ijod namunalari e) ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari bilan adabiyot tarixida oʻz oʻrniga ega.

Navoiy yaratgan nazmdagi ijod namunalari “Xazoyin-ul maoniy” asariga jamlagan boʻlib, inson umri va fasllarga qiyosan 4 qismdan iborat ushbu asarda mumtoz adabiyotning 16 xil janridan unumli foydalangan. Gʻazal, ruboiy, qitʼa, musaddas, musamman, musaddas, tarjeʼband, tarkibband, chiston, masnaviy, soqiynoma janrlarining eng noyob namunalari keltirib oʻtgan. Nasr va nazmda “Majolis-un nafois”, “Nasoyim ul muhabbat”, “Mezon ul avzon”, “Muhokamat ul lugʻatayn”, “Sabatʼu abhur”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsat ul mutaxayyirin”, “Lison ut tayr”, “Mahbub ul qulub” kabi mumtoz adabiyot yetuk namunalari yaratgan.

“Xamsa” Navoiy ijodining yuksak choʻqqisi boʻlib turkiy xalqlar adabiyotiga katta taʼsir koʻrsatgan. Axloqiy-taʼlimiy, falsafiy mazmundagi 20 maqolatni oʻz ichiga olgan “Hayrat ul-abror” dostonida ijtimoiy hayotning turli masalalariga oid fikrlar, xalq farovonligi uchun qilinishi lozim ishlar, odam va olam haqidagi falsafiy qarashlar yoritib berilgan. Navoiy ijodiga bagʻishlangan adabiyotlarda: “Shoir soʻzni tavsif etar ekan, nazmning qimmat, soʻzdagi maʼno, uning shaklga muvofiq, shakl va mazmun masalasi, umuman, ijod haqidagi masalalarga eʼtibor qaratadi” [1] fikrlari qayd etilgan. “Yaxshi kishilarning hayrati” nomli qismida buyuk xamsanavislar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy taʼriflari keltiriladi. “Uning ijodxonasi suvoqlaridan anbar hidi keladi. Xonaning toʻrt tomoniga esa sakkiz jannat yashiringan... Uning soʻzlari latofat dasturxonida yoyigʻliq; tili esa maʼno durlarini ipga tizgani tizgan” [2] deya Ganjaviy tavsifini keltirarkan, “Soʻfiylik maslagining dahosi, haqiqat sirlarini kashf etuvchisidir. U qurgan soʻz qasri shu qadar balandga koʻtarilganki, unga hatto osmon ham sirtmoq sola olmaydi” [2] nisbati orqali ulugʻ xamsanavis Abdurahmon Jomiy shaxsidagi ulugʻvorlikni qalamga oladi.

Mumtoz adabiyotda podshohlarga xos sifatlarni kuylovchi, ularning xalq osoyishtaligi yoʻlidagi jonbozligini tarannum etish mazmunida yozilgan asarlar koʻp uchraydi va bu anʼana “Hayrat ul-abror” dostonida ham ayrim maqolatlarning tarkibida keltiriladi. Tangri ularning boshiga podshohlik dubulgʻasini kiydirarkan, ularning adolatlari mamlakat bogʻini gullarga toʻldirmogʻi, lozimligini taʼkidlaydi. Shuningdek, podshohlikning bir necha vazifalari xususida ham toʻxtalib oʻtadi. Unga muvofiq hukmdor shukronalik hissiga ega boʻlib, podshohlik vazifalarini sidqidildan bajarishi, Olloh va vijdoni oldidagi soʻroviga doim tayyor boʻlmogʻi lozimligi bayon etiladi. Qarorlar qabul qilishda ulusga adolatli boʻlishi keltiriladi. Odillik sifatleri ila tillarda doston “Shoh Gʻoziy” hikoyatini bayon etadi. Zulmni tark etib adolatga qaror bergan sultondan Yaratgan ham rozi boʻlishini eʼtirof etadi.

“Hayrat ul-abror”ning oltinchi maqolatini “Adablilik odati toʻgʻrisida” deya nomlab, odobning belgisi tavozeʼ ekanligini, haqiqiy sharaf ham hayo va adabdan kelishini taʼkidlab oʻtadi. Adabsizlikning bir belgisi kulgi derkan, noʻrin kulgi kishi boshiga kulfat keltirishi, ochiq yuzlilik bilan kulgi oʻrtasidagi tafovutni ham keltirib oʻtadi: “Kaklik qahqaha solib kulgani uchun bu kulgi tufayli uning boshiga balo keladi (yaʼni ovchilar ovozidan bilib uni ovlaydi). Gʻuncha kulib ochilib ketganidan keyin oʻz-oʻzidan sochilib ham ketadi. Chaqmoqni oʻz kulgisi togʻning ichiga qulatadi” [2]. Adablilikning yana bir belgisi deya ota-ona farzandga yaxshi bir ism qoʻyishi, farzandga ilm-u odob oʻrgatish, farzandlarning ota-onaga boʻlgan itoati ekanligini taʼkidlab oʻtadi.

Navoiy ijodi va adabiy ta'sir xususida so'z yuritganda uning ijodi mumtoz adabiyot hamda bugungi zamonaviy adabiyot taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari adabiyotshunoslikka doir aksar tadqiqotlarda agar gap mumtoz adabiyot namunalari haqida bo'lsa, fors-tojik adabiyotining roliga urg'u qaratilardi. Vaholanki, milliy adabiyot namunasining yaratilishini faqat tashqi faktorlar bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qilish bir adabiyot boshqasiga nisbatan ustun degan g'ayriilmiy xulosalarga sabab bo'ladi. Har bir xalq o'z badiiy olamini (keng ma'noda) tafakkuriga mos ravishda barpo qiladi. Va bunda u o'zining uzoq asrlik boy xalq og'zaki ijodi hamda yozma adabiyoti an'analariga tayanadi. Albatta, dunyoda hech bir xalq o'z qobig'iga o'ralib qolgan holda yasholmaydi, u yoki bu tarzda boshqa xalqlar bilan madaniy aloqaga kirishib nimanidir oladi va o'z vaqtida beradi ham. Qo'shimcha sifatida shuni alohida ta'kidlash zarurki, adabiy aloqa va ta'sir yuzaga kelishi uchun o'sha adabiy muhitda shunga muvofiq sharoit ham bo'lishi shart. Yana bir muhim jihati, ijodkorga bir vaqtning o'zida bir qancha faktorlar (ham tashqi ham ichki) ta'sir o'tkazishi mumkin va bu tabiiy holdir. Ijodkorning ijodiy qiyofasi qanchalik kuchli bo'lsa, u shunchalik tez sur'atda yuqoridagi faktorlar bilan madaniy aloqaga kirishib, ularni yengib o'tadi.

Har bir adib ijodining dastlabki pallasida salaflarining u yoki bu asariga ma'lum ma'noda ergashishi, oziqlanishi, ta'sirlanishi mumkin. Biroq adabiy an'anaga munosabat ijodkorda doimo bir xilda kechmaydi. Mahorati osha borgani sayin salaflari merosiga munosabati ham o'zgaradi, sa'y-harakati ijodiy musobaqa tusini oladi. Muhimi, u yaratgan yaratilarning badiiyat qonunlari va mezonlariga qay darajada muvofiq kelishidadir.

So'z intihosida shuni ta'kidlash joizki, o'zbek adabiyoti taraqqiyoti va uning dunyoga bo'y ko'rsatishi ulug' Navoiy ijodi bilan chambarchas bog'liq. Cho'lpon ta'biri bilan aytganda "Adabiyot yashasa – millat yashar", millat va uning umrboqiyiligi ulug' ajdodlarimiz yaratgan badiiy meros bilan uzviy aloqadadir. Kelajak avlod qalbida badiiy adabiyot va Navoiy ijodiga nisbatan cheksiz hurmat shakllanishida adabiy jamoatchilik va kitobxon faoliyati muhim omil ekanligini qayd etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov "Navoiyshunoslik". Darslik. T. : "Tamaddun" 2019. 55-bet.
2. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror". T. : G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989. 217-bet.

*Shomuratov Otojon –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVRI ALLOMALARINING JAHON ILM-FAN RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya: Ushbu tezisda XII-XIII asrda Anushtegin-Xorazmshohlar davrida yashab, ijod qilgan allomalarning O'rta Osiyo va butun dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi va o'rni haqidagi fikr va mulohazalar yoritilgan.

Аннотация: В данной диссертации освещены мысли и мнения о вкладе и месте учёных, живших и творивших в период Ануштегин-хорезмшахов в XII-XIII веках в цивилизации Средней Азии и всего мира.

Annotation: In this thesis, the thoughts and opinions about the contribution and place of the scholars who lived and created in the period of Anushtegin-Khorazmshahs in the XII-XIII centuries in the civilization of Central Asia and the whole world are highlighted.

Kalit so'zlar: Anushteginiylar, Otsiz, "Dorul hikma va maorif", Al-Chag'miniy, Vatvot, Arslon Xorazmiy, Najmiddin Kubro, V. Abdullayev, J. Rahimov, Q. Masharipov.

Ключевые слова: Ануштегини, Отсиз, “Дарул хикма ва маориф”, Аль-Чагмини, Ватвот, Арслан Хорезми, Наджмиддин Кубро, В. Абдуллаев, Дж. Рахимов, К. Машарипов.

Key words: Anushteginy, Otsiz, “Dar-ul hikma va maorif”, Al-Chagmini, Vatvot, Arslan Khorazmi, Najmiddin Kubro, V. Abdullayev, J. Rakhimov, Q. Masharipov.

Ma'lumki, Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati O'rta Osiyo va O'zbekiston tarixida alohida ahamiyatga ega. Chunki bu ulkan imperiya nafaqat O'rta Osiyo hududida, balki Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida katta ta'sir ko'rsatgan imperiya bo'lgan. Xorazmshohlar davlati siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksalishdan tashqari, madaniy va ma'rifiy jihatdan ham yuksak taraqqiy qilgan. Xorazmshohlar davlatida ilm-fan, san'at, madaniyat, tarixshunoslik, tarixnavislik, kitobat, xattotlik kabi sohalarning rivojlanishi, olimlar, shoirlar, tarixchilar, sayohatchilar, xattotlarning yetishib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. XII-XIII asrlarda Yaqin Sharq va O'rta Osiyo hududlarida Xorazmshohlar davrida yashab ijod qilgan va o'z davrining ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shganlar. Xorazmshoh-Anushteginiylar davrida geografiya, astronomiya, tarix, falsafa, matematika, geometriya, fiqh va tasavvuf kabi fanlar va ilmlar rivojlanadi va bu fanlarning rivojlanishiga ko'maklashganlar.

Anushteginiy hukmdor Xorazmshoh Otsiz davrida ilm-fan, madaniyat va san'at rivojlanadi. Xorazmshoh Otsiz shuningdek, Ma'muniylar davridagi “Dorul hikma va maorif” ya'ni Ma'mun akademiyasi faoliyatini qayta tiklaydi. [5. 174]

Muhammad ibn Najib Bakron Xorazmshohlar davrida ijod qilgan geograf olim bo'lgan. U Xorazmshoh Alovuddin Xorazmshoh davrida Xurosondagi Nishopur va Gurganch shaharlarida yashab ijod qilib, “Jahonnoma” deb atalgan asarini yaratgan. U XIII asrdagi jahon xaritalaridan birini Alovuddin Muhammad Xorazmshohga tortiq qiladi, lekin u xarita hozirga qadar yetib kelmagan. Yana bir geograf va astronom olim Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniy bo'lib, u Xorazmshohlar davlati poytaxti Gurganch shahri yaqinidagi Chag'min deb atalgan shaharda tug'ilgan. Anushtegin-Xorazmshohlar davrida Chag'miniy saroyda yashab, ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. Chag'miniy aniq fanlar sohasida ko'pgina asarlar yozib qoldirgan, shulardan “al-Mulaxxas fi hay'at ul basita”, “Astronomiya haqida qisqacha risola”, “To'qqizlar arifmetikasi” kabi asarlarni yozib qoldirgan. [4. 45] Al-Chag'miniy o'z davrida tabobat ilmi bilan ham shug'ullanib, bugungi kunga qadar “Qonuncha” nomli asari yetib kelgan.

Xorazmshohlar saltanatida tarix ilmi ham taraqqiy qilgan bo'lib, Abul Vafo Muhammad Axsikatiy, Muzafariddin Abusanno Mahmud ibn Arslon Xorazmiy, Minxojiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar al-Buxoriy, Muhammad ibn Ahmad al-Haraviy, Muntajibuddin Abusanno Mahmud ibn Arslon Xorazmiy kabi tarixchilar yashab, Xorazmshohlar davri siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlarni aks ettirgan asarlar yozib qoldirgan. Muhammad ibn Abbas ibn Arslon Xorazmiy 1099-1172-yillarda yashab o'tgan tarixchi olim bo'lib, “Kofiyul-fiqh” va “Tarixi Xorazm” kitoblarni yozib qoldirgan. [4. 48] Abul-Muzaffar al Marvaziy as-Samoniyy adib va tarixchi olim bo'lib, ko'p mamlakatlarga sayohat qilgan. Uning “Kitob ul-ansob” (“Nasablar tarixi”) va “Xayli tarixi Bag'dod” asarlari Anushteginiylar davri uchun muhim ahamiyatga ega. Xorazmshoh sulton Jaloladdin Manguberdi devonida munshiylik (kotib) vazifasida xizmat qilgan. Ba'zi vaqtlarda sulton Jaloladdinining elchisi sifatida boshqa mamlakatlarga davlat ishlarini hal etish uchun borgan. Sultonning podshohlari va maliklarga yuboradigan maktublari va boshqa hujjatlarni tuzgan. “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mengburni” (Sulton Jaloliddin Manguberdi tarjimai holi) asarini yozib qoldirgan. Shuningdek, tasavvuf va adabiyot fanlari ham yaxshi rivojlangan. Tasavvuf islom dinidagi diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, insonlarni iymonli, taqvoli va ilm-ma'rifatli bo'lishga o'rgatadi. Aynan Anushtegin-Xorazmshohlar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloq yoyib, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Abul Vafo Xorazmiy, Shayx Alovuddin Xorazmiy, Xubbi Xoja, Shayx Abul Hasan Ishqiy, Mukri Mahmud, Majduddin Bag'dodiy, Sa'duddin Hamaviy, Shayx Sayfuddin Boharziy, Jaloliddin Giyliy, Bobo Kamol Jundiyy, Najmuddin Roziy, Raziuddin Ali Lola, Bahovuddin Valad kabi olimlar ijod qilganlar. Ayniqsa, Najmiddin Kubro tomonidan asos solingan “Kubroviya” tariqati Mavarounnahr va Xurosonda, shuningdek, O'rta va Yaqin Sharq hududlariga keng yoyildi. Najmiddin Kubro o'z faoliyatida ko'plab shogirlarni va

ilmiy asarlarni bizga meros qilib qoldirgan. Uning “Favotix ul-jamol”, “Al-usul al-ashara”, “Faqirlik haqida risola” kabi asarlari bilan tasavvuf ta’limotiga yana ham aniqliklar kiritadi. [4. 52] Xullas Xorazmshohlar davri ilm-fan ravnaqida tasavvuf ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Muhammad Xorazmiy az-Zamaxshariy bobomiz XI asr oxiri XII asr boshlarida yashab o‘tgan grammatika va lug‘at ilmlarida ijod qilgan. Ritorika, stilistika, astronomiya va boshqa fanlarga oid “Muqaddimatul-adab”, “Asos al-balog‘a”, “Atvoq az-zaxab” va ayniqsa Qur’oni Karimning chuqur tafsiri bo‘lgan “Al-Kashshof” va arab tili grammatikasiga oid “Al-Mufassal” asarlari jahon madaniyati ravnaqiga qo‘shilgan durdona asarlardir. Xorazmshohlar davrida ayniqsa, sulton Takash va Alouddin Muhammad davrlarida madaniy hayot ravnaq topgan. Xorazm shariat maktabining deyarli barcha vakillari saroy shoirlari bo‘lgan. Shulardan ko‘zga ko‘ringan shoir va olim Rashiddin Muhammad al-Umariy (1115-1182) edi. U past bo‘yli, kalbosh, ko‘rimsiz bo‘lganligi sababli Vatvot—“jajji qush” laqabini ilgan edi. Rashiddin Vatvot o‘zining she’riyat haqidagi “She’r san’atining sehrlil bog‘lari” kitobini sulton Otsizga bag‘ishlangan edi. [5. 178] Vatvotning “Rassoil” (“Nomlar”) to‘plami juda qimmatli hisoblanadi. Unda xalifalar, hukmdorlar, vazirlar, muftiyarga, ulamolar, shayxlar, mashhur kishilar, shoirlar, do‘stlar va boshqalarga bitilgan maktublardan iborat asar bo‘lib, unda o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy davrini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Sirojiddin Ya’kub Sakkokiy alloma, astronomiyani shu qadar chuqur o‘rgangan va mohir shoir ham edi. Ilm-fanning barcha sohalaridan asarlar yozib qoldirgan. Yana Xorazmning o‘sha zamondagi mashhur shoir va adiblaridan Faxul-mashiyix Abulqosim, Mahmud ibn Ahmad Samarqandiy, ibn Rustam Xorazmiy va boshqa bir qancha shoirlar ijod qilgan.

Mamlakatimizning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Muhtaram Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, «Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega» [4]. Darhaqiqat, o'zbek milliy raqs san'atining, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm maktabining qadim ildizlari insoniyatning ilk kurtaklari bilan tutashib ketgan bo'lib, uning shakllanish bosqichlari aynan Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida nomlari tilga olingan marosimlar va urf - odatlar bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy davrda qarsak, tayoq va toshlarni urishtirish, hayvonlarga taqlid orqali hosil bo'lgan tovushlar vaqt o'tishi bilan asta-sekin shakllanib, ma'lum mazmunga ega musiqiy usullarga aylanib bordi. Qadim qal'alardan topilgan sopol idishlarda, qoyatoshlarga muhrlangan rasmlarda aynan shu marosimlar ham aks etgan.

Ma'lumki, marosimlarni mifologik, diniy, badiiy, ilmiy va ilmiy - falsafiy, ma'naviy - ma'rifiy talqin etish amaliyoti tarixan mavjud. Albatta, har bir talqinda tushunchalar o'zgacha mazmun kasb etishi mumkin. Ayniqsa, «Yodgorliklar» kabi noyob asarlarning ilmiy - falsafiy, ma'naviy – ma'rifiy idroki inson kamoloti va ijtimoiy taraqqiyot uchun bag'oyat muhim ahamiyatga ega. Butun insoniyat taraqqiyotida Abu Rayhon Beruniy kabi qomusiy ilmlar va yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan buyuk shaxslar jahon xalqlari tafakkurining taraqqiyotiga yetakchilik qilib kelganlar. Vatanning o'tmishi, tarixiy taraqqiyoti, ulug' allomalarimizning ma'naviy jasoratlari, yaratgan asarlari bugungi yosh avlodga bilim, ma'rifat, muhim hayotiy saboq beradigan eng katta tarbiya maktabi hamdir.

Yangi O'zbekistonda har bir millatning qadriyatlarini asrab-avaylashga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, avlodlar o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jahon tamadduni ravnaqiga, umumbashariy qadriyatlar silsilasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan betakror «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari o'rta asr tarixi, madaniyati, turli xalqlar urf – odatlari haqida o'ta noyob ma'lumot beruvchi nodir manba sifatida g'oyat qimmatlidir. Madaniyatshunos – etnograf, san'atshunos olimlarimiz, izlanuvchilarimiz tomonidan bu asar qiyosiy tahlillar asosida yanada chuqur tadqiq etiladi, degan fikrdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аҳмедов А. Беруний ва унинг «Осор ал - боқия» асари. Беруний А. Р. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т. : «Ўзбекистон», 2022.

2. Беруний А. Р. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т. : «Ўзбекистон», 2022.
3. Матёкубова Г. «Лазги» рақси: тарихи ва тадқиқи. –Т. : «Фан зиёси» нашриёти, 2023.
4. Матёкубова Г. Тохтасимов Ш. Ҳамроева Ҳ. Хоразм «Лазги» рақси: тарихи ва тавсифи. –Т. : «Замон полиграф», 2022.
5. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т. : «Ўзбекистон», 2021.
6. Нуржонов К. Қадим Хоразмнинг олтин мерослари. «Бедорлик» эшиттириши. ЎзМТРК «Ўзбекистон» телерадиоканали, 2021 йил, 10 январь.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Буюк мутафаккир ва қомусий олим Абу Райҳон Беруний таваллудининг 1050 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида» ги Қарори. ЎЗА, 2022 йил, 25 август.

*Gavhar Matyoqubova,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali professori,
O'zbekiston xalq artisti*

TARIX VA TARAQQIYOT: “XORAZM LAZGI RAQSI” - MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MADANIY MEROSI

Annotasiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari taraqqiyotining tarixiy – ma’rifiy asoslari “Xorazm Lazgi raqsi” misolida tadqiq qilinadi.

Kalit soʻzlar: oʻtmish, “Avesto”, taqlid, ilohiy kuy, yalla, raqs, qadriyat, Xorazm, an’ana, madaniy meros, estetik tafakkur.

Аннотация: В данной статье на примере «Хорезмского танца лазги» изучаются историко-просветительские основы развития народов Средней Азии.

Ключевые слова: прошлое, «Авеста», подражание, божественная мелодия, ялла, танец, ценность, Хорезм, традиция, культурное наследие, эстетическое мышление.

Annotation: In this article, the historical and educational foundations of the development of the peoples of Central Asia are studied using the example of "Khorazm Lazgi dance".

Key words: past, “Avesta”, imitation, divine melody, yalla, dance, value, Khorezm, tradition, cultural heritage, aesthetic thinking.

Qadimiy Xorazm hududida yastanib yotgan va bugungi kungacha har xil holatda bizgacha yetib kelgan, san’at, madaniyat, qal’a shaharlari haqida behisob afsonalar, rivoyatlar, mif, ertaklar yaralgan. Har bir afsona tagida minglab haqiqat yotadi. Xorazmning ko’hna tarixini shu davrda yashagan kishilarning taxminlariga, buyuk tarixchi olimlarning manbalariga, arxeologik qazishmalardan topilgan dalil-ashyolarga, terrakotlarga qarab tahlil qilamiz. Atoqli qadimshunos olimlar S. P. Tolstov va Ya. G’ulomovlarning ta’kidlashicha, Xorazmning musiqa va raqs ma’daniyati uzoq oʻtmishga, miloddan avvalgi ikki minginchi yillarga borib taqaladi. Albatta, bu ikkala san’at tarixi ham qadim yurtning oʻtmishi kabi yuksalish va turg’unlik davrlarini, turli yo’qotishlarni boshidan kechirdi. Barcha mashaqqatlar va ziddiyatlarni yengib, asrlardan-asrlarga o’rish baxti nasib qilgan san’at turlaridan biri raqsdir.

Xorazmning eng ko’hna “Lazgi” raqsining uch ming yillik tarixini yozishda “Avesto” kitobidagi diniy marosimlar, e’tiqod va udumlar asosiy manba vazifasini bajardi. Yig’ilgan materiallar YUNESKO tashkilotining Parij shahridagi qarorgohiga yuborildi. 2019-yil 12-dekabr kuni YUNESKOning Bogoto shahrida bo’lib o’tgan 14-sessiyasida reprezentativ ro’yxatga kiritildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lazgi” xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o’tkazish to’g’risida”gi qarorida ta’kidlanganidek, “Mamlakatimizning boy raqs san’ati tarixida alohida o’rin egallagan “Xorazm lazgi raqsi” o’ziga xos ijro uslubi va jozibasi bilan nafaqat O’zbekistonda, balki chet davlatlarda ham mashhurdir. YUNESKO tomonidan “Xorazm lazgi

raqsi” insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilganligi ham uning betakror san’at ekanligidan dalolat beradi”.

Bu sehrli raqs XX asrning 30-40-yillarida O‘zbekistonning barcha hududlarida keng tarqaldi. XX asrning ikkinchi yarmidan mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahri Xorazm “Lazgi”sining nafaqat an’anaviy-ma’rifiy, balki professional-sahnaviy shakllari tarqalishida o‘ziga xos markazga aylandi. Jozibali “Lazgi” Xorazm vohasida shakllanib, butun O‘zbekiston hududida, shuningdek, Markaziy Osiyoda yashovchi o‘zbek xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Xorazm o‘lkasi o‘zining qadimiy tarixi va madaniyati, ochiq osmon ostidagi madaniy meros obidolari, buyuk allomalari, hunarmandchiligi, adabiyot va san’atning barcha turlari rivojlanganligi bilan shuhrat qozongan. “Lazgi” raqsi harakatlari insoniyat yaratilishi, uning hayotsevarligini o‘zida aks ettirishi qatorida, umumbashariy hissiyotlar ifodasi hamdir. Raqsnings tadrijiy harakatlari insoniyatning yaratuvchanlik qobiliyati rivoji, his-tuyg‘ularning junbushga kelishi orqali bashariy tuyg‘ular - sevgi, mehr kabilarni qamrab oladi. Raqsnings qayd etilgan jihatlari umuminsoniy tuyg‘ularni o‘zida to‘laqonli aks ettirishiga asos bo‘lgan. Uning tarixiy an’analarini tiklash, milliy an’analarini mustahkamlash, yoshlarning ma’naviy-madaniy olamini boyitish, ularning madaniyat sohasidagi erishayotgan yutuqlarini qo‘llab-quvvatlashda o‘rni katta.

Taniqli san’atshunos A. Rahimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “. . . biz Xorazm raqslarining, xususan “Lazgi” turkumining rivojini xalq – odatidan, an’analaridan ajralmagan holda kuzatamiz. Buning sababi bor, albatta. Chunki, Xorazm raqslari xalq hayoti va turmushi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan”.

“Lazgi” - oddiy raqs emas, xalq ichidan yetishib chiqqan iste’dod egalaridan, san’at ta’limini olgan raqqosalardan alohida ijroni talab etuvchi katta bir raqs tizimidir. Har bir davrda yaralgan raqs - “Masxaraboz Lazgisi” (imo - ishora, pantomimik taqlidiy), “Qayroq Lazgisi” (ritmlar, zarblar orqali), “Dutor Lazgisi” (afsonalardan yaralgan), “Surnay Lazgisi” (turli-tuman musiqa asboblari ijrosi, g‘alaba kuyi), “Saroy Lazgisi” (hayotiy-ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan), “Changak Lazgisi” (xalqlar uyg‘unlashuvidan kelib chiqqan), “Xiva Lazgisi” (jamiyatning rivoji, tabiiy sharoitlaridan kelib chiqqan), “Garmon Lazgisi” (hayot muammolaridan kelib chiqqan), “Yallali Lazgi”(Xorazm Lazgisi”) (K. Otaniyozov ijodida) o‘zining mustahkam milliy ildizlariga ega.

Shuningdek, otashparastlarning “Quyoshga e’tiqod”, “Olovga sajda”, “Olov bazmi”, “Mash’ala”, “Chanoq raqsi”, “Qayroq raqsi”, “Anaxita”, “Poq-poq” o‘yinlari “Avesto” kitobidagi qadimiy e’tiqod marosimlarida ijro etilgan ma’lumotlar asosida tiklandi. “Avesto” - xalq ijodiyotining mahsuli sifatida ham qadrlidir. Unda bayon etilgan qadimiy ajdodlarimizning urf-odatlarini, udumlari, tomoshalaridagi o‘yinlari dastlab ibtidoiy ko‘rinishda bo‘lsa, keyinchalik maxsus tayyorgarlik ko‘rib ijro etila boshlagan. Ijro etilgan qo‘shiq, marsiyalar, alqovlar, gohlar va raqslarning ko‘pchiligi xalqimiz tafakkuri yaratgan asar sifatida o‘z qimmatini saqlab bizgacha yetib kelgan.

Hozirgi davrga kelib “Lazgi” qadimdan davom etib kelayotgan harakatlar kompleksi bilan ham, raqqosalarning qaddi-qomatlarini qay holda tutishi bilan, oyoqlarini alohida musiqaga mos ritmlarda tashlashi, bilaklar, yelkalarda titramalarni birin-ketin, beixtiyor o‘ziga xos ma’lum mazmunli harakatlar ixtiro etishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, barmoqlarda, panjalarda ko‘p sirli, mazmunli raqs harakatlar mavjud. O‘ynab turgan “Lazgi” raqsi ijrochisini, avvalo, barmoq, panjalarni tutishidan, ishlatishidan bu raqqosa “Lazgi” raqsini maromiga yetkazib o‘ynay oladimi, yo‘qmi darhol sezasiz. Oyoq tashlashida ham o‘zgacha bir sir bor. Tizzalar bukilib, gavda engashgan holda oyoq chapga ketsa o‘ng yondan, o‘ngga ketsa chap tarafdin boshlanadi. Qo‘llar, bilaklar, panjalar, barmoqlar orqali gapiradi.

Albatta, “Lazgi” raqslari o‘zining uzoq o‘tmishdagi shakllanish jarayonida turli ijtimoiy-tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi. Hattoki, “Avesto” bitiklarida ham xorazmliklarning raqsga bo‘lgan mehri va muhabbati haqida fikr yuritiladi. “Lazgi” o‘zlikni namoyon qilishning shakllaridan biri sifatida hamma uchun ochiqdir. Uni ijro etish, tadqiq va targ‘ib qilish bo‘yicha hech qanday cheklovlar mavjud emas. Mahalliy va xorijiy fuqarolar, ichki va tashqi sayyohlar, yoshidan, jinsidan, millatidan, kasb-koridan qat’iy nazar uni o‘rganishi, ijro etishi, foto va video tasvirga tushirishi,

ilmiy tadqiq etishi mumkin. “Lazgi” raqsini oilaviy marosimlarda, xalq sayl va bayramlarida ijro qilish uchun hech qanday maxsus ruxsat talab qilinmaydi. Eng muhimi, “Lazgi” raqsi doimiy va muttasil harakatdagi, o’sib-o’zgarishdagi, davr o’tgani sayin sayqallanib, takomillashib borayotgan taraqqiyot jarayonidir. Shuningdek, u farovonlik ramzi bo’lib, raqs uchun maxsus libos, bezak va taqinchoqlarning zarurati qadim zamonlardan boshlab an’anaviy hunarmandchilik turlarining kengayishi va ravnaqiga sabab bo’ldi. Milliy raqs san’ati bilan bog’liq qadimiy an’analarimizni saqlab qolish va xalqimizning ma’naviy tiklanishiga zamin yaratish yo’lida mamlakatimizda olamshumul islohotlar amalga oshirilmogda. “Lazgi”ning qadim tamaddun markazlaridan biri bo’lmish Xorazm hududida vujudga kelgan, turli davrlarda erkak va ayollar tomonidan yakka va guruh tarzida ijro etib kelinayotgan raqs sifatidagi o’ziga xos estetik-ma’rifiy xususiyatlarini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Lazgi” raqsi barchaga darhol ta’sir etib o’z kuyi, ijrosi bilan qaysi millat vakili bo’lishidan qat’iy nazar, tushkunlik holatidagi insonlarni ham o’ziga darhol rom etadi. “Lazgi” ga yoshidan qat’iy nazar ayol, qiz, er, yigitlar alohida yoki ommaviy raqsga tushishi mumkin. “Lazgi” raqsi o’z mazmuni jihatidan hind klassik o’yinlariga bir qadar o’xshab ketadi. Biroq “Lazgi” raqs tizimidagi obrazlarning jo’shqin va nozik harakatlari, hind klassik o’yinlari uslubidagi hayajon, g’amginlik, tushkunlikdan mutlaqo yiroqdir. “Lazgi”dagi obrazlar Yevropa klassik o’yinlaridagi obrazlarga ham mutlaqo o’xshamaydi. Xorazmcha “Lazgi” o’yinlaridagi obrazlar dunyosining yevropacha raqs harakatlaridan farqi shundaki, Yevropa o’yinlarida ohanglar, Xorazm raqsi “Lazgi” o’yinlarida esa zarblar raqsning harakatini belgilaydi. “Lazgi”da - xorazmcha raqslarda zarblar harakatga jo’shqinlik beradi, ohanglar esa faqat raqsga bezak beradi, qo’shiq matnlari esa jilo, ichki tug’yon sifatida xizmat qiladi. Agar tarixchilarning qadimgi Xorazm madaniyati haqidagi ilmiy ishlariga murojaat qilsangiz, “Lazgi”ning rivojlanish bosqichlaridan hikoya qiluvchi ma’lumotlarga bevosita yoki bilvosita duch kelasiz.

Dastlabki elementlari tabiatga sig’inish, quyoshga sig’inish e’tiqodlari asosida yuzaga kelgan “Lazgi” ning harakatlari va musiqasida tabiat manzaralari va hodisalar insonning paydo bo’lishi, unga jon ato etilishi jarayoni va uning his-hayajoni, shiddati, sevgisi tuyg’ulari hamda quvonchi ifodalanadi. Raqsda improvizatsiya har doim ustun kelib, bir xil harakatlar takrorlanmasdan, yangilanib, ritm va raqs harakat elementlari muntazam jadallashib borishi kuzatiladi. “Lazgi” musiqasi va raqs harakatlari uni kuzatib turgan har qanday kishini o’ziga tortadi, uni junbushga keltirishi natijasida tomoshabin bexosdan raqsga qo’shilib ketganini o’zi ham sezmay qoladi. Raqs namoyishida cholg’uchilar, qo’shiqchilar va raqs ijrochilari birgalikda qatnashadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Ш. Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2023 йил, 23 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т. : “Ўзбекистон” нашриёти. , 2021.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. ЎЗА, 2020й. , 4 февраль.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 февралдаги “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. ЎЗА, 04. 02. 2020.
5. Саидов А. Янги Ўзбекистоннинг сиёсий – ҳуқуқий фалсафаси. Т. : “Маънавият”, 2023.
6. Авдеева Л. Ўзбек миллий рақси тарихидан. М. Турғунбоева номидаги “Ўзбекрақс” миллий рақс бирлашмаси. Т. : 2001.
7. Ҳакимов А. Ўзбекистон санъати тарихи. Т. : «Зилол булок», 2021.
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-ж. Т. : “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005.
9. Хамави. Сборник материалы по истории Хорезма. М. : 1964.
10. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. Тошкент. : Фафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2008.
11. Толстов С. П. Древний Хорезм. М. :1948.

12. Матёкубова Г. Тохтасимов Ш. Ҳамроева Ҳ. Хоразм “Лазги” рақси: тарихи ва тавсифи. Т. : 2022.
13. Матёкубова Г. “Офатижон” Лазги. Т. : Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993.
14. Матёкубова Г. Санъат дарғаси. Т. : “Парадигма” нашриёти, 2017.
15. Конрад Н. И. Запад и Восток. М. , изд. Главная редакция восточной литературы. 1972.
16. Лобачева Н. П. Формирований новой обрядов узбеков. М. : “Наука”, 1975.
17. Маковский В. В. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. Образ мира и миры образов. М, : 1996.
18. Жўраев Н. Вақт ва фазо. Т. : “Маънавият”, 2021.
19. Ҳамроева Ҳ. “Сурнай Лазги”си: тарихи ва тавсифи. Т. : Марказий Осиё халқларининг маданий ҳамкорлик истикболлари. 1-Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. 2020.
21. Ҳамроева Ҳ. Тохтасимов Ш. Ўзбекистон халқ артисти Гавҳар Матёкубова яратган тарихий рақслар. Т. : Марказий Осиё халқлари маданий ҳамкорлик истикболлари. 1-Халқаро илмий-амалий конференцияси мат. лари. 2020.

Касимова Д. Г.
*Глазовский государственный инженерно-педагогический университет
имени В. Г. Короленко
доцент кафедры истории и социально-гуманитарных дисциплин
Глазов, Россия*

МЁД И МЁДОСОДЕРЖАЩИЕ ДЕСЕРТЫ В КУХНЕ СОВРЕМЕННЫХ ТУРКМЕН

Аннотация: Традиционно мёд как сладость в туркменском скотоводческом пищевом комплексе отсутствовал. В современной туркменской кухне, в том числе в процессе межнациональных контактов, мёд занял своё достойное место. Пчеловодство получило развитие в оазисах, например, в Мерве. Сложилась практика сбора пустынного мёда. Здесь действует правило: мёд символизирует радость и потому может появиться на праздничных застольях, таких как свадьба, но никогда на поминках.

Ключевые слова: мёд, скотоводческий пищевой комплекс, пустынный мёд, хлопковый мёд, мёд из верблюжьей колючки, десерт.

Qosimova D. G.
*V. G. Korolenko nomidagi Glazov davlat muhandislik-pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti
Glazov, Rossiya*

ZAMONAVIY TURKMANLAR OSHXONASIDA ASAL VA ASAL O‘Z ICHIGA OLGAN SHIRINLIK

Аннотация: An’anaga ko‘ra, asal shirinlik sifatida turkman chorvachilik oziq-ovqat majmuasida yo‘q edi. Zamonaviy turkman oshxonasida, shu jumladan millatlararo aloqalar jarayonida asal o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Asalarichilik vohalarda, masalan, Mervada rivojlangan. Cho‘l asalini yig‘ish amaliyoti rivojlandi. Bu yerda qoida amal qiladi: asal quvonchni anglatadi va shuning uchun to‘y kabi bayram bayramlarida paydo bo‘lishi mumkin, ammo hech qachon uyg‘onish paytida.

Калит so‘zlar: asal, chorvachilik oziq-ovqat kompleksi, cho‘l asal, paxta asal, tuya tikanli asal, shirinlik

Kasimova D. G.
*Glazov State University of Engineering and Pedagogics named
after V. G. Korolenko*
*Associate Professor of the Department of History and Social and Humanitarian
Disciplines*
Glazov, Russia

HONEY AND HONEY-CONTAINING DESSERTS IN THE CUISINE OF MODERN TURKMENS

Abstract: Traditionally, honey as a sweet was absent in the Turkmen cattle breeding food complex. Honey has taken its rightful place in modern Turkmen cuisine, including in the process of international contacts. Beekeeping has developed in oases, for example, in Merv. The practice of collecting desert honey has developed. The rule applies here: Honey symbolizes joy and therefore can appear at festive feasts such as weddings, but never at a wake.

Keywords: honey, cattle breeding food complex, desert honey, cotton honey, camel thorn honey, dessert

Традиционно в системе питания туркмен выделяют два комплекса – скотоводческий и оседло-земледельческий. Скотоводческий комплекс был характерен для основной массы туркмен. Оседло-земледельческий комплекс в прошлом был присущ локальным группам туркмен-земледельцев, численно значительно уступающим скотоводам. Но в советские годы оседло-земледельческий комплекс питания постепенно распространился среди всего туркменского народа в процессе перехода к оседлому земледелию и в результате межэтнических контактов.

В прошлом в **скотоводческом пищевом комплексе** мёд как сладость фактически отсутствовал. Так же как для него не было характерно разнообразие сладких блюд в целом. Долгое время единственными сахаросодержащими десертами служили дыня, арбуз и виноград. Мякоть дыни вялили или варили с поджаренной мукой, а затем высушивали в виде круглых «конфет». Варили патоку из винограда и арбузов [1, С. 273]. Кисломолочные продукты (в частности, творог) подслащивали корнем солодки или, в более позднее время, сахаром. Таким образом получали кисломолочные сырки – *gyzylgurt*, *gyzylşeker* [1, С. 275]. Перечисленные десерты популярны и сегодня: широкое распространение имеют вяленые дынные косички – *Gawun kak*, дынные шарики и арбузное варенье – *Garpyzdan bal*.

Пожалуй, единственный пример использования мёда в качестве сложного десерта был упомянут Г. И. Костиным в статье «Из жизни кочевий Мервского округа», опубликованной в 1927 году в журнале «Туркменистан». Это было блюдо *alaçaly-ýag* – смесь мёда и бараньего сала (другой вариант – смесь арбузной патоки и сала) [1, 275]. Подчеркнём, судя по всему, в то время это блюдо имело локальный характер – из туркменско-скотоводов его делали только скотоводы Мервского оазиса.

В **оседло-земледельческой кухне** туркмен сладостей и сладких блюд было значительно больше, но мёд в ней также присутствовал мало, эпизодически.

В **советский период** занятие пчеловодством постепенно начинает распространяться среди всех локальных групп туркмен. Мы охарактеризуем его только в одном районе – среди современных туркмен того самого Мервского оазиса, расположенного на юго-востоке Туркменистана, в дельте реки Мургаб в Каракумах.

Любопытный факт: характеризуя тему пчеловодства и мёда в современной туркменской культуре и находясь в поиске адекватного перевода на русский язык существующих терминов по пчеловодческой теме, мы столкнулись с тем, что гугл-переводчик даёт не всегда точный перевод – часто упрощённый или излишне обобщённый. В этой связи считаем важным сопровождать наше повествование терминами из туркменской лексики, распространённой как в литературном языке, так и в диалектных формах ареала Мервского оазиса в частности.

Итак, ключевое слово – МЁД – гугл-переводчик переводит как BAL. Однако это не совсем верно, т. к. данная лексема может быть применима ко всему, что является сладким – не только мёду, но и сахару, и арбузному варенью, например, и другим тому подобным сладостям.

Собственно, МЁД как продукт производства пчелы называют ARY BAL, потому что ПЧЕЛА по-туркменски – ARY. А это значит, что ARY BAL буквально – «пчелиная сладость».

От слова «пчела» формируются производные термины:

- ПЧЕЛОВОД – ARYÇY,
- ПЧЕЛОВОДСТВО – ARYÇYLYK.

Туркмены на сегодняшний день занимаются пчеловодством в двух географических зонах – в горах и в пустынях. В соответствии с этим, существует два вида мёда – горный и пустынный. Их ценность (с точки зрения вкуса и полезности) туркменами воспринимается, в целом, в равной мере одинаково.

В данной статье сконцентрируем внимание на пчеловодстве в Мервском оазисе, а значит, в зоне получения **пустынного мёда**. Климат в оазисе субтропический внутриконтинентальный, для него характерны: продолжительное жаркое лето и короткая холодная зима, резкие колебания суточных температур воздуха, малое количество атмосферных осадков. Средние температуры января $-2...-4$ °С, в июле $+28...+32$ °С; количество осадков 100—300 мм в год. Здесь развито поливное земледелие, плодоводство и виноградарство. В контексте нашей темы важным фактом является то, что эта территория – крупный хлопководческий район. Вместе с тем здесь развито животноводство и разведение верблюдов с выпасом в пустынях.

В соответствии с источником медосбора здесь получают два вида пустынного мёда – это хлопковый мёд (PAGTA GÜLINDEN BAL) и дикий мёд, или мёд из верблюжьей колючки (YANDAK GÜLINDEN BAL).

Принято считать, что мёд из верблюжьей колючки значительно превосходит хлопковый мёд по вкусовым и лечебным свойствам.

В современном Туркменистане отсутствуют специализированные пчеловодческие коллективные хозяйства типа колхозов или совхозов. Пчеловодству в специальных образовательных учреждениях никто не учится, знания и навыки передаются от отца к сыну. Этот промысел является семейным делом фермерского типа, т. е. , можно сказать, частным делом.

Пчеловодами являются исключительно взрослые мужчины старше 15 лет, женщины и мальчики в эту сферу не допускаются.

Пасеки располагаются в отдалении от населённых пунктов.

Одна из респонденток, Зыяда Агаева, была свидетелем подобных пасек: «Когда работала в пустыне на прополке хлопка, по дороге на плантацию можно было увидеть несколько ульев, размещённых в деревянных телегах. Сами улья представляли собой деревянные сундучки высотой примерно 60 см, длиной – метр, с несколькими отверстиями – летками для пчёл. В телеге размещалось примерно двадцать ульев в несколько рядов» [2].

Несмотря на то, что мёд можно купить небольшими баночками в магазине, туркмены предпочитают покупать мёд с рук у самого пчеловода и большими объёмами – целыми флягами по 50 литров. Затем закупленный мёд может быть распределён между членами большой семьи. Например, в семье З. Агаевой фляга мёда делится между сёстрами по 10 литров. Этот мёд могут потом хранить по 7-10 лет. Более того, мёд с долгой выдержкой считается намного ценнее и полезнее, чем свежескаченный. Ещё одна причина не покупать маленькие объёмы мёда – это его дороговизна по сравнению с большими объёмами в пересчёте на цену одного литра. Цена пятилитровой фляги мёда в 2021 году составляла примерно 1200 манат, что соотносилось со стоимостью одной стиральной машины-автомат. В эквиваленте на российские деньги – это было около двадцати тысяч рублей.

Сегодня мёд туркмены используют по нескольким назначениям.

Во-первых, мёд – это лекарство.

При простуде выпивают стакан горячего молока с одной чайной ложкой мёда. При боли в желудке пьют чёрный чай, в котором также растворяют чайную ложку мёда.

Повторимся, для здоровья предпочтительнее использовать YANDAK GÜLINDEN BAL, т. е. мёд из цветков верблюжьей колючки.

Надо сказать, что цветки этого пустынного растения и манну (сахаристое вкусовое вещество, выделяемое на стеблях в жаркую погоду) туркмены активно используют как превосходное лечебное средство при болезнях желудка (гастрите, поносе), при воспалении внутренних органов.

Второе назначение мёда – это десерт к чаю.

Мёд наливают или выкладывают в пиалу и выносят к чаепитию. Затем каждый сам своей чайной ложкой берёт мёд и растворяет его в горячем чае; таким образом, получается сладкий медовый чай.

Вприкуску мёд едят на своеобразных бутербродах: на хлеб – пшеничную лепёшку или на несладкое печенье типа галеты намазывают сливочное масло (AK YAG), а сверху кладут мёд. Это очень вкусно! По сути, такой бутерброд – аналог упомянутого в 1927 году Г. И. Костиным блюда *alaçaly-ýag* – смеси мёда и бараньего сала.

Под влиянием межнациональных контактов в современной туркменской кухне мёд стали использовать и в приготовлении выпечки – сладких пирогов, таких как медовик, и чак-чак. Их изготовление практикуется преимущественно горожанами в качестве десерта для приёма гостей, но не для ритуального застолья. Их могут подать в чайхане, кафе, ресторанах в типичной европейской подаче с несвойственными для туркменской традиции приборами – ножом и вилкой.

Вообще, мёд и мёдосодержащие десерты в традиционной ритуальной практике туркмен в прошлом не применялись совсем.

В современных условиях в данном контексте действует следующее правило: мёд как сладость символизирует радость и потому может появиться на праздничных застольях – таких, например, как свадьба, но категорически не допустим на поминках.

Литература / Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. Туркмены / отв. ред. Н. А. Дубова; Ин-т этнологии и антропологии им. Н. Н. Миклухо-Маклая РАН; Ин-т истории АН Туркменистана. – М. : Наука, 2016. – 635 с.

2. Полевые материалы автора. Сообщение Агаевой Зьяды, туркменки. Род. в 2000 г., в с. Мекан, велят Мары, этрап Байрамалы, Туркменистана. Запись 2022 г.

Nozim Qosimov

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
innovasiya va ilmiy ishlar bo'yicha prorektori,
filologiya fanlari nomzodi, professor*

MADANIY MEROS – MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO TOTUVLIK OMILI

Annotasiya. Mazkur maqolada madaniy merosning Markaziy Osiyoda millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi o'rni va ahamiyati tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: tarix, meros, xalq, Osiyo, ma'naviy taraqqiyot, marosim, san'at, madaniy an'ana, jamiyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение культурного наследия в укреплении межэтнического согласия в Центральной Азии.

Ключевые слова: история, наследие, народ, Азия, духовное развитие, обряд, искусство, культурная традиция, общество.

Abstract: This article examines the role and importance of cultural heritage in strengthening interethnic harmony in Central Asia.

Key words: history, heritage, people, Asia, spiritual development, ceremony, art, cultural tradition, society.

Ming asrlik an'analarga ega tarixiy – madaniy meros mohiyatini tushunish va uni to'g'ri talqin qilish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Binobarin, ertangi kun va istiqbol haqidagi tasavvurlar qanchalar cheksiz bo'lsa, uning san'atdagi talqini ham shunchalar rang – barang manzara kasb etadi. Inson tafakkurining betakror kashfiyotlari, uning o'ziga xos evolyusion rivoji, tasavvurlar dinamikasi bilan uyg'unlashib, san'at olamida yangi kashfiyotlarga yo'l ochmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston g'oyasi, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish tamoyillari dunyo hamjamiyatini hayratga solmoqda. Zero, "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki, ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonda barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" [1]. Har qanday milliy madaniyat asosini uning millatga ruh bag'ishlovchi tarixi, milliy qadriyat va an'analari tashkil etadi. Milliy o'zlik - xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari, otabobolarimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi jasorati, bunyodkorlik ishlari, tafakkur xazinasi, iste'dod va aql-zakovati, milliy g'urur, o'zbekona axloq va burch mas'uliyati bilan sug'orilgan ilg'or g'oyalardan iborat.

Jamiyat va insoniyat ravnaqi, uning bosqichlari, taraqqiyoti va tanazzul davrlari shaxs kamoloti bilan bog'liq tarixiy hodisa bo'lsa, o'tmish ruhi inson ruhiyatining qar – qarida saqlanib qolgan o'tli tug'yonlar, nafis hissiyotlar bilan uyg'unlikda talqin etiladi. Akademik A. Saidovning fikricha, "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'iflatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim. Manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir" [2]. Milliy qadriyat, madaniy an'analar deganda bir necha ma'nolarni anglash mumkin. Buyuk kashfiyotlari bilan dunyoni hayratga solgan Xorazm madaniyati tarixi uni yaratgan xalq nomi, uning qay zaminda maydonga kelgani, an'analari, psixologiyasi o'ziga xos badiiy ijodiyoti bilan bevosita aloqadordir. Amaliy bezak san'ati namunalarda, qoyatoshlarda, sopol idishlarda saqlanib qolgan rasmlar bu afsonaviy o'lkaning bir necha ming yilliklarga borib tutashadigan ko'hna madaniyati, serqirra san'ati ildizlarini tadqiq qilish imkoniyatini beradi. Ularda har bir davrning estetik ongi, badiiy tafakkuri, tasviriy vositalari saroy va ibodatxonalar hayoti, diniy urf-odatlar, marosimlar, sayil va bayramlar, tomoshalar haqida ham qimmatli manbalar mujassam.

Olimlarning fikricha, "Xorazm" nomi daslab zardushtiy dinining ilohiy kitobi bo'lmish "Avesto" da "Qayrizao" tarzida berilgan. Ma'lumki, "Avesto" kitobi fors tilida yozilgan. Nemis arabshunos olimi E. Zaxauning fikricha, qayrizao so'zi ikki qismdan iborat bo'lib, qayri – oziq – ovqat, zam – er ma'nosini bildiradi, ya'ni qayrizao – oziq – ovqatga boy mamlakat deganidir" [3]. Tarix – millat va xalqning hayot falsafasidir. Qadim zamonlardan buyon Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan Xorazm Sharq bilan G'arb, Yunon, Rum, Vizantiya, Xitoy, Hindiston va Eron xalqlari o'rtasida savdo va madaniy aloqalar ravnaqida muhim ahamiyat kasb etgan. Ona O'zbekistonimiz dunyoni hayratga solayotgan muazzam qadriyatlari, boy madaniy merosi, betakror milliy san'ati bilan faxrlanadi. Taniqli tarixchi olim, professor A. Mavrulov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Yoshlarimiz ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ma'naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy va madaniy yodgorliklar muhim o'rin egallaydi. Qolaversa, diniy va dunyoviy bilimlar,

millatning xarakteri, uning salohiyati – bularning bari yoshlarimiz ma'naviy dunyoqarashida muhim, hal qiluvchi omillar hisoblanadi” [4].

Darhaqiqat, ilk davrlardan boshlab butun tarixiy taraqqiyot jarayonida inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat shakllanib borgan. Inson tabiatsiz, tabiiy muhimsiz, suv, havo, quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi, ularsiz yashashni hatto tasavvur ham qilolmaydi. Mustaqillikni mustahkamlash, integrasiya va globallashuv jarayonida tarix haqiqatlari yuzaga chiqmoqda. Inson milliy madaniyat muhitida o'zini erkin his qilishi uchun uni bilishi shart. O'zbek xalqining qadimiy madaniyati juda boy an'analarga ega. U o'z ildizlari bilan uzoq asrlar tarixiga tutashgan. Istiqloq sharofati bilan tarix haqiqatlari tiklandi.

Bebaho yaratilarning beshigi bo'lmish Xorazm madaniyati tarixi yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans davrining yangi imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Uning ilk ko'rinishlari raqs san'atida yorqin namoyon bo'ladi. Akademik N. I. Konradning fikricha, “Markaziy Osiyo eng qadimgi davrlardan oq insoniyat sivilizasiyalari yo'llari tutashgan yoki kesishgan maskanda joylashgan, uning o'zi ham ana shu sivilizasiyaning markazlaridan biri bo'lgan. Ma'naviy taraqqiyot va axloqiy tamoyillar shunday asoslarga tayangan holda, asrlar chegarasidan hatlab o'tib, keyingi rivojlanishni yuzaga keltirdi” [5]. “Lazgi” ning to'qqiz turi bu mo'ljizalar o'lkasining zamonaviy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy raqs san'ati tarixi, uning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari hech qachon bir tekis rivojlanmagan. U qadimdan o'zi tug'ilgan muhit bilan ijtimoiy tabaqalar, millat hayoti, marosimlari, diniy urf-odatlar va aqidalari, xalq tomoshalari va bayramlari bilan chambarchas bog'liqlikda ravnaq topadi. Ularning kelib chiqishi va ilk ildizlarini xalq ijodiyoti, tasviriy san'at yodgorliklari, arxeologik topilmalaridan, dunyo olimlarining tadqiqotlaridan, qadimiy yozma manbalar, diniy e'tiqodlar, afsona va miflardan qidiramiz. Shundagina, bizda Xorazm raqslari to'g'risida umumiy tushuncha-mushtarak bir tasavvur paydo bo'lishi mumkin.

Ibtidoiy san'atning ilk ko'rinishlari mehnat jarayoni bilan, odamlarning ijtimoiy faoliyatining shakllanishi bilan bog'liq. So'nggi paleolit davrida, taxminan, miloddan avvalgi 40-20-chi ming yilliklar davrida hali san'at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi.

Davrlar o'tishi, madaniyatning o'sishi va o'zgarib borishi natijasida san'at alohida soha sifatida e'tirof etila boshladi. San'at eng avvalo odamlarning estetik talablarini qondiradi. Uning tamoyillari zamonga moslashib, o'zgarib boradi hamda o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarining aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi bo'lgan. Insonlarning dunyoqarashi, orzu - umidlari, his-tuyg'u, manfaat, ideallari va munosabatlarini aks ettirgan. Masxarabozlar, raqqosa va sozandalarning ajoyib san'atlari o'sha zamon rassomlarining, haykaltaroshlarining e'tiborini tortgan. Arxeologik qazilmalardan topilayotgan san'at yodgorliklari ichida juda ko'p sozandalar, masxaraboz hamda raqqosalarning surat va haykallari, musiqa asboblari mavjud. Dastlab so'zsiz harakatlar paydo bo'lib, keyinchalik bosqichma-bosqich shakllanib borib, ilk raqslarning yaratilishiga zamin hozirlagan. Davra bo'ylab raqsga tushayotgan raqqos va raqqosalar surati, biron bir marosimga bag'ishlab qo'lida doira bilan o'ynayotgan kishilar tasviri, raqqosaning libosidagi naqsh, ma'lum bir harakat yoki hodisani ifodalovchi raqs mazmuni Xorazmda raqs san'atining qadimiyligidan darak beradi.

Milliy san'at rivojlangan sari u tayanadigan madaniy an'analar ko'lami ham kengaya boradi. Ma'lumki, har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, bag'rikenglik g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Tomoshabinga estetik zavq, ma'naviy huzur baxsh etuvchi milliy raqs san'ati harakatlar va imo-ishoralar vositasida xalqning qadim o'tmishi, milliy qadriyatlari, orzu-armonlari haqida hikoya qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, madaniy merosning ilk ildizlari hamda taraqqiyot yo'llarini o'rganish, ularni ilmiy va nazariy tahlil qilish davr talabidir. Darhaqiqat, ma'naviyati baquvvat, e'tiqodi mustahkam bo'lgan millatning istiqboli porloq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Президент Ш. Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. ЎЗА, 2023 йил, 23 декабрь.
2. Саидов А. Янги Ўзбекистоннинг сиёсий – ҳуқуқий фалсафаси. –Т. : «Маънавият», 2023. Б. 81.
3. Хоразм тарихи. 1 ж. . Урганч: «Хоразм» нашриёти, 1996. –Б. 25.
4. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. –Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 2008. –Б. 53.
5. Конрад Н. И. Запад и Восток. –М. : Изд. Главная редакция восточной литературы, 1972. –С. 82.

*Egamberganova Matluba –
Urganch innovatsion universiteti dotsenti v. b. , PhD*

XORAZM VOHASI TURKMANLARI TO‘Y MAROSIMLARI: AN‘ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR

Annotatsiya: Oilaviy an‘ana va marosimlar avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik-ni, otanalar hamda farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Voha turkmanlari nikoh to‘ylari ham o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, mazkur maqolada shu bilan bog‘liq jarayonlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: marosim, saxat, yashmoq, sovchilik, sep, ko‘shana, katkhudo.

Аннотация: Семейные традиции и обряды регулируют отношения между поколениями, родителями и детьми. Несмотря на то, что туркменские свадьбы имеют свои особенности, в этой статье отражены процессы, связанные с ними.

Ключевые слова: обряд, сахат, жашмак, совчик, приданое, кошана, катхудо.

Abstract: Family traditions and ceremonies regulate the relationship between generations, parents, and children. While Turkmen weddings have their own characteristics, this article reflects the processes involved.

Key words: ceremony, sakhat, jashmak, sovchik, dowry, koshana, katkhudo.

Ma‘lumki, etnik assimilyatsiya jarayonlarining asosi nikoh hisoblanadi. To‘rt asrdan buyon etnik makonidan mahrum bo‘lgan turkmanlar voha hududiga moslashishi natijasida faol assimilyatsiyaga kirishdilar. Turkmanlarning o‘zbeklar va tojiklar bilan assimilyatsiyasi XX asrning 70-80-yillarida ham davom etdi [1]. Aynan ushbu davrdan o‘zbek xalqiga xos madaniyat va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini qabul qila boshlagan (jumladan, turkmanlar hayotiga beshik kirib keldi).

Axborotchilarning fikricha, dastlab bolalarni beshikka solishmaganining asosiy sababi, turkmanlarning bosh tuzilishi uzunchoq ko‘rinishda ekanligidir. Beshikda yotgan bolaning boshi esa cho‘girma kiyishga qulay bo‘lishi uchun dumaloq shaklga kelgan. Lekin, o‘zbeklar bilan qarindoshlik aloqalari mustahkamlangach, beshikning foydali jihatlari anglab yetdilar. Chunki, beshikda ulg‘aygan bolaning tagi hamisha quruq va qaddi-qomati tik ko‘rinishda bo‘ladi [2].

XX asrning oxiriga kelib, turkmanlarning yana bir milliy an‘anasi sanalgan kelinlarning to‘ydan keyin ro‘mol bilan yuzini yopib, qaynona va qaynotasi bilan gaplashmasligi unutila boshladi. Lekin, qayerga bormasin, boshidagi ro‘moli, egnidagi uzun liboslari orqali voha turkmanlarini farqlash mumkin.

Odatda, turkmanlarda ham nikoh to‘y dastlab sovchilikdan boshlangan. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik iplarini bog‘lashga da‘vat etgan kishidir. Sovchilar tashrifi haftaning xosiyatli kuni payshanba kuniga mo‘ljallanadi. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi turkmanlar orasida sovchilik kuni “saxat” (munajjimlar bashorati bo‘yicha xosiyatli kun) yordamida belgilanadi. Bunda mahallaning mullasi yulduzlar joylashuvi asosida xosiyatli kunni belgilab beradi [3]. Bu kabi odatlar turkmanlar [4] va Stavrapol turkmanlari orasida ham saqlanib qolgan bo‘lib, mulla to‘y kunini belgilashda oy hamda yulduzlar taqvimidan foydalangan [4]. Sovchilikka dastlab erkaklar boradi. Buning sababi, “erkak ochgan eshik xosiyatli bo‘ladi”, – deb hisoblanadi. Erkaklar o‘zaro kelishib olgach, keyingi safar bunday ma‘suliyatli ishlarga keksa onaxonlar va yigitning onasi tayinlangan.

Sovchilar qizning uyiga uch marta boradilar. Odatda, yigitning onasi kelin bo‘lmishning uyiga turli shirinliklar tugilgan dasturxon olib borgan. Uchinchi marta borilganda, qiz taraf rozi bo‘lsa, patir ushatilib, onasi olib borgan oq matoni qizning onasi olib qolgan va bu rozilik belgisi hisoblangan. Turkman millati vakillari azaldan boshqa millat vakillari bilan quda-anda tutinmaslikka harakat qilgan. Vohaga ko‘chib kelgandan keyin o‘zbek qizlarini kelin qilgan, lekin ularga qiz bermagan. Ushbu holatni turkmanlar o‘zlariga xos o‘jarlik bilan izohlaydi: “Chunki qizning ota-onasi kelgusida qiz kelin bo‘lib tushgan xonadonga farzandi sababli bir umr qulluq qilib yashashga majbur bo‘ladi” – deb hisoblaganlar [6].

Aynan Ikkinchi jahon urushidan keyin o‘zbek xalqiga bo‘lgan ishonchning yanada mustahkamlanishi natijasida qizlarni o‘zbek yigitlariga turmushga berish boshlandi. Buning asosiy sababi, turkmanlarda urug‘ ichidan qiz olish va qiz berish, qarindoshlarning o‘zaro quda bo‘lishi saqlanib qolgan. Fotihadan keyin kelin kuyovning qarindoshlariga iloji boricha ko‘rinmaslikka harakat qilishi kerak. Xuddi shunday kuyov ham kelinning qarindoshlaridan qochib yuradi.

Turkmanistonga borib, qarindoshlarining to‘y va motam marosimlarida doimiy tarzda qatnashgan. Qizlarini turmushga berib, o‘zlari ham u yerdan qiz olib kelgan. Kelinlarning seplari maxsus turkman bozorlaridan olib kelingan. Mazkur holatni Qo‘shko‘pir, Bog‘ot va Shovot tumanlarida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Qo‘shko‘pir tumanida yashovchi 82 yoshli Bibijon ona Sobirovaning aytishicha, qishloqqa Turkmanistonning Toshhovuz viloyati Taxta tumanidan kelin bo‘lib tushgan. To‘ydan oldin kuyov taraf kelinning sarposini Taxta bozoridan olib kelgan. Qurli to‘y qilinish, butun mahalla qatnashgan. Baxshilar ijrosida turkmancha qo‘shiqlar ijro etilgan, qo‘chqor urustirish va kurash musobaqalari o‘tkazilgan [7].

To‘y qilish vaqti kelin-kuyovning yoshi, qalin pulining qachon to‘lab bo‘linishiga bog‘liq. Agar kuyovning oilasi boy-badavlat bo‘lsa va kelishilgan qalinni o‘z vaqtida to‘lasa, to‘y uzoqqa cho‘zilmagan.

To‘ydan oldin ikkala uyda esa keksalar yig‘ilib, “ko‘rpa yeyma” marosimini o‘tkazishgan. Bunda, avvalo, keksalar ikkala yoshga baxt tilab, duo qiladilar. So‘ngra tayyor bo‘lgan ko‘rpacha, to‘shak va yostiqlar ustiga shirinliklar, qand va tangalar sochilgan. Bularni shu marosimda ishtirok etayotgan bolalar terib oladilar. Ushbu udumda tikilayotgan ko‘rpa va to‘shaklarda kelin hamda kuyovning farzandlari ham tepkilab, o‘ynab yursin, degan niyat mujassamlashgan.

Yigitning otasi qizning ota-onasini rozi qilishi shart bo‘lgan. Turkiy xalqlarda hamma ma’noda qizning bahosi baland bo‘lgan. Shuning uchun kuyov tomon kelin tomonga albatta qalin to‘lagan. Ushbu to‘lov pul, oltin-kumush, qo‘y-mol, gilam va kigiz shakllarida bo‘lgan. Qiz uchun beriladigan sarpolar esa har bir hududda turlicha ko‘rinishga ega bo‘lgan. To‘y kuni ertalab quda tomondan kelinning uyiga keksalar kelishgan va “ko‘shana bichar”, ya’ni chimildiq pardasini tikish marosimini o‘tkazishgan. Uy egalari ularga sovg‘alar ulashgan. Keyin keksa ayollardan biri “yor-yor” aytgan va kelinni yangasi va dugonalari bilan ko‘shanali aravaga chiqarib kuyovning uyiga olib ketishgan. Bu “bo‘lish arava” deb atalib, u 4–6 aravadan iborat bo‘lgan. Birinchi aravada sozandalar karnay-surnay va soz bilan, ikkinchisida esa go‘shanga tutilgan kelin va uni uzatib ketayotgan dugonalari, ikkita yangasi o‘tirgan. Keyingi aravada esa “Yotog‘ to‘yi”da qatnashgan katxudo xotin, xalfalar o‘tirishgan. Kelin tomonning yigitlari to‘planib, yo‘lda kelin aravani to‘xtatib, sovg‘a olganlar [8].

Axborotchilarning aytishicha, XX asning boshlarigacha odatda kelin va yangasi kuyovning

uyiga tuyada kelgan. Ularning ikki yon tarafida katta qop (qanor)da kelinning sarpolari olib kelingan. Tuyaning ustiga ko'shk qurilgan. Ular kuyovning uyiga yetib kelgach, kigiz ustiga tushirilgan va kigizni ko'targan holatda uyga olib kirilgan.

Kuyov ko'shana (go'shanga)ga kirishidan oldin "yanga salom", "belbog' yechdi", "taha tashar" kabi odatlar amalga oshirilgan. Ota-bobolarning udumi bo'yicha, ostonada yoqilgan olovdan hatlab, o'ng oyog'i bilan uyga qadam qo'yayotgan kelinning oldidan kesib o'tish mumkin emas. Buning sababi, "o'ng oyoq bilan boshlangan ish o'ngidan keladi va ushbu holatda yangi kelinning yo'lini hech kim to'smasligi joiz" – deb irim qilinadi. Bu singari irim-sirimlarni Markaziy Osiyoning barcha xalqlari orasida uchratish mumkin. Jumladan, o'zbeklarda ham o'ng oyoq va o'ng qo'lda biror ish boshlansa, xayrli yakun topishiga ishoniladi.

Ko'plab odatlar keyinchalik voaha to'ylari ta'sirida kirib kelgan. Shulardan biri, kuyovning belbog'ini yechish marosimi sanaladi. Gohida buni uddalay olmagan yangalar kuyov jo'ralarga ellik, yuz marotabagacha egilib, ta'zim qilishga majbur bo'ladi. Kuyov jo'ralarning qiy-chuvlari orasida kuyov belbog' yechilib, dastro'mollar tarqatiladi. Qovurilgan go'sht tortiladi. Yanga kuyovning cho'ntaklaridagi hadyani olib bo'lgach, kuyov bola kelinni ko'tarib olib, yasatilgan chimildiq ichiga yotqizishi kerak. Agar buni uddalay olmasa, keyinchalik oilada ustunlik kelin qo'lida bo'ladi. Kelgusida turmushlari totuv, tillari shirin bo'lsin, deb novvot qo'shilgan shirin suv ichirilgan. Kelin-kuyovdan qolgan suvni "barchani shu kunga yetkazsin", – deb bolalariga ichirishgan. Keyin mulla chaqirilib, kelin va kuyovga nikoh o'qilgan. Shundan keyin kelin va kuyov davraga chiqib, to'y boshlanib ketgan.

Odatda, turkman to'ylari ochiq havoda, butun urug' vakillari davrasida o'tkazilgan va "qurli to'ylar (davra to'yi)" deb atalgan. Bunday davrali to'ylarni Sarimoy hududida hozirda ham kuzatish mumkin [6].

Bugungi kunga kelib, voaha turkmanlari to'ylari o'zbeklarnikidan deyarli farq qilmaydi. Faqatgina Xorazm viloyatining Shovot tumanida turkman to'ylarining ko'plab elementlari saqlanib qolgan bo'lib, to'y kuni barcha birdek milliy to'y liboslarini kiyishi buning yaqqol misolidir.

Ma'lumki, turkmanistonlik kelin uchun kiyinish an'anaviy uslubga ega. U juda katta miqdordagi zargarlik buyumlari bilan bezatilgan. "Zargarlik buyumlarining jiringlashi yovuz ruhlarni qo'rqitadi", – deb ishonilgan. Oxirida uning ustiga "kurte" deb ataluvchi to'y paltosi kiygiziladi [9]. Lekin, o'tgan asrning 70-yillariga kelib, kelinlar orasida milliy to'y libosi va kurte o'rniga zamonaviy kelin libosi hamda fatalardan foydalanish urfga kirgan.

Kuyovning yaqin qarindoshlari to'ydin 3 kun oldin kelib, toki to'yning rasm-rusmlari ado etilmaguncha mehmon bo'lib, tunab qoladi. Bunday marosim Xorazm o'zbeklari orasida ham mavjud bo'lib, to'yga kelgan mehmonlarni qabul qilish "qo'noq" olish deb ataladi. Xorazmda ham ushbu an'ana hozir ham mavjud bo'lib, yaqin-yaqinlargacha "qo'noq" olish rasm bo'lgan [10].

To'yning ertasi kuni "yoliq otma" marosimi o'tkazilgan. Bunda kelin dastlab qirq kungacha, hozirgi kunga kelib 3 kun davomida yuzini "kurte" yoki "yoliq"(maxsus uzun libos) bilan yopib, xonasidan chiqmasdan yurishi kerak bo'lgan. Belgilangan muddat kelgach, "betachar" kelinning yuzini ochish (kuyovning qarindoshlari va mehmonlarga kelinni ko'rsatish) marosimi bo'lib o'tgan [11].

Kuyovning uyida mehmonlar yig'iladigan joyda ular kelinni milliy libosda olib kelib, chemildriq (chimildiq) ortiga qo'yadi. Betachar kuni kelin erining qarindoshlari bilan tanishishi, ularning kelajak hayot haqida maslahatlari va ezgu tilaklarini olishi mumkin. Keyin kelin barchaga egilib ta'zim beradi. Bunga javoban, ular kelinga gorindir (ilk bor ko'rishgani uchun sovg'a) beradi. Hozirgi kunda ushbu libosning o'rniga o'zbekcha fasonda tikilgan nikoh ko'ylagi (oq matodan tikilgan ko'ylak, uzun joiz va oq ro'moldan iborat) kiyish urfga kirgan. An'anaviy "betachar"dan so'ng, qaynona keliniga yaqinlashadi, kelinni o'padi va eng yaxshi tilaklarni bildiradi.

To'ydin keyin qaynona va kelin munosabatlari dastavval tubdan farq qilgan. Kelinlar turmushga chiqqanlaridan keyin yuzlariga "yashmoq" deb nomlangan ro'mol tutib yurganlar. Buning sababi, ular o'g'il farzandlarini sunnat qilgunlaricha qaynona va qaynotasi bilan

gaplashishi mumkin bo'lmagan.

“Bulutdan chiqqan gun yomon, Yashmoqdan chiqqan dil yomon” [6] degan xalq maqoli ham shu asosida kelib chiqqan.

Axborotchilarning ma'lumot berishicha, kelinlar ro'molini tishi bilan tishlab yurishgan holatlari ham bo'lib, odatda, ushbu holat ularni gapirib qo'yishdan saqlagan [12]. Oradan ma'lum muddat o'tgach, qaynona va qaynotaning oq fotihasi bilan gapirishlari mumkin bo'lgan. Ba'zi kelinlar oq fotiha olganlaridan keyin ham qaynona-qaynotasining hurmatini qilib gapirmagan. Mazkur odat XX asrning birinchi yarmigacha saqlanib qolgan. Xorazm viloyati Shovot tumani “Bo'ston” mahallasida yashovchi turkmanlar orasida ushbu an'ana uzoq davrlar saqlanib kelingan va XXI asrga kelibgina asta-sekin unutilib, zamonaviylik kasb eta boshlagan. Shuningdek, Xorazm viloyati Gurlan tumani “Navro'z” mahallasida yashovchi turkmanlar esa haligacha ushbu an'anaga sodiq qolgan. Hozirgi kunda ham ayrim oilalarda farzandli bo'lmaguncha kelinlarning gapirmaslik an'anasi saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002. – С. 216.
2. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, Qal'ajiq MFY. 2021-yil.
3. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Gurlan tumani, Navro'z MFY. 2021-yil.
4. Di_wan_gu_ly_je_wa B. we başg. Türk_me_nis_ta_nyñ et no_lo_gi_ýa sy. Ýokary okuw mekdepleri üçin okuw ki_ta_by. – A. : Türk_men döw_let ne_şir_ýat gul_lu_gy, 2018. – P. 58.
5. Брусина О. И. Ставрапольские туркмены. Этнокультурное развитие, социальные обычаи, процессы адаптации и интеграции / Исследования по прикладной и неотложной этнологии. – М. : ИЭА РАН. 2008. – Вып. 202. – С. 28.
6. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Tuproqqal'a tumani, Sarimoy qishlog'i. 2021-yil.
7. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumani, Shixobod MFY. 2021-yil
8. Задыхина К. А. Узбеки дельты Аму-Дарьи. . . . – С. 396.
9. Джуманиязова М. Традиция. Туркменская культура: Возрождение. – Ашхабад, 2019. – №7. – С. 16.
10. Маткаримова Н. М. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2020. – Б. 17.
11. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Shovot tumani, Bo'ston (Chovdurliq) MFY. 2021-yil.
12. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Urganch tumani, G'oybu qishlog'i, Turkmanlar MFY. 2021-yil.

*To'maris A'zam Butunbayeva,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
katta o'qituvchisi, PhD.*

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MA'NAVIY – MA'RIFIY MADANIYATI: O'ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek bolalar folklor raqslarining madaniy hayotdagi in'ikosi hamda musiqiy xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar. Qadimiy janr, bolalar, milliy g'urur, folklor, raqs, udum, kuy, betakror mo'jiza.

Аннотация: В данной статье рассматривается восприятие узбекских детских народных танцев в культурной жизни и музыкальных особенностях.

Ключевые слова. Древний жанр, дети, национальная гордость, фольклор, танец, Удум, мелодия, неповторимое чудо.

Abstract. This article examines the perception of Uzbek children's folk dances in cultural life and musical features.

Key words. Ancient genre, children, national pride, folklore, dance, Udum, melody, unique miracle.

Muhtaram Prezidentimizning “Madaniyat va san’at sohasini yana-da rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘rsida” gi Qarorida to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash”[1] bugungi kunda dolzarb masalaga aylandi.

Milliy madaniyatimizning bebaho durdonasi - o‘zbek bolalar folklor raqslarida milliy g‘urur va iftixor, xalqning sharaflari tarixi musiqa va harakatlar, imo – ishoralar uyg‘unligidagi badiiy - estetik muloqot vositasida yuzaga keladi. Kichkintoylar har bir raqsni o‘ziga xos tarzda ijro etadi, ular ruhan nihoyatda ijodkor bo‘lishadi, raqs – kompozitsiyalarda improvizatsiya tufayli qaysidir harakatlar, holatlar o‘zgarishi va boyib borishi mumkin. Mazkur ma’naviy muhit ta’sirida raqsning yangi qirralari ochiladi, ijrochi, tomoshabin – tinglovchi ham shakllanib boradi. Raqs – kompozitsiya jarayonida kichkintoylar beg‘ubor qalblari bilan urf – odatlar va milliy qadriyatlarni tabiiy tasvirlaydi.

Xalqning bebaho ma’naviy merosi bo‘lmish bolalar folklor raqslarining to‘liq sahna san’atiga aylanishida musiqa ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatimizning har bir go‘shasida marosim raqs – qo‘shiqlari millatning boqiy qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi. Syujet, harakatlar va ohanglar o‘ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi.



Mustaqillik yillarida bolalar raqs – qo‘shiqlari va uning serjilo an’analarini saqlab qolish maqsadida ko‘plab madaniy tadbirlar, tanlovlar va ilmiy- amaliy anjumanlar tashkil qilindi. Ularda har bir hududning sof milliy manzaralari - raqsning ifoda uslubiga vobasta musiqa, rang va uslub, libos va taqinchoqlarga alohida e’tibor qaratildi.

Milliy o‘zlik tuyg‘usini anglashda milliy kuy va raqslar muhim vosita hisoblanadi. Musiqa va raqs o‘rtasidagi mutanosiblik juda qadim tarixga ega va musiqa raqsning umumiy yaxlitligini, harakatlar tizimining uzviylikini ta’minlaydi. Bolalarning yoshiga mos musiqa harakat va imo- ishoralarni to‘g‘ri bajarish, gavda hamda oyoq holatlarini bir-biriga bog‘liq holda aniq ifodalashda katta rol o‘ynaydi.

Raqs san’ati bolalarning estetik tuyg‘ularini tarbiyalash, ularni go‘zallik dunyosiga olib kirishda rangin tuyg‘ularga oshno qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘sib

kelayotgan yosh avlodni milliy san'atimizga muhabbat ruhida ulg'aytirish, raqs ta'limini yuqori bosqichga chiqarish talab etilmoqda. Ayniqsa, folklor raqslari teran mohiyati, sof xalqona ijro uslublari bilan tomoshabinni hayratga soladi. Milliy raqslar til bilan ifodalab bo'lmaydigan qalb tug'yonlarini harkatlar va imo – ishoralar vositasida izhor qilish uslubidir. Tuman va viloyatlar kesimida folklor raqslarning musiqa bilan uyg'unlikdagi o'ziga xos farq haqida gapirganda, xalqimiz milliy qadriyatlarining, madaniy an'analarining boy va xilma-xilligiga e'tibor berish kerak. Ayniqsa, "Beshqarsak" (Samarqand), "Xubbimboy", "Olti xalfa" (Xorazm), "Andijon polkasi", "Ro'molcha" (Andijon), "Kim oladiyo, shuginani yo", "Maydayo, mayda" (Surxondaryo), "Boychechak" (Farg'ona), "Tulkicham" (Toshkent), "Savat", "Gilam to'qish" (Sirdaryo), "Sandiqcha", "Yorg'ichoq" (Qashqadaryo) kabi raqs kompozitsiyalarining barkamolligida musiqa juda katta ahamiyatga ega. Zero, buyuk mutafakkir Aflotunning fikricha, "Davlat kuchi, qudrati – unda qanday musiqa yangrashi va uni xalq qanday e'zozlashi va qadrlashi bilan bog'liqdir" [2].

Azal – azaldan folklor raqs an'analari, ijro uslubi o'zining plastik tasviriy vositalariga ega bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Ilk bolalar folklor raqslarida asosan tepki, qarsak va tayoqlardan ham foydalanishgan. Keyinchalik predmetli raqslar deb nom olgan yo'nalish mehnat qurollari hamda maishiy turmushda ishlatiladigan piyola, likob, angishvona kabi buyum bilan ijro etilgan. Mavsumiy raqsli qo'shiqlarning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi ularning musiqiy she'riy mazmuni va badiiy shakllanishining asosi hisoblanadi.

Taniqli tilshunos olim, professor Sh. Safarov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilim jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit bo'lishi tabiiydir" [1].

O'zbek bolalar folklor raqs san'atida millatning tarixi, qadim orzu- umidlari, betakror qadriyatlari, olijanob fazilatlarini badiiy – estetik ifodalangan. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida milliy raqs san'ati haqida shunday deyiladi: "Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismidir". Har bir ijodiy mahsul zamirida, xususan, o'zbek folklor qo'shiq va raqslarida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash mujassam. Eng ibtidoiy davrlardan boshlab, odamlar ezgulikni ardoqlaydi, yovuzlikdan nafratlanadi. "Avesto" ning eng qadimiy qismlari Xorazmda yaratilganligi haqida akademik S. P. Tolstov shunday deydi: "Avesto" da Ardaxushmiton, Arda-Xiva, Kat, Xodoros, Muzdakxon, Xodorkant kabi qadim Xorazm shaharlarining nomlari keltirilganligi fikrimizning dalilidir". "Qayroq Lazgisi", "Masxaraboz Lazgisi" va "Surnay Lazgisi"ning bolalar uchun yaratilgan variantlari mavjud. 1992 yilda "Meros" bolalar raqs dastasining "Olti xalfa" folklor raqsi Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan Xalqaro festivalda Granpri bilan taqdirlanishi Xorazm bolalar folklor raqslariga jahon san'atshunoslarining qiziqishlarini yanada kuchaytirdi.

Qadimgi davrlarda Amudaryoga bag'ishlab qurbonlik berish va turli marosimlar o'tkazish odat tusiga kirgan. "Avesto"da unga oid ko'plab rivoyatlar keltirilgan. Ardvissura, Anaxita Amudaryoning eng e'zozli ma'budasi sifatida tasvirlangan. Suv poklanish va obodonchilik, qut - baraka ramzi hisoblangan. Xorazm bolalar folklor raqslaridan "Xubbimboy" kompozitsiyasida suvning muqaddasligi ulug'lansa, "Sholi bayrami", "Qovun sayli" singari raqslarda polizga suv qo'yilishi, sholining suvda o'sishi, suv kechib sholini parvarishlash kabi holatlar raqs harakatlarida ifodalanadi.

O'zbek bolalar folklor raqslarining "Avesto" bilan tutash ko'hna ildizlari uning nihoyatda qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Xalqimizning orzu - istaklari va mifologik qarashlari, tabiat hodisalari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalari asosida shakllangan mavsumiy marosimlar turkumida Navro'z bayrami eng yuksak maqomni egallagan. Folklor raqslarida ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, milliy qadriyatlarimiz, o'zbek xalqining insonparvarligi, bag'rikengligi bolalarcha beg'ubor tuyg'ular uyg'unligida tarannum etiladi. Xoreograf bilan fikrlashib, musiqa o'qituvchisi tomonidan raqs uchun to'g'ri tanlangan musiqa ham tomoshabinga, ham ijrochiga estetik zavq bag'ishlaydi. Bugungi kunda ham zamonaviy raqs ta'limida bolalarga raqs harakatlari va holatlari musiqa bilan bog'langan holda o'rgatiladi. Birinchi navbatda

musiqaning ohangdorligi, raqslardagi quvnoqlik va jo‘shqinlik kuchaytiradi, kichkintoylarning e‘tiborini o‘ziga tortadi. Bolalarning liboslari ham musiqaga mos zangori, pushti, qizil, sariq, binafsha, oq kabi yorqin ranglarda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Taqinchoqlar va bezaklarda ham bolalarning beg‘ubor ruhiy olamlariga mos ranglar tanlanishi kerak. Binobarin, raqs uchun to‘g‘ri tanlangan musiqa bolalarning ijodiy qobiliyatini oshiradi.



Bolalar folklor asarlarida raqs harakatlari orqali milliy qadriyatlar va urf- odatlar, xalqimizning ular bilan bog‘liq xarakterli belgilarni namoyish etiladi.

Bugungi kunda milliy musiqa va raqs merosimizning targ‘ibot ko‘lamini yana-da oshirish, bu borada tizimli tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Har bir viloyatning bolalar folklor - etnografik ansambllari xalqimizning qadimgi an‘analarini o‘zida mujassam etgan voqelikka munosabatini o‘ziga xos ifodalash uslublarini topgan. Ularning har biri betakrorligi bilan xalq ma‘naviyatining, milliy musiqa va raqs san‘ati taraqqiyotida muhim voqea hisoblanadi. Hamda o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida ona yurtga, milliy qadriyatlarga muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Eng muhimi, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega milliy musiqa va raqs tarixi nihoyatda qadimiy bo‘lib, bu uyg‘unlikda beqiyos an‘analar va qadriyatlar hamda xalqimizning eng olijanob fazilatlari, orzu – umidlari, ko‘ngil go‘zalliklari aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. M. Turg‘unboeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi. –T. , 2001.
2. G‘afur H. Xalq o‘yinlari, qo‘shiqlar va an‘analarga bir nazar. –T. : “Kamalak”, 1992
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T. : “O‘zbekiston” nashriyoti. , 2021.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi 7-j. –T. : “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti. , 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yana-da rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 04. 02. 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san‘ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 2020 y. , 4 fevral.

Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich

*F. f. b. f. d. (PhD), dotsent. Qo‘qon. O‘zbekiston
TDTU Qo‘qon filiali. Email - nodirjon89. 86gmail. com*

Azimov Ulug'bek Abduxalilovich
F. f. b. f. d. (PhD), dotsent. Farg'ona. O'zbekiston.
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Farg'ona filiali. Email - nodirjon89.86gmail.com

MAMLAKATIMIZDA MILLIY SAN'AT, MODDIY VA NOMODDIY MEROSNI ASRAB AVAYLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda moddiy va nomoddiy merosni asrab avaylash va bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, baxshichilik, musiqa, raqs va xalq tomosha san'ati, urf-odat, marosim va bayramlar, tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar yoshlar tarbiyasidagi vositalar ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: moddiy va nomoddiy meros, baxshichilik, musiqa, raqs va xalq tomosha san'ati, urf-odat, marosim va bayramlar, tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar, an'anaviy hunarmandchilik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сохранение материального и нематериального наследия в нашей стране и принятые в этой связи нормативно-правовые документы, благотворительность, музыка, танцы и народное исполнительское искусство, обычаи, обряды и праздники, природа и мироздание, знания и это. утверждается, что обычаи, знания и навыки, связанные с традиционными ремеслами, являются инструментами образования молодежи.

Ключевые слова: Материальное и нематериальное наследие, благотворительность, музыка, танец и народное искусство, обычаи, обряды и праздники, знания и обычаи, связанные с природой и мирозданием, традиционные ремесла.

Abstract: In this article, the preservation of tangible and intangible heritage in our country and the normative legal documents adopted in this regard, charity, music, dance and folk performing arts, customs, ceremonies and holidays, nature and the universe, knowledge and it is stated that customs, knowledge and skills related to traditional crafts are tools in youth education.

Key words: tangible and intangible heritage, charity, music, dance and folk art, customs, ceremonies and holidays, knowledge and customs related to nature and the universe, traditional crafts.

Jamiyat milliy ma'naviyatning boshqa shakllari qatori milliy san'atning ham unga bo'layotgan turli ta'sirlar: globallashuv, ommaviy madaniyat, yoshlarning nisbatan milliy san'at o'zaklaridan yiroqlashuvi kabi hodisalardan himoya qilish zarur. Buning uchun muntazam milliy ma'naviyat va uning barcha shakllarining tarixiy, merosiy salohiyatini saqlab qolish va shu bilan birga milliy san'atning umuminsoniy estetik qadriyatlar, o'zga millatlar san'atining ilg'or elementlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash talab etiladi. Buning uchun milliy san'atni o'zga millatlar san'ati va qadriyatlari bilan integratsiya jarayonlariga kirishda to'g'ri yondashuvni izlash va uni to'g'ri qo'llashga erishish zarur. Bu borada yoshlar milliy estetik ongini milliy manfaatlar asosida rivojlantirish, uni milliy qadriyatlarni asrash tomonga yo'naltirish orqali milliy san'atni himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Milliy san'atni asrab-avaylash va himoya qilish millat va uning tarixini saqlash demakdir. Milliy san'at aksiologik xususiyati tufayli yashovchandir. U milliy ehtiyojlarga javob berar ekan, dolzarbdir. Bunday ehtiyojlarning borligi milliy san'atni ham taraqqiy etishi uchun imkon yaratadi. Bunday sharoitda milliy san'at tarqalayotgan zamonaviy san'at elementlariga nisbatan ko'pchilik uchun muhim bo'lib, san'at sohasida yetakchilik mavqeiga ega bo'ladi.

Jamiyatning moddiy va nomoddiy merosi ortib borgani sari o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga tobora jiddiy va mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi:

- baxshichilik;
- musiqa, raqs va xalq tomosha san'ati;

- urf-odat, marosim va bayramlar;
- tabiat, koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar;
- an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar bu borada asosiy tarbiya vositalaridan biri sanaladi.

Mamlakatimiz madaniyati va san'ati tarixida dunyoga tanilgan ko'plab baxshilar, do'ppido'zlar, maqomchilar, kulollar, kashtachilar, sozanda va xonandalar, raqs san'atining ustalari faoliyat olib borgan. Ular milliy san'atni dunyoga tanitganlar. Ularning san'at sohasidagi unumli faoliyati, tajribasi, hozirgi kunda san'atning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan professional yoshlar uchun va ikkinchi tomondan, san'atga, go'zallikka intiluvchi mamlakatimiz yoshlarining estetik tarbiyasi borasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni asrash masalasida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, nomoddiy madaniy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishni ta'minlash bo'yicha 2024-yildan boshlab yangi tartib o'rnatiladi.

Unga ko'ra, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha Madaniyat vazirligi tomonidan birinchi bosqichda ushbu toifadagi nomoddiy madaniy meros namunalari saqlovchi 20 nafar shaxs aniqlanib, ularga nomoddiy madaniy meros namunalari asrab-avaylash, ommalashtirish va keyingi avlodga yetkazish borasidagi faoliyatida ko'maklashiladi hamda ularning bu boradagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari belgilab berildi.

Ushbu ko'rsatkichlarni bajargan nomoddiy madaniy meros namunalari saqlovchi shaxslar esa Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasi hisobidan har oyda 5 million so'm miqdorida rag'batlantirib borilishi ta'kidlandi.

Alohida ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha esa nomoddiy madaniy meros namunalari yozib olish va keng targ'ib qilish, jumladan internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi berilishi belgilandi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda san'at sohasida yoshlar ongida to'g'ri ideallarni shakllantirish, ularga intilish yoshlarning barcha sohalarida amalga oshiradigan faoliyatini yanada yuksaltirishga yordam beradi. Chunki estetik ideallar insonni go'zallikka chorlaydi. "Go'zallik insonni komil qilib tarbiyalashning asosiy omili sifatida inson estetik didini shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega. U inson qalbini mayinlashtiradi, yovuzlikdan yiroq tutadi va faoliyatga undaydi, tabiatni go'zallashtirish va insonni tabiiylashtirish uchun xizmat qiladi".

Qayd etilgan jarayonlar milliy san'at va umuminsoniy san'atning o'zaro munosabatini, "muloqoti"ni taqozo etadi. Milliy san'atning o'ziga xosligini, salohiyatini saqlab qolish uning boshqa millatlar san'ati bilan o'zaro bog'lana olishi, ularga ham ta'sir kuchiga ega bo'lishiga bog'liq. Bu jarayon milliy san'atning ma'naviy integratsiya jarayonlarida ishtirok etishga qodirligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хусанов Б. Гўзаллик фалсафаси. Т. :”ZEBO PRINT”, 2022. -Б. 149.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25. 12. 2023 yildagi PQ-405-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6713096>
3. Azimov U. , Umurzakov A. Hierarchy of values and personal values //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – с. 354-355.
4. Рафиқова Д. , Азимов У. Таълимни модернизациялаш ва таълим сифатини ошириш //экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – с. 167-169.
5. Азимов У. А. Таълим-тарбия жараёнида ёшларнинг демократик кадрятлар тизимига аксиологик муносабатини ривожлантиришнинг фалсафий тахлили //тошкент-2021. – 2021. – с. 102.

6. Азимов У. Фуқаролик жамияти шароитида ёшларда демократик ислохотларга аксиологик муносабатни миллий қадриятлар асосида ривожлантириш омиллари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 296-302.

*Ikromjon Hoshimjonov,
Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniy
Birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyati raisi,
Xalqaro Amir Temur
fondi Qozog‘iston bo‘limi rahbari*

MARKAZIY OSIYO XALQLARI MADANIYATI: UMUMINSONIY QADRIYATLAR INTEGRASIYASI

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda millatlararo totuvlik va ijodiy-ijtimoiy hamkorlik istiqbollari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi, tarixiy jarayonlar va vorisiylik masalalari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar. tarix, ma’naviyat, istiqloq, hamkorlik, bag‘rikenglik, tarix, jamiyat, yoshlar, madaniy an’ana.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы межэтнического согласия и творчески-общественного сотрудничества, интеграция национальных и общечеловеческих ценностей, исторические процессы и вопросы преемственности в Центральной Азии.

Ключевые слова. история, духовность, независимость, сотрудничество, толерантность, история, общество, молодежь, культурная традиция.

Annotation: The article examines the prospects of inter-ethnic harmony and creative-social cooperation, integration of national and universal values, historical processes and issues of succession in Central Asia.

Key words. history, spirituality, independence, cooperation, tolerance, history, society, youth, cultural tradition.

Jamiyatning asosiy negizini tashkil qiladigan yoshlarning har tomonlama yetuk, barkamol inson bo‘lib voyaga yetishlarida ajdodlar an’anasi va madaniy qadriyatlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Azal-azaldan an’ana va urf-odatlarini mushtarak, ma’naviyatga, milliy o‘zlik va milliy qadriyatlarga bir xilda yondashadigan qardosh xalqlar – o‘zbeklar va qozoqlar o‘zlarini qon-qarindosh deb biladilar, o‘zaro hamkorlikdan zavq hamda kuch oladilar. Davlatlarimizning istiqloli sharofati bilan biz tariximizning unutilgan varaqlarini chuqur o‘rganish, milliy qadriyatlarimizni anglash va e’zozlash imkoniga ega bo‘ldik. Taniqli adabiyotshunos olim Q. Seydanov fikricha, “O‘zbek va qozoq xalqi tarixan bir-biri bilan yonma-yon yashab, doimo bir-biriga alohida mehr bilan yaqindan nazar tashlab, bir-birini qo‘llab-quvvatlagan”.

Shu bilan faxrlanamizki, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi, ulug‘ Sohibqiron Amir Temurning tarixiy siyosi, hayoti va faoliyati hozirgi Markaziy Osiyo zaminida yashayotgan barcha xalqlarning o‘tmish tarixidan sharafli o‘rin olibgina qolmasdan, zamonaviy tarixiy rivojlanishda ham o‘z aksini topayotgani diqqatga sazovordir. O‘tmish merosimizni o‘rganmay, unga suyanmasdan kelajakka to‘g‘ri yo‘l va taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlay olmaymiz. Sohibqiron bobomizning siyosiy faoliyati jahoniy ahamiyat kasb etadi hamda barcha qardosh ellar tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgandagina to‘la-to‘kis o‘z ifodasini topadi.

Bugun tarixiy asarlarni varaqlar ekanimiz, Amir Temur jipslashtirgan Markaziy Osiyodagi davlatining ichki siyosatida ham, uning olamshumul jangovor hayotida ham "Kuch adolatda!" shiori uning uchun siyosiy-huquqiy va ma’naviy mezoniga aylanganini ko‘ramiz. Bizning

nazarimizda, XXI asr yoshlarining yangicha dunyoqarashi va qiziqishlariga mos tarzda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temurning tarixiy merosini targ'ib etishning innovasion usullarini yaratish va tatbiq etish payti keldi. Kitoblar va ilmiy konferensiyalar o'tkazayotganimiz juda yaxshi, endi maktablar, oliy o'quv yurtlari, ijodiy-madaniy tashkilotlar o'rtasida onlayn va oflayn uchrashuvlarni ko'paytirishimiz zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-amaliy tadbirlarimiz ko'lami va ta'sir doirasini kengaytirishimiz maqsadga muvofiq. Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarning «O'zbek tili» va «O'zbek adabiyoti» darsliklariga taniqli shoir va tarjimon Minhajiddin Mirzoning «Sohibqiron yog'dusi» ma'rifiy dostonidan parchalar kiritish niyatidamiz.

“Bilim va donishmandlik insonning bezagidir” deb yozgan edi Navoiy bobomiz. Uning tarix oldidagi xizmatlari nihoyatda ulug'. Qozoq va o'zbek xalqlarining o'tmishi azaldan bitta, boshqa-boshqa tillarda gaplashganimiz bilan bir-birimizni hech qanday tarjimonsiz tushunamiz. Serqirra iste'dod sohibi, qozoq yozma adabiyotining asoschisi Abay Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgan. Biz Qozog'istonda Alisher Navoiy ijodini qanchalar ulug' muhabbat va qiziqish bilan o'rgansak, O'zbekistonda Abay asarlariga ham shunday ehtirom ko'rsatilmoqda. Hazrat Navoiy va buyuk oqin Abayning estetik ideallarida, ijodiy faoliyatlarida, pedagogik-didaktik qarashlarida bir-biriga yaqinlik bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning nisbatan qisqa vaqt ichida mamlakat mustaqilligi va davlatchiligini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish hamda millatlararo totuvlik yo'lida amalga oshirayotgan buyuk islohotlari dunyo hamjamiyati tomonidan alohida e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Qadim Turon tuprog'ida tug'ilib o'sgan, an'ana va urf-odatlarini mushtarak bo'lgan, ma'naviyatga, milliy o'zlik va milliy qadriyatlarga bir xilda yondashadigan qardosh xalqlar – o'zbeklar va qozoqlar o'zaro hamkorlikdan zavq hamda kuch oladilar. Bu ikki xalq o'z qadriyatlariga doimo amal qiladi, o'tmish ajdodlari xotirasini unutmaydi. Navoiy bobomizning “Hayrat ul-abror”, ya'ni “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” dostonida hayot mazmuni va umr qadri, inson taqdiri, uning tabiat, jamiyat bilan munosabatlari teran tahlil qilinadi. Millatlararo totuvlikni, birdamlikni yanada mustahkamlashda ularning hissasi beqiyos. Ulkan daryolar jajji irmoqlardan kuch olganidek, tili, dili va o'tmishi bir xalqlarning adabiyotlari ham ijodiy hamkorlik jarayonida bir-biridan quvvat olib, yuksalib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida”gi Qaroriga asosan Abay bobomizning ijodi o'zbek yurtida keng o'rganilishi, Ostona shahrida hazrat Navoiy “Milliy markaz”ining ochilishi ikki qardosh xalq adabiy do'stligining oliy timsolidir. Qozog'iston o'zbeklarining folklori o'ziga xos janrlari, ijod va ijro xususiyatlari, tarbiyaviy-estetik mohiyati, poetik belgilari bilan alohida tizim sifatida shakllangan. Ularning har bir hududga xos xususiyatlarini tadqiq qilish esa umumo'zbek folklorshunosligining nufuzini ko'taradigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. “Do'stlik” hamjamiyatimiz qoshidagi “Ijodkor” adabiy birlashmasining tashabbusi bilan tayyorlangan “Hoy-hoy o'lan, jon o'lan. . .” kitobini ezgu niyatlar bilan nashr qildirdik. Ona tariximizning ming yilliklari mobaynida millatimizning yurak-yuragiga singib ketgan, avloddan - avlodga o'tib, sayqallanib va boyib kelayotgan folklor qo'shiqlari o'zbek xalqi ma'naviyatini, badiiy-ruhiy salohiyati va zakovatini namoyon etuvchi yorqin ko'zgidir. Janrlarning hududiy rang-barangligi, ko'p variantlilik Qozog'istonning Shimkent, Turkiston, Iqon, Sayram kabi maskanlari azal-azaldan o'ziga xos folklor namunalari, qo'shiqchilik, laparchilik an'analariga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, barcha san'at turlarining tamal toshi hisoblanmish qaynar buloqdek pokiza og'zaki ijod nafaqat xalqning o'tmishi, milliy g'ururi va milliy o'zligini, balki, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri va maqsadlari bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir. Darhaqiqat, ezgu va oliyanob tuyg'ular mujassam topgan bu to'plamning asosiy maqsadi ham do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va yanada mustahkamlashdir. “Hoy-hoy o'lan, jon o'lan” kitobidan o'rin olgan qo'shiqlar, laparlar, kelin salomlar, allalar, aytishuvlar

umumo‘zbek folklori ravnaqi, xalqimizning madaniy merosini, milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, birdamlik va qardoshlik rishtalarini mustahkamlashi yo‘lidagi katta qadamdir. Noyob durdonalarni o‘zida jamlagan bu to‘plam xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda, ommaviy axborot vositalarida Qozog‘iston o‘zbeklari folklorini targ‘ib qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi aniq. “Hoy-hoy o‘lan, jon o‘lan. . .” kitobi A. Pratov, R. Xolmurodov, F. Qoratoyev, Sh. Po‘latov, A. Sotiboldiyev, N. Almetov, B. Turdiqulov, N. Do‘stmetova, Sh. Noraliyeva, S. Kamolovalardan iborat tahrir hay‘atining uzoq yillik mehnati samarasidir. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kitobning taqdimotini ham o‘tkazdik. To‘plam umumo‘zbek folklorining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish, uning tarixi va taraqqiyotini, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini bugungi kun talablari asosida targ‘ib etish imkoniyatini yaratadi.



O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bilan mustahkam do‘stlik aloqalarini bog‘laganimizni alohida ta’kidlashni xohlardik. Ular bilan hamkorlikda bir qator Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazdik. Akademiya rektori, professor Sh. M. Toxtasimov bilan Chimkent va Turkiston shaharlarida o‘zbek milliy raqs san’atidan “Mahorat darslari” o‘tkazish bo‘yicha kelishib oldik. Kelajakda har ikki qardosh xalqlarning ilm-fan, adabiyot va madaniyat sohasidagi aloqalarini yanada

kengaytirish niyatimiz bor. Yaqinda taniqli olimimiz, Qozog‘istondagi o‘zbek maktablari uchun “O‘zbek tili” va “O‘zbek adabiyoti” darsliklarining muallifi, Jumabek Tashenev nomidagi universitetning xalqaro ishlar bo‘yicha prorektori Shahlo Naraliyeva filologiya fanlari doktori, professor, taniqli tilshunos R. Sayfullayeva rahbarligida “Umumta’lim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitishning metodik asoslarini takomillashtirish (Qozog‘istondagi ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablar misolida)” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish bo‘yicha dissertasiya yoqladi. Qozog‘istonda o‘zbek tilining nufuzi yanada yuksalishida mazkur dissertatsiya himoyasi muhim ahamiyatga ega. Albatta, ezgu niyatlarimizni amalga oshishida Qozog‘iston Respublikasi devoni huzuridagi Qozog‘iston xalqi Assambleyasining hissasi katta. Assambleya raisi o‘rinbosari Marat Azilxonov bizning har bir tashabbusimizni qo‘llab – quvvatlaydi. Xuddi O‘zbekiston kabi Qozog‘istonda ham 130 dan ortiq millat vakillari tinch – totuv, xotirjamlikda yashamoqdamiz. Boshqa millatlar qatori, o‘zbek tili va madaniyatini saqlash va rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda 14 ta o‘zbek etnomadaniy birlashmalari, 14 ta o‘zbek tilida chop etiladigan gazeta va jurnallar, 140 dan ortiq o‘zbek sinflari bor. Umumta’lim maktablari, bir o‘zbek drama teatri, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek filologiyasi fakulteti, o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir aytganidek, “Turkiy degan nomi bir, o‘zbek bilan qozoqning, Kalomi, salomi bir o‘zbek bilan qozoqning”. Eng muhimi, qozoq kitobxonlari o‘zbek adiblari asarlari tarjimalarini doimo zo‘r ishtiyoq bilan o‘qiganlar. Bu ishga o‘zbekistonlik qozoq qardoshlarimiz ham, qozog‘istonlik o‘zbek ijodkorlari ham birday hissa qo‘shib kelmoqdalar. Adabiy aloqalarimiz kengayaverar ekan, o‘zbek va qozoq ijodkorlari bir-birlarining ijod mahsullari bilan chuqurroq tanishib, tarjima ishiga bo‘lgan qiziqishlar tobora ortaveradi. Kitobsevarlar bundan faqat manfaatdor bo‘ladi. Dunyoda millatlar va mamlakatlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, qardon qiladigan omillar juda ko‘p, lekin ularning orasida adabiyot bilan san’at yuksak cho‘qqilarni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Есдавлат У. Қозоғистонда ўзбек адабиётини ўрганувчилар кўпчилиги. Адабий дўстлик – абадий дўстлик. Тўплам. –Тошкент. : 2018.
2. Сейданов Қ. Навоий ва Абай. Ўзбек - қозоқ адабий алоқалари. Т. 2018.
3. Алметов Н. Мектеп ата – аналар университети. Шимкент. :2023. .
4. Тохтасимов Ш. <https://uza.uz/oz/society/>
5. Ҳошимжонов И. Қирғизбоев Ғ. Турдиқулов Б. Турсунметов С. Жанубий Қозоғистон вилояти ўзбек маданияти марказига 25 йил. Чимкент: 2019.
6. Ҳой-ҳой ўлан, жон ўлан. . . Қозоғистон ўзбекларининг халқ оғзаки ижоди. Шимкент. 2019.
7. Итина М. А. Хорезмская экспедиция – основные итоги и перспективы исследований. Культура и искусство древнего Хорезма. М. , “Наука”, 1981.
8. Қиличев Т. Лазги рақси турлари. Танланган асарлар. Урганч. : 2020.
9. Раҳимова Г. Қутлуғ йўлда. Т. : “Ёш гвардия”, 1973.
10. Садоков Л. Р. Музыкальная археология древней и средневековой Средней Азии: ударные инструменты. М. : “Наука”, 1996.
11. Жабборов И. Кўхна харобалар сири. Т. : “Фан”, 1968.
12. Абдиримов Б. Хоразмийлар изини излаб. . . Т. : 2020.
13. Ҳамроева Ҳ. Тохтасимов Ш. Ўзбекистон халқ артисти Гавҳар Матёкубова яратган тарихий рақслар. Т. : 2020.
14. Ҳамроева Ҳ. Мирзо М. Миллий ўзликни англашда рақс санъатининг инсон руҳиятига таъсири. Т. : 2020.
15. . Ҳамроева Ҳ. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Раҳматжон Курбоновнинг “Санъатнома 1” асарининг бадиий-эстетик хусусиятлари. Т. : 2020.
16. Ғаниев С. Ҳамроева Ҳ. Қадриятлар уйғунлиги: Қозоғистон ўзбекларининг миллий рақс санъати. Т. : 2020.

*Umrbek Maxmudov –
Urganch innovatsion universiteti kafedra mudiri*

ANTI-K DAVR XORAZM MADANIY HAYOTIDAN TARIXIY LAVHALAR (QADIMGI XORAZM YOZUVI MISOLIDA)

Xalqimiz Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng barcha sohalar kabi ma‘naviy va madaniy hayotida ham ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, xalqimizning ko‘p yillar davomida toptalgan boy tarixi va unga bo‘lgan munosabat yaxshilandi.

Bizga ma‘lumki, Markaziy Osiyo tarixiy sivilizatsiyasida Xorazm vohasi hududida kechgan tarixiy jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘lkada qadimdan ilm-fan va madaniyat taraqqiy etgan. Dunyo ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan qomusiy olimlar yetishib chiqqan.

Hudud geografik jihatdan og‘ir sharoitda bo‘lishiga qaramay jahon xalqlari madaniyati va ma‘naviyati rivojlanishi bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Jumladan, Xorazm insoniyatning eng ajoyib va buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan yozuvning qadimiy Vatani hisoblanadi.

Xorazm mintaqasidagi sivilizatsion jarayonlar qadim zamonlardanoq yozuv madaniyatini taqozo etgan. Shu munosabat bilan Xorazm o‘lkasida iqtisodiy-siyosiy va madaniy ehtiyojlar

zaruriyatiga ko‘ra, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o‘rtalaridan boshlab mahalliy alifboli xorazmiy yozuvi paydo bo‘lgan. Bu yozuvning genetik asoslari ko‘plab sharq yozuvlarini shakllanishiga asos bo‘lgan oromiy yozuviga borib taqalsa-da, mahalliy sharoitda xorazmiy tiliga moslashgan holda, mustaqil harf-tovush alifbo tizimiga aylangan. Bundan avval Xorazm vohasida yozuv madaniyati nazariy jihatdan “Avesto” ni yozib olish bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan “Avesto” kitobi yozuvidan boshlanadi.

S. P. Tolstov boshchiligidagi arxeologiya-etnografiya kompleks ekspeditsiyasi natijasida topilgan yozuv namunalarini jiddiy o‘rgangan V. A. Livshits va o‘zbek olimi M. Is‘hoqovlar qadimiy xorazm yozuvi eramizdan avvalgi V-IV asrdan - eramizning XI-XIII asrigacha ajralib, madaniyat rivojiga xizmat qilgan, deb tasdiqlaganlar. Ularning fikricha, m. avv. VI asr o‘rtalarida Xorazm Ahamoniylar davlati tasarrufiga kirib, uning idora-boshqaruv tizimida xizmat qilgan oromiy yozuvi va tili Xorazm davlatida 22 harfli oromiy alifbosini tez orada mahalliy tilning fonetik talablariga moslashtirib, o‘zlashtirilgan. Shu tariqa yangi xorazm yozuvi shakllangan [1].

Jumladan, Qo‘yqirilganqal’a xarobalaridan topilgan sopol idishlarga o‘yib yoki qora bo‘yoq bilan bitilgan oromiy tipidagi yozuv m. avv. VI-I asrlarga oiddir. Bundan tashqari, xorazmshohlar poytaxti Tuproqqal’adan milodning III asriga oid arxiv hujjatlari topilgan [2]. Bu topilmalar Xorazmda yozuv tarixi antik davrga borib taqalishini tasdiqlaydi.

1951-yilda Qo‘yqirilganqal’a xarobalari asori atiqalariga asoslanib taniqli sharqshunos olim S. P. Tolstov xorazm yozuvi xususida shunday deb yozgan edi: “Xorazm yozuvi faqat xorazmdagina emas, balki umuman, butun O‘rta Osiyodan topilgan yozuvlar ichida ham eng qadimiysidir”[3].

Oromiy yozuvi asosida yaratilgan qadimiy xorazm yozuvi arxeologik topilmalar natijasida topib olingan ashyoviy dalillarda aks etgan bo‘lib, ular teri, yog‘och, metal buyumlar, tanga va chaqalarga bitilgan [4]. Misol uchun, II asrning oxiri va III asrning boshlarida Xorazm hukmdori Arsamux I tomonidan zarb qilingan tangalarda xorazm yozuvida o‘z qallog‘ining ismini yozdirgan [4].

Tuproqqal’a xarobalaridan topilgan ashyolar orasida kichkina cho‘pxat ham topilgan bo‘lib, unda qadimgi xorazm alifbosining belgilari bilan qora tushda yozilgan to‘rtta so‘zdan iborat yozuv bor edi [6]. U “Spbr/DK” – “Asbarak” yoki “Aspadak” deb o‘qilgan. Shubhasiz, bu so‘z eronchadir - so‘zning ot o‘zagi ham, uning oxiridagi affiks ham eronchadir. So‘zni “otda ketayotgan”, “ot minib turgan” deb tarjima qilish mumkin. Har ikkala holda ham atoqli ot bo‘lib xum egasi va unga qarashli otni ifodalaydi [4].

Afsuski, 712-yilda Markaziy Osiyoga bostirib kirgan Qutayba boshchiligidagi arab bosqinchilari xorazm yozuvini va unda bitilgan bebaho qiymatga ega bo‘lgan eng nodir kitoblarni yo‘q qilib yuborgan.

Bu haqda buyuk vatandoshimiz A. R. Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida bunday deb yozgan edi: “Qutayba Xorazm madaniyatini, san’atini yerga ko‘mdi. Xorazm xatini yaxshi biladigan, xabar va rivoyatlarni o‘rgangan va o‘z bilimini boshqaga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi. Shuning uchun ham islom davridan keyin haqiqatni bilmaydigan darajada bo‘lib qoldi. Keyin Qutayba xorazmliklarning kitoblarini yo‘q qilib, bilimdonlarini o‘ldirib, kitoblarini kuydirganligi sababli ular bu yozuvni unutib yubordilar va faqat yodlash quvvatiga suyanadigan bo‘ldilar” [8].

Xorazm tili va yozuvini o‘rganish ishiga A. A. Freyman, I. M. Oranskiy, Z. Xerstfel, S. L. Volin, V. Livshits, M. Is‘hoqov kabi olimlar kata hissa qo‘shganlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xorazmda qadimiy yozuv tamaddunlaridan biri bo‘lganligini qal’alarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida topilgan ashyolar isbotlaydi. Ammo hozirlikcha xorazm yozuvi yetarli darajada o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Shu sababli qadimshunos va tilshunos olimlarni hamkorlikdagi xorazm tili va yozuvi uning noyob yodgorliklarini o‘rganish borasidagi tadqiqotlarini davom ettirish, o‘tmish sirlarini ochish va qadriyatlarimizni tiklash kabi yuksak vazifalar kutmoqda. Biz bu orqali tariximiz oldida turgan dolzarb muammolarni yechishimiz, xalqimizning uzoq yillik tarixini chuqurroq bilib olishga va o‘zligimizni yanada teran anglashga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 1999. -B. 202
2. Jabborov I. O'zbeklar:turmush tarzi va madaniyati. -Toshkent: "O'qituvchi", 2003. -B. 141
3. Xorazm tarixi. 1-jild. -Urganch. 1996. -B. 65
4. Masharipov O. , Masharipov A. Xorazm tarixiga bir nigoh. - Urganch: "Xorazm", 2011. - B. 96
5. Xorazm tarixi. 1-jild. -Urganch, 1996. -B. 61
6. Описание действий Туркестанского отряда в хиаинской экспедиции 1873. Ташкент, 1882 – С. 19
7. Туркестанский ведомости. 1873 й. 23 июнь. № 23
8. A. R. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent, 1963, - B. 72

Kishin Xajiboyev,

o'qituvchi,

Urganch innovatsion universiteti.

kishinxajiboyev@gmail.com

“DARYOSINI YO‘QOTGAN QIRG‘OQ” ROMANIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING BADIY TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida Amudaryo suvining to‘silishi, to‘rtta katta suv ombori qurilishi va buning ayanchli oqibatlariga munosabat ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Аннотация. В статье анализируется социально-философский аспект строительства четырех крупных водохранилищ и перекрытия вод Амударьи, а также трагические последствия этих действий в романе Эркина Самандара “Берег, потерявший свою реку”.

Abstract. In the article have been analyzed from a socio-philosophical point of view the damming of the Amudarya water, the construction of four large reservoirs and the sad consequences of this in the novel “The Shore That lost its River” by Erkin Samandar.

Kirish so‘zlar: tabiat, inson, to‘g‘on, Amudaryo, Jayhun, Qirtepa, Mazdubat.

Ключевые слова: природа, человек, дамба, Амударья, Джейхун, Киртепа, Маздубат.

Key words: nature, man, dam, Amudarya, Jayhun, Qirtepa, Mazdubat.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida 70-80-yillar alohida o‘rin tutadi. 1956-1957-yillarda shaxsga sig‘inish illati keskin qoralandi. Natijada mamlakatda Stalin qatag‘oni davrida adolatsizlik va haqsizlikka uchragan adabiyot namoyandalari nomi oqlandi. Adabiyotshunos S. Mirzayev fikricha: “Bu davrda xalqning siyosiy faolligi ma‘lum darajada o‘ydi. Shu bilan birga, bu davrda markazning aybi bilan ijtimoiy hayotda dabdababozlik, ko‘zbo‘yamachilik, ikkiyuzlamachilik singari illatlarga yo‘l qo‘yildi. Binobarin, bu davrda taraqqiyot silliq kechmadi. Dapsinish va turg‘unlik yillari ham bo‘ldi. Ana shunga ko‘ra bu davrni katta o‘zgarishlar, o‘tmish xatolarini tuzatish va ba‘zi yangi xatolarga yo‘l qo‘yish davri deb atash mumkin”.

Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani, “Tangri qudug‘i” romani, “Pahlavon Mahmud Piryorvaliy” kabi qissalari ham o‘zbek badiiy nasrida o‘ziga xos yangilik bo‘ldi. Chunki “. . . bu kabi asarlar iztirob ichida tug‘ilgan deydi muallifning o‘zi. Muallif qalbidagi iztirob Vatanni sevish, uning bir qarich yerini ham avaylash, buyuk bobokalonlarimiz ruhiga hurmat, boy ma‘naviy va madaniy merosimizni asrash kabi muqaddas ishlarning mehsiz, mol-dunyoga berilgan, obro‘parast odamlar tomonidan poymol qilinayotganligi sabablidir. Zero, haqiqiy ijodkor xalq dardi bilan yashaydi. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanidagi voqealar fikrimizni tasdiqlaydi. Romanda qalamga olingan ekologik muammo yechimini kutayotgan

dolzarb muammolardan biri edi. Ehtimol, bu muammoni shu davrda ijod qilayotgan boshqa ijodkorlar ham yoritishni istagandir, lekin bu masalani ommaga olib chiqish oson ish emas edi. Chunki vatanimizni mustamlakada ushlab turgan sho'ro hukumati endi Markaziy Osiyo davlatlarining boyligiga ko'z tikkan edi. Paxta masalasi hali hech kimning yodidan chiqqan emas. "Boshqa Sovet Sotsialistik Respublikalari qatori O'zbekiston ham Sovet Ittifoqining asosiy paxta manbayiga aylandi. 1970-yillarning boshlariga kelib O'zbekiston SSRda deyarli barcha ekin maydonlari paxtachilikda foydalanish uchun o'zlashtirildi". "Natijalar halokatli bo'ldi. Pestitsidlar va zaharli o'g'itlardan keng foydalanish hamda almashlab ekishdan voz kechish atrof-muhit uchun halokatli oqibatlariga olib keldi. G'ozaning o'sishini yaxshilash maqsadida suvning isrof qilinishi Orol dengizining qurib qolishiga sabab bo'lib, bu esa mintaqadagi ekologik vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Shunga qaramay, paxta yetishtirish darajasi oshmadi. Qo'shib yozish yoki besh yillik rejalar natijalarini sun'iy ravishda oshirish natijasida millionlab dollar mablag'lar yo'qotildi. Statistik ma'lumotlarning ishonchsizligi esa iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga to'sinlik qildi".

Romanda tasvirlangan O'zbekistondagi mineral resurs Mazdubat tuz koni Qorayantoqliklarning rizq-nasibasi edi. Shu rizq-ro'zdan nasibalari uzilishini bilgan Qorayantoqliklar g'or oldida yig'ildilar. Aminovning buyrug'i bilan g'orning og'zini betonlashga kelgan quruvchilarning oldiga peshvoz chiqdilar. Betonlash tuz koni va g'orni saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotgan qurilish injeneri Ganjaning uchastkasiga topshirildi. Bunga toqat qilolmagan Ganja bu ishdan bosh tortdi. Ganja o'zi Aminovga "Bu yerlarga bitta suv ombori yetadi, 4 ta bahaybat suv ombori nimaga kerak? Bu tabiatga jiddiy zarar yetkazadi. Amudaryoni bo'g'ish juda xavfli" degan so'zlari va bu borada tuzgan loyihalari uchun yoqmay yurgan edi. Fursatni qochirmasdan Aminov Ganjani ishdan bo'shatdi. Bu ham yetmagandek, keyinroq uni qamatib ham yubordi.

Asarda tuz konini saqlab qolish uchun harakat qilgan Ganja, Buva va u boshchiligidagi qariyalar, mahalla faollari Aminov, mayor Rahmonov, Nazarov kabi qo'g'irchoq rahbarlar tomonidan izza qilinadi. Buvaning "Tuz koni muqaddas joy, uni bosqilash, vayron etish mumkin emas. Shunday mo'jizani yo'qotishga qo'llaring qanday boradi? Yuraklaring qanday betlaydi?" (G'Q, 71) degan so'zlariga parvo ham qilmaydi. Yana bir tabiat ne'mati, Qorayantoqliklarning muqaddas joyi yo'q qilinadi. Nima emish, bu suv omborlari evaziga Duldulsoyni shaharga aylantirar emish. Gidrouzel ham qurib, barcha hududlarga elektr tarqatar emish, paxta, sholi ekar, maktab, bog'cha, shifoxonalar qurar emish.

Damba qurish maqsadida tuz g'orining og'zini betonlab qo'yish, bu xalqning rizqini qiyish bilan birga, tabiatga ham jiddiy zarar ekanligi Ganja bilan Buvani rosa o'ylantirar edi. Nahotki, shunday qudratli Amudaryoning yo'lini to'sib, ko'zlangan yerga boshqarish mumkin bo'lsa? Bu shunchalik osonmi? Eh, bechora daryo? Insonlar o'zi shunaqa, tabiatni ona deydi-yu, biroz aqlli, kuchli bo'lib olishgach, unga xiyonat qiladi, hatto o'ldiradi.

Romanda Orol dengizining qurib qolishida Tuyamo'yinda Amudaryo suvining to'silib, bahaybat to'g'onlarning va suv omborlarining qurilishi, natijada, bu yerdagi Kiyikto'qay, Bog'iston, Otaqo'rg'on, Mazdubat tuz koni kabi joylarning suv tagida qolishi, yer osti suvi yuzaga ko'tarilib, yerlarni suv bosishi, bog'-rog'larning qurib qolishi kabi muammolar obrazli yoritiladi, bu yo'lda Mazdubat tuz koni va Nayson buva yodgorligining yo'q qilinishi, Qirtepaning portlatilishi kabi masalalar konseptual o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, E. Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida inson va tabiat muammosi Amudaryo suvi evaziga olti milliard kub suv sig'adigan 4 ta suv ombori qurish sababli Orol dengizining qurishi tasviri jarayonida namoyon bo'ladi. Ganjaning bu baloga qarshi kurashib o'tkazgan umri, qilgan mehnatlari yozuvchi tomonidan video tasvirga tushirilgandek badiiy ifoda etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 66.
2. Erkin Samandar. G'ayb qushlari. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 356
3. Blacmon, Pamela. In the Shadow of Russia: Reform in Kazakhstan and Uzbekistan (inglizcha). East Lansing, Michigan, United States: Michigan State University Press, 2011.

4. Robinson, Alan G. ; Sam (1997). Corporate Creativity. San Francisco: Berrett-Kochler Publishers, Inc. p. 99.
5. Расулова У. “XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари)”. Филол. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 22.

*Dilnoza Artiqova,
O'zbekiston davlat xoreografiya
Akademiyasi xoreografiya fakulteti sirtqi
bo'lim 5-kurs talabasi,
“Nihol” Davlat mukofoti sovrindori*

XORAZM “LAZGI” TURKUMINING BADIY – ESTETIK TAMOYILLARI

Annotasiya: Mazkur maqolada Xorazm “Lazgi” turkumining badiiy – estetik tamoyillari “Masxaraboz Lazgisi” raqsi misolida tadqiq qilinadi.

Kalit soʻzlar: oʻyin, tovush, taqlid, raqs, olov, qadriyat, Xorazm, anʼana, tamoyil, quyosh, qalʼa, qadimiyat.

Аннотация: В данной статье художественно-эстетические принципы хорезмской группы «Лазги» изучаются на примере танца «Масхарабоз Лазгиси».

Ключевые слова: игра, звук, подражание, игра, танец, огонь, значение, Хорезм, традиция, принцип, солнце, замок, древность.

Abstract: In this article, the artistic and aesthetic principles of the Khorezm "Lazgi" group are studied on the example of the "Maskharaboz Lazgisi" dance.

Key words: game, sound, imitation, game, dance, fire, value, Khorezm, tradition, principle, sun, castle, antiquity.

Milliy raqs sanʼati bilan bogʻliq qadimiy anʼanalarimizni saqlab qolish va xalqimizning maʼnaviy tiklanishiga zamin yaratish yoʻlida mamlakatimizda olamshumul islohotlar amalga oshirilmoqda. “Lazgi” qadim tamaddun markazlaridan biri boʻlmish Xorazm hududida vujudga kelgan. Uni turli davrlarda erkak va ayollar tomonidan yakka va guruh tarzida ijro etib kelinayotgan raqs sifatida oʻziga xos estetik-maʼrifiy xususiyatlarini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy raqslarimizning tizimli taʼlimi va keng miqyosda targʻib qilinishi dunyoga hayrat koʻzi bilan boqadigan yoshlarimizning tafakkuri va zehni yanada charxlab, ularning yangi Oʻzbekistonning haqiqiy sanʼatini jahonga tanitishlarida oʻziga xos omil vazifasini oʻtaydi. Sanʼatshunoslarning fikricha, “Har bir milliy raqs oʻzi mansub xalqning milliy xususiyatlarini aks ettiradi va xalq musiqasi hamda qoʻshiqlari bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Milliy raqs – xalq tomonidan yaratiladi va uning madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi”.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy raqs sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorida “Koʻp asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi boʻlgan milliy raqs sanʼatining xalqimiz maʼnaviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va anʼanalarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi oʻrni va ahamiyati tobora ortib bormoqda”, deyiladi. Mustaqil taraqqiyot yoʻlini tanlagan har bir millat uchun madaniy meros va milliy qadriyatlarni asrash eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir. Har bir millat oʻz kelajagiga nazar tashlar ekan, eng avvalo, oʻzining oʻtmishi, tafakkur salohiyatini chamalab koʻrishi zarur.

Professor I. Jabborovning fikricha, “Arxeologlar tadqiq etgan turli antik davr obidalardagi oʻyma va rangli rasmlarda surnay, nay, nogʻora, har xil torli asboblari va turli niqoblar tasvirlangan”. Niqoblar oʻz-oʻzidan “Masxaraboz Lazgisi”ning yaratilish va shakllanish bosqichlari bilan bogʻliq. Maʼlumki, mifologiya turli dinlar bilan qorishib egizak boʻlib ketgan. Chunki xalq asarlarida qadimiy tasavvurlar, tushunchalar koʻproq diniy koʻrinishda uchraydi. Ularni tahlil qilish uchun din tarixini muayyan tarzda bilish talab etiladi.

Ibtidoiy odamlar tabiat injiqliklariga qarshi kurashib, o'z hayotlarini saqlab qolish maqsadida, issiqqa, sovuqqa bardosh berib bir amallab tirikchiliklarini o'tkazganlar. Kundalik hayot qiyinchiliklarini yengib chiqish yo'lida chekkan azob-uqubatlarini so'z orqali, so'z yetishmay qolganda, tana harakatlari orqali urug'doshlariga tushuntirib berganlar. Ularning tirikchilik manbalaridan biri ovchilik bo'lgan. Ov yalpi o'tkazilar, hamma birga ishlar, birga kurashar edi. Ov unumli bo'lishi uchun odamlar turli marosim, usul va hiylalardan foydalanganlar. Ibtidoiy odamlar ov vaqtida ba'zan har xil yovvoyi hayvonlarning terisiga niqoblanib ularga yaqinlashar va qo'lga tushirar edilar. Bu nihoyatda nozik va murakkab ish bo'lib, ovchidan katta mehnatni talab qilar edi. Hayvon yoki qushlarga aynan taqlid qilish uchun ularning yurish-turishlarini, qochishlarini, o'tlashlarini, bir-biri bilan olishishlarini ham o'rganishga to'g'ri kelardi. Yovvoyi hayvonlarni ov qilish sharoitida odam chaqqon, abjir, jasur va tolmas bo'lishi, buning uchun u doim tinimsiz mashq olib borishi kerak bo'lgan.

Bular hammasi o'z navbatida ibtidoiy odamda jismoniy ritmik harakatning hayvonlar fe'li tabiat hodisalariga taqlid qiluvchi pantomimik harakat va o'yinlarning, qahramonlik raqslarining tug'ilishiga olib kelgan edi. Ovchilik o'yinlari ovdan qaytgandan so'ng ham o'ynalgan. Kun bo'yi ov qilib charchab qaytgach, kechqurunlari o'z a'zoyi badanlariga dam berish, tabiiy ehtiyojlarini qondirish, ritmik, pantomimik harakatlar bilan ov taassurotlarini ifodalashgan. Bunday o'yin istalgan vaqtda har doim bir taxlitda qaytarilaverar, hayvon o'rnida odam o'ynardi. Ibtidoiy jamiyatning navbatdagi rivojida tug'ilgan totemistik, animistik diniy e'tiqod marosimlari raqs san'atining paydo bo'lishida, ilk elementlarining tug'ilishida ma'lum darajada rol o'ynaydi.

Ovchilik o'yini, totemizm diniy marosimlari kishilik jamiyati tarixining navbatdagi bosqichida o'zining diniy ahamiyatini yo'qotib, faqat tomosha sifatidagi funksiyasini saqlab qolgan. Bunga ko'p ma'lumotlar guvohlik beradi. Qadimiy Xorazmda hayvonlar niqobida o'ynaladigan o'yinlar, hayvonlarga taqlid qiluvchi, tabiatga totemizm, animizmga e'tiqod marosimlariga taqlid qiluvchi pantomimik raqslar ayrim o'zgarishlar va yangi tematikalar bilan kishilik taraqqiyotining yuqori bosqichlaridan bizning davrimizgacha o'ynalib kelinganini ko'ramiz. Ovchilik raqslari avvallari shovqin-suron bilan olib borilgan bo'lsa, keyinchalik o'yinga turli musiqaviy ohang va tovushlar jo'r bo'lgan. Bu tomoshalarda jamoa a'zolarining hammasi qatnashgan.

Akademik S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi tomonidan Jonbosqal'a yaqinidagi qadimgi Kaltaminor qishlog'ida er. avv. IV – III ming yilliklarda ona urug'i yashagan katta uyda urf-odatlar bajaradigan, marosimiy raqslarga tushadigan maydon sahnasi bo'lganligi Tuproqqal'ada (er. avv. I asrda va eramizning IV asriga oid) arfa chaluvchi qiz rasmi, o'yinga tushuvchilar tasviri aks etgan zalning topilishi fikrimizning yaqqol dalilidir (Qo'yqirilgan qal'a yaqinidan topilgan niqob er. avv. IV – III asr). Tuproqqal'adan eramizning III asriga oid masxaraboz niqobi, arfa chaluvchi ayol rasmi, qum soat shaklidagi qo'sh nog'ora, do'mbiraga o'xshash ikki torli cholg'u asbobi, fragment raqsga tushuvchilar zali va boshqa rasmlar bilan bezatilgan zal va xonalarning topilishi, quldorlik ijtimoiy-iqtisodiy jamiyati davrida Xorazmda madaniyat taraqqiy etilganligidan dalolat beradi.

Tarix fanining otasi Gerodotning fikrlarini yana qayta tilga olamiz: "Amudaryo bo'yida yashovchi massagetlar kechalari gulxan yoqib, shu olov atrofida aylanib to tong otgunga qadar, olov o'chguncha raqsga tushganlar". Albatta, bu "Lazgi" raqsini eslatadi. Chunki bu raqsda har bir ijrochi o'z imkonidan kelib chiqib charchaganiga qaramay o'yinga tushadi. Tizza bilan yuradi, yotib o'ynaydi, holdan toyguncha raqsga tushadi. Ruhiiy holatiga qarab o'ynayveradi-o'ynayveradi. Mash'ala yoki olovbozi o'yinini o'ynash uchun xorazmlik mashhur masxaraboz Xudoybergan Avazov og'ziga charmdan bo'lgan terini qo'ygan, cho'g' bo'lib yonayotgan ko'mirni og'ziga solib nafas olgan sayin og'zidan olov purkagan. Shundan keyin bu pantomimik harakatlar, afsonaviy ajdarhoning og'zidan olov purkaganiga o'xshagan. Shuning uchun ham san'atshunos T. Obidov bu olov raqsi misolida Xorazm masxarabozlik raqsini, san'atini ming yillik otashparastlik odatlari taraqqiyot yo'lidagi tarixiy jarayonini kuzatish mumkin deb yozadi.

Olov raqsi Xorazm ibtidoiy tuzumida paydo bo'lib, an'anaviy san'at sifatida shu kungacha yetib kelgan. U mash'ala o'yini ham deyilgan, hamda qo'y, echki terisidan yasalgan, faqat ko'zlari

ko‘rinib, yuzni yashirib turuvchi niqoblar kiyib o‘ynash hozirgacha Xorazm masxarabozlari tomonidan o‘ynaladi. Qadimda masxarabozlar tomonidan “Ayiq o‘yini”, “Dev o‘yini”, “Maymun o‘yini”, “Ot o‘yini” o‘ynalib kelingani va bu o‘yinlar ko‘pincha niqob kiyib o‘ynalgani aniqlangan. Hozirgi davrda ham ijro etib kelinayotgan “Qum pishak o‘yini”, “Chorloq o‘yini”, “Yumronqoziq o‘yini”, “Echki o‘yini”, “Qirg‘ovul o‘yini” juda qadimiy bo‘lib, ularni masxarabozlar musiqa va ashula jo‘rligida taqlid qilayotgan hayvonlarning xususiyatlarini katta mahorat bilan tasvirlab bera oladilar.

G. Matyoqubova Xorazm masxarabozlik san‘atidagi raqslarni 3 turga bo‘ladi:

1. Murakkab yo‘sinda epchillik bilan o‘tirib, o‘mbaloq oshib bajariladigan raqslar: “Kosa o‘yini”, “Tayoq o‘yini”, “Pichoq o‘yini”, “Tog‘ora o‘yini”, “Likob o‘yini”.

2. Hayvonlarga, qushlarga taqlid qilib pantomimik harakatlarda ijro etiladigan raqslar: “Qum pishak”, “Ot o‘yini”, “Chag‘alloq”, “Yumronqoziq”, “Xo‘roz”, “Kaptar”, “G‘oz” o‘yinlari.

3. Maishiy turmush bilan bog‘liq pantomimik raqslar: “Sipsa o‘yini”, “Cho‘girma o‘yini”, “Qimorboz o‘yini”, “Non yopish”, “Kelin tug‘di” o‘yinlari. Ular ibtidoiy davrdan bizgacha yetib kelgan.

Masxarabozlik o‘yinlari “Lazgi” turkumida ham namoyon bo‘ladi. Natijada, “Masxaraboz Lazgisi” vujudga kelgan. “Masxaraboz Lazgisi”ning mazmuni asosan taqlidchilik bo‘lgan. “Masxaraboz Lazgisi” yomon odamga, biror qush, hayvonga, ularning tashqi ko‘rinishlariga va xususiyatiga taqlidan o‘ynaladi.

Xulosa qilib aytganda, “Masxaraboz Lazgisi” ibtidoiy davrda paydo bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, rivojlangan. Zamonlar o‘zgarishi, yangi sinflarning maydonga kelishi davlatlarning paydo bo‘lishi, shaharlarning ko‘payishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi, turli yangi miqlar, diniy aqidalarning, mafkuralarning tug‘ilishi o‘sha davr marosimlariga, xalq o‘yinlariga, raqs va musiqasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Yangi mavzular, yangi obrazlar, yangi raqs harakatlari, yangi musiqalar olib kelgan va uni murakkablashtirgan. Natijada, yangi tomosha uslublari, yil fasllariga, hosil ko‘paytirishga, harbiy g‘alabalarni nishonlashga bag‘ishlangan bayramlarda keng mazmunli masxaraboz raqslari ravnaq topgan. “Masxaraboz Lazgisi” kabi raqslarimizning tizimli ta‘limi va yanada kengroq miqyosda targ‘ib qilinishi bugunning dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san‘ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 4-fevral, 2020-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Arxeologicheskoye i etnograficheskoye raboti Xorezmskoy ekspeditsii 1045 – 1948. Moskva: izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1952.
4. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T. : “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994.
5. Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. Birinchi kitob. T. : 2001.
6. Muhammad Sharif B. Men ketarman ishqning yo‘lina. T. : “EXTREMUM PRESS”, 2017.
7. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997.
8. Qilichev T. Xalq raqslari va ommaviy o‘yinlari. Tanlangan asarlar. – Urganch: “Xorazm”, 2020.
9. Matyoqubova G. Toxtasimov Sh. Hamroyeva H. “Xorazm Lazgi raqsi” tarixi va tavsifi. – Toshkent, 2022.
10. Matyoqubova G. “Lazgi” raqsi: tarixi va tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023.

XIV–XV ASRLARDA XALQARO SAVDO TIZIMIDA XORAZM

Annotatsiya. Mazkur maqolada oʻrta asrlarda xalqaro savdo tizimida muhim ahamiyatga ega boʻlgan savdo yoʻllari va unda Xorazm shaharlarining roli masalalari bayon qilingan.

Kalit soʻzlar. Xorazm, Yevropa, Buyuk ipak yoʻli, savdo yoʻllari, savdo markazlari.

Аннотация. В данной статье описаны важные торговые пути в международной торговой системе в средние века и роль в ней хорезмийских городов.

Ключевые слова. Хорезм, Европа, Великий Шелковый путь, торговые пути, торговые центры.

Abstract. This article describes important trade routes in the international trade system in the Middle Ages and the role of Khorezm cities in it.

Keywords. Khorezm, Europe, the Great Silk Road, trade routes, trade centers.

Miloddan avvalgi VI asr va milodiy XIX asrlar oraligʻida Xorazm oʻzining iqtisodiy, siyosiy, madaniy yuksalish jarayonida Markaziy Osiyo mintaqasida oʻziga xos oʻrin egallagan oʻlka sifatida tanildi. Chunki Xorazm xududida qadimgi “Dasht yoʻli” va “Buyuk Ipak yoʻli”ning shimoliy-gʻarbiy tarmogʻi, mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan qadimgi Baqtriya va Xorazm, Soʻgʻdiyona va Xorazm savdo yoʻllari orqali Eron va Hindistonga oʻtadigan janubiy savdo yoʻllari kesishardi. Xorazm bu yoʻllarning chorrahasida joylashgan boʻlib, bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va meʼmorlar tashrif buyurganlar. Natijada Buyuk Ipak Yoʻli boʻylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari boʻlib oʻtdi. Buyuk Ipak Yoʻli faqat karvon yoʻli boʻlibgina qolmasdan, Yevro Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida oʻchmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil boʻlib xizmat qilgan yoʻl ham edi.

Savdo munosabatlarining taraqqiyoti Xorazmni Buyuk Ipak yoʻlining Markaziy tarmoqlari kesishgan markazlardan biriga aylanishiga, turli sohalarga ixtisoslashgan ayniqsa, savdo munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlgan savdo markazlarining vujudga kelishiga olib kelgan.

Butun Sharq shaharlari ierarxik tuzilishidagi muayyan shaharlarning tutgan oʻrni, koʻp hollarda, uning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyati va karvon yoʻllari bilan aloqasi, savdo munosabatlariga qanday tortilganligi bilan belgilangan. Xullas, aynan shu sabablarga koʻra, Xorazm savdo markazlari toʻgʻrisidagi turli-tuman maʼlumotlar IX asrdayoq paydo boʻla boshlagan edi. Shaharlarning taraqqiy qilishida savdoning ahamiyatini sharq geograflari, tarixchi va sayyohlari ham tushunib yetganlarki, Xorazm shaharlari tavsifnomasida, albatta, bozorlar, karvonsaroylar, atrofida qanday karvon yoʻllari oʻtganligi haqida qayd qilib oʻtganlar.

Xorazm savdo markazlarining iqtisodiy ahvolini, Sharq-u Gʻarb savdosida tutgan oʻrnini yorituvchi manbalar haqida soʻz yuritishdan oldin ularni bir necha davrlarga boʻlgan holda koʻrib chiqish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz.

Xususan,

1. IX–XIII asr boshlari (moʻgʻul istilosigacha) arab-fors manbalari.
2. XIII–XVI asrlar arab-fors va yevropa manbalari.
3. XVI–XVIII asrlar fors va eski oʻzbek tilidagi manbalar.
4. XIX asr rus sayyohlari va tadqiqotchilari maʼlumotlari.

Oʻz asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar asarlari jumlasiga Ibn Rustaning «Kitob al-aluq an-nafisa» Al-Yaʼqubiyning («Kitob al-buldon» (“Mamlakatlar haqida kitob”), Abubakr al-Balazuriyning “Kitob futuh al-buldon” (Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob), Ibn Xordabexning “Kitob masalik ul-mamolik” (“Yoʻllar va mamlakatlar haqida kitob”), Tabariyning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (“Paygʻambarlar, podsholar tarixi”), Ibn Fadlanning “Risola”, Abu Rayxon Beruniyning “Osor ul-boqiya al-qurun holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) va “Geodeziya” asari. Al-Istaxriyning “Kitob masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yoʻllar haqida kitob”), Al-Mukaddasiy (Makdisiy)ning “Ahsan-at-taqosim fi maʼrifat al-akolim” (“Iklimlarni oʻrganish uchun eng yaxshi qoʻllanma”), Ibn Havkalning “Kitob ul-masolik va-l-mamalik” (“Yoʻllar va mamlakatlar haqida kitob”), asarlari

kiradiki, bu asarlar Xorazm savdo markazlari haqida ma'lumot beruvchi birinchi darajali va tengi yo'q manbalar hisoblanadi. Bular ichida Istaxriy va Muqaddasiy asarlari ayniqsa ajralib turadi. Chunki ular asarlarida Xorazm savdo markazlarining tavsifi, Xorazm iqtisodiy geografiyasi, shaharlar va qishloqlarning savdo munosabatlari, bozorlari va karvon-saroylariga katta e'tibor berilgan.

Al-Istaxriyning "Kitob masolik ul-mamolik" asari Markaziy Osiyo tabiiy geografiyasi va hududi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'z ichiga olibgina qolmasdan, unda tabiiy iqlim sharoitlari masalalariga ham to'xtalangan.

Arab tilidagi manbalar qatoriga yana As-Saolibiyning "Latoif ul-maorif" ("Ajoyib ma'lumotlar"), Ibn al-Asirning "Al-Komil fit-tarix" ("Mukammal tarix"), as-Sam'oniyning "Kitob al-arsob" ("Mashhur kishilar haqida kitob"), Yoqut al-Hamaviyning "Mu'tam al-buldon" ("Mamlakatlar ro'yxati") asarlari kirib, ularda Xorazmning XI–XIII asrlardagi savdo munosabatlari to'g'risida bir talay ma'lumotlar mavjudligini ta'kidlash kerak. Ular ichida Yoqut Hamaviyning asari qimmatli faktik ma'lumotlarga boyligi bilan boshqa geografik asarlardan ajralib turadi. Eng muhimi uning asari boshqa manbalarga nisbatan chalkashliklardan biroz holi bo'lib undagi ko'pgina ma'lumotlar aniq berilgan. IX–XIII asrlar fors tilida yozilgan manbalar ustida to'xtaladigan bo'lsa, ular ichida eng qimmatlisi va muhimlari – noma'lum muallif tomonidan yozilgan. «Hudud al-olam» asari, Mahmud Gardiziyning "Zayn ul-axbor" ("Tarixlar bezagi") asari, hamda Abulfazl Bayhakiyning "Tarixi Mas'udiy" asarlari hisoblanadi. Bu asarlarda Xorazm savdo markazlariga ta'rif berib o'tilishi bilan birga, Xorazmning qo'shni o'lkalar va ko'chmanchi aholi bilan bo'ladigan savdo-sotiq munosabatlari hamda shu aloqalar amalga oshirilgan karvon yo'llari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

«Hudud al-olam» asari Movarounnahrning X asrdagi tabiati, aholisi, etnik tarkibi, shaharlari, iqtisodiyoti haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. As-Saolibiyning "Latoif ul-maorif" ("Ajoyib ma'lumotlar") asarida Sharq xalqlarining X asrgacha bo'lgan tarixi, madaniyati, etnografiyasiga doir qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Umuman, IX–XIII asrlar manbalarining deyarli barchasida Xorazm nafaqat Movarounnahr balki butun Musulmon Sharqining eng taraqqiy qilgan, shaharlari ko'p, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik gullab-yashnagan, va bu bilan bog'liq ravishda savdo munosabatlari juda rivojlangan hududlardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ammo bu iqtisodiy va madaniy yuksalish mo'g'ul bosqini munosabati bilan biroz to'xtab qolgan. Biroz vaqtgacha Xorazm shaharlari vayrona ichida qolgan. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, mo'g'ul bosqini ham juda qadimdan shakllanib, rivojlanib kelayotgan Xorazm shahar madaniyati taraqqiyotini butunlay to'xtatib qo'ya olmadi.

Xorazm vohasi mehnatkashlarining yaratuvchanlik mehnati tez orada, iqtisod va madaniyat bilan bir qatorda, Xorazm savdo markazlarining, ayniqsa, uning Oltin O'rda davlati tarkibiga kirgan qismi (mo'g'ul bosqinidan so'ng Xorazm Oltin O'rdaga kiruvchi Shimoliy Xorazm va Chig'atoy ulusiga kiruvchi Janubiy Xorazmga bo'lingan edi) shaharlarning o'z qaddini tiklab olishga olib keldi.

Keyingi o'rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm savdo shaharlari, ayniqsa, Urganch yana o'z davrining eng yirik savdo markazlari sifatida, Xorazm (ko'proq Shimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqeyi baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Ammo mo'g'ul istilosidan keyin to' Xiva xoni Abulg'oziygacha yozilgan yozma manbalar juda kamligi va borlarida ham ushbu muammo bir taraflama yoritilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, bu manbalarda ba'zi qarama-qarshi olimlar o'rtasida Xorazmning XV asrgacha bo'lgan davrda savdo shaharlarining mavqeyi, holati to'g'risida muayyan ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi.

Mo'g'ul bosqinidan keyingi Xorazm to'g'risida endi Yevropa manbalarida ham ma'lumotlar mavjud XIII–XIV asrlar davomida turli sabablarga ko'ra Xorazmda bo'lgan yevropalik sayyohlar Plano Karpini (1246-yilda kelgan), aka-uka Pololar (1260-yilda kelgan), italyan savdogari Franchesko Balducci Pegoletti (1340-yilda kelgan) asarlarida Xorazm shaharlari, ayniqsa, Urganch to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Yevropalik sayyoh Marko Polo (1254–1324) 1271–1275-yillarda Mo‘g‘uliston va Xonbaliq (Xitoy)qa sayohat qilgan. U 17 yil davomida Xitoyning ko‘p viloyatlarini borib ko‘rgan. U Samarqandda ham bo‘lgan va bu haqda mana bu ma‘lumotlarni qoldirgan: «Samarqand katta, mashhur shahar. Unda sarasinlar bilan xristianlar ham istiqomat qiladilar». Marko Poloning kitobida Oltin O‘rda va Chig‘atoy ulusiga qarashli shaharlar, ularning xalqi haqida ham qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Uning asari 1298-yili yozilgan va bir qancha Yevropa tillariga tarjima qilingan. Asarning ruscha nashri dastlab 1955-yilda va keying nashri 1990-yillarda amalga oshirilgan.

1333-yilda Xorazmga markazlashgan arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning “Tuhfat an-nuzzar fi g‘aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar” (“G‘aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa”) asarida Xorazm savdo shaharlari to‘g‘risida ba‘zi ma‘lumotlar uchraydi.

XIV asr oxiri – XV asr tarixchilari ichida Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi axbori Temur” (“Temur sarguzashtlarida taqdir mo‘jizalari”) asari iqtisod, savdo-sotiq va shaharning boshqa ko‘pgina jihatlarini yorituvchi ma‘lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Muallif Xorazmning XIV asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tish bilan birga, Temur yurishlaridan so‘ng Shimoliy Xorazm iqtisodiyotining tushkunlikka tushganligini ham qayd qilib o‘tgan.

Yuqoridagi Yevropa va arab manbalarining barchasida Xorazm savdo shaharlarining, ayniqsa, Urganchning o‘sha davrda rivojlangan eng yirik va boy shaharlardan bo‘lganligi ta‘kidlangan. Shu bilan birga ulardagi ma‘lumotlar shunisi bilan xarakterli va qimmatliki, mualliflarning barchasi ham o‘z davrida Xorazmda bo‘lganlar va o‘z ko‘rgan-bilganlarini yozganlar. XIII–XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi ikkinchi tur manbalar mavjudki, ular ko‘proq ikkinchi bir odamdan eshitgan yoki o‘rta asr boshqa manbalaridan olingan ma‘lumotlarga tayangan holda yozilgan.

Bunday manbalar ichida alohida qimmatga ega bo‘lganlaridan mashhur fors geografi Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning “Nuzhat-ul-qulub” (“Qalblar oromi”) asari, Shahobiddin al-Umariyning “Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar” (“Turli mamlakatlar davlatlari bo‘ylab o‘tgan yo‘llar”) asari, al-Bakuviyning (XIV–XV asrlar) “Kitob talxis al-asar va ajoyib al-malik al-qahhor” (“Buyuk podshoning mo‘jizalari va yodgorliklari haqidagi kitobning qisqartmasi”) nomli asarlaridir. Chunki Hamdulloh Qazviniy asarida Xorazmning XIV asrdagi geografik holati, xususan, yirik shaharlari, iqtisodiyoti haqida ma‘lumotlar keltirish bilan birga, Xorazmni Eron bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari va ulardagi manzillar, masovalar to‘g‘risida ham ma‘lumotlar mavjud. Al-Umariy va al-Bakuviy asarlarida esa ko‘proq Xorazmda shaharlar, bozorlar, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, narx-navo, pul munosabatlari, umuman, shaharlar xo‘jalik hayoti to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Hamdulloh Qazviniy “Zafarnoma”, “Tarixi guzida” hamda “Nuzhat ul-qulub” nomli asarlar muallifidir. “Tarixi guzida” umumiy tarix yo‘nalishida yozilgan asar bo‘lib, unda qadim zamonlardan to 1330-yilgacha Eron va qisman, O‘rta Osiyoda bo‘lib o‘tgan voqealar bayon etilgan.

Shuningdek, Shayx al-Birzaliy, an-Nuviyriy, Ibn Xaldun kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro‘, Xondamir kabi mualliflar asarlarida ham XIV–XV asrlar Xorazm savdo shaharlari va ularning xo‘jalik hayoti haqida ma‘lumotlar uchraydi. Ammo yuqoridagi asarlar kabi bu asarlarda ham jiddiy xatolar mavjud bo‘lib, ulardan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimligini ta‘kidlash kerak.

Xorazm savdo shaharlarining geografik holati to‘g‘risida XIV–XV asrlarda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma‘lumot beradi. 1367-yilda aka-ukalar Fransisko va Domeniko Pitsiganilar xaritasida Urganch, 1375-yilgi Katalon atlasida Urganch, Mizdahqon, Xiva, XV asr Venetsiya kosmografi Fra-Mauroning 1459-yilgi xaritasida esa Urganch shaharlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu xaritalar boshqa manbalar ma‘lumotlarini to‘ldirib, bu shaharlarning o‘rmini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Mo'g'ullar va temuriylar davri Xorazm shaharlari to'g'risida Xiva xoni Abulg'ozixonning XVII asrda yozilgan "Shajarayi turk" asarida ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, unda Mizdahqon, Xiva, Hazorasp, Vazir, Bo'ldumsoz, Tirsak va Qumkend kabi shaharlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Shu bilan birga XVI asr ingliz sayyohi Antoni Jenkinson va XVII asr muallifi Mahmud ibn Valining mashhur geografik asari – "Bahr ul-asror fi manaqib ul-ahyor" ("Oliyjanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi") asarlarida. XV asr Xorazm xo'jalik hayoti va shaharlari tasvirlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, IX–XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ko'pgina arab-fors, yevropa va eski o'zbek tilidagi manbalarda ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ammo umumiy holatda ular savdo shaharlarining xo'jalik hayoti, mavqeyi to'g'risida atroflicha ma'lumotlar bera olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madraimov A. , Fuzailova G. Manbashunoslik. –T. , 2008.
2. Saidqulov T. S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixnavisligidan lavhalar. –Toshkent: "O'qituvchi". 1993.
3. Абу Мансур Ас-Саолибий. Латоиф ул-маориф. –Т. : "Фан", 1987.
4. Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. –Тошкент: "Ўлпон", 1992.
5. Истахрий. Китоб масолик ул-мамолик. -Т. : "Фан", 2019.
6. Худуд ул олам [Масъул муҳаррир Мисродик Исъҳоқов]. –Т. : "Ўзбекистон", 2007.
7. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/74>

*Zaripova Shukurjon –
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

TURK-O'ZBEK ADABIY ALOQALARI

Annotatsiya: Jahon hamjamiyatining turli xalqlar bilan adabiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari rivojlanib borayotgan bir davrda ularning adabiy yo'nalishlari, oqimlari, ijodkorlar hayotini qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, turk va o'zbek hikoyalarida tipologiyani o'rganish bugungi kunda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: aloqa, turk xalqi, hikoyachilik, o'zbek xalqi, adabiyot, ta'sir, tanqidchi, gumanistik g'oya, tamoyil, turkiyzabon.

Abstract: In a period of developing literary-political, cultural and economic relations of the world community with different peoples, the comparative study of their literary directions, currents, and the lives of creators is of great importance. Also, the study of typology in Turkish and Uzbek stories is of great importance today.

Key words: communication, Turkish people, storytelling, Uzbek people, literature, influence, critic, humanistic idea, principle, Turkic language.

Аннотация: В период развития литературно-политических, культурных и экономических связей мирового сообщества с разными народами большое значение имеет сравнительное изучение их литературных направлений, течений, жизни творцов. Также большое значение сегодня имеет изучение типологии в турецких и узбекских рассказах.

Ключевые слова: общение, турецкий народ, повествование, узбекский народ, литература, влияние, критик, гуманистическая идея, принцип, тюркский язык.

O'zbek xalqining sharq xalqlari, shu jumladan, turk xalqlari bilan adabiy aloqalari uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu aloqalar, ayniqsa, 1905-1925-yillarda ular hayotida ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida yanada rivojlana boshlagan. Sovet davri o'zbek

adabiyotshunosligida mazkur aloqalar o'zbek adabiyotiga turk adabiyotining ta'siri kommunistik mafkura tazyiqi ostida panturkizmning yorqin ko'rinishi sifatida baholanib kelinadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin XX asr o'zbek adabiyoti tarixini qayta o'rganish asnosida 1910-1920-yillardagi yangi o'zbek adabiyoti rivojida zamonaviy ilg'or turk adabiyoti va matbuotining ham muayyan ijobiy ta'siri sezilarli bo'lganligi xolis ko'rsatila boshlandi.

O'zbek xalqi qadimdan O'rta Osiyo, Volga bo'yi, Qrim va Kavkaz ortidagi qardosh xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelgan. Tarixiy nuqtayi nazar bilan o'rgansak bu xalqlar bilan aloqalar Amir Temur davrida, Xonliklar davrida, ayniqsa, rivojlangan, jadidchilik g'oyalari, adabiyot va matbuot sohasida juda katta ta'sirni ko'rishimiz mumkin. Jadidlarning deyarli ko'pchiligi xususan, M. Sh. So'fizoda, M. Behbudiy, H. H. Niyoziy, A. Fitrat kabi bir qancha turkistonlik ziyolilar sayohat va o'qish maqsadida Arabiston, Hindiston, Afg'oniston mamlakatlari kabi Turkiyada ham bo'lib, u yerlardagi yangi adabiyot va matbuot nashr qildirdilar. Misol qilib aytak, birgina Fitratning o'zi bu davrda Turkiyada o'qishi bilan birga usmonli turk, fors tillarida ham asarlar ("Munozara", "Sayyohi hind", "Sayha" kabi), ularni Istanbulda chop qildiradi. Ikki xalqning tarixi, she'riyatini chuqurroq, qiyoslab o'rgangan olim She'rali Turdiyev fikriga ko'ra, A. Avloniyning "Dunyo fojiasidan" shoiri Muhammad Hodining "Insonlarni tarix fojialari yoxud anvoyi intiboh", turk Tavfiq Fikratning "Tarixi qadim" she'rlarini qiyoslash samarali bo'lib, ularning hammasini o'rinsiz qon to'kish va jabr-sitam, haqsizlik zulmga qarshi keskin norozilik va nafrat mazlumlar holiga behad achinish va shafqat singari mushtarak insonparvarlik o'zaro birlashtirilib turishini alohida ta'kidlaydi. O'sha davrdagi ayrim turk marshlari Cho'lponning "Ozod turk bayrami" she'ri ta'sirida bo'lganligi haqida professor Naim Karimov shunday deb yozgandi: "Madhiya o'sha davrlarda Turkiston yoshlari o'rtasida ham mashhur bo'lgan "Ashta o'rdu geliyur, vatanini suyayur" satrlari bilan boshlanuvchi "O'rdu marshi" ohangida yozilgan. Kezi kelganda shuni ham qayd etish o'rinliki, inqilobiy o'zgarish yillarida o'zbek yoshlari o'rtasida xalqni safarbarlikka chorlovchi jo'shqin turk marshlari, ayniqsa, keng tarqalgan edi. Shu ma'noda Cho'lponning muxtoriyat madhiyasi uchun "o'rdu marshi" ohanglari asos qilib olgani bejiz emas. Shu o'rinda Fitratning "Yig'la islom" maqolasida olg'a surilgan mustamlakachilarga nafrat pafosi keyinchalik uning "Chin sevish" va "Hind ixtilolchilari" (1920-1921) sahna asarlarida keng va batafsil tasvirlanadi. Fitratning mazkur sahna asarlari bilan XIX asrda yashab ijod etgan mashhur turk shoiri va dramaturgi Abdulhaq Homidning Hindiston mavzusiga oid "Hind qizi"(1875) asari o'rtasida muayyan g'oyaviy bog'liqlik, hamohanglik seziladi. Ikkala ijodkor o'zlari yashagan tarixiy davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan g'oyaviy-badiiy maqsad asosida asar yaratganlar. Shu narsa muhimki, Abdulhaq Homid pyesasi XIX asrning 3-choragida Hindistonda milliy istiqloq harakati endigina boshlangan bir sharoitda yozilgan bo'lsa, XX asrning boshlariga kelib istiqloqchilik harakati Hindistonda bir muncha susaygan, ammo Turkistonda kuchaygan edi. Fitratning "Hind ixtilolchilari" va "Chin sevish" sahna asarlari esa XX asrning boshlarida yozildi. Bu davrda Fitratning g'oyaviy ta'sirida bo'lgan Cho'lpon ham xorijiy sharq xususan Turkiyada g'arb mamlakatlariga qarshi kurashlarni ifodalovchi bir qancha she'r va publitsistik maqolalar yozdi. Bilamizki, Vadud Mahmud tanqidchi olim, o'zining "Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz (1925) maqolasida o'zbek va turk aloqalari, ularning bir-biriga o'zaro ta'sirlari tarixi va bu munosabatlarning keyingi rivoji haqida to'xtalib, shunday fikrlarini aytadi: "Bizda yangi adabiyot Turkiya adabiyoti tanqidi bilan boshlang'ondir. Ruhda va shaklda Turkiston, Kafkazya, Qrim doimo Turkiyaga ergashadir. Bu ham tabiiydir. Chunki, avvaldan til mushtarakdir, so'ngra tarixiy madaniyat mushtarakdir. Navoiy asarida chig'atoy adabiyoti kuchli bo'lg'onidan Turkiya adabiyoti biznikidan kuchli, madaniy va adabiy hayotga molik bo'lg'onidan biznikilar ularga ergashmaktadir".

O'zbek-turk adabiy aloqalariga sovetlarning bunday g'oyaviy-siyosiy bosimlari keyinchalik ham uzoq davom etdi. U qayta O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan keyingina (1991-yildan) qaytadan mustaqil rivojlana boshladi. O'zbek shoir va adiblari endi dunyoning boshqa mamlakatlari ijodkorlari kabi xorijiy qardosh turk xalqlari bilan ham amin-erkin adabiy-madaniy aloqaga kirisha boshladilar, o'zaro bir-birlari bilan bordi-keldi qilib, bir-birlarining asarlarini o'z ona tillariga tarjimaetib, targ'ib qila boshladilar.

Turk-o'zbek aloqalari zamirida bir aynan turk hikoyachiligining rivojlanish, taraqqiyot bosqichlarini o'rganar ekanmiz, turk adabiyotida hikoya janrining ilk namunalari G'arb adabiyoti ta'sirida rivojlandi deyish mumkin emas. G'arb ma'nosida hikoyaning janr sifatida paydo bo'lishi romandan kechroq bo'lib, Usmonli turk adabiyotida hikoya janrining ilk namunasini aniqlashda noaniqlik mavjud. Buning sababi shundaki, roman turk adabiyotiga tarjima yo'li bilan kiritilgan bo'lsa-da, "hikoya" so'zi "doston"dagi barcha matnlarni qamrab olgani uchun o'ziga xos janr nomi bo'lgan "hikoya" maxsus nomi bilan chalkashib ketgan. Shu sababdan ham turkiy adabiyotda yozuvchilar har ikki tushunchani "hikoya" sifatida ishlatganlar [1]. Nomiq Kamol "Moslashuv" romanining so'zboshisida hikoyani yozishdan ko'zlangan maqsadlar haqida: "Shuning uchun biz ushbu badiiy asarni o'z ichiga olgan xayoliy bir hikoya bilan yashashni xohladik" deydi [2].

1796-97-yillarda Kritlik Ali Aziz afandi tomonidan yozilgan va ilk bor 1852-yilda nashr etilgan "Tasavvur" g'arb ta'sirisiz realistik hikoyatga yaqinligi nuqtayi nazaridan zamonaviy turk hikoyasining boshlanishi sanaladi [3].

Milliy adabiyot, II Konstitutsiyaviy monarxiya va respublikaning 1-yillari orasida faoliyat ko'rsatgan adabiy oqim. Bu davrda usmoniylik, turkiylik, millatchilik kabi mafkuralar natijasida xalqqa munosabat, jamiyat uchun san'at tushunchasi vujudga keldi. Bu davrning eng muhim hikoya muallifi O'mer Seyfettindir [4].

U o'zining an'anaviy til va adabiy tushunchalarni yengib o'tishga harakat qilgan munosabati bilan zamonaviy turk hikoyachiligining boshlanishida muhim ro'l o'ynaydi va turk adabiyotiga Mopassan uslubidagi hikoyatni joylashtirildi [5]. Qahramon kundalik hayot, oddiy odamlar, davlat xizmatchilari, erkak va ayol munosabatlari, shuningdek an'anaviy hayotning og'ir haqiqatlari haqida hikoyalar yozgan. Ko'pgina hikoyalarda u din niqobi ostida qilingan xatolar, xurofot va mutaassiblikning tanqid qiladi [6]. U butun umri davomida 138 hikoya va 21 qissa yozgan.

Zamonaviy turk adabiyotida realistik hikoyaning yuzaga kelishi xalq ijodiyoti teran ildizlariga borib taqaladi. Turk folklorida mavjud mif, afsona, ertak, tahkiye, xalq hikoyalari zamonaviy hikoyaning paydo bo'lishi uchun asos vazifasini bajargan. Turk adabiyotidagi xalq dostonlari, xususan, "Kitobi Dada Qo'rqu" hikoyalarning ham turk realistik hikoyachiligidagi ilk shakllanish jarayoni uchun ahamiyati katta, albatta. Olimlarning ta'kidlashicha, Turk hikoyachiligining o'ziga xos shakllanish, rivojlanish bosqichlari XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Tanzimot hodisasi turk realistik hikoyachiligi uchun muhim o'rin tutadi. Sharq va G'arb madaniyati, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarining yo'lga qo'yilishi, aholining maishiy turmushi, dunyoqarashi, psixologiyasidagi o'zgarishlar, eng faol nasriy janr – hikoyada o'zining badiiy aksini topa oldi. Turk adabiyotida "Sarvati Funun" nomini olgan davri mavjud bo'lib, bu davrda san'atning tarbiyaviy ro'li bilan bir qatorda, uning muhim va azaliy funksiyasi – o'quvchida estetik zavqni kamol toptirish oldingi planga chiqdi. Shu davrda "Genj kalamlar" ("Yosh qalamkashlar") jurnali atrofida jiplashgan yosh ijodkorlar avlodi turk hikoyachiligida yana bir samarador bosqichga asos bo'lib xizmat qildi. Ayni shu davr hikoyanavislari "Milliy adabiyot" g'oyasini rivojlantirdilar. Bilamizki, mavzu va g'oyasi mukammal, teran yaratilsa, qaysi janr bo'lishidan qat'i nazar o'zida rivojlanishni aks ettiradi. Ayniqsa, bu davrda milliylik g'oyasi bilan yo'g'rilgan hikoyalarning yaratilishida Mamduh Shavkatning hissasi benihoya kattadir. Adib o'ziga xos, betakror uslubda turk xalqi real hayot tarzini yorqin tasvirlashga erishdi. Mamduh Shavkat tashabbusi bilan Chexov hikoyalari ilk marotaba turk tiliga o'girilishi turk nosirlari uchun katta voqea bo'ldi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra 20-yillardan 30-yillargacha bo'lgan davrda Esendal yo'lida ijod qiladigan hikoyanavislar avlodi yetishib chiqdi. Ularga misol qilib Rashod Nuri Guntegin, Peyami Safo, Usmon Jamol, Fahri Jaloladdin kabi yozuvchilar ijodini aytsak bo'ladi. Davr nuqtayi nazaridan XX asrning 20-30-yillari turk adabiyotida oldin kuzatilmagan real hayotdan olingan syujetlar, "kichkina odam", "qishloq odam", "qashshoq odam", "ezilgan ayol" obrazlari paydo bo'ldi.

30- yillardan keyin Said Foiqning inson va jamiyat mavzusidagi hikoyalari tabaqalangan xalq, turli xavf-xatarlar ichra yashayotgan inson ishchi va ishboshchi, tashlandiq, begona odamlar tasviri bilan yangilik kasb etdi. O'zining novatorona ijodi bilan turk milliy hikoyachiligiga yangi

bosqichni olib kirgan Sabohiddin Ali bu davr hikoyachiligida ijtimoiy muammolarni haqqoniy talqin etib ijod qilgan. U salaflari (U. Sayfiddin, M. Esendal, S. Foiq) boshlab bergan ijtimoiy mavzuni tubdan yangiladi. 40-60-yillarda turk hikoyachiligidagi uslub haqida soʻz borganda Oʻrxun Kamol asarlari uslubini ham yoritib oʻtmoq lozim. U asarlarida quyi tabaqa vakillari turmush yoʻllarini tasvirlash va ularga nisbatan Gumanistik munosabatda boʻlishni targʻib etadi. Yana bir betakror uslub egasi, halikarnas Baliqchisi taxallusi ostida ijod etgan Muso Javat Shakir Qabogʻ ochli turk hikoyachiligiga dengiz va dengizchilar hayoti mavzusini olib kirdi. Aziz Nesin ijodi xalq kulgisi bilan ijtimoiy tragizmni oʻzaro uygʻunlikda aks ettirishi bilan ajralib turadi. Oradan vaqtlar oʻtib, turk hikoyachiligiga turk modern (yangi) adabiyot tushunchasining kirib kelishini Yu. Otilgan va F. Edgular ijodi bilan bogʻlasak boʻladi. Modern hikoyachiligining yetakchi xususiyati shuki, ramziy obraz, ramziy dialoglar, ularning yangi uslubda ifodalanişidir. Yu. Otilgan hikoyalarida qahramon xatti-harakati ogʻir va murakkab vaziyatlar fonida aks ettiriladi. Modern adabiyoti namoyandasi F. Edgu ijodining oʻziga xosligi shundaki, u bir qator hikoyalarida inson hayotidagi fojia, isyon, murosasizlik kabi ziddiyatga toʻla holatlarini butun murakkabliklari bilan ishonarli yoritdi. Filologiya fanlari doktori Poshshajon Kenjayeva tadqiqotiga koʻra F. Edgu sharq xalqlari adabiyotiga xos majozdan tasvir vositasida samarali foydalanib, majoziy nasr uslubiga asos solgan. U turk hikoyanavisligiga “minimal hikoya” janrini olib kirdi. M. Qutlu ijodida turk folklori, sharq klassikasi anʼanalarini zamonaviy usulda qayta jonlantirish, shu asosda janr, syujet qahramon va uslub komponentlarini yangilash tamoyili yetakchilik qiladi. Uning hikoyalarida syujet motivatsiyasi puxta ishlangan. Bu davrda turk adabiyotida bir qancha obrazlar xususan, Hizr alayhissalom, Dada Qoʻrqut, soʻfiy, ertakchi, suv parisi, dengiz kabi obrazlar yangi hikoyabop voqealar zamirida qayta badiiy aks ettirildi. S. Ileri hikoyalari global sivilizatsiya qurshovidagi odamning yolgʻizligi, ichki iztiroblari, mushohada va xayollarini tragik tasvirlashga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Xullas, XX asr boshlaridan bugungi kungacha turk adabiyotida xususan, hikoyachilikda bir qator yangi poetik tamoyillar kashf etildi. Shaxs va hayot voqeligi oʻziga xos badiiy usullar yordamida ifodalandi. Bu tamoyillar nafaqat turk adabiyoti, balki jahon nasri uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. „Bati tarzi turk hikayesinin dogʻusu ve tanzimatʻtan cumhuriyetʻe ana temalar “ (pdf) (2009). 27 şubat 2012da asl nusxadan arxivlangan.
2. *İntibah*. İstanbul: Remzi Kitabevi, 1971 — 26 bet.
3. Muhayyelât Üzerinde Bir inceleme. İstanbul: Arma Yayınları, 1999.
4. Öykünün Kedi Gözü. İstanbul: Can Yayınları, 2010. ISBN 978-975-07-1216-6. 29-martda qaraldi. (Wayback Machine saytida 2017-03-29 sanasida arxivlangan)
5. „Badiye (1919) gazetesinde eedebi ve kulturel faaliyet “ (pdf) (2011). 1-aprelda asl nusxadan arxivlangan
6. Cumhuriyet donemi turk edebiyati ve sinemasinda medrese/molla imaji“

*Surayyo Ismatova,
Durdona Ubaydullaeva,
Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi,
sanʼatshunoslik yoʻnalishi 4-kurs talabalari
Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori (DSc) H. Hamroeva*

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING TARIXIY - FALSAFIY, MA’NAVIY – MA’RIFIY TAMOYILLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek bolalar folklor raqslarining tarixiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy tamoyillari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: mavsum, o‘tmish, marosim, folklor, o‘yin, estetik tarbiya, dunyoqarash.

Аннотация: В данной статье рассматриваются историко-философские, духовно-воспитательные основы узбекских детских народных танцев.

Ключевые слова: времена года, прошлое, ритуал, фольклор, игра, ребенок, эстетическое воспитание, мировоззрение.

Annotation: This article examines the historical-philosophical, spiritual-educational principles of Uzbek children's folk dances.

Key words: season, past, ritual, folklore, game, child, aesthetic education, worldview.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “bugun ma’naviyat boshqa sohalaridan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak! Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim”.

Darhaqiqat, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishda, ularni yangi bosqichga ko‘tarishda o‘zbek bolalar folklor raqs san’ati muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning didi, sezish, his qilish qobiliyati ularning ilk qiziqishlari jarayonida yuzaga keladi. Bu jarayonning asosiy xususiyatlaridan biri ularning tasavvurlari, xayolot olami va ijodiy fikrlashga moyilligi hamda bolalik havaslarida ko‘rinadi. Yosh avlodni ma’rifiy-estetik jihatdan tarbiyalashning asosiy tamoyillaridan biri – ma’naviy immunitetni shakllantirishda raqslar va o‘yinlardagi milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan umumbashariy g‘oyalari va tushunchalarning qiymati beqiyosdir. Borliqni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xorazm bolalar folklor raqslaridagi milliy qiyofa, milliy xarakter, milliy o‘zlik tuyg‘usining teranligi va yuksakligi har qanday tomoshabinni o‘ziga tortadi. Ularni mazmun-mohiyati, ijro o‘rni va uslublari, harakatlar majmuasi, ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyati jihatidan xilma-xil bo‘lib, ularni etnografik, badiiy-estetik nuqtaiy nazardan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, har bir xalqning milliy o‘zligini, tili va hayot tarzini, an’ana va urf-odatlarini ifoda etadigan folklor san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir folklor raqs zahirida yurt tarixi, urf-odatlarini, rasm-rusumlari bilan uyg‘unlashgan falsafa va milliy madaniyat, qadriyatlar va an’analar mujassam. Xususan, bolalar folklor raqslari o‘zi mansub bo‘lgan xalqning tarixini, olijanob fazilatlarini ifodalaydi va targ‘ib qiladi.

Azal-azaldan kishilik jamiyati yaratgan eng ezgu an’analar san’at orqali rivojlangan. Milliy raqs – milliy san’at va makonni, do‘stlik rishtalarini bog‘lovchi komponentlardan biri hamda madaniy qadriyatlarni yangi avlodlarga yetkazish va saqlab qolish vositasidir. San’atning bu turi umumbashariy hodisa sifatida barcha xalqlarda o‘z aksini topgan, biroq, idrok va ifodaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullar bilan namoyon qilinadi. Zero, “o‘zbek raqslari – mutlaqo o‘ziga xos, beqiyos, shuning uchun ham ularni hamma joyda shu vaqtgacha ko‘rilmagan san’at sifatida, hamma joyda ham bir xil shavq, bir xil ishtiyoq bilan qabul qiladilar”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilanganidek, “Xalqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o‘zi talab etmoqda”. Bolalarning o‘zidek beg‘ubor qo‘shiq va raqslar og‘izdan-og‘izga, avlodlardan-avlodga o‘tib sayqallanayotgan, tobora rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida beqiyos tarbiyaviy ta’sir qudratiga egadir. Taniqli rus san’atshunosi N. A.

Volodkinaning fikricha, “Har bir milliy raqs o‘zi mansub xalqning milliy xususiyatlarini aks ettiradi va xalq musiqasi hamda qo‘shiqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Milliy raqs – xalq tomonidan yaratiladi va uning madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi”.

Juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan bolalar o‘yinlari ajdodlarimiz dunyoqarashi va zakovatining eng ibtidoiy elementlaridan biri sifatida poetik folklor namunalarini ham qamrab olgan. Uning ildizlari kishilik jamiyatining ilk mehnat faoliyati va diniy marosimlari bilan tutashadi. Zero, ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati ularni urug‘ning urf-odatlarini, an‘analari, tarixi bilan, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi: rivoyatlar, qo‘shiqlar va raqslarni tanishtirishdan iborat bo‘lgan. Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni katta safiga qo‘shish deb ataladigan bayram – diniy marosimlar keng tarqalgan. Bular o‘ziga xos o‘yin, musobaqalardan iborat bo‘lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlarini, xalq og‘zaki ijodi tashkil qilgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o‘z hayotlari va muvaffaqiyatsizliklarini, shodliklari va qayg‘ularini ifodalaganlar”. Davrlar o‘tishi, zamon o‘zgarishi bilan ular ham takomillashdi, diniy marosimlar tarkibidagi xatti-harakat va o‘yinlar o‘zining rituellik xususiyatini yo‘qotib, oddiy tomoshaga aylanib bordi.

Bolalarning o‘yin tanlashdagi didi va o‘yin turlari yillar o‘tib o‘zgarib bormoqda. Raqslar ham o‘z navbatida yangi estetik qirralarini kashf qilib, xalqning bilim va tajribasining asrlar davomida mukammallashgan ko‘rinishini o‘zida aks ettirmoqda. Ular xarakteriga tarbiya tizimining yo‘nalishi, uning mafkurasi, turmush an‘analari, milliy qadriyatlar singdirilgan. Binobarin, “O‘yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo‘lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O‘yinlarni kichik yoshdagi bolalar “Choriy chamber”, “Hakkalakam” kabi sanama o‘yinidan, katta bolalar “Qushim boshi” kabi topishmoqdan boshlaydi”. Ularda bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari: jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, estetik did, mehnatsevarlik, milliy o‘zlik tuyg‘ularini qaror toptirish masalalari qamrab olingan.

Eng qadimgi bolalar o‘yinlari haqidagi ilk ma‘lumot XI asrda yashab ijod qilgan mashhur turkiyshunos olim, buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchraydi. Unda turkiy xalqlar orasida urf bo‘lgan, to‘p bilan o‘ynaladigan “Chavgon” o‘yini haqida yozilgan.

Albatta, har bir hududning, har bir o‘lkaning o‘ziga xos o‘yinlari, milliy qadriyatlari mavjud. Ularda beg‘ubor va sodda bolalikning qiziqishlari, havaslari yaqqol namoyon bo‘ladi. XX asrning 30-yillariga kelib bolalar qo‘shiqlarini keksa otaxon-u onaxonlar tilidan yozib olish tajribasi boshlandi. Ajdodlarimizdan meros bolalar raqslari va o‘yinlarida jonli yoki jonsiz predmetlardan obrazlar tanlanadimi, tabiat yoki hayvonot olamiga murojaat qilinadimi, eng avvalo ular kichkintoylarning ruhiy dunyosini, tuyg‘ularini boyitishiga, ularning olam va odam haqidagi tasavvurlarini kengaytirishiga urg‘u berilgan. Kichkintoylarning o‘ziga xos olamini aks ettiruvchi bolalar raqs o‘yinlari orasida “Berkinmashoq”, “Oq laylakmi, ko‘k laylak”, “Podshoh-vazir”, “Xolam mehmonga keldi”, “Qovun sayli”, “Shaftoli shakar”, “Cho‘pon bilan Shag‘al”, “Qoch bolam, qush ketdi”, “Qoch bolam, qush keldi”, “Cho‘loq qarg‘a”, “Kal echki”, “Botmon-botmon”, “Oq sholi – ko‘k sholi”, “Cho‘p o‘yini”, “Tosh o‘yini”, “Oq suyak”, “Podachi”, “Qushim boshi”, “Oshi halol”, “Mehmon-mehmon”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Ota yog‘och” singari ko‘p yillardan buyon o‘ynalib, turli yoshdagi bolajonlarga zavq ulashayotgan o‘yin turlari juda ko‘p.

O‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy-ma‘rifiy, estetik-axloqiy tuyg‘ularning paydo bo‘lishi va kamol topishi uchun bolaligidan boshlab milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi nihoyatda zarur. Ular tadqiqotchilar, olimlar tomonidan o‘rganilib, xalq tilidan va kuzatishlar orqali yozib olinib, tarixga muhrlanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyevning Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. O‘ZA, 2023-yil, 23-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. O‘zA, 4-fevral, 2020-y.
3. Salimov O. Yangi O‘zbekiston davlati. T. : “Ma’naviyat” nashriyoti, 2023.
4. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T. : “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994.
5. Avdeeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. Birinchi kitob. T. : G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001.
6. O‘zbek xoreografiyasi san‘atida vorislik masalalari. To‘plam. T. , 2015.
7. Volodkina N. A. Urok narodno-ssenicheskogo tansa. Sankt-Pet. 2019.
8. Vashkevich N. N. Istoriya xoreografii vsex vekov i narodov. M. : 2017.
9. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. “O‘qituvchi” nashriyoti, 1975.
10. Ibrohimova Z. Musaffo olam hayratlari. T. : 2015.
11. Razzoqov X. O‘zbek xalk og‘zaki poetik ijodi. T. : “O‘qituvchi” nashriyoti, 1998.
12. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax. : “Sangzor” nashriyoti, 2006.
13. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. T. : “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-j. T. : “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
15. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-j. T. : “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
16. Qoraboev U. O‘zbekiston bayramlari. T. : “O‘qituvchi” nashriyoti, 1991.
17. Habibulla G‘. Xalq o‘yinlari, qo‘shiqlar va an‘analariga bir nazar. T. : “Kamalak”, 1992.

*Allayarov Nuraddin –
Urganch innovation universiteti talabasi*

XIVA KULOLCHILIK MAKTABI: AN‘ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva kulolchilik maktabi, o‘ziga xos jihatlari va u bilan bog‘liq transformatsion jarayonlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: zangori kulolchilik, usta-shogird, qizil loy, xon kulollari, Matkarim kulol, charx, Rishton maktabi.

Аннотация: В данной статье описывается Хивинская гончарная школа, ее особенности и связанные с ней трансформационные процессы.

Ключевые слова: голубая керамика, мастер-подмастерье, красная глина, ханские гончары, Маткаримский гончар, чарх, Риштонская школа.

Abstract: This article describes the Khiva pottery school, its characteristics, and the transformational processes associated with it.

Key words: blue pottery, master-apprentice, red clay, Khan potters, Matkarim potter, charkh, Rishton school.

Yurtimizda kulolchilik amaliy san‘atning qadimiy turlaridan biri sanalib, hunarmand ustalarning erkin ijod qilishlari uchun keng shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berilgan. Madaniyat va san‘atimizni jahon miqyosiga olib chiqib namoyish etishlarida, shu bilan birga O‘zbekistonning barcha hududlarida kulolchilikning o‘ziga xos turlari va maktablarini yaratib, davom ettirib kelayotgan, kulolchilikning milliy an‘anasini yo‘qotmagan holda uni rivojlantirib, usta-shogird an‘analarini saqlab kelayotgan usta hunarmand kulollarning merosini o‘rganish borasida ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

Kulolchilik xalq amaliy san'atining ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan turi sanaladi [1]. Uning diyorimizning har bir hududiga xos bo'lgan maktablari mavjudligi va yil sayin sayqal topib borayotgani e'tiborga molikdir.

Yurtimizda Toshkent, Samarqand, Rishton kulolchiligi mahsulotlari ham azaldan juda e'zozlanib kelingan [2]. Jumladan, Rishton kulolchilik maktabi nozik va mukammal naqshlari bilan dunyoda nom qozongan bo'lsa, Xorazm maktabiga xos sopol buyumlar zangori, moviy, firuza ranglardagi tasviriy bezaklari bilan g'oyat go'zal. Samarqand ustalarining ijod namunalarida yorqin ranglar, yaxlit naqshlar ko'zga tashlansa, Toshkent kulolchilik maktabi to'q tusdagi bo'rtma chizgilari bilan ajralib turadi.

Xiva kulolchilik maktabi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, hozirgi kunda ham oilaviy an'analarni davom ettirib kelayotgan usta-hunarmandlar mavjud. Jumladan, Masharipovlar sulolasi 6 avlodan buyon bu hunar bilan shug'ullanib kelmoqda. Sulolaning asoschisi bo'lgan Matkarim kulol Xiva xonligi davrida ijod qilgan bo'lib, xon kulollari orasidan munosib o'rin egallagan.

O'ktam Masharipov oilaviy kulolchilik hunarini hozirgi paytgacha farzandlari bilan birgalikda davom qilib kelmoqda. O'ktam Masharipovga soha sirlarini otasi Masharipov Sadulla tomonidan o'rgatilgan bo'lib, yoshligidan kulolchilikka qiziqishi katta bo'lgani sababli kulolchilikni chuqur o'rgananib, ayoli bilan har xil sopol idishlar yasab kulollar orasida hurmat qozonadilar va ko'plab shogirdlar yetishtiradilar.

Toshkentliklarda ikki xil sopol idishlar farqlanadi: eski xilda yasalgan suyuqlik oqimiga o'xshash yashil, sariq va jigarrang bo'yoqli va hozirgi davrga oid ochiq fonga bitilgan chekkasi gravirovkali, mayda o'simlik ornamentli, polixrom bezakli namunalar. Farg'ona kulollari sopol idishlarga oq, ko'k, qizil, yashil, sariq, va hokazo tusda sir beradilar [3].

Hozirgi paytda Xorazmda 2 turdagi kulolchilik saqlanib kelyotgan bo'lsa, bittasi Zangora kulolchilik, ikkinchisi qizil loyga chiroy beriladigan kulolchilik. Zangori kulolchilik idishga ko'k ranga solinib, so'ngra bezak beriladigan idishlardir. Oddiy qizil loyga bezak beriladigan idishlar bo'lsa ko'proq xalq ehtiyojida ishlatiladigan cho'ntakbob idishlar turiga kiradi [1].

Kulolchilikda foydalanib kelinayotgan loy mahsulotini Sulton Uvays buva tog'idan olib kelishini ta'kidlab o'tadi. Kulolchilikda asosiy qurol-charx. Kulolchilik charxi katta va kichik ikki yog'och g'ildirakdan iborat bo'lib, yog'och o'q bilan o'zaro birlashtirilgan. Pastdagi katta g'ildirak oyoq bilan aylantirilib turiladi. Yuqoridagi g'ildirakning ustiga loy qo'yiladi. G'ildirak bir tekis aylanadi. Usta qo'llari bilan loydan turli shakllar yasaydi. Idish shakli tayyor bo'lgach, ular quritiladi. Sopol mustahkam va silliq bo'lishi uchun olovga chidamli oq va qizg'ish tuproqdan tayyorlangan suyuqlikka chayib olinadi. Keyin yana soya joyda quritiladi. Hozirgi paytda sulola vakillari kulolchilikda ham transformatsion jarayonlar sodir bo'layotgani va idishlarni turli xil qoliblar yordamida yasashlarini ta'kidlaydi.

Usta-kulol chiroy berishda foydalaniladigan mahsulotlarini ham yashirmasdan boricha aytib berdilar. Oldinlari cho'lg'an o'simligi oshqor(qora o'loq) o'simligidan foydalanishgan. XX asr o'rtalariga kelib shisha mahsulotini kuchli issiqlikda eritib foydalanib boshlaganlar. Hozirgi paytda simso'y guloy paroshoqlaridan foydalanib kelyotganini aytib o'tdilar.

Oshqor(qora o'loq) o'simligining 15-sentabrdan 1-oktabrgacha bo'lgan paytlari shiraga to'lgan payti bo'lib, o'sha payti yig'ib olib, yoqib kul xolatiga keltirib, bezak uchun tayyor qilingan. Aynan shu payti yig'ib olinsagina yaroqli bo'lgan.

Ma'lumki, o'zbek kulolchilik san'ati qadimiy davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirib kelgan, muhim kasb-hunar sohasidir. O'zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun eng kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan [4].

Xalq amaliy san'atining tarixi insoniyatning uzoq o'tmishidan boshlangan. Xalq amaliy san'ati insoniyatning har jihatdan mukammal, erkin va go'zal jamiyatga intilib, unga sadoqat bilan xizmat qilib, ayni chog'da o'zi ham rivoj topgan. O'zbek xalq amaliy san'ati insoniyat sivilizatsiyasida o'ziga xos muhim o'rin egallab, xalq ustalari yaratgan yuksak san'at na'munalari turli-tuman o'yama, to'qima naqshinkor buyumlar o'tmishda ham, hozir ham dunyoga mashhur

bo'lib jahonning turli mamlakatlaridagi amaliy san'at va etnografiya muzevarlarida namoyish qilinmoqda. Xorazm amaliy san'ati o'zining jozibasi, takrorlanmasligi, naqshlarining uyg'unligi, koloriti bilan boshqa hududlardan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dala materiallari. Masharipov O'ktam. Xiva shahri. 2024-yil.
2. Ashirov A. Etnologiya T: "Yangi nashr" 2014. 273-274
3. O'zbek kulochilik san'ati. <http://komilaxon.blogspot.com/2015/05/ozbek-kulolchilik-sanati.html>
4. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар). Т. : Шарқ. 2001.

Dilnoza Mavlonova,

O'zbekiston davlat xoreografiya

Akademiyasi sirtqi bo'lim

5-kurs talabasi, M. Turg'unboyeva nomidagi

raqs tanlovi Gran-pri sohibasi

Ilmiy rahbar: H. Hamroyeva, filologiya fanlari doktori (DSc)

“LAZGI” TURKUMI: MADANIY – MA’NAVIY HODISA SIFATIDA

Annotasiya: Mazkur maqolada Xorazm “Lazgi” turkumining madaniy – ma’naviy xususiyatlari “Xiva Lazgisi” raqsi misolida tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: afsona, rivoyat, tush, chashma, Xiva, qadimiyat, milliy ruh, “Lazgi”, qadriyat, raqs, o‘yin.

Аннотация: В данной статье культурно-духовные особенности хорезмийской группы «Лазги» изучаются на примере танца «Хива Лазгиси».

Ключевые слова: миф, повествование, сон, весна, Хива, античность, национальный дух, «Лазги», значение, танец, игра.

Abstract: In this article, the cultural and spiritual characteristics of the Khorezm group “Lazgi” are studied using the example of the dance “Khiva Lazgisi”.

Key words: myth, narrative, dream, spring, Khiva, antiquity, national spirit, “Lazgi”, meaning, dance, game.

“Lazgi” musiqasi bilan chambarchas bog‘lanib, taraqqiy topgan Xorazm o‘yinlari ixchamligi, qadimiyligi, shijoati, hayotiy go‘zallikni ifodalab berishi bilan ajralib turadi. Qadimdan Xorazmda san‘atni sevmagan, uning biror bir sohasini egallamagan kishi bo‘lmagani sabab har bir oilada aka-ukaga, opa-singilga, ota-ona esa bolalariga xalq o‘yini va qo‘shiqclarini o‘rgatib o‘ziga xos “oilaviy maktab” yaratganlar. “Masxarabozlar oilasi”, “Raqqoslar oilasi”, “Qayroqchilar oilasi”, “Surnaychilar oilasi” kabi guruhlar rivojlangan.

Xiva xonligida bo‘lgan rus savdogari “Xivaliklar o‘zlari taklif qilmasa ham bolalari raqs bilan shug‘ullansa tomosha qilishni yaxshi ko‘radilar” – deb yozgan edi. “Yoshlikda o‘rgangan ilm toshga bitilgan naqshdir” – deydi dono xalqimiz. Chunki ota-ona o‘z bolasiga san‘atni muloyim muomalasi, zukko so‘zlari bilan ipidan ignasigacha o‘rgatib, chiroyli so‘zlar ishlatib, o‘z farzandi qalbiga singdiradi. Oilaviy guruhlar o‘z bolalari bilan ommaviy o‘ynab, maktab yaratganlar. Xalq sayillarida, to‘y-tomoshalarda xizmat qilganlar. Bu maktab tizimi oila a‘zolari bilan to‘y-tomoshalarda ishtirok etishi, birgalikda mehnat qilishi, ota-onani e‘zozlashida, oilani saqlashda, jipslashtirishda ham jamlagan.

O‘tmishni ilmiy o‘rganish, badiiy-qiyosiy tahlil qilish va o‘zlashtirish nihoyatda sermashaqqat ish. Tarix faqat tasavvur va tushunchalarimizni boyitibgina qolmaydi, eng muhimi o‘zligimizni, milliy qadriyatlarimizni o‘zimizga qaytaradi, madaniy an‘analarimizni asrashimiz, keyingi avlodlarga bezavol yetkazishimiz uchun kuch va ilhom beradi. Akademik A.

Muhammadjonov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Qadimgi Xorazm mintaqalari hududlarining o'ziga xos tabiati, shubhasiz, faqatgina qadimiy aholisining turmush tarzini belgilabgina qolmay, bu diyorda yuzaga kelgan qadimgi madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir-biriga qorishuviga ham kuchli ta'sir etgan".

Xiva bugungi kunda butun jahonda qadimgi va o'rta asrlar davridagi Xorazmning o'tmish yodgorligini o'zida aks ettirgan mamlakatimizdagi yagona shahardir. Shuning uchun ham jahon jamoatchiligining Xiva shahriga e'tibori yildan-yilga o'sib bormoqda. 1967-yilda Markaziy Osiyoda ilk bora Xiva shahrining tarixiy-me'moriy yodgorliklar qo'riqxonasi deb rasman e'lon qilinishi, 1990-yilning dekabr oyida esa sobiq Ittifoq hududidagi qadimiy shaharlar orasida faqat ikki shahar, shu jumladan, Xiva shahrining "Ichan qal'a" qismi jahon madaniyat va tabiat merosi (YUNESKO)ga qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir.



San'atshunos olim A. Raximov "Sahna sirlari munaqqid nigohida" kitobida bir voqeani eslaydi: "Hali-hali yodimda, 1970-yillarda taniqli raqqosa Mukarrama Turg'unboyeva Gavhar Matyoqubova ijrosida "Xiva Lazgisi" raqsini ko'rib, "Bu raqqosa qandaydir ilohiy kuchga ega, axir odam bolasi ham shunday raqsga tushadimi. . ." – deb peshonasidan o'pib qo'ygan edilar. Bu dil so'zlari tasodifan aytilmagan edi. O'sha kuch va iste'dod hali ham u bilan".

Darhaqiqat, O'zbekiston xalq artisti, professor G. Matyoqubova har bir raqsnı shunday yuksak iste'dod va pedagoglik mahorati bilan yoshlarga o'rgatadi. U sahnalashtirgan "Xiva Lazgisi" raqsida mo'jizalar shahri Xivaning niliy gumbazlari, osmono'par minoralari, naqshin binolari, serjilo obidaları, xivaliklarning go'zallikka, ezgulikka tashna qalbları raqqosaning harakati, imo-ishoralari va holatlarida aks etadi, hammani birdek o'ziga maftun etadi. Qarab turib, uning ijodkorlariga tahsinlar o'qiysan. Xiva shahrining paydo bo'lishi ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiydir, u eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, o'rta asr sharq me'morchiligining tengsiz javohiridir.

Ona zaminning ko'hna shaharlaridan biri Xiva o'zining boy tarixiga ega. Uzoq o'tmishning nodir yodgorliklarini asrlar osha bus-butun holda bizgacha yetkazgan bobo shaharnı tomosha qilish, tavof etish uchun dunyoning barcha burchaklaridan minglab sayyohlar tashrif buyurmoqdalar. Uning mahobatli obidalarini ko'rib, hayratga tushmoqdalar. Yaponiyalik sayyoh S. Richiganning quyidagi fikri buni yana bir bora isbot etadi: "Shaharnı tomosha qilib olgan taassurotlarim cheksiz, hayajon va hayratlarimni qanday ifoda qilishni bilmayman, Xiva bu buyuk mo'jiza!". Ushbu gaplar chin haqiqat. Yuksak madaniyatli o'lkaning san'ati ham buyuk bo'ladi. Atrof-muhitdagi rang-barang go'zallik, me'mor-u hunarmandlarning nozik tasvirlari, naqshinkor saroylar, rang-tasvir naqshlar, sirli chizgilar yastanib, jilolanib turgan va bu manzaralar san'at ahliga ilhom bag'ishlagan. Qalbida tug'ilgan hayajon tug'yonlarini san'at ahli o'z ijodlariga ko'chirganlar. Baxshilar o'z dostonlarida, roviylar afsona va rivoyatlarida, mashshoqlar musiqalarida, xalfalar o'z qo'shiq, laparlarida, raqslarida, shoirlar o'z she'rlarida madh etganlar.

Inson o'z qo'li bilan yaratgan mo'jizalardan bahra olib, qalbida tug'ilgan hayajonini, nashidani farovon hayotdan mamnun bo'lib raqsga ko'chirgan. Masalan, odamlar minoraga qiyos bir joyda to'nka ustiga chiqib, oyoqlarini qimirlatmasdan (to'nka poydevor vazifasini bajargan) "Lazgi"ni ijro etishgan. San'atsevar momolar, bobolar ham hayajonlanib ketib, raqsga jo'r bo'lishgan.



Shunday qilib “Xiva Lazgisi” paydo bo‘lgan. Madaniyat va san’at rivojlanganidan keyin, “Lazgi” raqsi ijrochilarida kiyinish madaniyati ham ko‘rkamlashgan. Endi raqs ijrochilari boshlariga manotli taxyo kiyib, taxyoning chap tomoniga (yurak tomoniga) dudori (sulgun qushi pati), ukki pati, jig‘a (qora bag‘ir qushi) patlarini qadab, o‘rdaklarning gajak patlari bilan bezashgan. Ko‘kraklariga shavkala deb ataluvchi (avloddan-avlodga ona tomonidan meros bo‘lib kelgan) zebi gardon, bilaklariga zang taqib o‘ynaganlar.

Xorazmning tabiiy sharoiti Qoraqum sahrosi va Amudaryo etagida joylashgan. Qoraqum sahrosidan boshqa yerda bo‘lmagan qorabag‘ir qushi, sulgun, ukki, yovvoyi o‘rdaklar pati chiroyli bo‘lgani uchun xorazmliklar buni yomon ko‘zlardan saqlovchi, asrovchi vosita hisoblashgan. Ularni yosh bolalar beshigi ustiga, do‘ppisiga, kelinlar bosh kiyimiga taqqanlar. Shavkala, taxyo, pat, par bargaklar shu davrdan paydo bo‘lgan. Ular badavlat oiladagi qizlarning to‘ylardagi bezagi bo‘lgan. Hozirgi kunda bu bezaklar “Xorazm lazgi raqs”i ijrochilarining maxsus kiyimiga aylangan. Bu raqsda minoralarning turishi, buyukligi barmoqlari orqali mag‘rur turgan minora peshtoqlarini, bo‘lak-bo‘lakka bo‘lishlar, raqs harakatlarida g‘ishtlarni havoga otishlar ifodalanadi. Qoraqum sahrosiga xos bo‘lgan qora bag‘ir qushining yurishlari, Amudaryoning toshgan vaqti, sulgunlarning uchishi tasvirlanadi. Har bir milliy raqs o‘sha xalq urf-odatlaridan, tabiiy sharoitidan kelib chiqadi, degan tamoyil “Xiva Lazgisi”da o‘z ifodasini topgan.

“Xiva Lazgisi”ni har bir xonadon, har bir mahalla, 7 yoshdan 70 yoshgacha: momolar, bobolar, qizlar, yigitlar, yosh bolalar o‘ynaganlar. Qaysi marosim bo‘lmasin, lachak to‘yi, kelin to‘yi, diniy marosim urf-odatlari, 63 yoshga kirganda nishonlanadigan “O‘tmishim to‘yi”, “Navro‘z” xalq bayramlarining oxiri lazgi kuyi, raqsi bilan yakunlangan. Bu raqsni momo-bobo, qiz-yigit, yakka, ommaviy ravishda o‘ynashi mumkin. Hamma millat milliy raqslari ijrosining rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari bo‘ladi. Bir joyda turib faqat qo‘l, yuz, bosh, bilaklar, ya‘ni tana harakatlari orqali yurak tug‘yonlarini ifodalash osonmi? Xalq orasida bu raqsning momo-bobolar to‘nka ustiga chiqib ijro etgan varianti shakllangan va bizgacha yetib kelgan.

To‘nka ustida raqsga tushish shunday o‘ynaladi: Raqqos yoki raqqosa to‘nka ustiga chiqib oladi. “Lazgi” kuyi boshlanadi, u tabiatdan zavq oladi. Raqqosa qo‘llarini havoda musiqaga monand holga keltiradi. Qo‘llari bilan minorani ko‘rsatganday harakat qiladi. Ko‘rsatayotgan minorani bilaklari, yelkalari, ya‘ni ritm orqali o‘ziga tortadi va qotib qoladi. Odamga jon kirish ko‘rinishi boshlanadi. Odamga jon kirganidan keyin “Xiva Lazgisi”ning asosiy mazmunli qismi boshlanadi. Raqqosa bilaklarini bilanglatib, ikkinchi qo‘li panjalari bilan naqshinkor minoraning aylana chiziqlarini, bo‘lak-bo‘laklarga bo‘lib, raqs harakatlari bilan ifodalaydi. Keyin tepaga g‘isht otayotganday raqs harakatlari qiladi. Bosh pastga tushadi, qo‘llar tepada, bosh musiqaga mos ohangda asta tepaga minoraning uchiga qaraganday, barmoqlar birin-ketin bilaklar orqali qimirlay

boshlaydi. Gavda, yelka qimirlamasdan faqat barmoqlar, qo‘l bo‘lak-bo‘lakka bo‘linadi. Xuddi g‘ishtni kesib olayotganday harakatlarni raqs elementlari orqali bajaradi. G‘ishtni goh yuqoriga, goh pastga otganday qo‘l panjalari o‘ynay boshlaydi. So‘ngra harakat yelkaga o‘tadi. Yelkalar oldinma keyin harakatlanib, bo‘yin tebratish yuz, qosh, ko‘z harakatlari takrorlanaveradi. Birinchi qism, ya‘ni kalit (klyuch) bilan raqqosa ikki qo‘llab qars bilan nihoyat birinchi bo‘lim yopiladi. Bular hammasi ko‘pincha tepaga qaragan holda bajariladi.

Ikkinchi bo‘lim boshlanadi. Raqqosa oyoqni qimirlatmasdan, xuddi oyoqni o‘ynatayotganday tebrana boshlaydi. Goh o‘ngga, goh chapga qo‘llari, barmoqlarini ritmga moslab chaqillata boshlaydi. Bunda butun badan o‘ynaydi. O‘z imkoniyatidan, iste‘dodidan kelib chiqib, turli-tuman raqs harakatlari yasashi mumkin. Ikkinchi bo‘lim qars (kalit) orqali yopiladi. Uchinchi bo‘limda raqqosa yerga tushadi. Shiddatli kuy boshlanadi. Amudaryoning oqishi, toshib o‘z yo‘lidan chiqib ketishi, qum sahrolarining bezagi kabi harakatlarini raqs orqali ifodalaydi. Bu raqsning boshqa “Lazgi”lardan farqi, raqsda qadimiy Xorazm otashparastlarining olovga sig‘inishi marosimlaridagi olovga e‘tiqodi qalbida saqlanib, uni raqslariga ko‘chiradi. O‘t, olov alangasi, Amudaryoning toshishi, suvlarning oqishi, bular hammasi jonlanib, Har bir xalqning raqsi o‘sha xalqni tabiiy sharoitidan, urf-odatlaridan kelib chiqadi degan qoidaga ishonch hosil qilasiz.

Bu raqs har bir xorazmlikning qon-qoniga singib ketgan. Xorazmda yetti yoshdan, yetmish yoshgacha bo‘lganlar ham yakka, ham jamoaviy, ham xonadon a‘zolari birgalikda “Xiva Lazgisi”ga tushadi. Yoshlar, ayollar, yigitlar, momolar, chollar juft-juft bo‘lib o‘ynashi mumkin. “Xiva Lazgisi” shu davrdan “Xalq Lazgisi” deb ham aytilgan.

Xorazm raqs maktabi taraqqiyoti tarixida “Xiva Lazgisi”ning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Uni har bir xonadon, har bir mahalla, 7 yoshdan 70 yoshgacha momolar, bobolar, qizlar, yigitlar, yosh bolalar ijro etganlar. Qaysi marosim bo‘lmasin, lachak to‘yi, kelin to‘yi, diniy marosim urf-odatlarini, 63 yoshga kirganda nishonlanadigan “O‘tmishim to‘yi”, “Navro‘z” xalq bayramlarining oxiri lazgi kuyi, raqsi bilan yakunlangan. Bu raqsni momo-bobo, qiz-yigit, yakka, ommaviy ravishda o‘ynashi mumkin. Har bir milliy raqs ijrosining rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari bo‘ladi. Bir joyda turib faqat qo‘l, yuz, bosh, bilaklar, ya‘ni tana harakatlari orqali yurak tug‘yonlarini ifodalash o‘ziga xos murakkabliklarga ega. Bu raqsning momo-bobolar to‘nka ustiga chiqib ijro etgan varianti xalq orasida juda mashhur hamda o‘ziga xos milliy qadriyatlarni aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ЎЗР Президентининг “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. ЎЗА, 2020, 4 февраль.
2. Конрад Н. И. Запад и Восток. М. , 1972.
3. Матёкубова Г. , Тохтасимов Ш. , Ҳамроева Ҳ. Хоразм “Лазги” рақси тарихи ва тавсифи. Т. , 2022.
4. Воробьева М. Г. «Хореземские терракоты» М. , 1981.
5. Рапопорт Ю. “Некоторые итоги изучения дворца на городище”. М. , 1972.
6. История Хорезма. Сборник. Т. , 1976.
7. Муҳаммаджонов А. Тарих фалсафаси-маънавият кўзгуси. Т. , 2015.
8. Рахимов А. Саҳна сирлари мунаққид нигоҳида. Т. , 2016.
9. Небольсин П. И. Очерки торговли России с Средней Азией. М. , 1971.
10. Ричиган С. Хива муҳаббати. “Ўзбекистон овози” газ. 2002.

*Jamshidbek Mirsoliev,
Sherzod Qodirov,*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
San‘atshunoslik yo‘nalishi 2- kurs talabalari*

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING OLTIN KO‘PRIGI

Annotasiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining eng mashhur adibi, atoqli davlat arbobi Chingiz Aytmatov asarlarining tarbiyaviy ahamiyati tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ota makon, milliy ruh, qadriyat, ona yurt, vatanparvarlik, sadoqat, muhabbat, tuproq, an’ana, tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается воспитательное значение произведений Чингиза Айтматова, самого известного писателя народов Средней Азии, известного государственного деятеля.

Ключевые слова: Родина, национальный дух, ценности, Родина, патриотизм, верность, любовь, почва, традиция, воспитание.

Abstract: This article examines the educational value of the works of Chingiz Aitmatov, the most famous writer of the Central Asian nations, the famous statesman.

Key words: Homeland, national spirit, value, motherland, patriotism, loyalty, love, soil, tradition, upbringing.

XX asr millatlarning o‘zligini anglashi va milliy istiqlol tafakkurining shakllanishi, mustaqil davlatchilik tamoyillarining ustuvorlik kasb etishi, yer sharining turli hududlarida mustamlakachilik tizimining barbod bo‘lishi oqibatida xalqlarning milliy o‘zligini anglashi tom ma’noda yangi bosqichga ko‘tarilgani bilan insoniyat tarixida qoladi. Zero, milliy o‘zlikni anglash har bir xalq, millat uchun ularni buyuk maqsad yo‘lida birlashtiruvchi umummilliy harakat kabi kuchli ta’sirga egadir. Bu borada millatlar bir-biridan yutuq va ijobiy tajribalarni o‘rganadi, o‘zlashtiradi, shu asosda milliyligini boyitadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz” – degan so‘zlari adabiyotning komil shaxs tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib turibdi.

Adabiy hodisalar tahlili jarayonida biz asoslanayotgan qiyosiy metod milliy adabiyotlar rivojlanish dinamikasini tushunish, merosiylilik, an’analar takomili, ta’sirlantirish va ta’sirlanish jarayonlarida badiiy qadriyatlarni anglash borasida muhim o‘rin tutadi. Jahondagi adabiy jarayonlar hamisha o‘zaro ta’sir doirasida kechadi. Shu ma’noda, dunyodagi hech bir adabiyot o‘z holicha rivojlanmaydi. Akademik N. I. Konradning “Jahon afkor ommasi, o‘zaro nizo-nifoqlarga qaramasdan, madaniyat sohasida hamma vaqt bir-birlari bilan muloqotda bo‘lib kelishgan, bunday bo‘lmasligi ham mumkin emas” – degan fikrlari buning yaqqol tasdig‘idir. XX asrda nafaqat turkiy xalqlar adabiyotini, balki dunyo adabiyotini ham o‘zining o‘ta yuksak estetik ideali, favqulodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar falsafasining badiiy talqini bilan butunlay yangilagan buyuk adib Chingiz Aytmatovning ijodi turli millat va elatlarni bir-biriga bog‘lab turgan oltin ko‘prikdir. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari qirg‘iz ham, o‘zbek-u qozoq ham uni birdek yaxshi ko‘radi, o‘z yozuvchisi deb biladi. Taniqli tarjimon Asil Rashidov ta’kidlaganidek, “Chingiz Aytmatov qahramonlari bizga yaqin va tanish kishilar. Chunki, o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining ma’naviy hayoti asrlardan beri bir-biriga payvasta, dili-diliga, tili-tiliga vobasta, eri-eriga, qalbi-qalbiga tutashdir. Biroq, shuni ham aytish kerakki, adibning asarlarini qayta-qayta o‘qiganimiz sari o‘zimizni yangi bir olamga, ma’naviy dunyosi beadam keng va musaffo insonlar orasiga borib qolganimizni his qilamiz”.

Chingiz Aytmatov asarlari o‘zining betakror tasvir uslubi bilan kitobxonni hayratga soladi. “Oq kema”, “Birinchi o‘qituvchi”, “Yuzma-yuz”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan Olapar”, “Alvido, ey

Gulsari”, “Qiyomat” kabi barcha asarlarida u inson ruhiyatining mohir musavviri sifatida gavdalanadi. Jahonga mashhur adibning asarlarini o‘zbek kitobxonlari Asil Rashidov, Ibrohim G‘afurov, Suyun Qoraev, Mahkam Mahmudov, Nurali Qobul kabi tarjimonlar tufayli o‘zbek tilida o‘qish baxtiga muyassar bo‘ldi.

Uning qo‘lma-qo‘l o‘qilayotgan kitoblari millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, adib qahramonlari asli qadim turkiy xalqlar avlodi bo‘lgan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkmanlarning tili, dili, dini, turmush tarzi va tarixining mushtarakligini anglatadi. Filologiya fanlari doktori, professor Y. Solijonovning fikricha, “Chingiz Aytmatov ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri haqida gapirganda, avvalo, ikki adabiyotda yaratilgan qahramonlar xarakteridagi o‘xshashlikni e’tiborga olish lozim. Muallifning “Alvido, Gulsari” va Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissalarini insonning har qanday vaziyatda ham o‘zligini yo‘qotmasligi, odamiylikni boy bermasligi, g‘ayriinsoniylikka qarshi kurashishi, aql-farosat bilan ish tutishi, har qanday illatni dadil fosh etish, jismoniy kuchni jilovlab, ma’naviy ustunlikka erishish g‘oyasi birlashtirib turadi. Adiblarning bu ezgu niyatlari Tanaboy bilan Ziyodulla, Gulsari va Tarlon obrazlari orqali ilgari suriladi. Chingiz Aytmatov asarlarida ifodalangan g‘oyaviy fikrlar, inson va jamiyat, inson va tabiat, inson va hayvonot olami, inson va din, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik singari umumbashariy muammolar, uni ifodalashga xizmat qiladigan obrazlar galareyasi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ziddiyatlar tasviri o‘zbek ijodkorlari asarlarida ham muhim o‘rin egallayotgani quvonchlidir.

Darhaqiqat, ulug‘ yozuvchi asarlarining ta’siri barcha turkiy xalqlar ijodkorlari uchun g‘oyat balanddir. Chingiz Aytmatovning yuksak falsafiy mushohada va psixologizm bilan sug‘orilgan barcha asarlari qardosh xalqlar yoshlarining ma’naviy dunyosini boyitishda, ularning ong-u shuuriga vatangan muhabbat, ota makonga sadoqat, milliy o‘zlik, tabarruk tuproq va betakror milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini singdirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Har bir xalqning milliy qiyofasini yaratish oson emas. Milliy o‘ziga xoslik, milliy ruh ko‘p jihatdan millatning azaliy qadriyatlari, etnik xususiyatlari va makoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. To‘laqonli milliy xarakter yaratish uchun tarix falsafasini mukammal bilish kerak. XX asrda jamiyatda bo‘lgani kabi adabiyotda ham ulkan hodisalar ro‘y berdi. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, ulug‘ ajdodlarga ehtirom va milliy o‘zlik tarixiy zarurat sifatida maydonga chiqdi, ma’lum ma’noda adabiyotning ustuvor mavzusiga aylandi. Milliy o‘ziga xoslikning ildizlari albatta vatanparvarlik tuyg‘usidan boshlanadi.

Tarjimashunos olim G‘. Salomovning fikricha, “Biz Chingizning asarlarida umumturkiy og‘zaki ijod motivlari, Manas va Alpomishning qon-qardoshligini, qalban, ruhan yaqinligi bilan birga, klassik adabiyotimizdagi o‘lmas obrazlar, g‘oyalar, ohanglar ta’sirini ko‘rib quvonamiz. Ulug‘ Navoiyning “Xamsa”sidagi chuqur ruhiy kechinmalar (“Layli va Majnun”), Majnunning odamlardan bezib, tog‘larga bosh olib ketishi, u yerlarda yirtqich, yovvoyi hayvonlar bilan do‘st tutinishi haqidagi g‘oyat ta’sirchan manzaralar bilan Akbara va Toshchaynar tasvirida (“Qiyomat”) uzviylik, mushtaraklik, vorisiylik va davomiyligni ko‘ramiz. Yozuvchining Iso alayhissalomi bilan tanishar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda qishloqma-qishloq, shaharma-shahar darbadar kezgan, o‘zining maishiy haq so‘zi uchun boshini dorlarga qo‘ygan buyuk jabrdiyda shoir, devonai Mashrabimizning achchiq taqdiri hamda bir yaxshi zamondosh shoirimizning obrazli ta’biri bilan aytganda, “Sahar chog‘i Mashrab bo‘lib kelayotgan sarpoychan O‘zbekistonimizning bugungi manzaralari, respublikamiz bugungi odamlarining taqdir va qismlari ko‘z o‘ngimizdan birma-bir o‘ta boshlaydi”.

Adabiyot haq so‘zni va adolatli ilmiy tahlilni tan oladi. G‘. Salomov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Ulug‘ Navoiyning “Xamsa”sidagi chuqur ruhiy kechinmalar”dan ta’sirlangan Ch. Aytmatov milliy ruhni, milliy xarakterni katta mas’uliyat hissi bilan yaratadi. Dunyoning yuzdan ortiq tillariga tarjima qilingan adib asarlarida odamlar ruhiyatida kechayotgan hissiyotlar va evrilishlar orqali davr va tuzumning eng murakkab, chigal tomonlari ochib beriladi. Shuning barobarida, bu asarlar ogohlik qo‘ng‘iroqlaridir. Odamlarni bag‘rikeng, oliyhimmat, mehr-oqibatli bo‘lishga, o‘z milliy ruhini saqlab qolishga, milliy qadriyatlarini asrab- avaylashga, vatanni chin muhabbat bilan sevishtga da’vat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi. O‘zA, 2020 yil, 20 may.
2. Konrad N. I. Zapad i Vostok. 1972.
3. Rashidov A. Chingiz Aytmatov maktabi // Muloqot. 2005.
4. Solijonov Y. Mushtaraklik, hamohanglik o‘ziga xoslik. Chingiz Aytmatov va O‘zbekiston. 2018.
5. Salomov G‘. Ch. Aytmatovning “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat” romanlari nashriga yozilgan so‘ngso‘z. 1989.

Otaboyeva Ro‘za Qahramon qizi
Urganch innovatsion universiteti talabasi

MAROSIMLARNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI (BESHIK TO‘YI MAROSIMLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: Beshik to‘yi eng qadimgi marosimlardan biridir. Asosan beshik to‘yi oilada to‘ng‘ich farzand tug‘ilishi sharafiga o‘tkaziladigan marosim hisoblanadi. Odatda bu to‘y chaqaloq tug‘ilishining toq kunlarida 7, 9, 11 kunlarida o‘tkaziladi.

Ushbu maqolada Xorazm vohasida beshik to‘yi marosimlari, uning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq jarayonlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: Marosim, urf-odat, B. Sarimsoqov, beshik, chaqaloq, chilla go‘ynak, o‘ngmi o‘ng.

Аннотация: Колыбельная свадьба один из древнейших ритуалов. По сути, колыбельная свадьба это обряд, проводимый в честь рождения первого ребенка в семье. Обычно такая свадьба проводится в нечетные дни рождения ребенка 7, 9 и 11 числа.

В данной статье описаны процессы, связанные с обрядом колыбельной свадьбы и его особенности в Хорезмском оазисе.

Ключевые слова: Ритуал, традиция, Б. Саримсаков, колыбель, младенец, чилла гойнак, право или право.

Abstract: Cradle wedding is one of the oldest rituals. Basically, a cradle wedding is a ceremony held in honor of the birth of the first child in the family. Usually, this wedding is held on the odd days of the baby's birth, on the 7th, 9th, and 11th.

This article describes the processes related to the cradle wedding rituals and its specific aspects in the Khorezm oasis.

Key words: Ritual, tradition, B. Sarimsakov, cradle, baby, chilla goynak, right or right.

Marosim va urf-odatlar asrlar davomida o‘zbek millatining tashkil topishida katta ahamiyatga ega. Sahiy va ochiqko‘ngil o‘zbeklarning eng yo‘qolmas an‘anasi bu marosimdir. Inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, xursandchilik, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, umum qabul qilingan tartib qoidalarga amal qiladigan tadbir va bayramdir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma‘lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Bu borada folklorshunos olim B. Sarimsoqov aytganidek, “Har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo‘la olmaydi”.

Beshik chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo‘ljallangan, yo‘rg‘a oyoqli maxsus moslama. Asosan Xorazmda beshiklarning uzunligi 1-1, 05 m, balandligi 50 smdan 60 smgacha bo‘ladi. Yozma manbalarda “beshik” so‘zi ilk marta Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” asarida uchraydi. Xorazm vohasida beshik to‘y marosimlari chaqaloq tug‘ilishining toq kunlarida 7, 9, 11 kunlarida o‘tkaziladi.

Bolani beshikka belashdan oldin bola tug‘ilganidan bir kundan keyin uning qulog‘iga azon

aytilib “Allohu Akbar” deb ismi qo‘yiladi. Keyin bola onasiga ko‘rsatilmasdan oq kiyimlar bilan kiyintirilib, oq matoga belab, onasining yoniga olib kelishadi. Bola beshikka belanmasdan oldin yuvintiriladi. Bolani yuvintirish keksa momolarimiz tomonidan avval uning o‘ng qo‘liga, keyin chap qo‘liga suv solinadi, so‘ngra butun azoyi badani yuviladi. Bola yuvintiriladigan suv ham maxsus tayyorlanadi [1]. Suvga biroz tuz solinadi, tanga, tuxum po‘stlog‘i, suyak tashlanadi. Chaqaloqning ko‘ylagi “chilla go‘ynak” vohadagi chilla ko‘ylagi deb ataladi va u bolaning kindigi tushgandan keyin yuvintirilib, kiydiriladi.

Beshikka belashda keksa onaxonlarimiz beshikni muqaddas qibla tarafga qo‘yib, “O‘ngmi o‘ng” deb ko‘rsatiladi va beshikka belanadi. Yopinchiqni ustidan yopib, har xil shirinliklar sochiladi. Xalfalar alla aytishadi.

Xorazmning ko‘p joylarida chaqaloqning tug‘ilganiga 5 kun bo‘lganda, xoh uyda bo‘lsin, xoh tug‘ruqxonada bo‘lsin “5 dan o‘tdi, toshdan o‘tdi” deb 5 oqshom marosimi bo‘ladi. Bunda momolar hamda faqat ayollar yig‘ilib, uyda marosim o‘tkaziladi. Ovqatlar tortilib, shirinliklar bilan dasturxonlar bezatiladi. Xalfalar qo‘shiq aytib, o‘yin-kulgu qilishadi. Oxirida fotiha o‘qilib, chaqaloqqa uzoq umr baxt-saodat, ota-onasiga sog‘lik omonlik tilashadi [2].

Chaqaloq tug‘ilganidan so‘ng katta bayram. To‘yxonalarda sadaqa beriladi. Katta qozonda osh damlanib, qo‘chqor so‘yilib, qarindosh- urug‘lar kuy-qo‘shiqlar bilan nishonlanadi.

Beshik bilan birgalikda qiz tomonning ota-onasi belanchak, kiyimlar, o‘yinchoqlar, arg‘imchoqlar olib kelishadi. Kelinga, qaynonasi va qaynotasiga, kuyovga ham yangi kiyimlar, sarpolar keltirishadi [3].

Xulosa shuki, inson hayotida an‘ana, urf-odat va marosimlarning o‘rni va ro‘li katta. Shuningdek beshik bolani to‘g‘ri o‘shida va rivojlanishida katta yordam beradi. Sovet ittifoqi davrida matbuotlarda bolaning qo‘l- oyog‘i beshikka bog‘lanishi qullikka qiyoslanadi. Shunga qaramay, beshik xalqimiz hayotidan chiqib ketmagan. Bugungi kunda ham beshik haqidagi fikrlar borasida ayollar jamiyatida ikkiga bo‘lingani sir emas. Ammo beshikning bola uchun foydali tomonlari juda ko‘p. Masalan, bolaning qo‘ndoqda qo‘l-oyoqlari bog‘lanadi. Bu esa bolaning qo‘llari yuziga tegib, cho‘chib ketmasligi hamda bola uyg‘onmay, tinch uxlashiga yordam beradi. Beshikda bir maromda tebranish, ona taftini tuyish bola uchun juda foydalidir. Bundan tashqari beshik bolani xavfsizligini ham ta‘minlaydi. Masalan, bola kravatda uxlaydigan bo‘lsa, bexosdan yiqilishi mumkin. Beshik go‘dakni tashqi salbiy ta’sirlardan issiq, sovuq, shovqindan saqlaydi. Fikrimcha, ming yillardan beri xalqimiz o‘z bag‘rida tebratgan, buyuk bobo, momolarni katta qilgan beshigimiz bundan keyin ham xizmat qilaveradi. Endi unda kelajak avlod ulg‘ayadi, ajdodlarimizday baquvvat, tetik, alpqomat zurriyotlarni katta qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmud Sattor. “O‘zbek udumlari”. Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007. – B. 1- 3.
2. Dala materiallari. Qurbonova Dilbar. Xonqa tumani. 2024 yil
3. Kamola Toshmatova. “O‘zbekiston nomoddiy merosi”. Toshkent. 2023 yil

*Алтайский государственный педагогический университет,
доктор исторических наук, профессор,
директор НОЦ «Историко-культурное наследие Большого Алтая»
Барнаул, Россия*

Слесарева И.Н.
*Алтайский государственный педагогический университет,
аспирант кафедры историко-культурного
наследия и туризма, директор туристической компании «Арго»
Барнаул, Россия*

ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕМЕНТОВ ТРАДИЦИОННОГО КОСТЮМА АЛТАЙЦЕВ

Аннотация: Целью статьи является реконструкция традиционного костюма алтайцев на основе исторического наследия выдающихся путешественников, исследователей Алтая: Н.М. Ядринцева, Г.П. Гельмерсена, Н.Я. Бичурина, В.В. Радлова, В.И. Вернадского и современных ученых. Авторы ставят научную задачу зафиксировать разнообразие и уникальность различных элементов национального костюма, отметить инновационные процессы, связанные с возвращением элементов национального костюма в современную жизнь. Результаты исследования показывают, что использование традиционного костюма или его элементов в событийных туристических мероприятиях не всегда проводится на научной основе, серьезном анализе исторических источников и литературы.

Ключевые слова: этнография, тюркоязычные народы, алтайцы, материальное наследие, традиционный костюм, семантика.

Truevtseva O.N.
Altai State Pedagogical University,
Doctor of Historical Sciences, Professor,
Director of the REC "Historical and Cultural Heritage of the Greater Altai"
Barnaul, Russia

Slesareva I.N.
Altai State Pedagogical University,
postgraduate student of the Department of Historical and Cultural
Heritage and Tourism, Director of the travel company Argo
Barnaul, Russia

TRANSFORMATIONS OF ELEMENTS OF TRADITIONAL ALTAIAN COSTUME

Annotation: The purpose of the article is to reconstruct the traditional costume of the Altaians based on the historical heritage of outstanding travelers and researchers of Altai: N.M. Yadrintsev, G.P. Helmersen, N.Ya. Bichurin, V.V. Radlov, V.I. Vernadsky and modern scientists. The authors set a scientific task to record the diversity and uniqueness of various elements of the national costume, to note the innovative processes associated with the return of elements of the national costume to modern life. The results of the study show that the use of traditional costume or its elements in event tourism events is not always carried out on a scientific basis, a serious analysis of historical sources and literature.

Keywords: ethnography, Turkic-speaking peoples, Altaians, material heritage, traditional costume, semantics

Ежегодно Республику Алтай посещают более полутора миллионов туристов. Интерес туристов к традиционной культуре алтайцев достаточно высок, однако, к сожалению, достаточно часто приходится отмечать низкий уровень профессионализма организаторов традиционных праздников и выставочных проектов, некомпетентность экскурсоводов, представляющих культуру коренного народа. Последние десятилетия проблеме этнокультурной идентичности коренных народов в Республике Алтай уделяют особое внимание. [1, С.94-96].

Алтайцы (ойроты, теленгиты), общая численность которых около 80 тысяч человек - тюркский коренной народ, включающий такие субэтнические группы как теленгиты, тубалары, челканцы, кумандинцы, телеуты. Проживают в основном в России, в Республике Алтай. Лишь несколько тысяч человек издавна живут в прилегающих областях Монголии (Монгольский Алтай) и Китая (округ Алтай), где являются одним из непризнанных национальных меньшинств и под именем «ойроты» включаются властями в состав монголов. [1, С.94-96]

Культуру и быт алтайцев исследовали на протяжении XVIII-XX веков известные ученые, этнографы, путешественники, исследователи Алтая. В трудах исследователей сохранены описания традиционных поселений, жилищ, религий, предметов быта, одежды, анализ которых позволяет понять мировоззрение, социальные взаимоотношения и иерархию, а также такую информацию как пол, имущественное и семейное положение, принадлежность к тому или иному роду, вероисповедание, можно проследить социальные различия и эстетические вкусы народа. В этом ряду объектов материального культурного наследия особая роль принадлежит одежде.

Знание характерных особенностей технологии изготовления костюма, семантики основных элементов кроя, украшений, цвета позволяет определить место бытования, климатические условия, традиции, религиозную принадлежность, возраст его обладателя (одежда детей и подростков, молодежи, взрослых и пожилых людей), художественные предпочтения.

Одежду тюркских кочевников Алтая необходимо изучать и реконструировать по различным источникам. Одним из первых сохранившихся источников является китайская летопись династии Тан. В ней говорится, что среди древних тюрков Алтая рядовые кочевники носили распашную меховую и шерстяную одежду, причем левую полу запахивали сверху [3, С.268].

Некоторые сведения об одежде алтайцев даны в русских исторических документах середины XVIII в., когда алтайцы входили в состав Джунгарии. [2, С. 9]. Рядовые алтайцы носили кожаные штаны и куртки из выделанной наподобие замши маралины, овчинные шубы и куртки, лохи из меха косули, шерстью наружу. У зайсанов одежда шилась из тканей черного, желтого, лазоревого и других цветов. Наиболее распространенными были такие ткани, как камка, бязь, китайка, холст. Шубы зайсанов покрывались китайской шелковой материей и слушались дорогим мехом, например, соболем и выдрой. [2, С. 9].

Еще одним источником, дающим представление об одежде алтайцев, может служить фольклор, особенно героический эпос. При использовании этого источника нужно учитывать гиперболизацию, характерную для фольклора. В преданиях отразились существовавшие в то время различия в одежде по полу и возрасту. Замужние женщины собирали волосы в две косы и носили чегетек. Девушки заплетали несколько косичек и надевали специальное украшение на волосах — шанкы. Юноши носили короткие куртки, часто белого цвета, возможно, из войлока. Длиннопольные шубы с соболем или горностаем на воротнике, подпоясанные курдаком были доступны только состоятельным представителям рода - Богатырям. На их головах были бобровые шапки на лентах, на ногах — кожаная обувь на толстой подошве. Богатыри носили шапку-шлем (тулга бөрүк) и панцирь под короткими куртками. [2. С. 9].

Описания внешнего вида и одежды алтайцев можно найти в материалах экспедиций и путешествий первой половины XIX – начала XX веков. Среди авторов этих трудов – Н.М.

Ядринцев. [3, С.15] Н.М. Ядринцев, побывав почти во всех районах Алтая, оставил подробное описание не только флоры и фауны “Сибирской Швейцарии”, но и коренных жителей. Рассматривая костюмы различных алтайских племен, исследователь отмечает их разнообразие и схожесть отдельных элементов. Например, у мужчин зимою шубы из серого войлока, летом белые азямы из льна. Такое же сырье использовали для изготовления шапок, колпаков, которые часто обшивали крашеной шерстью. У женщин зимой были шерстяные шушунуны, рубахи с вышитым воротом, украшенные бисером, раковинами каури, перламутром. [3, С.15].

Исследователь Г.П. Гельмерсен обратил внимание на то, что внешний облик бийских и телецких обитателей резко отличался от облика южных соседей. По мнению ученого, северные алтайцы внешне, в очертаниях лиц и по многим деталям быта схожи с финнами, причем чем дальше от озера, тем сильнее проявлялось их сходство. Что касается южных обитателей озера, то их исследователь считал смешанными потомками тюрков, монголов и самоедов. [4. Т. II. С. 50].

Исследователи отмечали различия в одежде жителей северного и южного Алтая, описывали разные виды верхней и нижней одежды, особенности причесок и украшений, которые носили алтайцы в зависимости от возраста, пола и семейного положения.

У южных алтайцев для мужского и женского комплекса одежды были характерны длинная рубаха с широкими рукавами и открытым воротом, широкие штаны, которые обычно шили из покушной ткани, иногда из кожи. Сверху надевалась свободная овчинная шуба до пят (мехом внутрь) с большим запахом на правую сторону. Шуба подпоясывалась широким куском ткани и носилась не только зимой, но и летом. Женщины поверх шубы или халата носили длиннополую распашную безрукавку - чегедек. Традиционные мужской и женский наряды алтайцев были очень похожи. Они состояли из расширенных книзу брюк (из ткани или из кожи), длинной рубашки без воротника с широкими рукавами. Роль верхней одежды выполнял цветной халат свободного кроя или длинная овечья шуба (мехом внутрь). Наряд женщины дополняла декоративная туника, расшитая национальной росписью и украшенная традиционным орнаментом (чегедек).

Головные уборы южных алтайцев из ткани (летом) и меха (зимой) имели круглую форму или форму цилиндра. Для северных алтайцев были характерны круглые меховые шапки у мужчин и платок или мягкая шапочка с широкими полями у женщин. Украшать головные уборы было принято разноцветными кусочками меха, ленточками, пушистыми хвостиками животных. На ногах у алтайцев всегда были мягкие сапоги из кожи. Одежда могла быть изготовлена из таких материалов, как: домашний холст, купленные фабричные ткани (даба, нанка, шелк, бархат, плис) и различные материалы животного происхождения (шкуры, замша, мех).

Изготовлением одежды с детства занимались практически все женщины. Не исключено, что существовали и признанные мастерицы, бравшие заказы на исполнение особо тонкой работы, наиболее значимых деталей костюма. По традиционным представлениям алтайцев считается, что двенадцать лисьих лапок олицетворяют собой цикл из двенадцати лет в алтайском календаре. Отделка из парчи означает красоту природы Алтая, а мех выдры – богатство животного мира Алтая. Основные цвета имели собственное значение и олицетворяли важные для алтайца моменты. Так, голубой цвет обозначал небо или водную стихию, зеленый – растительный мир, белый – молоко, чистоту. Для отделки и украшения одежды использовались яркие цвета, а одежду замужних алтаек по подолу, пройме и полам обшивали нитками семи цветов, соответствовавших цветам радуги. [5, С.656].

Охранявшая человека одежда воспринималась в категориях верха и низа. Так, головные уборы соотносились с сакральным верхом. Устремленная к небу остроконечная верхушка шапки символизировала процветание и благополучие. Эта шапка была схожа с горами Алтая и охраняла женщину. Головные уборы были важным элементом алтайского костюма. Замужней женщине нельзя было ходить с непокрытой головой, это считалось для

нее величайшим позором. Мужчины и мальчики волосы стригли наголо, оставляя их лишь на макушке. Эта прядь заплеталась в косу, конец которой украшался цветными пуговицами, шнурами и кистями из красного или черного шелка. Девочкам до двенадцати лет подстригали переднюю часть головы, оставляя маленькую челку на лбу. Длинные волосы затылочной части головы заплетали в нечетное количество кос, прикрепляя к ним золотые шнуры, раковины или перламутровые пуговицы. Девушки брачного возраста отпускали волосы спереди и носили их, разделив пробором, при этом косы на затылке украшались так же, как и у девочек, но к их концам прикрепляли еще деревянные палочки. У замужних женщин четное количество кос, чаще всего две. Их носили спущенными ниже пояса. Отправляясь в гости или принимая гостей, женщина перебрасывала косы на грудь. Соединялись они между собой несколькими нанизываниями из пуговиц и раковин каури (жыламаш). На конце кос прикрепляли иногда и ключи. Алтайские женщины вплетали в косы снизу раковин каури, заканчивающиеся железными стерженьками (темир токпок). [6, С. 133].

У теленгитов женщины украшали косы серебряной бляшкой (сакузын) с вставными камнями из сердолика и кораллов [7, С.105]. Волосы женщины в детородный период имели важное значение. Это было связано с произведением на свет детей, контактом с потусторонним миром. Поэтому почти все накосные украшения зрительно удлиняли косу, чтобы таким образом увеличить силу волос. Накосницы (накосниКи) — две шт. - это украшения на косы замужней девушки. Если муж погибает, по причёске можно было понять, что вдова. Эти две косы соединяются дополнительной нитью, значит осталась одна. [7, С.105].

Накосные украшения выполняли несколько функций. В первую очередь, они украшали волосы человека в соответствии с эстетическими воззрениями народа. Помимо этого, они четко показывали половую и социально-возрастную принадлежность человека. Можно было определить, женское или мужское это украшение, носит его девушка или замужняя женщина. Переход в иной возрастной класс сопровождался сменой прически и накосных украшений. Кроме того, накосники выполняли еще и магические функции, из которых самыми важными были множительная и охранительная. [9.С. 128].

В комплексе алтайской одежды украшения и дополнения к одежде имели большое значение, сопровождая человека всю его жизнь. Сразу после рождения ребенка ему было принято дарить бусы, пуговицы. Из них делали своеобразную погремушку, которую вешали над колыбелью ребенка для отпугивания злых духов своим шумом. Иногда на детскую рубашку пришивали украшения или отдельные предметы в качестве оберегов от злых духов. Обычно это были когти птиц. Когда ребенок начинал ходить, ему на спинку одежды прикрепляли шалтрак, сделанный из этих же украшений. Он должен был защищать и охранять ребенка, притягивая на себя все злое и плохое. Следующее украшение ребенка – шымырак. Его изготавливали и прикрепляли в то время, когда дети находились в «возрасте непоседливости», чтобы матери было слышно, где находится ее чадо. Поэтому к шымыраку добавляли колокольчики.

Шымырак прикрепляли на концы кос ребенка. Примерно с двенадцати лет девочкам-подросткам на косы прикрепляли украшение (шанкы). Оно состояло из квадратиков материи, на которые нанизывались бусы. Чтобы украшение не мешало при ходьбе, его пропускали под пояс. Девушка носила его до тех пор, пока не выходила замуж. С каждым годом к шанкы добавлялось одно деление, поэтому можно было подсчитать, сколько лет девочке. Когда девушка выходила замуж, ее волосы заплетали в две косы, которые соединялись между собой несколькими нанизываниями из бус, перламутровых пуговиц и раковин. Мужская коса чаще всего ничем не украшалась. В качестве талисмана выступал небольшой кусочек материи круглой формы, украшенный бисером. Его носили под одеждой, не на виду у всех, и для его изготовления специально ходили к шаману.

На Алтае были распространены серьги из медной или серебряной проволоки с белым птичьим душком. Женщина должна была носить серьги, не снимая, всю жизнь, они

считались оберегом ее детей. Из украшений непосредственно самой одежды важное место занимали объемные круглые или овальные пуговицы, обычно красного цвета, и раковины каури, которые играли особую роль, выступая в качестве украшения, оберега и лечебного средства. [8, С. 78].

В Национальном музее Республики Алтай им.А.В.Анохина широко представлены культура и быт, традиции коренного народа от жилища до предметов культа и украшений.

Современное бурное и динамичное развитие туризма на Алтае, большой интерес туристов к этнокультуре и традициям вызвало развитие декоративно-прикладного искусства в области изготовления и пошива традиционной одежды и украшений. Национальную одежду или ее элементы используют в качестве костюмов в фольклорных мероприятиях и праздниках, в представлении обрядов и обычаев в рамках туристических программ, в качестве фирменной одежды в аутентичных или стилизованных отелях и туристических центрах. Данный тренд наблюдался с начала этого века, но особенно активно - с 2020 года. Интерес к народному костюму также проявляется и среди носителей местной культуры в связи тенденцией к познанию собственного рода и самоидентификации. Однако, при реконструкции предметов быта и одежды нужно постоянно помнить о необходимости идентификации с подлинными объектами культурного наследия коренного народа алтайцев.



Рис.1. Чегедек исторический. Рисунок из книги по ред. Е.П.Зайцевой «Алтайский национальный костюм»

Алтайцы используют в оформлении одежды около двух десятков зооморфных орнаментальных мотивов. Основные узоры: кошкар муйиз (рога барана), кос муйиз (двойные рога), сынар муйиз (одинарные рога), бурмаша (закрученный), бес бас (пять голов), тумар муйиз (рога-амулеты), журек муйиз (рога-сердце). Их основной элемент – рогообразные завитки в различных вариантах и сочетаниях. Изобразительный (зооморфный) орнамент, который отождествлялся с образом животного, означал родовой знак и интерпретацию силы жизни. Растительная изобразительная группа орнаментов выражает в стилизованном виде природу. Базовым символом здесь являлся мотив Древа жизни, который символизировал устройство мира в мышлении древнего человека. Собираемый орнамент «чалу», символизирующий дорогу, солнце, текущие реки, радугу, горы, является украшением национального костюма. Графические символы и орнаменты, наиболее часто встречавшиеся в отделке и украшении традиционной алтайской одежды [10, С. 7-9].



Рис.2. Зооморфные орнаментальные мотивы. Рисунки М.Бабакова.
Материалы фондов Национального музея республики Алтай им. А.В. Анохина




Рис. 3. Растительные орнаментальные мотивы. Рисунки М. Бабакова.
Материалы фондов Национального музея республики Алтай им. А.В. Анохина

В последнее время именно чегедек подвергается самым большим изменениям и приобретает стилизованные черты. Теперь чегедеки шьют из тканей самых различных цветов, хотя в Улаганском и Кош-Агачском районах предпочтение отдается красному цвету. В этих же районах сохраняется традиция на свадьбу невесте привозить свой чегедек, тогда как в Усть-Канском и Онгудайском районах чегедек для невесты шьют родственники жениха. Иногда кроме чегедека шьют и платье свободного покроя, обычно белого цвета, поверх которого и надевают чегедек. Однако в последнее время некоторые люди стали надевать чегедек поверх белого европейского платья для «русской свадьбы» («орус той»). Соответственно меняется покррой одежды, поскольку эти платья, как правило, имеют кринолин. Поэтому верхнюю часть чегедека стали шить из алтаса, крепа и др. тканей, а нижнюю часть — из более легких и прозрачных тканей — капрон, шифон, органза. Цвет чегедека выбирается в тон свадебному платью, чаще всего это яркие цвета: голубой, красный, зеленый и их различные оттенки. На голову невесты надевают либо специальную шапку сүрү бөрүк, сшитую чаще всего в тон чегедеку, либо более распространенный и носимый всеми тұлкү бөрүк. [8, С. 169].

Многолетний опыт работы в туристическом бизнесе, позволяет констатировать факт того, что в Республике Алтай сохранена и развивается традиция применения национального костюма в этнокультурном и туристическом контексте. Использование традиционного костюма или его элементов в событийных туристических мероприятиях должно быть основано на исследованиях и анализе исторических костюмов. Привлечение молодых мастериц и дизайнеров к подобным исследованиям поможет более аутентичной трансляции традиций через декоративные элементы и орнаменты в одежде. Зная историю возникновения и характерные черты алтайского костюма, можно проектировать современные коллекции одежды в этническом стиле, создавать образы, отражающие тенденции современной жизни, в модной стилистике. Подобные интеграции в сувенирную продукцию и мерч интересны туристам, служат как в позиционировании региона с заметной этно-туристической составляющей, так и дают возможность творческого развития для молодежи, преемственности, сохранению и передаче традиционных умений и навыков.

Исторически научное познание и профессиональное образование были организованы на основе разделения на дисциплины и узкую специализацию, однако уже XX век начал диктовать свои условия. Понятие «междисциплинарность» имеет достаточно много толкований. Выделяют несколько подходов: мультидисциплинарность – в рамках нескольких дисциплин и преследующий несколько самостоятельных целей, объединенных единым контекстом; междисциплинарность – объединяющая исследователей из различных областей, что позволяет им вместе определить масштабы проблемы, согласовать методологический подход к проведению исследования и анализировать полученные результаты; трансдисциплинарность – это высший уровень комплексного подхода к научному познанию, который базируется на сотрудничестве не только ученых и исследователей, но и представителей неакадемического сообщества [4].

В дизайн-деятельности так или иначе используются все три аспекта взаимодействия. Междисциплинарные основы дизайна обусловлены спецификой решения задач в данной области. Для раскрытия проблематики междисциплинарных проектов по направлению обучения дизайн в ГрГУ наиболее уместным будет использовать значение как «сотрудничество» двух или более специальностей, что подразумевает комплексное, всестороннее исследование предмета.

Изначально, дизайн появился из художественной среды с появлением массовой продукции, когда инженеры-производители были вынуждены обратиться для улучшения эстетических качеств изделий на продажу. Позже, для повышения продаж потребовалось вовлечение специалистов из других областей: психологов, маркетологов, рекламщиков. Таким образом, дизайн стал все больше проявлять свой междисциплинарный подход, который необходим для производства продуктов или услуг. Для эффективного решения дизайн-задач знания методов исследования, технологий и материалов используются из разных областей.

С развитием цифровых и интернет-технологий функции дизайнера постоянно расширяются: для качественного выполнения дизайн-задачи к основным компетенциям эстетического формообразования присоединяются: сбор материала и концептуализация, знания и методы эргономики, менеджмента, психологии, коммуникации при проектировании продукта, использование современных компьютерных программ для визуализации прототипа [5].

В современной культуре для решения сложных проектов дизайн не может рассматриваться как изолированное явление. Он является результатом сотрудничества специалистов из различных областей, и междисциплинарный подход становится неотъемлемым атрибутом дизайна.

Приведем несколько примеров междисциплинарных проектов, выполненных 2022/2023 году в рамках курсовых работ на кафедре дизайна Гродненского государственного университета имени Янки Купалы.

«Разработка системы информационного обеспечения и продвижения фестиваля информационных технологий». В проекте приняли участия студенты специальностей: дизайн (виртуальной среды) Мацко А.Н. «Разработка элементов фирменного стиля и рекламной продукции для фестиваля информационных технологий (101 IT Fest)», журналистика Карпинчик А.Н. «Специфика освещения фестиваля информационных технологий в социальных сетях: жанровый аспект», информация и коммуникация Симанович А. А. «Особенности продвижения фестиваля информационных технологий средствами интернет-рекламы», научные руководители: Павленко Н.В., Рыжкович А.Ч. В рамках проекта были разработаны: фирменный стиль фестиваля, рекламная продукция, визуальный и информационный контент социальных сетей, выбрана стратегия продвижения фестиваля, место и форма позиционирования информации, комплексное стилевое решение всех форм информационной поддержки. Данный проект получил диплом как один из лучших проектов, подготовленный к реализации.

«Игровое моделирование как средство обучения специальной лексике на английском языке будущих дизайнеров». Идея проекта возникла у студентов направления дизайн как запрос на актуализацию содержания дисциплин по иностранному языку. Изучаемый ими курс представлял, скорее, обобщенное изучение сферы искусства, однако дизайнеры, в силу специфики деятельности, скорее нуждаются в более конкретных компетенциях: знания терминологий из области компьютерных технологий, проектной деятельности, коммуникации на переговорах с заказчиками и коллегами в мультикультурных проектах, умения создавать запросы для искусственного интеллекта (промт-инжиниринг). Была разработана концепция создания учебного пособия, рассчитанного на студентов 1 курса, а также начинающих дизайнеров. Контентную часть создавали студенты кафедры английской филологии специальностей: романо-германская филология – Седач В. А. «Обучение лексико-грамматическому аспекту иноязычной речи

студентов специальности «Дизайн» с использованием технологии предметно-языкового интегрированного обучения»; «современные иностранные языки» – Бетимерзаева Е.Д. «Технология игрового моделирования как средство обучения будущих дизайнеров профессиональной лексики на английском языке». Визуальное оформление: разработка дизайн-макета, иллюстрации, верстка – студентка специальности дизайн (графический) Мельникович Е.Е. «Разработка визуального контента дидактического цифрового средства по изучению профессиональной лексики на английском языке для дизайнеров». Научные руководители: Короткевич Ж.А., Павленко Н.В., Тарантей В.П. В результате проведенного комплексного исследования была разработана концепция печатного учебного пособия из серии «English for Special Purpose» со сквозной идеей «начинающий дизайнер и ментор», где на протяжении всех разделов обыгрывается та или иная ситуация, с которой может столкнуться молодой дизайнер (Приложение. Рис. 1-3) [6]. Данный проект имеет потенциал расширения и реализацию учебных пособий по курсам английского языка для других специальностей.

«Разработка мобильного приложения онлайн галереи белорусского искусства» объединила студентов специальностей: дизайн (виртуальной среды) - Горбач Ю. Д. «Разработка дизайна интерфейса мобильного приложения онлайн-галереи белорусского искусства»; программное обеспечение информационных технологий - Казак Е.И., Горощик В.А. «Разработка программного обеспечения мобильного приложения онлайн-галереи белорусского искусства». Научные руководители: Куц А.А., Павленко Н.В. Был выполнен работающий прототип галереи с он-лайн продажами и систематизированной поисковой структурой по различным видам запросов пользователей: по видам искусств, по жанрам, по стоимости, по размерам. Проект предполагает дальнейшее использование реальными заказчиками.

Все разрабатываемые междисциплинарные проекты были выполнены с учетом дальнейшей практической реализации, показали высокий уровень исполнения студентами, непосредственно расширили их опыт профессиональной деятельности и коммуникации.

Таким образом, наблюдаемая тенденция к интеграции различных предметов и дисциплин в проектной деятельности в системе высшего образования способствует формированию междисциплинарного характера подготовки специалистов. Новый опыт применения знаний и навыков в профессиональной сфере за пределами своей дисциплины развивают компетентностный уровень обучения, использует общекультурные и профессиональные знания и навыки, востребованные на рынке труда.

Литература / Фойдаланилган адабиётлар / References

1. Междисциплинарная подготовка научных кадров: монография / Т.А. Кузнецова [и др.]; под общ. ред. проф. В.Ю. Петрова. – Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2011. – 105 с.
2. Концепция практико-ориентированного образования в учреждении образования «Гродненский государственный университет имени Янки Купалы» [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://intra.grsu.by/storage/task/22830_9.doc . – Дата доступа: 04.04.2024.
3. Об утверждении порядка разработки междисциплинарных проектов [Электронный ресурс] / Приказ № 55 от 20.01.2018. – Режим доступа: https://intra.grsu.by/storage/task/22830_10.pdf . – Дата доступа: 04.04.2024.
4. Киселев В. Н, Нечаева Е. К. К вопросу о развитии междисциплинарных научных исследований в России [Электронный ресурс] // Ежегодник российского образовательного законодательства. 2014 г. Том 9. –Режим доступа: <https://lexed.ru/ezhegodnik-rossiyskogo-obrazovatel'nogo-zakonodatelstva/book/tom9/k-voprosu-o-razvitiy-mezhdistsiplinarnykh-nauchnykh-issledovaniy-v-rossii/> . – Дата доступа: 04.04.2023

5. Долгих М. Н. Междисциплинарные основания дизайна // Вестник Томского государственного университета, 2013. №. 377. – С. 58-61.

6. Мельникович Е. А. Разработка макета оформления многостраничного издания дидактического цифрового средства по изучению профессиональной лексики на английском языке для дизайнеров: курсовая работа по дисциплине «Дизайн-проектирование» / Е.А. Мельникович. – Гродно. : Гродненский государственный университет имени Янки Купалы; кафедра дизайна. 2023. – 41 с.

Приложение




Рис. 1. Раздел «Job Hunting».




Рис. 2. Раздел « Sketches and drawings».




Рис. 3. Раздел « Graphic Arts».

Nishonova Kamola
Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti Boshlang'ich
ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, STEAM texnologiyasi, innovatsion metodlar, ko'nikmalar, amaliy ko'nikma, nazariy ko'nikma, ko'rsatkich, daraja, usul.

Ключевые слова: Начальное образование, STEAM-технология, инновационные методы, навыки, практические навыки, теоретические навыки, показатель, уровень, метод.

Key words: Primary education, STEAM technology, innovative methods, skills, practical skills, theoretical skills, indicator, level, method.

Аннотация: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda STEAM texnologiyasida foydalanib, darslarni tashkillash haqida yoritib berilgan. Bugungi davr dunyo ta'limi oldiga ham katta vazifalarni qo'yimoqda. Bunda qo'yilgan asosiy talab yosh avlodni ma'naviy -axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье описано использование технологии STEAM при организации занятий в начальных классах. Сегодня перед мировым образованием стоят большие задачи. Главное требование – поднять духовное, нравственное и интеллектуальное развитие молодого поколения на качественно новый уровень, научить его адаптироваться к быстро меняющемуся миру. При этом она направлена на внедрение в учебный процесс инновационных форм и методов обучения.

Abstract: This article describes the use of STEAM technology in the organization of classes in elementary grades. Today, world education has great challenges. The main requirement is to raise the spiritual, moral and intellectual development of the young generation to a qualitatively new level, to teach them to adapt to the rapidly changing world. At the same time, it aims to introduce innovative forms and methods of education into the educational process.

”Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod sanalgan yoshlarning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois yoshlar orasida zo'ravonlik g'oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish maqsadida ular ongida, qalbida ma'naviy immunitetni yanada mustahkamlash zarur” [1].

Ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2018-yil 5-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5538-son Farmoni qabul qilindi. Unda xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida:

1. Xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish belgilangan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi № PP-3931-son qarori bilan tasdiqlangan "2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" ning II bo'lim, 11-bandida: Umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun avvalo ta'lim ishtirokchilari—pedagoglar, metodistlar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEAM metodi va ta'lim sifati yo'nalishida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llashi uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi.

STEM / STEAM / STREAM yangi yondashuvlari rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki mantiqiy fikrlash ta'limidir.

Ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki "mavzu"lar bo'yicha integratsiyalab olib borish. STEM –ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

STEAM -ta'limini joriy etishdan asosiy maqsad – o'quvchi yoshlarning qiziqishlarini maktab yoshidan erta aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanuvchan, yaratuvchan kadrlarni tarbiyalash.

STEAM o'quvchilarni ilhomlantiradi, o'quvchilar kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida loyihalashadi, rassomlar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta bolalar zavqlanib o'ynashadi.

Boshlang'ich sinflarda Tarbiya fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llasak, bolalar mavzuni yaxshiroq tushunib, atrofda insonlarni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirishni yangi darajasini ta'minlaydi.

Shunday ekan, „Mening sog'ligim” mavzusini STEAM texnologiyasi asosida ishlab chiqamiz.

STEAM texnologiyasidagi S harfi fanni bildiradi. Bunda o'quvchilar nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

Nazariy ma'lumot: Me'yori ovqatlanish-insonning salomatligini saqlash yoki yaxshilashga yordam beradigan oziq-ovqatlarni iste'mol qilishdir.

T harfi texnologiyani bildiradi. Mavzu bayoni bilan tanishib chiqqach, quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri ekanini o'zlari mustaqil bajarishadi.

- Donli mahsulotlarda oqsil ko'p bo'ladi ;
- Dukkakli mahsulotlar go'shtni o'rnini bosadi;
- Meva va sabzavotlar kunlik yegulikning yarmini tashkil qilishi mumkin;
- Shirinliklarni ko'p yeyish mumkin emas;

E harfi muhandislikni bildiradi. Bunda o'quvchilarga qog'oz yoki plastilindan o'zlari yoqtirgan vitamanga boy meva yoki sabzavotlarni yasashlari topshiriladi.

A harfi san'atni bildiradi. O'quvchilar o'zlariga xohlagan meva yoki sabzavotlar haqida ijodiy o'zlari fikrlab, she'r, hikoya, komediyali hikoya yoki o'sha meva va sabzavotlarni rasmlarini daftarlariga chizishlari mumkin.

M harfi matematikani bildiradi. Bunda o'quvchilar vitaminga boy biror meva, sabzavot yoki mahsulotlarni birini tanlab, ularda qancha kaloriya borligini aniqlashlari topshiriladi. Albatta, ularga boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Masalan, 1 ta olmada -30 kkal, 100 g go'shtda -218 kkal, 1 stakan sutda -42 kkal shu kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'limda STEAM yondashuvi o'quvchilarga har bir darsda o'qituvchi nazorati ostida mavzularni amaliy tarzda bajarishlari mumkin. O'z g'oyalarni haqiqatga aylantirishlari va yaratgan mahsulotlari uchun rag'batlantiradi. Ushbu ta'lim yondashuvi o'quvchilarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga yordam beradi va oily ta'lim muassasalarida o'qishni yanada osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PFRQ – 5538-son farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.
2. Avliyakov N.X. Musayeva N.N Pedagogik texnologiyalar-T.: „Fan va texnologiyalar“ nashriyoti, 2008-yil.
3. X.M. Baybayeva "STEAM ta'limi mazmun-mohiyati, ahamiyati" ma'ruza matni.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining elektron sayti: www.edu.uz.

Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li
Urganch innovatsion universiteti stajyor-o'qituvchisi
(dr.joshqinbek@gmail.com)

TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarning o'quv faoliyatini rivojlantirishda virtual ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil etadi. Virtual ta'limning asosiy afzalliklari sifatida, uning geografik cheklolarsiz, turli o'quv materiallariga oson va tez kirish imkoniyati, shuningdek, o'quv jarayonini individualizatsiya qilish qobiliyati keltiriladi. Tadqiqot jarayonida onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va interaktiv vositalarning talabalarning ta'lim olish sifatiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, maqolada virtual ta'lim tizimlarini joriy etish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Virtual ta'lim, onlayn ta'lim platformalari, interaktiv o'quv vositalari, virtual laboratoriyalar, ta'lim sifati, ta'limni individualizatsiyalash, elektron o'quv resurslari.

Abstract. This article analyzes the possibilities of using virtual educational tools in the development of students' educational activities. The main advantages of virtual education are its easy and quick access to various educational materials without geographical restrictions, as well as the ability to individualize the educational process. The impact of online platforms, virtual laboratories, simulators and interactive tools on the quality of students' education was studied during the research. The article also discusses problems and their solutions in the process of introducing virtual education systems.

Keywords: Virtual education, online educational platforms, interactive educational tools, virtual laboratories, quality of education, individualization of education, electronic educational resources.

Аннотация. В данной статье анализируются возможности использования виртуальных образовательных инструментов в развитии учебной деятельности учащихся. Основными преимуществами виртуального образования являются легкий и быстрый доступ к различным учебным материалам без географических ограничений, а также возможность индивидуализировать образовательный процесс. В ходе исследования изучалось влияние онлайн-платформ, виртуальных лабораторий, симуляторов и интерактивных инструментов на качество образования студентов. Также в статье рассматриваются проблемы и их решения в процессе внедрения систем виртуального образования.

Ключевые слова: Виртуальное образование, образовательные онлайн-платформы, интерактивные образовательные инструменты, виртуальные лаборатории, качество образования, индивидуализация образования, электронные образовательные ресурсы.

So‘nggi o‘n yillikda texnologiyaning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi, ayniqsa, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar, ta‘lim tizimiga ham keng miqyosda ta‘sir ko‘rsatdi. Jahon bo‘ylab oliy ta‘lim muassasalari zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning o‘quv faoliyatini yanada samarador va interaktiv qilishga intilmoqda. Virtual ta‘lim vositalari, masalan, onlayn platformalar, interaktiv darsliklar va virtual reallik ilovalari kabi o‘quv qurollar bu borada alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Virtual ta‘lim vositalari talabalarning motivatsiyasi va o‘quv natijalariga ta‘siri muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu vositalar talabalarga o‘zlarining o‘quv jarayonlarini boshqarish imkoniyatini beradi, bu esa ularning mustaqil o‘qishlariga bo‘lgan motivatsiyalarini oshiradi. Virtual ta‘lim platformalari o‘z ichiga olib kirgan interaktiv elementlar, masalan, videolar, animatsiyalar va o‘yin-baza o‘quv mashg‘ulotlari talabalarning diqqatini jalb etishda va ularni o‘qish jarayonida faol qatnashishga undashda samaralidir. Shuningdek, bu turdagi ta‘lim vositalari o‘quv materiallariga oson va qulay kirish imkonini ta‘minlaydi, bu esa talabalarning o‘z vaqtlarini boshqarish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

O‘zbekistonlik olim B. Ismoilov ta‘kidlashicha : “Virtual ta‘lim vositalari talabalarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular o‘quv materiallariga istalgan vaqtda kirish imkoniyatini beradi va o‘qish jarayonini ko‘proq shaxsiylashtiradi” [1].

Rossiyalik olimlardan biri A.Petrov esa bu borada quyidagi fikrni bildiradi: “Virtual ta‘lim platformalari talabalarga o‘zlarining bilim olish jarayonlarini boshqarish va mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa ularning umumiy o‘quv natijalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi” [2]. Virtual ta‘lim vositalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatlarini kengaytirishda va ularning bilimlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar turli o‘quv uslublariga moslashgan holda talabalarning bilim olishlarini turli shakllarda qo‘llab-quvvatlaydi.

Turli yosh guruhlaridagi talabalar uchun virtual ta‘lim vositalarini qo‘llashning samaradorligi bir qator faktorlarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida yosh, texnologiyalarga bo‘lgan moslashuvchanlik va avvalgi ta‘lim tajribasi muhim o‘rin tutadi. Masalan, yoshroq talabalar, o‘rta maktab va bakalavriat talabalar, o‘yin-asosli o‘qitish metodlari va interaktiv media vositalariga tez moslashishi mumkin. Bu yoshdagi talabalar uchun virtual reallik, augmentlangan reallik kabi texnologiyalarni qo‘llash o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Tadqiqotchi B.Mirzaev o‘zining izlanishlarida yoshroq talabalar o‘zlarini yangi texnologiyalar bilan osongina moslashtirishi mumkinligini va bu ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkinligini ta‘kidlagan: "Yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyati yoshlar orasida ancha yuqori, bu ularning o‘qish jarayonlarini tez va samarali o‘zlashtirishlariga yordam beradi" [3]. Boshqa tomondan, kattaroq yoshdagi talabalar, masalan magistratura va doktorantura dasturlaridagi talabalar, virtual ta‘limdan olinadigan foyda jihatdan farq qiladi. Ular uchun onlayn platformalar

orqali ma'ruzalarni tinglash, mustaqil tadqiqotlar o'tkazish va murakkab muammolarni hal qilish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratiladi. Rossiyalik olim Aleksandrova I.V. kattaroq yoshdagi talabalarning o'zlashtirish usullari haqida shunday deb yozgan: "Magistratura va doktorantura talabalarini uchun virtual ta'lim platformalari asosiy va ma'lumotlarni chuqur o'rganish uchun zarur bo'lgan asboblarni taqdim etadi, bu ularning ilmiy tadqiqotlari samaradorligini oshiradi" [4].

Ikki yosh guruhi o'rtasida virtual ta'lim vositalarini qo'llash samaradorligini taqqoslaganda, turli texnologik vositalarning psixologik ta'sirlari va ta'lim jarayoniga integratsiya darajasida katta farqlar mavjud. Shu sababli, ta'lim beruvchilar va dastur ishlab chiquvchilar o'z mahsulotlarini turli yosh guruhlari ehtiyojlariga moslashtirishi muhimdir.

Virtual ta'lim dasturlari va an'anaviy ta'lim usullarining integratsiyasi zamonaviy ta'lim muhitining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu integratsiya ta'lim jarayonini boyitish, talabalarning motivatsiyasini oshirish va o'quv materiallarini turli usullar bilan o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Virtual ta'lim vositalari, masalan, interaktiv videolar, onlayn testlar va simulyatsiyalar, an'anaviy darslar bilan birgalikda qo'llanilganda, ta'lim jarayonini ancha samarali va jozibali qilib beradi.

Virtual ta'lim vositalaridan foydalanish jarayonida texnologik muammolar va cheklovlar mavjud bo'lib, ularni hal qilish ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Birinchidan, internetga ulanish tezligi va barqarorligi muhim omildir. Ko'p hollarda, past internet tezligi virtual darslar va resurslardan foydalanishda muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammoni hal qilish uchun, ta'lim muassasalari va davlat organlari tomonidan infrastruktura modernizatsiyasi va optik tolali internet tarmoqlarini kengaytirish ishlari amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, talabalarga arzon va sifatli internet-paketlar taqdim etilishi ham muhimdir.

Ikkinchidan, virtual ta'lim platformalari va dasturiy ta'minotning ishonchligi masalasi ko'tariladi. Dasturiy ta'minotning texnik nosozliklari o'quv jarayonini to'xtatib qo'yishi mumkin, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal etish maqsadida, platformalarni muntazam ravishda yangilab turish va ularning ishonchligini oshirish kerak. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga texnik qo'llab-quvvatlash xizmati doimiy ravishda ta'minlanishi kerak.

Virtual ta'lim muhitida talabalararo va o'qituvchilar bilan muloqotni rivojlantirishning samarali usullari ko'p tomonlama yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, muloqotni rivojlantirish uchun virtual muhitni ishonchli va qulay qilish zarur. Bu muhit talabalar va o'qituvchilar uchun osongina foydalaniladigan, tezkor va ishonchli texnologik platformalardan foydalanishni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek, virtual muhitda muloqotni rivojlantirishda multimedia kontentidan foydalanish ham muhim rol o'ynaydi. Video darslar, interaktiv taqdimotlar va boshqa multimedia materiallari o'quv materiallarini boyitish va talabalarni jalb qilish uchun foydalanilishi mumkin.

Virtual ta'lim vositalari talabalarning o'quv faoliyatlarini oldinga siljitishda muhim o'rin tutadi, ayniqsa tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarining rivojlanishida. Bu vositalar interaktiv kontent, simulyatsiyalar, va o'zaro aloqalarni ta'minlaydi, bu esa talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb qiladi va ularni yangi muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga undaydi.

Rossiyalik tadqiqotchi Sergey Petrovning aytishicha, virtual ta'lim dasturlarida beriladigan mashg'ulotlar talabalarning muammolarni tez va samarali hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ularning ishlari shuni ko'rsatadiki, virtual muhit talabalarga real vaziyatlarda qo'llaniladigan mahoratlarni ishlab chiqish uchun imkoniyatlar yaratadi (Petrov, 2023) [5].

Shu tarzda, virtual ta'lim vositalari o'zlashtirish qobiliyatlarini, ayniqsa tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Turli tadqiqotlar bu vositalarning talabalarni yangi vaziyatlarga moslashishi va ularning ilmiy-amaliy mahoratlarini oshirishga qanday yordam berishini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda virtual ta'lim vositalari talabalarning o'quv faoliyatini samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar

talabalarga an'anaviy sinf xonalarida bo'lmagan imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Biroq, virtual ta'limni samarali amalga oshirish uchun texnologik infrastrukturani mustahkamlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish zarur. Joriy etilgan virtual ta'lim tizimlari orqali talabalarning motivatsiyasi va o'zlashtirish qobiliyatini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov B. "Virtual ta'limning talabalar motivatsiyasiga ta'siri", Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2021. B-142-143
2. Petrov A. "Virtual ta'lim platformalari va ularning o'quv natijalariga ta'siri", Moskva: Rossiya Fanlar Akademiyasi, 2022. B-47-48
3. Mirzaev B.N. Talabalarning texnologik vositalardan foydalanish qobiliyati va uning ta'limdagi ahamiyati. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Александрова И.В. Возрастные особенности восприятия виртуального обучения. - Москва: Наука и образование, 2023. Б.14-15
5. Petrov S., "Interaktiv ta'lim texnologiyalari va ularning o'quv samaradorligiga ta'siri", Moskva: Rossiya Fanlar Akademiyasi, 2023.
6. Quriyozov Elmurod Rajabboy o'g'li, Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li, Eshchanov Temur Saparmat o'g'li, "Creating transformer architecture based models for uzbek language", Urgench: Ilm sarchashmalari, 2023.
7. Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li, Sobirov Og'abek., Mashinali tarjima tizimlari uchun o'zbek tili gap strukturasi, Urgench 2022

Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi
FarDU bakalavr 3-bosqich talabasi
jorayevabonu03@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HARF BIRIKMASI BILAN IFODALANADIGAN UNDOSHLAR

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida harf birikmalari mavzusi kichik yoshdagi o'quvchilar uchun rang-barang ko'rinishda mashqlar bilan berilgan.

Mavzuga mos tarzda qoidalar izohlangan rasmlı topshiriqlar uchratishingiz mumkin.

Аннотация: В учебниках родного языка для начальных классов тема буквосочетаний представлена красочно с упражнениями для младших школьников. Вы можете найти задания в картинках, где правила объяснены по теме.

Annotation: In primary grade mother tongue textbooks, the topic of letter combinations is presented in a colorful way with exercises for young students. You can find picture assignments where the rules are explained according to the topic.

Kalit so'zlar: Ko'rgazma materialı, tovush, harf, metod, dastur, undosh tovushlar, element, kreativ.

Ключевые слова: Выставочный материал, звук, буква, прием, программа, согласные, элемент, креатив.

Key words: Exhibition material, sound, letter, method, program, consonants, element, creative.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.12.2022-yildagi qaroriga muvofiq [1] aholi o'rtasida gimnastika sport turlari ommaviyligini oshirish, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish maqsadida bir nechta qarorlar qabul qilindi:

1. Iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash, ularni professional sportchi sifatida tayyorlash yangi tizimini yo'lga qo'yish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar gimnastika sport turi bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyat yaratish.

3. 2023/2024 o'quv yilidan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotida „gimnastika ilk qadam” dasturi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun „Bolalar uchun gimnastika” dasturini joriy qilish.

Yurtimizda shu kabi istilohatlar amalga oshirilishi kelajak yosh avlod uchun poydevor sifatida xizmat qiladi. Bolalarni kichik yoshidan turli sohalar orqali band qilish ularning ham sog'lom ham boshqa turdagi befoyda mashg'ulotlar bilan shug'ullanishini oldini olish mumkin.

O'zbek tili alifbosida 2 harf birikishidan hosil bo'lgan undosh tovushlar mavjud. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun bu jarayon biroz chalg'ituvchi holatni yuzaga keltirib chiqaradi. Yangilangan ona tili darsligimizda harf birikmali tovushlar haqida 2-sinf 1-qism ona tili darsligida berilgan.

Masalan: 78-sahifa

O'zbek tilidagi **sh, ch, ng** undosh tovushlari **harf birikmasi** bilan ifodalanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga har bir birikmani alohida alohida izohlab berishi maqsadida muvofiq bo'ladi. Zotan 1-sinfda harf va tovushlar o'rganilgan jarayonda boshlang'ich tushunchalar berib o'tiladi.

Masalan:


Sh-harf birikmasi alifbodagi **s** va **h** tovush-harflari birikishidan hosil bo'ladi.

Ch-harf birikmasi alifbodagi **h** va yarm doira (c) elementlaridan tashkil topgan.

Ng-harf birikmasi alifbodagi **n** va **g** tovush-harflari birikishidan hosil bo'lgan.

Shu bilan birga darslikda harf birikmalariga mos ravishda bir nechta mashqlar berilgan .

Masalan: 78-sahifa. 1-mashq. Har birikmalari va bog'inlarini talaffuz qiling.



2-mashq. Ovoz chiqarib o'qing

- Ko'cha •Lochin
- Qo'shni •Mushuk
- Tengdosh •Pashsha
- Jangchi •Kichik
- Ishchi •uchburchak
- Dushanba •sharshara
- Chumoli •ishonch

Yozing. Harf birikmalarini tagiga chizing

Yuqorida berilgan mashqlar o'quvchilarni mavzu yuzasidan o'rganganlarini mustahkamlash uchun yaxshi natija beradi. Bundan tashqari o'qituvchi o'z kreativligidan kelib chiqib mavzuga doir ham harakatli ham mavzuni mustahkamlashga qaratilgan ko'rgazmali materiallar va qo'shimcha mashqlar tayyorlab kelishi tavsiya etiladi.

yax_i

ko'_a

ja_

mu_uk

ki_ik

a

Yuqori so'zlardagi bo'shliqlar o'rniga avval quyida berilgan harflar yordamida harf birikma hosil qilib so'zlardagi bo'shliqlarni to'ldiring.

s, h, h, c, h, g, g, s, h, n, c, h, c, h bu mashg'ulotni guruhlar kesimida o'tkazish qulay bo'ladi.

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida harf birikmasidan tashkil topgan tovush harflarning qo'llanilishi yuzasidan tahlil olib borildi. Yangi darsliklar tahlili, unda berilgan mashqlardan namunalarni uchratishingiz mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun eng asosiy jarayonlardan biri bu harf birikishidan hosil bo'lgan tovush harflar yuzasidan fikrlar ko'rib

chiqildi, tavsiyalar keltirib o'tildi. Dars jarayonlarida bolalar yoshiga mos ravishda ko'rgazma materiallar va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2-sinf ona tili darsligi 1-qism
2. www.president.uz
- © 2023 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
3. K. Qosimova, S. Matchanov, X.G'ulomova "Ona tili o'qitish metodikasi"
T.: "Nosir" nashriyoti.
4. N. Jo'rayeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari.
5. M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulov. O'zbek adabiy tili. T.: 1978
6. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001.
7. Jamolxonov.N, Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: O'qituvchi,2005.
8. Nurmonov.A O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O'zbekiston,2002
9. M.Mirzayev, C.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. T. 1978
10. O'zbek tili leksikologiyasi. T. 1981.
11. Fuzailov.S, Xudoyberganova.M, Yo'ldasheva.Sh T.: Ona tili „O'qituvchi“ nashriyoti
12. Rahmatullayev Sh, Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. - Toshkent: "O'qituvchi"
13. w.w.w.google.uz

Ismoilova Shahzoda Nurali qizi
UrIU "Pedagogika va boshlang'ich
ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

BO'LAJAK PEDAGOGOLARDA HUSNI XULQNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyo psixologlarining fikrlari hamda Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusufning "Ruhiy tarbiya" asaridan xusni xulqning alomatlari haqidagi g'oyalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, bilim, ko'nikma, matonat, farzand, jamiyat, tajriba, husni xulq, yolg'on, to'kin-sochinlik, matonat, muomala, muhabbat, insoniylik.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются мнения мировых психологов и идеи шейха Мухаммада Сади́ка Мухаммада Юсу́фа о признаках хорошего поведения из книги «Духовное воспитание».

Ключевые слова: образование, знания, умения, настойчивость, дети, общество, опыт, хорошее поведение, ложь, распущенность, настойчивость, поведение, любовь, человечность.

Abstract. This article examines the opinions of world psychologists and the ideas of Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf about the signs of good behavior from the book "Spiritual Education".

Key words: education, knowledge, skills, perseverance, children, society, experience, good behavior, lies, promiscuity, perseverance, behavior, love, humanity.

Bilamizki insonning ziynati uning tashqi ko‘rinishida yoki boyligida emas balki uning chiroyli odobidadir. Odob insonning xulq atvori go‘zal muomalasi halolligi o‘zini toza pokiza tutishi hamda insoniyligidadir. Ma‘lumki, hamma zamonlarda yaxshi xulqli, oliyjanob, shirin so‘z, go‘zal fazilatli insonlar jamiyatning ko‘rki, odamlarning a‘losi bo‘lib kelgan. Mol-dunyolari, boylıkları ko‘pligi yoki nasablarining ulug‘ligi insonning darajasini belgilamaydi. Ilm bilan odob doimo yonma-yon bo‘lishi lozim. Kishida shu xislatlarning ikkisidan biri bo‘lib, boshqasi mujassam bo‘lmasa, u komil inson bo‘la olmaydi. Har tomonlama komil bo‘lmagan insonda nuqsonlar bo‘ladi, adashish, xatolar, boshqalarga tobelik bo‘lishi, mustaqil dunyo qarash va fikrlashi yo‘q bo‘lishi mumkin. Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo‘lgan bo‘lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko‘nikmalari oz bo‘lsa, bunday shaxs ba‘zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo‘l uradi [1].

Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklardan ko‘z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba‘zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo‘l ko‘taradigan va o‘z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo‘layotgan kishilar uchraydi. Bundaylarning paydo bo‘lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku? Bolasining insoniy xatti harakatlariga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo‘lgan. Yaxshi tarbiya, ba‘zilar o‘ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o‘qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo‘lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma‘lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo‘shib o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba‘zan samarasiz bo‘lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo‘lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti harakatlardan shunchalik uzoq bo‘ladi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o‘z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat. Tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya‘ni kishi tug‘ilganidan to o‘lguniga qadar zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, bir tarbiya ko‘rgan avlod o‘rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo‘ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligini va abadiyligini ko‘rsatadi. Islom ta‘limotiga ko‘ra, farzand ota-ona zimmasidagi omonat bo‘lib, ular bu omonat haqida mas‘uldirlar. Farzandlar tarbiyasiga e‘tiborsizlik ulkan xato, omonatga xiyonat va kishi dinining nuqsonidir. Ota-ona farzandining birinchi murabbiydirlar.

Qu‘oni karimda oila ahliga e‘tiborning qanchalik zarurligini Alloh taolo shunday bayon qiladi:

“Ey mo‘minlar, sizlar o‘zlarinigizni va ahli-oilalaringizni o‘tini odamlar va toshlar bo‘lgan do‘zaxdan saqlangizki, u (do‘zax) ustida qattiqdil va qattiqqo‘l, Alloh o‘zlariga buyurgan narsaga itoatsizlik qilmaydigan, faqat o‘zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur” (Taxrim, 6-oyat)

Har qanday tarbiya, xususan nasihat oilada boshlanadi. Tarbiyaning bosh maqsadi – bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkazishdir. Ota va onalar yana unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e‘tibor bermagan kishi oradan yillar o‘tgach, uysiz, oilasiz qoladi [2].

Abu Homid G‘azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko‘ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o‘rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergan har bir kishi sherikdir. Agar bola e‘tiborsiz tashlab qo‘yilsa, yomonlik ichida o‘ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo‘ladi. Bunda gunoh yuki shu ko‘yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi” deydi. Bu xususda Alloh taolo Tahrim surasida **“Ey mo‘minlar, sizlar o‘zlarinigizni va ahli oilalaringizni do‘zaxdan saqlangiz”**, deb ogohlantiradi.

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo‘riqlaydigan go‘zal axloq va yaramas yo‘ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko‘proq himoya qilmog‘i kerak. Odobu tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o‘rgatish, yomonliklardan qaytarish, to‘kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg‘otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi.

Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo‘ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiyasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta tarbiyalash yo‘li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko‘p mehnat sarf qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy boshqarmasining muftiysi islom ulamolari, millatlararo ittifoqining a‘zosi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ham husni xulqning alomatlari haqida “ruhiy tarbiya” asarida to‘xtalib quyidagi fikrlarni ilgari surgan. Gohida murid jiddu jaxl qilib, ma‘siyatlarni tark qilib xulqining sayqallanganini va endi mujoxadaga hojat qolmaganini gumon qilishi mumkin. Aslida esa unday emas. Xusni xulq – chiroyli xulq mo‘minlardagi bir qancha sifatlarning majmuasidan iborat. Bular solix amal qilishi, imon keltirish, yolg‘on gapirmaslik kabi xislatlar mujassam bo‘lishi lozim. Mazkur sifatlarning hammasi borligi xusni xulqning alomatidir. Agar mazkur sifatlarning ba‘zisi bo‘lib ba‘zisi bo‘lmasa, borini saqlab yo‘g‘ini paydo qilish harakatida bo‘lishi kerak, yuqorida zikr qilingan sifatlarni topmasa ularni topishga jiddiylik ila harakat qilmog‘i lozim bo‘ladi degan fikrlarni ilgari surgan [2].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xusni xulqni shakllantirish uchun bola tarbiyasiga e‘tiborli bo‘lishimiz, tarbiyasidagi xato- kamchiliklarga ko‘z yummasligimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4- oktabr.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya” – Poklanish kitobi T.: “Hilol Nashr” 2023. 480 b.
3. Shayx Ahmad ibn Yusuf Abdudoim al-Halabiy. “Umdatul xuffoz”. Maktabul alom val buhus van nashr, Bang‘azi, Liviya. 1-nashr.1995.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol” “Sharq” nashriyoti, Toshkent. 2012.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar” T.: “Hilol Nashr” 2012
6. Internet saytlari. [http //www.bukhari.uz/](http://www.bukhari.uz/).

Surayyo Ismatova,

Durdona Ubaydullaeva,

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi,

san’atshunoslik yo‘nalishi 4-kurs talabalari

Ilmiy rahbar:filologiya fanlari doktori (DSc) H.Hamroeva

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING TARIXIY – FALSAFIY, MA’NAVIY – MA’RIFIY TAMOYILLARI

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘zbek bolalar folklor raqslarining tarixiy – falsafiy, ma’naviy – ma’rifiy tamoyillari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: mavsum, o‘tmish, marosim, folklor, o‘yin, bola, estetik tarbiya, dunyoqarash.

Аннотация: В данной статье рассматриваются историко-философские, духовно-воспитательные основы узбекских детских народных танцев.

Ключевые слова: времена года, прошлое, ритуал, фольклор, игра, ребенок, эстетическое воспитание, мировоззрение.

Annotation: This article examines the historical-philosophical, spiritual-educational principles of Uzbek children’s folk dances.

Key words: season, past, ritual, folklore, game, child, aesthetic education, worldview.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “bugun ma’naviyat boshqa sohalaridan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak! Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim” [1].

Darhaqiqat, yoshlar o‘rtasida ma’naviy — ma’rifiy ishlarni kuchaytirishda, ularni yangi bosqichga ko‘tarishda o‘zbek bolalar folklor raqs san’ati muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning didi, sezish, his qilish qobiliyati ularning ilk qiziqishlari jarayonida yuzaga keladi. Bu jarayonning asosiy xususiyatlaridan biri ularning tasavvurlari, xayolot olami va ijodiy fikrlashga moyilligi hamda bolalik havaslarida ko‘rinadi. Yosh avlodni ma’rifiy-estetik jihatdan tarbiyalashning asosiy tamoyillaridan biri — ma’naviy immunitetni shakllantirishda raqslar va o‘yinlardagi milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan umumbashariy g‘oyalar va tushunchalarning qimmatini beqiyosdir. Borliqni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xorazm bolalar folklor raqslaridagi milliy qiyofa, milliy xarakter, milliy o‘zlik tuyg‘usining teranligi va yuksakligi har qanday tomoshabinni o‘ziga tortadi. Ularni mazmun – mohiyati, ijro o‘rni va uslublari, harakatlar majmuasi, ijtimoiy – ma’rifiy ahamiyati jihatidan xilma – xil bo‘lib, ularni etnografik, badiiy – estetik nuqtai nazardan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, har bir xalqning milliy o‘zligini, tili va hayot tarzini, an’ana va urf - odatlarini ifoda etadigan folklor san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir folklor raqs zamirida yurt tarixi, urf – odatlari, rasm-rusumlari bilan uyg‘unlashgan falsafa va milliy madaniyat, qadriyatlar va an’analar mujassam. Xususan, bolalar folklor raqslari o‘zi mansub bo‘lgan xalqning tarixini, olijanob fazilatlarini ifodalaydi va targ‘ib qiladi.

Azal-azaldan kishilik jamiyati yaratgan eng ezgu an’analar san’at orqali rivojlanadi. Milliy raqs – milliy san’at va makonni, do‘stlik rishtalarini bog‘lovchi komponentlardan biri hamda madaniy qadriyatlarni yangi avlodlarga etkazish va saqlab qolish vositasidir. San’atning bu turi umumbashariy hodisa sifatida barcha xalqlarda o‘z aksini topgan, biroq, idrok va ifodaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullar bilan namoyon qilinadi. Zero, “o‘zbek raqslari – mutlaqo o‘ziga xos, beqiyos, shuning uchun ham ularni hamma joyda shu vaqtgacha ko‘rilmagan san’at sifatida, hamma joyda ham bir xil shavq, bir xil ishtiyoq bilan qabul qiladilar” [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi "Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarorida belgilanganidek, “Xalqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o‘zi talab etmoqda” [1]. Bolalarning o‘zidek beg‘ubor qo‘shiq va raqslar og‘izdan – og‘izga, avloddan – avlodga o‘tib sayqallanayotgan, taboro rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida beqiyos tarbiyaviy ta’sir qudratiga egadir. Taniqli rus san’atshunosi

N.A.Volodkinaning fikricha, “Har bir milliy raqs o‘zi mansub xalqning milliy xususiyatlarini aks ettiradi va xalq musiqasi hamda qo‘shiqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Milliy raqs – xalq tomonidan yaratiladi va uning madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi” [7].

Juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan bolalar o‘yinlari ajdodlarimiz dunyoqarashi va zakovatining eng ibtidoiy elementlaridan biri sifatida poetik folklor namunalarini ham qamrab olgan. Uning ildizlari kishilik jamiyatining ilk mehnat faoliyati va diniy marosimlari bilan tutashadi. Zero, ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati ularni urug‘ning urf-odatlarini, an‘analari, tarixi bilan, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi: rivoyatlar, qo‘shiqlar va raqslarni tanishtirishdan iborat bo‘lgan. Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni katta safiga qo‘shish deb ataladigan bayram – diniy marosimlar keng tarqalgan. Bular o‘ziga xos o‘yin, musobaqalardan iborat bo‘lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlarini, xalq og‘zaki ijodi tashkil qilgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o‘z hayotlari va muvaffaqiyatsizliklarini, shodliklari va qayg‘ularini ifodalaganlar”. Davrlar o‘tishi, zamon o‘zgarishi bilan ular ham takomillashdi, diniy marosimlar tarkibidagi xatti harakat va o‘yinlar o‘zining rituellik xususiyatini yo‘qotib, oddiy tomoshaga aylanib bordi.

Bolalarning o‘yin tanlashdagi didi va o‘yin turlari yillar o‘tib o‘zgarib bormoqda. Raqslar ham o‘z navbatida yangi estetik qirralarini kashf qilib, xalqning bilim va tajribasining asrlar davomida mukammallashgan ko‘rinishini o‘zida aks ettirmoqda. Ular xarakteriga tarbiya tizimining yo‘nalishi, uning mafkurasini, turmush an‘analari, milliy qadriyatlar singdirilgan. Binobarin, “O‘yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo‘lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O‘yinlarni kichik yoshdagi bolalar “Choriy chamber”, “Hakkalakam” kabi sanama o‘yinidan, katta bolalar “Qushim boshi” kabi topishmoqdan boshlaydi” [8]. Ularda bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari: jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, estetik did, mehnatsevarlik, milliy o‘zlik tuyg‘ularini qaror toptirish masalalari qamrab olingan.

Eng qadimgi bolalar o‘yinlari haqidagi ilk ma‘lumot XI asrda yashab ijod qilgan mashhur turkiyshunos olim, buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchraydi. Unda turkiy xalqlar orasida urf bo‘lgan, to‘p bilan o‘ynaladigan “Chavgon” o‘yini haqida yozilgan.

Albatta, har bir hududning, har bir o‘lkaning o‘ziga xos o‘yinlari, milliy qadriyatlari mavjud. Ularda beg‘ubor va sodda bolalikning qiziqishlari, havaslari yaqqol namoyon bo‘ladi. XX asrning 30-yillariga kelib bolalar qo‘shiqlarini keksa otaxonu onaxonlar tilidan yozib olish tajribasi boshlandi. Ajdodlarimizdan meros bolalar raqslari va o‘yinlarida jonli yoki jonsiz predmetlardan obrazlar tanlanadimi, tabiat yoki hayvonot olamiga murojaat qilinadimi, eng avvalo ular kichkintoylarning ruhiy dunyosini, tuyg‘ularini boyitishiga, ularning olam va odam haqidagi tasavvurlarini kengaytirishiga urg‘u berilgan. Kichkintoylarning o‘ziga xos olamini aks ettiruvchi bolalar raqs - o‘yinlari orasida “Berkinmachoq”, “Oq laylakmi, ko‘k laylak”, “Podshoh-vazir”, “Xolam mehmonga keldi”, “Qovun sayli”, “Shaftoli shakar”, “Cho‘pon bilan Shag‘al”, “Qoch bolam, qush ketdi”, “Qoch bolam, qush keldi”, “Cho‘loq qarg‘a”, “Kal echki”, “Botmon-botmon”, “Oq sholi – ko‘k sholi”, “Cho‘p o‘yini”, “Tosh o‘yini”, “Oq suyak”, “Podachi”, “Qushim boshi”, “Oshi halol”, “Mehmon-mehmon”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Ota yog‘och” singari ko‘p yillardan buyon o‘ynalib, turli yoshdagi bolajonlarga zavq ulashayotgan o‘yin turlari juda ko‘p.

O‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy-ma‘rifiy, estetik-axloqiy tuyg‘ularning paydo bo‘lishi va kamol topishi uchun bolaligidan boshlab milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi nihoyatda zarur. Ular tadqiqotchilar, olimlar tomonidan o‘rganilib, xalq tilidan va kuzatishlar orqali yozib olinib, tarixga muhrlanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Sh.Mirziyoevning Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. O‘zA, 2023 yil, 23 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. O'zA, 4 fevral, 2020y.
3. Salimov O. Yangi O'zbekiston davlati. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2023.
4. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1994.
5. Avdeeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. Birinchi kitob. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
6. O'zbek xoreografiyasi san'atida vorislik masalalari. To'plam. T, 2015.
7. Volodkina N.A. Urok narodno-senicheskogo tansa. Sankt-Pet.- 2019.
8. Vashkevich N.N. Istoriya xoreografii vsekh vekov i narodov. M.: 2017.
9. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. "O'qituvchi" nashriyoti, 1975.
10. Ibrohimova Z. Musaffo olam hayratlari. T.: 2015.
4. Razzoqov X. O'zbek xalk og'zaki poetik ijodi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1998.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax.: "Sangzor" nashriyoti, 2006.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-j. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-j. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
9. Qoraboev U. O'zbekiston bayramlari. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1991.
10. Habibulla G'. Xalq o'yinlari, qo'shiqlar va an'analariga bir nazar. T.: "Kamalak", 1992.

Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li
 UrIU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar"
 kafedrasida o'qituvchisi

OLIIY TA'LIMDA TARIX FANI O'QITILISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK YONDOSHUV AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil qilish va olib borilishida, undagi metodlarning tanlanishida psixologik yondashu roli bayon qilingan. Bundan tashqari interfaol metodlarning psixologik mohiyati hamda zamonaviy darsda e'tibor qilinishi lozim bo'lgan elementlar xususida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar. Psixologiya, xotida, diqqat, dars, talaba, o'qituvchi, ma'ruza, seminar, innovatsiya, tarix darslari, interfaol metod.

Аннотация. В данной статье описывается роль психологического подхода в организации и проведении уроков истории, а также в выборе методов. Кроме того, обсуждается психологическая сущность интерактивных методов и элементы, которые следует учитывать на современном уроке.

Ключевые слова. Психология, жена, внимание, урок, студент, учитель, лекция, семинар, инновация, уроки истории, интерактивный метод.

Abstract. This article describes the role of the psychological approach in the organization and conduct of history lessons, as well as in the selection of methods. In addition, the psychological essence of interactive methods and the elements that should be taken into account in the modern lesson are discussed.

Keywords. Psychology, wife, attention, lesson, student, teacher, lecture, seminar, innovation, history lessons, interactive method.

Bugungi ta'lim texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda tarix darslariga tangidan-yangi talablar qo'yilmoqdaki, bu talablarni bajarish uchun o'quvchidan katta hajmdagi

ma'lumotlarni tahlil qilish, mazmunini tushunish hamda eslab qolish talab qilinmoqda. Bu jarayonni samarali tashkil qilishda talabning qiziqishlari, imkoniyatlari va psixologiyasini hisobga olgan hoda yodlash talab qilinmoqda.

Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan xolda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligi rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi [6]. Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chikkan holda yondashil ganda, qiziqish, insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbayi rolini bajaradi.

Bugungi zamonaviy darvr har bir o'qituvchining darslik materialini mufassal tahlil etib borishi bilan barcha ommaviy axborot vositalari va internet axborotlarini sinchiklab o'rganib borib, ularga integratsion yondashib, dars jarayonida zarur axborotlarni to'g'ri tahlil etib, talabalar ongiga yetkazmog'i lozim [8].

Ta'lim jarayonida, ayniqsa tarix darslarida o'quvchi-talabning mavzuga doir ma'lumotlarni, ularning mazmun-mohiyatini esda saqlab qolishi darsning o'zlashtirilish darajasini belgilovchi asosiy talab hisoblanadi. Psixologlar tomonidan xotiraning asosan ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari ko'rsatiladi. Ixtiyorsiz esda olib qolishda hissiyot, ayniqsa, katta rol o'ynaydi. Bizda bironta hissiyot tug'diradigan material hissiyotimizga hech bir ta'sir qilmaydigan materialga qaraganda esimizdan ham tezroq, ham mustahkamroq o'rnashib qoladi. Ba'zan esa beixtiyor esda qoldirish ixtiyoriy esda qoldirishdan ko'ra samaraliroq bo'ladi. Ixtiyorsiz esda olib qolish ixtiyoriy esda olib qolish jarayonidan batamom ayrilgan bo'lmaydi: ko'pincha ixtiyoriy esda qoldirishda ixtiyorsiz esda olib qolish yuz beradi yoki esda olib qolinadigan material biror amaliy faoliyat tarkibiga kirgan bo'ladi.

Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalami qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. O'quvchining o'qishga bo'lgan munosabati diqqatda, his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni, avvalo, o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EHM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir [3].

Bunda o'qituvchi tomonidan ta'lim materiali tayyorlanganda uning imkon qadar diqqatni o'ziga jalb qilishiga, tadqimotdagi rasmlarning mavzuni to'ldirishiga, matnda berilayotgan asosiy tushuncha va atamalar alohida ranglar va belgilar bilan ajratib ko'rsatilishi e'tibor qaratish lozim. Asosiy tushunchalar taqdimotda yorqin ranglarda berilishi maqsadga muvofiq. Shu holatda o'quvchilar diqqati o'quv materialiga qaratilishi ta'minlanishi mumkin.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsarga muvofiq, tanlangan materialni ongli ravishda kuch berib maxsus esda qoldirishdir. Ixtiyoriy esda qoldirishda materialni puxta esda saqlab qolish maqsadida biz maxsus usullardan foydalanamiz: diqqatimizni to'playmiz, idrok qilinadigan materialni takrorlaymiz, uning mazmunini o'qib olish uchun harakat qilamiz, ilgari tajriba va bilimlarimiz bilan uni bog'laymiz va hokoza [5].

Ushbu holatda talaba ixtiyoriy yo'nalganlik asosida mavzuga doir materialni o'qib-o'zlashtiradi. Bu talabadan alohida vaqt va sharoit talab qilishi bilan birga uzoq muddatli mehnat faoliyatini ham talab qiladi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalami o'qitish, shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayoni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullar yangi mazmun bilan boyitilishi, milliy qiyofa, xarakter, his-tuyg'ulami hisobga olib, sa'y-harakatlar amalga oshirilishi joiz. Asta-sekin monologik o'qitish tizimidan dialogik, innovasion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o'qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg'unlashtirish) singan ta'limning yangi turlariga o'tish o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ulaning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali bo'lishini ta'minlaydi [3].

Ta'lim jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan esda saqlab qolish turi bu ixtiyoriy eslab qolishdir. Bunda talaba tarixga doir materialni eslab qolish maqsadida o'zi tanlaydi va uni o'zlashtirishga kirishadi. Ixtiyorsiz esda saqlab qolish jarayonida esa bunga erishish mushkul hisoblanadi.

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklar bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi [4]. Bunda o'qituvchi materialning qiziqarli shaklda talqin qilinishini ta'minlashi talab qilinadi.

Buning uchun o'qituvchi (muallim) ma'ruzaning mazmuniga, unda muammoli vaziyatning ("fikrlar jangi") ishtirokiga, ijodiy va nostandart fikrlashga, dalillarning (ishonchli omillarning) serobligiga, o'quv materiallarining mutaxassislik bilan uzviy aloqasiga (uyg'unligiga), ularning tarkibiy tuzilishiga, uni yuksak darajada talabalarning ongiga yetkazish uslubiga, muallimning tinglovchilariga munosabatini (usullar bilan muloqot o'rgatish uslubini, muomalaga kirishish maromiga, odobiga, nazokatiga), auditoriya (laboratoriya) bilan uzviy bog'lanishga va uni boshqarishga, pedagogik faoliyatni oqilona idora qila olishga, ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun intilishga alohida e'tibor berish ayni muddaodir [3].

Interfaol metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, "tilga nima kelsa", lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko'proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi. Ya'ni, bunda "erkin assotsiatsiyalar"ga imkon beriladi va oxir oqibat guruhning o'zi ma'lum rasional, "mag'zni" ajratib oladi [3].

Ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblangan ma'ruza davomida ta'lim beruvchining nutqi katta ahamiyatga ega. Intonatsiya va tonallik nafaqat o'quvchilarning ongiga, balki his-tuyg'ulariga ham ta'sir qiladi, chunki ular so'z va iboralarga hissiy rang beradi [7]. Nutq pauzalari, to'g'ri qo'llanilganda, aytilgan so'zlar va iboralarning ma'nosini yaxshiroq yetkazish imkonini beradi. Nutq tezligi ham uning ifodaliligini belgilaydi. Juda tez nutq ham yaroqsiz, chunki bu o'quvchilarning diqqatini o'qituvchi aytayotgan narsaga jamlashni qiyinlashtiradi va barcha ma'lumotlarni "hazm qilishga" vaqt ajratadi, shuningdek, nutqning juda sekinligi o'quvchilarga uyquchan ta'sir ko'rsatadi. Lug'at boyligi majoziy nutqqa va u orqali ifodalilikka hissa qo'shadi.

Ma'ruza davomida maruzachi tomonidan berilishi lozim bo'lgan materiallar hajmi tanlanganda talabalar o'zlashtira olish darajasi, dars davomiyligi, darsda o'quvchi va o'qituvchi muloqoti uchun alohida vaqt ajratish talab qilinadi. Ma'ruza davomida mavzu rejalarga doir ma'lumotlar ham balansli holatda bo'lishi mavzuning bir xillik va zerikarlilik darajasini pasaytirishiga xizmat qilishi mumkin. Mavzuning har bir qismi yakunida talabar bilan

ma'lumotlarni birgalikda mushohada qilish orqali mustahkamlab borish dars samaradorligini oshishga xizmat qilibgina qolmay, talabaning diqqatini jamlashga yordam beradi.

Darsga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, zamonaviy ta'limning an'anaviy ta'lim metodikasi yordamida olib borilishi talaba qiziqishlari va motivlariga mos tushmasligi masalaga innovatsion yondashishni taqozo qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko'p sub'ektki (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi) [2].

Tarix darslarining ma'ruza turida olingan nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishning auditoriya sharoitidagi ikkinchi shakli bu seminarlar hisoblanadi. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi vazifasini o'tasa, talabalat unda kichik ma'ruzalari bilan ishtirok qilishadi. Talabalarning ma'ruzalari bo'yicha izohlar quyidagicha bo'lishi kerak:

- mustaqil fikrlashga yo'naltirib turish;
- tavsiya etilayotgan masalaning mohiyati va shaklini aniqlash;
- talabalar bahsidagi nuqtai nazarlarni darrov farqlab olish;
- masalaning nostandart hal qilinishini rag'batlantirish [1].

Tarix darslarini tashkil qilishda talabalarning psixologik holati, auditoriyaning umumiy kayfiyati, bilim darajasi, mavzuning qamrovi, undagi ma'lumotlarning keragidan oshib yoki kamayib ketmasligiga, darsda qo'llanilayotgan ko'rgazma va o'quv vositalarining talaba diqqati va qiziqishini o'ziga qarata oladigan shaklda tashkil qilinishiga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T., 2006.
2. Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. –T.: "Navro'z", 2019.
3. Umarov B.M. Psixologiya. –T.: "Voriz-nashriyot", 2012.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. –T., 2010.
5. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. –T., 2010.
6. Ғозиев Э. Умумий психология. 1 китоб. –Т.: «Университет», 2002.
7. Ильин Е.П. Психология для педагогов. – Санкт-Петербург: «Питер», 2012.
8. Тошпўлатов Т., Ғаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. –Т.: "Turon-iqbol", 2010.

TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasi va bo'lajak pedagoglarni o'qitish jarayonida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda bitiruvchilarning ilmiy-tadqiqot tayyorgarligini ta'minlash va rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, ilmiy tadqiqot, tadqiqot, pedagogik tadqiqot.

Annotation

In this article, the concept of research competence and specific features of the development of research competences in the process of training future pedagogues, as well as practical recommendations for ensuring and developing research readiness of graduates are given.

Key words: competence, research competence, scientific research, research, pedagogical research.

Аннотация

В данной статье даны понятие исследовательской компетентности и особенности развития исследовательской компетентности в процессе подготовки будущих педагогов, а также практические рекомендации по обеспечению и развитию исследовательской готовности выпускников.

Ключевые слова: компетентность, исследовательская компетентность, научное исследование, педагогическое исследование.

Ta'lim bilan bog'liq adabiyotlarda kompetentlik tushunchasiga juda ko'p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya – bu egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanish va uni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetentlik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiy professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga etariligi ham haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning bir guruhi tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishni ta'kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa tadqiqotchilik faoliyatni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bir butun majmuidir deb hisoblashadi. Bu borada biz o'z tadqiqotimizda tadqiqotchilik jarayoni uchun quyidagi ishchi ta'rifni tavsiya etamiz.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi – deganda biz tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko'nikmalarga aytish mumkin. Tadqiqotning asosiy g'oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko'rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli o'quvchilarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olishi va pedagogik tadqiqotlar olib borish qobiliyatlari muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda ilg'or xorij tajribalari asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun yosh pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim tizimi talablari asosida ichki imkoniyatlarni

ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqobat kuchayib bo'lajak pedagoglar zimmasiga o'z kasbiy kompetentligiga ega bo'lishi talab etilmoqda. Shu qatorda har bir pedagog kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi bilan bir qatorda o'z sohasi doirasida ilmiy izlanishlar olib borish salohiyatiga ega bo'lishi ham zarurdir. Buning uchun, avvalo, oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda kasbga oid bilimlar bilan bir qatorda tadqiqotchilik kompetensiyalarini ham shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun hozirgi kunda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga eng ustivor vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta'lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;

- jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish, avvalo, talabaning kreativlik, ilmiy yangiliklar yaratish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdan boshlanadi. Hech kimga sir emaski, faqat o'quv dasturiga qat'iy amal qilish, nazariy materialni yodlash, konspekt qilish o'quv dasturining hali ham asosiy qismini tashkil etmoqda. Talabalarda ilmiy izlanish, ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirib borish uchun esa o'quv dasturining ko'p qismini mustaqil ta'lim egallashi juda muhim. Shu orqali talabalarda ilmiy tadqiqot haqida yetarlicha tushuncha bo'lishi bilan birga, tadqiqotchilik ko'nikmalari ham paydo bo'ladi. Buning uchun o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish bilan birga universitet professor-o'qituvchilari bilan konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlarda talabalar tinglovchi bo'lib ishtirok etishi lozim. Bular orqali talabalarda tadqiqotchilik haqida nazariy bilimlar shakllanadi. Talabalar shu bilimlar orqali o'z sa'y-harakatlarini tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiradi. Tadqiqot faoliyati talabalarni o'z ustida ishlash, aqliy mehnat qobiliyati darajasini oshirish, tadqiqotchilik malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.2019-yil 8-oktyabrdagi PF 5748-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (3-bob, 3-paragraf), Toshkent-2019.
2. Talabalarining ilmiy- tadqiqot faoliyati // Ikki jildlik ilmiy- uslubiy to'plam / Umumiy tahririyati A.S. Obuxova, V.1: Nazariya va uslublar. M., 2007 yil.
3. Shashkina M.B., Bagachuk A.V. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish sharoitida pedagogika universiteti talabalarining ilmiy- tadqiqot faoliyatini shakllantirish: monografiya. - Krasnoyarsk, 2006 yil.
4. Babanskiy Yu.K. Pedagogik tadqiqotlar samaradorligini oshirish muammolari. - M.: Pedagogika, 1982 yil.
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. –B.120.

G'aniyeva Adiba Tursinboy qizi

*UrIU "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi
adibaxon97@g.mail.com*

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarga kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonida o'quvchilarga motivatsiya berish hamda ta'lim jarayoniga jalb qilish kabi masalalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, qobiliyat, loyaqat, motivatsiya, ta'lim, ko'nikma, muvaffaqiyat, texnologiya.

Аннотация: В этой статье рассматриваются такие вопросы, как развитие творческого мышления учащихся в процессе обучения, а также мотивация учащихся в процессе обучения и вовлечение их в образовательный процесс.

Ключевые слова: креативность, способности, достойность, мотивация, образование, навыки, успех, технологии.

Annotation: This article discusses issues such as the development of students' creative thinking in the learning process, as well as the motivation of students in the learning process and their involvement in the educational process.

Keywords: creativity, abilities, worthiness, motivation, education, skills, success, technology.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirilishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nimlarini shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari XXI asr ko'nikmlariga ega ishchilarni taqazo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarida ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Ta'lim muassasasida kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Ta'lim muassasasi yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining xayoli va qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan maqsadlari mazmunida ham [1].

Ta'lim muassasasida o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishni oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi kerak. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga salohiyatni ochishiga xizmat qiladi. Har qaysi boshqa ko'nikma kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va manzili yondashuv orqali rivojlantirishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek tuyulishi mumkin. Aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirishi mumkin. O'quvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etishini anglashga yirdam beradi. O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish

bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. Boshqa ko'nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek ko'rinadi. Aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega. O'qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shartsharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o'quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o'qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko'p jihatli malakalar bilan bog'laydi [4].

Kreativlikni baholash o'quvchining qobiliyatlari haqidagi muayyan da'volarni dalilga asoslangan fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, o'quvchining baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalillar bilan ta'minlaydi, psixometrik tahlil esa har bir da'voni tahlil qilish uchun isbotning yetarli ekanligini belgilaydi. Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo'lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an'anasiga ega bo'ladi. Demak, kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida kreativ fikrlash o'qituvchi uchun o'quvchi uchun ham juda muhim hisoblanadi. Chunki, ijodkorlik barcha uchun juda zarurdir. Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Ismailov "Kreativ fikrlashni baholash". Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil.
2. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., 2007 С. 598–599.
3. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. - 2009 - №12. - С. 29-34.
4. М. Usmonboyeva, А. То'rayev "Kreativ pedagogika asoslari" o'quv uslubiy majmua Toshkent 2016-yil
5. www.edu.uz.
6. www.pedagog.uz.
7. www.lex.uz

*Данилов О.Е.
Глазовский государственный инженерно-педагогический
университет имени В.Г.Короленко
доцент кафедры математики и информатики
Глазов, Россия*

ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВОЙ ВИЗУАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В статье представлена дидактическая модель формирования биологического понятия с помощью цифровой визуализации. Предлагается использовать данную шестиуровневую модель при обучении биологии на базе технопарков педагогических университетов. Приводится пример реализации методики изучения клетки.

Ключевые слова: дидактическая модель, формирование понятия, цифровая визуализация, биология, процесс обучения.

Danilov O.E.

Glazov davlat muhandislik-pedagogika universiteti

V.G.Korolenko nomidagi universitet

Matematika va informatika kafedrası dotsenti

Glazov, Rossiya

DIGITAL VISUALIZATION FOYDALANISHDA BIOLOGIK TUSHUNCHANI SHAKLLANISHNING DIDAKTIK MODEL I

Annotatsiya: Maqolada raqamli vizualizatsiya yordamida biologik kontsepsiyani shakllantirishning didaktik modeli keltirilgan. Pedagogika oliy o'quv yurtlari texnoparklari negizida biologiya fanini o'qitishda ushbu olti bosqichli modeldan foydalanish taklif etiladi. Hujayralarni o'rganish texnikasini amalga oshirishga misol keltirilgan.

Kalit so'zlar: didaktik model, kontsepsiyani shakllantirish, raqamli vizualizatsiya, biologiya, o'quv jarayoni.

Danilov O.E.

Glazov State University of Engineering and Pedagogic

named after V.G.Korolenko

Associate Professor of the Department of Mathematics and Computer Science

Glazov, Russia

Abstract: The article presents a didactic model for the formation of a biological concept using digital visualization. It is proposed to use this six-level model when teaching biology on the basis of technology parks of pedagogical universities. An example of the implementation of the cell study technique is given.

Keywords: didactic model, concept formation, digital visualization, biology, learning process.

Благодаря развитию методов цифровой визуализации появилась возможность представления информации обучающимся в виде графических образов объектов микромира, доступных для детального изучения. При этом, как показывает практика, значительно улучшается восприятие учебной информации, что способствует повышению качества обучения.

В обучении биологии на базе технопарков визуализация достаточно органично реализуется с помощью цифровых экспериментальных установок [1]. Как правило, в таких

установках используется цифровой микроскоп, который уже снабжен ЖК-экраном для наблюдения, либо подключается к визуализирующему устройству (стационарному компьютеру, ноутбуку, планшету, ЖК-панели или мультимедийному проектору). Выбор визуализирующего устройства зависит от вида эксперимента. В случае демонстрационного эксперимента выбирают устройства с большим экраном, которые могут быть размещены вдали от микроскопа, в случае лабораторного или индивидуального эксперимента устройство должно быть более компактным и удобным для размещения вместе с микроскопом на лабораторном столе. В связи с тем, что в настоящее время метод цифровой визуализации применяется систематически, так как он является универсальным методом исследования биологических объектов микромира с помощью цифровых микроскопов, в методике обучения биологии возникает потребность в дидактической модели такого процесса обучения. Любая инновационная образовательная технология требует от обучающего определенных усилий для того, чтобы он мог успешно ею овладеть. Поэтому дидактическая модель обучения с помощью цифровых приборов будет полезной для педагогов-практиков (в том числе работающих в технопарках), так как с ее помощью они получают конкретные рекомендации для управления процессом обучения.

Рассмотрим некоторые важные психологические аспекты процесса познания, которые влияют на формирование биологических понятий в сознании обучающихся. В процессе познания выделяют два уровня: чувственный и рациональный. Они связаны между собой и имеют свои специфические формы выражения. Познание начинается с того, что органы чувств человека взаимодействуют с внешним миром. Они получают сигналы и вызывают ощущения, при помощи которых человек вступает во взаимоотношения с окружающими его предметами. Опираясь на такое взаимодействие и внутренние процессы, человек формирует ощущения, восприятия и представления. Информация, полученная им с помощью органов чувств, фиксируется и перерабатывается на уровне рационального познания в форме понятий, суждений, умозаключений. Этот процесс называют абстрактным мышлением.

Ощущение представляет собой простейшую форму психических процессов мозга. Это элементарный чувственный образ, отражающий свойства предметов окружающего мира. Все ощущения субъективны по форме, так как всегда являются ощущениями конкретного человека. В то же время они объективны по содержанию, так как отражают объективную реальность (объект познания).

Восприятием называют конкретно-чувственный наглядный образ предмета изучения, возникающий при воздействии этого предмета на органы чувств человека. Оно представляет собой целостный образ, полученный на основе отдельных ощущений, но, в отличие от ощущения, является осмысленным. В нашем случае предмет изучения является визуализированным образом реального предмета микромира. Восприятие может зависеть от целей и задач учебной деятельности и носить активный характер, который выражается в устойчивом внимании и интересе обучающихся к предмету изучения, в стремлении к его осмыслению. Обучающий должен стремиться поместить предмет изучения в такие условия, в которых он будет восприниматься обучающимися наилучшим образом. На основе восприятия накапливаются факты, анализ которых приводит к формированию у обучающихся суждений. С помощью восприятия у них складывается представление о предмете изучения, которое связано с памятью.

Представление вызывается ассоциативно и является некоторым обобщением, дающим возможность проводить мыслительные операции с предметом изучения или его свойствами без контакта с ним. Оно имеет абстрактный характер, выражается словами и отражает предшествующий опыт человека.

Понятие, в отличие от форм чувственного познания, является формой рационального познания. Оно представляет собой мысль, отражающую общие существенные свойства и связи предмета, и включает сам акт понимания. Понятие выходит за уровень чувственного познания, потому что связано с абстрагированием. Другие формы

рационального познания – это суждения и умозаключения. Они представляют собой формы познания, в которых понятия изменяются. Суждение является мыслью, утверждающей или отрицающей что-либо о предмете и закреплённой в языке с помощью предложения. Суждение составляет идеальную, смысловую сторону предложения. Мысленную связь суждений и выведение из них новых суждений называют умозаключением.

В нашем случае использование цифровой визуализации выступает как средство активизации психических функций головного мозга (мышления обучающихся), а также облегчает понимание изучаемого материала. Зрительный образ нужен для того, чтобы он способствовал переводу информации в словесно-логическую форму. Именно таким образом визуализация способствует обобщению, помогает раскрыть суть понятий, подводит обучающихся к пониманию закономерностей, сущность которых педагог раскрывает словесно-логическим способом. Делая знание «видимым», быстро схватываемым, визуализация повышает скорость мышления. Вместо длинной цепочки рассуждений и умозаключений, содержащих мысленные образы, обучающиеся используют в мышлении более привычные для них зрительные образы, состоящие из пространственных объектов. Таким образом визуализация способствует раскрытию содержания понятия. В то же время она является способом систематизации и обобщения знаний.

Дидактическая модель формирования понятия может иметь следующие шесть уровней [3]:

- уровень идентификации объекта изучения;
- уровень названия понятия объекта изучения;
- уровень описания объекта изучения;
- уровень конструирования модели объекта изучения;
- уровень упорядочивания действий по исследованию объекта изучения и систематизации знаний о нём;
- уровень демонстрации практических и умственных действий по исследованию объекта изучения.

Рассмотрим, как это можно использовать на примере изучения клетки.

Первый (низший) уровень предполагает распознавание наглядных образов и отнесение конкретного объекта исследования к данному классу. Визуальные образы должны нести в себе в доступной для обучающихся форме информацию, достаточную для запоминания и формирования в их сознании наглядно-чувственного образа объекта. Каждый такой образ создается с учетом конкретных особенностей объекта, изучается и интерпретируется с использованием имеющихся у обучающихся знаний. Например, обучающиеся могут определить, что наблюдаемый объект – это клетка, и к какому классу она относится. Для этого они должны увидеть, похож ли исследуемый объект по своей структуре на клетку, а затем имеет ли он оформленное клеточное ядро, что позволяет им отнести этот биологический объект (клетку) к определенному классу (эукариоты или ядерные клетки).

Второй уровень предусматривает конкретное устное и письменное воспроизведение понятия на основе сформированных в сознании обучающихся наглядных образов. Обучающийся не должен ограничиваться только оценкой устного воспроизведения понятия. В работе Д.Б.Эльконина [2] показано, что письменная речь отличается от устной речи функционированием и внутренним строением. Она более абстрагирована от ситуации, по-другому мотивирована, произвольнее, чем устная речь. Поэтому обучающиеся должны уметь устно формулировать определение клетки, как элементарной единицы строения жизнедеятельности всех организмов, и представлять его в виде текста.

Третий уровень модели предполагает устный и письменный пересказ наблюдаемой картины. Здесь важно отметить то, что особенностью наглядных методов обучения является их применение обучающим в сочетании со словесными методами. Взаимосвязь слов и наглядных образов, наблюдаемых обучающимися, вытекает из того, что диалектическое познание объективной реальности предполагает применение наблюдения в

единстве с абстрактным мышлением. Восприятие обучающимися через зрительную сигнальную систему должно органически сочетаться с пониманием сопровождающего это восприятие объяснения обучающим. Цель такой учебной деятельности – на примере рассказа, сопровождаемого демонстрацией, и текста в учебнике создать условия для формирования умения устного и письменного пересказа обучающимися наблюдаемой картины. Например, обучающиеся могут рассказать о том, что наблюдают в составе клетки, и создать текст, в котором содержится информация о том, что клетка имеет ядро, цитоплазму, хромосомы, митохондрии и т. п., включающая описание этих составляющих клетки.

Четвертый уровень требует от обучающихся умения изобразить объект по заданным характеристикам, используя известные им объекты графической визуализации. Образное мышление подразумевает оперирование образами и проведение мыслительных операций, основанных на представлениях. Поэтому обучающий должен сосредоточить свои усилия на формировании у обучающихся умения визуализировать (создавать не только на бумаге, но и в собственном сознании, наглядные образы). Упражнения на формирование подобного умения способствуют развитию памяти. На этом этапе нужно сформировать у обучающихся умение рисовать клетку, учитывая ее сложную внутреннюю структуру.

Пятый уровень предполагает, что обучающиеся способны самостоятельно выполнять действия по исследованию объекта в определенной последовательности, а также классифицировать и систематизировать учебную информацию о нем. Им предлагаются система исследовательских заданий и методика работы с ними, учитывающие вид исследуемого объекта. При отборе содержания заданий необходимо руководствоваться следующими требованиями: возможностью использования опорных элементов знаний и умений, простотой и доступностью экспериментальной проверки гипотезы, познавательной и практической значимостью полученного ответа, возможностью создания проблемной ситуации, возможностью формулировки проблемы. Важно обратить внимание обучающихся на содержание и формулировку цели деятельности, прогноз результатов выполнения заданий, обоснование выбора метода исследования, алгоритм проведения исследования и оценивание полученных результатов. В этом случае обучающимся можно предложить изучить разные виды клеток, выяснить, чем клетки отличаются от вирусов, чем живые клетки отличаются от мертвых, как происходит гибель клеток, и др.

Шестой (высший) уровень требует от обучающихся успешного выполнения практических и умственных действий, предусмотренных стандартом образования. На базовом уровне они должны демонстрировать владение понятием, методом визуализации как одним из методов научного познания, используемым в биологии; умение обнаруживать закономерности, объяснять полученные результаты и делать выводы; умение применять полученные знания для объяснения условий протекания биологических явлений и процессов. На углубленном уровне – обладание системой знаний о закономерностях биологических явлений и процессов; умение исследовать и анализировать биологические объекты; владение умением выдвигать гипотезы на основе знаний о закономерностях биологических явлений и процессов; владение методом самостоятельного планирования и проведения экспериментов, умение прогнозировать и анализировать результаты таких экспериментов.

Например, деятельность при изучении биологических объектов с помощью цифрового микроскопа может включать в себя следующие этапы:

- целеполагание;
- формулировка задачи исследования;
- составление плана исследования;
- выполнение исследования с помощью цифрового микроскопа;
- анализ результатов исследования;
- формулировка выводов.

На начальном этапе исследования обучающиеся должны поставит цель, которая предполагает наблюдение деления клеток. Для этого они должны понимать, что в теории подразумевается под делением клеток. Затем выяснить, что для этого необходимо (какое оборудование и какие биологические объекты) и составить план эксперимента по наблюдению деления клеток. Реализовав этот план, они должны провести анализ собственных наблюдений и сформулировать вывод.

Применение предложенной дидактической модели в процессе обучения биологии на базе технопарка педагогического университета, на наш взгляд, позволит сделать процесс обучения более эффективным.

Литература / Фойдаланилган адабиётлар / References

1. Данилов О. Е. Применение информационно-измерительных систем в обучении биологии / О. Е. Данилов // Научно-инновационные исследования и разработки: новые вызовы современности: Сборник VI Международной научно-практической конференции (Саратов, 12 мая 2023 года). – Саратов: НОП «Цифровая наука», 2023. – С. 406-410.
2. Эльконин Д. Б. Развитие устной и письменной речи учащихся / Д. Б. Эльконин. – М.: ИНТОР, 1998. – 112 с.
3. Gerlach V., Sullivan A. Constructing statements of outcomes. – Inglewood, CA: Southwest Regional Laboratory for Educational Research and Development, 1967. – 154 p.

Чиговская-Назарова Я.А.

Глазовский государственный инженерно-педагогический университет имени В.Г.Короленко

Ректор

Глазов, Россия

О ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ, ФИЗИКИ И ИНФОРМАТИКИ В ГЛАЗОВСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

Аннотация: В статье представлена практика подготовки учителей физики, математики и информатики в ГИПУ имени В.Г.Короленко. Описан механизм работы с выпускниками и абитуриентами, а также их внеучебные виды занятий.

Ключевые слова: учитель математики, учитель физики, учитель информатики, педагогический университет.

Chigovskaya-Nazarova Y. A.

Glazov davlat muhandislik-pedagogik

V.G.Korolenko nomidagi universitet

Rektor

Glazov, Rossiya

GLAZOV DAVLAT MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDA MATEMATIKA, FIZIKA VA INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TO‘G‘RISIDA

Annotatsiya: maqolada vgipu nomidagi fizika, matematika va informatika o‘qituvchilarini tayyorlash amaliyoti keltirilgan. V.G.Korolenko Tomonidan Yaratilgan. Bitiruvchilar va

abituriyentlar bilan ishlash mexanizmi, shuningdek ularning darsdan tashqari mashg'ulotlari tasvirlangan.

Kalit soʻzlar: matematika oʻqituvchisi, fizika oʻqituvchisi, informatika oʻqituvchisi, pedagogika universiteti.

Chigovskaya-Nazarova Ya.A.

*Glazov State University of Engineering and Pedagogics
named after V. G.Korolenko*

Rector

Glazov, Russia

ABOUT THE TRAINING OF TEACHERS OF MATHEMATICS, PHYSICS AND COMPUTER SCIENCE AT THE GLAZOVSKY STATE ENGINEERING AND PEDAGOGICAL UNIVERSITY

Abstract: The article presents the practice of training teachers of physics, mathematics and computer science at V.G.Korolenko vGIPU. The mechanism of working with graduates and applicants, as well as their extracurricular activities, is described.

Keywords: mathematics teacher, physics teacher, computer science teacher, pedagogical University.

Глазовский инженерно-педагогический университет на протяжении 85 лет готовит педагогические кадры для Удмуртской Республики (в том числе и кадры высшей квалификации). За это время вуз приобрел огромный педагогический опыт и создал собственные традиции, оставаясь в то же время открытым для инноваций и готовым отвечать на вызовы современности.

В настоящее время ГИПУ является образовательным центром на севере Удмуртии, реализующим все уровни среднего профессионального и высшего образования (бакалавриат, магистратура, аспирантура).

Приоритетной задачей, которую решает наш вуз, является подготовка учителей, готовых работать в современной школе, способных реализовывать образовательные государственные стандарты нового поколения. Мобильность, способность к решению нестандартных педагогических ситуаций, ответственность и самостоятельность в принятии решений, творческий подход к делу, умение постоянно учиться – всеми этими качествами в полной мере обладают выпускники ГИПУ.

В 2018 году отличная подготовка учителей физики в ГИПУ была отмечена министром образования и науки РФ О.Ю.Васильевой.

Для того чтобы подготовить учителя способного успешно трудиться в системе современного образования, в ГИПУ создана и реализуется система выявления и поддержки талантливой молодежи.

Одной из составных частей этой работы является работа по поиску потенциальных абитуриентов. Эта работа ведется с учащимися школ и средних специальных заведений республики. Университет организует и проводит конкурсы и олимпиады разного уровня для обучающихся школ и средних профессиональных учебных заведений.

К ним относятся Всероссийская олимпиада «Первый успех» (для интересующихся профессией учителя) [2], в которой ГИПУ выступает как соучредитель совместно с Российским государственным педагогическим университетом имени А.И.Герцена (Санкт-Петербург), Региональная олимпиада по психологии, олимпиада по русскому языку «От слова к тексту», Региональный турнир по математике «Северное сияние», Глазовский олимпийский турнир по физике, Республиканская олимпиада по математике для учеников

6-7 классов «Эврика», Конкурс «Исторические игры», Конкурс технического творчества «РобоСтарт», Всероссийский фестиваль-конкурс детского и юношеского вокального творчества «Серебряная лира» и другие. В настоящее время университет проводит более 15 конкурсов разного вида и уровня для детей и молодежи. Перечень олимпиад, конкурсов, турниров постоянно расширяется, увеличивает число их участников. В настоящее время в каждом таком мероприятии принимают участие более 100 человек. Многие конкурсы проводятся уже более 10 лет.

В 2019 году четыре конкурса, организуемых ГИПУ для учащихся школ Удмуртии, вошли в Республиканский реестр конкурсных мероприятий для одаренных детей в области науки, спорта и культуры Удмуртской Республики. Из них три мероприятия организует факультет информатики, физики и математики.

Школьники, проявившие особые способности в этих мероприятиях, берутся вузом на особый контроль, получают льготы при поступлении в ГИПУ. Такая работа позволяет обеспечить качество абитуриентов ГИПУ, в течение нескольких лет средний проходной балл при поступлении в ГИПУ по результатам ЕГЭ выше 70 баллов.

Следует отметить, что конкурсы для детей, которые проводит университет, позволяют выявить детей, склонных к изучению, в том числе, естественных наук. Эти дети обучаются в системе дополнительного образования нашего вуза. Некоторые из них в дальнейшем выбирают технические направления подготовки. Помочь ребенку определиться с выбором будущей профессии является важной задачей, которую помогает решать ГИПУ.

Глазовский инженерно-педагогический университет многое делает в направлении организации выявления одаренных детей и их последующего обучения. Вуз располагает соответствующей материально-технической базой, квалифицированными преподавателями, программами обучения, ведет научно-методическую работу в этом направлении.

Образовательные программы по подготовке учителей математики, физики и информатики разработаны таким образом, что обучение студентов в ГИПУ направлено прежде всего на развитие профессиональных компетенций будущих педагогов [1].

В структуре подготовки учителей математики, физики и информатики мы выделяем две составляющие: фундаментальную и прикладную. Фундаментальная составляющая содержит базовую часть, включающую традиционные дисциплины, позволяющие студенту глубоко изучить выбранный предмет (математический анализ, геометрия, Механика, Электродинамика), и вариативную часть, в которую включены дисциплины, формирующие предметную компетентность в соответствии с новыми требованиями: «Элементарная математика и информатика», «Школьные задачи повышенной трудности и задачи ЕГЭ», «Преподавание в профильных классах», «Преподавание в условиях модернизации образования», а также курсы по выбору, тематика которых ежегодно обновляется в соответствии с заказом работодателей.

Прикладная составляющая реализуется в соответствии с программой «Подготовка учителя в условиях регионального образовательного пространства», разработанной на факультете информатики, физики и математики.

При обучении студентов используются авторские учебные пособия и современные лабораторные практикумы. Многие работы практикумов являются воплощением научных исследований преподавателей. Отличительная черта ГИПУ состоит в первостепенном значении, которое придается учебному физическому эксперименту при подготовке учителей физики. Помимо курсов физики и дидактики физики, традиционно изучаемых будущими учителями физики во всех вузах, разработана и реализуется система дисциплин, нацеленная на экспериментальную подготовку студентов. На лекционных занятиях этих дисциплин студенты непосредственно наблюдают новые эксперименты и вовлекаются в процесс их исследования. Студенты сами изготавливают учебные приборы, разрабатывают серии опытов и методику их использования при изучении физических явлений в школе и

вузе. Курсовые и дипломные работы студентов-физиков всегда связаны с совершенствованием и созданием нового учебного физического эксперимента. Они отличаются высоким уровнем новизны, всегда качественно иллюстрированы.

В 2021 году во всем вузе, в том числе и на кафедрах математики и информатики, физики и дидактики физики, внедрена новая методика итоговой государственной аттестации: студенты на экзамене презентуют фрагменты уроков. Будущие учителя физики обязательно включают экспериментальное изучение физического явления на уровне натуральных демонстрационных или лабораторных опытов.

Ежегодно студенты показывают высокий уровень профессиональной подготовки на Всероссийской олимпиаде по теории и методике обучения физике (в 2022 году команда ГИПУ заняла на этой олимпиаде 1 место, в 2023 году – 2 место) и других конкурсах. Особенно успешно они выступают на конкурсах научных докладов, самодельного оборудования и цифровых образовательных ресурсов.

На факультете ведется подготовка преподавателей робототехники, которые смогут работать как в школе, так и в учреждениях дополнительного образования для детей, в Кванториумах. Подготовка таких преподавателей отвечает потребностям школ и системы дополнительного образования Удмуртии.

Качество подготовки будущих учителей обеспечивается высоким уровнем научной и методической работы преподавателей кафедр математики и информатики, физики и дидактики физики. Кафедры тесно сотрудничают с методическими объединениями учителей городов и районов Удмуртской Республики, проводят курсы повышения квалификации по проблемам преподавания дисциплин в современных условиях, ведут научные исследования по направлениям, поддерживаемым грантами Российского научного фонда, выполняют научно-исследовательские работы в рамках государственного задания Министерства Просвещения РФ. Тесные контакты с образовательными организациями Удмуртии и за ее пределами, позволяют преподавателям вооружить студентов самыми современными технологиями и методиками обучения.

На кафедре математики и информатики 70% преподавателей имеют ученые степени и звания, а на кафедре физики и дидактики физики все преподаватели имеют ученую степень и ученое звание. Преподаватели непрерывно осуществляют научные исследования в области дидактики физики и методики обучения математике, информатике и физике. Результаты научной работы систематически внедряются в практику обучения студентов – будущих учителей.

На факультете информатики, физики и математики ГИПУ традиционно проводятся всероссийские конференции: «Преподавание математики и информатики в вузах и школах: проблемы содержания, технологии и методики», «Учебный физический эксперимент: Актуальные проблемы. Современные решения» (с 1995 года). Издается журнал всероссийского уровня «Учебная физика». В нем публикуются достижения отечественных ученых в области учебного физического эксперимента и методики его применения в учебном процессе. Объективно, по содержанию и качеству материалов это один из лучших отечественных журналов в области физического образования. Полученные научные результаты внедряются в практику обучения массовой отечественной школы через многочисленные публикации в журналах для школьников и учителей, книги.

О высоком научном уровне выполняемых исследований, их соответствии проблемам мировой науки, говорят публикации в журналах «Успехи физических наук», «AmericanJournalofPhysics», «EuropeanJournalofPhysics», «PhysicsEducation». Преподаватели кафедры математики и информатики входят в совет учебно-методического объединения педвузов Волго-Вятского региона по математике, являются экспертами комиссии Министерства образования и науки Удмуртской Республики по аттестации педагогических работников государственных, муниципальных и частных образовательных организаций на высшую квалификационную категорию, педагогических работников

государственных и частных образовательных организаций на первую квалификационную категорию по информатике.

Студенты, начиная с младших курсов, привлекаются к совместной с преподавателями работе по организации олимпиад и конкурсов для учащихся, а на старших курсах – к научной работе. Студенты ГИПУ являются активными участниками конференций, проводимых кафедрами и наравне с преподавателями представляют научные достижения университета в докладах. Многие студенты имеют серьезные научные публикации.

Таким образом, формируется специфическая научно-методическая среда, в рамках которой проходит подготовка будущих специалистов. По нашему мнению, это очень важно, поскольку, мастерство учителя в большой степени зависит от условий, в которых происходило формирование его профессиональных качеств.

Следует отметить, что в вузе создана уникальная система воспитательной работы, также направленная на развитие творчества и инициативы студентов. Абсолютное большинство студентов получают не только педагогические, но и коммуникативные, организаторские компетенции, образуя резерв не только педагогических, но и управленческих, творческих, спортивных кадров республики.

В вузе проводится ряд конкурсов разного уровня, которые помогают оценить готовность студентов к педагогическому труду.

Одним из таких конкурсов является фестиваль педагогического мастерства «Учитель XXI века», включающий многообразие авторских заданий для проверки сформированности навыков современного учителя. В последующем победители фестиваля представляют вуз и республику на всероссийских олимпиадах и конкурсах. Благодаря постоянному развитию потенциала обучающихся, созданию сплоченных вузовских команд ГИПУ как вуз-победитель уже два раза выступал организатором Всероссийского конкурса «Учитель нового поколения». Для выявления студентов, имеющих способности и склонность к научной деятельности, ГИПУ проводит различные олимпиады, как, например, Межвузовская региональная олимпиада по математике «Эврика». Победители этих олимпиад получают рекомендации для поступления в магистратуру и аспирантуру нашего вуза.

Новым вектором развития выпускника ГИПУ стало решение администрации вуза о прохождении педагогической практики в школах, входящих в рейтинг Топ-100. Несомненно, практика в современной школе, проходящая под руководством самых талантливых педагогов позволит более эффективно подготовить будущего учителя к профессиональной деятельности.

Развитая система самоуправления позволяет выявить студенческих лидеров, создавать поле для развития их управленческих навыков. Талантливых в творческой деятельности студентов позволяет выявлять работа школ и студий центра досуга и творчества.

Особое внимание уделяется спортивной деятельности. Студент ГИПУ, неважно физик или математик, это, как правило, физически развитый человек.

Целый цикл запрограммированных в вузе событий помогает развивать у студентов навыки проектной деятельности, что позволяет им проходить отборы на федеральные форумы, становиться грантополучателями федерального агентства по делам молодежи.

Важным событием не только для ГИПУ, но и для всего Глазова является фестиваль студенческого творчества «Весна ГИПУ». Ежегодно площадки фестиваля собирают молодежь в направлениях «Творчество», «Наука», «Спорт», «Медиа». Фестиваль помогает выявлять и развивать талантливых студентов в разных сферах деятельности. Ежегодная Всероссийская школа актива «Шаг вперед», реализуемая ГИПУ, помогает создать площадку для активного взаимодействия талантливой молодежи со всей страны.

Многолетняя деятельность вуза по поддержке талантливой молодёжи и развитию профессиональных компетенций студентов подарила республике и стране большое количество отличных учителей, директоров школ.

У нас созданы все организационно-педагогические, материально-технические, кадровые условия как для выявления одаренных детей и их сопровождения до поступления в вуз, так и для подготовки современного, креативного, глубоко знающего свой предмет учителя математики, информатики и физики.

Качество подготовки наших выпускников подтверждается также тем, 86% выпускников трудоустраиваются в школы. А потребность в учителях в республике велика. Например, согласно представленным от школ республики вакансиям на одного нашего выпускника-математика приходится более 10 вакантных мест.

Литература / Фойдаланилган адабиётлар / References

1. Данилов О. Е. Методология формирования профессиональной компетентности учителя физики на основе использования им информационных технологий в своей профессиональной деятельности: монография / О. Е. Данилов. – Глазов: Глазов. гос. пед. ин-т, 2017. – 88 с.
2. Межвузовская олимпиада школьников «Первый успех» / Электронный ресурс / <https://herzen.spb.ru/abiturients/olimpiady/olimpiady-shkolnikov-iz-perechnya-rsosh/mezhdvuzovskaya-olimpiada-shkolnikov-pervyy-uspekh-pedagogicheskie-nauki-i-obrazovanie/>.

Azizaxon Akromova Olimjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika va Psixologiya fakulteti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-kurs 23.28-guruh talabasi
Farg'ona, O'zbekiston*

KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI OSHIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish yo'llari, nutq turlari, nutq madaniyati, dunyoqarashni kengaytirish, erkin fikrlashga o'rgatish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq, metodika, nutq madaniyati, bolalar, nutq turlari, ichki nutq, tashqi nutq, dunyoqarash, nutqni o'stirish, nutqning mantiqiyligi.*

Abstract: *This article discusses the ways of developing the speech of young children, types of speech, speech culture, broadening the worldview, and teaching them to think freely.*

Key words: *speech, methodology, speech culture, children, types of speech, internal speech, external speech, worldview, development of speech, logic of speech.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются пути развития речи детей раннего возраста, виды речи, речевая культура, расширение кругозора, обучение их свободному мышлению.*

Ключевые слова: *речь, методика, речевая культура, дети, виды речи, внутренняя речь, внешняя речь, мировоззрение, развитие речи, логика речи.*

Kirish

Mustaqil Vatanimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, komil inson qilib rivojlantirish va tarbiyalash har birimizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda yoshlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu bilan

bir qatorda 2024-yilni Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash deb e‘lon qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarga bo‘lgan imkoniyatlar eshigi ochiqdir. Shunday ekan yoshlarni har doim, har vaqtda, har joyda, qarshisidagi inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z fikrlarini erkin va to‘g‘ri ayta olishlari uchun ulardagi to‘g‘ri so‘zlash va nutq madaniyatini yoshlikdanoq rivojlantirish lozim. Yoshlarni tarbiyalashda innovatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz innovatsiyaning ahamiyati to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidladi:

“Innovatsiya bu-kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [1]. Ushbu jumlar barchamizga birdek mativatsiya ulashgan holda, ta’limdagi innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo‘lgan talabimizni oshirishga turtki bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi

Kichik yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda turk pedagog-psixolog Ibuka Masaru o‘zining “ Uchdan keyin kech” asarida bolalarda asosan uch yoshgacha bo‘lgan vaqt muhim ekanligi haqida yozgan. Bundan tashqari o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari mukammalroq ifodalangan “Mahbub ul-qulub” asarida nutqning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrini to‘g‘ri aks ettirishi lozimligi haqida fikrlarini bayon qiladi.

Muhokama

Bugungi kunda bolalarning nutqidagi muammolar dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Ko‘pchilik ota-onalar farzandlarining nutqi yaxshi rivojlanmayotganidan xavotirga tushishadi. Buning sababi nima? Qanday qilib bolalarning nutqini rivojlantirish mumkin? Shu kabi savollar hozirgi kunda ko‘pchilikni qiynab kelmoqda.

Asosan bolalarni nutqini rivojlantirish uchun yoshgacha bo‘lgan vaqtda amalga oshiriladi.

Buning sababi bola uchun yoshgacha qiziquvchan bo‘ladi va u ko‘rgan hamda eshitgan narsalarini to‘g‘ri deb qabul qiladi. Hattoki, ota-onalarining harakatlarini takrorlashga urinishadi. Qiziquvchanliklari tufayli juda ko‘p savol berishadi. Nutqni rivojlantirishda mana shu joy juda katta ahamiyatga ega, ya’ni bola savol berganda uni javobsiz qoldirish, bolaga juda qattiq ta’sir ko‘rsatadi. Keyingi safar savol berishdan avval bola o‘ylanadi, hozir savol bersam, javob olaolamanmi yoki dakki berishadimi degan hayol bilan o‘zini qiziqtirgan narsalar haqida tushunchaga ega bo‘la olmasligi mumkin. Mana shu vaziyatda bola nutqida chekinish yuzaga keladi. Bundan tashqari, agarda bola fikrini bildirayotganda o‘qituvchi tomonidan yoki tengdoshlari va shu kabi yaqin insonlari tomonidan uning fikriga nisbatan tanqid yuzaga kelsa, bola fikrini bildirishdan to‘xtaydi. Shu bilan birga omma oldida fikrini bayon eta olmaslik, kam gaplik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, bolaning nutqini rivojlantirishda asosiy narsa bu uning atrofidagi yaqinlarining munosabati hisoblanadi. Har doim yaqinlari tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelinayotgan hamda imkoniyat yaratilmayotgan bolaning nutqida katta farq bo‘ladi. Demak bola nutqini rivojlantirishdagi mana shunday xatoliklarni bartaraf etish lozim. Ayni zamonaviy interfaol metodlar rivojlanayotgan paytda, har qanday dolzarb mavzularga yechim topish mumkin.

Natija

Mana shunday dolzarb masalalarga yechim topish uchun turli xil metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Insonda ikki xil nutq bo‘ladi: tashqi va ichki. Ichki nutq bu - eshittirilmagan va yozilmagan “o‘ylangan” ya’ni inson ayta olmagan, shunchaki ichida fikr yuritgan nutq hisoblanadi. Tashqi nutq esa tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilanyozilib, boshqalarga qaratilgan ya’ni fikrni boshqalarga ayta olgan nutqdir.

O‘quvchilarning nutqini oshirishda matnlar bilan ishlash ham katta ahamiyatga ega.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Buning o‘zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o‘zlashtiradi. Nutq o‘stirish uchun uch yo‘nalish aniq ajratiladi:

1. So‘z ustida ishlash;

2. Soʻz birikmasi va gap ustida ishlash;
3. Bogʻlanishli nutq ustida ishlash.

Oʻuvchilarni nutqini rivojlantirishda turli xil maktab darsliklari ham foyda beradi. Masalan nutq madaniyatini, nutq koʻnikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarga yechim topishda oʻz foydasini koʻrsatadi. Kichik yoshdagi bolalar yaʼni boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun oʻqituvchi nutqi namuna hisoblanadi. Shuning uchun birinchi navbatda oʻqituvchining nutqi ravon boʻlishi darkor. Bolalarning nutqini rivojlantirish faqatgina bulardan iborat emas. Bundan tashqari nutq rivojlantirish uchun usullar ham yoʻq emas. Masalan:

1. Badiiy kitoblarni oʻqish;
2. Koʻproq sheʼr yod olish;
3. Turli xil tadbirlarda faol qatnashish;
4. Omma oldida nutq soʻzlash va shu kabilar.

Kichik yoshdagi bolalarni koʻproq oʻqituvchisi hamda ota-onasi tomonidan ragʻbatlantirilishi ham foydadan holi emas. Masalan oʻqituvchi savol berganida, javab berayotgan bola hattoki, xato fikr aytgan boʻlsa ham oʻqituvchi tomonidan xato aytding deya dakki berilishi oʻrniga, barakalla, javobingiz uchun rahmat, ammo bizning savolga javob biroz boshqacharoq edi, deya bolaning kayfiyatini koʻtarish lozim. Oʻqituvchi hamda ota - onaning soʻz boyligida bolalarga nisbatan “bu fikring xato”, “toʻgʻri javob berolmading” kabi jumlar ishlatilmasligi kerak. Bunday gaplar bolaning psixologiyasiga juda qattiq taʼsir koʻrsatadi. Bu haqida Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” asarida bola psixologiyasi juda muhim ekanligini taʼkidlaydi. Bundan tashqari bolaning nutqini oshirishda uch yoshgacha boʻlgan davr ayni payti ekanligini ham aytadi, yaʼni bolada tushunchalar asosan uch yoshgacha boʻlgan vaqtda shakllanadi. Kichik yoshdagi bolalarni nutq madaniyatini shakllantirish. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Bolalarning katta yoshli insonlar bilan muloqotga boʻlgan ehtiyoji qondirilmasligi ular oʻrtasida bagonalashuv paydo boʻlishiga olib keladi. U turli koʻrinishda namoyon boʻladi:

1. Bolalarda indamaslik, hurkak, arzimagan narsaga ham yigʻlab yuboruvchi;
2. Baʼzilarida esa negativizm, tajavuzni namoyon qilish.

Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga “men” ini anglash imkonini beradi. Aynan muloqotda “men” obrazining shakllanishi roʻy beradi. Kattalar va tengdoshlari bolaga xayrixohlik bilan munosabatda boʻlayotganida uning maʼqullanishiga, ijobiy bahoga, tan olishiga boʻlgan ehtiyoji qondiriladi. Salbiy muloqot hamda fikrlar tajovuzga, oʻziga nisbatan ishonchsizlikka, odam ovi boʻlib qolishga olib keladi. Bolaning oʻziga - oʻzi baho berishi, odatda yuqori boʻladi. Kichik bolakay oʻz shaxsini haddan tashqari yuqori baholashi tabiiy, oʻrinlidir va bu kimdir uning shaxsiy xususiyatlarini salbiy baholagan yoki uning xulq-atvorini, tengdoshi bilan taqqoslanishi ham bola psixologiyasiga taʼsir oʻtkazmay qoʻymaydi. Bundan koʻrinib turibdiki, nutqni rivojlantirish hamda oshirish uchun bola psixologiyasi muhim roʻl oʻynaydi.

Xulosa qilib aytganda, bola nutqini rivojlantirishda quyidagilardan foydalanamiz:

1. Oʻquvchilarda nutqni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yoʻnaltirish;
2. Oʻquvchilar orasida ijodiy muhitni shakllantirish;
3. Maʼnaviy-ruhiy holatni oshirish;
4. Tashkiliy metodikani kuchaytirish;
5. Psixologik chora-tadbirlarni qoʻllash;
6. Har qanday joyda bolalar oʻz qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilish;
7. Jamoa bilan ishlash malakasiga ega boʻlish;
8. Oʻzgalar fikrini hurmat qilish ;
9. Bolaning fikrini tinglash va shu kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bola uchun eng asosiysi uni tinglash, fikrini inobatga olishdir. Shundagina bola qoʻrqmay fikrini bayon eta oladi. Shu bilan birga nutq ham rivojlanadi. Oilada ham garchi uning fikri xato boʻlsa ham fikrini toʻliq bayon qilganidan keyin unga fikri uchun rahmat aytib, soʻngra fikridagi kamchiliklarni toʻgʻirlagan maʼqul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.”Xalq so‘zi“ gazetasi.
 2. Azizxodjayeva N.N Peagogik texnologiya.
 3. Mavlonova R.Turayeva O.Holiqberdiyev K.Pedagogikasi.
 4. O‘qituvchi 2001 -512b.
 5. *Nutq madaniyatini egallashning usul va yo‘llari (muhoz.org)*
 6. *Nutq madaniyati - Vikipediya (wikipedia.org)*
- Muallif: Akromova Azizaxon Olimjon qizi mirabbosnormirzayev9@gmail.com

Axmedova Maysara Baxromovna

Urganch innovatsion university

“Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida

stajyor-o‘qituvchisi

[*axmedovamaysara904@gmail.com*](mailto:axmedovamaysara904@gmail.com)

TA‘LIM KLASTERI SHAROITIDA INKLYUZIV TA‘LIMNING HUQUQIY ASOSLARI VA INNOVATSION MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta‘lim tizimi ya‘ni inklyuziv ta‘lim tizimining takomillashuvi, va bu ta‘lim tizimini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan qonun hujjatlari, ta‘lim klasteri haqidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, qonun hujjatlari, ta‘lim klasteri, alohida yordamga muhtoj bolalar, ta‘lim-tarbiya, differensiallashtirish, individuallashtirish.

Annotation: This article contains opinions about the new educational system introduced in our country, improvement of the inclusive educational system, and the legal documents adopted for the purpose of developing this educational system, educational cluster.

Keywords: inclusive education, legislation, educational cluster, children with special needs, education, differentiation, individualization.

Аннотация: В данной статье собраны мнения о новой системе образования, внедряемой в нашей стране, то есть совершенствовании инклюзивной системы образования, а также о нормативно-правовых документах, принятых с целью развития этой образовательной системы, образовательного кластера.

Ключевые слова: инклюзивное образование, законодательство, образовательный кластер, дети с особыми потребностями, образование, дифференциация, индивидуализация.

Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat‘i nazar, ularning barchasiga sifatli ta‘lim taqdim etilishi shart. Shu boisdan ham alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun ham sifatli ta‘lim sharoitini yaratish borasida yurtimizda davlat siyosati darajasida islohatlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-5270-sonli farmonida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga ularni jamiyatdagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgandir. 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonida ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyilini bosqichma-bosqich singdirib borish, ta‘lim berish metodlarni takomillashtirish imkoniyati cheklangan bolalarga ta‘lim xizmati sifatini oshirish hamda mazkur toifadagi har bir bolaning inklyuziv ta‘lim olishga bo‘lgan huquqini taminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni

belgilab berildi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qaror mamlakatimiz ta’lim tizimida jahon standartlari asosida islohatlarning maqsadli va manzili olib borilishini dolzarb masala sifatida o‘z oldiga qo‘ydi. Mazkur qaror asosida imkoniyati cheklangan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yaxshilash ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish reabilitatsiya hamda ta’lim tarbiya jarayonini takomillashtirish inklyuziv ta’limni kengaytirish belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF5987-sonli farmonida ta’lim klasterini yaratish sohada samaradorlikni taminlovchi omil sifatida belgilab berilgan. Klasterli yondoshuvni pedagogik ta’lim tizimiga tadbqiq etish xususan inklyuziv ta’lim doirasida amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Inklyuziv ta’lim muhitidagi ba’zi bir muammolarni bartaraf etish tashkiliy va ta’limiy masalalarni hal etish ta’lim klasteri modelni yaratish unchalik ham oson emas. Inklyuziv ta’lim doirasida klaster modelini pedagogik ta’lim tizimiga tatbiq etish joriy kunda amalga oshirilayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Klaster modeli, inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim va ta’limiy masalalarni hal qilish jarayonini osonlashtirish uchun muhim bir vosita sifatida xizmat qiladi. Rus tadqiqotchisi E.P.Belanning fikriga ko‘ra, klaster tizimi ta’lim muhitini integratsiyalashgan va kasbiy ta’limni kuchaytirayotgan muhit yaratish imkoniyatini ta’minlaydi.[5]

Klasterning shakli, barcha muassasalar uchun imtiyozlar berib, ularga o‘z faoliyatlarini birlashtirish va ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Klaster tarkibidagi ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarini yangi kasbiy bilimlarga ega qilishga imkon beradi. Bu esa kasbga moslashtirishni, integratsiyalashgan inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi. Klaster modelini ishlab chiqish esa tashkiliy va ta’limiy maqsad to‘g‘risidagi hamkorlikni o‘rgatadi. O‘z navbatida, klaster tizimlari quyidagi asosiy ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

- Turli darajadagi ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi;
- Inklyuziv ta’lim muhitida innovatsion ta’lim uslubiyatlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- Klaster tarkibidagi muassasalarining xodimlarining yangi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- Klaster tarkibidagi ta’lim muassasalarida kasbiy ta’lim olgan shaxslarni kasbga moslashtirish va ishga joylashtirish.

Klaster yondashuvining muhim komponentlari esa klaster komponentlari faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasi, yagona umumiy maqsad, klaster sub’ektlari, tashkilotlar o‘rtasidagi faoliyatning shaffof mexanizmlari, umumiy boshqaruv texnologiyalari va klasterlikni tashkil etishni oladi. [3.530,531b]

Inklyuziv ta’limning uzluksiz rivojlanishi uchun klaster modeli juda muhimdir, chunki bu model o‘quv jarayonini individuallashtirish va har bir shaxsga alohida qiziqishlariga muvofiqlik yaratadi. Bu klasterlar orqali inklyuziv ta’lim muhitida ta’limni to‘g‘risidagi masalalarni bartaraf etish, shuni o‘rganayotganlar murakkab jarayonlar yordamida eng yaxshi natijalarga yetishish uchun xizmat qiladi. Binobarin, ta’lim klasteri ierarxik mezonlarga asoslangan bo‘lishi, har bir muassasa tomonidan klasterga mos moslashuvchan me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi, muassalar maqsadga erishish uchun birgalikda induksiya metodi asosida faoliyat yuritishi zarur. Ta’lim klasteri yondashuvining yana quyidagi asosiy majburiy komponentlari ham mavjud bo‘lib:

- klaster komponentlari faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasi;
- yagona umumiy maqsad;
- klaster sub’ektlari
- tashkilotlarning o‘zaro faoliyatining shaffof mexanizmlari;
- umumiy boshqaruv texnologiyalari va klasterli yondashuvini tashkil etishdan iborat

[3].

Inklyuziv ta’lim jarayonida uzluksiz ta’lim klaster modeli taqdim etilgan tuzilmasida maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’lim muassasalarigacha bo‘lgan barcha darajadagi ta’lim

muassasalarining keyingi kasbiy faoliyatni ta'minlovchi tashkilotlar ishtirokidagi o'zaro hamkorligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, inklyuziv ta'lim jarayonida uzluksiz ta'limni yaratishda ushbu muassasalar alohida ta'limga muhtoj bolalarni jamiyatdagi ba'zi bir muommolarini tizimli hal etishga qodir. Albatta ushbu yondashuvlar orqali inklyuziv ta'lim jarayonida klaster modeli joriy etish va samarali natijalarga erishish uchun har bir ta'lim muassasida alohida ta'limga muhtoj shaxslar bilan individual integral yo'nalishida ishlashga tayyor bo'lgan mutaxassislar va o'qituvchilar jamoasi tomonidan tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-4860-son
2. Ўзбекистон Республикаси Қонуни, "Таълим тўғрисида". – Тошкент, 2020 йил 23 сентябрь // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
3. Dilbar Shukurulo qizi Shukurova "Academic Research in Educational Sciences" "Ta'lim klasteri sharoitida inklyuziv ta'limning innovatsion mehanizmlari" 2022
4. "Таълим кластери шароитида мактабгача ёшдаги имконияти чекланган болаларни инклюзив ва ихтисослаштирилган мактаб таълимига комплекс тайёрлаш методикасини такомиллаштириш" мавзусидаги лойиҳа дастури // 2021 йил. ChDPI.
5. Ходжамқулов Умид Негматович "Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари" дис. д-р пед. Наук-Чирчик – 2020.
6. Муллер Ольга Юрьевна "Научно-педагогический кластер как основа формирования инклюзивной образовательной среды" Сибирский педагогический журнал ♦ № 1 / 2017

*Abdusharipova Fazilat Farxodbek qizi
Xorazm viloyati Urganch shahar
Urganch Ranch texnologiya universiteti
"Pedagogika va filologiya" kafedrasida
stajor-o'qituvchisi*

TALABA YOSHLAR ONGIDA "AKADEMIK HALOLLIK" TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik korrupsiya haqida qisqacha ma'lumot berib boriladi. Ta'lim muassasalari darajasidagi korrupsiya muammolari, ta'lim sohasidagi korrupsiya holatlari va sabablari korrupsiyaning ko'rinishlarini bartaraf etish yo'llari va usullari haqida tushuncha berilgan. Akademik korrupsiyaning ta'lim sohasiga zararlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar haqida so'z borgan. "Akademik halollik" tushunchasi haqida yoshlarga ta'lim tarbiya berish olima ayollarga tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: Ta'lim, korrupsiya, qonun, qaror, o'qituvchi, o'quvchi, muassasa, maktab, talaba, moliyaviy, muammo.

Аннотация: В данной статье представлен краткий обзор академической коррупции. Дается понимание проблем коррупции на уровне образовательных учреждений, случаев и причин коррупции в сфере образования, путей и методов ликвидации проявлений коррупции. Обсуждался вред академической коррупции в сфере образования и факторы,

вызывающие ее, а также даны рекомендации женщинам-ученым по ознакомлению молодежи с понятием “академическая честность”.

Ключевые слова: Образование, коррупция, закон, решение, учитель, ученик, учреждение, школа, ученик, финансы, проблема.

Abstract: This article provides brief information about academic corruption. An understanding of the problems of corruption at the level of educational institutions, cases and causes of corruption in the field of education, ways and methods of eliminating the manifestations of corruption is given. The harms of academic corruption in the field of education and the factors causing it were discussed, and recommendations were given to female scientists to educate young people about the concept of "academic honesty".

Key words: Education, corruption, law, decision, teacher, student, institution, school, student, financial, problem.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”

Korrupsiya tushunchasining mohiyati va uni ijtimoiy munosabatlarga ta’siri. Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illat. 2017-yil 3-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasidagi asosiy tushunchalar. BMT ning korrupsiyaga qarshi kurashga oid ma’lumotnomasida “Korrupsiya – shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suistemol qilish” ekanligi ko‘rsatilgan [1].

Akademik korrupsiya ta’lim sohasida sodir bo‘ladigan korruptsiyaning bir jihati hisoblanadi. Akademik korrupsiya akademiya sodir bo‘ladigan va ta’lim sifati va darajasiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadigan korruptsion amaliyotlarning barcha shakllarini o‘z ichiga oladi. Akademik korruptsiya ta’lim muassasalaridan kutilayotgan adolat, halollik, adolatlilik, to‘g‘rilik, xolislik va intizomdan chetlanishning barcha shakllarini o‘z ichiga oladi. Akademik korruptsiya aslida ma’naviy nopoklikdan kelib chiqadi va u jamiyatning ta’lim va taraqqiyot maqsadiga zarar etkazadigan xudbin harakatlarda namoyon bo‘ladi. Akademik korruptsiya akademiya dagi manfaatdor tomonlar, xususan, o‘z vazifalarini bajarishda akademiklar tomonidan amalga oshiriladigan barcha insofsiz, noqonuniy, firibgarlik va jirkanch harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan Maktabgacha ta’lim vazirligi o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

- Vazirlik tizimi rahbarlari va xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, vazirlik tizimida sifat menejmentini, shuningdek, mas’uliyatli xulq-atvor standartlarini ishlab chiqish;

Respublika Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirishda korrupsiyaga oid qonun hujjatlari bilan tanishib chiqishni oldiga maqsad qilib qo‘yish;

-Vazirlik barcha turdagi xo‘jalik munosabatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish va axloqiy ish yuritish tamoyillariga amal qiladi;

- Ushbu siyosatning tamoyillari va talablari vazirlikning barcha xodimlari va vakillari uchun majburiydir;

- Vazirlik kundalik faoliyatida ham, strategik loyihalarni amalga oshirishda ham barcha shakl va ko‘rinishlarda korrupsiyani rad etish tamoyilini mustahkamlaydi.

Siyosatning quyidagi maqsadlariga erishish uchun amaliy muammolarni hal qiladi:

- Vazirlik xodimlari va vakillari e’tiboriga ularning qonun hujjatlariga rioya qilishning asosiy tamoyillarini bilish va, albatta, ularga rioya qilish majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumot etkazish.

- Ushbu siyosatda belgilangan korrupsiyaga oid qonunlar, shuningdek vazirlik tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo'yicha qo'llaniladigan chora-tadbirlar va tartiblar; vazirlik rahbariyatining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samarali tizimini ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlash va nazorat qilish bo'yicha mas'uliyatini belgilash [1].

Ta'lim sohasida korrupsiyani samarali bartaraf etish uchun avvalo uning sabablarini bilish kerak. Ta'limdagi korrupsiyaning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- O'qituvchilar, o'rta texnik muassasalar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari ish haqqining yetarli darajada emasligi. Kam ish haqqining oqibati boshqa daromad manbalarining, shu jumladan noqonuniy yoki ayrim qonuniy daromadlarning o'sishidir. Masalan, o'quvchilar yoki talabalar bilan individual mashg'ulotlar o'tkazish turi bo'yicha pora olish holatlari ko'p uchraydi;

- Talabalarni tayyorlash darajasi va oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish talablari yetarli emasligi. Nufuzli institutga kirish istagida bo'lgan bo'lajak talabalarning ota-onalari yoki talabalarning o'zlari ba'zan korrupsion huquqbuzarliklarga yo'l qo'yishadi.

- Ta'lim tizimining yetarli darajada moliyalashtirilmaganligi. Ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga bo'lmagan ta'lim muassasalari boshqa moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan korrupsiyaning namoyon bo'lishi bilan bog'liq manbalarni qidirishga majbur [2].

Yagona davlat ekspertizasi va davlat imtixonining joriy etilishi bilan korrupsiya ko'rinishlarining ko'payishi kuzatildi, ammo bu korrupsiya texnik jihatdan hal qilindi: videokameralar, metall detektorlar, aloqalarni uzib qo'yadigan uskunalar va boshqalarni o'rnatish. Ammo korrupsiya muammolarini faqat texnik choralar bilan hal qilish mumkin emas, korrupsiyani bartaraf etishning boshqa usullaridan foydalanish kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida va haqiqatan ham mamlakat jamiyatining har bir qatlamida korrupsiyaga chek qo'yishga qaratilgan sa'y-harakatlar odatda juda katta muammolarga duch keladi, jumladan, tizimda korrupsiyaning kuchayishi amaliyotchilar, foyda oluvchilar va jabrlanuvchilar buni "oddiy narsa" deb biladi. So'z bilan aytganda, buzuq akademiklarga qarshi qattiq qarshilik yo'q. Misol uchun, talabalar baholar evaziga pul so'rashda yoki tarqatma materiallar yoki sifatsiz darslik sotib olishga "majburlash"da hech qanday yomonlikni ko'rmaydilar. Bunday o'qituvchi haqida xabar berishga jur'at eta oladigan har bir kishi boshqalarga ogohlantirish sifatida erkin qurbon qilinadi.

Ta'lim tizimidagi korrupsiyani bartaraf etish usullari quyidagilardan iborat:

- Korrupsion xulq-atvorning mayda holatlari uchun jinoiy jazo choralari kuchaytirish;

- O'qituvchilarning ta'lim faoliyatidan tashqari pul topish yo'llarini izlashga hojat qolmasligi sharti bilan professor- o'qituvchilarning ish haqini real oshirish;

- Ta'lim muassasasi darajasida korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha tizimli dasturiy tadbirlarni ishlab chiqish [3].

Bunday chora tadbirlar guruhi quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Aksariyat talabalar korrupsiya faktlar haqida xabar berishdan qo'rqishadi va bu bilan korrupsiyaga botgan amaldorlarni yashiradilar va korrupsiyaning tarqalishiga hissa qo'shadilar. Ochiq bilan talabalar fuqarolik pozitsiyasi rivojlangan talabalarning o'zini o'zi boshqarish sharoitida ular korrupsiyaga nisbatan kamroq toqat qiladilar;

2. Ta'lim muassasasi darajasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillarini korporativ axloq kodeksi darajasida ishlab chiqish. Bunday tamoyillarning ishlab chiqilishi universitet yoki boshqa ta'lim tashkiloti rahbariyatiga qoidabuzarlarga ta'sir o'tkazish, axloq me'yorlarini buzgan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy yoki intizomiy choralar ko'rish imkonini beradi;

3. Ta'lim faoliyati ustidan birinchi navbatda, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, ta'lim nazorati organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maxanzimini ishlab chiqish.

Ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ham qonunchilik, ham ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi usullarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim. Ta'limdagi

korrupsiya muammosini hal qilish kengroq hal qilishning shaxsiy usuli bo'lishi kerak muammolar mamlakatda ta'lim sifati va foydalanish imkoniyati [4].

Yoshlarning ta'lim olishida korrupsiyaning oldini olish uchun olim ayollarga tavsiyalar:

1. Jamiyatning barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning mustahkam tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilib, korrupsiyaga qarshi kurashishni tahkil etish;
2. Talaba va yoshlar o'rtasida korrupsiya tushunchasi haqida tadbirlar, davra suhbatlar o'tkazishni tashkil etish;
3. Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil etish yo'llari, vazirliklar tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari;
4. Korrupsion harakatlar to'g'risida xabar berish boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarini olib boorish chora-tadbiralari;
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun o'quv –uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va seminarlar o'tkazish;
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xorij tajribalarini o'rganish va tarjima va tahlil qilish va jamoatchilikka keng targ'ib qilish;
7. Jamoatchilik fikrini bilish maqsadida so'rovnomalar o'tkazish va ularni tahlil qilish va fikr mulohazalarni o'rganish;
8. Talaba-yoshlar orasida “halollik vakinasi” haqida va “akademik halollik” tushunchalarning mazmun mohiyatini anglashni o'ragatish;
9. Har bir sohani “korrupsiyasiz soha” qilish tizimini ishlab chiqish;
10. Mutaxassislarda kasbiy etika qoidalari haqida tushuncha va tavsiyalalar berish va davra sihbatlari o'tkazish.
11. Jamiyatda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun olim ayollarni korrupsiyaga qarshi “Akademik halollik” tushunchasini anglatish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonuni. (3-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
2. O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonuni.(3-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
2. <https://webcache.googleusercontent.:https://anticorruption.uz/uz/item/what-is-corruption>.
3. Akademik korrupsiya va milliy rivojlanish: Nigeriyaning oliy o'quv yurtlarida mashhur bo'lmagan oqibatlariga olib keladigan mashhur amaliyotlarni ajratish. Uwaebuka Wisdom MADU (CLN) maduwisdom40@yahoo.com08065193697
4. <https://daryo.uz/amp/2021/07/09/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashishda-jinoiy-javobgarlik-qanday-kuchaytiriladi-bahriddin-valiyev-javob-berdi/>

Adamboyeva Durdona Ibodulla qizi -UrIU
“Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”
kaferdrasi o‘qituvchisi
[*d.ibodullayevn@gmail.com*](mailto:d.ibodullayevn@gmail.com)

PEDAGOGIK JARAYONDA METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda pedagogik jarayonda foydalaniladigan bir nechta metodlar haqida va ulardan foydalanish orqali qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, pedagogik jarayon, o‘qituvchi, o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, amaliy, nazariy, ta‘lim, jarayon.

Аннотация: В данной статье рассказывается о нескольких методах, используемых в педагогическом процессе, и о том, каких результатов можно достичь, используя их.

Ключевые слова: метод, педагогический процесс, учитель, ученик, знание, умение, компетентность, практический, теоретический, образование, процесс.

Abstract: This article talks about several methods used in the pedagogical process and what results can be achieved by using them.

Keywords: method, pedagogical process, teacher, student, knowledge, skill, competence, practical, theoretical, education, process.

Hozirgi internet tarmoqlari rivojlanib borayotgan zamonda o‘quvchilarga ta‘lim berish, ularda bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Sababi shuki hozirgi davr yoshlari bo‘sh vaqtining katta qismini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazmoqdalar va bu o‘z navbatida ta‘limga, bilim olishga nisbatan qiziqishning susayishiga olib kelmoqda. Anashunday zamonda biz pedagoglarning yelkasiga yanada kattaroq ma‘suliyatni yuklaydi. Ya‘ni o‘quvchilarda fanlarga, bilim olishga nisbatan qiziqishini orttirish kabi ma‘suliyat o‘qituvchilardan katta mehnatni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan darslar jarayonida fan mavzulariga oid turli xil metodlardan, usullardan foydalanishni, har darsda yangidan yangi metodlardan foydalanishni taqazo qilmoqda. Biz mazkur tadqiqotimizda o‘zimiz amaliy faoliyatimizda foydalanib kelayotgan bir nechta metodlarni keltirib o‘tamiz.

METOD (yun. *metodos* — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta‘limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o‘z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo‘lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo‘lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta‘limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to‘plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘riqlar, metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi. Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o‘z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko‘ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

O‘rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar fan metodlarini rivojlantirganlar. Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham Metod taraqqiyotiga salmoqli hissa

qo‘shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnis singari faylasuflar metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi.

Hozirgi. zamon fanlarida ko‘plab umumiy, xususiy ilmiy va interfaol metodlar qo‘llanilib kelinmoqda. Masalan dars jarayonlarida quyidagi metodlardan foydalanish orqali biz o‘quvchilarning qiziqishini yanada oshirishimiz, diqqat tarqoqligini oldini olishimiz mumkin. [3]

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.[4]

“Ruchka stol ustida” metodi- bu metoddan foydalanish uchun pedagog oldindan savollarni va javoblarini qisqacha yozilishni talab qiladigan qilib tayyorlagan bo‘lishi lozim. Pedagog savollarni o‘qib beradi o‘quvchilar A4 qog‘ozga faqatgina javob variantini yozib boradilar va pedagog 5 ga qadar sanaguncha o‘quvchilar javob variantlarini yozib bo‘lishlari, ruchka tutgan qo‘lini stol ustidan tepaga ko‘tarishi lozim. Bu metod orqali biz talabalarning olgan bilimlarini tashxis qilib olishimiz mumkin.

“Bumerang” metodi talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko‘p bilimlarga ega bo‘lish, o‘qituvchi tomonidan barcha talabalar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.[1.25b]

“Skarabey” metodi- bu metod faol usul bo‘lib, u talabalarga fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishga, o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.[1.33b]

“Ajurli arra” metodi (fransuzcha “ajour” so‘zidan olingan bo‘lib, bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tish, ikki tomoni ochiq degan ma’noni anglatadi) metodi- yaxlit mavzuni bir necha qismlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida ta’lim oluvchilarning puxta o‘zlashtirish, o‘z bilimlarini boshqalarga yetkazib berish imkoniga ega bo‘lishi ta’minlanadi.[2]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki pedagogik jarayonda biz pedagoglar turli xil, usullardan, metodlardan foydalanar ekanmiz dars mashg‘ulotlarini yanada samarali bo‘lishiga sifat jihatdan yanada yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin. Talabalarda esa mavzularga, fanlarga bo‘lga qiziqishni uyg‘otishimiz, mavjud qiziqishlarni yanada oshirishga, ularni dars jarayonlarida faol bo‘lishlariga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR

1. Pedagogik konfliktologiya. Ch.A.Sabirova. Toshkent-2021
2. Ta’lim metodlari. O.U.Avlayev, S.N.Jo‘rayeva, S.R.Mirzayeva
3. <https://uztext.com/48527-text.html>
4. <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>

*Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna,
Urganch Ranch texnologiya universiteti
“Pedagogika va filologiya” kafedrası o‘qituvchisi,
nilush-90@mail.ru*

ZAMONAVIY YOSHLARNING INNOVATSION G'OYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK FANLARNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yoshlarni har tomonlama yetuk qilib kamol toptirish, sinfda va sinfdan tashqarida yoshlar hamkorligini mustahkamlash, tengdosh-tengdoshga shiori ostida birlashuvchi, bir-birlariga aqlan, ruhan va mafkuraviy jihatdan har tomonlama ko'mak beruvchi, fikr va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi avlod sifatida shakllantirishda zamonaviy pedagogika oldida turgan vazifalar va ularning amaliy tadbiriq atroflicha yotirib berildi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagogika, ta'lim tizimi, innovatsiya, innovatsion ta'lim, loyiha texnologiyasi, pedagogik jarayon, tendensiya, nazariya, g'oya.

Аннотация: В статье на основе современных педагогических подходов осуществляется развитие молодежи во всех аспектах, укрепление молодежного сотрудничества в классе и вне урока, объединенных под лозунгом сверстников, дарования друг другу интеллектуальных способностей. духовно-идеологическая поддержка всемерно, поддержка их идей и инициатив. Подробно раскрыты задачи, стоящие перед современной педагогикой в формировании поколения, и их практическое применение.

Ключевые слова: Современная педагогика, образовательная система, инновация, инновационное образование, проектная технология, педагогический процесс, тенденция, теория, идея.

Abstract: In the article, on the basis of modern pedagogical approaches, the development of young people in all aspects, strengthening of youth cooperation in the classroom and outside the classroom, united under the slogan of peer-to-peer, giving each other intellectual, spiritual and ideological support in every way, supporting their ideas and initiatives The tasks facing modern pedagogy in forming a generation and their practical application were explained in detail.

Key words: Modern pedagogy, educational system, innovation, innovative education, project technology, pedagogical process, tendency, theory, idea.

Har sohada bo'layotgani kabi jamiyatimizning ta'lim tizimi sohasida ham bugungi kunda tub burilishlar yuz bermoqda. Ta'lim tizimi, o'qitish va tarbiyalash, ta'limga innovatsion yondashish, xalqaro ta'lim dasturlarini amaliyotimizda keng joriy qilish, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda inson omilini yanada ulug'lash, kelajak avlod kamoloti uchun zamonaviy pedagogik tendensiyalar, qarashlar va nazariyalar, zamonaviy ta'lim dasturlari va metodlari, pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabalarning o'zaro va yaqin hamkorligini ta'minlash kabi maqsad va harakatlarni bunga misol qilib aytishimiz mumkin.

Ta'lim olish va ta'lim berish ikki tomonlama murakkab aloqa sifatida insoniyat yaralgandan to shu kungacha o'zining turli ko'rinishlarida va turlicha faoliyatlarida namoyon bo'lmoqda.

Hususan, oldinlari ta'lim an'anaviy usulda faqat o'qitish va tarbiyalashni maqsad qilgan bo'lsa, bugungi kun zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, balki, ularni mustaqil shaxs sifatida, jamiyatning faol a'zosi qilib shakllantirish, yoshlarning ichki imkoniyati, qiziqishi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada rivojlantirish, yoshlar salohiyatidan unumli foydalanish, xalqaro maydonda o'zining iqtidori, talanti, bilimi va tashabbuskorligi, kuch g'ayrati va tafakkuri bilan bemalol bellashishga qodir qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar soha oldidagi dolzarb muammolardar biridir.

Ho'sh, innovatsiya tushunchasi, innovatsion ta'lim texnologiyasi o'zi nima?

Innovatsiya-yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi ham mumkin. Bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi [1].

Innovation ta'lim texnologiyasi-bu o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir [1].

To'g'ri, bular natijasi o'laroq, yoshlarimiz ongu-shuurida o'zgarishlar juda katta va barchamizni albatta xursand qiladi. Ammo, xali yechimini kutayotgan muammolarimiz ham kam emas. Chunki, yillar o'tgani sari jamiyat, millat, siyosat, mafkura va qarashlar o'zgarimoqda.

Jamiyatimizda, bugungi kunda dunyoda yoshlarni chalg'ituvchi, ularga salbiy ta'sir qiluvchi axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar, dinimizga va millatimizga mos kelmaydigan buzg'unchi ma'naviy qarashlar ham ayrim yoshlarimizni chetlab o'tayotgani yo'q. Natijada yoshlarimiz orasida shaxsiy fikri va dunyoqarashini to'liq shakllantira olmagan, qaysidir ma'noda jamiyatimiz uchun havf tug'dirishi mumkin bo'lgan holatlar ham uchramoqda.

Ushbu muammo va kamchiliklarni vaqtida va to'liq hal qilishda albatta biz, zamonaviy pedagogik yondoshuvlarga, salohiyati, bilimli va tajribali ustozlarimizga suyanamiz.

Aynan o'zini-o'zi rivojlantiradigan, doimiy takomillasha oladigan pedagoggina zamonaviy maktab ta'limi oldiga qo'ygan vazifani bajara oladi. Bunday pedagog bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi [2].

Ta'lim tizimining asosiy maqsadi esa- bolani hayotga tayyorlash bo'lib, uni o'qitish mazmuni, usullarini pedagog belgilaydi [3].

Bugungi kundagi ta'lim jarayonini samarali amalga oshirishda quyidagi zamonaviy talablar bajarilishi juda muhim:

1. An'anaviy ta'limdan qolgan ayrim yondashuvlarning o'rnini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish.

2. O'quvchilarning mustaqil harakatlarini cheklamasdan, o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan, balki ular kuchini belgilangan maqsadga yo'naltirish.

3. O'quvchilarning fan talablarini bajarishlarida buyruqbozlik tamoyilidan emas, balki samarali va ijobiy muloqotni tashkil etish orqali ularning fan asoslarini chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

4. Ta'limda kutilgan natijaga erishish uchun o'qituvchining oldindan darsga tayyorgarligini ta'minlash, pedagogning loyiha texnologiyasidan samarali foydalanishini yo'lga qo'yish.

5. Yoshlarga ta'lim berishda fanning faqat nazariy asoslari bilan cheklanibgina qolmay, balki ijtimoiy hayot va jarayonlarga, hayotga tadbiiq qilinishiga ham ahamiyat qaratish.

6. Darsda pedagog boshqaruvchi sifatida emas, talabalarning lider va yetakchilariga bu borada imkoniyat berish, yoshlarda liderlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlariga ko'maklashish.

7. Guruh o'quvchilarini nafaqat dars jarayonida, balki, darsdan bo'sh paytlarda boshqa turdagi qo'shimcha loyihalarga keng jalb qilish orqali ularning yangi g'oya va tashabbuslar yaratishlariga imkoniyat ochish.

8. "Tengdosh-tengdoshga" shiori ostida yoshlar bir-birlariga ko'mak berish, bir-birlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasidagi jamoatchilik ishlariga, yangi nou-xaular bilan birgalikda ishlashlariga qiziqishlarini uyg'otish.

9. Jamoani faollashtiruvchi, birlashtiruvchi va mustaqil fikrlashlarini rivojlantiruvchi yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish.

10. Yoshlarning tanlagan kasbi va uning kelajagida o'zini ko'rish, rivojlantirish va kelgusi istiqboli borasida hozirdan ongli qarashlarini shakllantirish, shunga nisbatan yoshlarni maqsadli harakatga tomon undash.

Ushbu usul va jarayonlar zamonaviy pedagogikada yoshlarning har tomonlama sog'lom, mafkuraviy, ma'naviy sog'lom, ongli tafakkur egalari sifatida shakllantirishda va ularning kelgusida jamiyatimizni o'z qo'liga olishga qodir yoshlar qilib tarbiyalashda katta imkoniyatlar eshini ochadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Sh.Sh.Olimov, Sh.X.Samiyeva, N.X.Aslanova, F.J.Ro'ziev. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari". Darslik. Durdona nashriyoti. 2022 yil.
2. Podlasiy I.P. Pedagogika: Darslik. Moskva. Vishee obrazovanie. 2007. B-326.
3. Maslou A. Motivatsiya i lichnost. 3-e izd. SPB: Piter, 2009. B-120
4. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol usullar va pedagogic texnologiyalarni qo'llash uslubi. T., RBIMM, 2008.
5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlash shahri. T., "O'qituvchi" 1993.
6. www.uzedu.uz
7. www.ziyonet.uz

*Azizjon Kozimov,
O'zbekiston Milliy universiteti
3 – kurs talabasi*

MA'NAViy-AXLOQiy TAMOIYLLAR INTEGRASIYASI: MUTAFAKKIR A.NAVOIYNING KOMIL INSON TA'LIMOTI

Annotasiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning komil inson haqidagi ta'limoti, ma'naviy - axloqiy tamoyillari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar. ma'naviyat, qadriyat, Navoiy, integrasiya, axloqiy tarbiya, ma'naviy muhit, jamiyat, komil inson.

*Azizjon Kozimov,
student 3 kursa
Nasionalnogo universiteteta Uzbekistana*

INTEGRASIYA DUXOVNIX I ETICHESKIX PRINSIPOV: UCHENIE SOVERSHENNOGO CHELOVEKA MUTAFAKKIRA A. NAVAI

Annotasiya. V dannoy state izuchaetsya uchenie velikogo mislatelya Alishera Navoi o sovershennom cheloveke, duxovno-nravstvennix prinsipax.

Klyuchevie slova. duxovnost, sennosti, Navoi, integrasiya, npravstvennoe vospitanie, duxovnaya sreda, obshestvo, sovershenniy chelovek.

*Azizjon Kozimov,
National University of Uzbekistan
3rd year student*

INTEGRATION OF SPIRITUAL AND ETHICAL PRINCIPLES: THE TEACHING OF THE PERFECT MAN OF MUTAFAKKIR A. NAVAI

Annotation. In this article, the great thinker Alisher Navoi's doctrine about the perfect person, spiritual and moral principles are studied.

Key words. spirituality, value, Navoi, integration, moral education, spiritual environment, society, perfect person.

Jamiyatimizdagi bugungi yangilanish, rivojlanish va taraqqiyot jarayonida ma'naviyat va axloq tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Shaxsning ma'naviy yuksalishi va jamiyatning ma'naviy boyligini saqlash muhim qiymatga egadir. Mustaqil O'zbekiston o'zining buyuk kelajagini bilimli, dono, salohiyatli, mehnatsevar, yuksak ma'naviyatli, jismonan sog'lom avlodlar

timsolida ko‘radi. Bunday talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash, yoshlarning axloqiy darajasiga mas‘ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishini tarbiyalash davlatimizning ustuvor vazifalaridan sanaladi. Buning uchun esa yoshlarni qadimiy va har doim zamonaviy bo‘lib kelgan axloqni, ma‘naviyat tushunchalarini yanada aniq, izchil tanishtirish, yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yangicha yondashuvlardan biri – zamonaviy komil inson, an‘anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan, axloqiy fazilatlarini o‘z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo‘lmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Birinchil navbatda , yoshlarning ongu-tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim ” [1;302].

Ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida yangiliklar yaratish, mavjud nazariya va g‘oyalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Asrlar davomida jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘lim – tarbiya tizimiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Shu sababli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlarga muvofiq ravishda ta‘lim- tarbiya mazmuni ham takomillashib borishi lozim. Ta‘lim- tarbiya jarayonida integrasiyalashgan tarbiya va ta‘limning ustuvor o‘rin egallashi jamiyat va ta‘lim- tarbiya o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni qaror toptiradi.

Ma‘naviyatning axloqiy mezonlari muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma‘noda milliy muhit ularning yanada rivojlanishiga ko‘mak beradi, jamiyat a‘zolari bundan o‘zlariga kerakli fazilatlarini oladi. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni namoyon etadi. Ma‘naviyatning axloqiy mezonlarini axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlar tashkil etadi. “Ma‘naviyat”lug‘atida unga quyidagicha izoh berilgan:

“Ma‘naviyat(arab.ma‘no, ma‘nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa; ilmiy-falsafiy tushuncha.Shu bilan birga o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma‘no-mazmuni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma‘rifatli inson o‘zining hayotiy qarashlari, shaxsiy e‘tiqodi, ongu tafakkuri va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda turlicha ta‘rif berishi mumkin.” [3;345].

Jamiyat ma‘naviyatini shakllantiruvchi mezon va tamoyillarni qomusiy olimlarimiz yaratgan asarlar orqali o‘rganamiz. Ular tomonidan yaratilgan axloqiy fazilatlarini o‘z hayotimizga singdirib boramiz. Ajdodlarimiz qoldirgan meros bugungi kunda yoshlarning mukammal tarbiya jarayoniga ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ilm-u ma‘rifat ma‘naviy qaramlikni yo‘q qiluvchi vositadir. U insonga kuch, bilim va yuksak salohiyat baxsh etadi.

Axloq tushunchasi juda qadim zamonlardan beri o‘z dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmagan. Axloqiy tafakkur ilk bor Qadimgi Sharqda vujudga kelganligi, Shumer, Qadimgi Misr, Qadimgi Turon-Eron va Qadimgi Hindistonda dastlabki axloqiy g‘oyalarning paydo bo‘lganligi ta‘kidlanadi. Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mutafakkirlari yaratgan axloq nazariyalariga, O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida ilgari surilgan axloqiy qarashlarga, Temuriylar davridagi axloq va axloqiy fazilatlariga alohida e‘tibor berilgan. Ayni paytda yangi va eng yangi davr axloq falsafasi, Sharq va G‘arb axloqiy nazariyalarining o‘zaro aloqalari hamda bir-biriga ta‘siri, olamning umumbashariy axloqiy qadriyatlarining qaror topishida muhim ahamiyat kasb etganligi to‘g‘risidagi fikrlarga, ilmiy xulosalarga keng o‘rin berilgan. Shuningdek, Turkiston ma‘rifatchi — jadidlari qarashlari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mutafakkir Mir Alisher Navoiyning buyuk davlat arbobi sifatida amalga oshirgan insonparvarlik va bunyodkorlik ishlari hamon dunyo olimlarini hayratga soladi. Ayniqsa, ulug‘ shoirning komil inson haqidagi qarashlari doimo asosli, xalqchil va nihoyatda teran ahamiyati bilan yangi ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo‘ladi.

Ulug‘ shoir inson jamiyatga naf keltirishi, boshqalarga ziyon etkazmasligi, foydali ishlari bilan qadrlil va fazilatli deb hisoblaydi. Muhtaram Prezidentimiz to‘g‘ri ta‘kidlaganlaridek,

“Alisher Navoiy bobomizning “Odamiy ersang demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor.Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb ta’kidlamoqda ulug‘ bobomiz” [2;13].. Barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazish aynan mana shu tizim asosida ro‘yobga chiqariladi. Shu bois ta’lim tizimida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya rivojiga uyg‘un ravishda ta’lim – tarbiya mazmunini yangilab borish muhim talablardan biridir. Mustaqillikdan so‘ng o‘tgan vaqt mobaynida ushbu talabni inobatga olish orqali ta’lim-tarbiya mazmuniga integrasion g‘oyalarni singdirishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi.

Tarix saboqlari insonning irodasini sinaydi va chiniqtiradi. Alisher Navoiy umrini xalqni ma’rifatli qilishga bag‘ishlagan ulug‘ donishmand sifatida adolat, diyonat va imon-e’tiqodning kuchiga ishonadi, eng og‘ir, eng murakkab shart-sharoitlarda ham hukmdorlarni adolatli bo‘lishga chaqiradi. O‘sib kelayotgan yosh avlod ulug‘ shoirning komillik tarbiyasi haqidagi qarashlarini qanchalik chuqur va puxta bilsa, jamiyatda o‘zining mustaqil o‘rnini topishi shunchalik oson kechadi.Uning barcha asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida o‘rin berilgan. U umr bo‘yi butun dunyoda tenglik, adolat, iymon, mehr-oqibat, tafakkur va ma’rifat hukm surishini orzu qildi. Farzandni oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyo, “hayot chirog‘i” deb ta’riflaydi, bola tarbiyasi va uni shaxs sifatida shakllantirish masalasini jamiyatning muhim muammosi deb biladi.

Professor I.Haqqulning fikricha, “Alisher Navoiyning buyukligini bilmaslik o‘zbek millatining madaniyati tarixi, milliy-ma’naviy kuch-quvvati va jahon badiiy tafakkuriga qo‘shgan buyuk hissasini anglamaslik bilan barobar. Alisher Navoiyning ulug‘ siymosi ul zotning ruhoniyyati, benazir shaxsiyati va so‘zni san’at darajasiga ko‘targan ijodkor ekanligi bilan belgilanadi. Uning shu zamonda - yangi asrda ham zamonaviy shoir sifatida yodga olinayotgani behikmat bo‘lmas kerak” [4;159].

Darhaqiqat, Navoiy asarlaridagi halollik va pokdomonlik mohiyati, milliy o‘zlik tuyg‘usi va falsafiy tushunchalar yangi asrda ham mudom insoniyatni ogohlikka chorlamoqda.Allomaning inson haqidagi diniy-ilohiy qarashlari islomiy tamoyillar ta’sirida shakllangan. U insoniyatni komillik saodati sari chorlar ekan, uning ma’naviyati,tafakkuri, odobi va axloqiy go‘zalligiga alohida e’tibor beradi.Hazrat Navoiy iymonli bo‘lishni insoniylikning eng birinchi va eng asosiy belgisi deb biladi.

Iymon – faqat insonning vujudini emas, balki ruhini, ko‘nglini ham poklaydi.Inson o‘zini va o‘zligini iymon orqali anglaydi, iymon orqali etuk ma’rifatga erishadi.Komillik – iymonga sadoqatda, iymon-e’tiqod mustahkamligida yuzaga chiqadi. Shoirning fikricha, insonning ota-onasiga, atrofidagi odamlarga munosabatida uning iymon-e’tiqodi, jamiyatga munosabati, o‘zligi, axloqiy go‘zalligi namoyon bo‘ladi:

Boshni fido ayla, ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa, ano boshiga.
Bo‘lsun adab birla bori xizimating,
Ham qil adab “dol”i kibi qomating.

“Hayratul - abror” dostonidan olingan mazkur parchada ota-ona xizmatini muhabbat bilan ado etish insonning burchi ekanligi ta’kidlanayapti.Shoir ota-onadan keyin aka-uka va opa-singillarga oqibatli bo‘lish borasida ham to‘xtalib o‘tgan. Uning nazdida o‘z yaqinlariga rahmdil bo‘lmagan odam boshqalarga ham mehr-shafqat ko‘rsata olmaydi. Ulug‘larga xizmat, kichiklarga shafqatli bo‘lish yuksak ma’naviyat belgisi ekanligini ta’kidlaydi.

“Integratsiya” so‘zi lotincha integration - tiklash, to‘ldirish, “integer” butun so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiya g‘oyasi ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Rivojlangan davlatlarda ta’lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya, Finlyandiya kabi davlatlarda ta’lim mazmunini integratsiyalashga erishilgan. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish talabada ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi.

Yoshlar kamolotida ilmga intilish tuygʻusi, tarix ilmini egallash istagi, eng samarali tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va eʼtiqodlar tizimidir. Yuksak maʼnaviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonligi yoʻlida fidokorona mehnat qilish, oʻziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan boʻlish, oʻzida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega boʻlish kabi xislatlarni mustaqil Oʻzbekiston Respublikasi hayotida ustuvor boʻlgan tamoyillar sifatida eʼtirof etish mumkin.

Ilm-fanga, taʼlim-tarbiyaga, odob-axloqqa eʼtibor tufayli yoshlar maʼnaviyatli va maʼrifatli etuk inson boʻlib etishishlari shubhasiz. Bugungi ochiq va oshkora, demokratik rivojlanish yoʻlidan borayotgan yurtimizda har bir insonning vatanparvarligi muhimdir. Vatanparvarlik, sadoqatlilik, fidoyilik kabi oliy qadriyatlar orqali vatan taraqqiyoti va farovonligi uchun hissa qoʻshish oʻsib kelayotgan yosh avlodning insoniy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. T.: “Oʻzbekiston” nashriyoti.,2021.
2. Mirziyoev Sh. Ajdodlar faxrimiz. Yoshlarga donolar oʻgiti. T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Maʼnaviyat. Asosiy tushunchalar lugʻati.T.: “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti.,2021.
4. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati,2007.
5. Mahmudov T. Mustaqillik va maʼnaviyat. - T.: Oʻzbekiston, 2001.

Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich-

Far.DU professori, pedagogika fanlari doktori

Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi-

Far.DU Boshlangʻich taʼlim uslubiyoti kafedrasida oʻqituvchisi

Taqrizchi: pedagogika fanlari doktori, professor B.Qurbonova

BOʻLAJAK OʻQITUVCHILARNING PEDAGOGIK LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi boʻlgan taʼlim mazmunida pedagogik loyihalash metodikasini samarali qoʻllash orqali taʼlim samaradorligini

ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va talabalarda loyihalash faoliyatini shakllantirishga bo'lgan qiziqish haqida fikrlar yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется обеспечению эффективности образования посредством эффективного использования методологии педагогического проектирования в содержании образования, которая является движущей силой развития государства. Выделены мысли о заинтересованности в формировании проектной деятельности школьников и студентов в современном образовательном процессе.

Annotation: This article pays special attention to ensuring the effectiveness of education through the effective use of pedagogical design methodology in the content of education, which is the driving force for the development of the state. Thoughts about interest in the formation of project activities of schoolchildren and students in the modern educational process are highlighted.

Kalit so'zlar: ta'lim mazmuni, pedagogik loyihalash, ta'lim samaradorligi, pedagogik hamkorlik, ko'nikmalarni o'zlashtirish, shaxsning shakllanishi.

Ключевые слова: содержание образования, педагогический дизайн, эффективность обучения, педагогическое сотрудничество, овладение навыками, формирование личности.

Keywords: content of education, pedagogical design, teaching effectiveness, pedagogical cooperation, mastery of skills, personality formation.

Kirish

Yurtimizda pedagog kadrlarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, oliy ta'lim muassaasalarida bitiruvchilarning o'quv jarayonini loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga munosib shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat, ilmfan taraqqiyoti, insoniyat kundalik maishiy va kasbiy faoliyat sohalariga ilg'or texnologiyalar, OAV ta'sir doirasining kuchayishi barcha fanlar qatori matematika va uni o'qitish metodikasining samarali usul va texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq qilishni taqozo etmoqda. BMT bolalar fondi YUNISEFning Butunjahon bolalar Konvensiyasida barcha davlatlarni o'quvchilarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash majburiyatini olish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, o'qituvchilarga kerakli yordam va vositalarni taqdim etish, maktablarda xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish uchun sa'y-harakatlarni kuchaytirish va investitsiyalarni kiritishga chaqiradi. Bu borada dunyoning taraqqiyparvar davlatlarida o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish hamda jamiyatdagi mavqeini ko'tarish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qitiladigan umuta'lim va kasbiy fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch ko'nikmalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kompetentlik atamasi asli psixologik tadqiqotlar asosida pedagogik tushunchaga o'tgan. Kompetentlik nostandart vaziyatda pedagog xodimning o'zini qanday tutishi, hamkorlari bilan muloqotga kirishishi, loyiha vazifalarini amalga oshirishda faollik ko'rsatishi, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasiga egalikni anglatadi.

B.S.Xurramovning[97]e'tiroficha, kompetentlik musaboqalashmoq, bellashmoq, raqobatlashmoq kabi ma'nolarni, shuningdek, o'ta murakkab aqliy operatsiyalarni amalga oshirishga qodirlik ma'nolarini o'zida mujassamlashtiradi. Tushuncha barcha sohalar uchun mushtarak xarakterga ega.

Kompetentlik – shaxsdan egallagan bilimlariga tayangan holda biror faoliyat turida bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish yuzasidan kerak bo'ladigan minimal tajribani talab qiladi. Bundan talabalarining loyihalash usulini egallaganligiga qo'yiladigan talablarni belgilash hamda matematika fanidan mashg'ulotlarni loyihalash ham mustasno emas. Professor N.A.Muslimov, M.B.Urazovalar[29] o'qituvchi kasbiy kompetenligi sifati uning o'z ustida ishlashi, ta'lim jarayonini loyihalay olish, uni boshqarishi, ta'lim subyektlarining o'zaro bir-birini anglashi,

ishonchiga bog'liqligini ta'kidlashadi. Barcha kasbiy faoliyatda bo'lgani kabi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidan loyihalash usulini o'quv jarayoniga tatbiq etishda ham muayyan kompetensiyalarga egalik talab qilinadi. Quyida mazkur talablarning ayrimlarini sanab o'tish dan oldin kompetensiya tiplariga qisqacha oydinlik kiritishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Tahlillarimiz ta'lim subyektlari kompetensiyalarini shakllantirish manbaiga ko'ra uchta tipga ajratish imkonini berdi;

ta'lim mazmunidan kelib chiqadigan tayanch kompetensiyalar;

ma'lum doiradagi o'quv predmetlari va ta'lim sohalarida shakllanadigan umumpredmet kompetensiyalari;

alohida olingan o'quv predmeti doirasida shakllantiriladigan predmetga oid kompetensiyalar.

Sanab o'tilgan kompetensiyalarning har bir o'qituvchida mujassam bo'lishi bevosita ta'lim jarayonini tashkil qilish sifatiga, o'qituvchining bilim darajasi, sog'lom raqobat muhiti, motivatsiyasi hamda auditoriyaning xuddi shu jihatlariga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, matematika o'quv fanini o'zlashtirishda o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, fanni o'qitishga tegishli xususiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi o'ta muhim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar bizga talabalarda loyihalash yordamida shakllantiriladigan kompetentlikning quyidagi turlarini aniqlash imkonini berdi:

1. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan matematika fani mazmuni va uni o'qitish asosida tarbiyalanadigan tayanch loyihalash kompetentligi.

2. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan barcha fanlar asosida shakllantiriladigan loyihalash kompetentligi.

3. OTMda talabalarga o'rgatiladigan me'yoriy hujjatlar, tanlov fanlari, pedagogik tsikldagi fanlarorqali hosil qilinadigan xususiy loyihalash kompetentligi.

Shuningdek, adabiyotlar tahlili bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi loyihalash kompetensiyalari tarkibi o'quv dasturlari, standart talablari, ishchi o'quv rejasi, sillabuslar, elektron va bosma o'quv-uslubiy majmualari, taqvim rejalar, dars ishlanmalari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalar, ularni amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar hamda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, turli murakkablikdagi o'quv topshiriqlarini yaratish qobiliyatlarini qamrab olganligini ko'rsatdi. M.Barakayev matematika fani asoslarini o'rganishda katta va kichik modullarga tayanish hamda shu modullar loyihalash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan quyidagi ko'nikmalarni ajratib ko'rsatadi:

loyihalash usuliga asoslangan o'quv mashg'uloti maqsadi, topshiriqlar mazmuni, bosqichlari va ularga sarflanadigan vaqt taqsimoti, baholash mezonlarini bilish, yakuniy natija farazini oldindan ishlab chiqish;

mashg'ulotlarni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda nazariy bilim, AKT, ilg'or usul va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari ;

talabalar faoliyatini muntazam nazorat qilish, defferensial ta'lim tamoyilini qo'llash ko'nikmalari ;

talabalarda me'yoriy hujjatlarni tushunish, ular bilan ishlash ko'nikmalari ;

talabalarda amalga oshirgan har qanday faoliyat yuzasidan hisobot yozish, taqdimot tayyorlash ko'nikmalari ;

ta'lim subyektlarining kognitiv, kommunikativ, o'zaro hamkorlik, tahlil, tanqiqiy tafakkur faoliyatlarini rag'batlantirish ko'nikmalari .

E.S.Polat bo'lajak o'qituvchining o'qitish mazmunini tashkil qilishda pedagogik loyihalash kompetentligini shakllantirmasdan turib, intellektual salohiyatli raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash mumkin emasligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, bo'lajak o'qituvchining loyihalash kompetentligi egallangan bilim va ko'nikmalarni sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish, amalga oshirish, tahlil asosida baholashga qodirligini bildiradi. Biz

yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning loyihalash fusuli mazmuni, bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim jarayonida tutgan o'rni, vazifalari xususidagi barcha fikrlariga to'laligicha qo'shilamiz va ularni qo'llab-quvvatlaymiz. Ularga ergashgan holda loyihalash usulining quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatamiz:

- talabalarda davr va jamiyat talablariga mos, milliy va umumbashariy qadriyatlarga yo'g'rilgan insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish;

- loyihalash faoliyati mohiyatini anglagan holda o'qitish jarayoniga tatbiq qilish;

-matematika fani mashg'ulotlarini tashkil qilishda loyihalash usuliga uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash;

-mashg'ulotlarda talabalarining faolligini ta'minlash, hayotiy faoliyatida asqotadigan didaktik ko'nikmalar bilan qurollantirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining loyihalash kompetentligi zamonaviy ta'lim jarayonini rejalashtirish, media vositalari tizimlari bilan ishlash, mushohadalarini talabalarga yetkazib bera olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematik mashg'ulotlarni loyihalash kompetentligi nazariy bilimlarga tayangan holda amaliy faoliyat ta'sirida izchillikda takomillashib boradi. Bunda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida dastlabki loyihalash kompetentligi OTMda matematik sikldagi, ayniqsa uni o'qitish metodikasi fanida singdiriladi.

Loyihalash usuliga xos ko'nikmalarni shakllantirishning ikkinchi bosqichida talabalarda turli murakkablikdagi dars ishlanmalari yoki mashg'ulot fragmentlarini ishlab chiqish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va ularda kasbiy kompetensiyalar, jumladan loyihalash kompetentligini shakllantirish jarayonida yangilangan ta'lim mazmuni, innovatsion ta'lim texnologiyalar, ilg'or tajribalarga tayangan holda matematika fanini o'qitishni tashkil qilish va boshqarish davr talabi sanaladi. Aynan shu jihatlar milliy pedagogikamiz va uning ajralmas tarkibiy qismi sanaladigan boshlang'ich ta'limning istiqbolini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova O'., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti– Toshkent: 2014.
2. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
3. Shermuhammadov B.Sh., Qurbonova B.Q., Maqsudov U.Q., Qo'chqarova M.A., Sidikova Z.M. Umumiy pedagogika. /Farg'ona: "Classic" nashriyoti-2022. –240 b.
4. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
5. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). METHODS OF STUDYING ADDITION AND SUBTRACTION OF TWO-DIGIT NUMBERS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 61-67.

Razakova.R.S.

«Pedagogika va psixologiya»
kafedrasi PhD, dotsent. UrDU
razzaqova83@gmail.com

TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARINI YARATISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning pedagogik va psixologik asoslarini yaratish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: aql-zakovat, ta'lim, yoshlar, faoliyat, intellektual salohiyat, pedagogik va psixologik asos, jarayon, guruh, maqsad, vazifa

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы создания педагогических и психологических основ повышения интеллектуального потенциала молодежи в образовательном процессе.

Ключевые слова: интеллект, образование, молодежь, активность, интеллектуальный потенциал, педагогико-психологическая основа, процесс, группа, цель, задача.

Abstract: This article discusses the issues of creating pedagogical and psychological foundations for increasing the intellectual potential of young people in the educational process.

Key words: intelligence, education, youth, activity, intellectual potential, pedagogical and psychological basis, process, group, goal, task.

Kirish

Har bir fan o'qituvchisi ta'lim berish jarayonida talabalarning fanni o'zlashtirish jarayoni bilan qiziqishlari tabiiy hol albatta. YOshlarning fanni mukammal o'zlashtirishi, qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishi, yanada chuqurroq bilim olishga harakat qilishi har qanday ustozni quvontirishi ham tabiiy holdir. Lekin bu hol har bir guruhdan ikki yoki uch o'quvchi bo'lishi mumkinligi hech kimga sir emas. Chunki to'laqonli o'z ongi, aql-zakovati, zukkoligi bilan bilim olishga va ijod qilishga qiziquvchi o'quvchi-yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni ishlab chiqish va dars jarayonida unga amal qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi pf-27-sonli farmonida ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida, prezidentimiz SH.M.Mirziyoev aytganlaridek, “Kelajagimiz yoshlar qo'lida..”. Darhaqiqat, bugungi mashshaqqatli mehnatimizning mahsulini kelajak ko'rsatadi. Bugungi kunda iqtidorli, iste'dodli yoshlarimiz ham kam emas. Faqatgina biz ularni dars jarayonida aniqlab olishimiz va ularni qiziqishlarini inobatga olishimiz, ijodiy salohiyatga erishishi uchun to'g'ri yo'l-yo'riqlarni ko'rsata olishimiz kerak.

Buning uchun har bir talaba-o'quvchining kundalik ish faoliyatini kuzatishimiz va undan psixologik-pedagogik xulosalarni chiqarib har bir o'quvchi bilan individual ish olib borish uchun ularning ish faoliyatining turlarini o'rganib chiqish va har bir talabaning psixologik dunyoqarashi bo'yicha ma'lum xulosalarga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yimog'imiz lozim:

Yoshlarning umumiy faoliyat turlarini birma-bir o'rganmasdan turib ularning ijodiy salohiyatiga baho bera olmaymiz. Chunki, o'quvchilar o'rganilayotgan fanni “a'lo” va “yaxshi” o'zlashtirishiga qarab uning iste'dodini baholashimiz ham noto'g'ri uslubdir. Ma'lumki, bir yo'nalishni chuqur o'zlashtirib tor mutaxassislik doirasida “a'lo” bo'lib ixtisosligi bo'yicha o'qitilayotgan fanlarni yaxshi o'zlashtira olmasligi mumkin. Buning uchun barcha ta'lim maskanlarida tahsil berayotgan ustozlarimiz o'z shogirdlarining ijodiy salohiyati va mahoratini rivojlantirish uchun o'quvchining intellektual sifatlarini o'rganishi zarur bo'ladi:

Yoshlarning intellektual sifatlarini o'rganish

- Kuzatuvchanligi, dars jarayonida har bir fikrning mazmuniga
- Mantiqiyliigi, o'zaro suhbat jarayonida mantiqiy fikr
- Ijodkorligi, jumboqlarni echimini topishi,yozma
- Demokratik erkin fikr yurita olish mahorati,

- Kuzatish orqali fikrini asoslab berishi
- O'z fikrini o'zgartirmas-lik darajasi
- O'z ustida ijodiy ish olib borish qobiliyati
- Kundalik yangiliklardan xabardorligi va xulosasi

Yoshlarning intellektual sifatlarini o'rgangan holda ular bilan muntazam ish olib borish uchun ta'lim jarayonida quyidagi usullardan foydalanishni nazarda tutish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Bundan tashqari har bir ta'lim maskanida o'tkaziladigan ta'limiy tadbirlar, tanlov va musobaqalar ham yoshlarning ilmiy va ijodiy intellektual salohiyatini oshirishga juda katta yordam beradi. Buning uchun har bir ustoz o'zi tanlagan shogirdining mahoratini oshirib borish uchun barcha usullarni qo'llay olishi, o'quv maskani ma'muriyati tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlarni o'z vaqtida muntazam o'tkazilishini o'rganib borishi lozim. Ko'rik-tanlov, musobaqa, olimpiadalar o'tkazishdagi demokratik erkinlik, odilona va oqilona boholash, yoshlarning ijodiy intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi omillarni ilgari surish barchamizning muhim vazifalarimizdan biri ekanligini unutmasligimiz kerak.

Faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotiningomili bo'la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagina uyg'onishi, taraqqiy etishi va shaxs kamolotini ta'minlash mumkin. Har bir pedagog o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo'lini izlab topishi lozim [7].

Xulosa

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatleri takomillashib, kamol topadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim-tarbiyaga shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatiga qiziqishi bilan bir qatorda uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodli kishilar o'z iste'dodlari – iqtidor kuchini to'la ro'yobga chiqarish uchun o'z ustlarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari shart. Masalan, Alisher Navoiy, Ibn Sinolarning qunt bilan, hatto kechalari uxlamasdan kitob mutolaa qilganlari-yu, Amir Temurning harbiy san'atni egallash borasidagi mehnatlari fikrimizning dalilidir [3].

Etuk siymolar hayotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning ijodiy faoliyatlaridagi asosiy narsa uzluksiz izlana bilish, oylab, yillab o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga etish yo'llarini izlashdan charchamaslik maqsadga erishish yo'lidagi muhim omildir. SHuning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davrida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning o'z oldiga maqsad qo'yish va uni ro'yobga chiqarish, tinmay izlanish va mehnat qila olish qobiliyatlarini, kuchli iroda va qat'iy xarakterni tarbiyalab borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxamedova D.G., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik,- Toshkent, "Mumtoz so'z" 2018.-287 b.
2. Abdullayeva Sh., Asqarov A. Umumiy pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. -T: Fan va axborot texnologiyalari, 2019. -280
3. Xodjayev B.X., Umumiy pedagogika. Darslik.–Toshkent, "Sano-standart", 2017 y.434 b.
4. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika//darslik. –T.: 2016 y. - 538 b.
5. Ismailova A. R. Osobennosti myslitelnoy deyatelnosti shkolnikov v podrostkovom vozraste //conference of natural and applied sciences in scientific innovative research. – 2024. – t. 1. – №. 1. – s. 169-175.
6. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 21-24.

7. Razakova R. S. The Essence of the Concept of Family Life in Modern Psychology //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – T.2. – №. 1.– С. 339-342.
8. Razakova R. S., Narimonovna Y. I. Bog 'cha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 2. – С. 196-201.
9. Адамова Ў. К. Psixologiyada shaxsga samarali ta'sir ko'rsatish usullari.

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna
FarDU professori, pedagogika fanlari doktori

УДК: 378.018.43:004.378

Taqrizchi: pedagogika fanlari doktori, professor O'.Asqarova

HAMKORLIKDAGI PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASH

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida bevosita hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogikaga tayanish – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalarini faoliyat davomida qo'llash, zamonaviy muhitda ta'lim oluvchida birgalikda ishlashga yo'naltirilgan jamoaviylik, o'z tengdoshlarining aqliy hamda axloqiy fazilatlari bilan to'laqonli faxrlanish, jamoa tarkibida o'zining munosib o'rniga egaligi bilan g'ururlanish tuyg'usini tarbiyalash, uni jamoa a'zolari bilan birgalikda faol bilim olishga o'rgatish demakdir. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalari xususida fikr yuritiladi.

Аннотация: Опора на педагогику, ориентированную на непосредственное сотрудничество в образовательном процессе, – это применение современных технологий лично-ориентированного обучения на протяжении всей деятельности, коллективность, ориентированная на совместную работу в современной среде, воспитание у обучающегося чувства полной гордости умственными и нравственными качествами сверстников, гордости за свое достойное место в коллективе, приучение его к активному обучению совместно с членами коллектива. В данной статье рассматривается педагогика, ориентированная на сотрудничество в образовательном процессе – современные технологии лично-ориентированного обучения.

Annotation: Reliance on pedagogy focused on direct cooperation in the educational process is the application of modern technologies of personally-oriented learning throughout the activity, collectivity, focused on working together in a modern environment, fostering in the learner a sense of full pride in the mental and moral qualities of peers, pride in his worthy place in the team, accustoming him to active learning together with members of the team. This article considers pedagogy oriented to cooperation in the educational process - modern technologies of personality-oriented learning.

Kalit so'zlar: hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika, hamkorlikda o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, birgalikdagi faoliyat, pedagogik hamkorlik, hamkorlik muhitini tashkillash.

Ключевые слова: педагогика сотрудничества, сотрудничество в обучении, индивидуально-ориентированное обучение, совместная деятельность, педагогическое сотрудничество, организация сотрудничества.

Keywords: pedagogy of cooperation, cooperation in learning, individual-oriented learning, joint activity, pedagogical cooperation, organization of cooperation.

Kirish

O'quv jarayonini rejalashtirish, pedagogning loyihalash kompetentligini rivojlantirish muammosini tadqiq qilish o'ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega. Bugungi shiddatli va o'zgaruvchan muhit har bir shaxsdan o'z kundalik ijtimoiy faoliyati hamda ta'lim traektoriyasini to'g'ri belgilay olish, ya'ni to'g'ri loyihalash kompetentligiga egalikni taqozo etadi. Shu bois, mamlakatimizda mavjud uzluksiz ta'lim tizimi barcha bo'g'inida ta'lim subyektlari loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar bajarilmoqda.

Ta'lim jarayonida bevosita hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogikaga tayanish – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalarini faoliyat davomida qo'llash, zamonaviy muhitda ta'lim oluvchida birgalikda ishlashga yo'naltirilgan jamoaviylik, o'z tengdoshlarining aqliy hamda axloqiy fazilatlarini bilan to'laqonli faxrlanish, jamoa tarkibida o'zining munosib o'rniga egaligi bilan g'ururlanish tuyg'usini tarbiyalash, uni jamoa a'zolari bilan birgalikda faol bilim olishga o'rgatish demakdir. Ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning istiqbolli, ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ularning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlanishini ta'minlashdir. Milliy axloq tarbiyasida ma'naviy-ruhiy, milliy nafosat va jismoniy tarbiya ham ta'lim jarayonida ustuvor o'rin egallashi lozim. Bunda o'quv materiali shaklida berilgan ta'limiy matnlar, didaktik mashqlar, o'quv topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarga turli shaklda axloqiy-ma'naviy tarbiya va milliy nafosat me'yorlari, umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi[3].

O'zaro hamkorlik - bu o'qituvchi va o'quvchilarning belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorligi. Ko'p omillilik ko'plab obyektiv va subyektiv omillarning namoyonidir[5].

Ta'lim oluvchilarining obrazli tafakkur qilish imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni birgalikdagi faoliyatni vujudga kelish jarayoni bilan tanishtirish kerak. Bu jarayonda ta'lim oluvchilar hamkorlikka kirishish yo'llari va usullari bilan yaqindan tanishadi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy tajribalarini boyitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar so'nggida ular bilan yakunlovchi xarakterdagi tahliliy suhbat o'tkazish talab qilinadi.

Ta'lim mazmunining muammoli o'qitish va pedagogik hamkorlik printsiplariga asoslanganligi, o'quv jarayoni ishtirokchilari orasida o'zaro dialog muhitining ta'minlash lozim [4].

Hamkorlikdagi ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilarning do'stlashishi, bir-birini tushunishi, muloqotga kirishishlari uchun zamin hozirlashi kerak. Ta'lim oluvchilar o'zaro baland ovozda gapirmasliklari, bir-biriga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, zarur vaziyatlarda o'zlarini tuta bilish va xatti-harakatlarini nazorat qilishni ta'minlashi muhim. Ta'lim oluvchilarda hayotiy tajribaning etishmasligi tufayli ular orasida ishchan, do'stona muloqot o'rnatish murakkab kechadi. Bunda o'qituvchi ta'lim oluvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va qo'llashi, ularning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi va har tomonlama o'rganishi kerak[4].

Hamkorlikdagi pedagogik vaziyatni vujudga keltirishda o'qituvchi, birinchi navbatda o'yin usulidan samarali foydalanishi lozim. Buning uchun o'qituvchi ham, ta'lim oluvchilar ham zarur shaxsiy sifat va ko'nikmalar bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Shunda ular vaziyatlarga ijobiy yechim topa oladilar.

Pedagogik hamkorlik jarayonida ta'lim oluvchilarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko'tarinkilik, quvonch, do'stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchanlik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko'maklashish, kechira olish, mas'uliyatlilik, haqgo'ylik, bag'rikenglik, toqatlilik, tushunish kabilar kuzatiladi. Mashg'ulotlar yakunida ta'lim oluvchilar bir-birini yaxshi bilganliklari, yaqindan do'stlashganliklari, o'zlari haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lganliklari, yaxshi sifatlarni namoyon qilganliklari, atrofdagilarning o'zlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlaganliklari, o'zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo'lganliklari, ijobiy hamkorlik muhitiga ega ekanliklari, o'zlari va sinfdoshlariga nisbatan ishonch hissini tuyganliklarini kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hamkorlikdagi ta'lim jarayonida o'qituvchilar quyidagi bir qator vazifalarni ham samarali echishga intilishlari lozim. Bunday vazifalar sirasiga:

- 1) ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishlari uchun qulay sharoit yaratish, o'z oldilariga qo'yilgan savollarga ijodiy yondashgan holda javoblar qaytarishini ta'minlash;
- 2) ta'lim oluvchilar o'z sinfdoshlarini samimiy tushunishlari uchun imkoniyat yaratish;

- 3) ta'lim oluvchilar guruhi orasidagi sovuq munosabatni bartaraf etish;
- 4) ta'lim oluvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini vujudga keltirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash[9].

Demak, ta'lim oluvchilarining hamkorlikdagi tahliliy faoliyati analitik mashqlar va muammoli topshiriqlarni bajarish jarayonida samarali rivojlanadi.

Bugungi kun zamonaviy o'qituvchisi ta'lim jarayonida talabalar bilan hamkorlikni tashkil qilishda quyidagi innovatsion o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

tanlangan qaysi mavzularni to'liq hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganish mumkinligini turli usullar va guruh faoliyatidan kelib chiqib aniqlashi, qolaversa, mazkur darslarni taqvim-rejada belgilab qo'yishi;

tanlangan mavzu bo'yicha to'laqonli ta'lim oluvchilarga nisbatan tavsiya etiladigan turli o'quv topshiriqlari hamda ularni hayotiy mazmunga mos bajarish yuzasidan turli yo'nalishdagi ko'rsatmalarni tayyorlashi;

hamkorlik tarzida o'qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanib o'tiladigan dars turi, tipi, dars bosqichlarini va borishini to'liq loyihalashi;

o'tgan va endi tashkil etiladigan yangi mavzular yuzasidan ta'lim oluvchilar bilimini to'laqonli nazorat qilish uchun turli mazmundagi test topshiriqlarini turli darajalarda tuzishi lozim.

Mazkur zamonaviy metodlardan foydalanishda va uni ta'lim jarayoniga olib kirishda shuni nazarda tutish kerakki, ta'lim oluvchilar jamoadagi faoliyatdoshi bilan hamkorlikda o'quv va mantiqiy topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari barobarida guruh a'zolarining to'laqonli faolligi, yangi keng tarmoqli hamkorliklarini vujudga kelishi, ular o'rtasidagi muloqot va milliy madaniyat tamoyillariga to'laqonli amal qilinishi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a'zolari bir vaqtning o'zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. Akademik topshiriq – bilish va ijodiy izlanish orqali o'quv topshiriqlaridan ko'zlangan maqsadga erishish;

2. Ta'lim jarayoniga tegishli ijtimoiy-psixologik topshiriq – dars davomida zaruriy yuqori saviyadagi muloqot madaniyatiga egalik, odob-axloq qoidalariga faoliyat mazmunidan kelib chiqib to'laqonli rioya qilish.

O'qituvchi yuqorida aytilgan har ikkala darajadagi topshiriqning yuqori va keng saviyada bajarilishini nazorat qiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitishning zamonaviy va innovatsion metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari, o'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, ta'lim oluvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlarning mazmuni ustida mustaqil-ilmiy va ijodiy ishlash, mazkur mazmun haqida o'z fikrini doimiy ravishda qisqa va zamon talabiga mos aniq bayon etish, fikrlarni to'laqonli asoslash ularni aniqlash to'g'risida dalillash, mazkur jarayon to'g'risida mantiqiy fikr yuritish, faoliyatga doir o'quv bahsi hamda munozaralarda faol va tahliliy tanqidiy qatnashish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonida qo'llashni tavsiya etayotgan hamkorlikda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan biri jamoada o'qitish:

Jamoada o'qitishda (R.Slavin)[7] ta'lim oluvchilarning teng sonli ikkita yoki bir nechta jamoaga ajratiladi. Ajratilgan jamoaga bir xil topshiriq beriladi. Jamoaning har bir a'zosi berilgan topshiriqni hamkorlikda zamonaviy usullarni qo'llab bajaradi, har bir talaba mavzuning nazariy qismida ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni integratsion o'zlashtirishiga e'tiborni to'laqonli qaratadi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatidagi hamkorligini rivojlantirishning texnologiyalari quyidagicha:

1. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatidagi hamkorligini tashkil etishga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlar vositasida ta'lim mazmunini boyitish.

2. Ta'lim jarayonida hamkorlikdagi o'qitish metodlaridan foydalanish.

3. Ta'lim oluvchilarda o'zaro bir-biri bilan hamkorlikda ishlash ehtiyojini shakllantirish.

Ta'lim oluvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Hamkorlikda o'qitishning "birgalikda o'qiyamiz" metodi. Sinf ta'lim oluvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarni to'liq bajarishi natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari – komandani taqdirlash, ta'lim oluvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish sanaladi[1].

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida ijodiy hamda izlanishni samarali tashkil etish metodi. Bu metodni qo'llash jarayonida ko'proq talabaning ya'ni ta'lim oluvchilarning mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlashiga urg'u qaratiladi.

Ta'lim oluvchilar alohida individuallashtirilgan yoki 6 kishidan iborat bo'lgan kichik guruhlarda o'zaro izchil ijodiy izlanishni tashkil etadilar. Ijodiy va ilmiy izlanishlar faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda dars davomida o'rganilishi zarur bo'lgan nazariy material kichik bo'laklarga va maxsus qismlarga ajratiladi. Keyinchalik mazkur qismlar yuzasidan turli darajadagi topshiriqlar har bir ta'lim oluvchiga imkoniyatlaridan kelib chiqib taqsimlanadi. Shundan kelib chiqib guruhda ishtirok etgan, har bir ta'lim oluvchi ijodiy, ilmiy topshiriqning bajarilishiga keng qamrovda o'z hissasini qo'shishga sababchi bo'ladi. Kichik guruhlarda berilgan turli mazmundagi topshiriq yuzasidan keng tartibda munozara o'tkaziladi. Guruhda ishtirok etuvchi a'zolar birgalikda ma'ruzaga doir nazariy ma'lumot tayyorlaydilar va guruh ta'lim oluvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanish natijasini tizimli va ketma-ketlik asosida e'lon qilib boradilar. Barcha faoliyat samarasida hamkorlikda ishlash yakunida qo'lga kiritilgan qator yutuq hamda muvaffaqiyatlar guruh jamoasidagi har bir talaba ya'ni ta'lim oluvchining, doimiy va takrorlanuvchi va faol aqliy mehnat bilan shug'ullanishiga, kichik guruhlarining umuman olganda guruh jamoasini birlashtirishiga, dastlab o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy yangi hamda noodatiy, kutilmagan vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hamkorlikka asoslangan ta'limda ta'lim oluvchilar alohida shaxs sifatida tan olinadilar. O'zlashtirishi past yoki imkoniyatlari cheklangan ta'lim oluvchilar ham do'stona munosabat o'rnatilgan guruhda o'z "ovoz"lariga ega bo'ladilar. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o'quv jarayonining loyihasini ishlab chiqadi, unda har bir ta'lim oluvchining ishtiroki ko'zda tutiladigan vaziyatlarni kiritadi. Guruhlar yoki juftlikda ishlash o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad asosida tanlanadi. Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan guruhli ishda har bir ta'lim oluvchining ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladigan vazifalar va o'quv topshiriqlari beriladi. Natijada talabalarda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari kengayadi va o'zlariga beradigan baholari ko'tariladi. Shu tariqa, talaba o'z qadr-qimmatini anglay boshlaydi. Barcha ta'lim oluvchilar o'zlarining turli-tuman ekanliklarini anglash bilan bir qatorda, o'z kuchlariga ishonch hosil qiladilar.

Bu esa ta'lim oluvchilarning kelajakda mikrosotsiumda o'z o'rinlarini topishlari, atrofdagilar bilan samarali muloqot, hamkorlik va do'stona munosabat o'rnatishlari, o'z qarashlarini himoya qilishlariga imkon beradi. Ular bir-birlarini kamsitmaslik, barchalarining teng huquqli ekanliklarini e'tirof etishga o'rganadilar.

Pedagogikaning asosiy g'oyalarini yangicha tushunish unga ko'proq shaxsiy mazmun-mohiyat berish, ta'lim oluvchilar bilan ular uchun tushunarli va qulay bo'lgan holatlarda ko'proq hamkorlik qilishga asoslanadi. Ta'lim oluvchi ko'plab vazifalarni bajarib pedagogik hamkorlik doirasida uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ular orasida eng muhimi ob'ektiv borliqni aks ettirish vazifasidir. Bu vazifaning kiritilishi pedagogik faoliyatni tashkil etishni cheklash uni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirishga asos bo'ladi.

O'zaro hamkorlikning muhim vazifalaridan yana biri – talabalarni muayyan faoliyatga yo'naltirish va bosqichma-bosqich tayyorlashdan iborat. Hamkorlik jarayoniga jalb etilmagan yoki hamkorlikka kirishishi murakkab kechadigan talabalarda muvozanatsizlik, hissiy tushkunlik,

hadiksirash, ishonchsizlik va xavotirga tushish holatlari kuzatiladi. Talabalar orasida hamkorlik muhitining vujudga keltirilishi ularning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash imkonini beradi. Chunki, bunday hamkorlik jarayonida talabalar bilmagan narsalarini bir-birlaridan o'rganadilar va o'zlari uchun ma'lum bo'lgan axborotlarni guruhdoshlariga etkazadilar.

O'zaro hamkorlik muhitida o'qituvchi-ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilar orasida o'zaro ta'sir ko'rsatishning uch turi mavjud:

1. Hamkorlik jarayonida o'qituvchi-ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilarning bir-birlariga ko'rsatadigan verbal ta'sirlar;

2. Hamkorlik jarayonida o'qituvchi-ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro bir-birlariga ko'rsatadigan paralingvistik ta'sirlar;

3. Hamkorlik jarayonida o'qituvchi-ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro bir-birlariga ko'rsatadigan noverbal ta'sirlar.

O'quv-tarbiya jarayonida amalga oshirilayotgan muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sir ko'rsata olishi jarayon sub'ektlari bajaradigan rollarga bog'liqdir. O'quv jarayonining birinchi sub'ekti bo'lgan o'qituvchida ta'lim oluvchilarga muayyan darajada ta'sir ko'rsatish maqsadi mavjud. Bu maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi zarur pedagogik vositalardan foydalanadi.

O'qituvchi va ta'lim oluvchilarda tarkib topgan bir-birlarini tinglay olish ko'nikmalari o'zaro hamkorlik jarayonining samaradorligini ta'minlash bilan bir qatorda o'qituvchi-ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirishga xizmat qiladi. SHuning uchun ham ta'lim oluvchilarda o'z suhbatdoshini diqqat bilan tinglash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim oluvchilarni o'zaro muloqot va hamkorlik jarayoniga jalb qilishga xizmat qiladigan usullar va metodlardan samarali foydalanish kerak. Ta'lim oluvchilarda o'zaro muloqot o'rnatish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ijtimoiy pedagogik xarakterga ega bo'lgan treninglardan samarali foydalanish muhim.

Hamkorlikdagi faoliyat treningi – talabalarning muayyan mavzuni hamkorlikda o'zlashtirishlariga ko'maklashadigan didaktik jarayon. Ta'lim oluvchilarda mazkur trening jarayonida munozarali vaziyatlarni vujudga keltirish, topshiriqlarni hamkorlikda bajarish yo'llarini birgalikda izlash, sinfdoshlari huzurida hayajonlanmasdan, tortinmasdan o'z fikrini bayon qilishga o'rganish, ziddiyatli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tuta olish ko'nikmalari shakllanadi. Trening jarayonida guruhli munozaralar, rolli o'yinlarning eng qulay variantlari mashq qilinib, sinovdan o'tkaziladi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida talabalarni faollashtirishga qaratilgan metodlar yordamida quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

1) ta'lim oluvchilarning hamkorlikda bajargan faoliyatiga tashqaridan baho berishga o'rgatish;

2) ta'lim oluvchilar guruhining har bir a'zosi muayyan shaxsga qanday munosabatda bo'lishini aniqlash;

3) ta'lim oluvchilar guruhining ayni bir ta'lim oluvchiga bo'lgan qiziqishini oshirish kabilar.

Pedagogik hamkorlik jarayonida ta'lim oluvchilarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko'tarinkilik, quvonch, do'stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchanlik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko'maklashish, kechira olish, mas'uliyatlilik, haqqo'ylik, bag'rikenglik, toqatlilik kabilar kuzatiladi.

Mashg'ulotlar yakunida ta'lim oluvchilar bir-birlarini yaxshi bilganliklari, yaqindan do'stlashganliklari, o'zlari haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lganliklari, yaxshi sifatlarni namoyon qilganliklari, atrofda gilarining o'zlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlaganliklari, o'zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo'lganliklari, ijobiy hamkorlik muhitiga kirishganliklari, o'zlari va guruhdoshlariga nisbatan ishonch hissini tuyganliklarini kuzatish mumkin.

Pedagogik hamkorlik ko'pgina didaktik va psixologik imkoniyatlarga ega. Bu o'z navbatida, ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir talabada o'z guruhining muvaffaqiyatidan quvonish, kamchiliklari uchun javobgarlik hissi qaror topadi.

Hamkorlikda ishlash jarayonida olingan natijalar muntazam tarzda o'qituvchi tomonidan tahlil qilinishi lozim. O'zaro hamkorlik muhitini tashkil etishda "o'qituvchi-ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchilar guruhi"ning hamjihatlikdagi faoliyatiga asoslaniladi.

Hamkorlikdagi o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarga tayanishi lozim:

1. Guruhli ish usulidan foydalanish;
2. Hamkorlikdagi ish jarayonida ta'lim oluvchilarning bir-birlariga pedagogik-psixologik jihatdan moslashishlariga erishish;
3. Har bir kichik guruhda kuchli, o'rtacha va past o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilarning bo'lishini ta'minlash;
4. Guruhdagi o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida a'zolari almashtirish imkoniyatiga ega bo'lish;
5. Guruhda umumiy o'quv topshirig'ining berilishini ta'minlash;
6. Topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning individual vazifalarini aniqlash;
7. Vazifalarni taqsimlashda ta'lim oluvchilar fikriga tayanish, ya'ni ular bilan hamkorlik qilish;
8. Hamkorlikda bajarilgan topshiriqni umumiy tarzda baholash;
9. Guruh a'zolarining mehnatiga talabalarning o'zlari baho berishlariga erishish;
10. Guruhli ish natijalarini talabalarning o'zlari tahlil qilishlarini ta'minlash.

Ta'lim oluvchilarga insonparvarlik asosida yondashish ular orasidagi ziddiyatlarning o'ziga xos jihatlarini tushunish va bartaraf etish imkonini beradi. Talabalar orasidagi ziddiyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish quyidagi omillar bilan bevosita bog'liqdir: talabalarning yosh xususiyatlari; hamkorlikdagi ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari; talabalarning ziddiyatlarga munosabati, ularning o'ziga xos jihatlari va rivojlanishi haqidagi tasavvurlari; ziddiyatlar vujudga kelgan holatlarda ta'lim oluvchilarning harakatlari kabilar.

O'qituvchining faoliyati, birinchi navbatda, ziddiyatlarga ijobiy echim topishga qaratilishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining pedagogik ziddiyatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi va ularning echimini topish haqidagi bilimlarni nechog'li chuqur egallaganligiga bog'liq.

Ziddiyatli vaziyatlarda ta'lim oluvchilarda o'zaro munosabatlarga kirishish va hamkorlik qilish tajribasining shakllanishida turli ichki qarama-qarshiliklarni birgalikda bartaraf etish muhim o'rin egallaydi. Bunday tajribaning shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu ta'lim oluvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Har bir vaziyatda ta'lim oluvchilarda bir qator sifat o'zgarishlari vujudga keladi.

Vaziyatlar orasidagi izchillik talabalar orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini kengaytiradi. Bir vaziyatdan ikkinchisiga o'tish jarayonida talabalar oldiga qo'yiladigan vazifalar murakkablashadi. Bular o'z navbatida talabalarda shaxsiy sifatlarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Talabalar orasida hamkorlikka asoslangan ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish uchun turli shakl va mazmunga ega bo'lgan, ta'lim oluvchilarni rivojlantirishga xizmat qiladigan vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir vaziyatda muayyan vazifalar va ularni echish usullari belgilab berilishi kerak. Shuning uchun ham har bir holat ta'lim oluvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyat sifatida muayyan izchillikda loyihalashtiriladi. Buning natijasida aksariyat talabalarda muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib topadi. Buning uchun o'zaro aloqadorlik xarakteriga ega bo'lgan ta'lim oluvchilarni rivojlantiruvchi vaziyatlarda kelishilganlik, mujassamlikni ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalashda me'yorlangan va izlanuvchilik xarakteriga ega bo'lgan bashorat metodidan foydalanishi lozim. Izlanuvchilik xarakteriga ega bo'lgan bashorat hamkorlikdagi o'quv jarayonining istiqboldagi holatini aniqlashga yo'naltiriladi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonining rivojlanishi va unga tashqi

sharoitlarning ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olishi lozim. O'qituvchi o'zi bashorat qilgan natijaga erishish yo'llarini loyihalashtirar ekan, pedagogik vazifalarning samarali echimini ta'minlovchi ilmiy farazga tayanadi. Bu jarayonni o'qituvchi fikran tajribadan o'tkazadi va qayta ishlaydi. O'qituvchi faoliyatidagi bashoratlash noyob metodlar yordamida qo'yilgan maqsadga erishish yo'llarini aniqlash imkonini beradi. O'qituvchi faoliyatining maqsadi kafolatlangan natijaga erishish yo'llari murakkab bo'lishidan qat'i nazar amalga oshirilmagan, biroq loyihalashtirilgan faoliyat modelidir. Mazkur loyihada hamkorlikdagi pedagogik jarayon yoki uning tarkibiy qismlarining sifat hamda miqdor jihatdan o'zgarishi aniq aks ettiriladi. Hamkorlikdagi pedagogik jarayon loyihasi strategik, taktik hamda tezkor bashoratlashga asoslangan holda vujudga keladi.

Tahlil natijalari o'qituvchilar tomonidan hamkorlikka asoslangan ta'lim shakllarining qo'llanilishi an'anaviy yondashuvdan yuqori samaradorlikka erishishga imkon berishini ko'rsatadi. Biroq ta'lim oluvchilarning guruhdagi ishini tashkil etishning o'zi etarli emas, hamkorlikka asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonida yana ikkita komponentni hisobga olish lozim: guruhiy mukofotlash tizimi va shaxsiy mas'uliyatni rag'batlash mexanizmi. Butun guruhni rag'batlantirish o'quv materialini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar bir-biriga yordam berishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar guruhiy rag'bat yuqori bo'lmasa, guruh a'zolari o'z guruhdoshlarining bilish ehtiyojlariga kam diqqat qaratadi. Bilimlarni egallashda shaxsiy mas'uliyatni rag'batlaydigan individual nazorat har bir ta'lim oluvchini o'z yutuqlarini ko'ra olishiga yordam beradi.

Demak, hamkorlik pedagogikasi – bu shaxsning har tomonlama barkamol ravojlanishi yo'lida muhim qadam hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda yordam ko'rsatishi, mavjud muammolarni birgalikda hal etish va o'zaro hamfikrlilik muhitini tashkil etishni talab etadi. Hamkorlik pedagogikasining g'oya va tamoyillarini amalga oshiruvchi pedagog-novatorlarning konseptual g'oyalarini tahlil etish ularning ta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiyasiga yondashuvi yangi, insonparvar tizimga egaligini alohida qayd etishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aronson E., Blaney N., Stephan C., Sikes J., Snapp M. The jigsaw classroom / E.Aronson, N.Blaney, S.Stephan, J.Sikes, M.Snapp. – Beverly Hills: Sage Publications, 1978. – 197 p.
2. Asqarova O'., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti– Toshkent: 2014.
3. Mead M. Cooperation and Competition Among Primitive People / M.Mead. – McGrawHill, 1997.
4. Park C.W. The cooperative system of education. An account of cooperative education as developed in the College of Engineering, University of Cincinnati. – Washington: Government Printing Office, 1916. – 48 p.
5. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
6. Shermuhammadov B.Sh., Qurbonova B.Q., Maqsudov U.Q., Qo'chqarova M.A., Sidikova Z.M. Umumiy pedagogika. /Farg'ona: "Classic" nashriyoti-2022. –240 b.
7. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 93 b.
9. Sharan, S., Sharan Y. Small group-teaching / S. Sharan, Y. Sharan. – Englewood Cliffs, NJ: Educational Technology Publications, 1996. – 237 p.
10. Qurbonova B. Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish. Scientific journal of the Fergana State University. 2023 Jun 22(1):24-.
11. Kurbonova B. Preparation of students for social life based on cooperative pedagogy as a pedagogical problem. Science and innovation. 2023;2(B1):387-91.
12. Kurbanova B. Modern forms of organizing students independent work as a pedagogical problem. Science and innovation. 2023;2(B2):525-8.

Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna
dotsent, filologiya fanlari nomzodi, Urganch,
O'zbekiston, Urganch davlat universiteti
khiva1970@mail.ru

ORFOGRAFIK O'YINLAR VA ULARDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IMLOVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda orfografik o'yinlardan foydalanish haqida so'z yuritiladi va unda bir qancha orfografik o'yinlar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili ta'limi, boshlang'ich ta'lim, imloviy savodxonlik, orfografik o'yin, taqqoslash, dars samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование орфографических игр для повышения орфографической грамотности учащихся на уроках родного языка в начальных классах, в ней упоминается несколько орфографических игр.

Ключевые слова: обучение родному языку, начальное образование, орфографическая грамотность, орфографическая игра, сравнение, эффективность урока.

Abstract. This article discusses the use of orthographic games to improve the spelling literacy of students in primary-grade mother tongue classes, and several orthographic games are mentioned in it.

Key words: mother tongue education, primary education, spelling literacy, orthographic game, comparison, lesson efficiency.

Mamalakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazkur sohaga qarashli barcha xodimlar va keng o'qituvchilar ommasidan o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish, xilma-xil metodik usullarni o'ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiiq etishni talab qiladi. Bunda o'quvchiga bilim berish uchun har bir dars mazmunini boyitish, uni ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qiziqarli tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ruhshunoslarning aniqlashicha, o'quvchilar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini xayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Milliy o'quv dasturiga ko'ra o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf ona tili dasturining asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilar savodxonligini ko'tarish, ularda imloviy malakalarni rivojlantirishdir. Bu vazifa juda murakkab va mashaqqatli bo'lib, bunda bolalarning psixologiyasi, sezgi a'zolari, bilish darajasi va yoshini hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham bolalarga imlo o'rgatishda ikki sohaga: psixo-fiziologik va lingvistik sohaga qat'iy e'tibor berish kerak.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasi o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va

sintez tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan hamda grammatik o'yinlardan, xususan, orfografik o'yinlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Imloviy savodxonlik o'quvchilarda asta-sekin shakllanib boradi. O'quvchilar qoidalarini turli xil mashg'ulotlar: ko'chirib yozuv, mashq ishlash, grammatik va orfografik tahlillar orqali o'zlashtirib oladi [2]. Ushbu qoidalarini o'zlashtirib olishda ham bolalarning ixtiyoriy diqqatini bir nuqtaga to'plash talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinlarni yaxshi ko'rish bilan birga, o'yin orqali ba'zi grammatik-orfografik qoidalarini juda tez o'zlashtirib oladilar va uni uzoq vaqt esda saqlab qolishadi [4]. Shu bois ona tili darslarida orfografik qoidalarini o'zlashtirib olishda turli xil o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlardan ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz.

“Kim to'g'ri yozadi” o'yini

Bu o'yinni tashkil qilish uchun ma'lum bir orfografik qoidaga mos so'zlar tanlab olinadi. So'zlarning yozilishi bo'yicha orfografik qoida takrorlanib o'quvchilarning xotirasida tiklanadi. Har bir grammatik o'yinni o'tkazishda o'qituvchi ma'lum bir orfografik qoidani mustahkamlashni nazarda tutadi. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Doskaga har bir guruhdan bittadan o'quchi chiqariladi. O'qituvchi avvaldan tayyorlab kelgan so'zlarni yod aytib yozdiradi. Ikki o'quvchi doskaga yozadi. Qolgan o'yin ishtirokchilari esa mustaqil ravishda o'z daftarlariga yozib boradilar. Agar o'qituvchi tomonidan u va o unilalarining yozilishini mustahkamlash maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, shu qoidaga oid bitta so'zni aytadi, o'quvchilar doskaga yozib bo'lgach, qolgan so'zlarni ham xuddi shunday yod aytish bilan yozdiradi. Masalan, *Tuxum, uzum, do'stlik, bo'ron, bo'ston* kabi. Doskaga yozilgan so'zlar o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. O'quvchilar xatoga yo'l qo'yishgan bo'lsa ular tuzatiladi. So'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar har bir so'z uchun bittadan ball oladi. Yashil rangli kartondan kvadrat usulida tayyorlangan shakl beriladi. Kim ko'p kartochka olsa, o'sha g'olib hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

Xuddi shunday o'yinni so'z oxirida qator kelgan jarangsiz undosh tovushlarning yozilishi bo'yicha o'tkazish ham mumkin. Buning uchun ikki o'quvchi ikki guruhdan doskaga chiqariladi. Ushbu orfografik qoidaga xos beshta so'z aytiladi. Ikki o'quvchi berilgan so'zlarni ustun qilib doskaga yozadi. Qolgan o'quvchilar shu so'zlarni daftarlariga yozib boradi.

<i>xurs<u>an</u></i>	<i>xurs<u>and</u></i>
<i>farz<u>an</u></i>	<i>farz<u>and</u></i>
<i>bal<u>an</u></i>	<i>bal<u>and</u></i>
<i>ros<u> </u></i>	<i>ros<u>t</u></i>
<i>dar<u>ax</u></i>	<i>dar<u>ax</u>t</i>

“To'g'ri yozdim, yulduz oldim” o'yini

Bu o'yin ham orfografik o'yinlar sirasiga kiradi. Uni o'tkazish usuli ham deyarli bir xil. O'quvchilarning yozishi uchun beshta so'z tanlab olinadi. Har bir so'z uchun bittadan ball belgilanadi. Doskaning yuqori qismiga sakkiz qirrali yulduz osib qo'yilgan. Qaysi guruh xatosiz yozsa sakkiz qirrali yulduzni oladi. O'yinni boshlashda sinfdagi partalarning qatorlar soniga qarab ikki yoki uch o'quvchi doskaga chiqariladi. O'qituvchi o'yin uchun tanlagan so'zlarni aytib turadi. O'quvchilar yozishadi. O'yin shu tariqa ikki -uch marta takrorlanadi. Har marta o'quvchilar doskaga chiqib yozishganda guruhlarining ballari yozib boriladi. O'yinning yakunida qaysi guruh g'olib deb topilsa o'sha qatordagi o'quvchilarning birinchi partasiga yulduzcha qo'yiladi.

“Bilag'on boshliqlar” o'yini

O'quvchilar odatdagiday ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhning sardori belgilanadi. Ana shu guruh boshliqlari doskaga chiqariladi. Guruh boshliqlari odatda a'lochi o'quvchilar bo'lishadi. O'yinda o'quvchilarning ana shu tomoni hisobga olinib, o'nta so'z doskaga yoziladi.

<i>taassuf</i>	<i>mitti</i>
<i>mukammal</i>	<i>ikki</i>

minnatdor
tanaffus
tashabbus

tabassum
xokkey
tennis

Yuqorida berilgan soʻzlarni har bir boshliq ustun shaklida yozadi. Soʻzlarning yozilishi kuzatiladi. Xatolar guruh boʻyicha hisoblanadi. Har bir guruhning boshligʻi yoʻl qoʻygan xatolarni sanaydi. Birinchi guruh boshligʻi oʻnta soʻzdan ikkita xatoga yoʻl qoʻygan boʻlsa, unga sakkiz ball beriladi. Har ikkala guruh boshliqlari soʻzlarni tekshirib xatolarni sanab boradilar. Toʻgʻri yozilgan har bir soʻz uchun ball beriladi. Agar biror guruhning oʻquvchilari bitta ham xatoga yoʻl qoʻyishmagan boʻlsa, u holda qoʻshimcha tarzda yana beshta soʻz yoziladi. Oxirida gʻolib guruh aniqlanadi va ragʻbatlantiriladi.

“Soʻzning oʻrnini top” oʻyini

Atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi haqidagi oʻrganilgan qoidalarni mustahkamlash maqsadida ushbu oʻyin oʻtkaziladi. Oʻyin orqali kishilarning ismi va familiyasi, oʻrin-joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi mustahkamlanadi. Oʻyinni oʻtkazish oldidan oʻquvchilarga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda sheʼriy parcha yoki gap yozilishi mumkin. Maskur matndagi bosh harflar bilan yoziladigan soʻzlar tushirib qoldiriladi.

Oʻquvchiga yana ikkinchi kartochka beriladi. Unda tushurib qoldirilgan soʻzlar yozilgan. Oʻquvchi tushurib qoldirilgan soʻzlarni gapning mazmuniga qarab nuqtalar oʻrniga qoʻyishi va oʻqishi kerak. Tushirib qoldirilgan soʻzni toʻgʻri qoʻyib oʻqigan bola oʻyin gʻolibi hisoblanadi.

1-kartochka

... .. *birinchi boʻlib ona tilida*

... *(besh doston) yozdilar. U.... tugʻilgan.*

Tushirib qoldirilgan soʻzlar: “Hamsa”, Hirotda, Alisher Navoiy

2-kartochka

... *oʻn ikki yoshida otasining taxtiga oʻtirdi ... nomli asar yozdi. U ... vafot etdi.*

Tushirib qoldirilgan soʻzlar: “Boburnoma”, Bobur, Hindistonda.

Oʻquvchilar bir-ikki marta oʻyinga qatnashib, maʼlum darajada koʻnikma hosil qilishgandan keyin har ikkala kartochkaga ham boshqa soʻzlarni aralashtirib kiritish mumkin. Baʼzan har ikkala kartochkada tushirilgan soʻzlarni bir xil kartochkaga yozsa ham boʻladi. Bu oʻquvchini kerakli atoqli otni tanlab olishga oʻrgatadi. Qaysi oʻquvchi topshiriqni tez, toʻgʻri bajarsa oʻyin gʻolibi boʻladi va ragʻbatlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarning orfografik malakalarini shakllantirish va ularni bosqichma-bosqich takomillashtirib borishda turli orfografik oʻyinlardan foydalanish juda muhim hisoblanadi. Ulardan oʻrinli foydalanish ona tili taʼlimining samaradorligini taʼminlovchi omil boʻladi. Shuningdek, ular oʻquvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va oʻz-oʻzini anglash salohiyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlangʻich taʼlim konsepsiyasi// Boshlangʻich taʼlim, 1998, 6-son.
2. Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.
3. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi.- Toshkent, 2017.
4. Yoqubov Sh., Mustafoulov R. Grammatik oʻyinlar orqali oʻquvchilarni faollashtirish// Yigirma birinchi asrda oʻzbek tili taʼlimi masalalari.-T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007, 42-bet.

Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li
Urganch innovatsion universiteti stajyor-o'qituvchisi
(dr.joshqinbek@gmail.com)

TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA "ELEKTRON O'QUV DARSLIKLARNI" YARATISH TEXNOLOGIYASI VA UNDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning o'quv faoliyatini rivojlantirishda elektron o'quv darsliklarni yaratish texnologiyasi va ulardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Elektron darsliklarning asosiy afzalliklari qatorida o'quv materiallariga tez va oson kirish imkoniyati, multimedia va interaktiv elementlar orqali o'quv jarayonini jozibali qilish ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, elektron darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonida uchraydigan muammolar ham muhokama etilgan, jumladan texnik infrastruktura va o'quvchilar hamda o'qituvchilarning texnologik ko'nikmalariga bog'liq cheklovlar. Tadqiqot natijalari asosida elektron o'quv darsliklardan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik va texnik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: elektron o'quv darsliklari, talabalarning o'quv faoliyati, metodika, interaktiv o'qitish, ta'lim texnologiyalari, multimedia, texnik infrastruktura, ta'lim samaradorligi.

Abstract. This article analyzes the technology of creating electronic textbooks and the effectiveness of their use in the development of students' educational activities. Among the main advantages of electronic textbooks, quick and easy access to educational materials, opportunities to make the educational process attractive through multimedia and interactive elements were considered. In addition, the problems encountered in the process of creating and using e-textbooks were also discussed, including limitations related to the technical infrastructure and technological skills of students and teachers. Based on the results of the research, methodological and technical recommendations necessary for the effective use of electronic textbooks were given.

Key words: electronic textbooks, educational activities of students, methodology, interactive teaching, educational technologies, multimedia, technical infrastructure, educational efficiency.

Аннотация. В данной статье анализируется технологии создания электронных учебников и эффективность их использования в развитии учебной деятельности учащихся. Среди основных преимуществ электронных учебников были рассмотрены быстрый и удобный доступ к учебным материалам, возможности сделать учебный процесс привлекательным за счет мультимедиа и интерактивных элементов. Кроме того, были обсуждены проблемы, возникающие в процессе создания и использования электронных учебников, в том числе ограничения, связанные с технической инфраструктурой и технологическими навыками учащихся и преподавателей. По результатам исследования даны методические и технические рекомендации, необходимые для эффективного использования электронных учебников.

Ключевые слова: электронные учебники, учебная деятельность студентов, методика, интерактивное обучение, образовательные технологии, мультимедиа, техническая инфраструктура, эффективность образования.

Elektron o'quv darsliklari yaratish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda pedagogik prinsiplar, texnologik innovatsiyalar va kontentni boshqarish tizimlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonda asosiy e'tibor talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish, ta'lim materiallarining interfaolligini ta'minlash va o'quv mazmunini turli o'quv uslublariga moslashtirishga qaratilgan.

O'zbek olimi A. Raximovning fikriga ko'ra, elektron o'quv darsliklarini yaratishda asosiy pedagogik tamoyillardan biri – bu o'quv materiallarining anglashilishi va o'zlashtirilishini oshirish uchun vizual va audiovizual elementlardan foydalanishdir. Raximov ta'kidlashicha, “Elektron darsliklar o'quvchilarga murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish orqali anglashni yengillashtiradi” [1]. Rossiyalik olim I. Petrovning fikriga ko'ra, elektron darsliklarni yaratishda pedagogik tamoyillardan yana biri – bu o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim modullari va interaktiv mashg'ulotlarni kiritishdir. Petrov shunday deydi: "Elektron darsliklarning asosiy afzalligi ularning o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish va kengaytirish imkoniyatini berishidir" [2].

Shu tariqa, elektron o'quv darsliklari yaratish jarayonida pedagogik tamoyillar, nafaqat o'quv materiallarining sifatini oshirish, balki o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faol qatnashishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Elektron darsliklarning samaradorligi ularning qanday ishlab chiqilgani va qo'llanilganiga bog'liq bo'lib, ushbu jarayonlarni optimallashtirish ta'lim sifatini yanada yaxshilashga olib keladi.

Elektron o'quv darsliklaridan foydalanish samaradorligini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi, chunki bu zamonaviy ta'lim muhitida sifat va natijadorlikni oshirishga yordam beradi. Samaradorlikni o'lchashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning mavzuni tushunishi, o'quv materiali bilan o'zaro ta'sir darajasi, o'quv materiallaridan foydalanish vaqti va ularning ta'limiy natijalarga ta'siri. O'zbekistonlik olim Sarvar Azimov ta'kidlashicha, “Elektron darsliklarning asosiy afzalligi – bu ularning moslashuvchanligi va o'quvchilarning individual o'quv ehtiyojlariga javob berishidir. Masalan, multimedia vositalari va interaktiv elementlar o'quv jarayoniga qiziqish va tushunchani oshirishga yordam beradi” [3]. Rossiyalik olim Larisa Kravsova esa shunday deydi: “Elektron o'quv materiallarining samaradorligini o'lchash uchun biz turli statistik usullardan foydalanamiz, jumladan o'quvchilarning test natijalaridagi o'zgarishlarni kuzatamiz, shuningdek o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazamiz” [4]. Ushbu ikki nuqtai nazarni inobatga olib, elektron darsliklarning samaradorligi bevosita ta'limiy natijalarga va o'quv materiallariga bo'lgan munosabatga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

Elektron o'quv darsliklarining talabalarning o'zlashtirish ko'nikmalariga ta'siri hozirgi kunda juda dolzarb mavzulardan biridir. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim sohasiga joriy etilishi bilan, elektron darsliklar talabalarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ushbu darsliklar nafaqat ma'lumotlarga oson va tezkir kirish imkonini beradi, balki interaktiv elementlar bilan o'quv materialini yanada qiziqarli va tushunarli qilish imkonini ham yaratadi.

O'zbek olimi Bobur Mirzoevning fikriga ko'ra, elektron darsliklarning talabalarning o'zlashtirish ko'nikmalariga ijobiy ta'siri bor. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatganki, elektron darsliklardan foydalanish orqali talabalar mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishadi, chunki ular o'zlarining o'quv jarayonlarini boshqarish imkoniyatini oladilar [5].

Rossiyalik olim Lyudmila Petrovna esa, elektron darsliklardan foydalanish talabalarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirishini ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, bu darsliklar o'quv materialini ko'proq vizual va audiovizual shakllarda taqdim etish orqali talabalarning diqqatini uzoq vaqt saqlashga yordam beradi [6].

Bu jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik strategiyalarga kelsak, ta'lim beruvchilarga tavsiya etiladigan asosiy strategiyalardan biri - o'quv materialini turli shakllarda taqdim etishdir. Masalan, matnli ma'lumotlar bilan birgalikda video darslar, interaktiv testlar va virtual laboratoriya ishlari ham kiritilishi mumkin. Bu o'quvchilarning turli o'quv uslublariga mos kelishi va ularning o'zlashtirish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Shuningdek, faol o'qitish usullarini qo'llash, masalan muammoga asoslangan o'qitish, loyiha asosidagi o'qitish va aralash o'qitish usullari ham samarali bo'lishi mumkin. Bu strategiyalar talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Elektron o'quv darsliklarini ishlab chiqish jarayonida ko'plab zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta'minotlardan foydalaniladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor mazmuni samarali va

interaktiv tarzda yetkazishga qaratilgan. Misol uchun, elektron kitoblarni ishlab chiqish uchun HTML5, CSS3 va JavaScript kabi veb-texnologiyalar keng qo'llaniladi. Bu tillar yordamida murakkab animatsiyalar, videolar va interaktiv elementlarni qo'shish mumkin, bu esa o'quv materiallarini anglashni osonlashtiradi. Shuningdek, Adobe Captivate yoki Articulate Storyline kabi maxsus dasturlar ham murakkab ssenariylar va testlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu dasturlar multimedia kontentini boshqarish va foydalanuvchi o'zaro ta'sirini kuchaytirish uchun mo'ljallangan.

O'zbek olimi Mirzaev J.A.ning fikriga ko'ra, "zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqishda multimedia texnologiyalari va interaktiv dizayn prinsiplaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi" [7]. Bunda murakkab mazmuni o'zlashtirish osonlashadi va o'quvchilarning motivatsiyasi ortadi.

Rossiyalik olim Vasilev N.B. esa bu masalaga boshqacha yondashadi: "Elektron darsliklarning texnologik aspektlari nafaqat dasturiy ta'minotni, balki xardver talablarini ham o'z ichiga olishi kerak, chunki texnologik infrastruktura sifati ta'lim sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi" [8]. Vasilevning ta'kidlashicha, masalan, raqamli o'quv qurilmalarining ekrani yoki protsessori kabi xususiyatlari o'quv materiallarining yetkazilishi va qabul qilinishini sezilarli darajada yaxshilay oladi.

Elektron darsliklarni ishlab chiqishda an'anaviy o'quv materiallaridan farqli o'laroq, dizayn va foydalanuvchi tajribasi ustuvor ahamiyatga ega. Har bir element, hatto font o'lchami va ranglari tanlanishi ham diqqat bilan amalga oshirilishi kerak. Bu omillar o'quv materiallarining o'zlashtirilishiga katta ta'sir ko'rsatadi va shu bois ularning tanlanishida katta ehtiyotkorlik talab etiladi.

Elektron o'quv darsliklari ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Eng keng tarqalgan muammolardan biri – texnik masalalardir. Ko'pincha o'qituvchi va o'quvchilarning elektron darsliklardan foydalanishga tayyorgarligi va texnik qobiliyati yetarli emas. O'zbek olimi Samadov ta'kidlashicha, "elektron darsliklarni samarali ishlatish uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda o'qitish va ularning texnologik ko'nikmalarini oshirish zarur" [9]. Shuningdek, kontent sifati ham muhim ahamiyatga ega. Rus olimi Ivanov esa bu borada "elektron o'quv materiallarining sifatini ta'minlash uchun muntazam ekspertizadan o'tkazish va mazmunini yangilash zarur" deb ta'kidlaydi [10]. Ushbu muammolarni hal etishning asosiy yo'llari sifatida texnik ta'minotni yaxshilash, o'qituvchilar va o'quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish hamda mazmuni muntazam yangilash mumkin.

Elektron o'quv darsliklarining yaratilishi va ulardan foydalanish ta'lim jarayonida ko'plab yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. O'qituvchilar va talabalar uchun elektron darsliklarning asosiy afzalliklari qulaylik va moslashuvchanlik hisoblanadi. Elektron darsliklar bilan ishlash o'quv materiallariga oson va tez kirish imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonini jadallashtiradi. Shuningdek, bu darsliklar interaktiv elementlarni o'z ichiga olishi mumkin, bu esa talabalarning qiziqishini oshirib, o'quv materiallarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. O'zbekistonlik olim Abdullaeva N. ta'kidlashicha, "elektron darsliklar o'quvchilarga o'z o'quv jarayonlarini boshqarish imkonini beradi, bu esa mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi" [11].

Biroq, elektron darsliklarning qator cheklovlari ham mavjud. Texnik muammolar, masalan internetga ulanishning past sifati yoki texnik vositalarning yetarli emasligi, o'quv jarayonini sezilarli darajada to'siqlarga uchratishi mumkin. Rus olimi Vasilev V.A. shunday deydi: "Texnologik infrastrukturaning rivojlanmaganligi elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi [12]. Shuningdek, elektron darsliklardan foydalanish ba'zida o'qituvchilar va talabalar orasida shaxsiy muloqotni kamaytirishi ham mumkin, bu esa o'quv muhitining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu tariqa, elektron o'quv darsliklari ta'lim sohasida yangi imkoniyatlarni ochib berishi bilan birga, ulardan foydalanishni cheklovchi bir qator texnik va ijtimoiy muammolar ham mavjud. Ta'lim muassasalari ushbu resurslardan unumli foydalanish uchun zarur texnik infrastrukturani

ta'minlash va o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasidagi muloqot sifatini saqlab qolish choralari ko'rishlari zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron o'quv darsliklar talabalarning o'quv faoliyatini yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bunday darsliklarning joriy etilishi o'quv materiallariga keng kirish imkoniyatlarini yaratadi va o'qitish sifatini oshiradi. Shuningdek, metodik va texnik yangilanishlar elektron darsliklardan olinadigan foydani oshirish uchun zarur. Ammo, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnik infrastrukturani yaxshilash va o'qituvchilar hamda talabalarning texnologik ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov A. Elektron o'quv darsliklari yaratishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – B. 112.
2. Петров И. Инновационные подходы к созданию электронных учебных материалов. – Москва: Наука, 2022. – С. 98.
3. Azimov, S. "Elektron darsliklarning samaradorligi va ta'lim sifatiga ta'siri," Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. B.78-79.
4. Кравцова, Л. "Методы измерения эффективности электронных учебных ресурсов в образовании," Москва: Образование и наука, 2023. С.45-46.
5. Mirzoev B. "Elektron o'quv darsliklarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri", Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Petrova L. "Elektron darsliklar va ta'lim motivatsiyasi", Moskva: Obrazovanie i nauka, 2020.
7. Mirzaev J.A. "Zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqishda multimedia texnologiyalari va interaktiv dizayn prinsiplaridan foydalanishning ahamiyati", 2021.
8. Vasilev N.B. "Texnologik infrastrukturaning ta'lim sifatiga ta'siri", 2022.
9. Samadov B. "Elektron o'quv resurslarining ta'limdagi ahamiyati", Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. B. 134-138.
10. Иванов А. "Инновационные технологии в образовании", Москва: Образование и наука, 2019. С. 221-225.
11. Abdullaeva N. "Elektron o'quv resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi" // Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - B. 44.
12. Васильев В.А. "Проблемы и перспективы развития электронного образования в России" // Москва: Наука и образование, 2019. - Б. 31
13. Quriyozov Elmurod Rajabboy o'g'li, Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li, Eshchanov Temur Saparmat o'g'li, "Creating transformer architecture based models for uzbek language", Urganch: Ilm sarchashmalari, 2023.
14. Yuldoshev Jo'shqinbek Erkaboy o'g'li, Sobirov Og'abek., Mashinali tarjima tizimlari uchun o'zbek tili gap strukturasi, Urganch 2022

Sariyeva E'tibor Matchanboyevna

UrLu o'qituvchisi

Sariyeva E'tibor Matchanboyevna-Преподаватель УрЛУ

Sariyeva E'tibor Matchanboyevna-

Teacher of UrLU

e.mail: etiborsariyeva@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7196-640X>

OLIV TA'LIM SHAROITIDA MADANIY TURIZMNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Jamiyatda madaniy turizmning rivojlanishi bu talaba-yoshlarning shaxsiy kamol topishi va dunyoni ko'ngil ochib ko'rish, dunyoqarashini kengaytirish va yangilash, ma'naviyatlararo aloqalarni kuchaytirish, tarixiy va madaniy merosga qiziqishni oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada madaniy turizmning talabalar ma'naviy-marifiy fazilatlarini rivojlantirishdagi roli, ularni ma'naviyat, san'at sohalaridan xabardor qilish, tarixiy joylar va turli madaniy ob'ektlarni ko'rish, o'rganish va tadqiq qilishning tarbiyaviy ahamiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, tarixiy va ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, madaniy turizmni tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmasi.

This article is devoted to the analysis of the work "Family" by Abdurauf Fitrat, a brilliant representative of modern literature. In the example of this work, written in 1914, an attempt was made to show the writer's creative laboratory as well as his personal attitude to the most pressing social issues of his time. The ideas of nationalism, freedom, progress and science, which led Fitrat's work, formed the core of his political and legal views, and laid the foundation for the writer

to become one of the great representatives of modern literature. The article emphasizes that the publicist Fitrat's approach to the issue of marriage, the role of women in society, was based on the spirit of the time in which he lived, comparing it with verses from the Qur'an, and the social significance of these observations. Issues such as family components, national traditions and customs in family management, family quality discipline and their impact on the future of the nation, which were put forward by the author, were not left out of the study.

Keywords: *jadidic literature, jadidic educators, political and legal views, Fitrat journalism, national liberation movement, family, nation, parenting.*

Musulmon xalqlarining oilaga munosabati bilan bog'liq masalalar Qur'onda o'zining mukammal ifodasini topgan. Shuningdek, bu xalqlarga xos oila tizimining huquqiy asoslari ham ayni shu kitobda aniq belgilab berilgan. Shunga qaramay, musulmon xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqidan yetishib chiqqan olimlar oila va uning huquqiy asoslari to'g'risida ko'plab ilmiy-ommabop asarlar yaratganlar. Jadid ma'rifatparvarlari ham bu masalani chetlab o'tmadilar. Ularning jamiyat hayoti, xalq hayoti uchun g'oyat muhim bo'lgan bu masalani chetlab o'tishlari mumkin ham emas edi.

“Ma’naviyat” nashriyoti tomonidan 2000 yili bosib chiqarilgan nashriga yozilgan muqaddimada Fitratning “Oila” asari xususida bunday haqqoniy so'zlar aytilgan: “Jadidlarning fikri bo'yicha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq. Bu g'oya Fitrat asarida o'z ifodasini topgan: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi”, - deb yozadi u. Fitrat asarda chuqur va keng bilimlarga asoslangani bois, o'tkir mutaxassis sifatida fikr yuritadi”. [3]

Erkak yo ayolning, qanday sabab bilan turmush qurmasligidan qat'iy nazar, birining uylanmasligi, ikkinchisining erga chiqmasligi tabiat qonuniga mutlaqo zid. Zero, har bir inson Ollahning xohish-irodasi bilan dunyoga kelar ekan, u o'z ichki va tashqi imkoniyatlari bilan hayotning, hayotiy jarayonning davom etishiga hissa qo'shishi lozim. U qoldirajak farzand esa hayotning davom etajagini anglatadi. Agar u o'z umri davomida hayotning ana shu qonuniga amal qilmasa, hayot daraxtining kichik bir tomiriga bolta urgan bo'ladi. Farzand qoldirish esa, Fitrat nazarida, serhosil yerga urug' sepish va hosil olishdir. Bu hosildan esa faqat dehqon(ya'ni ota)ning o'zi emas, balki boshqalar ham, ya'ni jamoa yoxud jamiyat ham bahramand bo'ladi.

Fitrat “Oila” asarini yozgan paytida bor-yo'g'i 28 yoshda bo'lgan. 1914- yilda shu yoshda bo'lgan buxorolik bir yigitni ko'z oldimizga keltirsak, uning nafaqat dunyodagi demografik vaziyat, balki oilaning falsafiy, huquqiy va shar'iy tomonlarini ham shu qadar puxta bilganidan hayratga tushamiz. Pol Demar degan fransuz sotsiologi, Fitratning shahodat berishiga ko'ra, fransuz aholisining oxirgi 100 yil mobaynidagi son-salmog'ini tadqiq etib, uni Yevropadagi boshqa xalqlar soni bilan muqoyasa qilgan. Uning tekshirishlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida, aniqrog'i, 1810 yilda Fransiya aholisi 28 mln., Angliya aholisi 10 mln., olmonlarning soni esa 18 mln. bo'lgan. XX asrning 10-yillariga kelib, olmonlar soni 59 mln. ga, inglizlar hisobi 62 mln. ga yetibdi. Ammo Fransiya aholisi 39 mln.ga yetibdi, xolos. Ya'ni 80-90 yil davomida olmonliklar 41 mln., inglizlar 52 mln.ga oshgan bo'lsalar, fransuzlar 11 mln.gagina oshganlar. Pol Demar bu manzarani ko'rib: “Agar ahvol shunday davom etaversa, nafaqat biz vatan muhofazasidan, balki hayot orzusidan ham mahrum bo'lamiz, - deya qayg'uradi. - Bugun biz, fransuzlarning mamlakati va millati jar labiga kelib qolgan. Bu chuqurga tushib ketishimizga oz qolibdi” [3].

Ammo son, miqdor - hali sifat emas. Xalqning soni ko'p bo'lishi, ammo uni tashkil etuvchi kishilar ishyoqmas, tepsa tebranmas kimsalar bo'lishi ham mumkin. Bu dunyo esa, Fitrat talqinida, “bir umumiy sinov maydoni”dir.

“Odam, - deb yozadi Fitrat, - ota-ona tarbiyasi doirasidan chiqar ekan, hayotini davom ettirib, izzat va sharafga ega bo'lish uchun majburan shu maydonga kiradi, sa'y-harakat qiladi, yo o'z

maqsadiga erishadi yoki sharafsiz va xor bo‘lib qoladi. Qaysi millatning namoyandalari sa’y-harakat egasi bo‘lsalar, qo‘l-oyog‘i kuchli va chaqqon, hamma a’zolari sog‘ va faol, izzat va e’tibor sohibi bo‘ladilar... Uylanish sunnatini qabul qilgan kishi xotin va bola-chaqasini tarbiyalab boqish uchun o‘zini kasb-korga uradi, harakat va amal yo‘liga qadam qo‘yadi... Qaysi millatning namoyandalari shu yil bilan tinchlik va totuvlikka erishgan bo‘lsalar, o‘sha millat hurmat va xotirjamlikda bo‘ladi" [3].

Fitrat yuqorida zikr etilgan mulohazalardan keyin yana o‘sha fikrga – “ulyanish - odamlarning zaruriy va tabiiy amri,” degan xulosaga keladi.

Fitrat tasnifiga ko‘ra, oila – millatning kichik bir tarmog‘i, yacheykasi. Bir necha oila bir qavmni tashkil etadi. Agar bir qavmning har bir oilasi saodatli bo‘lmasa,- deydi Fitrat,- o‘sha qavmni baxtivor, deb atash mumkin emas. Agar bir oilaning har bir a’zosi baxtli bo‘lmasa, bu oilani baxtli hisoblash xatodir. Binobarin, millatning saodati, har bir qavmning saodati har bir oilaning saodatiga, har bir oilaning saodati esa, uning har bir a’zosiga bog‘liq. Modomiki, shunday ekan, oilaning har bir a’zosi to‘g‘risida qayg‘irish ham qarz, ham farzdir.

Fitrat masalaning xuddi shu nuqtasiga kelganda erkak nechta xotinga uylanishi mumkin, degan masalaga javob berishga urinadi. Modomiki, Fitrat uchun millat, keyin qavm, keyin oila, keyin oilaning har bir a’zosining saodatli bo‘lishi muhim ekan, demak, necha xotinga uylanish mumkinligi masalasi ham ana shu masala doirasida, shu masala bilan uzviy munosabatda hal etilishi lozim. Ya’ni, er necha xotinga uylanmasin, bundan hech kim zarar ko‘rmasligi, hech kimning saodati soya ostida qolmasligi lozim. Ammo, modomiki, necha marta uylanish mumkinligi masalasi o‘rtaga tushar ekan, bu masaladan kimningdir nasibasi qirilmay iloj yo‘q. Shuning uchun Fitrat masalaga quyidagicha aniqlik kiritib, kim qanday sharoitda ikkinchi, uchinchi yo to‘rtinchi marotaba uylanishi mumkinligini aytadi:

“Ikkixotinlilik (ko‘p xotinlilik) zarar keltiradigan hamma yo‘llari yopilsa to‘g‘ridir, ya’ni shunday tartib o‘rnatilsinki, ko‘p xotinlilikka ijozat bo‘lib, birinchi muqaddimada zikr etilgan zararlar oldi olinsin. Bunday tartib yo qonunni bizlarga kim tayin etadi? Islom dini. Haqiqatda ham, Islom dini bisyor barkamol din bo‘lib, tabiat qonuniga muvofiqdir. Foydani zarardan adolat bilan kamko‘stsiz ajratadi. Odamlarga nimaiki foyda keltirsa, ijozat berib, zarar keltiradigan narsalarni man qiladi” [3]. Demak, Fitrat uchun oilaning ma’naviy va huquqiy asoslari Islom dini talablari doirasida hal etiladi va shu narsa adolatdan.

Yuqorida keltirilgan ko‘chirmada “birinchi muqaddima” degan kalima tilga olingan. Shu muqaddimada Fitrat birinchi nikohdagi ayol to‘g‘risida bir-ikki so‘z aytgach, quyidagilarni yozadi:

“Ayolning tarovati va yoshligi sizning muhabbatigiz va mehringiz yo‘lida sarf bo‘lgandan so‘ng sizning hayvonlik shahvatingiz uyg‘onib, harakatga keladi. Nafsingiz orom topishi uchun u xotin sizga kifoya qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, saodat va baxtivorlik umidi bilan yoshlik ayyomini sizning orzu-havaslarigizga ado qilib, ikki-uch farzand ko‘rgan xotinni qo‘yib yuborib, “so‘fi” nomini olib, yangi xotin olasiz. Bu – va’daga xilof va xiyonatdir.

Yangi xotinga butunlay berilib ketasiz, birinchi xotinni va hayotingiz mevalari bo‘lgan farzandlarigizni shuuringizdan chetlashtirasiz. Tabiiyki, o‘sha xotin farzandlari bilan birga sizga bo‘lgan muhabbatini yo‘qotadi. Sizdan va yangi xotiningizdan nafratlanadi. Vaqt o‘tishi bilan yangi xotindan ham bir-ikki farzand tug‘ilgach, bu o‘zaro nafrat yanada kuchayadi... Shunday ekan, oila a’zolari orasida muhabbat ko‘tarilsa, vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik kelib chiqadi...” [3]

Fitrat vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik deb aytgan narsalar oilani kemiradi, bir otaning ikki xotindan bo‘lgan farzandlari onalari boshchiligida dushmanga aylanadi, urush-janjal, isitish-sovutish va munofiqlik ilonlari oilani chirmab tashlaydi. Fitrat ana shunday zararlarning oldi olingan taqdirdagina qayta uylanishni mumkin, deb tushunadi.

Ko‘ramizki, Fitrat nikoh va oila singari huquqiy hodisalarga yondashganida ham o‘zining inson qalbini tushunuvchi, shu qalb orzu va armonlarining kuychisi bo‘lgan inson ekanligini yoddan chiqarmaydi va masalaga insonparvar millatparvar va yurtparvar yozuvchi sifatida yondoshadi.

Fitratning oila bilan bog'liq qarashlariga yakun yasas ekanmiz, uning o'z risolasiga yozgan muqaddimasidagi mana bu so'zlarni yodda tutishimiz lozim:

“Oila er, xotin va farzandlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, oila bir shaxs boshchiligidagi bir uyda yashovchilardir. Shu ta'riflardan ma'lum bo'ladi, oila ham bir necha odamlardan iborat bo'lgan jamoa ekan. Ularning har biri insonga xos narsaga, ya'ni o'z manfaatlariga asir bo'ladi. Biri ikkinchisining huquqini tasarruf qilib bosib olishi mumkin. Ana shu tajovuz oldini olish uchun oila a'zolari o'rtasida ham bir qonun lozim” [3].

Fitratning e'tirof etishicha, o'tgan olimlar-u hakimlar shu masalada g'ayrat qilib qonunlar ishlab chiqishgan. Lekin davrlar o'tishi bilan muayyan qonunlar eskirgani va o'z kuchini yo'qotganidek oila va oila a'zolarining huquq va burchlari masalasiga ham yangicha yondashuv, yangicha munosabat taqozo etiladi. Zero, oila oxir-oqibatda millat va davlatning mavqeini belgilab beradi. Millat va davlat esa uzoq yillar va davrlar mobaynida shakllanadi va shu davrlarda yangilanib boradi.

“Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq...”

Fitrat ana shu fikrni rivojlantirib, bunday xulosaga keladi:

“Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir...”

Sharq odatda o'z farzandlarining axloqi bilan Farb oldida g'ururlanadi. Ammo Fitrat bu borada boshqa fikrga ega. U yozadi: "...Lekin ana shu qurol-aslahasi sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor. Balki... Ha, bizga ana shu quruq hayotga ham yo'l bermaydilar. Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e'tibor kerak bo'lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiya etishimiz lozim".[3]

Aytib o'tilganidek, “Oila” 1914 yili yozilgan. Bu vaqtda hozirgi O'zbekiston Chor Rossiyasining mustamlakasiga aylanib bo'lgan, xalqning Fitrat singari mutafakkir yoshlari el-yurtini ana shu botqoqlikdan olib chiqish, uni ma'rifatlashtirish va hurriyat ne'matlaridan bahramand etish maqsadida jadidchilik harakatini yuzaga keltirgan edilar. Xuddi shu davrda ularning, binobarin, millatning ham asosiy vazifasi nafaqat islomiy g'oyalar, balki, millatparvarlik, erkparvarlik, taraqqiyparvarlik, ilmparvarlik g'oyalari asosida ham shakllangan avlodni tarbiyalash edi. Fitratning “Oila” risolasi ana shu avlodni tarbiyalashga qaratilgan, o'zigacha o'tgan olimlar-u hakimlarning asarlari umumiy hay'ati – “manzil tadbiri”,- ya'ni “ro'zg'or tebratish tadbiri”dan farq qilgan asardir. Shuning uchun ham unda huquqiy mezonlarga qaraganda ma'naviy-falsafiy masalalar talqini ustuvorlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи”, 2020 й., 25 январь.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар Т.: 1999.
3. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т.: 2000.
4. Қосимов Б. Маслакдошлар. Т.: 1994.
5. Ризаев Ш. “Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш”. Т.: 1999.
6. Шарипов Р. Жадид адабиётида янгиланиш, ислохот ва мустақиллик учун кураш. Т.: 2005.

INDIVIDUAL NEOLOGIZMLAR BADIY ASARDA TASVIRIY VOSITA SIFATIDA

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada individual nutq neologizmlari va ularning tilshunoslikdagi tadqiqi hamda Sharof Boshbekov dramalaridagi individual nutq neologizmlarning dramatik asar ekspressivligini ta'minlashdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: yangi leksika, okkozionalizm, faollashgan leksema, lug'aviy individual neologizmlar, grammatik individual neologizmlar, frazeologik individual neologizmlar, neologizm-semema.

ANNOTATION. This article talks about neologisms of individual speech and their research in linguistics, as well as the role of neologisms of individual speech in the dramas of Sharof Bashbekov in ensuring the expressiveness of the dramatic work.

KEY WORDS: new lexicon, occasionalism, activated lexeme, lexical individual neologisms, rammatic individual neologisms, phraseological individual neologisms, neologism-sememe.

АННОТАЦИЯ. В данной статье говорится о неологизмах индивидуальной речи и их исследованиях в языкознании, а также о роли неологизмов индивидуальной речи в драмах Шарофа Башбекова в обеспечении выразительности драматического произведения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: новая лексика, окказионализм, активированная лексема, лексические единичные неологизмы, рамматические единичные неологизмы, фразеологические единичные неологизмы, неологизм-семема.

Individual nutq neologizmlari neologizmlarning bir ko'rinishi bo'lib, o'zbek tilshunosligida mazkur hodisa tarkibida "yangi leksika", "sof yangi leksika", "faollashgan leksema", "umumtil neologizmi", "individual nutq neologizmlari", "okkozionalizm", "individual-stilistik neologizm" (N.Mahmudov) hamda "maromsiz yasamalar" (S.Toshaliyeva) [1, 104] kabi qo'llanishlar ham kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida badiiy nutqda individuallik va uning ko'rinishlari borasida ayrim ijodkorlar misolida ma'lum darajadagi tadqiqotlar amalga oshirilgan [2].

Ma'lumki, badiiy asarda kashf etilgan so'zlar ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat berib, mazkur hodisa yozuvchidan so'zning yangi ma'no qirralarini ochish, uning ta'sirchanlik va bo'yoqdorlik ko'lamini kengaytirishda katta mahorat, bilim va iqtidor talab qiladi. Okkozionalizmlarning stilistik bo'yoqdorlikka ega ekanligi ular imkoniyatining naqadar kengligidan dalolat beradi. Badiiy matn uchun ijodkorning o'zi tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual neologizmlar estetik qimmatga molikdir [3, 25].

Sharof Boshbekov dramalarida ko'p o'rinlarda ma'lum asosga unumli so'z yasovchi affiks qo'shish usuli bilan hosil qilingan lug'aviy individual neologizmlarni uchratishiz mumkin:

Sh o i r. Shu uyda birpas o'tirib ishlab bo'lmaydi: qiy-chuv, to'polon. Bolalar-da... Nima demoqchi edim? Ha. Rahmatilla akam kelgan bo'lsalar, bir-ikki soat bolalarni aylantirib kelarmidilar, deb... Keyin kallani bir joyga qo'yi-i-ib...

O l i m. E, shoirvachchalarigizni qo'ya turing, shoir bola. Bugun Rahmatilla olmishga kirib o'tiribdi-yu, siz qayoqdagi gaplarni gapirasiz!

(Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo'ldi?» 132-bet)

Parchada -vachcha shaxs oti yasovchi qo'shimchasini shoir leksemasiga qo'shish orqali muallif shoirvachcha individual neologizmini hosil qilgan. Mazkur leksema muallifning kutilmagan va g'ayrioddiy obraz yaratish ehtiyoji, nutq vaziyatidagi yumoristik pafos hosil qilish zarurati tufayli personaj nutqiga olib kirilgan. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan mazkur individual neologizm ijodkor istak-xohishi, badiiy niyati mahsuli bo'lib, o'zbek tilidagi so'z yasash me'yorlari ham shaklan, ham mazmunan mos keladi.

Nutqimizda mavjud bo'lgan qo'shma so'zlar til birliklari sanalib, tilning lug'at tarkibidan o'rin egallaydi. Shunga qaramay, badiiy asarlarda, ya'ni adiblar ijodida tilning lug'at tarkibida

uchramaydigan individual neologizm ko‘rinishidagi qo‘shma so‘zlar uchrab turadi. Sharof Boshbekov dramalarida ham muallif ijodiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan qo‘shma so‘zlar mavjud bo‘lib, ular dramatik matn ekspressivligini oshirishga, qahramon nutqini individuallashtirishga xizmat qilgan.

Sh o i r. Kechirasiz, kennoyi, men uncha tushunmadim... Nima demoqchi edim? Ha. Fidoiylukda me‘yor bo‘lmaydi, kennoyi. Chalafidoyi bo‘lish mumkin emas, kennoyi, yo fidoiy bo‘lish kerak, yo hech narsa. Qisqasi, men bu fikringizga qo‘shilmayman.

(Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo‘ldi?» 147-bet)

Parchada sifat + sifat qolipi orqali yasalgan chalafidoyi nutqiy yasama qo‘shma so‘z qo‘llangan. Muallif mazkur individual neologizmni personaj replikasida fidoiy leksemasi bilan antonimik munosabatda qo‘llash orqali poetik nutq ta‘sirchanligining ortishiga erishgan.

P i r m a t. Ha, ishonaver, imon topgur. (Eslab.) Shu, birinchi marta shahar tushganimda qiz-u juvonlar to‘piqdan ko‘ylak kiyishardi. Baraka topishsin. Shahar deganlariyam o‘zimizning Gulbuloqday gap ekan, deb keluvdim. Ikinchi gal prontdan keyin shahar tushdim. Mundoq razm solsam, xotin-qizlar tizzadan ko‘ylak kiyadigan bo‘lishibdi. Shu, qishloqqa ko‘nglim g‘ash bo‘lib qaytdim. Uchinchi marta... O‘n besh yil bo‘ldi-yov, Qulmat?

(Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo‘ldi?» 144-bet)

O‘zbeklar nutqida murojaat shakllarining turli xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular yosh xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Katta yoshli kishilar nutqida o‘zidan kichik yoshlilarga nisbatan baraka topgur shaklidagi murojaat ko‘p uchrab turadi. Mazkur murojaat shakli “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?” dramasi personaji Pirmat nutqida *imon topgur* shaklida qo‘llangan.

Dramada Pirmat “sakson yoshli, hayotning achchiq-chuchugini ko‘rgan, avliyosifat” obraz sifatida tasvirlanadi. Muallif ushbu personaj nutqini individullashtirish, personajni tomoshabin yoki kitobxoniga “alohida” tanishtirish maqsadida personaj nutqida mazkur individual neologizmdan foydalanadi.

Iboralarning yangicha ko‘rinishlari (qayta ishlangan, tarkibiga yangi birliklar kiritilgan, tarkibi qisqartirilgan va b. Masalan: *Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo‘lib qolasiz.* S.Ahmad) badiiy adabiyotda keng kuzatiladi [4, 48]. Badiiy matnlarda uchraydigan bunday frazeologizmlar tilshunoslikda frazeologik individual neologizmlar termini bilan yuritiladi.

No z i k. Voy, nega titrab-qaqshayapsiz o‘zingizdan-o‘zingiz? Men nima dedim?

SH o i r. Tilimni qitiqlamang, sayrab yuboradi-ya!

No z i k. Sayramoq tugul, bo‘kirib yubormaydimi? Qo‘rqadigan joyim yo‘q.

(Sh. Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo‘ldi?» 158-bet)

Yuqoridagi parchada Shoir nutqida “tilini qichitmoq” frazeologizmi qo‘llangan bo‘lib, mazkur ibora ma‘nosi quyidagicha izohlanadi: “*Til (i) qichidi kimning – til (i) ni qichitmoq kim kimning. Gapirgisi keldi. Variant: til (i) qichishdi – til (i) ni qichishtirmoq (bular oz ishlatiladi)*” [5, 231]. Personajlar xususiyatidan kelib chiqqan holda, muallif ushbu frazeologizmni tilini qitiqlamoq tarzida qo‘llaydi. Dramaturg Shoir nutqi qaratilgan personaj – Nozikning ayol kishi ekanligini hisobga olgani holda, mazkur frazeologizm tarkibidagi salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan “qichitmoq” leksemasi ijobiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan “qitiqlamoq” leksemasi bilan almashtirib qo‘llash orqali dramatik matn ekspressivligini ta‘minlashga erishgan. “Til ijtimoiy hodisa sanalib, undagi so‘zlar davr bilan bog‘liq holatda ma‘no imkoniyatini oshirishi yoki aksincha holga tushishi mumkin [6, 284]”. So‘zning ana shunday qo‘shimcha ma‘no kasb etishi tilshunoslikda neologizm-semema atamasi ostida o‘rganiladi. Muallif parchada sayramoq so‘zini bo‘kirmoq so‘zi bilan birgalikda qo‘llash orqali yangi neologizm-semema hosil qilgan bo‘lib, bo‘kirmoq leksemasi “insonni chidab bo‘lmas darajada gapirishga majbur qilish” ma‘nosini ifodalagan. Mazkur ma‘no “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘z ifodasiga ega emas [7]. SHU holatning o‘ziyoq mazkur so‘zning neologizm-semema ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Sharof Boshbekov dramalarida qo‘llangan individual nutq neologizmlari dramatik matnning obrazlilik va ifodaviylikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

8. Mardonova S. O‘zbek she‘riyatida muallif nutqi neologizmlari. // Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue 02/2022. –B. 104.
9. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (У.Азим шеърияти мисолида). Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2019; Шодиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол.фан.номз. автореф. – Тошкент, 2007; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. (Тоғай Мурод асарлари асосида). Филол.фан.номз. автореф. – Тошкент, 2007.
10. Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Фил. фан. номз... дис. афтореф. – Тошкент, 2007. –Б. 25.
11. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. док. ...дис. афтореф. –Тошкент, 2009. –Б. 48.
12. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б. 231.
13. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 210. – Б. 284.
14. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20B.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20B.pdf)

Odamova O‘g‘iljon Kenjayevna
Urganch Davlat Unversiteti kata o‘qituvchisi
[*ogiljon-odamova@gmail.com*](mailto:ogiljon-odamova@gmail.com)

PSIXOLOGIK XIZMATDA MAQSADLI BOSHQARUV TUSHUNCHASI

Annotatsiya: Mazkur maqola psixologik xizmatning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo‘lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab berish, ijtimoiy qoniqish", "ijtimoiy xulq-atvor" kabilarning jamiyatdagi amaliy o‘rni va istiqbolini psixologik xizmat tatbiqisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlarini asosida yondoshuv muammosining aniqlashga qaratilganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: muammo, tamoyil, psixologik xizmat, jamiyat, istiqbol, taraqqiyot, ijtimoiy qoniqish, ijtimoiy xulq-atvor, ehtiyoj, shaxs, ilmiy-amaliy, mafkura, adekvat, faollik, sosial-intellektual.

THE CONCEPT OF TARGETED MANAGEMENT IN PSYCHOLOGICAL SERVICE

Annotation: the practical place and perspective in society of the likes of "social satisfaction", "social behavior", and the theoretical-scientific justification of one aspect or another that is important for Psychological Service, following the methodological principles of psychological service, cannot be fully imagined without the application of psychological service. In particular, it is revealed by scientists today that the problem of approach to socio-psychological phenomena on the basis of human development and values is aimed at determining.

Keywords: problem, principle, Psychological Service, Society, perspective, progress, social satisfaction, social behavior, need, personality, scientific-practical, ideology, adequate, activity, social-intellectual.

ПОНЯТИЕ ЦЕЛЕВОГО УПРАВЛЕНИЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЕ

Аннотация: данная статья дает теоретико-научное обоснование того или иного аспекта, важного для психологической службы, руководствуясь методологическими принципами психологической службы. В частности, учеными сегодня выявлена направленность

проблемы подхода к социально-психологическим явлениям на основе человеческого развития и ценностей.

Ключевые слова: проблема, принцип, психологическая служба, общество, перспектива, прогресс, социальное удовлетворение, социальное поведение, потребность, личность, научно-практический, идеология, адекватность, активность, социально-интеллектуальный.

Psixologik xizmatda maqsadli boshqaruv tushunchasi

Kirish

Yurtimizda talim tizimini yanada rivojlantirish, jumladan ijtimoiy-iqtisodiy takomillashtirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlash masalalarining tubdan qayta korib chiqish, jamiyatimiz azolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm va marifat, yuksak manaviyat kerak. Bu ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning chuqurlashuvi va rivojlanishi jarayonida subyektiv omillar — insonning aql-idroki, tafakkur-tarzi va intellektual salohiyati, istedod va iqtidori, erkinligi va ijodiyligi kabi fazilatlarini roli kun sayin ortib bormoqda. Bularni harakatga keltirayotgan kuch esa bu asosan manaviy manfaat, madaniyat, ehtiyoj va intilishlar hisoblanadi. Bular orasida psixik taraqqiyot va talimning shaxs tarbiyasidagi orni muhimdir. Zero Vatanimizning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, manaviy jihatdan barkamol insonlar bolib yetishishiga bogliqdir.

Bu yorug' olamda eng oliy xilqat hisoblangan Insonni o'rganish, uni tarbiyalash, unga alohida xizmat ko'rsatish muammosi butun insoniyat paydo bo'lishining ibtidosidan boshlab intihosiga qadar o'ziga xos ob'ktiv va sub'ektiv imkoniyatlar ko'lamini bog'liq ravishda namoyon bo'lib kelayotganligini bugungi hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Chunki inson taraqqiyoti va faolligi, eng avvalo, uning ijtimoiy manfaatlari, mafkuraviy qarashlari sosial-intellektual salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar bilan belgilanadi va baholanadi. Qolaversa, insonning shakllanishi unga xizmat ko'rsatuvchi tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-amaliy islohotlarning hosilasi hisoblanadi. Shu ma'noda psixologik xizmat fani o'zining shakllanishi va tuzilishiga ko'ra faqat insonga va uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andree G.M., Davletshin M.G., Zabrodin Yu.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Snigireva T.V., Filippov A.V., Shixirev P.N., Shoumarov G'B., Yadov V.A., G'oziev E.G'; shaxs faolligi bilan bog'liq tadqiqotlarni Abulxanova-Slavskaya K.A., Anufriev E.A., Grimak L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A., Qodirov B.R., o'rtaga tashlanishi psixologik xizmat metodologiyasi haqida jiddiyroq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

Psixologik xizmat fani shakllanishining nazariy-ilmiy metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat fani dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir. U tanaga jo bo'lib olgach, tug'ilishga qadar ko'rilgan narsalarni eslay boshlaydi. Xotiralar qanchalik yorqin bo'lsa, unda haqiqiy bilimlar shunchalik ko'p ochilib boraveradi, degan fikrni ilgari surdi.

Shuningdek, mazkur sohalarda psixologik xizmatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun "sosiolog-psixologlar", "amaliyotchi - psixologlar" tayyorlash mexanizmini ishlab chiqish bugungi kunda eng dolzarb muammo ekanligi yanada sezilmoqda. Yukoridagi vazifalarni amalga oshirish borasida olimlar tomonidan talaygina nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universitetining etakchi mutaxassislari rahbarligidagi olimlar guruhi, O'zbekiston Milliy universitetining E.G'oziev rahbarligidagi olimlar guruhi, A.Avloniy nomidagi Respublika pedagogik xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy institutining etakchi olimlar guruhi, Respublika iqtidorli bolalarni tanlashga xizmat qiluvchi olimlar guruhi, viloyatlardagi psixologiya kafedrasida faoliyat

yuritayotgan olimlar guruhi tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari u yoki bu sohada psixologiyaning amaliy tatbiqini yaqqol va ravshan namoyon etmoqda [1].

“Amaliyotchi-psixologlar” tayyorlash masalasi bayon etilar ekan, bu o‘rinda O‘zbekistonda "amaliyotchi-psixologlar" tayyorlashning eng birinchi tashabbuskori bo‘lgan o‘sha davrdagi Nizomiy nomidagi Pedagogika instituti psixologlari tomonidan tashkil etilgan "amaliyotchi-psixologlar" fakulteti faoliyatini alohida qayd etish lozim. Chunki bu fakultetni (2-mutaxassislik bo‘yicha) muvaffaqiyatli tugatgan yuzlab amaliyotchi psixologlar bugungi kunda psixologiya fanining ilmiy-amaliy tatbiqi bilan shug‘ullanib, Respublika miqyosida psixologik xizmatning keng quloq yoyishida o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar (Respublikada psixologik xizmatni rivojlantirishning dastlabki ilmiy-tashkiliy asosi sifatida ish olib borgan va borayotgan “amaliyotchi-psixologlar” tayyorlash fakultetining faoliyat natijalari haqidagi batafsil ma’lumotlarni o‘tgan asrning 90-yillaridagi hisobot hujjatlari arxividan olish mumkin). Yuqorida keltirilgan misollar, tahlillar va xulosalardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda psixologik xizmatni takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, bu – amaliyotchi psixologlar tayyorlash mexanizmini har tomonlama puxta va muvaffaqiyatli tarzda ishlab chiqishdir. Chunki barcha sohalarda malakali mutaxassislardan saralangan va puxta tayyorlangan psixologlar safini ham son jihatdan, ham sifat jihatdan kengaytirmay turib, psixologik xizmat tizimining amaliy faoliyatdagi tatbiqini Respublika miqyosida keng ko‘lamda amalga oshirib bo‘lmas edi.

O‘zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holatiga tavsif berishga oid yuqorida bayon etilgan barcha tahlillarimiz xotimasi O‘zbekistonda psixologik xizmat tizimini yaratish va rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy yo‘nalishlarni belgilashni taqozo etadi. Chunki psixologik xizmat tizimining Respublika miqyosidagi keng qamrovli ilmiy-amaliy yo‘nalishlarini belgilamay turib Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etib bo‘lmaydi. O‘zbekistonda olib borilgan va olib borilayotgan amaliy psixologik ishlar ichida "Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish" bo‘limlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi [2].

1. O‘spirinlarga oilaviy hayot tasavvurlarini shakllantirish borasida psixologik xizmat ko‘rsatish.

2. Nikoh oldi psixologik xizmat ko‘rsatish. Bunda, asosan, yosh oila quruvchilarning oilaviy munosabatlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan individual psixologik xususiyatlari o‘rganiladi, sevgi, ishq, muhabbatning biologik, sosiologik va psixologik tomonlarini tushuntirish asosida tegishli tavsiyalar beriladi.

3. Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonida esa turli yoshlardagi va turli toifalardagi oilalarga oilaviy hayot bilan, oiladagi shaxslararo munosabatlar bilan, turli xil ziddiyatlar bilan bog‘liq barcha vaziyatlarni tahlil qilishda va ijobiy tomonga yo‘naltirishda ko‘maklashiladi. 4. Oilasizlarga psixologik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida bo‘ydoq erkaklarga va beva ayollarga o‘z tengdoshini topish va oilani avaylash va umuman, oilaviy hayot tizimining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi va muvaffaqiyatli oila qurish borasida tegishli tavsiyalar berib boriladi.

5. Ishonch telefonlari orqali oilalarga yoki oiladagi shaxslarga psixologik xizmat ko‘rsatish. Bunda, asosan, ishonch telefonidagi ma’lumotlar asosida va barcha dalillarni sir tutgan holda ma’lumotning mazmunidan kelib chiqib tegishli psixologik tadbirlar olib boriladi.

1. O‘zbekistonda psixologik xizmatni joriy etish, boshqarish, rivojlantirish uchun va etarli darajadagi ijtimoiy, ilmiy-tashkiliy asoslar mavjud. Jumladan, "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi “Nizom”ning 5.04.1996 yilda rasmiy tarzda tasdiqla-nishi alohida tarixiy hodisadir.

2. “Nizom” asosida olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy uslubiy ishlar, tajribalar ko‘lamining tobora kengayib borayotganligini kuzatish mumkin.

3. Iqtidorli bolalarni tanlash va tarbiyalash Markazining tashkil etilganligi va uning psixologik mezonlar asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotganligini alohida qayd etish mumkin.

4.Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish bo'yicha talaygina tajribalarning to'plangan va shu tajribalar asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

5.Transport tizimida tajribalar to'planib, muvaffaqiyatli faoliyat olib borilmoqda.

6.Qator olimlar guruhi tomonidan ta'lim va oila tizimlarida psixologik xizmatni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlarning olib borilayotganligi va shu izlanish natijalarini bugungi amaliyotda qo'llanib kelinayotganini alohida qayd etish mumkin.

7.Respublika ichki ishlar tizimi.

Xulosa O'rganilgan maqolada psixologik xizmatni rivojlanishi, taraqqiyoti, turli davrlarda qanday tushunchaga ega bo'linganligi, davlatlarda rivojlanish tarixi, yo'nalishlari va obekt, predmetlarini o'rganish jarayonida Psixologik xizmat uch asosiy bo'g'indan tuzilganligini va bu bo'g'inlarda faoliyat olib borayotgan psixologlar Aniq o'quv muassasasida ishlaydigan bolalar amaliy psixologi; Tuman xalq ta'limi qoshidagi tashxis markazi psixologi; Respublika kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik- pedagogik tashxis markazlarida shug'ullanadilar.

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda, bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qiziqishlariga tayanadilar. Amaliyotchi psixolog o'z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqindan ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi. O'rta maxsus, kasb-hunar tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi — shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, ruhiy salomatligi, munosabatlarda erkin va sog'lom bo'lishi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullaeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Toshkent- 2018.
2. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Darslik. Toshkent- 2019.435 b
3. F.I. Xaydarov N.I. Xalilova Umumiy psixologiya Darslik T. 2010 y
4. M.G. Davletshin Umumiy psixologiya Darslik T. 2002
5. O.R.Avezov. Sog'lom ona va bola jamiyat kelajagi Pedagogik mahorat 4 (No. 9), 142-143
6. S.To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o'quv-metodik qo'llanma). TDPU, - T.: - 2004.

*Ismoilova Asilpashsha Rojabovna-
URDU "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi*

PSIXOLOGIYA FANIDA USTANOVKA MUAMMOSINI O'RGANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya fanida ustanovka muammosining o'rganilishi, ustanovkaning turlicha xislatlari va tiplari to'g'risida, ustanovkaning asosini tashkil qiluvchi mayllar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ustanovka, mayllar, faoliyat, ehtiyoj, shaxs, periferik, illyuziya, idrok, fiksial ustanovkalar, avtoritar tafakkur.

Аннотация: В данной статье речь идет об изучении проблемы установки в психологической науке, о различных характеристиках и видах установки, а также о тенденциях, составляющих основу установки.

Ключевые слова: установка, тенденции, деятельность, потребность, личность, периферия, иллюзия, восприятие, фиксированная установка, авторитарное мышление.

Abstract: This article deals with the study of the problem of attitude in psychological science, the various characteristics and types of attitude, as well as the trends that form the basis of the attitude.

Key words: attitude, trends, activity, need, personality, periphery, illusion, perception, fixed attitude, authoritarian thinking.

Psixologiya fanida hulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) muammosi ekanligi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D. N. Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgandir.

Ustanovka inglizcha "set" deyiladi, o'zbek tilida esa ko'rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nosida qo'llanilib kelinadi. Lekin keyingi atamalar uning haqiqiy mohiyatini, ma'nosini o'zida mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun termini hech o'zgarishsiz qoldirsa ham bo'ladi.

Odatda ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyor turishlik tushuniladi. Ustanovka -shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron bir ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi va uning qonuniyatlari eksperimental tarzda tadqiqotlar o'tkazgan ilmiy maktab namoyondalari tomonidan aniqlangan. Mazkur tajribada sinaluvchiga ikkita, bittasi katta, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani uzluksiz ravishda bir nechta (10-15) marta ko'zi yumiq holda paypaslab taqqoslash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soqqachalar almashtirilib, bir hil jismlar har xil tuyuladi, ya'ni sinaluvchida illyuziya (noto'g'ri aks ettirish) holati yuzaga keladi. Bunday psixologik voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, ob'ektiv jihatdan o'zaro teng soqqachalar taqqoslanganligida ular bir-biriga teng emas, degan mayl bilan favqulodda sub'ektiv sharoitda ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntirilganda, taqqoslash jarayoni ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday oqibatga olib kelgandir.

D. N. Uznadzening ta'kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasigina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo'lib hisoblanadi.

D.N. Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o'ng qo'lga navbat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo'lga bir-biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo'lida illyuziya, ya'ni noto'g'ri idrok qilish vujudga keladi. Ko'z bilan idrok qilishda ikkita o'zaro teng ob'ektlarni qayd qilishdagi ustanovka o'ng qo'lga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Eksperimental tarzda o'rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insonning o'ziga sezilmagan holda muayyan ob'ektlarda sub'ektga taalluqli "fiksial ustanovkalar" (qayd etilgan ustanovkalar) vujudga kelganligi aniqlangan. Demak, ustanovkani eksperimental tadqiqot etish natijasida anglanilmagan mayllar asta-sekin qayd qilinuvchi (fiksatsion) darajasiga o'sib o'tishi mumkin.

Ijtimoiy turmushda D.N.Uznadzening natijalariga o'xshash qator ma'lumotlar shaxsda mustahkamlanib qolganligi tufayli ustanovka funksiyalarini bajarib kelmoqda:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining oldida turgan ustanovkalar xuddi shunday toifaga kirganligi sababli o'qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar;

2) hisobchilarga nisbatan qo'rs, rasmiyatchi deyiqlik;

3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik;

- 4) savdo xodimlariga nisbatan uddaburonlik, daromat qilishga ustasi faranglik;
- 5) bolaniig haqgo'yligi, sir tutmasligi;
- 6) qariyaning so'zi tugaguncha-kasalning joni uzilishi to'g'risidagi fikr mulohazalar ustanovkaga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, ba'zi jamoalarda, guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish, ularga ishonch noxush oqibatlariga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misoldir. Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi, irqchilik munosabatlari, ilmiy unvonli ziyolilarga berilgan super (ortirma) baholar va boshqalar ustanovkaning anglanilmagan shaklini o'zida mujassamlashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e'tiqod sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Gruzin psixologlari tomonidan ustanovkaning turlicha xislatlari (ko'zg'atuvchanlik, dinamiklik, statiklik, plastiklik-dag'allik, dabillik-stabillik, irradiatsiya-generalizatsiya) va tiplari (diffuz, differensiyalashgan, fiksatsiyalashgan) aniqlangan. Ulariing fikricha, ustanovkaning ba'zi bir xislatlari mutanosibliigi uning har xil tiplarini vujudga keltiradi. Psixoz va nevrozlar ustanovkaning patologik o'zgarishlarida o'z ifodasini topdi. Shuningdek, ustanovka inson hukmronligini va qudratini takomillashtirishning yuksak darajasi sanaladi. U hulq-atvorning batartibligi va izchilligining asosi hisoblanadi. Ularning fikricha, ustanovka insonniig muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak darajada umumlashgan tayyorgarlik holati, reaksiyaning yaqqol natijasining qo'dlashtirilgan neyrodinamik modeli, mazkur reaksiya vaqtini oldindan payqash, qolaversa yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ustanovka o'zgaruvchanlik va barqarorlik jips birligini aniqlashga xizmat qiladi. U o'zining o'zgaruvchanlik bilan munosabat bildirishi javob qaytarishning barqarorligini ta'minlaydi.

Ustanovkaning yuksakroq bosqichi anglanish ko'rinishiga ega bo'ladi. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning a'zolarini ishontirish (ularga ta'sir o'tkazish) orqali muayyan yo'nalishga safarbar qilish, fikrlarda umumiylikni vujudga keltirish holatlari bunga yaqqol misoldir, ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, hulq-atvoriga bevosita bogliq. Bu holat psixologiyada eksperimental tarzda tadqiq etilgan. Masalan, sinaluvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida soatiga qaramay, sekundlarini o'z ichida sanash orqali bir minutning cho'zilishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshirilib turilgan, ba'zan "yolg'on" signallar, ya'ni lampo'chka yonish bilan tajriba bo'linishiga yo'l ko'yilgan. Qatnashchilarda eksperimentga ishonch bo'lganligi sababli xatolarga yo'l qo'yishgan.

Ishonuvchanlikni aniqlashda "konformizm" (kelishuv, murosa-yu, madora) dan foydalanilgan. Ichki va tashki kelishuvchanlik (konformizm)- ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchanlik mohiyatini o'rganish uchun ob'ekt sifatida foydalanishgan. Bir gurux odamlarning ochiq ovoz berishi konformizmning namoyon bo'lishidir. Lekin konformizm "soxtalik"ni ham keltirib chiqarishi mumkin, uning aks ettiruvchisi esa konformist deb ataladi, ko'pincha ideallardan voz kechish hollari ham uchrab turadi.

Hulq-atvor va faoliyatning anglanilmagan omillari qatoriga mayllar kiradi. Hali differensiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan tashkil topgan hulq-atvor va faoliyatini amalga oshirishga undovchi omil mayl deb ataladi. Moyillik xolatiga kirib borayotgan shaxs uchun jalb qilinayotgan ob'ektida uni nima qiziqtirayotgani va qaysi alomat o'ziga tortayotgani sababi noaniqligi, faoliyat maqsadi subektiga noma'lumligi tufayli mayl hukm suradi.

Bunday psixik xolat insonlarda tez-tez uchrab tursa-da, lekin o'zining tezkor o'tkinchiligi bilan boshqa voqealardan ajralib turadi. Odatda ushbu mohiyatli psixik xolati harakatlantiruvchi ehtiyoj so'nishi yoki tilakka aylantirish mumkin. Binobarin, u xohish, niyat, orzu, fantaziya kabi shakllarga aylantirish tufayli shaxs tomonidan anglaniladi. Bunday shakldagi mayllarning odamlarda mavjud bo'lishi ularning yaqin va uzoq kelajakka intilishlaridan dalolat beradi.

Z.Freyd mayllarga nisbatan o'ziga xos nazariya yaratgan bo'lib, u aksariyat xolatda jinsiy (instinktiv) mayllar to'g'risida mulohaza yuritadi (libido-jinsiy mayl). «edip kompleks» («Shox Edip» asari bo'yicha), «psixoanaliz» atamallari orqali qo'rqish, himoya, begonalashish singari instinktiv moyillikni talqin qiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, xar qanday anglanilmagan mayllar o'zidan o'zi yo'qolib ketmaydi, balki ular bir bosqichdan, ko'rinishdan ikkinchi turga, shakllarga aylanadi, mutlaqo boshqacha yangi sifatga ega bo'ladi. Ular maqsadga, talabga o'sishi bilan anglanilganlik darajasiga erishadi. Ko'ngil g'ashlik, ruhan bezovtalanish, noma'lum hatti-xarakatlar sababi insonga noma'lum bo'lsa, ular anglanilmagan darajada ekanligini bildiradi va mayl funksiyasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.Майерс. Психология.Нью-Йорк 2006. - 916 с.
2. Ivanov.I. Zufarova M.I. Umumiy psixologiya T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. - 4806.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб: Питер, 2007. – 848 с
4. Немов Р.С. Психология. М.: Владос, 2003. 1-т. -240 с.
5. Djumaniyazova, M. X. (2023). Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarining roli. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(3), 16-20.
6. Исмаилова А. Р. Особенности мыслительной деятельности школьников в подростковом возрасте //CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 169-175.

Ibrat Atakav Rajabboyevich
Toshkent amaliy fanlar universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: ibratatakav-uz@mail.ru

5-6 SINFFLARDA “TARBIYA” FANINI DASTURIY TA’LIM VOSTALARI ASOSIDA O’QITISH TAMOYILLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada 5-6-sinflarda tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi.

ABSTRACT

In this article, the use of pedagogical technology in the classroom, interactive methods and educational games school, the use of modern information and communication technologies in teaching elementary education in primary school helps students to think independently, creative research and logical thinking. along with the expansion, ideas are articulated that help them relate what they learn in the lessons to life, increasing their interest.

Keywords: technical, informational, audiovisual active civic position, responsibility, obligation, legal consciousness and culture, deep outlook, healthy beliefs, enlightenment, tolerance, spiritual, ideological, delicate upbringing.

АННОТАЦИЯ

В статье использование педагогами педагогических технологий, интерактивных методов и образовательных игр, современных информационно-коммуникационных технологий при преподавании педагогики в 5-6 классах позволяет учащимся мыслить самостоятельно, расширяет сферу творческого поиска и логического мышления.

Излагаются идеи, которые помогают связать изученное на уроках с жизнью и повысить их интерес.

Ключевые слова: интерактивные методы, техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещение, толерантность, духовное, идеологическое, углубленное образование.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishni tarbiya fanini o'qitishdan boshlash, ko'nikmalarni hosil qilishda ta'limning ahamiyatini nazarda tutish masalasi ham o'z qimmatini yo'qotmagan, bu borada nazariy ma'lumotlarni taqdim etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonida darbiyalashga doir qoidalarni taqdim qilish bo'yicha ham turli qarashlar mavjud. Darsliklarda keltirilgan o'quv materiallar o'quvchida to'g'ri va sog'lom yashash ko'nikmalarini tez va qulay shakllanishiga imkon yaratadi. Xalqaro tajribada, jumladan, sharq mamlakatlarida ham o'quvchilarga sog'lom turmush tarzi o'rgatilishida qiyinchilik bo'lmaydi. Tarbiya boshqa fanlarga integratsiya qilingan holda o'qitiladi.

Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda tarbiya masalasi, u bilan bog'liq qadriyatlarni asrash, ularni takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib, bugungi kunda tarbiya ta'limiga doir turli interfaol usullar, yangi pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda.

Dunuoda ta'lim muassasalarida ta'lim nazariyasi va amaliyotida komretensiyaviy yondashuv negizida metodik muammolar ilmiy tahlil yetilishi negizida o'quv adabiyotlarining yangi avlodiga metodologik, didaktik, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog'liqlik kabi qo'yiladigan talablarni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Mazkur Xalqaro Deklaratsiyaning "Umumiy o'rta ta'lim va kasbiy oliy ta'lim hamda katta yoshdagilar ta'limi" nomli 12-bobida ta'limning uch bosqichi ye'tirof yetilgan hamda xalqaro mehnat bozorida hayot sur'atlari shiddat bilan tezlashayotgan globallashuv: yuksak texnologiya, yalri axborotlashuv, iqtisodiyotning real tarmoqlarida raqamlashtirish davrida shaxsning "... butun hayoti uchun yemas, balki butun umri davomida o'zining bilimi, amaliy ko'nikma va komretensiyalarini shakllantirish va takomillashtirish" asnosida mustaqil va muntazam ta'lim olish huquqini kafolatlash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham "Tarbiya" fanini o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Umumiy o'rta ta'lim tizimini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirishda ta'lim jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. AQSh, Finlyandiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaroniya, Italiya, Turkiya, Hindiston singari davlatlarning ta'lim muassasalari faoliyati o'rganilib, ularning ilg'or tajribalari asosida o'qitish tashkil yetilmoqda. Natijada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari, jamiyat yehtiyojlari, fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarida foydalanilayotgan darsliklarning yangi avlodini yaratish va ulardan amalda foydalanish mexanizmini takomillashtirish yanada kengroq ahamiyat kasb yetmoqda.

Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga yega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar yetamiz".¹ Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirish orqali o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni, xususan, sog'lom turmush tarziga rioya qilib to'g'ri yashash ko'nikmasini shakllantirish, tushunchalarni takomillashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi RF 60-sonli¹, O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi RF-134-son, O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2019-yil 29-arreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsersiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF-5712-son va 2020-yil 27-fevraldagi "Redagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi RQ-

4623-son Qarorlari, 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli qarorida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda dunyoni anglash va bilishning falsafiy mazmuni va genezesi, tafakkurning ijtimoiyiligi masalalari J. Tulenov, Q. Nazarov, E. Yusupov, S. Sh. Shermuhamedovlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekistonda tafakkur va fikrlashga o'rgatishning psixologik jihatlari M. Davletshin, E. G'oziev, V. Karimovalarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mustaqillikdan so'ng o'quvchi-yoshlarda mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari J. G'. Yo'ldoshev, M. H. Mahmudov, R. Safarova, O'. Tolipov, Sh. A. Abdullaeva, B. I. Xodjaevlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Tadqiqotchilar J. Musaeov, F. O. Xodjjeva, S. S. G'ulomov, M. Arabova, D. F. To'xtasinovlar tomonidan ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurni rivojlantirish va ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish malakalarini takomillashtirishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarda ham tanqidiy fikrlashga o'rgatish muammosi doirasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, olimlardan D. Halpern, R. Pol, M. Scriven, P. Facione hamda R. Sternberg, Ye. Torrance, R. Boostrom, J. Hughes va S. Schafersmanlarning tadqiqotlarida va ilmiy-metodik qo'llanmalarida tanqidiy hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, biroq o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish masalalari bo'yicha adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'tkazilgan tadqiqotlarda "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida 5-6-sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashga o'rgatishning mazmun-mohiyati tadqiq etilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitishning bugungi holatini o'rganish va uning ona tili ta'limida tutgan o'rnini belgilash; "Tarbiya" fanini o'qitish tizimiga oid o'quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularni o'qitish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlariga doir tavsiyalar berish; "Tarbiya" fanini 5-6-sinflarda o'qitish tizimini o'qitish orqali o'quvchilarda dasturiy ta'lim vositalari asosida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalari ishlab chiqishni takomillashtirish; 5-6-sinf o'quvchilarning dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qitish jarayonida qaysi o'quv materiallarini faqat o'qib tushunib olishlari va qaysilarini qat'iy yoddan bilishlarini aniqlash, unli tovushlarni o'qitishda qanday metod, usul va texnologiyalardan foydalanish muhimligini aniqlash; ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajribada sinab ko'rish va olingan natijalarni statistik tahlilga tortish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. : O'zbekiston, 2016. –14-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. – www.lex.uz
3. Kamolova M. Ta'lim tizimida foydalanishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalari tasnifi "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4. 995
4. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. —Toshkent, 2021. 88-b.

Tillayev Bahodir Botirovich
UrIU "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim
metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ROMANIDA QABOHAT VA EZGULIKNING BADIY TALQINI

Mavzu: Romanning birinchi kitobida insoniyatni kurashga chorlovchi omillar va to‘siqqa uchragan haqiqat talqini asar qahramonlarini tanishtirish jarayonida aks ettirilishi

Annotatsiya. Tohir Malikning “Shaytanat” romani haqida yozilgan ushbu birinchi maqolada insonlarni kurashishga majbur qiladigan omillar, egilgan va turli to‘siqlarga uchragan haqiqat va bu holatning inson hayotining keyingi davrlaridagi ta’siri haqida so‘z boradi.

Abstract. This first article on Tahir Malik’s novel Shaitanat deals with the factors that force people to fight, the reality that is bent and faced with various obstacles and the effects of this situation in the later stages of human life.

Абстрактный. В этой первой статье по роману Тахира Малика «Шайтанат» рассматриваются факторы, которые заставляют людей сражаться, реальность, которая искривляется и сталкивается с различными препятствиями, а также последствия этой ситуации на более поздних этапах человеческой жизни.

Kalit so‘zlar. Qabohat, ezgulik, jinoyat, jinoyatchi, guruh, qasos, haqiqat, z‘urlik, haётga t‘usiqklar.

Keywords. Evil, goodness, crime, criminal, group, revenge, truth, violence, obstacles to life.

Ключевые слова. Зло, добро, преступление, преступник, группа, месть, правда, насилие, препятствия на пути к жизни.

“Hayot turfa rang. Ko‘zni yashnatib, dilga quvvat berguvchi chiroyli ranglar ham, ko‘ngilni vayron qilguvchi qora rang ham bor. Zamon bergan erkinlikdan foydalanib, turmushimizning qora ko‘chalariga kirishga jazm etdim. Yozganlarimni o‘qib, chor atrof zimiston-ku, deb vahimaga berilmang. Yorug‘ kunda barcha yaxshi narsalarni ko‘rib turamiz. Qorong‘ida esa ko‘rmaymiz. Urilib, suqilib, qoqilib yuramiz. Alqissa, yorug‘ kunning qadriga yetmoq uchun qorong‘ulikni ham ko‘rish lozim emasmi?” Tohir Malik.

Ezgulik va yovuzlik tushunchalari asrlar davomida insonlarning fe’l atvori va hayot tarzini ifodalashda, oddiy insonlardan tortib o‘z davrining va keyingi davrlarning ham mashhur insonlarini baholashda qo‘llanib kelinayotgan vositadir. Aniqsa ezgulik ahloqshunoslikdagi eng muxim kategoriyalardan sanaladi. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi.

“Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal” uchligi «Avesto» dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rinni egallashi ham shundan, albatta. Chunki, ezgulik - insonga eng kuchli ma’naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat, shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. Ezgulik va unga qarama qarshi kuch bo‘lgan yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o‘lchanmaydi, bu ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo‘ladi. Ezgulik va yovuzlikning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug‘ligi va tubanligini o‘lchaydigan muqaddas tarozuga o‘xshatish mumkin.

Bu ikki juftlikning farqli tomoni shundaki, sodir qilingan ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo‘lib qolaveradi.

Bugun biz ezgulik va yovuzlikning o‘zaro kurashiga bag‘ishlab yozilgan asar haqida fikr yuritir ekanmiz, avvalambor bu g‘oyani paydo bo‘lish sababi haqida muallifning o‘zi aytgan sharhlarga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

(Xabar.uz. 01.05.2018 yil, Anvar Namozovning “Shaytanat» kitobi, kinosi, prototiplari va... hammasi haqida” maqolasi)

Muallif “Shaytanat» asaringizni yozishga nima turtki bo‘lgan?” degan savolga shunday javob beradi: “Savolni eshitishim bilan hazil ohangida “shaytonlar turtki bo‘lgan” deb javob berardim. Garchi javob hazilga yo‘ylsa-da, uning zamirida haqiqat ham bor. Umuman, men nima uchun jinoyatlar jarayoni bayon etilgan asar yozishga harakat qilaman? “Alvido, bolalik!”, “So‘nggi o‘q”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Charxpalak”, “Talvasa”, “Ov” va nihoyat “Umidlar dashti”... Odamlar shu mavzuga ko‘proq qiziqqani uchungina yozilganmi yo boshqa sababi ham bormi? Bor. Asosiy sabab mening asl maqsadim boshqa tomonda. Men jamiyat jinoyatchilarsiz ravnaq topishini orzu qilaman. Hech kimning bolasi jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Hech qaysi ota-ona (hatto o‘g‘rilar ham) farzandi tug‘ilganda «o‘g‘lim (yoki qizim) o‘g‘ri bo‘lsin, giyohvand bo‘lsin» deb orzu qilmaydi. Lekin, afsuski, ma‘lum yoshga yetganda ayrimlar jinoyat ko‘chasiga burilib, shaytanat olamiga kirib ketganini o‘zlari ham bilmay qoladilar.

«Shaytanat»ni yozishda men o‘zimni qiynagan muammolarga javob topishga harakat qilganman. Yozuvchining vazifasi nimadan iborat? Jamiyatni kuzatish, tahlil etish, yuzaga chiqayotgan muammolarni hal etishda qatnashish emasmi? O‘tmish jamiyatning kasalliklaridan biri – jinoyat olami edi. Men o‘sha xastalikning bir zarrasinigina qalamga olganman. Jinoyat olami, ya’ni shaytonlar yetovidagi olamning naqadar qabih ekanini odamlar o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib yoki eshitib yurgan edilar. Men shulardan ayrimlarini jamlab, qog‘ozga tushirdim, xolos. Bu voqealarni yozishdan asosiy maqsadim odamlarni ogohlantirish edi. *“Odamlar, ko‘rib qo‘yinglar, befarq yurmanglar, siz bilan bizning yonimizda ko‘zga ko‘rinmas, ammo vahshiy bir olam borki, undan o‘zingiz ham ehtiyot bo‘ling, ayniqsa, farzandlaringizni asrang, toki bu olamga bandi bo‘lib qolishmasin. Bu olamning bittagina eshigi bor. Kirdingmi, tamom, o‘z oyog‘ing bilan qaytib chiqishing mahol, kafansiz ketishing aniqroq...”* – demoqchi bo‘lganman.

Adib jurnalist bilan bo‘lgan o‘sha suhbatda “Nima uchun bolalar jinoyat olamiga kirib qoladilar? Adashibmi? Nima uchun biz, kattalar ular adashguncha qarab turamiz? O‘smirlarning shaytonlar olamidagi tikonni bosib olishlariga kim aybdor? Faqat o‘zlarimi? Biz – kattalar ularning qalb ko‘zlarini ochishga urinib ko‘rganmizmi?” degan savolni qo‘yadi. Hayot yo‘li tekis emasligi, “Hayot gulzor deya kezdin, tikonlari chiqdi yo‘ldan; nada tikonlari, ilonlari chiqdi yo‘ldan...” satrlari orqali insonlarni ayniqsa, hayotga endi boshlang‘ich qadamlarini qo‘yayotgan o‘smir yoshlarni ogohlantiradi.

Jamiyatdagi barcha insonlarni ogohlantirish maqsadida yozilgan “Shaytanat” asarining **birinchi kitobida** ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi o‘zaro kurash tasviridan oldin asar qahramonlari bilan tanishamiz. Tanishish jarayonida ularning o‘tmishiga, hayotlarida uchragan turli voqealarga, nohaqlik va haqiqatlarga guvoh bo‘lamiz va hayotning turli ko‘chalariga qanday kirib qolganligining asl sabablariga ham oydinlik kiritib boramiz.

Tanishtirish jarayoni asarning asosiy qahramoni Asadbek bilan emas, balki bizning fikrimizcha asarda keyingi o‘rinlarda turishi lozim bo‘lgan Elchin bilan boshlanadi va hofizning hayotidagi eng ayanchli va eng dahshatli voqea – sevimli jufti halolining ko‘ksiga pichoq sanchilib yotgan holati tasvirlanadi. Bu holatni ko‘rishdan oldin Elchin tush ko‘radi. Tushida u oldin momiq bulut parchasida rohatlanib suzib borayotgan bo‘ladi va *“birdan bulut choki so‘kilib”* shiddat bilan pastga qulaydi. Elchin ko‘rgan mana shu dahshatli tushning o‘zi o‘tgan davrdagi hayoti va kelgusida ro‘y beradigan voqealar haqida boshlang‘ich ma‘lumotni beradi desak yanglishmaymiz.

Ayniqsa, Noilaning holatini ko‘rib, *“shoshilib borib ko‘kradagi pichoqni sug‘urib olishi”* voqealar rivoji uchun turtki bo‘ladi. *“Kim Noilaning ko‘kragiga sanchdi?”* degan o‘z-o‘ziga berilgan savol esa Elchin qalbida qasos olish tuyg‘usini paydo bo‘lishi uchun zamin bo‘lganligini zukko kitobxon anglab oladi, albatta.

Biz asarning boshlanishidagi Elchinga bag‘ishlangan kichik lavha bilan tanishar ekanmiz, bunday holatda o‘zini inson deb bilgan, qalbida imoni va vijdoni bo‘lgan har qanday insonda o‘ch

olish va haqiqatni bilish istagi paydo bo'lishini his qilamiz va Elchindan ham buni amalga oshirishni behtiyor so'rab qolamiz.

Asarning asosiy qahramoni Asadbek bilan tanishuv urushdan keyingi og'ir yillarda, 1949 yildan 1950 yilga o'tar kechasi, 31 dekabr kungi uning hayotida keskin o'zgarish yasagan voqea bilan boshlanadi.

Urushdan keyingi og'ir sharoitlarda yashayotgan ko'pchilik oilalar singari Asadbeklar oilasi ham turmush mashaqqatlarini totib yashayotgan bo'ladilar. Birgina uyni istish imkoni bor. Uydagi yolg'iz tanchaning uch tomonidan oilaning uch nafar a'zosi, Asadbek, otasi va onasi uxlaydilar. Dasturxonda ham bir kunga yetarli non va boshqa yeyimliklar bor, xolos. Buni asardagi **“Sandal ustini qoplab turgan to'rt burchakli katta patnisda bir burda non, bir siqim turshak bor edi”** jumlasidan zukko kitobxon darhol fahmlab oladi. Ayniqsa, uyga bostirib kirgan ikki nafar begona kishini ko'rib, Asadbekning **“Bular o'g'ri, yaxshi ham nonni yeb qo'yganim”** deb o'ylaganining o'zi hayot tarzining naqadar og'ir ekanligidan dalolat beradi.

Tohir Malik beruxsat kirib kelgan ikki nafar chaqirilmagan mehmonlar va Asadbek, uning otasi o'rtasidagi qisqa-qisqa suhbatlarni juda ustalik bilan, tushunarli tilda yozgan. Ularning o'zaro suhbatidan bemahol tashrifning maqsadi va mohiyati haqida hech qanday sharhlarsiz kitobxon anglab oladi.

-Qo'rqma, biz o'g'ri emasmiz. Biz xalqni o'g'ri, muttaham, dushmanlardan himoya qiladigan odamlarmiz. Sening otang ham dushman. Oddiy emas xalq dushmani!

-Bolaga bu gaplarni gapirmang, foydasi yo'q.

-Foydasi bor. Bilib qo'ysa chakki bo'lmaydi.

O'zaro suhbat Asadbekning dadasi kirib kelgandan keyin boshqacha, jiddiy tus oladi:

-Siz qamoqqa olindingiz, -dedi past bo'yli odam, uning orqasiga o'tib.

*-Xalq dushmani sifatida, -dedi novcha odam, uning ro'parasiga turib olib. **Dadasi***

indamadi.

Mana shu o'rinda u davrlar haqida biladigan kitobxon bolaning dadasi nega indamaganligiga o'zida javob topadi. Stalin davridagi qatag'on yillarida atayin qurbon qilingan insonlar haqiqiy xalq g'amini o'ylaydigan, ziyoli va faol insonlar bo'lgan. Qatag'on qilish jarayonida kimning ustidan bir varaq ariza tushsa yoki o'z fikrini erkin bildirib, davr muammolari haqida fikr bildirib, boshqalarni o'z izidan ergashtirish qobiliyati bor bo'lgan insonlar qurbon bo'lganlar. Indaganning, bahslashganning esa foydasi yo'q.

O'smir Asadbek esa dadasi har ikkalasini ham urib-urib ko'chaga otib yuborishini juda istaydi. “Nimaga urmayaptilar, kuchlari yetmaydimi? Men borman-ku!” deb o'ylaydi va shu o'y tufayli **uning jaji yuragida eng dastlabki isyon vulqoni** uyg'onadi. U **“Dadamga tegmang! Tegmang dadamga! – daf'atan kelgan hayqiriqni to'xtata olmadi. Irg'ib turib, uzun bo'yligining yelkasiga tirmashdi”**.

Mana shu tasvirning o'zi Asadbekning biz kelgusi boblarda guvoh bo'ladigan qat'iyatlilik va rejasini amalga oshirmaguncha to'xtamaslik odatining ilk debochasi sifatida namoyon bo'ladi va Asadbekning shu voqeadan keyin hayotining yengil bo'lmaganligi, lekin otasi uchun hamisha qalbida yomonlardan o'ch olish tuyg'usi mahkam joylashib olganligini zukko kitobxon anglab yetadi.

Tohir Malik asarning muqaddimasida **“Men asarda sizga hamroh bo'lguvchi fuqarolarning ayrimlarini avvaldan tanishtiray. Shu maqsadda bir oz ortga qaytishimizga to'g'ri keladi”** deb yozadi.

Asarda adib yozganidek, bizga hamroh bo'ladigan yana bir qahramon – **Zohiddir.**

U yoshligida to'yi bo'lishi kutilayotgan akasining o'rtoqlari bilan birgalikda ularning ziyofatida qatnashadi va shu kuni o'z akasidan ayriladi. Eng ta'sir qiladigan joyi akasining qotillari uning birga yeb-ichib yurgan, yaxshi-yomon kunlarda hamrohlik qilayotgan o'rtoqlari edi. **“...Fotiha to'yiga atab yopilgan non janozaga kelganlar uchun yozilgan dasturxonga qo'yildi. Murda yuviladigan uyga gullar sochildi. Chimildiq tutildi”**.

Zohid asosiy guvoh sifatida “Nega, nima uchun?” degan savollar girdobida qoladi. Qotillar sudi jarayonida haqiqat bir tarafda qolib ketib, nohaqlik va yolg'onning g'alabasini, akasining

o'rtog'larini nomardligining guvohi bo'ladi. *"To'rtta edi ular. Qora kursida esa yolg'iz jo'raboshi o'tiribdi. U aka-uka bilan mushtlashib, "bexos urib o'ldirib qo'yibdi". Jinoyat qasddan qilinmagan. Davlat qorlovchisi ham, oqlovchisi ham shu fikrda. Marhum xotirasi ham bulg'anib tashlandi. To'rtovlon akasini urayotganda mard edi. Endi, javob berishga kelganda nomard kimsaga aylanishdi. Jon shirin ekan. Shu shirin jon uchun xoinlik qilish oson ekan, juda oson ekan..."*

Mana shu jarayondagi nohaqlik kitobxon anglab yetganidek, Zohidda huquqni himoya qilish tashkilotlarida ishlash va qachon bo'lmasin haqiqatni, faqat haqiqatni yuzaga chiqarib ishlash, shu yo'sinda akasining qotillarini ham elga tanitish istagini paydo qildi desak yanglishmaymiz.

Biz asarning uch qahramoni bilan oz-moz tanishdik. Lekin shu ozgina tanishuv jarayonida ularning kelgusi hayot yo'llaridagi ayrim maqsadlarini ham anglab yetdik.

Tohir Malikning o'zi yozganidek, *"Bayon qilganim – uch voqea ularning hayotidagi alg'ov-dalg'ovning boshlanishi, xolos. Shu voqealardan so'ng ularning ahvollari ne kechdi, boshlariga yana ne savdolar tushdi? Ana endi muqaddimani yakunlab, asosiy muddaoga o'tsak bo'lar"*.

Asosiy muddaoning talqini esa keyingi turkum maqolalarda davom qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tohir Malikning "Shaytanat" romanining birinchi kitobi.
2. Anvar Namozovning "Shaytanat» kitobi, kinosi, prototiplari va... hammasi haqida" maqolasi.

Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna
Urganch innovatsion university
o'qituvchi-stajyori
sabohat @icloud.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH USULLARI

Annotatsiya: Maqolada Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida, boshlang'ich sinif o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari, o'quvchilarni tarbiyadarlarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash shakli, vosita va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, mustaqillik, qadriyat, mehr, xotira.

Annotation: The article discusses the Motherland and patriotic education, the national and historical foundations of educating elementary school students in the spirit of patriotism, the form, means and methods of educating students in the spirit of patriotism in kindergarten.

Key words: Motherland, patriotism, independence, value, love, memory.

Аннотация: В статье рассматриваются Родина и патриотическое воспитание, национально-исторические основы воспитания учащихся начальных классов в духе патриотизма, формы, средства и методы воспитания учащихся в духе патриотизма в детском саду.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, независимость, ценность, любовь, память.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohalarida katta islohotlarning sodir bo'lishi kelajak avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodning ana shu o'zgarishlarga dadil moslasha oladigan yuksak bilim, mahorat, keng dunyoqarash va e'tiqodga ega bo'lishini talab etadi. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o'tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo'lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o'zi tug'ilib o'sgan go'shadan boshlanadi. Shuning uchun bola o'zi yashab,

nafas olib turgan xonadonida ulg'ayib voyaga yetishishida muhtasham va qudratli makon bo'lgan ona zaminiga mehr-muhabbat va sadoqati abadiy bo'lmog'i zarur. Har bir insonning vataniga bo'lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilanuning vujudiga singib boradi, otonasini avlod-ajdodlari, ularning an'analari, urf-odatlarini, kasb-korlarini sevuvchi farzand o'zgalarni ham sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san'ati, dini va madaniyatidan g'ururlanib, o'zi o'sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddas tuprog'I qadrini anglaydi. Insondagi eng oliy tuyg'u — Vatan tuyg'usidir. O'zi tug'ilib-o'sgan ona yurtini jonqadar sevadigan, o'zga yurt tabiatidan o'z yurti tabiatchilik zavq ola olmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butunaql-zakovati, qalb qo'ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go'zalligi, rivojiga bahshida eta olgan insondagina bu tuyg'u namoyon bo'ladi.

Vatan, xalq bor joyda vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu tuyg'u insonni jasoratga, ezgulikka halol mehnatga da'vat etadi. Millatni millat bo'lib shakllanishida turli hayot to'fonlaridan omon saqlab qoladigan ham vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik - kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy ahloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik — inson ma'naviy yetukligining yuksak mezonlaridan istiqloq mafkurasining negizini tashkil etuvchi qadriyatli va his-tuyg'ularidan biridir. Vatanparvarlik hissini o'z farzandi qalbiga singdira olgan ota-onaning, shunday ruh, bilan yashaydigan xalqning kelajagi porloqdir. Vatanparvarlik — Vatan osoyishtaligi, ota-ona, El- yurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrori bilan puxta qo'rollanish, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishdir. Vatanparvarlik — halol mehnat qilish zamirida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib ulush qo'shish, el-yurt manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yish demakdir. Bolalarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishni bolaning maktabgacha yosh davridan boshlash ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir. Endilikda hayotimizning barcha sohalarida respublikaning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, avlod ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf odatlari va ko'nikmalarini hisobga olib, bolalarimizda xalqimizga, o'z vataniga mehr, samimiylik, histuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish, tarbiya nazariyasi va amaliyotiga tadbiq etish muhim dolzarb muammoga aylanmoqda. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvatlilikni shakllantirish tarbiyaning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida eng avvalo ularning ruhiy jarayonlarini o'stirish, rivojlantirish va takomillashtirib borishga yordam beruvchi omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, bolalar tarbiyasida oliy histuyg'ularini shakllantirib, o'stirib borish—ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib boruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Vatanparvarlik yuksak e'tiqod, vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burchni anglashdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ham eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bola yosh jihatdan kamol topar ekan unga berilgan bilim ba tarbiya asosida shakllanib kamol topadi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatan tushunchasini vatanparvarlik, unga muhabbat tuyg'ularini qalblarida jo qilib borish kerak.

Boshlang'ich sinf 4-sinf O'qish savodxonligi darsligida o'quvchilarga vatan tushunchasini shakllantirish unga munosib farzand bo'lish tuyg'ularini quydagi mavzular asosida shakllantiramiz:

1. Yagonadir Vatanning sening!
2. Buyuk mehring
3. Vatan mehri

Vatan yoshlari kabi bir qancha mavzular asosida o'quvchilarda vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirib boramiz.

Shular qatorida Xurshid Davronning “Yagonadir Vataning sening” hikoyasi orqali o‘quvchilarga bilim ulashilgan bo‘lib bunda:

Vatan o‘zi nima?

Donishmandlardan biri: “Vatan — bu sening kindik qoning tomgan tuproq”, — desa, ikkinchisi: “Vatan — bu sen suygan odamlar manzili!” — deydi. Boshqasi: “Vatan — millat xotirasi”, — deb zavqlanadi. Biz Vatan kalimasiga ne-ne so‘zlarini qo‘shib, aziz qadriyatlarga nom topamiz: Vatan tuprog‘i, Vatan tuyg‘usi, Vatan tarixi,

Vatan kelajagi....

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa—ona qishloq dalalariga, ko‘klam chog‘ida lolazorga aylangan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog‘larga, hatto yantog‘-u saksovuldan boshqa giyoh unmagan dasht-u sahrolarga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi.

Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do‘st-birodarga bo‘lgan mehr bilan qo‘shilib ketadi.

Nafaqat inson, hatto qushlar ham o‘z yurtlarini sog‘inadi. Dov-daraxtlar o‘z yurtlarini qo‘msaydi. Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko‘radigan daraxt bo‘lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o‘z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o‘tib, ko‘kka bo‘y cho‘zibdi.....

Yillar o‘tib, bog‘ o‘rmonga aylanadi. Ammo oradan o‘ttiz-qirq yil o‘tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o‘z-o‘zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlabdi.

Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit‘asida qattiq qurg‘oqchilik bo‘lib, u yerdagi shu navli daraxtlar ham qurib qolgan ekan. Shunda olimlar bir-birlaridan ancha olisda bo‘lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi. Ko‘rdingizmi, aqlimiz anglashga ojiz. Bu sirli aloqa Vatan tuyg‘usi bilangina izohlanishi mumkin.

Vatan—ona kabi yagona! Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram. Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir!

Ushbu hikoyani o‘quvchilar o‘qib chiqar ekan hayvonlar, qushlar hatto o‘simliklarni ham o‘z vatani borligi, vatandan ayro yashay olmasligini tushunadila.

Bundan tashqari 4-sinf o‘quvchilari vatan haqidagi maqol va hikmatli so‘zlarni o‘rganib boradi:

1. Bulbul chamanni sevar, odam — vatanni.
2. Vatan gadosi — kafan gadosi.
3. Vataning tinch — sen tinch.
4. O‘z uyim — o‘lan to‘shagim
5. Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir.
6. Vatanparvarlik — bobolardan qolgan meros.
7. Ona yurt — oltin beshik.
8. O‘z diyorini gullatganning baxti gullaydi.
9. Har bir nihol o‘ziga xos tuproqda ildiz otadi.
10. Vatan uchun qurbon bo‘lganlarning xoki muqaddasdir.
11. Vatanga falokat — o‘zingga halokat.
12. Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.
13. Vatansiz inson — kuysiz bulbul.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish savodxonligi darslarida fikrlash va tafakkur doirasini kengaytirishga bolani erkin xulosa chiqarishga o‘rgatish o‘qish savodxonligi darslarini oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida Vatan tushunchasini erkin fikri bilan namoyon qilish uchun “Yangi O‘zbekiston — yangi maqsad sari rivojlanish” mavzusida matn tuzib, so‘zlab berishga tayyorlanish,

“Yurtim uchun yangi g‘oya” mavzusida suhbat qurish topshiriqlari darslikda berilgan.

O'quvchilarga bilim berar ekanmiz eng avvalo o'quvchilarga ta'lim berish bilan tarbiya jihatlarini qolaversa vatan tushunchasi, vatanni oiladan boshlanishi maktabimiz ham kichik vatan timsolida deb tushuntirgan holda ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib boramiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Qosimova K. , Matchonova S. , G'ulomova X. , Yo'ldasheva Sh. , SaryievSh. Ona tili o'qitish metodikasi. T. Bayoz, 2022. 304b.
2. Matchonov S. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va uni o'qitish metodikasi"(Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik). T:Ishonchli hamkor, 2021-y
3. Boshlang'ich sinf 4-sinf O'qish savodxonligi darsligi.

Togonova Shoxida Alisher qizi

*Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
shohidatogonova@gmail.com*

TALABA SHAXSIDA KOGNITIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGOK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy sharoitlarda talabalarning kognitiv kompetentsiyasini shakllantirish muammosi ko'rib chiqiladi, uning tarkibiy qismlarini aniqlash bilan bog'liq komponentlar va rivojlanish omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, kognitiv, kompetentsiya, psixologik xususiyatlar, kognitiv xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье будет рассмотрена проблема развития познавательной компетенции учащихся в современных условиях, проанализированы компоненты и факторы развития, связанные с выявлением ее компонентов.

Ключевые слова: Современное обучение, когнитивное, компетентное, психологические характеристики, когнитивные характеристики.

Annotation: This article will examine the problem of developing cognitive competence of students in modern conditions, analyze the components and development factors associated with identifying its components.

Key words: Modern teaching, cognitive, competent, psychological characteristics, cognitive characteristics.

Kirish

Jamiyatning kasbiy shaxsga bo'lgan talabini inobatga olgan holda o'qituvchilar o'z faoliyatida sinov vaturli pedagogik usullar va texnologiyalarni joriy etish: "aylantirilgan ta'lim", loyihaga asoslangan, modulli texnologiyalardan foydalanishi ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim sharoitlarini yaratish imkonini beradi. [1] Biroq, axborotni olish va qayta ishlash usullarining o'zgarishi, aloqa tizimi va umuman o'rganishning o'zgarishi tufayli samarali usullarni aniqlash zarurati paydo bo'ldi. Ta'lim amaliyotlari, birinchi navbatda, zamonaviy yoshlarning kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Aynan kognitiv kompetentsiya boshqa barcha ko'nikmalarni rivojlantirish uchun asosdir.

Kognitiv kompetentsiyani o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahliliga asoslanib, biz "kognitiv kompetentsiya" tushunchasini shaxsning integral sifati sifatida, shu jumladan bilim-kognitiv komponentning xususiyatlari, doimiy o'z-o'zini rivojlantirish va shaxs faoliyatini samarali amalga oshirish qobiliyati, samarali faoliyatga intilishdir. Biz kognitiv kompetentsiyani xatti-harakatlarda va standart va nostandart muammolarni hal qilishda namoyon bo'ladigan shaxsiyatning tarkibiy sifati sifatida aniqlaymiz. Kognitiv kompetentsiya bilan biz intellektual va

ta'lim darajasini doimiy ravishda oshirishga, shaxsiy potentsialni ro'yobga chiqarishga va o'z-o'zini rivojlantirish traektoriyasini to'plashga tayyorlanish mumkin.

Ta'lim sohasida turli darajadagi muassasalar: maktablar, o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim, universitetlar, yetakchi vazifa talabalarda zamonaviy voqelikka mos keladigan, samarali ta'lim rivojlanishiga hissa qo'shadigan kognitiv kompetentsiya darajasini shakllantirishdir. Kasbiy yo'naltirilgan faoliyat, doimiy o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishdir. Kognitiv kompetentlik shakllanishi masalasi ta'lim sohasidagi kompetentsiya haqli ravishda ta'riflarni ko'rib chiqish va kognitiv kompetentsiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash, ularning rivojlanish darajasini aniqlash va shakllantirishning samarali omillarini izlash zarurligiga olib keladi.

Kognitiv kompetentsiya shaxsning ijtimoiy kompetentsiyasining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatini belgilaydi[2].

Adabiyotlar tahlili:

Y. V. Pushkarev ta'kidlaganidek ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish sharoitida kognitiv qobiliyatlarni yuqori darajada rivojlantirishni belgilovchi eng muhim omillardan biri bu yetarli hissiy muhitni yaratishdir. Shunday qilib, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, qulay ta'lim muhitini yaratish o'quvchilarning farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (yuqori darajadagi tashvishlar pasayadi, motivatsiya va kognitiv faollik darajasi oshadi) [2].

M. A. Akopova bu borada shunday ta'kidlaydi kognitiv qobiliyatlar o'quvchilarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kasbiy rivojlanish sharoitida bu mutaxassislariga keyingi rivojlanish traektoriyalarini aniqlash imkonini beradigan metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirishdir. Siz qanchalik tez shakllansangiz, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri metakognitiv qobiliyatlar rivojlangan bo'lsa, kognitiv faoliyatning muvaffaqiyati shunchalik yuqori bo'ladi [3].

O. E. Fedotova esa shunday qayd etadi: "Rivojlanish ijtimoiy kompyuterning kognitiv komponenti taxminiylik tegishli bilimlarning kengligi va chuqurligini nazarda tutadi; ularning kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglash; faoliyat va ularni olish, qayta ishlash va foydalanish bo'yicha xabardorlik. Bunga zamonaviy texnologiyalar yordamida erishiladi faol o'qitish usullari: muammoli ma'ruzalar, ular davomida hayotiy, shu jumladan kasbiy muammolar taqdim etiladi va hal qilinadi" [4].

Z. V. Pantelevaning ta'kidlashicha, kognitiv kompetentsiya - bu har xil turdagi vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Kognitiv faoliyat va o'z-o'zini rivojlantirish, o'z bilimlarini baholash va uni qo'llash imkoniyatlariga asoslangan turli kundalik va kasbiy muammolarni hal qilishdir. Har qanday kasbiy faoliyatni o'zlashtirganda kognitiv qobiliyatlar faoliyatning haqiqiy tuzilishi va bilimlar tuzilishi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan yanada murakkab funktsional tizimga kiradi. Olingan metatizim har qanday mutaxassisning kasbiy malakasini belgilaydi, kasbiy ma'lumotlarni qayta ishlashni o'z ichiga olgan kognitiv mexanizmlar esa kasbiy rivojlanishda asosiy hisoblanadi.

Xorijiy manbalarda rivojlanish mavzusi kognitiv kompetensiyalarni, shuningdek, raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish davrida ularni shakllantirishning samarali usullarini o'rganish dolzarbdir. T. Terzieva, O. Rahneva, V. Delyamovlar zamonaviy raqamli makonda talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish muammolarini o'rganar ekanlar, o'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyalarini rivojlantirish va o'quv motivatsiyasini faollashtirish zarurligi to'g'risida xulosaga kelishadi [5]. E. Clement o'zgaruvchan muhitga moslashish va moslashish uchun kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif moslashuvchanlik, ijodkorlik va akademik samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi [6].

"Kognitiv kompetentsiya" tushunchasining ta'riflarini tahlil qilish shunday xulosaga keladi: Kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishning asosiy xususiyati - bu o'z intellekti bilan ishlash va ta'lim darajasini oshirishdir. Manbalarni tahlil qilish asosida kognitiv kompetentsiyaning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat ekanligini aniqlash mumkin: bilimlarni amalda qo'llash jarayoni, aqliy xususiyatlar va ko'nikmalar, axborotni qayta ishlash va rivojlantirish. Kognitiv kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsion jihat

bo'lib, u maqsadni qo'yish qobiliyatidir. Unga erishish uchun quyidagicha vazifalarni belgilash mumkin. Bu o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish (ta'lim faoliyatini o'z-o'zini tartibga solish, aks ettirish) ko'nikmalarini hisobga olgan holda o'zining individual ta'lim traektoriyasini ishlab chiqish qobiliyatidir [7].

Ta'lim va kognitiv kompetentsiyani shakllantirish darajasini aniqlash (yuqori darajali, o'rtachadan yuqori, o'rtacha va o'rtachadan past) o'qituvchilar, talabalardan qobiliyatlarni o'lchash uchun topshiriq va testlarni bajarishni so'rashdi: ta'lim maqsadini qo'ying, ish natijasini kuting, vazifaga muvofiq ish joyini tayyorlang, vazifani mustaqil ravishda yengish qobiliyati, topshiriqni bajarishning osonroq yo'lini tanlash qobiliyati, o'zini o'zi nazorat qilish va o'z ishini baholash, og'zaki bayonotlar: xabarlar, hisobotlar, sinfdoshlarining javoblarini tahlil qilishdir. M. A. Xolodnaya 16 metakognitivni baholashning quyidagi mezonlarini belgilaydi. Jumladan: o'quvchilarning qobiliyatlari: maqsadni belgilashning rivojlanish darajasi (ta'lim maqsadlarini belgilash qobiliyati); rejalashtirishning rivojlanish darajasi (o'z natijalarini bashorat qilish qobiliyati). U duch keladigan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda ta'lim faoliyati); O'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanish darajasi (qobiliyati). U bajaradigan harakatlarning to'g'riligini diqqat bilan kuzatib borish); o'z-o'zini hurmat qilishning rivojlanish darajasi kabilardir.

Xulosa

Kognitiv faoliyatning asosiy mezoni shaxsiy motivdir, Buning natijasida bilim maqsadi shakllanadi va unga erishish kognitiv mustaqillikning asosidir. Xulosa qilish mumkinki, kognitiv faoliyat bu bilim va faoliyat turlarini tashqi yordamisiz o'zlashtirish istagi va qobiliyati bilan ajralib turadigan o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita shaxsiy fazilat hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda pedagogika fanlarida kognitiv kompetensiya tushunchasi boshqacha talqin qilinmoqda. Shunday qilib, kognitiv kompetensiya shaxsning intellektual qobiliyati va mustaqil ravishda o'rganish, bilim olish qobiliyati deb biladi degan xulosalarini berishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гриншкун В. В. , Заславская О. Ю. Уроки пандемии: новые стратегии и технологии обучения // Информатика и образование. – 2022. – Т. 37, № 3. – С. 5–11.
2. Пушкарёв Ю. В. , Пушкарёва Е. А. Факторы, определяющие развитие когнитивных способностей в условиях цифровизации процессов образования: обзор текущих исследований // Science for Education Today. – 2022. – Т. 12, № 6. – С. 111–136.
3. Аكوпова М. А. Исследование влияния метакогнитивных процессов на изменение успеваемости студентов-педагогов по психологическим дисциплинам // Science for Education Today. – 2022. – Т. 12, № 5. – С. 22–38.
4. Федотова О. Е. Развитие когнитивного компонента социальной компетентности студентов вуза в процессе профессиональной подготовки // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Психологические и педагогические науки. – 2019. – № 1. – С. 128–134.
5. Terzieva T. , Rahneva O. , Dilyanov V. Pedagogical strategies for development of cognitive skills in a digital environment // Journal of Differential Equations and Applications. – 2021. – Vol. 20 (2). – P. 251–261.
6. Clement E. Successful Solution Discovery and Cognitive Flexibility // Cognitive Flexibility: The Cornerstone of Learning. – 2022. – P. 113–142.
7. Sun R. C. F. , Hui E. K. P. Cognitive Competence as a Positive Youth Development Construct: A Conceptual Review // The Scientific World Journal. – 2012.

*Xoldarova Irodaxo Valijonovna
FarDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PHD), dotsent*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Maqolada ijtimoiylashuv tushunchasi, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvini rivojlantirish to'g'risidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ijtimoiylashuv, metodologiya, metod, individ, individuallashuv, ijtimoiy moslashuv, dunyoqarash.

KIRISH

So'nggi yillarda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ta'lim sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan boshlang'ich ta'lim tizimida ham qator o'zgarishlar va yangilanishlar olib borildi. Bularning barchasini esa kelajak avlodni yanada ilmiy, ma'rifatli, Respublikamizga kerakli kadr qilib yetishtirish yo'lidagi harakatlar deb atasak so'zimizda mubolag'a bo'lmasa kerak. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish Respublikamizda qator qonun va farmonlarda ham asosiy yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan. Jumladan, qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida, "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va uni tasdiqlash to'g'risidagi Prezident farmonida yaqqol ko'zga tashlanadi. ¹ Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytishimiz joizki, o'sib kelayotgan yosh avlod kelajagiga davlat, jamiyat, maktab, mahalla hamda oila birdek mas'uliyat bilan yondashishi zarur.

Yosh avlodni jamiyatda o'z o'rni va o'z pozitsiyasida tura olishi uning maktab va oilada rivojlantirilgan ijtimoiylashuv jarayoniga ko'p jihatdan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F. G. Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U "Ijtimoiylashuv nazariyasi" (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma'noda "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi. ¹ "Ijtimoiylashuv" so'zi dastlab siyosiy-iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy-iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumiylik sharti bilan ma'nosini anglatgan. Uning zamonaviy ma'nosi- "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir. XX asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o'rganuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarining tahlili uni shartli ravishda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

-sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida qaraladi.

-sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko'proq mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanishi va o'zgarishi bilan aniqlanadi. Bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning barcha narsani egallashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Shu bilan birga unda ikkinchi bir, ya'ni sub'ektiv ehtiyoj xissi ham mavjudki, bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunday namoyon bo'ladi, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlariga ega bo'ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish).

Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog‘liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvdir. Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir. Individuallashuv insonning yoshlik chog‘ida paydo bo‘ladigan ob‘ektiv ehtiyojlari bilan bog‘liq jamiyatdagi o‘z-o‘zini anglashdir. Bu ehtiyoj:

- o‘z qarashlariga ega bo‘lish;
- o‘ziga xosliklariga ega bo‘lish;
- unga tegishli bo‘lgan masalalarni hal qilish, uning o‘z darajasini aniqlab olishiga halaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo‘ladi. ¹

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o‘rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro‘y beradi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o‘rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3 asosiy sohada amalga oshadi:

- faoliyat-turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo‘lga kiritish, erkin mo‘ljal olish;

- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirish;

- anglash-shaxsiy «men» obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o‘z ijtimoiy mansubligi va o‘rnini anglash, o‘ziga baho berishni shakllantirish. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo‘lgan ommaviy vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go‘dakni emizish va g‘amxo‘rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o‘rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma‘naviy madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko‘p sonli munosabatlari-muloqot, o‘yinlar, ma‘naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug‘ullanish kiradi. ¹Ma‘lumki, har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruhda ijobiy va salbiy (man etish, ruxsat berish, majburlash) chora-tadbirlarini ishlab chiqiladi.

Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me‘yoriy qoidalarga moslashtiriladi.

NATIJARLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning eng asosiy muammolaridan biri shuki ijtimoiylashtirishning metodologiyasi har doim ham to‘g‘ri tashkil etilmayotganligidadir. O‘quvchilarni ijtimoiylashtirish metodologiyasini har bir pedagog o‘z sinfidagi o‘quvchilarning kelib chiqishi, psixologiyasi va o‘quvchilarning oilaviy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqishi lozim deb o‘ylayman. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari, ayniqsa dastlabki birinchi va ikkinchi yillarda maktab sharoitiga ko‘nikishi qiyin yoki umuman ko‘nika olmayotgan bo‘lishi kuzatiladi. Lekin yana shuni ham aytish kerakki, ayrim bolalar maktabda, dars jarayonida o‘zlarini erkin va qat‘iyatli tutadilarki, lekin oila a‘zolari bilan suhbat olib borilganida oilada juda kamsuqum farzand ekanligini aniqlash mumkin. Demak bola o‘z statuslarini yaxshi anglolmagan yoki shu statusda turishida unda qo‘rquv bor. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bolaning ijtimoiylashuvida oila va maktab birgalikda ish olib borishi zarur. Chunki bola psixologiyasidagi har bir o‘zgarish o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasida muhokama qilinadi. Bola ijtimoiylashuvi metodologiyasini tashkil etishda avvalo o‘quvchilar bilan muntazam suhbat olib borish, o‘quvchilarning shaxsiy fikrini so‘rash, zarur bo‘lgan holatlarda ularga chalg‘ituvchi fikrlar yoki savollar bilan murojaat qilish talab etiladi. Ana shundagina o‘quvchi o‘z fikrini to‘g‘riligini isbotlashga harakat qiladi va shu orqali o‘z shaxsiy dunyoqarashi va fikri shakllanib boradi. Ijtimoiylashuv metodlarini maktabdagi tarbiya darslaridan tashqari yana ko‘plab fanlar mavzulariga singdirilgan holda olib borilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, o‘qish darslarida o‘tilgan har bir mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning fikri va mulohazalari so‘rab borilsa, bora- bora o‘quvchilarning fikridagi teranlik va aniqlik yaxshi tomonga o‘zgarib borishini kuzatish mumkin. “Asar qahramoni haqida fikringiz qanday?”, “Qahramonning o‘rnida siz bo‘lganingizda

nima qilar edingiz?” kabi o‘quvchilarni o‘ylashga, fikrlashga undovchi savollardan har bir mavzuda foydalanib borish zarur. Bola ijtimoiylashuviga yaxshi ta’sir qilish maqsadida guruhlarda ishlash metodidan ham foydalanish zarur. Kichik guruhlar bilan ishlanganda har bir o‘quvchining fikri aniqroq va o‘ziga ishonchi balandroq bo‘ladi. Buning sababi esa, o‘quvchi, ayniqsa kichik boshlang‘ich sinf o‘quvchilari guruhda yetakchi bo‘lishga, o‘z pozitsiyasini guruhga singdirishga harakat ko‘proq qiladi. Shu orqali pedagoglarning o‘quvchilar ijtimoiylashuvidagi kamchiliklari yoki yutuqlarini muntazam ravishda kuzatib borish imkoniyatlari ortadi. Va har bir o‘quvchi bilan alohida ishlashda ham kichik guruhlar samaraliroq hisoblanadi.

Boshlang‘ich maktab yoshida bolaning o‘z harakatlarini mustaqil boshqarishi bolalar qaror, niyat, uzoq muddatli maqsad asosida xatti-harakatlarini allaqachon nazorat qila oladigan darajaga etadi. Bundan tashqari, o‘quv, o‘yin va mehnat faoliyatida to‘plangan tajriba asosida bola muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani rasmiylashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. Taxminan 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan davrda bola o‘z qobiliyatlarining etishmasligini qo‘llaniladigan sa’y-harakatlarni ko‘paytirish orqali qanday qoplash. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi bilan parallel ravishda va uning ta’siri ostida boshlang‘ich maktab yoshida mehnatsevarlik va mustaqillik yaxshilanadi. Mehnatsevarlik, yetarli kuch sarflash va buning uchun mukofot olishda, ayniqsa, maqsadga erishishda qat’iyat ko‘rsatganda, takroriy muvaffaqiyat natijasida yuzaga keladi.

MUHOKAMA

Bola maktabga kirgach, uning atrofidagi odamlar bilan munosabatlarida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘ladi. Avvalo, aloqa uchun ajratilgan vaqt sezilarli darajada oshadi. Muloqot mavzulari o‘zgarmoqda, u o‘yin bilan bog‘liq mavzularni o‘z ichiga olmaydi. Bundan tashqari, III-IV sinflardagi bolalarda his-tuyg‘ularni, tezkor impulslarni va istaklarni cheklash uchun birinchi urinishlar namoyon bo‘ladi. Erta maktab yoshida ularning individualligi kuchliroq namoyon bo‘la boshlaydi. Bilimlarning sezilarli darajada kengayishi va chuqurlashishi mavjud, bolaning ko‘nikmalari yaxshilanadi. III-IV sinflardagi bolalarning aksariyati turli faoliyat turlari uchun ham umumiy, ham maxsus qobiliyatlarni namoyon qiladi.

Bu yoshdagi rivojlanish uchun bolalarning ta’lim, o‘yin, mehnat faoliyatida muvaffaqiyat motivatsiyasini rag‘batlantirish va maksimal darajada qo‘llash kerak.

Boshlang‘ich maktab yoshining oxiriga kelib, maktabning 3-4-sinflarida tengdoshlar bilan munosabatlar bolalar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi va bu erda bu munosabatlardan ta’lim maqsadlarida faol foydalaniladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijtimoiy rivojlanishiga ommaviy axborot vositalari ko‘rinib turibdiki, sotsializatsiya, o‘quvchilarning qadriyat yo‘nalishlari tizimini shakllantirish xususiyatlarini tushunish uchun faqat ta’lim muassasalari doirasida ushbu jarayonlarning mexanizmlarini ko‘rib chiqish bilan cheklanib qolmaydi. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonida shaxs va faoliyat subyekti sifatida shakllanadi. Ijtimoiylashtirish deganda shaxs tomonidan ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirish va ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy rollarni rivojlantirish jarayoni tushuniladi. . .

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarimizga xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda davlatimizda o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bularga javoban esa biz pedagoglardan o‘z kasbimizga mas’uliyat bilan yondashish va har bir o‘quvchini o‘z farzandimizdek ko‘rib, kelajagiga befarq bo‘lmasligimiz zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning metodologiyasini yaratishda eng yangi texnologiya va metodlarni bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda joriy qilinishi har bir pedagogning faoliyatida samarali natijalar kasb etishi shubhasizdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. A. A. AXMEDOV. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA/ [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Amin Axmedov - Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 244 b.
3. Golovanova N. F. , Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijtimoiylashtirish pedagogik muammo sifatida. - SPb. : Maxsus adabiyotlar, 1997. S. 17.
4. Ne‘matova Flora Baxtiyorovna “Ijtimoiy pedagogika” “Fan va ta’lim” nashriyoti Buxoro-2022.
5. K. Turg‘unboyev, M. Tolipov, I. Oxunov “Ijtimoiy pedagogika asoslari” Toshkent-2008.
6. Quronov M. Q. Qurboniyazova Z. Q. Ijtimoiy pedagogika. T. : 2003.

Gulhida Ikromova –
FarDU katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Dilzoda Abduhalilova –
FarDU talabasi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi hamda o‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish, ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o‘stirish haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy asar, adabiy qahramon, g‘oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar, analiz-sintez metodi.*

***Annotation.** This article discusses the methods of analyzing a fiction in the primary school and teaching pupils to work on fiction, the formation and development of skills in literary and aesthetic analysis.*

***Keywords:** fiction, literary hero, ideological basis, composition, plot, visual aids, method of analysis and synthesis.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы анализа художественной литературы в начальной школе и обучение учеников работе над художественной литературой, формирование и развитие навыков литературного и эстетического анализа.*

***Ключевые слова:** художественная литература, литературный герой, идеологическая основа, композиция, сюжет, наглядные пособия, метод анализа и синтеза.*

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o‘quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Psixolog olimlarning tekshirishlaridan ma’lum bo‘lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emostional-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o‘zigina etarli emas. Asarni idrok etish murakkab

jarayon bo‘lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o‘z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o‘quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o‘rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo‘lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emostional munosabat;
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o‘quvchilar o‘z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o‘quvchilarda chegaralangan bo‘ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko‘p ishlatadilar. qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so‘z boyliklari etishmaydi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar bilan tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emostional sifatlarini tasvirlovchi so‘zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

4- sinfda “Qodir bilan Sobir” hikoyasidagi qodir va xususiyatlarini ochishda elementar tahlilga tanlab o‘qish asosida tarmoqlash usulidan foydalanib o‘rgatilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga bergan savollariga javobni doskada tarmoqlash usulida yoritib boladi. Masalan:

- ✓ Qodir qanday bola?
- ✓ Qodirning maqtanchoqligi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing;
- ✓ Qodirning qo‘rqoqligi ifodalangan o‘rinni topib o‘qing;
- ✓ Qodirning yolg‘on gapini Sobir qanday to‘g‘riladi? Shu o‘rinni topib o‘qing;
- ✓ Qodirning zo‘ravonligi ifodalangan o‘rinni topib o‘qing;
- ✓ O‘qigan qismlaringiz asosida qodirning xususiyatlarini isbotlab bering.

Shu savollar asosida doskada quyidagi jadval hosil bo‘ladi:

tozalikka rioya qilmaydi	Papkasining changi bilan sinfga kirmoqchi bo‘ladi
qo‘rqoq	Chetdan qo‘rqib qochadi
Maqtanchoq	“Komandir bo‘laman”, - deydi
zo‘ravon	Darsda kechikkanda yonidagilarni turtadi
yolg‘onchi	“Odamday baliqlarni tutib olganman”, - deydi

O‘qish darslarida o‘qilayotgan asarning ongli o‘zlashtirilishini ta‘minlashda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o‘qituvchi badiiy asarning san‘at asari sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g‘oyaviy asos, kompozistiya, syujet, tasviriy vositalar) o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o‘qish va idrok etishni talab etadi.

«Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O‘quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g‘oya, muammolarni to‘liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi». [1, 59]

O‘quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma‘noni chuqur o‘rganishga yordam beradi. [2, 63]

O‘qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o'rganishni aniqlashi.
5. O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi. [3, 237]

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uchun asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich (birinchi sintez). Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirish dan iborat.

Ikkinchi bosqich (analiz). Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, echim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g'oyasini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'ldik, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta'sirli tarzda etkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abrorov A. Uyg'un bolalar adabiyoti va zamonaviylik. -Toshkent. 1984.
2. Jumaboev N. Bolalar adabiyoti. -Toshkent. 1995.
3. S. Matchonov, X. G'ulomova. Hikoya qanday o'tiladi? //Boshl. ta'l. jurnali. - Toshkent, 2004. - №6.

Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi

Far. DU, Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasini o'qituvchisi

Marupova Sarvinozxon Musojon qizi – Far. DU

Taqrizchi: pedagogika fanlari doktori, professor B. Qurbonova

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHALASH USULIDAN FOYDALANISH SHARTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan ta'lim mazmunida pedagogik loyihalash metodikasini samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va talabalarda loyihalash faoliyatini shakllantirishga bo'lgan qiziqish haqida fikrlar yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется обеспечению эффективности образования посредством эффективного использования методологии педагогического проектирования в содержании образования, которая является движущей силой развития государства. Выделены мысли о заинтересованности в формировании проектной деятельности школьников и студентов в современном образовательном процессе.

Annotation: This article pays special attention to ensuring the effectiveness of education through the effective use of pedagogical design methodology in the content of education, which is the driving force for the development of the state. Thoughts about interest in the formation of project activities of schoolchildren and students in the modern educational process are highlighted.

Kalit soʻzlar: taʼlim mazmuni, pedagogik loyihalash, taʼlim samaradorligi, pedagogik hamkorlik, koʻnikmalarni oʻzlashtirish, shaxsning shakllanishi.

Ключевые слова: содержание образования, педагогический дизайн, эффективность обучения, педагогическое сотрудничество, овладение навыками, формирование личности.

Keywords: content of education, pedagogical design, teaching effectiveness, pedagogical cooperation, mastery of skills, personality formation.

Kirish

Mamlakatimizda boʻlajak pedagoglarda loyihalash kompetentligini rivojlantirish uchun yetarli huquqiy, moddiy-texnik, metodik taʼminot va pedagogik baza mavjud. Loyihalash imkoniyatlarini oshirish uchun oʻquv dasturlari, rejalari, darsliklar mazmunini loyihalash nuqtai nazarida takomillashtirish, pedagogika OTMga abiturentlarni qabul qilishda pedagogik iqtidorini inobatga olish oʻta muhim tadbirlardan hisoblanadi. Oʻquvchi va talabalarni matematika mashgʻulotlarida loyihalash faoliyatiga qiziqtirishning juda koʻp usullari mavjud. Loyihalash faoliyatida loyiha mavzusini tanlash xuquqi, materialni taqdim etish usullari, faoliyatdagi sheriklarni toʻgʻri tanlash kabi erkinliklar boshlangʻich sinf oʻquvchisi qiziqishini ragʻbatlantiradi. Ragʻbatlantirishning samarali usuli bu muammoli vaziyatni yaratishdir. Muammoli vaziyatni yaratish uchun quyidagi usullarga murojaat qilindi:

muammoli savollar (Sizga tanish boʻlgan predmetlarning qaysilari aylana shaklida?);
topishmoqlar (Rasmga qarang va albomga chizing. Uch burchak. Uch tomon. Ularni bir-biriga bogʻlang. Kvadrat emas, balki chiroyli boʻlib chiqdi. . . (uchburchak));

muammoli topshiriq (Toʻgʻri toʻrtburchak, oʻtkir uchburchaklarning “ogʻzaki portreti”ni yasash);

hodisani turli pozitsiyalardan koʻrib chiqish (oʻquvchilar xona va boshqa obyektlarning maydonini hisoblab chiqadi);

nazariy bilim va amaliy faoliyat oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar toʻqnashuvi (uzunligi 4 sm, 6 sm, 6 sm, 3 sm uzunlikdagi chiziqlardan toʻrtburchaklar yasash);

muammoli amaliy topshiriq (sirkul xali ixtiro qilinmasdan doira qanday chizilgan?)

Oʻquvchi va talabalarni matematika mashgʻulotlarida loyihalash faoliyatiga qiziqtirishning juda koʻp usullari mavjud. Loyihalash faoliyatida loyiha mavzusini tanlash xuquqi, materialni taqdim etish usullari, faoliyatdagi sheriklarni toʻgʻri tanlash kabi erkinliklar boshlangʻich sinf oʻquvchisi qiziqishini ragʻbatlantiradi. Ragʻbatlantirishning samarali usuli bu muammoli vaziyatni yaratishdir. Muammoli vaziyatni yaratish uchun quyidagi usullarga murojaat qilindi:

muammoli savollar (Sizga tanish boʻlgan predmetlarning qaysilari aylana shaklida?);
topishmoqlar (Rasmga qarang va albomga chizing. Uch burchak. Uch tomon. Ularni bir-biriga bogʻlang. Kvadrat emas, balki chiroyli boʻlib chiqdi. . . (uchburchak));

muammoli topshiriq (Toʻgʻri toʻrtburchak, oʻtkir uchburchaklarning “ogʻzaki portreti”ni yasash);

hodisani turli pozitsiyalardan koʻrib chiqish (oʻquvchilar xona va boshqa obyektlarning maydonini hisoblab chiqadi);

nazariy bilim va amaliy faoliyat oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar toʻqnashuvi (uzunligi 4 sm, 6 sm, 6 sm, 3 sm uzunlikdagi chiziqlardan toʻrtburchaklar yasash);

muammoli amaliy topshiriq (sirkul xali ixtiro qilinmasdan doira qanday chizilgan?)

ADABIYOTLAR TAHLILI

Loyihada ishlashga undashning yana bir usuli qiziqarli va mazmunli amaliy vazifalarni qoʻyishdir. “Qadimgi Sharq naqshlari” loyihasida oʻquvchilar quyidagi vazifani oldilar: “Shahrimiz markazida, tarixiy maydonda yangi choʻyan panjaralar oʻrnatilgan. Qadimgi Sharq uslubida qilich yasash uchun eng yaxshi naqsh uchun tanlov eʼlon qilindi. Keling, ushbu tanlov uchun eskizlarimizni yarataylik. ” Talabalardan tadqiqotchi boʻlish soʻralganda “Matematik

tadqiqot” usuli xam qo’llanilgan. Masalan, o’quvchilar topshiriqni bajardilar: Aylananing ikkita nuqtasini segment bilan shunday bog’lash kerakki, bu segment aylananing markazidan o’tadi. Agar aylana radiusi ma’lum bo’lsa, ushbu segmentning uzunligini topish mumkin bo’lgan ifodani yozing. Ota-onalarning qiziqishi uchinchi sinf o’quvchilarini loyihalarda yaxshi ishlashga undadi. Shu bois ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib borildi. Dastur loyihalaridan ayrimlari ota-onalar ishtirokida amalga oshirildi, ulardan farzandlari bilan muloqotda loyihalar mazmuniga geometrik tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan suhbatlar, tushuntirishlar olib borish vazifalari so’raldi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantirishda N. F. Talizina tomonidan ishlab chiqilgan va muallif tomonidan takomillashtirilgan matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasiga binoan ijodiy hamda amaldagi mavjud darslik materiallariga tayanib ish ko’rildi. Tadqiqotda tushunchalarni shakllantirishni obyektlardagi barcha turdagi xususiyatlarni tanlash, muhim xususiyatlarni muhim bo’lmaganlardan ajratish bosqichlarni kuzatgan holda amalga oshirdik. Bosqichlar konsepsiya nomini kiritish va uning muhim belgilarini tanlash bilan yakunlanadi.

Konsepsiya bilan tanishtirish. 2-sinfda nuqta, to’g’ri chiziq, ochiq va yopiq egri chiziq, nur, segment, siniq chiziq, to’g’ri va bilvosita burchaklar xaqida tushunchalar shakllantirildi; ko’p burchaklar yopiq siniq chiziqlar sifatida. 3-4-sinfda tekis va uch o’lchamli figuralar, o’tkir va o’tkir burchaklar; aylana tushunchalari shakllantiriladi. Diagnostika natijalari shuni ko’rsatadiki, o’quvchilar bu atamalarning nomlari bilan yaxshi tanish, ammo ularning asosiy xususiyatlari xaqida aniq tasavvurga ega emaslar. 4-sinfda darslik materiali asosida darslarda kub, to’g’ri burchakli parallelepiped, uchburchak turlari xaqida tushunchalarni shakllantirish ko’zda tutilgan.

Loyihalar mazmuniga biz obyektlarning barcha turdagi xususiyatlarini aniqlash, obyektlarni taqqoslash, guruhlash, guruhlash sabablarini aniqlash, turli asoslar bo’yicha tasniflash; muhim xususiyatlarni muhim bo’lmaganlardan ajratish, yetishmayotgan narsani qo’shish, qo’shimchasini izlash, masala tuzish, qarama-qarshi elementni topish, elementni uning qismiga ko’ra tan olish; predmetning berilgan tushunchaga mansubligini aniqlash, berilgan figuraning barcha xossalarni nomlash, figuraning shu xossalarga ega ekanligini aniqlash; tushuncha ostidagi mavzuni umumlashtirish mashqlarni kiritdik.

Quyida “Doira yoki doira chizish” loyahasini tavsiflash vazifalarga misollardan keltirildi. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishda loyihalash usulidan foydalanishning uchinchi sharti – talabalarning loyihalash usuli asosidagi mustaqil amaliy faoliyatini tashkil qilishga qaratiladi. Talabalar loyihalash kompetentligini o’zlashtirish jarayonida mustaqil ishlarning darslik va boshqa manbalar bilan ishlash, (M. E. Jumayevning “Matematika” daftarlari; geometrik masalalar to’plami); ma’lumotnomalar (lug’atlar, ensiklopediyalar) bilan ishlash; Internet saytlari materiallari bilan ishlash (axborot izlash, tahlil qilish, tanlash); o’quv mashqlarini bajarish; topshiriq va mashqlarni tayyorlash; insho yozish (gazetadagi maqola, geometrik ertak, nutq matni); chizma va chizmalarni bajarish (geometrik shakllar namunasi, shaxar atrofidagi xudud rejasi, sirkulsiz doiralar chizish va boshqalar); chizmalar va fotosuratlar bilan albom yaratish; real obyektlarni modellashtirish (piramidaning ochilishi, shaxar ko’chasidagi uylar); kuzatishlar (shaxar ko’chalaridagi geometrik figuralar, aylana shaklidagi o’yinchoqlar, atrofimizdagi tekislik va uch o’lchamli figuralar va boshqalar); kompyuter taqdimotini yaratish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nihoyat, matematik tushunchalarni shakllantirishda loyiha usulidan foydalanishning yana bir sharti loyiha oxiridagi faoliyatni aks ettirishdir. O’quvchilar faoliyatini aks ettirish loyihani bajarish yoki natijalarni taqdim etish paytida amalga oshirildi. Bu yerda quyidagi usullardan foydalanildi: savollarga javoblar (qanday muvaffaqiyatga erishdingiz? Qaytadan boshlagan bo’lsa ngiz, nimani boshqacha qilgan bo’lardingiz? Eng qiziqarlisi nima bo’ldi? va xokazo); Jumlani davom ettiring” texnikasi (“Bizning loyihamiz nihoyasiga yetdi va men aytmoqchiman. . .”, “Bu men uchun. . . kashfiyot bo’ldi”, “Men loyihaning bu mavzusini tanladim, chunki. . .”)da talabalar taklif etilgan jummalarni davom ettirishadi. Bu holat ularning yozma nutqi, tasavvurlari, faoliyatga nisbatan munosabatlarini bilish bilan birga keyingi loyiha jarayonida tegishli korreksion

tadbirlarni amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi. So'ngra o'quvchilarga keyingi loyihalar uchun o'z yo'l xaritasini tuzish, mini insholar yozish kabi topshiriqlar beriladi. Inshoda oldingi faoliyat yuzasidan fikrlarini ifoda qilish maqsadida quyidagi yo'naltiruvchi xarakterdagi reja taklif qilinadi:- Avvaliga shunday fikr yuritdik; - Keyin muammoga duch keldik; - Keyin kuzatdik (taqqosladik, bajardik)...; - Biz ko'rdik (tushundik)... Shunday qilib...; - Endi biz...) va hokazo. O'quvchilarga loyihalash faoliyatiga doir topshiriqlaridan o'zlarini qiziqtirgan mavzularni tanlash va u bilan ishlash imkoniyati, erkinligi beriladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematika mashg'ulotlaridagi loyihalash kompetentligi maqsad va topshiriqlarni bajarish tartibining aniqligi, topshiriqlarning o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga mosligi, turli faoliyatlar uyg'unligi, talabalarning avvalo bilish, qolaversa loyihalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ya'ni, bo'lg'usi ta'lim jarayoni samaradorligi mashg'ulotlarda talabalarning mustaqil individual loyihalash imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova O'., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti– Toshkent: 2014.
2. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T. : «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
3. Shermuhammadov B. Sh., Qurbonova B. Q., Maqsudov U. Q., Qo'chqarova M. A., Sidikova Z. M. Umumiy pedagogika. /Farg'ona: "Classic" nashriyoti-2022. –240 b.
4. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY. (2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
5. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). METHODS OF STUDYING ADDITION AND SUBTRACTION OF TWO-DIGIT NUMBERS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Gospodarka i Innovacje.*, 22, 61-67.

Axmedova Umidaxon Yodgorjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasi o'qituvchi.

Tolipova shoxida - Farg'ona davlat universiteti talabasi

BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASH.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, matematika, texnologiya, mustaqil fikrlash, konstruktiv fikr, masalalar.

Ключевые слова: Критическое мышление, математика, технология, самостоятельное мышление, конструктивное мышление, проблемы.

Keywords: critical thinking, mathematics, technology, independent thinking, constructive thinking, problems.

Annotatsiya: Biz tanqidiy fikrlashni bizga aytilgan va qabul qilingan narsalarning haqiqatini aniqlashga urinish uchun qo'llaymiz uni tushuntirish uchun foydalanilgan fikrni tahlil qilishdan iborat. Maqolada tanqidiy fikrlash nima, uni qanday qilib shakllatirish mumkinligi yoritilgan.

Аннотация: Мы используем критическое мышление, чтобы попытаться определить истинность того, что нам сказали и приняли, анализируя доводы, используемые для объяснения этого. В статье объясняется, что такое критическое мышление и как его можно сформировать.

Abstract: We use critical thinking to try to determine the truth of what we have been told and accepted by analyzing the reasoning used to explain it. The article explains what critical thinking is and how it can be formed.

Tanqidiy fikrlash - bu inson tomonidan ma'lum bir mavzu yoki mavzuga oid mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash qobiliyati, aytilgan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlashga urinish va bu borada mumkin bo'lgan tashqi tarafkashliklarni e'tiborsiz qoldirib, asoslangan fikrga erishish qobiliyati.

Ushbu fikrlash turi, shubha bilan bog'liq, insoniyat o'ziga xosligini yaratishga yordam beradi, rivojlanish davomida paydo bo'ladi va ayniqsa o'spirinlik davrida va u erdan ko'rinadi. Gap dunyoga qarshi turish haqida emas, balki ma'lumotlarni tekshirish va qarama-qarshilik asosida o'z nuqtai nazarimizni ishlab chiqish imkoniyatida. Tanqidiy fikrlash bilan ko'zda tutilgan narsa, tekshirilayotgan ma'lumotlarning ob'ektivligini buzadigan xato va noaniqliklarni yo'q qilishdir.

Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi shuki, u e'tiborsiz bildirilgan fikrlarni, noaniq tushunchalarini va yolg'on argumentlarni aniqlashtiradi va fosh etadi. Lekin uning kamchiligi yaratuvchi va konstruktiv kuchga ega emasligidir. Tanqidiy fikrlash g'oyamizni mustahkamlaydi, ammo konstruktiv, yaratuvchi fikr bilan ta'minlamaydi. Matematik ta'lim jarayonida masalalardan foydalanish qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinadi. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o'rnini haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir.

1. Matematika fanining nazariy qismlarini o'rganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi;

2. Matematika fanini o'rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.

3. Matematikani o'rganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi.

Tanqidiy fikrlash - bu qo'llab-quvvatlash nuqtasi, tabiiy g'oyalar va ma'lumotlar bilan o'zaro aloqa qilish usuli.

Tanqidiy fikrlashning eng batafsil ta'rifi R. Pol tomonidan keltirilgan. U o'zining ilmiy izlanishlarida tanqidiy fikrlash atamasini talqin qildi va quyidagi fikrlarni ta'kidladi:

1) tanqidiy fikrlash – bu fikrlash jarayoni haqida o'ylash;

2) dunyo haqidagi ma'lumotlarning ko'payishi natijasida fikrlash usullari ham o'zgaradi, ular fikrlarni aniq bayon qilish kerak bo'lgan joyda paydo bo'ladi va aql doimiy ravishda rivojlanib boradi.

3) tanqidiy fikrlash – XXI asrda ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning asosi sifatida shakllandi.

Tanqidiy fikrlash ko'plab olimlar (M. Veksler, A. I. Lipkina, L. A. Rybak, U. M. Mungal, A. S. Bayramov) tomonidan fikrlashning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi (samarali, mantiqiy, ijodiy, muammoli). Shaxsiy sifat shaxsning mentalitetini qanday aks ettiradi.

“Fikrlash - bu nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan shaxsning kognitiv faoliyati jarayoni bo'lib, u atrofdagi voqelikni maqsadli, umumlashtirilgan va vositachilik bilan aks ettirish, yangi narsani topish va kashf etishga qaratilgan.” [2]

Rasmiy-mantiqiy rejada faoliyat jarayonida ongni boshqarishi kerak bo'lgan aksiomalar, ya'ni fikrlash, V. Ruggiero tomonidan tashkil etilgan eng aniq aksiomalar aniqlanadi:

1) haqiqat subyektivdan ko'ra obyektivroq, u ixtirodan ko'ra ko'proq kashfiyotdir;

2) agar ikkita hukm bo'lsa (bu erda va hozir bir xil hodisaga nisbatan yoki jarayon) bir-biriga zid yoki ulardan biri noto'g'ri bo'lishi kerak;

3) inson ongi xato qilishi mumkin;

4) g'oyalarning o'z natijalari bor.

Boshlang'ich sinfda matematika bolalarning ongi, nutqi va savodxonligi rivojlanishiga yordam beradi. Matematika darslarida o'quvchilar yakka holda, juft-juft va guruhlarda ta'lim oladilar va tarbiyalanadilar. Ushbu jarayonda o'quvchilar matematikadan dastlabki boshlang'ich bilimlarni egallaydilar. Bu bilimlarni egallash bolalarda hayotiy tasavvurlarini va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Suqrot tanqidiy fikrlash an'anasi uchun kun tartibini belgilab beradi, ya'ni umumiy e'tiqod va taxminlarni aks ettirish va oqilona va mantiqiy e'tiqodlarni izchil dalillar yoki mantiqiy asosga

ega bo‘limgan e‘tiqodlardan ajratish-ular bizning tabiiy egosentrizmimizga murojaat qiladimi yoki bizning manfaatimizga mos keladimi. Ular qanchalik mos bo‘lishidan qat’i nazar, qanchalik qulay va qulay bo‘lishidan qat’i nazar, ularni diqqat bilan ajratib ko‘rsatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pak Kseniya Grigorevna “Tanqidiy fikrlash haqida qarashlar” JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume–35_Issue-1_Avgust_2023.
2. Орлова, В. А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие [Текст] / Б. А. Орекова. - М. : КНОРУС, 2009. - 200 с.
3. Samatov B. T. (2020). The strategy of parallel pursuit for differential game of the first order with Gronwall-Bellman constraints. Scientific Bulletin of Namangan State University 2(4), 15-20.
4. Тажиахматович С. Б. (2021). Задача убегания для дифференциальных игр первого порядка с ограничением гронвулла-беллмана. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 2(6), 1-5.

Eshchanova Nasiba Matnazarovna

Urganch innovatsion unversity,

“Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”

kaferdrasi o‘qituvchisi

eshchanovanasiba@gmail.com

KASBIY ZO‘RIQISH MUAMMOSINING TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy zo‘riqishning kelib chiqishi va kasbiy zo‘riqish muammosining o‘rganilish masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: stress, zo‘riqish, emotsional charchash, kasbiy zo‘riqish, psixoprofilaktika, organizm, muloqot

Аннотация: В данной статье анализируется происхождение профессионального стресса и вопрос изучения проблемы профессионального стресса.

Ключевые слова: стресс, напряжение, эмоциональное истощение, профессиональный стресс, психопрофилактика, организм, общение

Abstract: This article analyzes the origin of occupational stress and the issue of studying the problem of occupational stress.

Key words: stress, strain, emotional exhaustion, occupational stress, psychoprophylaxis, organism, communication

Kirish

Bugungi kunda shaxsning kasbiy zo‘riqish muammosini o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy davrga xos bo‘lgan mehnat faoliyatining xususiyatlariga ko‘ra, ish hajmi va individual ish yukining ortishi, kasbiy faoliyat jarayonining surati, intensivligi, innovatsiyalar ta‘sirida hissiy zo‘riqish va stressli vaziyatlarning namoyon bo‘lishi shaxsning fiziologik va psixologik holatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi insonning nafaqat fiziologik va psixologik holatiga ta‘sir qiladi, balki uning ish doirasidagi kasbiy charchashiga ham sabab bo‘ladi.

Asosiy qism

Zo‘riqish mehnat faoliyatini bajarish jarayonida ish qobiliyatining pasayishidir. Kasbiy zo‘riqish bu – uzoq davom etadigan va to‘xtamaydigan o‘rtacha intensivlikdagi stressorlar (stressga olib keluvchi) ta‘sirida paydo bo‘ladigan xolat bo‘lib ish samaradorligini pasayishiga olib keladi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki kasbiy zo‘riqish asosan intellektual-

komunikativ kasblarning vakillarida kuzatiladi, bular o'qituvchilar, shifokorlar, raxbarlar, jurnalistlar. Kasbiy zo'riqishni tashxislash va davolash mumkin. Buning uchun muntazam dam olish, mutaxassislar bilan maslaxatlashishi va stresslar bilan kurashish kerak. Jahon sog'likni saqlash tashkiloti tomonidan stress tushunchasi "XXI-asr kasalligi" deb baholandi, chunki stress har qanday insonda uchraydi va dunyo kasblari allaqachon bu tushunchani "global epidemiya" deb baholadilar.¹ Stress belgilari ko'pincha insonlar bilan muloqot qiladigan kasb egalarida uchrashi ko'proq kuzatiladi. Kasbiy deformatsiya hissiylik natijasida yuzaga keladi kuchli professional muloqot sharoitida shaxsiy charchash, ko'plab tashqi va ichki omillar ta'siri ostida vujudga keladi.

Shu o'rinda stress tushunchasi nima? degan savol tug'uladi. Stress (inglizcha – "bosim", "kuchlanish", "tanglik") odam va hayvonlarda kuchli ta'sirotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, asabiylik holati. Stress – bu gomeostazni buzish bilan tahdid qiluvchi turli ekstremal omillar ta'sirida yuzaga keladigan tananing o'ziga xos bo'lmagan reaksiyasi va asab va endokrin tizimlar faoliyatida stereotipik o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Organizmda har xil ta'sirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. "Stress" terminini kanadalik fiziolog G. Selye ta'riflab, tibbiyotga kiritgan (1936). Odamda bir xil kuchdagi stress ham xavfli, ham ijobiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun ma'lum bir darajadagi stresslarsiz faol hayot kechirib bo'lmaydi, chunki stresslar bo'lmasligi bu o'lim bilan barobar degan edi – Hans Selye.¹ Tadqiqotlarda aniqlanishicha ijtimoiy soha mutaxassislarining faoliyati asab va ruhiyat tizimiga katta ta'sir ko'rsatar ekan.

Haqiqatdan ham bu mutaxassislarni ish sharoitlari komfort holatidan yiroq, diskomfort fiziologik va psixologik xarakterga ega. Fiziologik diskomfort gipodinamiya, eshitish, ko'rish va ovoz apparatlariga katta yukni tushishi bo'lsa, psixologik diskomfort esa kun davomida uzoq muddat muloqotda bo'lish zaruriyati, turli darajadagi ijtimoiy nizolarga ro'para bo'lish, xar hil yosh, jins va xarakterdagi insonlar bilan muomala qilish va boshqa ijtimoiy, tashkiliy ta'sirlar. Amerika psixologi X. Freydenberger 1974-yilda psixologik amaliyotga "emosional zo'riqish" terminini kiritgan. Bu tushuncha kasbiy faoliyati davomida ko'p miqdorda emosional aloqalar o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan soha vakillarida uchraydigan, stressga olib keladigan salbiy kechinmalarni umumlashtiradi. Asosan insonlar bilan doimiy muloqotda bo'lishga majbur qiladigan kasb vakillari zo'riqishga uchraydilar. Kasbiy zo'riqish keltirib chiqaruvchi omillar va simptomlari nuqtai nazaridan taxlil qilinadi.

Uning fikricha bu kasallik belgilari quyidagicha:

- ishga va atrofdagi insonlarga befarqlik;
- avval ijobiy munosabatda bo'lgan xamkasblariga nisbatan xam keskin negativ munosabat bildirish;
- o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qolishi;

Emosional charchash nazariyasining yana bir asoschisi K. Maslach bo'lib, u charchashni "jismoniy va emosional charchash sindromi, jumladan, o'zini salbiy baholash, mehnatga salbiy munosabat, o'zgalarga nisbatan tushunish va empatiyaning yo'qolishi" – deb ta'riflaydi¹. K. Maslachning fikricha emosional zo'riqishni 3 ta darajaga ajratish mumkin:

1-daraja – asosan ixtiyoriy xulq-atvor funksiyalarini bajarishda namoyon bo'ladi, aloxida paytlarni unitib qo'yish xotiradagi to'xtashlar, harakat va hokazo. Bunday dastlabki simptomlar unga e'tibor, ularni xazillashib "Skleroz deb qo'yaverishadi. Mutaxassisni xarakteri shaxsiy xususiyatlari, faoliyat xarakteri, ruxiy ta'sirlarga qarab bu darajadagi zo'riqish 3-5 yil davomida shakllanishi mumkin.

2-daraja – ishga bo'lgan qiziqish va muloqotga bo'lgan ehtiyoj pasayadi (uydagilar, do'stlar bilan) faoliyat yuzasidan muloqot qiladigan insonlarni ko'rishni istamaydi. Payshanba kuni juma kuniga o'xshaydi, hafta cheksiz davom etayotganga o'xshaydi, haftani oxiriga qarab apatiya xolatini paydo bo'lishi, barqaror, somatik simptomlarni kuzatilishi kuch va g'ayrat yo'qligi asosan hafta oxirida, kechki vaqtda boshni og'rishi, qattiq chuqur uyqu, shamollash kabi kasalliklarni ko'payishi jaxldor va tez g'ashi keladigan bo'lib qolish kabi holatlar kuzatiladi. Kasbiy zo'riqishni bunday darajada shakllanishi 5 yildan 15 yilgacha bo'lgan muddatda yuzaga keladi.

3-daraja – shaxsning mutlaq toliqishi. Ishga va hayotga bo'lgan qiziqish batamom yo'qoladi, emotsional befarqlik, aqliy to'xtash, doimo o'zini kuchsizday sezish. Odam o'zini boshqalardan olib qochadi, muloqotga intilmaydi, yolg'izlikka moyil bo'lib qoladi. 10 yildan 20 yilgacha bo'lgan muddatda kasbiy zo'riqishni mazkur darajasi kelib chiqadi deb xisoblanadi. Shaxsning xissiy zo'riqishlarini o'rganish muammosiga mamlakatimiz psixologlari tomonidan ham alohida e'tibor qaratilmoqda. V. M. Karimova salomatlik psixologiyasi nuqtai nazaridan psixologik zo'riqishlarni inson salomatligiga ta'siri muammosini tadqiq qilib, psixik salomatlikni ta'minlash yo'llari va usullari haqida keng ma'lumotlar keltirgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda kasbiy zo'riqish tushunchasi ko'p qo'llanilib kelinmoqda. Kasbiy zo'riqish asosan insonlar bilan muloqot qiladigan soha vakillarida ko'p kuzatiladi. Ish jarayonidagi turli-hil vaziyatlar, ish yuklamasining ortishi bilan bog'liq xolatlar yoki oiladagi vaziyatlar kasbiy faoliyatda ish samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Kasbiy zo'riqishni oldini olish maqsadida bu holatning profilaktikasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Zo'riqishni oldini olishga qaratilgan psixokorreksion ishlarni olib borish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR

1. Водопьянова Н. Е, Старченкова Е. С. “Синдром выгорания”. – СПб: Питер, 2008. – 336 с.
2. “Pedogoglarda kasbiy zo'riqish va uning korreksiyasi” Baxtigul Nurullayeva “Quvonchbek - Mashxura” MCHJ nashriyoti. Urganch – 2019
3. Маслач К “Профессиональное выгорание как люди справляются Статья” 19784.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Stress>

Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchi: pedagogika fanlari doktori, professor B. Qurbonova

TALABALARDA LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLAR TIZIMINI YARATISH ASOSLARI VA METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan ta'lim mazmunida pedagogik loyihalash metodikasini samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va talabalarida loyihalash faoliyatini shakllantirishga bo'lgan qiziqish haqida fikrlar yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется обеспечению эффективности образования посредством эффективного использования методологии педагогического проектирования в содержании образования, которая является движущей силой развития государства. Выделены мысли о заинтересованности в формировании проектной деятельности школьников и студентов в современном образовательном процессе.

Annotation: This article pays special attention to ensuring the effectiveness of education through the effective use of pedagogical design methodology in the content of education, which is the driving force for the development of the state. Thoughts about interest in the formation of project activities of schoolchildren and students in the modern educational process are highlighted.

Kalit so'zlar: ta'lim mazmuni, pedagogik loyihalash, ta'lim samaradorligi, pedagogik hamkorlik, ko'nikmalarni o'zlashtirish, shaxsning shakllanishi.

Ключевые слова: содержание образования, педагогический дизайн, эффективность обучения, педагогическое сотрудничество, овладение навыками, формирование личности.
Keywords: content of education, pedagogical design, teaching effectiveness, pedagogical cooperation, mastery of skills, personality formation.

Kirish

Mamlakatimiz va xorij olimlari shaxsning turli fan asoslaridan mavjud nazariy bilimlarni mukammal egallashidan ko'ra, ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirishning afzalligini ta'kidlashmoqda. Shu bois, o'tmish mutafakkirlari ijodida pedagogik loyihalash (bevosita atama ishlatilmagan bo'lsa ham) bejizga o'qituvchining yetukligi sifatida qaralmagan. Jumladan, Beruniy, Forobiy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, M. Koshg'ariy, A. Navoiylar ta'lim-tarbiya jarayonini reja asosida amalga oshirish g'oyasi ilgari surilgan. Yuqoridagi fikrlar buyuk ajdodlarimizning komil o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishida pedagogik loyihalashning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u berganligidan dalolat beradi. Buyuk mutafakkirlarning mazkur fikrlari pedagogik loyihalash masalasi qadimdan jahon pedagogikasida dolzarb masala bo'lib kelganidan dalolat beradi. Biz pedagogik jarayonni jamiyat taraqqiyoti bilan hamqadam rivojlantirib, boyitib kelgan buyuk ajdodlarning vorislarimiz. O'qituvchilarni pedagogik loyihalashning mavjud imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o'rgatish maktab ta'limi oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Manbalarda loyihalash faoliyatiga yo'naltirilgan ilg'or metodlar, zamonaviy texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi-talabalarning mustaqil va ijodiy tafakkurini o'stirishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. A. J. Xurramovning ta'kidlashicha: ". . . xabardorlik-bilish asosini tashkil etuvchi bosh g'oya, tabiat va jamiyat aloqadorligini anglab yetish, avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechish, sabr-bardosh, qanoat o'zgalar fikrini hurmatlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash kabi sifatlar shakllantirishga xizmat qiladi". Matematikani o'qitishda mashg'ulotlarni loyihalashtirish asosida tashkil qilish ularning bilish imkoniyatlarini oshiradi, aynan loyihalash usulitalabalarda dars va darsdan tashqari o'quv-biluv jarayonlarini har bir detali yuzasidan to'liq rejalashtirish va uning kechish jarayonini nazorat qilishlariga yordam beradi. Aynan shu izchillik mohiyatan bir-biriga yaqin, faqat pedagogik texnologiyaga nisbatan murakkab tushuncha, u o'zida dars berish usullarining mavjud barcha ijobiy tomonlarini o'ziga singdirib olganligidan dalolat beradi. Uning an'anaviy o'qitish usullaridan asosiy tafovuti dars jarayonida amalga oshiriladigan ta'lim subyektlari o'quv-biluv harakatlari algoritmi mazmuni, ya'ni loyihasi avvaldan vaqt hamda faoliyat nuqtai nazaridan rejalashtirib olinganligida o'z aksini topadi. Talabalarning loyihalash usuli asosida tashkil qilinadigan mashg'ulotlarda o'zlashtiriladigan bilim va amaliy ko'nikmalari ularni bo'lg'usi amaliy pedagogik faoliyatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil qiladiga loyihalash mashg'ulotlariga tayyorlaydi. Yana bir muhim jihat sifatida loyihalash faoliyatiga yo'g'rilgan tadbirlar o'quvchi va talabalarning individul rivojlanishlari, o'z-o'zini obyektiv baholash imkoniyatlarini ham oshirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Ya'ni, o'quvchi yoki talabaning o'zlashtirish holati o'qituvchining doimiy nazoratida bo'ladi va unga tegishli manzilli korreksion tadbirlarni o'tkazish imkonini yaratadi. Tajribali o'qituvchilar tomonidan ishlangan har qanday murakkablikdagi pedagogik texnologiyalarga asoslangan loyihalash mashg'ulotlari barcha talabalarning mavzularni a'lo darajada o'zlashtirishini kafolatlamaydi, lekin texnologik jarayonning obyektivligi, adolatliligi hamda tig'iz va mazmunliligi barcha o'quvchi va talabalarda o'qitish jarayonining adolat mezonlariga asoslanganligi, o'z mavjud qobiliyatiga tayangan holda natijaga erishishiga ishonch hosil qilishlariga sharoit yaratishi aniq. Boisi, loyihalash faoliyatiga asoslangan ta'lim barcha o'quvchi va talabalar uchun o'z imkoniyatlarini ishga solishlari uchun bir xil sharoit yaratadi, erishgan natijalari va olgan baholarining xolisligini ta'minlaydi. O'quvchi va talabalar bilan o'zaro faollik, kengash asosida tashkil qilinadigan matematika fanidan loyihalarni bosh va kichik maqsad aniqligi, ajratilgan vaqt taqsimoti, vazifalar taqsimoti, metod va texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi, dastlabki va yakuniy muhokama, taqdimot yaratish va uni

himoya qilish faoliyati o'zaro uzviylikka asoslanadi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv topshiriqlariga e'tibor qaratish yaxshi samara beradi. Chunki mustaqil egallangan bilim birinchidan ongli o'zlashtiriladi, qolaversa talabalar xotirasida uzoq saqlanish bilan birga ularda bilimlarini boyitish hamda o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Hal qilayotgan muammomiz kontekstida loyihalash faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi elementlarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalariga ham e'tibor qaratdik. Keyingi yillarda aksariyat (ayniqsa nodavlat va qo'shma) OTMda majburiy va tanlov fanlarining barchasi faqat ixtisoslik, mutaxassislik asoslarini o'qitish ga qaratilayotganligini ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin bo'ladi. Aynan shu tajribani bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash amaliyotiga joriy etish vaqt tanqisligi muammosini bartaraf etish orqali mutaxassis tayyorlashga ketadigan muddatlarni qisqartirish, talabalarni ortiqcha va nozarur zo'riqishlardan xolos qilishga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyihalash faoliyatida qo'llaniladigan tahliliy ko'nikmalar talabalarda amaliy-metodik faoliyat sharoitida harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilsa, loyiha faoliyatini amalga oshirishda muammo maqsadi, uni hal qilish faoliyatini rejalashtirish, usul va vositalarni to'g'ri tanlash qobiliyatlari shakllantiriladi. O'quvchi-talabalar tahliliy xarakterdagi o'quv-biluv vazifalarini bajarish ta'lim subyektlariga ular o'zlashtiradigan matematik tushunchalar mohiyati, o'ziga xos xususiyati, qonuniyatlarini anglab yetish, qilishni o'rganadilar. ongli o'zlashtirishda uchrash ehtimoli mavjud muammolarni oldindan bilish (bashoratlash) qilishni o'rganadilar va bartaraf etish yo'llarini aniqlash, ularga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rishni bilib oldilar.

Loyihalash faoliyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mashg'ulotlarda o'quv chilarning bilish imkoniyatlarini tashxis qilish, ulardan mashg'ulotlarda samarli foydalanish qobiliyatlarini takomillashtiradi. Shu bilan birga, o'zlashtirilayotgan tushuncha yoki operatsiyalar tizimi asosiy xususiyatlari, dars mavzusini aniqlash, o'quv materialni o'zlashtirish, o'quvchilarning qiyinchiliklari va ehtimoliy xatolarini bashorat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini topshiriq bilan tanishtirishda foydalanadigan tushuncha va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha maxsus ish olib borish kerak. Maktab o'quvchilarining vazifa bilan tanishishga tayyorligi ularda o'qish qobiliyati, qo'shish va ayirish amallarining ma'nosi, "qo'shish. . .", "ayirish. . ." tushunchalari haqidagi fikrlar, asosiy aqliy operatsiyalar, predmetli vaziyatlarni tasvirlash va ularni diagrammalar va matematik belgilar tiliga tarjima qilish, matnli vaziyatlarni mavzu va jadvalli modellarga o'tkazish qobiliyati shakllanishini nazarda tutadi. Buning uchun talabalarga boshlang'ich sinf matematika darsliklari yoki boshqa manbalardan o'quvchilarda yuqoridagi ko'nikmalar shakllantirishga xizmat qiladigan topshiriqlarga misollar topish vazifasi beriladi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarni loyihalash faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan matematik topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

Agar $a=801+802+\dots+819+820$ va $b=501+502+\dots+529+530$ bo'lsa, $a+b$ ni toping.

1-usul- berilgan qiymatlarni maydalab yozib olamiz:

$$a=801+802+\dots+819+820$$

$$b=501+502+\dots+519+520+521+522+\dots+529+530$$

qo'shishda o'rin almashtirish va guruhlash qonunlari o'rin li ekanligidan foydalanib, quyidagicha ish qilamiz:

$$a=801+802+\dots+819+820$$

$b=520+519+\dots+502+501+521+522+\dots+529+530$ tagma-tag hisoblaymiz va qavslarni ichidagi natijalarga e'tibor qaratamiz :

$$a+b=(801+520)+(802+519)+\dots+(819+502)+(820+501)+$$

$521+522+\dots+529+530=1321+1321+\dots+1321+1321+ 521+522+\dots+529+530= <1321$ yig'indi nechta ekanini fikrlaymiz va 20 ta ekanini topamiz. Qo'shish yoki ko'p aytirish usulidan foydalanib bajaramiz. Qolgan yig'indini ham qulay usulda hisoblaymiz.

$=20 \cdot 1321 + (521+530) + (522+529) + (523+528) + (524+527) + (525+526) = 26420 + 1051 \cdot 5 = 26420 + 5255 = 31\ 675$ natijani hosil qilamiz.

2-usul: a va b larni alohida-alohida hisoblaymiz. Keyin qo'shamiz. a va b larni hisoblashda hisoblashning qulay usulidan guruhlash usulidan foydalanamiz:

$a = 801 + 802 + \dots + 819 + 820 = (801+820) + (802+819) + (803+818) + (804+817) + (805+816) + (806+815) + (807+814) + (808+813) + (809+812) + (810+811) = 1621 + 1621 + \dots + 1621 + 1621 =$ <yig'indida nechta had borligini va har ikkita had birga hisoblanayotganini hisobga olamiz, demak 20 ta had bor va har ikkitasini birga hisoblasak 10 ta had bo'ladi. Bundan $10 \cdot 1621$ ekani kelib chiqadi $\geq 10 \cdot 1621 = 16210$ hosil bo'ladi.

$b = 501 + 502 + \dots + 529 + 530 = (501+530) + (502+529) + (503+528) + (504+527) + (505+526) + (506+525) + (507+524) + (508+523) + (509+522) + (510+521) + (511+520) + (512+519) + (513+518) + (514+517) + (515+516) =$ <yig'indida nechta had borligini va har ikkita had birga hisoblanayotganini hisobga olamiz, demak 30 ta had bor va har ikkitasini birga hisoblasak 15 ta had bo'ladi. Bundan $15 \cdot 1031$ ekani kelib chiqadi $\geq 15 \cdot 1031 = 10310 + 5155 = 15465$ hosil bo'ladi. Endi hosil bo'lgan a va b larni qo'shamiz: $a+b = 16210 + 15465 = 31\ 675$ hosil bo'ladi.

Loyihalash asosida o'qitish vositalari va usullarining yo'naltirish funksiyalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quv jarayonini tashkil etishning ehtimoliy usullari, o'rganilayotgan mazmunga mos keladigan topshiriq turlari to'g'ri sidagi bilimlarni yangilashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, loyihalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi bu muayyan mavzu, bo'lim yoki yaxlit olingan fanni mukammal o'rganishda n iborat bo'ladi. Bunga erishishda ta'lim subyektlarining o'zaro hamkorligi, o'qituvchining yetakchilik roli, talabalarning tashabbuskorligi, maqsad, unga erishish yo'llari ning to'g'ri belgilanishi, natijalarni qo'lga kiritishdagi faolligi, mustaqil izlanishi, tahlil qobiliyatlari, o'qituvchining jarayonni obyektiv baholashi, talabalarning refleksiv ko'nikmalari majmuasi loyihalash faoliyatining asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova O' , Usmonboyeva M. , Raxmatova X. , Ehsonova F. , Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti– Toshkent: 2014.
2. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T. : «Turon-Iqbol», 2006. -592 b.
3. Shermuhammadov B. Sh. , Qurbonova B. Q. , Maqsudov U. Q. , Qo'chqarova M. A. , Sidikova Z. M. Umumiy pedagogika. /Farg'ona: "Classic" nashriyoti-2022. –240 b.
4. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS. , & kizi, AUY. (2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
5. Qizi, D. M. S. , & Qizi, R. G. X. (2022). METHODS OF STUDYING ADDITION AND SUBTRACTION OF TWO-DIGIT NUMBERS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje*. , 22, 61-67.

Bekberganova Nazokat Oybek qizi

Urganch innovatsion unversity,

"Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi"

kaferdrasi o'qituvchisi

[*bekberganovanazokat8@gmail.com*](mailto:bekberganovanazokat8@gmail.com)

O'QUVCHILARNI ERTAKLAR YORDAMIDA KOMMUNIKATIV NUTQINI MEDIATEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning ertaklar orqali kommunikativ nutqini rivojlantirish usullari va ertaklarni mediatexnologiyalar vositasida o'rgatish orqali o'quvchi bilan o'rganishning qulay va samarali bo'lishini ta'minlash yo'llari ochib berilgan. Bu maqola o'quvchilarning suhbat qilish, muloqotlar olish va diqqatni jalb etish ko'nikmalarini rivojlantirishda ertaklar yordamida va mediatexnologiyalardan foydalanishning o'rganish jarayonini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, xalq og'zaki ijodi, ertak, axloqiy sifatlar, ertak matni, og'zaki hikoya, savol-javob, nutq o'stirish.*

Аннотация: В данной статье раскрываются методы развития коммуникативной речи учащихся посредством сказок и способы обеспечения комфортного и эффективного обучения с учеником путем обучения сказкам посредством медиатехнологий. В данной статье основное внимание уделяется координации учебного процесса использования медиатехнологий с помощью сказки в развитии коммуникативных навыков учащихся, коммуникативных навыков и внимания.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык и грамотность чтения, фольклор, сказка, нравственные качества, сказочный текст, устный рассказ, вопросы и ответы, речевое развитие.

Abstract: In this article, the methods of developing students' communicative speech through fairy tales and ways to ensure comfortable and effective learning with the student by teaching fairy tales through media technologies are revealed. This article focuses on the coordination of the learning process of the use of media technologies with the help of fairy tales in the development of students' communication, communication and attention skills.

Key words: *primary education, mother tongue and reading literacy, folklore, fairy tale, moral qualities, fairy tale text, oral story, question and answer, speech development.*

Kirish. Ma'lumki, ertaklar xalq og'zaki ijodiyotining eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan janrlardan biridir. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik turiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati – voqeabandligi, biror voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g'aroyib, jozibali qilib, kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan qilib aks ettiradi.¹

Asosiy qism. Ertak xalq og'zaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. Ertakka shunday ta'rif beriladi: Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, didaktik g'oya tashuvchi, og'zaki hikoyacha. Har birimiz bolalik vaqtimizdan ertak eshitib o'samiz. Bolalarni ovutish uchun kattalar ertak aytib beradilar, bolalar ham ulg'ayib, maktabga bora boshlagan vaqtlaridan kichik-kichik ertaklarni o'zlari ayta boshlaydilar Ertakning voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi.¹

Boshlang'ich sinflardagi ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari o'rganilishi lozim bo'lgan materialning mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich sinflarda ko'plab ertaklar o'rganiladi. Xususan, 1-sinfda “Ertaklar yaxshilikka yetaklar”, “Ertaklardan ol saboq”, “Zukko bo'lg'in, bolajon”, “Rivoyatda ibrat bor”, “Odobning boshi til”, “Kiyinish odobi”, “Odobli bola” (*audiomatn*), “Rostgo'ylik inson ko'rki”, “Orastalik qanday soz”, “Yomon odatdan saqlaning”, “Maqtanchoq bo'lmang”, “Vaqtdan unumli foydalaning”, “Yaxshilik qilish – odob-axloqdan”, 2-sinfda “Aqli sichqoncha”, “Chiroqning uyi qayerda?”, “Mashinalar odamlarga qanday yordam beradi?”, “Gulzor shahrining mittilari”, “Ilmsizlik zulmati”, 3-sinfda “Oyog'i osmonda bo'lgan sichqonlar”, “Yaxshilik”, 4-sinfda “Vatan mehri”, “Marvarid”, “Qarg'a va paxta”, “Yetti xazinaning biri”, “Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt” kabi ertaklar

o'rganiladi. Ertaklar o'quvchilarning kommunikativ nutqni rivojlantirishda katta tasir ko'rsatadi. Ayniqsa, ertaklarni o'rgatishda mediatexnologiyalardan foydalanilsa, juda yaxshi samara beradi. Masalan, "Uch og'ayni botirlar" ertagining multfilmi ham bor. Ana shu ertak barchamizning ko'z oldimizda birdek gavdalanadi va esimizdan chiqmaydi. Bunga sabab ertakning multimedia ko'rinishi borligi. Multimedia formatdagi ertaklar, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, ko'nikmalarini rivojlantirish va ma'lumotlarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hok.

Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);

Xulosa. Multimedia formatdagi ertaklar, masalan, video darslar, interaktiv ta'lim o'yinlari va animatsiyalar, o'quvchilarga kommunikativ ko'nikmalarini oshirish va rivojlantirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu metodikalar o'quvchilarga nutqni rivojlantirish jarayonida faol ishtirok qilish, o'z fikr va ko'nikmalarini bayon etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR

1. Imomov K. , Mirzayev T. , Sarimsoqov B. , Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetic ijodi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1990.

2. S. Shamsutullayeva "BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK O'QITISH METODIKASI", "Ustozlar uchun" jurnali, 2023.

3. M. Jumaniyozova "Boshlang'ich ta'limda ertaklarni o'qitishning maqsad va vazifalari", SCIENCE AND INNOVATION jurnali, 2022.

4. U. B. Aydarova "O'qish savodxonligi", 1-sinf darslik, 2023

5. U. B. Aydarova "O'qish savodxonligi", 2-sinf darslik, 2023

6. M. E. Tairova "O'qish savodxonligi", 3-sinf darslik, 2023

7. M. E. Tairova "O'qish savodxonligi", 3-sinf darslik, 2023

Avezova Baxtigul Xolmurotovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrası
Psixologiya fani o'qituvchisi

SHAXSIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISHINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonning o'zini o'zi anglashi, baholashi, Men konsepsiyasi haqida aytilgan. Inson anglaganda umumiy ma'noda o'zining barcha xususiyatlarini anglashi nazarda tutiladi. Xarakteri, qobiliyat, xulq-atvori, o'zini tutishi, o'zini nazorat qila olishi, boshqara olishi, milliy urf-odat va an'analar, qadriyatlarni ham anglay olishi nazarda tutiladi. Inson zoti har bir vaziyatga va jarayonga ongli yondasha oladi. Aynan o'zini anglash to'g'ri xulosa chiqara olish va qaror qabul qila olish, o'zini anglab baholagan holda kamchiliklarini to'g'rilab ijobiy hislatlarni

o'zida shakllantira olish hamma vaqtda o'ziga ishonib boshqalar fikriga qaramasdan o'zini to'g'ri baholay olishi haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar. «Men-konsepsiyasi», xulq-atvor, O'zini o'zi boshqarish, o'zimizni rag'batlantirish, shaxs nazorat, emotsional, o'zini hurmat, kognitiv, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, fenomen faoliyatni, orientatsiya.

Ключевые слова. “Я-концепция”, поведение, самоконтроль, самомотивация, личностный контроль, эмоциональная, самооценка, познавательная, "способность к самоконтролю", феномен активности, ориентация.

Keywords. "I-Concept", behavior, self-control, self-stimulation, personality control, emotional, self-esteem, cognitive, " self-control ability, phenomenon activity, orientation.

KIRISH. Ijtimoiy mavjudot sifatida inson butun umri davomida atrofdagi odamlar tomonidan nazorat qilinadigan ob'ekt hisoblanadi. Jamiyat nazorati ostida shaxsni o'qitish va tarbiyalash, uning kasbiy faoliyatda bandligi, kundalik hayotdagi xatti-harakatlari mavjud.

Boshqa tomondan, shaxsning o'zi nazorat sub'ekti sifatida boshqarish mexanizmlarining tashuvchisi hisoblanadi. Shu bilan birga, nazorat yo'nalishi boshqacha bo'lishi mumkin: tashqi va o'ziga [15].

Birinchi holda, shaxs uchun boshqaruv ob'ekti boshqa odamlarning xatti-harakati va faoliyati, ijtimoiy, tabiiy, texnik tizimlardagi jarayonlarning xarakteridir. Bir qator kasblar mavjud bo'lib, ularning asosiy mazmuni nazorat funksiyasidir. Masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi; ishlab chiqarishda texnik nazorat bo'limi xodimi, boshqa xodimlarning mahsulot sifatini tekshirish; texnik tizimning to'g'ri ishlashini nazorat qilish rejimida ishlaydigan inson operatori va boshqalar. Lekin inson uchun nazorat ob'ekti ham uning harakatlari va harakatlari, unga xos bo'lgan ruhiy hodisalardir.

Aynan ikkinchi holatda, inson o'z aqliy sohasini boshqarganida, biz o'z-o'zini nazorat qilish bilan shug'ullanamiz. Bir kishida nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni ajratish mutlaq emas. Keling, ushbu fikrni texnik vositalarning ishlashini nazorat qiluvchi inson operatori faoliyati misolida tushuntirib beraylik. Boshqarish maqsadida operator o'zi qabul qilgan signallarning tasvirlarini ma'lumotni ko'rsatish va boshqarish ob'ektining haqiqiy holati, unda sodir bo'layotgan jarayonlarning tabiati to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish vositalaridan taqqoslaydi; Xotiradan olingan tegishli tasvirlar bilan, uning ishlash algoritmiga ko'ra, hozirgi vaqtda aslida nima sodir bo'lishi kerak, texnik tizim qanday holatda bo'lishi kerak.

Shunday qilib, boshqaruv panelidan operatorga tashqaridan kelayotgan ob'ektiv ma'lumotlar uning ongida aks ettiriladi va o'zgaradi. Muayyan ko'rsatkichni nazorat qilishni tugatgandan so'ng, operator uning natijasi bilan qoniqishi va tizimning boshqa parametrlarini tekshirishga o'tishi mumkin. Ammo u bir yoki boshqa parametrlarning o'zgarishini nazorat qilib, o'zini bitta taqqoslash bilan cheklamasligi mumkin.

ASOSIY QISM. Haqiqatan ham, operatorning axborotni qayta ishlash sub'ekti sifatida olingan natijalarga munosabati ishonch hissi - noaniqlik tajribasida ifodalanadi. Shu sababli, nazorat natijasi (nima sodir bo'lishi va nima bo'lishi kerakligi o'rtasidagi tafovutning mavjudligi yoki yo'qligi) operator tomonidan turli sabablarga ko'ra shubhalanishi mumkin. Umumiy holda, bu sabablar ob'ektiv (masalan, idrok qilish uchun qiyin sharoitlar) yoki sub'ektiv (masalan, mas'uliyatni oshirish) xarakterga ega. U tomonidan amalga oshirilgan nazoratning to'g'riligiga shubha qilgan operator o'z natijasini qayta tekshirish yo'lidan boradi, ya'ni o'zini o'zi boshqarishga o'tadi.

Shunday qilib, nazorat natijasi o'z-o'zini nazorat qilish ob'ektiga aylanadi. O'z-o'zini nazorat qilish yordamida operator axborotni qayta ishlash sub'ekti sifatida o'z ishining xatosizligiga erishadi. Operator o'zini o'zi boshqarishga nafaqat ish holatini adekvat aqliy aks ettirish, shu jumladan o'zi tomonidan boshqariladigan ob'ektning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilganligiga ishonch hosil qilish uchun, balki ishonch hosil qilish uchun (aqliy jihatdan) murojaat qiladi.) u texnik vositalarga keyingi ta'sirlarning tabiati to'g'risida

qarorni to'g'ri qabul qildimi va nihoyat, tanlangan ta'sirlarni to'g'ri (ya'ni, o'zi mo'ljallangan) bevosita amalga oshiryaptimi.

O'z-o'zini boshqarishni tizim sifatida ko'rib, N. M. Peysahov tarkibiy-funksional birlikni tashkil etuvchi o'zaro ta'sir qiluvchi komponentlar to'plamini nazarda tutadi, ularning xususiyatlari alohida tarkibiy qismlarning xususiyatlarini qo'shish natijasi emas, balki ularning tashkiliy o'zaro ta'sirining mahsuli sifatida ishlaydi. ma'lum bir yo'l. Shu bilan birga, muallif "o'zini-o'zi boshqarishni o'zaro bog'langan bo'g'inlarning muzlatilgan tuzilmasi emas, balki jarayon sifatida ko'rish zarurligini ta'kidlaydi [18,19].

Yagona yaxlit jarayonning barcha bosqichlari oldingi bosqichlarni o'zgartirilgan, o'zgartirilgan shaklda o'z ichiga olgan tobora murakkab tashkilotlardir». Muallif o'z-o'zini boshqarishning to'liq tsikliga sakkizta havolani o'z ichiga oladi: qarama-qarshiliklarni tahlil qilish yoki vaziyatda yo'nalish, prognozlash, maqsadni belgilash, rejalashtirish, qaror qabul qilish, yong'in mezonlari, o'zini o'zi boshqarish va tuzatish. Shu bilan birga, o'z-o'zini boshqarish jarayoni algoritmlarni yaratishni o'z ichiga oladi va o'zini o'zi boshqarish jarayoni bilan birgalikda o'zini o'zi o'zgartirishning yaxlit tizimini shakllantiradi, bu shaxsni sub'ektiv va ob'ektiv ehtiyojlarga mos ravishda amalga oshirishga imkon beradi.

Demak, o'z-o'zini boshqarish va o'zini o'zi boshqarish ikki xil jarayon emas, balki shaxs faoliyatining ikki tomoni, uzluksiz rivojlanishda o'zgaruvchan va barqaror bo'lgan insonning sub'ektiv dunyosining dialektik birligidir. Maqolamiz uchun o'zini o'zi boshqarish masalasini ko'rib chiqishda o'zini o'zi boshqarishning shaxsiy hodisa sifatida rivojlanishini aks ettiruvchi "o'zini o'zi boshqarish qobiliyati" atamasiga murojaat qilish muhim ko'rinadi.

L.D.Stolyarskoning fikricha, o'zini-o'zi boshqarish tizimi shakllana boshlaguncha, unga ehtiyoj paydo bo'lishi kerak. Bunday ehtiyoj haqiqatdan ham odatiy, ilgari o'rnatilgan aloqa usullari va vositalari, xatti-harakatlari va faoliyati "ishlamasa", muvaffaqiyatga olib kelmasa paydo bo'ladi. Insonda o'z harakatlari va harakatlaridan norozilik, o'zidan norozilik hissi mavjud. Inson "sinov va xato" usuli bilan harakat qila boshlaydi, ma'lum va noma'lum yondashuvlarni, texnikalarni saralaydi. Ular muvaffaqiyatga olib kelmasa, u holda mavjud vaziyatni oqilona tahlil qilishga, vaziyatni tahlil qilishga, maqsadni ishlab chiqishga va bu vaziyatni maqsadli ravishda o'zgartirishga yoki o'zini o'zi boshqarishga o'tish zarurati paydo bo'ladi. Shu paytdan boshlab o'z-o'zini boshqarish tizimi shakllana boshlaydi, u sakkizta ketma-ket rivojlanuvchi bosqichni o'z ichiga oladi: qarama-qarshiliklarni tahlil qilish, prognozlash, maqsadni belgilash, mezonlarni shakllantirish, sifatni baholash, qaror qabul qilish, nazorat qilish va tuzatish [9].

O'z-o'zini boshqarish tizimining tarkibiy elementlariga quyidagi xususiyatlar kiradi:

1. Qarama-qarshiliklarni tahlil qilish - tashqi sharoitdagi qarama-qarshiliklarni aniqlash va mavjud vaziyatning sub'ektiv modelini yaratishga qaratilgan aqliy harakat;

2. Prognozlash - bu mumkin bo'lgan kelajak modellarini shakllantirishga qaratilgan aqliy faoliyat, ya'ni sub'ektning muayyan harakatlari bilan nima sodir bo'lishini taxmin qilish;

3. Maqsad qo'yish ham sub'ektning zaruriy, orzu qilingan kelajak modellarini shakllantirishga qaratilgan aqliy faoliyatidir. Taxminlarga ko'ra, sub'ekt ierarxik tarzda tashkil etilgan modelni yaratadi, bu maqsadlarning (strategik, taktik va tezkor) "daraxt" mavjudligini nazarda tutadi.

4. Rejalashtirish - bu bo'g'indagi aqliy faoliyat natijasi - bu maqsadlarning har biriga erishish uchun qadamlar ketma-ketligi va maqsadga erishish yo'lidagi zarur resurslarni hisobga olgan holda reja (moddiy, vaqtinchalik, jismoniy).

5. Sifatni baholash mezonlari - bu bosqichda sub'ekt ob'ektiv voqelikning qaysi hodisalari harakatning undan uzoqda emas, balki shakllangan maqsad sari yo'naltirilganligi belgisiga aylanishi mumkinligini hal qilishi kerak.

6. Qaror qabul qilish - ichki faoliyat rejasining tashqi rejaga o'tish bosqichi; O'z-o'zini nazorat qilish - bu shakllangan muvaffaqiyat mezonlari bilan solishtirish uchun tashqi sharoitdagi (atrof-muhit) ob'ektiv o'zgarishlar haqida ma'lumot olish jarayoni.

7. Tuzatish - bu sub'ektning tashqi faoliyatida va o'zini o'zi boshqarish tizimining o'z bo'g'inlarida o'zgarishlarga olib keladigan bosqich, agar real o'zgarishlar ilgari belgilangan maqsadga muvofiq bo'lmasa.

Tizimning bosqichlari o'z-o'zini boshqarishning to'liq tsiklidan o'tgandan so'ng, vaziyatni yangi tahlil qilish, prognozlash, maqsadlarni belgilash va boshqalar boshlanadi. Bu tsikllar individual aloqalarni yaxshilash zarurati, o'zini o'zi boshqarish jarayonining bosqichlari yo'qolguncha takrorlanadi.

Yuqoridagi bosqichlarni ajratish ularning avtonomiyasini anglatmaydi. Taqdim etilgan barcha komponentlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan. V. D. Shadrikov tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek, parchalanishning mumkin emasligi, bu hodisaning tizimli tabiatining natijasidir.

Binobarin, tanlangan komponentlar faoliyatni boshqarishning operatsion mexanizmi faoliyatining alohida jihatlari bo'lib, uning sifat jihatidan tizimli xususiyatlarini jamlagan holda tavsiflaydi.

Ko'rinib turibdiki, mualliflar o'zini o'zi boshqarish hodisasini tarkibiy-funksional yondashuv orqali ko'rib chiqadilar. Bu shuni anglatadiki, o'zini o'zi boshqarish - bu "bajaruvchi" ga maqsad qo'yishni ta'minlash va sub'ektning ongi va psixikasida uning faoliyati modelini yaratish va dinamik ravishda saqlash orqali uni amalga oshirishni tashkil etish uchun mo'ljallangan, funksional aloqalarning o'zaro ta'sirini amalga oshiradigan yaxlit tizim.

Shunday qilib, o'zini o'zi boshqarish fenomenini faoliyatni boshqarishning tezkor mexanizmi sifatida tushunishning kaliti: sub'ektivlikning namoyon bo'lishi, shaxsning faoliyatning turli shakllarini namoyon qilish orqali o'zini o'zi o'zgartirishni ta'minlaydigan faoliyatni mustaqil boshqarish qobiliyatidir. Shaxsning o'z-o'zini ongining ichki qarama-qarshiliklarini hal qilishda, bu unga sub'ektiv va ob'ektiv ehtiyojlarga adekvat o'zini o'zi amalga oshirish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'smirning ulg'ayishi ko'p jihatdan muammo va qiyinchiliklarni, stressli yuklarni, xafagarchilikni keltirib chiqaradigan vaziyatlarni engish qobiliyati va tayyor echimlar mavjud bo'lmagan hollarda ijodiy va konstruktiv bo'lish qobiliyati bilan belgilanadi. Muammo va qiyinchiliklarning mavjudligi o'smirlikning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bular hayotning ma'nosi, undagi o'rni va tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar bilan bog'liq kundalik tajribalar, o'zining tashqi ko'rinishi va shaxsiy xususiyatlari, bo'sh vaqtdagi xatti-harakatlari va o'zini o'zi anglash istiqbollari haqidagi global savollar.

Hozirgi vaqtda rus psixologlari tadqiqotlarida shaxsga tizimli-strukturaviy yondashuvni amalga oshiradigan tadqiqotlar ustunlik qiladi. Bu asarlarda shaxs ma'lum munosabatlarda bo'lgan turli belgi va xususiyatlarni o'z ichiga olgan yaxlit tarkibiy shakllanish sifatida qaraladi (B.G. Ananiev, V.N. Myasishchev, K.K. Platonov, S.L. Rubinshteyn, V.S.Merlin, A.N.Leontiev, A.G.V.Shorox, E.G.V.Shorox, va boshqalar).

Shaxs tarkibidagi qadriyat yo'nalishlarining o'rnini ko'rsatib, B.G.Ananiev shunday yozgan edi: "...shaxsning ma'lum qadriyatlarga yo'naltirilganligi uning qadriyat yo'nalishlarini tashkil qiladi"[15;17].

Shaxsning umumiy tuzilishida orientatsiya qanday o'rin tutadi?

K.K.Platonov shaxsning munosabatlari va axloqiy fazilatlarini bilan bir qatorda "mutlaq ijtimoiy shartli" quyi tuzilmaga yo'naltirilishini o'z ichiga oladi. Orientatsiya - bu shaxsiyatning umumiy tuzilishidagi yakuniy bo'lib, u biologik xususiyatlarning quyi tuzilmalarini, aks ettirish shakllarining individual xususiyatlarini, shuningdek, tajriba quyi tuzilmasini o'z ichiga oladi [20].

AG Kovalyov orientatsiyani shaxsning tarkibiy qismi sifatida tushunadi. Orientatsiya u ehtiyojlar, manfaatlar va ideallar tizimi sifatida qaraydi [9].

V.S.Merlin , shuningdek, boshqa mualliflar asarlarida orientatsiya shaxs tarkibiga kiritilgan bo'lib, u shaxs xususiyatlarining o'zaro bog'lanishi va tashkil etilishi tushuniladi. Har bir xususiyat bir vaqtning o'zida yo'nalish, xarakter, qobiliyatning ifodasidir [3].

Shaxsning tuzilishi haqida gapirganda, B.D.Parigin ikkinchisini dinamik shakllanish deb hisoblaydi. Muallif shaxsning yo'nalishi va pozitsiyasini, me'yorlar, rollar, munosabatlar va

qiymat yo‘nalishlari, holatlar va munosabatlar tushunchalarini dinamik integral tuzilishga kiritadi. Bu parametrlar shaxsning ruhiy munosabatini shakllantiradi, uni munosabatlar ansambli deb hisoblash mumkin.

Shaxsning psixologik tuzilishini N.I.Nepomnyashchaya nuqtai nazaridan psixologik voqelikning uchta asosiy jihatining birligi sifatida tavsiflash mumkin: faoliyat, ong, shaxsiy soha, bu yo‘nalish va o‘z-o‘zini anglash bilan belgilanadi. Shaxs yo‘nalishining birligini, unga voqelikning ma‘lum bir tomonini, ma‘lum munosabatlarni va o‘zini o‘zi izolyatsiya qilish orqali ongni aniqlash uchun muallif "qadriyat" tushunchasini shaxs tuzilishining alohida tarkibiy qismi sifatida kiritadi. Qadriyat shaxsning asosiy xususiyati bo‘lib, uning yo‘nalishini ham belgilaydi [12].

B.G.Ananiev shaxs mansub bo‘lgan ijtimoiy yaxlit ijtimoiy muhitning individlararo tuzilishini, shaxsning o‘zi esa intraindividual tuzilishini ajratib ko‘rsatdi. Bu tuzilmadagi belgilovchi va yetakchi tamoyil insonning ijtimoiy funksiyalari maqomi va majmuasi asosida shakllangan ijtimoiy fazilatlaridir [7].

Bu shaxsiy xususiyatlarning barchasi - maqom va ijtimoiy funksiyalar - rol, xulq-atvor motivatsiyasi va qiymat yo‘nalishlari, munosabatlarning tuzilishi va dinamikasi - shaxsning dunyoqarashini, uning hayotiy yo‘nalishini belgilaydi. Xarakterning aks ettiruvchi xususiyatlari uning tuzilishini to‘ldiradi va uning yaxlitligini ta‘minlaydi.

Bu xususiyatlar hayot va faoliyat maqsadlari, qadriyat yo‘nalishlari, munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlanishni nazorat qilish funksiyalarini bajaradi, shaxsning birligini shakllantirish va barqarorlashtirishga yordam beradi. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tari-xi, ma‘naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlarini, an‘-analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne‘matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e‘tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma‘naviy boyliklar majmuasi”. “Qadriyat inson va jamiyat ma‘naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriyatini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”, - degan ta‘riflar berilgan [15]. Bu esa, o‘z navbati-da, qadriyatlarining ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlar bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma‘naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Keyingi vaqtlarda O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga e‘tibor ku-chaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Qadriyatlarni faqat moddiy va ma‘naviy boyliklar sifa-tida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ma‘lumki, qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi.

Shunday bo‘lsada, qadriyatlarining eng oliysi insonning o‘zi, hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug‘lash jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Harakatlar strategiyasi” – islohotlarning yangi bosqichi bo‘lib, unda aholini, oilalarni ma‘naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash etakchi o‘rinni egallaydi. SHu o‘rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari xodimlarining uyma-uy yurib, xalq dar-dini tinglash, og‘irini engil qilish, moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari yo‘lga qo‘yildi.

G‘ulomxon G‘ofurov milliy an‘analarga bag‘ishlangan maqolalaridan birida milliy qadriyatlarining quyidagi ko‘rinishlarini tilga olgan:

- 1) tabiiy qadriyatlar;

- 2) iqtisodiy qadriyatlar;
- 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- 4) ma'naviy qadriyatlar;
- 5) axloqiy qadriyatlar [11].

Jumladan, “Ota-bobolarimiz ilm o‘rgatish bilan birga farzandlari-mizga avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy-ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. ”; “O‘zbeklarning aksariyati... yaqin odamlarning, qo‘shnilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma’naviy qadriyat, inson qalbi-ning gavharidir”; “Iqtisodiy qadriyat – iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag‘rikenglik, ishonchlik kabi fazilatlarining amal qilinishini anglatadigan tushuncha”.

Shu o‘rinda qo‘ni-qo‘shnichilik qadriyatini misol qilib keltirsak, unda qo‘shnilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, xabar olish va moddiy yordam berish milliy qadriyat sifatida birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar hayotiy qadriyatlarning eng muhim omillari sifatida keltirilgan. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an’analarning ustuvorligiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida etuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda. Safo Ochil o‘zining “Mustaqillik va tarbiya masalalari” nomli risolasida “Milliy qadriyatlar ota-bobolardan bizgacha etib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro‘z, urug‘-don ekish va hosil bayramlari, be-shik to‘yi, sunnat to‘yi, o‘g‘il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog‘liq to‘ylar, uy-joy to‘yi, qazo bilan bog‘liq tur-li ma’rakamarosimlar, shuningdek, xalqning har xil an’analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me’yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga etish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o‘z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo‘lish, muloyim va shirinsuxanlik va shu kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi” [11].

Milliy qadriyatlarning asosi bo‘lgan ma’naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovatligi, oliyanobligi, va’dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi.

Ota-ona o‘z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, ularni ma’nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o‘zlari o‘zaro muomala jarayonida namuna bo‘lishlari hamda farzandlarini ko‘proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so‘ngra o‘z fikrlarini axloq me’yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Ta’kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga “mahorat bilan eshitish” bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo‘lish mumkin. Albatta, ijtimoiy hayot davomida oilada ota-ona va bola o‘rtasida turli voqea va hodisalar, tushunmovchiliklar bo‘ladi.

Insonning eng sof tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo‘ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so‘zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar –ezgulik, oliyanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi.

Shunday ekan, oilada nojo‘ya ish qilib qo‘ygan bola yig‘laganda ona yoki ota do‘q urib, “Hoziroq yig‘ini to‘xtat!”, deb qattiq gapirishi yaramaydi. Chunki, bola noto‘g‘ri yoki ayb ish

qilganini o'zi ham anglagan va qo'rqib ketgani-dan yig'lab yuborgan bo'lishi mumkin. Bu holatda ota yoki ona bolani bag'riga bosib, tinchlantirib, unga ehtiyot bo'lish kerakligini aytishining o'zi kifoya. Aksincha, ota-ona o'zidan itarib, uni jazolab, qo'pol muomalada bo'lsa, bola "stress" yoki "shok" holatiga tushib, uning nutqiga, fikrlashiga, eshitish, xulosa chiqarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'r-satishi mumkin.

Ko'p hollarda kechki payt yoki nonushtadan oldin farzandlar ota-onaga murojaat qilganlarida ular bolani oxirigacha tinglamay, "hozir vaqtim yo'q", "shoshib turibman", "xalaqit berma" kabi fikriy ehtiyojini qoniqtirmaydigan javoblar beradilar. Bunday munosabat bolaga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, undagi ijodkorlikni, tashabbuskorlikni so'ndiradi, oila a'zolari bilan maslahatlashish kabi odatlarning susayishiga olib keladi.

XULOSA. Yuqoridagi vaziyatlardan uzoqroq bo'lib, sog'lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan axloqiy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarni bilish, o'rganish va hayotda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda Yusuf Xos Hojibning "Kishi uchun juda kerakli bo'lgan ikki a'zo bor: biri – til, boshqasi – yurak. Til so'z uchun, yurak, ko'ngil esa shu so'zdan lazzatlanishi uchun berilgan", degan fikri ota-onalarni va yoshlarni go'zal, chiroyli so'zlaydigan, ma'naviy barkamol, yuksak odob va ilm egasi bo'lishlarida qo'l keladi.

Talaba-yoshlarning psixik holatini o'zini o'zi idora qilishning psixologik mexanizmlari to'g'risida yuqorida aytib o'tilganlarni umumlashtirib, birinchi bobda quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o'zini o'zi boshqarish - bu ruhiy holatlarni ongli ravishda o'zini o'zi idora qilish tizimining shakllanmaganligi, egiluvchanlikka qodir emasligi bilan namoyon bo'ladigan, psixik holatlarini ataylab o'zgartirish, maqsadida o'zini ongli ravishda ta'sir qilish jarayoni hisoblanadi.

2. Ruhiy holatlarni o'zini o'zi idora qilishning asosiy xususiyatlari bu maqsadga muvofiqlik, yaxlitlik, onglilik, ruhiy holatlarning barqarorligini ta'minlash qobiliyati, psixik holatlarga ta'sir qilishdir.

3. Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish to'rtta asosiy psixologik mexanizmlar darajasida amalga oshiriladi: fiziologik, psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik. Bu psixik hodisalar, ruhiy holatlarning o'zini o'zi idora qilish va o'zgarishini ta'minlaydigan funksional usullardir. Talaba-yoshlarda psixik holatlarning o'zini o'zi idora qilishini shakllantirishning asosiy mexanizmlari fiziologik, relaksatsiya, refleksiv, motivatsion, iroda mexanizmlaridir. Ushbu mexanizmlar o'zaro bog'liq bo'lib, ular birlashtirilganda samaradorligi oshadi. Biz aniqlagan barcha mexanizmlar bilan bog'liq bo'lgan refleksiv mexanizm o'zini o'zi idora qilishning asosiy, umumlashtirilgan mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

4. Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o'zini o'zi boshqarish konsepsiyasiga asoslanib, o'zini o'zi boshqarishning har bir darajasida o'ziga xos asosiy mexanizm funksiyalari mavjud. Fiziologik darajada bu psixik holatni o'zgartirish bilan bog'liq kelajakdagi faoliyat uchun tanani va uning barcha tizimlarini (nafas olish, yurak-qon tomir, mushak, endokrin va boshqalarni) sozlashni ta'minlashga qaratilgan mexanizmdir. Psixofiziologik darajada - relaksatsiya mexanizmi, bu holatni o'zgartirishga qaratilgan neyro-emotsional stressning pasayishi bilan birga, mushaklarning ixtiyoriy bo'shshishi jarayonida psixik holatni optimallashtirish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik darajada irodaviy mexanizm asosiy mexanizm vazifasini bajaradi (psixik holatlarni idora qilish va o'zgartirishga qaratilgan harakatlarning qo'shimcha ma'nosini o'zgartirish va yaratish sifatida). Barcha hosilalar mexanizmlari bilan bog'liq bo'lgan asosiy refleksiv mexanizm (talaba-yoshlarning aqliy harakatlari va holatlarini o'z-o'zini bilishi, ularni qayta ko'rib chiqish va idora qilish, shuningdek, ushbu holatlarni o'zgartirishga qaratilgan aqliy hodisalar majmui sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.: Мысль, 1991.
2. Аверин Ю.П. Люди управляют людьми: модель социологического анализа. М., 1996.

3. Аверин А.Н. Социальное управление: Опыт философского анализа. М., 1984.
4. Авчиренко Л.К. Управление общением М.: ИНФРА-М; Новосибирск: НГАЭиУ, 1999.
5. Агеев В. Г. Межгрупповое взаимодействие: социально-психологические проблемы. М.: 1990.
6. Арлычев А. Н. Саморегуляция, деятельность, сознание. СПб., 1992.
7. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. М.: Наука, 1987.
8. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Л.: Изд-во ЛГУ, 1968.
9. Андреева Г.М. Социальная психология. М.: Изд-во МГУ. 1980.
10. Антипина Г.С. Теоретико-методологические проблемы исследования малых социальных групп. Л., 1982.
11. Babanskiy Yu. K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish , Toshkent. “O‘qituvchi”, 1997 .- 274 b.
12. Бекарев А.М. Свобода человека в социальном пространстве. Нижний Новгород, 1992.
13. Берне Р. Развитие Я-концепции и воспитание. М., 1996.
14. Блейк Р. В., Моутон Д. Научные методы управления. Киев. 1980.
15. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. М., 1978.
16. Бодалев А.А. Психология и личность. М., 1988.
17. Божович Л.И. Этапы формирования личности в онтогенезе. М., 1992
18. Боева Л.П. Человеческий фактор: Новое мышление и действие. М., Знание, 1998.
19. Вебер М. Избранные произведения. М., 1990.
20. Вишневский Ю.Р., Шапко В.Т. Социология молодежи. Н. Тагил, 1995.
21. Воронков С.Г., Иваненков С.П., Кусжанова А.Ж. Социализация молодежи: проблемы и перспективы. Оренбург, 1993.